O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FAKULTETI
PEDAGOGIKA TA’LIMI NAZARIYASI KAFEDRASI

“RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY HOLATI VA ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDA O‘TKAZILGAN XALQARO
ILMIY VA AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI TO‘PLAMI
2024-YIL 27 NOYABR

" СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ”

МЕЖДУНАРОДНЫЙ СБОРНИК НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИХ
МАТЕРИАЛОВ КОНФЕРЕНЦИИ
27 НОЯБРЯ 2024 Г.

" THE CURRENT STATE AND PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF DIGITAL TECHNOLOGIES AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE ”

INTERNATIONAL COLLECTION OF SCIENTIFIC AND PRACTICAL
MATERIALS OF THE CONFERENCE
NOVEMBER 27, 2024

II

JIZZAX - 2024

Mazkur "Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirishning zamonaviy holati va istiqbollari" mavzusidagi konferensiya O‘zbekistonda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ularni jamiyat rivojiga yo‘naltirishga qaratilgan dolzarb masalalarni muhokama qilish uchun muhim platforma bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt global miqyosda yangi innovatsiyalarning asosiy manbai sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekistonda ushbu sohalarga katta e’tibor qaratilmoqda, chunki ular mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, davlat boshqaruvini raqamlashtirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash sifatini oshirish kabi yo‘nalishlarda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur konferensiyada raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning O‘zbekiston taraqqiyotidagi roli, ularning milliy iqtisodiyot va jamiyatni rivojlantirishdagi ta’siri hamda istiqbollari tahlil qilinadi. Konferensiya doirasida xalqaro tajriba, ilmiy tadqiqotlar natijalari va innovatsion yechimlar muhokama qilinadi. Ushbu tadbirning asosiy maqsadi - raqamli transformatsiya jarayonlarini tezlashtirish, "Yangi O‘zbekiston" konsepsiyasini amalga oshirishga qaratilgan yangi g‘oya va yondashuvlarni ilgari surishdir. Konferensiya ishtirokchilari ilmiy fikrlar almashish orqali mamlakat rivojiga hissa qo‘shadigan yangi loyihalarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Tahrir hay’ati:

Raxmatova Feruza Abulqosimovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Rasulova Dulrabo Raxmatullayevna
JDPU Pedagogika ta’limi nazariyasi kafedrasi
katta o‘qituvchi

`

Taqrizchilar:

To‘raqulova Iroda Xolbo‘tayevna
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent,

Primov Sherzod Quvondiqovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Sadriddinova Feruza Meliyevna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Zarmasov Sherzod Raximberdiyech
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

4-SHO‘BA: RAQAMLI O'YINLAR, SIMULYATSIYALAR VA INTERAKTIV TA'LIM DASTURLARI ORQALI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI RAVON NUTQQA O‘RGATISH USULLARI

Abduvosiyeva Mahmuda Xamidullo Qizi
University of Business and Science nodavlat oliy ta’lim muassasasi
Maktabgacha – Boshlang‘ich ta’lim va Jismoniy tarbiya kafedrasi o‘qituvchisi
abduvosiyeva96@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ravon nutqni rivojlantirishning samarali usullari tahlil qilinadi. Maqolada nutq rivojlanishining ahamiyati, bolalarning til qobiliyatini oshirishda o‘yin va kreativ faoliyatning roli, shuningdek, interaktiv usullar va ko‘rgazmali materiallar orqali ta’lim berish jarayoni ko‘rib chiqiladi. O‘qituvchilarga tavsiyalar berilib, muvaffaqiyatli tajribalar misollari keltiriladi. Maqola bolalar nutqini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlarni qamrab oladi va ularning psixologik, ijtimoiy va madaniy jihatlarini hisobga oladi.

Kalit so‘zlar: Ravon nutq, maktabgacha ta’lim, ta’lim usullari, bolalar bilan ishlash, nutqni rivojlantirish, o‘yin orqali o‘qitish, tinglash va tushunish, dialog va munozara, nutqiy faoliyat, muloqot qobiliyatlari, mustaqil fikr yuritish, kreativ yondashuv, emotsional rivojlanish, dastlabki ta’lim, ta’lim muhitining ahamiyati.

Abstract. This article analyzes effective methods of developing fluent speech in preschool educational organizations. The article considers the importance of speech development, the role of play and creative activities in improving children's language skills, as well as the process of teaching through interactive methods and visual materials. Recommendations are given to teachers and examples of successful experiences are given. The article covers modern approaches to the development of children's speech and takes into account their psychological, social and cultural aspects.

Keywords: Fluent speech, preschool education, educational methods, working with children, speech development, teaching through games, listening and understanding, dialogue and discussion, speech activity, communication skills, independent thinking, creative approach, emotional development, early education, importance of educational environment.

Аннотация. В данной статье анализируются эффективные методы развития беглой речи в дошкольных образовательных организациях. В статье рассматривается значение развития речи, роль игры и творческой деятельности в совершенствовании языковых навыков детей, а также процесс обучения с помощью интерактивных методов и наглядных материалов. Даны рекомендации учителям и приведены примеры успешного опыта. В статье рассматриваются современные подходы к развитию речи детей и учитываются их психологические, социальные и культурные аспекты.

Ключевые слова: Беглая речь, дошкольное образование, методы обучения, работа с детьми, развитие речи, обучение через игры, аудирование и понимание, диалог и дискуссия, речевая деятельность, коммуникативные навыки, самостоятельное мышление, творческий подход, эмоциональное развитие, раннее обучение, важность образовательная среда.

Ravon nutq – bu kishilarning o‘zaro muloqotini va bir-birlarini tushunishlarini bevosita ta’minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikrlar majmuasidir. Ravon nutqni fikrlar dunyosidan umuman ajratib bo‘lmaydi. Ravon nutq deganda biz fikrlar ravonligini tushunishimiz mumkin. Ravon nutqda bolaning mantiqiy fikrlashi, eshitayotgan so‘zlari yoki gaplarini to‘g‘ri qabul qila olishi, mulohaza qilishi, va ularni to‘g‘ri ifodalay olish qobiliyati aks etadi. Ravon nutqni shakllantirish, uning funksiyalarini o‘zgartirish murakkablashib borayotgan bola faoliyati natijasi bo‘lib u bolaning atrofdagilari bilan muloqotga kirishish sharoiti, muloqot shakliga bog‘liq bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim-tarbiya yoshida bola muloqot va ta’lim jarayonida shakllanib boradi. Ravon nutqning shakllanishi va rivojlanishi ilk yoshdan boshlab sekin-asta ro‘y bera boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning dastlabki yetti yilida atrofdagi kishilar bilan muloqot vositasi sifatida nutqning paydo bo‘lishi va uni rivojlantirish jarayoniga alohida e’tibor qaratish lozim. Har bitta inson hayotida ravon nutq muhim ahamiyatga ega. Ravon nutq uchta asosiy vazifa bajaradi. Bular: individuallararo, ichki individual va umuminsoniy.

Til har bir millatning juda ham noyob hazinasi bo‘lib doimo og‘zaki va yozma holda namoyon bo‘ladi. Boy, yorqin, ravon va maroqli nutq so‘zlayotga inson kim bo‘lishidan qat’iy nazar eshituvchiga kuchli ta’sir qiladi. Tilning oliyjanob imkoniyatlari ravon nutq orqali muloqot jarayonida ochiq ko‘rsatib beriladi. Aksincha nutq bo‘lmas ekan tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolaveradi. So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy bobomiz ham tilni nutqning quroli ekanligini, agar nutq noma’qul bo‘lsa u holda u faqat tilning manfaati uchun hizmat qilishini bot-bot takrorlaganlar.

Bundan shunday hulosa chiqarishimiz mumkinki, til qanchalik zo‘r bo‘lmasin, u faqat nutq uchun qurol sifatida xizmat qilar ekan. Tilning barcha kuch-qudrati faqatgina nutq jarayonida aniq namoyon bo‘lar ekan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni ravon nutqqa o‘rgatish turli hil usullar yordamida malga oshiriladi. Bulardan biri erkin nutqiy muloqotda bo‘lsa ikkinchisi maxsus mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi. Kishilar o‘rtasidagi dialog ko‘proq erkin nutqiy muloqotda namoyon bo‘ladi. Erkin nutqiy muloqot tarbiyalanuvchilar lug‘atini boyitishning, talaffuzga oid grammatik ko‘nikmalarni tabiiy ravishda rivojlantirish bazasi hamda ravon nutq ko‘nikmalariga ega bo‘lish bazasi hisoblanar ekan. Dialog maxsus mashg‘ulotlarda o‘qitiladi. Tashkilotda tarbiyalanuvchi erkin muloqotda tarbiyachi va boshqa bolalar bilan o‘zaro muloqotga kirishadi. Uyda esa yaqinlari bilan o‘zaro muloqotga kirishishlari lozim. Tarbiyalanuvchilarga dialogik nutqni o‘rgatish odatda suhbat shaklida, ya’ni kattalar bilan bola o‘rtasida hamda bolalarning o‘zlari o‘rtasida o‘zaro fikr almashish shaklida ro‘y beradi. Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg‘ulotlar suhbat metodi va imitatsiya metodi asosida o‘tkaziladi.

Ravon nutq, bolalar uchun muhim kommunikativ ko‘nikmalardan biridir. Ularning o‘z fikrlarini ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish va o‘zaro muloqotda erkin bo‘lishlarini ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Bolalarni ravon nutqqa o‘rgatishda birinchi galda ularni muloqotga kirishishga rag‘batlantirish lozim. Bolajonlar bilan ko‘p muloqot qilish, ularni o‘z fikrlarini ifoda etishga undash zarur. Ular bilan turli mavzularda suhbatlar o‘tkazish, savollar berish va javoblar olish orqali bolalarning nutq qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Muloqot jarayonida bolalarning fikrlarini qadrlash va ularga e’tibor berish muhim ahamiyatga ega. Tarbiyalanuvchilar bilan birgalikda kitob o‘qish, ularga yangi so‘zlar va iboralar bilan tanishish imkonini beradi. Har kuni ular bilan birgalikda kitob o‘qish, ularni hikoyalarni muhokama qilishga o‘rgatish va undash, nutqni rivojlantirishga yordam beradi. Har kuni bir necha daqiqa kitob o‘qish tavsiya etiladi. Shuningdek tasviriy faoliyat, tasviriy san’at va hikoya o‘qish orqali tasavvurlarini kengaytirish mumkin. Bulardan tashqari bolalar uchun qo‘shiqlar va raqslar orqali o‘rganish jarayoni ham qiziqarli va samarali bo‘lishi mumkin. Qo‘shiqlar orqali bolalar yangi so‘zlar, takrorlanuvchi iboralar va ritmni ham o‘zlashtiradilar. Bu esa ular nutqining ravonligini oshiradi.

Syujetli-rolli o‘yinlar ham bolalarga turli ijtimoiy vaziyatlarda qanday muloqot qilishni o‘rganishga yordam beradi. Bolajonlar o‘zlarini turli rollarda namoyon etib, nutqiy ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llashadi. Ushbu o‘yinlar orqali ularga boshqalar bilan muloqot qilishni o‘rgatish mumkin. Agar bolalarda nutq rivojlanishi bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lsa, mutaxassislar bilan ishlash tavsiya etiladi. Nutq terapevtlari, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularni ravon nutqqa o‘rganishda qo‘llab-quvvatlashlari mumkin. Yana bulardan tashqari zamonaviy texnologiyalar ham bolajonlar nutqini rivojlantirishda yordam berishi mumkin. Nutqiy o‘yinlar, interaktiv dasturlar va video materiallar bolalarning qiziqishini oshirib, o‘rganish

jarayonini osonlashtiradi. Bolalarni ravon nutqqa o‘rgatish uchun bir nechta samarali usullar mavjud. Masalan bulardan biri o‘qish va tinglash hisoblanadi. .

Bolajonlar ravon nutqi - bu bolalarning o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini va ehtiyojlarini ifoda etish qobiliyatidir. Ushbu nutqning rivojlanishi bir necha bosqichlarda amalga oshadi.

Birinchi bosqich (0 – 1 yosh): Bolalar ovoz chiqarishni o‘rganadilar, turli tovushlar va tovush birikmalarini hosil qiladilar. Bu davrda ularning nutqi aslida “vokalizatsiya” deb ataladi.

Ikkinchi bosqich: (1-2 yosh): Bolalar birinchi so‘zlarni aytishni boshlaydilar. Ushbu davrda ularning so‘z boyligi tez o‘sadi va ular oddiy so‘zlar bilan fikrlarini ifoda etishni o‘rganadilar.

Uchinchi bosqich: (2-3 yosh): Bolalar ko‘proq so‘zlar bilan bog‘langan jumlalarni qurishni o‘rganadilar. Ular 2-3 so‘zdan iborat oddiy jumlalarni aytishadi.

To‘rtinchi bosqich (3-5yosh): Nutq ancha rivojlanadi, bolalar uzun va murakkab jumlalar qurish qobiliyatlarini egallaydi. Ularning so‘z boyligi kengayadi va nutq yanada tushunarli bo‘ladi.

Beshinchi bosqich (5 yosh va undan keyin): Bolalar muloqot qilishda yanada mahoratli bo‘lib, o‘z fikrlarini aniq va ravon ifoda eta boshlaydilar. Ular turli mavzularda fikr almashish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ravon nutqqa o‘rgatish metodikasi, bolalarga to‘g‘ri va ravon nutqni rivojlantirishga qaratilgan turli usullar va texnikalardan iborat. Quyidagi asosiy jihatlar e’tiborga olinishi kerak:

1. Ovoz va talaffuzni rivojlantirish. Bolalarga harflar va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatish. Buning uchun maxsus o‘yinlar va mashqlar o‘tkaziladi.

2. Muloqot o‘rnatish. Bolalarni bir-biri bilan muloqot qilishga, savollar berishga va javob berishga rag‘batlantirish. Guruhli faoliyatlar va muhokamalar bu jarayonni qo‘llab-quvvatlaydi.

3. Fikrni ifoda etish. Bolalarga o‘z fikrlarini, hissiyotlarini va g‘oyalarini ravon bayon etishni o‘rgatish. Bu uchun hikoyalar, she’rlar yoki qiziqarli mavzularda suhbatlar o‘tkazish mumkin.

4. Ijtimoiy va hissiy rivojlanish. Bolalarga ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish, empatiya va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, bu esa nutqni yanada ravonroq qilishga yordam beradi. Bu metodikalar yordamida bolalar o‘z nutqini yanada rivojlantirishi va samarali muloqot qilishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki bolalarni ravon nutqqa o‘rgatish – bu davomli va qiziqarli jarayon. Har bir bola individual xususiyatlarga ega, shuning uchun har xil usullarni sinab ko‘rish va eng samarali usullarni tanlash muhimdir. Muloqot, o‘qish, o‘yinlar va texnologiyalar yordamida bolalarni nutq rivojlantirishda qo‘llab-quvvatlash, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Asqarova M. va boshqalar Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish. —T., 2001. 2. Abduazimov O. Multimedia - noyob ne’mat. //«Xalq so‘zi» gazetasi, 2002, 28-fevral.

3. Begmatova N. X., Aripov M. Multimediya texnologiyasidan foydalanish. -T., 2012.

3. Bekmatova O. A. va boshqalar «Quvnoq harflar». -T.: « 0‘qituvchi», 2000.

4. Vaxobova F. N., Rasulova M. Sh. va boshqalar «Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari». -T., 2008.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA'LIM JARAYONINI MASOFAVIY FORMATGA O‘TKAZISHNING SAMARADORLIGI

Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li

Shahrisabz davlat pedagogika instiuti

Informatika va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri PhD

Negmatova Nilufar Ergash qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Makroiqtisodiyot mutaxassisligi 1-bosqich talabasi

Negmatova Sevinch Ergash qizi

TATU Qarshi filiali Raqamli iqtisodiyot yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini masofaviy formatga o‘tkazish, zamonaviy ta'lim tizimining muhim jihatlaridan biridir. Ushbu maqolada onlayn o‘quv platformalarining roli, ularning samaradorligi va ta'lim jarayoniga ta'siri ko‘rib chiqiladi. Masofaviy ta'lim, o‘quvchilarga o‘z vaqtida va joyida ta'lim olish imkonini berib, o‘qitish jarayonini yanada qulay va samarali qiladi. Onlayn platformalar, o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlash, shuningdek, ta'lim resurslariga kirishni osonlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada masofaviy ta'limning afzalliklari, qiyinchiliklari va kelajakdagi istiqbollari haqida ham fikrlar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: Raqamli texnologiyalar, Masofaviy ta'lim, Onlayn o‘quv platformalari, Ta'lim jarayoni, O‘qituvchilar, O‘quvchilar, Interaktiv ta'lim, Ta'lim resurslari, Samaradorlik, Innovatsiyalar.

Zamonaviy texnologik rivojlanish har bir sohada inqilobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarib, ta'lim tizimini ham yangi bosqichga olib chiqmoqda. Raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi ta'lim jarayonini yanada samarali, interaktiv va

qulay qilish imkoniyatini yaratadi. Xususan, masofaviy ta'lim formatlari global miqyosda keng qo‘llanila boshladi va ayniqsa COVID-19 pandemiyasi davrida ularning ahamiyati yanada ortdi. Bu holat ta'lim muassasalari uchun yangi imkoniyatlar va qiyinchiliklarni keltirib chiqardi.

Masofaviy ta'limning samaradorligi raqamli texnologiyalarga bog‘liq bo‘lib, ularning to‘g‘ri va maqsadga muvofiq qo‘llanilishi ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli o‘quv platformalari, virtual sinflar, onlayn kurslar va interaktiv ta'lim dasturlari o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlash, bilimlarni yanada chuqurroq o‘zlashtirish va individual yondashuvni ta'minlashda katta imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, masofaviy ta'lim formatlari geografik cheklovlarni bartaraf etish, qishloq joylaridagi va chekka hududlardagi o‘quvchilar uchun ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, hamda iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, bu jarayonning samaradorligi bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib, ularga texnologik infrastrukturani rivojlantirish, o‘qituvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish, o‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshirish va ta'lim kontentini moslashtirish kiradi. Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini masofaviy formatga o‘tkazishning samaradorligini baholash, uning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlash hamda samarali integratsiya qilish yo‘llarini taklif etishdan iborat.

Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini masofaviy formatga o‘tkazish borasida o‘tkazilgan tadqiqotlar va ularning tahlili ta’lim jarayonidagi o‘zgarishlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Quyida xorijiy va mahalliy olimlarning ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning ahamiyatiga oid ba’zi tadqiqotlari ko‘rib chiqiladi.

Michael Fullan va Maria Langworthy kabi olimlar raqamli o‘quv vositalarini ta’limga joriy etish orqali “chuqur o‘qitish” (deep learning) ni rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rgangan. Ularning tadqiqotlarida masofaviy ta’limning ijobiy ta’siri, ya’ni o‘quvchilarning mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish va shaxsiylashtirilgan ta’lim imkoniyatlari keng muhokama qilingan.

Janna Anderson va Lee Rainie tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar, ayniqsa, pandemiya davrida masofaviy ta’limning afzalliklari va cheklovlarini tahlil qiladi. Ular raqamli texnologiyalarning ta’lim sifatini oshirishdagi rolini baholash barobarida, ta’lim jarayonidagi texnologik notekisliklar va o‘quvchilar orasidagi texnologik tengsizlik masalalarini ham ko‘rsatib o‘tgan.

Uzbekistan Research & Education Network Association (UREN) va boshqa mahalliy tadqiqotchilar tomonidan O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etishning o‘ziga xosliklari o‘rganilgan. Bu tadqiqotlar O‘zbekistondagi texnologik infrastrukturani rivojlantirish, o‘quv dasturlarini yangilash, va o‘qituvchilarni zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga tayyorlash zarurligini ta’kidlaydi.

Anatoli Rudenko va Sergey Ilin kabi rus olimlari ham raqamli texnologiyalar va masofaviy ta’limning samaradorligini oshirish borasida tadqiqotlar o‘tkazib, bu jarayonlarda ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning qiziqishini orttirish va o‘qitish usullarini takomillashtirish usullarini o‘rganishgan.

John Hattie va Gregor E. Kennedy tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar masofaviy ta’limning o‘quvchilarning bilim olish samaradorligiga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ularning ishlari raqamli o‘quv platformalari orqali o‘quvchilarga erkin ta’lim olish imkoniyatini berish va bilim olishda individual yondashuvning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Ushbu tahlil asosida shuni ta’kidlash mumkinki raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini masofaviy formatga o‘tkazish nafaqat pandemiya davrida zarur bo‘lib qoldi, balki kelajakda ham innovatsion ta'limning ajralmas qismi bo‘lib qoladi. Mazkur adabiyotlarning chuqur tahlili orqali masofaviy ta’limning samaradorligini oshirish, texnologik qiyinchiliklarni yengib o‘tish va raqamli ta’limning iqtisodiy jihatlarini kengroq o‘rganish masalalari yana-da ko‘proq ahamiyat kasb etadi.

Eksperimental metod yordamida raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonida samaradorligini o‘rganish uchun eksperimental metoddan foydalanish mumkin. Masofaviy ta’limda o‘quvchilarga raqamli vositalar orqali ma’lumotlar taqdim etilib, ularning bilim darajasi va o‘rganish samaradorligi o‘lchanadi. Eksperimentlar bir nechta guruhlar bilan o‘tkazilishi mumkin, shu jumladan, an’anaviy ta’lim va masofaviy ta’limning o‘zaro taqqoslanishi. So‘rovnoma va anketalar metodi yordamida esa ta’lim jarayonidagi o‘qituvchilar, talabalar va boshqalar orasida so‘rovnomalar o‘tkazish orqali ma’lumotlar to‘plash. Ushbu metod orqali raqamli texnologiyalarni qanday foydalanishlari, masofaviy ta’limni qanday qabul qilishlari va bu jarayonlarning samaradorligi haqida fikrlar yig‘ilishi mumkin. Bu metodda ta’lim jarayonining turli parametrlarini o‘lchash (masalan, o‘quvchilarning bilim ko‘rsatkichlari, texnologik resurslardan foydalanish darajasi) va ularni statistik usullar bilan tahlil qilish kerak. Masofaviy ta’lim platformalarining samaradorligini aniqlashda, o‘quvchilarning ishtiroki va natijalariga asoslangan statistik tahlil qilish mumkin. Tadqiqotchilar masofaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning tajribalarini, qarashlarini va o‘rganish usullarini batafsil o‘rganishadi. Intervyular va guruh muhokamalari yordamida foydalanuvchilarning shaxsiy fikrlari to‘planadi, bu esa masofaviy ta’lim tizimining rivojlanishiga ta’sir qiladigan muhim omillarni aniqlashda yordam beradi. Masofaviy ta’lim platformalari yordamida o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini simulyatsiya qilish. Bu metod, o‘quvchilarning ma’lumotlarni qanday qabul qilishini, tushunishini va keyinchalik amaliyotga tatbiq etishlarini o‘rganishga imkon beradi. Bu metodlar orqali

masofaviy ta’lim jarayonini o‘rganish va uning samaradorligini baholash mumkin. Har bir metod turli tadqiqot savollariga javob berishga qaratilgan va birgalikda umumiy tasavvur hosil qiladi.

Tadqiqot natijalari ta'lim tizimida raqamli transformatsiyani amalga oshirishda qabul qilinadigan strategiyalarni shakllantirishga, o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun qulay sharoitlar yaratishga va umumiy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu kontekstda, tadqiqotning dolzarbligi raqamli texnologiyalarni ta'limga joriy etish orqali masofaviy ta'limning samaradorligini oshirish va bu jarayonda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqishdir. Shuningdek, bu tadqiqot ta'lim sohasidagi innovatsiyalarni o‘rganish va ularni amaliyotga tadbiq etishda istiqbolli yo‘nalishlarni belgilashga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini masofaviy formatga o‘tkazishning ahamiyati, imkoniyatlari va dolzarbligi yoritilgan. Keyingi bo‘limlarda bu mavzuning ilmiy asoslari, tadqiqot metodologiyasi va amaliy natijalari batafsil tahlil qilinadi.

Raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga ta'sir ko‘rsatmoqda, jumladan ta'lim sohasida ham. Masofaviy ta'lim, o‘qitish jarayonini yangi formatga o‘tkazish imkonini beradi va bu jarayonda onlayn o‘quv platformalarining roli juda muhimdir. Ushbu maqolada masofaviy ta'limning afzalliklari, qiyinchiliklari va onlayn platformalarning samaradorligi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Masofaviy ta'lim o‘quvchilarga darslarni o‘z vaqtida va joyida o‘tkazish imkoniyatini beradi. Bu, ayniqsa, ish yoki boshqa majburiyatlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun juda qulaydir.

Onlayn platformalar orqali o‘quvchilar keng ko‘lamdagi ta'lim resurslariga, jumladan video darslar, elektron kitoblar va interaktiv materiallarga kirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Masofaviy ta'lim platformalari o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlashga yordam beradi. O‘qituvchilar o‘quvchilarning savollariga tezda javob berishlari va ularni qo‘llab-quvvatlashlari mumkin. Masofaviy ta'limda innovatsion yondashuvlar, masalan, gamifikatsiya va interaktiv darslar, o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va ta'lim jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Onlayn o‘quv platformalari masofaviy ta'lim jarayonining asosiy komponentlaridan biridir. Ular quyidagi funktsiyalarni bajaradi. Onlayn platformalar o‘qituvchilarga darslarni tayyorlash va o‘quvchilarga taqdim etish uchun zarur bo‘lgan resurslarni taqdim etadi. O‘qituvchilar o‘quvchilarning muvaffaqiyatini baholash va ularning o‘qish jarayonini kuzatish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Onlayn platformalar orqali o‘quvchilar bir-birlari bilan muloqot qilish, guruh ishlari o‘tkazish va o‘zaro tajriba almashish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. O‘quvchilar o‘z vaqtida va o‘z sur'atida o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu ularning o‘z-o‘zini o‘qitish qobiliyatini rivojlantiradi.

Masofaviy ta'limning afzalliklariga qaramay, bir qator qiyinchiliklar ham mavjud:

Texnik muammolar. Internet aloqasi yoki texnik vositalar bilan bog‘liq muammolar o‘quvchilarning ta'lim jarayonini to‘xtatishi mumkin. Masofaviy ta'limda o‘quvchilar o‘z-o‘zini motivatsiya qilishlari zarur, bu esa ba'zi o‘quvchilar uchun qiyin bo‘lishi mumkin. Masofaviy ta'limda ijtimoiy aloqalar cheklangan bo‘lishi mumkin, bu esa o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

Masofaviy ta’limni raqamli texnologiyalar yordamida o‘tkazishning samaradorligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar quyidagi asosiy natijalarga olib keldi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta'lim raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishga yordam beradi. Masofaviy platformalar o‘quvchilarga har doim va har joyda ta’lim olish imkoniyatini taqdim etganligi sababli, ularning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Biroq, ba'zi o‘quvchilar uchun masofaviy ta’lim formatining o‘ziga xos cheklovlari mavjud, masalan, texnologik vositalarga cheklangan kirish yoki o‘quv resurslarining notekisligi. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtirokini sezilarli darajada oshiradi. Interaktiv ta'lim metodlari, masalan, forumlar, vebinarlar, va virtual sinflar orqali o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar yaxshilanadi. Bu esa o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ta'limni yanada samarali qiladi. Biroq, ba’zi talabalar uchun texnologik o‘qituvchilarga nisbatan ko‘proq ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatgan.

O‘qituvchilarning raqamli texnologiyalarga o‘tishi ko‘plab afzalliklarga olib keladi, chunki ular o‘quvchilarga onlayn platformalar orqali individual yondashuvni taqdim etishlari mumkin. Shuningdek, masofaviy ta'limda o‘qituvchilar uchun resurslar va metodik materiallarning keng doirasi mavjud bo‘lib, bu o‘qitish jarayonini yanada qulayroq va samaraliroq qiladi. Biroq, tadqiqotlarda masofaviy ta’limda texnologik muammolarni bartaraf etish muhimligini ko‘rsatadi. Bu muammolar o‘quvchilarning ta’lim samaradorligini pasaytirishi mumkin. Misol uchun, internet tezligi yoki platformalarning ishlashida yuzaga keladigan nosozliklar o‘quvchilarning ishtirok etishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat o‘quvchilarning texnologiyalarga kirish imkoniyatlari teng bo‘lmagan hududlarda yanada kuchayadi.

Masofaviy ta'limni raqamli texnologiyalar yordamida o‘tkazishning samaradorligi bo‘yicha olingan natijalar ko‘plab ijobiy tendensiyalarni ko‘rsatmoqda. Ammo, masofaviy ta’limda texnologik va psixologik omillarni hisobga olish zarur. O‘quvchilarni raqamli ta’limga jalb qilish va ular uchun qulay sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, raqamli infratuzilma va texnologiyalarni takomillashtirishga doir yangi strategiyalarni ishlab chiqish zarur.

Bu borada, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashish va ta’lim resurslarining barqarorligini ta'minlashga alohida e’tibor qaratish kerak. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta’limning samaradorligini oshirish uchun innovatsion

va interaktiv yondashuvlar, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradigan strategiyalar, shuningdek, texnologik resurslarning uzluksiz ishlashini ta'minlash zarur.

Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini masofaviy formatga o‘tkazish, ta'limning sifatini oshirish va o‘quvchilarga keng imkoniyatlar yaratishda muhim ahamiyatga ega. Onlayn o‘quv platformalari o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlash, ta'lim resurslariga kirishni osonlashtirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, masofaviy ta'limning qiyinchiliklarini bartaraf etish va o‘quvchilarning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligi zarur. Kelajakda masofaviy ta'lim yanada rivojlanishi va o‘qitish jarayonini yanada samarali qilish imkoniyatlarini taqdim etishi kutilmoqda.

Masofaviy ta'limni raqamli texnologiyalar yordamida o‘tkazish o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishga katta yordam beradi. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini yanada interaktiv va samarali qilish imkonini beradi. O‘quvchilarning ishtirokini va motivatsiyasini oshirishda masofaviy platformalar, vebinarlar va onlayn kurslar muhim rol o‘ynaydi. Biroq, texnologiyalarga teng kirish imkoniyatlari, internet tezligi va platformalarning ishlashida yuzaga keladigan nosozliklar ba'zi mintaqalarda o‘quvchilarning ta'lim samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Texnologik infratuzilmani rivojlantirish orqali raqamli ta'limni yanada samarali qilish uchun, avvalo, texnologik infratuzilmani takomillashtirish zarur. Internet tezligi va platformalarning ishlashini yaxshilash, ayniqsa chekka hududlarda, masofaviy ta’lim samaradorligini oshiradi.

O‘quvchilarga moslashish. O‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'limning shaxsiylashtirilgan yondashuvlarini ishlab chiqish muhim. Har bir o‘quvchiga mos formatda materiallar va metodlarni taklif qilish, ularning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

O‘qituvchilarni tayyorlash. O‘qituvchilarni masofaviy ta'lim texnologiyalari bilan samarali ishlashga tayyorlash uchun muntazam treninglar o‘tkazish zarur. Bu ularning yangi texnologiyalarni qo‘llashda ko‘nikmalarini oshiradi va o‘quvchilarga sifatli ta'lim berishni ta'minlaydi.

Innovatsion ta'lim usullarini joriy etish. Masofaviy ta'limda interaktiv va innovatsion metodlarni qo‘llash, masalan, o‘quvchilarni ta'lim jarayoniga yanada faol jalb etish, o‘quvchilarning o‘zaro aloqalarini mustahkamlash va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish kerak.

Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash. Masofaviy ta'limning samaradorligini oshirish uchun davlatning qo‘llab-quvvatlashi muhim. Raqamli ta’limni rivojlantirishga doir maxsus dasturlar ishlab chiqish, moliyaviy yordam ko‘rsatish va o‘quv resurslarini kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qodirov, F. "OPTIMIZATION OF TELECOMMUNICATIONS POWER SUPPLY SYSTEMS BASED ON RELIABILITY CRITERIA. " Science and innovation 2. A12 (2023): 15-20.

2. Farrux Qodirov. Aholiga tibbiy xizmatlar ko‘rsatishning rivojlanishini iqtisodiy-matematik modellashtirish. Scienceweb academic papers collection . 2023/1/1.

3. Farrux Qodirov. Zamonaviy to‘lov tizimlari tahlili va elektron pul birliklari. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1.

4. Farrux Qodirov. Zamonaviy trenajyor va simulyatsiya qiluvchi dasturlarning hozirgi kundagi ahamiyati. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1

5. Farrux Qodirov. BUSINESS INNOVATION MODEL OF INCOME AND COSTS FROM THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1

6. Farrux Qodirov. ECONOMIC-MATHEMATICAL MODELING OF THE DEVELOPMENT OF THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1

7. Farrux Qodirov. THE PLACE OF ECONOMETRICAL MODELING OF HEALTHCARE QUALITY IMPROVEMENT IN THE DIGITAL ECONOMY. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1

8. Farrux Qodirov. DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL SYSTEM OF MANAGEMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1

9. Ergash o‘g‘li, Qodirov Farrux. "CREATION OF ELECTRONIC MEDICAL BASE WITH THE HELP OF SOFTWARE PACKAGES FOR MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS. " Conferencea (2022): 128-130.

10. Ergash o‘g‘li, Qodirov Farrux. "IMPORTANCE OF KASH-HEALTH WEB PORTAL IN THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS. " Conferencea (2022): 80-83.

11. Qodirov, Farrux. "THE ROLE OF ICT IN THE DEVELOPMENT OF HEALTH SERVICES. " RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHDA MA’LUMOTLARNI HIMOYALASH

MUAMMOLARI VA YECHIMLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MA’RUZALAR TO‘PLAMI (2022).

12. Фаррух Қодиров. Аҳолига хизмат кўрсатиш соҳасининг моделлаштиришни тизимли имитация қилиш. Biznes-Эксперт. Том 173. Номер №5. Страницы 102-106. Дата публикации 2022.

13. Farrux, Qodirov. "Foreign experience in the development of medical services to the population. " Хоразм Маъмун академияси (2022).

14. ҚОДИРОВ, Фаррух. "АҲОЛИГА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ХИЗМАТЛАРИ КЎРСАТИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШИ ТАҲЛИЛИ. " AGRO ILM (2022).

15. Qodirov, Farrux. "VEKTOR VA SKALYAR MAYDONLAR. GRADIYENT VA YO‘NALISH BO‘YICHA HOSILA. DIVERGENSIYA VA ROTOR. SATH CHIZIQLARI. GRADIYENT MAYDONLAR. OQIMLAR. " Analytical Journal of Education and Development (2022).

16. Qodirov, Farrux. "FURYE QATORI FUNKSIYALARNI FURYE QATORIGA YOYISH. " МАТЕМАТИК ФИЗИКА ВА МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами (2021).

ILG‘OR XORIJIY TEXNOLOGIYALAR HAMDA XALQARO BAXOLASH TIZIMLARI ASOSIDA TA'LIMDA SAMARADORLIKGA ERISHISH

Turdiboyev Sanjar Sobirjon o‘g‘li

JDPU, Matematika va informatika fakulteti, katta o‘qituvchisi

sanjarturdiboyev3@gmail. com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilg‘or xorijiy texnologiyalar va xalqaro baholash tajribalari asosida ta'limda samaradorlikka erishish yo‘llari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari kabi ilg‘or yondashuvlarning qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Xalqaro baholash dasturlari, jumladan PISA, TIMSS va PIRLS natijalari asosida mamlakatlar ta'lim tizimlarining samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlarni tahlil qilish va xalqaro tajribalarning natijalarini o‘rganish usullari qo‘llaniladi. Shu bilan birga ta'lim jarayonlarini yangilash va samaradorligini oshirishda ilg‘or texnologiyalar va xalqaro baholash tizimlarining ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: globalizatsiya, raqamli ta'lim platformalari, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari, sun'iy intellekt, o‘quv analitikasi, individuallashtirish, real muhit.

Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimi jamiyatning barqaror rivojlanishi va kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Globalizatsiya va texnologik taraqqiyot natijasida ta'lim tizimini zamonaviylashtirish zarurati paydo bo‘ldi. Ilg‘or xorijiy texnologiyalar va xalqaro baholash tajribalari ta'lim jarayonlarini yangilash va samaradorlikni oshirish uchun muhim vositalardir.

Ilg‘or texnologiyalar va xalqaro baholash tajribalari haqida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. Masalan, Bates (2019) raqamli texnologiyalarni ta'limda qo‘llashning afzalliklarini ko‘rsatib berdi. PISA (Programme for International Student Assessment) tadqiqotlari ta'lim tizimlarining samaradorligini baholashda xalqaro mezonlarni taqdim etadi (OECD, 2018). Bu tadqiqotlar o‘quvchilarning bilim darajasi va ta'lim tizimining sifatini o‘lchashga yordam beradi.

Ilg‘or xorijiy texnologiyalar orasida raqamli ta'lim platformalari, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari (VR/AR), sun'iy intellekt (AI) va o‘quv analitikasi ajralib turadi. Raqamli platformalar, masalan, Coursera va EdX, o‘quvchilarga qulay va interaktiv ta'lim jarayonini taqdim etadi. VR/AR texnologiyalari o‘quvchilarni haqiqiy hayot sharoitlariga yaqinlashtiradi va o‘rganish jarayonini qiziqarli qiladi. Quyidagi rasm raqamli ta'lim platformalarining bir misolini ko‘rsatadi.

Xalqaro baholash dasturlari, jumladan PISA, TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) va PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study), ta'lim tizimlarining samaradorligini baholashda muhim rol o‘ynaydi. Quyidagi jadvalda PISA tadqiqotlarining ba'zi natijalari keltirilgan.

Mamlakat	Matematikadan o`rtacha ball	O`qishdan o`rtacha ball	Fanlardan o`rtacha ball
Singapur	569	535	551
Yaponiya	527	504	529
Estoniya	523	500	528
Kanada	516	507	515
Finlandiya	511	520	522

Adabiyotlar tahlili va xalqaro baholash tajribalari ko‘rsatadiki, ilg‘or xorijiy texnologiyalar va xalqaro baholash tizimlari ta'lim samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini

oshiradi. Xalqaro baholash tizimlari esa ta'lim sifatini baholash va rivojlantirish uchun asosiy mezonlarni taqdim etadi.

Ilg‘or xorijiy texnologiyalar va xalqaro baholash tajribalari asosida ta'limda samaradorlikka erishish mumkinligi ushbu maqola orqali o‘rganildi. Tadqiqotlar va tahlillar ko‘rsatadiki, raqamli ta'lim platformalari, sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari ta'lim jarayonini tubdan o‘zgartirib, uni samarali va interaktiv qiladi. Xalqaro baholash tizimlari esa ta'lim sifatini baholash va uni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Asosiy natijalar quyidagilarni ko‘rsatdi:

1. Raqamli texnologiyalar: Raqamli ta'lim platformalari ta'lim jarayonini individuallashtirish va o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Bu platformalar o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi.

2. Sun'iy intellekt va ta'lim analitikasi: AI texnologiyalari o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash va ularga individual ta'lim dasturlarini yaratish imkonini beradi. Ta'lim analitikasi orqali ta'lim jarayonida tezkor va samarali teskari aloqa o‘rnatish mumkin.

3. Virtual va kengaytirilgan haqiqat: VR/AR texnologiyalari o‘quvchilarga real muhitda o‘rganish imkonini beradi, bu esa ularning bilimlarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini oshiradi.

4. Xalqaro baholash tizimlari: PISA, TIMSS va PIRLS tadqiqotlari ta'lim tizimlarining samaradorligini baholash va ularni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan ma'lumotlarni taqdim etadi.

5. O‘zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlar: O‘zbekiston ta'lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim jarayonini samarali va raqobatbardosh qilishga qaratilgan.

Kelgusida O‘zbekistonda ilg‘or xorijiy texnologiyalarni keng joriy etish va xalqaro baholash tizimlarida faol ishtirok etish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga e'tibor qaratilishi lozim. Bu esa mamlakat ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro miqyosda yuksak natijalarga erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" - Karimov A., Raxmonov B.
2. "Ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" - Yusupov N.
3. "Ta'lim sifatini baholashning zamonaviy usullari" - Tursunov S.
4. "Sun'iy intellekt va ta'lim: o‘zbek tajribasi" - Qodirov M., Xolmatov A.
5. "O‘zbekistonda raqamli ta'lim platformalari: amaliyot va istiqbollar" - To‘raqulov D.
6. Абылова Г. Ж. ОСОБЕННОСТИ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ДИДАКТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ В ПРОЕКЦИИ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ //Экономика и социум. – 2024. – №. 5-1 (120). – С. 1056-1061.

7. Abilova G., Shanazarov K., Shanazarova S. ANYLOGIC DASTURIY TA’MINOTNING IMKONIYATLARI VA AFZALLIKLARI //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 147-149.

8. Абылова Г. Д. и др. ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ //QUALITY OF TEACHER EDUCATION UNDER MODERN CHALLENGES. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 423-426.

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING KOMPETENSIYALARINI SMART TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Lutfillayev Maxmud Xasanovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,

Pedagogika fanlari doktori, professor

Mardiyev R., Safarov A.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,

Annotatsiya. Ushbu maqolada matematik analiz fani misolida oliy ta’lim muassasalari talabalarining kompetensiyalarini SMART texnologiyalar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari va SMART texnologiyalardan foydalanishning xorij tajribasi hamda o‘quv jarayonida foydalanishning afzalliklari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, raqamli texnologiyalar, SMART ta’lim, SMART texnologiya, matematik analiz, texnologiya.

Zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarning daqiqa sayin takomillashib borishi vaqtni tejash, sifat va samaradorlikni oshirish kabi parametrlarning ijobiy tomonga o‘zgarib borishiga sabab bo‘lmoqda. Har tomonlama rivojlangan jamiyatni shakllantirishda jamiyatni tashkil qiluvchi insonlarning chuqur bilimga ega bo‘lishi kerakligi ayni haqiqatdir. Xususan, ta’lim sohasiga bunday texnologiyalarning tatbiq etilishi sifat va samaradorlikni yangi bosqichga olib chiqishga imkon yaratmoqda.

Hozirgi kunda SMART ta’lim, SMART texnologiya, SMART universitet, SMART kutubxona, SMART auditoriya, SMART doska kabi tushunchalar an’anaviy ta’limdagi mavjud kamchilklarni bartaraf etishga, talabalarni bilimga olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga xizmat qilishi borasidagi olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar xalqaro anjuman va mahalliy konferensiyalarda asoslab berilmoqda. Ta’limga zamonaviy axborot texnologiyalarini

joriy etish, jumladan, SMART texnologiyalardan foydalanib, o‘quv faoliyatda qo‘llaniladigan elektron platformalar ishlab chiqish, elektron darslik va qo‘llanmalarni joriy etish bugungi kunda o‘quv jarayonini samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

SMART texnologiya bu maqsadni belgilashning zamonaviy yondashuvlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tizim maqsadlarni belgilash bosqichida barcha mavjud ma’lumotlarni to‘plash, ish uchun zarur muddatlarni belgilash, resurslarni hisoblash va vazifalarni aniqlash imkonini beradi .

SMART ta’lim - umumiy standartlar, kelishuvlar va texnologiyalar asosida internetda qo‘shma ta’lim faoliyatini amalga oshirish uchun ta’lim muassasalari va professor-o‘qituvchilarning hamkorligi hisoblanadi .

SMART ta’lim mavzusidagi nashrlar bir necha yil oldin paydo bo‘lgan va ular ta'lim rivojlanishining asosiy tendentsiyalarini qayd etib, ta’lim tizimidagi keyingi o‘zgarishlar uchun futurologik prognozlarni yaratadi .

SMART ta’limning fundamental g‘oyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ta’lim oluvchining faqat bilim olishi emas, balki uning olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishi va ijodkorligini shakllantirish;

- individual o‘rganish, fanga oid masalalarni mustaqil hal etish ko‘nimasini oshirish, o‘zini-o‘zi baholash asosida yangi bilimlarni mustahkamlash;

- ta’lim va unga oid materiallarni talabalar xohish-istaklariga moslashtirish;

- talabalarning hamma vaqt va istalgan joyda ta’lim olishiga qaratilgan texnologiyalardan foydalanish, jumladan, SMART texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan platformalar, video va audio formatdagi materiallar, kompyuter imitatsion modellar asosida o‘quv faoliyatini amalga oshirish.

SMART ta’lim ko‘p miqdordagi manbalar, multimedianing (audio, video, grafik) maksimal xilma-xilligini, tinglovchilarning talab va ehtiyojlariga tez va oson moslashish imkoniyatini nazarda tutadi .

Matematika fanlarini o‘qitishda turli ko‘rgazmali va interaktiv usullardan foydalanish ta’lim oluvchining fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi, ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. SMART texnologiyalar asosida matematik analiz fanini o‘qitish talabalarda mavzuning ichida bo‘layotgan jarayonlarni tasavvur qilish orqali, mavzuning mazmunini yetarli darajada tushunib olishga yordam beradi va ularning bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi .

Quyida biz “Matematik analiz” fanining “Funksiyaning uzilishi, uzilishning turlari” mavzusini SMART texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirishga doir ishlab chiqilgan vizualizatsion materiallardan misol keltiramiz.

$f(x)$ funksiya a nuqtaning biror $U_\delta(a)$ atrofida yoki o‘yilgan atrofida aniqlangan bo‘lsin.

1-ta’rif. Agar $f(x)$ funksiya uchun $a \notin D(f)$ yoki a nuqtada bu funksiya uzluksiz bo‘lmasa, ya’ni

$$\lim_{x\to a} f(x) = f(a)$$

munosabat bajarilmasa, u holda a nuqta f funksiyaning uzilish nuqtasi deyiladi.

1-ta’rif quyidagi munosabatlarning birining bajarilishiga teng kuchli:

1. $\lim_{x\to a} f(x)$ – mavjud emas va $a \in D(f)$
2. $\lim_{x\to a} f(x)$ – mavjud emas va $a \notin D(f)$
3. $\lim_{x\to a} f(x)$ – mavjud va $a \notin D(f)$
4. $\lim_{x\to a} f(x)$– mavjud va $a \in D(f)$, lekin $\lim_{x\to a} f(x) \neq f(a)$

$\lim_{x\to a} f(x)$ – mavjud emasligi quyidagi shartlardan birining bajarilishiga teng kuchli

a) $\lim_{x\to a-0} f(x)$ va $\lim_{x\to a+0} f(x)$ – mavjud, lekin $\lim_{x\to a-0} f(x) = \lim_{x\to a+0} f(x)$

b) $\lim_{x\to a-0} f(x)$ va $\lim_{x\to a+0} f(x)$ limitlarning aqalli biri mavjud emas.


Agar 3) va 4) munosabatlar bajarilsa, u holda a nuqta f funksiyaning tuzatilishi mumkin bo‘lgan uzilish nuqtasi deyiladi.

Agar 1) va a) yoki 2) va a) shartlar bajarilsa, u holda a nuqta f funksiyaning 1-tur uzilish nuqtasi deyiladi.

Agar 1) va b) yoki 2) va b) shartlar bajarilsa, u holda a nuqta f funksiyaning 2-tur uzilish nuqtasi deyiladi .

1-misol. $signx = \begin{cases} 1, x > 0 \\ 0, x = 0 \\ -1, x < 0 \end{cases}$ funksiyani $x = 0$ nuqtada uzluksizlikka tekshiring.

$\lim_{x\to+0} signx = 1$, $\lim_{x\to-0} signx = -1$ bo‘lganligi uchun $x = 0$ nuqta bu funksiya uchun 1-tur uzilish nuqtasi bo‘ladi. Ushbu misolning yechilishini yanada chuqurroq tushuntirish uchun, biz uning vizualizatsiyasi orqali o‘ng va chap limitlar qanday hisoblanganini, ular teng emasligini talabalarga ko‘rsatish ularning kompetensiyalarini oshirish xizmat qiladi deb hisoblaymiz (1-rasm).



1-rasm. Funksiyaning uzilishi jarayonini kompyuter imitatsion modellar asosida vizualizatsiyasi

O‘quv faoliyatda SMART texnologiyalardan foydalanish talabalarning fanni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish bilan birga ularning bilim olishi, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llashi, mavzuning mohiyatini tushunib olishda undagi mavjud tushunchalarning ichki jarayonlarini kuzatish orqali kompetensiyalarini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xurramov M., Xalmuratova K. “Oliy ta’lim muassasalariga SMART universitet tamoyillarini joriy etish” metodik qo‘llanma, “Yetakchi nashriyoti”, Toshkent 2024, 32 b.

2. Дмитриевская Н. А. Смарт образование. Режим доступа: http://www. myshared. ru/slide /72152

3. Днепровская Н. В., Янковская Е. А., Шевцова И. В. Понятийные основы концепции смарт-образования. Открытое образование, 6 (2015)

4. Lutfillayev M. X., Safarov A. A. SMART texnologiyalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi, “Oliy ta’limni raqamlashtirish muhitida innovatsion texnologiyalar: muammo va yechimlar-2024” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, Jizzax, 578-581 (2024)

5. R. Mardiev, S. Usmanov. Analiz asoslari fani uchun o‘quv qo‘llanma. Samarqand. SamDU nashri, 2021 y. - 284 b.

O‘QUVCHILARNI KOMPYUTER IMITATSION MODELLARDAN FOYDALANIB KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Lutfillayev Maxmud Xasanovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Pedagogika fanlari doktori, professor
Meliyeva M. B.
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada informatika va axborot texnologiyalari fanidan o‘quvchilarning kompyuter imitatsion modellar (KIM) asosida kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari keltirilgan. QR-kod mavzusini KIMdan foydalanib o‘qitish metodikasi tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, raqamli texnologiyalar, QR-kodlar, kompetensiya, Kompyuterli imitatsion modellar.

Hozirgi zamon ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilim olish, axborot kompetensiyalarini rivojlantirish va ularni zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘quv jarayoniga kengroq jalb qilish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Innovatsion texnologiyalar, ayniqsa, kompyuter asosida ishlaydigan imitatsion modellar yordamida o‘quv jarayonini jonlantirish, unga interaktivlik va ijodiy yondashuv kiritish orqali o‘quvchilarda fanlarni tushunish va o‘zlashtirish darajasini oshirish mumkin. Ushbu modellar yordamida murakkab nazariy va mavhum tushunchalarni o‘rganish yanada osonlashadi, chunki o‘quvchilar o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan jarayonlarni vizual tarzda ko‘rish, boshqarish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Kompyuter imitatsion modellar asosidagi ta'lim metodikasini qo‘llash nafaqat o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga faol jalb etadi, balki ularning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va mustaqil tadqiqot o‘tkazish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Bu yondashuv ayniqsa, murakkab fanlarni hamda mavzularni o‘rgatishda samarali bo‘lib, o‘quvchilar uchun real dunyo vaziyatlarini tajribadan o‘tkazish imkoniyatini yaratadi.

Imitatsion modellashtirish— bu jarayonlarni haqiqatda qanday o‘tishini izohlaydigan modellar qurish imkonini beradigan usuldir. Bunday modelni bir yoki bir nechta sinovlar uchun vaqt bo‘yicha ishlatish mumkin. Shu bilan birga natijalar jarayonlarning tasodifiy tavsifidan aniqlanadi. Imitatsion modellashtirish — bu tadqiqot tizimni u haqida ma’lumot olish uchun tajribalar o‘tkaziladigan, yetarlicha aniqlikda tizimni ifodalaydigan model bilan almashtirish usulidir.

Modellashtirish amaliy masalalarni yechish usullaridan biridir. Ko‘pincha muammoning yechimini keng ko‘lamli tajribalar orqali topib bo‘lmaydi: yangi ob’ektlarni qurish, mavjud infratuzilmani yo‘q qilish yoki o‘zgartirish juda qimmat, xavfli yoki shunchaki imkonsiz bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda real sistemaning modelini qurish, ya’ni uni modellashtirish tilida tasvirlash maqsadga muvofiqdir. Bu jarayon mavhumlikning ma’lum darajasiga o‘tishni, ahamiyatsiz tafsilotlarni qoldirib, faqat biz muhim deb hisoblagan narsalarni hisobga olishni o‘z ichiga oladi.

Modelni yaratgandan so‘ng - va ba’zan ishlab chiqish jarayonida - biz tizim tuzilishini o‘rganishni va tizimning xatti-harakatlarini tushunishni, uning muayyan sharoitlarda qanday harakat qilishini sinab ko‘rishni, turli vaziyatlarda solishtirishni va uni optimallashtirishni boshlaymiz. Optimal yechim topilgach, biz uni real dunyoda qo‘llashimiz mumkin.

Aslini olganda, modellashtirish - bu xatoga yo‘l qo‘yishimiz, so‘rovlarni bekor qilishimiz, vaqtni orqaga qaytarishimiz va xavf-xatarsiz modellar dunyosida muammoning yechimini izlash maqsadida barchasini qaytadan boshlashimiz mumkin jarayondir.

Ta’lim jarayonida kompyuter imitatsion modellardan foydalanishda, asosan, jarayonlar imitatsiya qilinadi, ya’ni so‘z bilan berilgan mavzu jonlantiriladi. Biz taklif qilayotgan kompyuter imitatsion modellar asosida tashkil etilgan dars o‘tish metodikasida audio, video, animatsiya hamda modellardan foydalangan holda dars jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi. Buning natijasida tinglovchilar mavzuni tinglashadi, ko‘rishadi va jarayonlarni tushunishlari osonlashadi.

Quyida biz informatika va axborot texnologiyalari fanining “QR kodlar” mavzusini Kompyuter imitatsion modellar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirishga doir ishlab chiqilgan vizualizatsion materiallardan misol keltiramiz.

QR kod - bu ma’lumotlar ma’lumotlarini saqlashi mumkin bo‘lgan va smartfonlar tomonidan o‘qilishi uchun mo‘ljallangan matritsali shtrix kod yoki ikki o‘lchovli kod turi. QR "Tezkor javob" degan ma’noni anglatadi, bu kod tarkibini yuqori tezlikda juda tez dekodlash kerakligini ko‘rsatadi. Kod oq fonda kvadrat shaklida joylashtirilgan qora modullardan iborat. Kodlangan ma’lumotlar matn, URL yoki boshqa ma’lumotlar bo‘lishi mumkin.

QR kodi uning mazmunini yuqori tezlikda dekodlash imkonini berish uchun yaratilgan. QR kodlarining mashhurligi butun dunyo bo‘ylab tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Hozirgi vaqtda o‘rnatilgan kamerali mobil telefonlar QR kodlarini tanib olish uchun keng qo‘llaniladi.

QR kod Denso Wave muhandisi Masahiro Xara tomonidan 1994 yilda yaratilgan va dastlab avtomobil qismlarini ishlab chiqarishda inventarni kuzatish uchun ishlatilgan. Dastlab avtomobil ishlab chiqarishda ehtiyot qismlarni kuzatish uchun ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, QR kodlari keyinchalik boshqa ko‘plab sohalarda, tijorat kuzatuvidan tortib, ko‘ngilochar, do‘kon ichidagi

mahsulotlarni yorliqlash va smartfon foydalanuvchilariga mo‘ljallangan ilovalarda qo‘llaniladi. Foydalanuvchilar QR kodlarni skanerlash orqali URL manzilini ochishi, matnlarni o‘qishlari mumkin; QR kod yaratuvchi saytlar yoki ilovalardan foydalanish orqali foydalanuvchilar boshqalar skanerlashi va foydalanishi uchun o‘zlarining QR kodlarini yaratishi va chop etishi mumkin.

QR kod tizimi QR kodli kodlovchi va dekoderdan iborat. Kodlovchi ma’lumotlarni kodlash va QR kodini yaratish uchun javobgardir, dekoder esa QR kodidan ma’lumotlarni dekodlaydi.


QR kodlar axborotni turli usullar bilan taqdim etish uchun qo‘llanishi mumkin:

Ayrim sportzallar ulardan qanday foydalanishni, shuningdek, qanday mashqlar bajarish kerakligi bo‘yicha yordam beruvchi QR kodlarga ega.


Ulardan mahsulotni ishlab chiqaruvchi kompaniya yoki mahsulotning o‘zi yoki ozuqaviy jihatlari haqida batafsil ma’lumot berish uchun oziq-ovqat mahsulotlarida foydalaniladi.

Jurnal va reklama nashrlari foydalanuvchi e’tiborini tortish va marketing materiallarini ko‘rishga jalb qilish uchun QR kodlardan foydalanadi.

Ular mahsulot qadog‘ining o‘zida haddan tashqari ko‘p axborot berish o‘rniga foydalanuvchiga mahsulot haqida batafsil axborotni bilib olish tanlovini berishning oson usuli hisoblanadi.



2-rasm. Finder pattern (Izlovchi shakl)ning joylashishi



3-rasm. QR kodning tuzilishi.

QR kod mavzusini o‘rgatishda KIMning afzalliklari

1. Ko‘rgazmalilik: QR kodlar yaratilishi va foydalanish jarayonini dinamik modellar orqali ko‘rsatish.

2. Interaktivlik: O‘quvchilar modellar bilan bevosita tanishish orqali QR kod yaratish va dekodlash jarayonida qatnashadilar.

3. Murakkab jarayonlarni soddalashtirish:

QR kodning shifrlash, dekodlash va ma’lumot uzatish hamda qabul qilish jarayonlarini vizual tarzda ko‘rsatish.

4. Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish:

Kompyuter imitatsion modellar yordamida QR koddan turli sohalarda foydalanish tajribasini shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda QR kod texnologiyasini kompyuter imitatsion modellar asosida o‘qitish o‘quvchilarning kod tuzilish texnologiyasini, afzalliklarini, qo‘llash sohalarini o‘rganishi hamda raqamli kompetensiyasini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. U. Q. Turdiyev., A. Hafizov. Imitatsion modellashtirish jarayoninig asosiy bosqichlari. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sharoitida innovatsiyalar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman, 15-17 aprel, 2019-yil. Qarshi.

2. Григорьев, И. Anylogic за три дня: учеб. -метод. пособие / И. Григорьев. – СПб.: СППУ, 2016. – 202 с.

3. Dong-Hee Shin, Jaemin Jung, Byeng-Hee Chang “The psychology behind QR Codes: User experience perspective”, Science Direct, Computers in Human Behavior 28 (2012) pp 1417-1426

4. P. Long, S. Lawrey, V. Ellis. Informatika va axborot texnologiyalari. Darslik. 376 bet. Toshkent-2023

5. M. X. Lutfillayev., M. B. Meliyeva. Kompyuter imitatsion modellar asosida o‘qitish texnologiyasi. “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 11-son. 2023

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

G‘aniyeva Shaxrizod Nurmaxamadovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Farg‘ona filiali o‘qituvchisi
Toxirjonova Ziyoda Umidjon Qizi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Farg‘ona filiali talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim jarayonida simulyatsiyalar va interaktiv ta’lim dasturlaridan foydalanish orqali o‘qitish samaradorligini oshirish mexanizmlari ko‘rib chiqilgan. Virtual reallik (VR) va qo‘shimcha reallik (AR) texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning o‘quv jarayoniga ta’siri va afzalliklari yoritib berilgan. Ushbu texnologiyalarning o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshirish, bilimlarni chuqur o‘zlashtirish, hamda ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola pedagogik yondashuvlar va innovatsion usullar yordamida ta’lim sifatini yaxshilashga qaratilgan tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Simulyatsiyalar, interaktiv ta’lim dasturlari, o‘qitish samaradorligi, virtual reallik (VR), qo‘shimcha reallik (AR), ta’lim texnologiyalari, amaliy ko‘nikmalar, gamifikatsiya, innovatsion pedagogika, shaxsiylashtirilgan ta’lim.

Bugungi kunda texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda ta’lim jarayonida yangi yondashuvlar va usullarni joriy etish zaruriyati tobora ortib bormoqda. An’anaviy o‘qitish usullari zamonaviy talablarga javob bermasligi mumkin, chunki ular o‘quvchilarni amaliy ko‘nikmalar va ijodiy yondashuvlarga tayyorlashda yetarli samara bermaydi. Shu boisdan, ta’lim jarayonida simulyatsiyalar va interaktiv ta’lim dasturlaridan foydalanish dolzarb masalaga aylandi.

Simulyatsiyalar reallikka yaqin muhitni taqdim etib, o‘quvchilarga xavfsiz va qiziqarli sharoitda bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash imkonini beradi. Interaktiv ta’lim dasturlari esa ta’limni individuallashtirish, o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish uchun qulay vosita sifatida tan olinmoqda. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy

faoliyatga tatbiq etishida, ularning fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda va ijodiy salohiyatini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Ta’lim jarayonlarida simulyatsiyalar va interaktiv ta’lim dasturlaridan foydalanish, o‘quv samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Buning uchun quyidagi mexanizmlar va usullar qo‘llaniladi:

Simulyatsiyalar yordamida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha ishlarni quyidagicha tarkiblash mumkin:

Reallikka yaqin sharoitlar yaratish: simulyatsiyalar o‘quvchilarga reallikka yaqin muhitni taqdim etadi, bu esa ularning nazariy bilimlarini amaliyotga qo‘llash imkonini oshiradi.

Xavfsizlikni ta’minlash: riskli vaziyatlarni (masalan, texnikaviy uskunalar bilan ishlash) xavfsiz simulyatsiya orqali mashq qilish imkoniyati.

Qayta-qayta mashq qilish: o‘quvchilar xatolarni takroran o‘rganib, tajriba orttiradi.

Interaktiv dasturlar yordamida individual o‘qitish;

Shaxsiylashtirilgan ta’lim: interaktiv dasturlar har bir o‘quvchining ehtiyojlariga moslashtirilishi mumkin.

Gamifikatsiya elementlari: O‘yin elementlarini qo‘shish orqali o‘quvchilarni motivatsiya qilish.

Bajarilgan ishni baholash: Interaktiv dasturlar natijalarni real vaqt rejimida qayd etishi va tahlil qilishi mumkin.

Shuningdek, VR va AR texnologiyalaridan foydalanish immersiv ta’lim muhiti, yangi pedagogik yondashuvlar, konstruktsionizm yondashuvi, talabalarni bilimlarni chuqurroq anglab, ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantiradi, ilmiy izlanish va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshiradi, an’anaviy ta’lim usullariga nisbatan ko‘proq qiziqish uyg‘otadi va motivatsiyani oshiradi.

Yo'nalish	Tavsif	Foydalaniladigan vositalar	Kutilgan natijalar
Interaktiv o'quv vositalari	VR va AR texnologiyalar orqali qiziqarli va vizual o'quv jarayonlari	VR/AR qurilmalari, virtual laboratoriyalar	Talabalarning faolligi va qiziqishi oshadi
Shaxsga moslashtirilgan ta'lim	Sun'iy intellekt asosida individual yondashuvni amalga oshirish	AI tizimlari, moslashuvchan o'quv dasturlari	Har bir talabaga moslashtirilgan bilimlarni yetkazish
Hamkorlik platformalari	Talabalar va o'qituvchilar uchun hamkorlik va almashinuv platformalari	Onlayn sinflar, kollaborativ dasturlar	Guruhli ishlash va almashish jarayonlari yaxshilanadi
Ma'lumotga asoslangan tahlil	Talabalar faoliyatini kuzatish va tahlil qilish	O'quv natijalarining analitik tizimlari	Qaror qabul qilish jarayonining optimallashtirilishi

1-rasm. Ta’lim sifatini oshirish uchun qo‘llaniladigan raqamli texnologiyalar

VR/AR talabalarga mavzularni amalda tajriba qilish imkonini beradi, bu o‘quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Kompleks tushunchalarni (masalan, molekulyar strukturalar, tarixiy voqealar) ko‘rib chiqishda 3D model va virtual muhitda anglashni osonlashtiradi. Kimyo laboratoriyasi yoki jarrohlik amaliyotlari kabi xavfli jarayonlarni xavfsiz virtual muhitda mashq qilish imkonini beradi. AR/VR yordamida masofadan o‘qiyotgan talabalar uchun an’anaviy auditoriya muhitiga yaqin tajribalarni yaratadi. Talabalarning individual ehtiyojlariga mos ravishda o‘quv materiallarini personalizatsiya qilishni qo‘llab-quvvatlaydi. Vizual va hissiy stimulyatorlar yordamida talabalar e’tiborini uzoqroq saqlaydi.

Yangi pedagogik yondashuvlar — zamonaviy ta’lim jarayonini talabaning shaxsiy imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirishga qaratilgan metodlar yig‘indisidir. Ushbu yondashuvlar o‘quvchining faolligini, mustaqil fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishni maqsad qiladi. Konstruktsionizm yondashuvi talabalarning bilimlarni mustaqil ravishda yaratish (qurish) jarayoniga asoslangan yondashuvdir. Bu yondashuv Seymur Papert tomonidan taklif qilingan bo‘lib, quyidagi tamoyillarga ega:

Amaliy faoliyat orqali o‘rganish: Talaba mavzuni amaliy loyiha yoki muammoni hal qilish orqali o‘zlashtiradi.

Individual ijodkorlik: O‘quvchilar o‘z qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda bilimlarni mustaqil ravishda shakllantiradi.

Hamkorlik va interaktivlik: O‘quvchilarning guruhlarda ishlashi, tajriba almashishi va muloqot orqali bilimni chuqurlashtirishi.

Texnologiyalardan foydalanish: AR/VR, 3D modellashtirish, dasturlash kabi texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qilish.

Ushbu texnalogiyalar teoriyani amaliyot bilan bog‘lash imkonini beradi, talabalarning kreativ va innovatsion yechimlar yaratishini rag‘batlantiradi, talabalarni o‘z bilimlari uchun mas’ul bo‘lishga o‘rgatadi, real hayotga yaqin bo‘lgan loyihalar orqali o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi. Bu yondashuv zamonaviy ta’lim talablariga mos bo‘lib, o‘quvchilarni kelajakdagi amaliy faoliyatga yaxshiroq tayyorlaydi.

Raqamli texnologiyalar asosida ta’lim sifatini oshirish – zamonaviy ta’lim jarayonini rivojlantirishning dolzarb yo‘nalishlaridan biri. Bu jarayon ta’lim muassasalarida VR, AR, sun’iy intellekt va boshqa texnologiyalarni qo‘llash orqali interaktivlikni oshiradi, talabalar uchun real tajribalar yaratadi va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Texnologiyalar o‘qitish metodikasini boyitib, individual yondashuvni ta’minlaydi. Shuningdek, o‘quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish pedagoglarning ijodiyligini oshirib, samaradorlikka ijobiy ta’sir

qiladi. Ta’lim sifatini oshirish uchun bu texnologiyalarni qo‘llashda uslubiy yondashuv va o‘qituvchilarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gunjan V. K. va Zurada J. M. Virtual Reality in Education and Training: Methods and Impacts

2. Farhod Abdurahimov. Zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida talabalarning bilimlarini chuqurlashtirish usullari.

3. Q. Raximov. Texnik fanlarni o‘qitishda VR texnologiyalaridan foydalanish.

OYDIN TUN VA QUYOSHLI KUNDA DARAXTLARNING TASVIRIY SAN'ATDAGI O'RNI

G.Quvnakova

Jizzax shahar 5-sonli umumta’lim maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada daraxtlar va yorug‘likning tasviriy san’atda aks etishi va ularning oydin tun hamda quyoshli kun sahnalaridagi tasviri o‘rganiladi. Daraxtlar va yorug‘lik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yoritish, shuningdek, san’atda tabiatning vizual ko‘rinishlari orqali inson his-tuyg‘ulari va estetik tushunchalarini ifoda etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ushbu material, ayniqsa, san’at o‘qituvchilari va tasviriy san’atga qiziquvchilar uchun qiziqarli va foydali bo‘ladi. Shuningdek, maqola tabiat manzaralarining san’atdagi ta’sirini yanada kengroq tushunish imkoniyatini ham beradi.

Kalit so‘zlar: daraxtlar, yorug‘lik, tasviriy san’at, oy yorug‘i, quyosh nuri, tun manzaralari, kunduzgi manzaralar, estetik tushunchalar.

Tabiat va inson o‘rtasidagi uzviy aloqa tasviriy san’atda o‘zining alohida o‘rniga ega. Ushbu aloqa, ayniqsa, san’atkorlar tomonidan diqqat bilan o‘rganilib, turli mavzularda yangidan yaratiladi. Ayniqsa, daraxtlar, ularning shakllari, yopiriqlari va yorug‘likka munosabati san’at asarlarida ko‘plab ma’nolarni yuzaga keltiradi. Tun va kun, ya’ni oy yorug‘i hamda quyosh nurlari, bu elementlarga yanada chuqur mazmun bag‘ishlaydi. Bugungi maqolada biz daraxtlar va yorug‘likning san’atda qanday tasvirlanishiga va bu orqali qanday estetik tushunchalar shakllanishiga e’tibor qaratamiz. Ushbu mavzu, shuningdek, insonning tabiatga munosabatini san’at orqali qanday ifoda qilishini tushunib yetishga ham yordam beradi. Maqolaning maqsadi nafaqat san’atning vizual tomonlarini yoritish, balki uning insonning ruhiy olamiga ta’sirini ham ochib berishdan iboratdir.

Daraxtlar tasviriy san’atda

Daraxtlar san’atda har doim o‘ziga xos ramziy ma’noga ega bo‘lgan. Masalan, qadimgi madaniyatlarda daraxtlar hayot va mehr-shafqat timsoli sifatida ko‘rilgan. Ular inson va tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ramziy ravishda ifoda etgan. Bugungi kunga kelib, ular ko‘proq tabiatning go‘zalligi va inson ruhiyatining bir qismi sifatida tasvirlanadi.

Daraxtlarning turli shakllari ularning mazmuniga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, katta va shohdor daraxtlar qudrat va barqarorlik timsoli bo‘lsa, yopiriqlari to‘kilgan yoxud shoxlari quruq daraxtlar qayg‘u yoki vayrongarchilik ramzi bo‘lishi mumkin. Ayrim san’at asarlarida daraxtlar jamiyatdagi o‘zgarishlarni yoki insonning ichki holatini ramziy ravishda aks ettiradi. Xuddi shunday, ularning atrofdagi yorug‘lik bilan munosabati san’atkorning ma’lum g‘oyasini yoritishiga xizmat qiladi. Yorug‘lik va soyalar o‘yini yordamida daraxtlarning o‘ziga xos xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Masalan, daraxtlarning barglari ostiga tushgan nurlar ularning tabiiy jozibasini ko‘rsatsa, tanadagi chuqur va yuza qismlarning soyalari daraxtning shakli va o‘lchamlarini aks ettiradi. Ba’zi asarlarda daraxtlarning yorug‘likdagi va qorong‘ulikdagi o‘zaro uyg‘unligi inson qalbidagi ichki ziddiyatlarni ko‘rsatish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, modern va simvolizmga xos asarlarda namoyon bo‘ladi.

Yorug‘lik va uning ahamiyati

Yorug‘lik, xususan, tabiiy yorug‘lik, tasviriy san’atning muhim elementlaridan biridir. Yorug‘lik ob’ektlarning formasi, chuqurligi va teksturasini ochib berishga yordam beradi. Shunday bo‘lsa-da, uning estetik va emotsional ta’siri ham ahamiyatlidir. Yorug‘lik asardagi mavjud kayfiyatni belgilashda asosiy rol o‘ynaydi.

Oy yorug‘i tun sahnalarini romantik va sirli qilishga xizmat qiladi. Masalan, oy nuri tundagi daraxtlarning soyalarini yaratish orqali ularni sirli, go‘yoki faqat tushlardagi kabi ko‘rsatadi. Oy yorug‘i tabiatning noyob go‘zalliklarini va uning inson his-tuyg‘ulari bilan qanday bog‘lanishini ko‘rsatishda katta ahamiyatga ega. Buning aksi—quyosh nurlari kunduzgi sahnalarni jonli va dinamik qilib ko‘rsatadi, tabiatning go‘zalligi va hayotning quvnoqligini yoritadi. Quyosh nurlari, ayniqsa, tabiatdagi harakatni va jonlilikni aks ettirish vositasi sifatida ishlatiladi.

Yorug‘likning turli ta’sirini tushunish uchun uning manbasi, kuchi va yo‘nalishi kabi omillarni inobatga olish lozim. Masalan, yorug‘likning yumshoq, muloyim manbalari asarga romantika va xotirjamlik hosil qiladi, hashamatli, yorqin nurlar esa jonlilik va quvonch tuyg‘usini uyg‘otadi. Shuningdek, nurlar va soyalarning qarama-qarshiligi inson ruhiyatidagi ziddiyatlarni aks ettiruvchi muhim vizual elementdir.

Oydin tun va daraxtlar

Oydin tun tasviriy san’atda ko‘pincha sirli va romantik muhitni yaratish uchun ishlatiladi. Daraxtlar bu kabi sahnalarda ayniqsa muhimdir, chunki ularning soyalari va shakllari tungi muhitni jonlantiradi. Oy nuridagi daraxtlar inson qalbidagi chuqur hislar, orzu-umidlar va qayg‘ularni ifoda etadi.

Masalan, Leonardo da Vinchi yoki Klod Mone kabi rassomlar oy yorug‘iga alohida e’tibor qaratganlar. Ular uchun oy nuri nafaqat yorug‘lik manbai, balki ko‘ngil kechinmalarini ifoda etish vositasi ham bo‘lgan. Oy yorug‘i ostidagi daraxtlar bu asarlarda tabiatning noyob va halovatbaxsh tomonlarini ochib bergan. Rassomlar oy yorug‘i bilan tabiatning yashirin va sirli qirralarini yaqqol ko‘rsatishga harakat qilganlar.

Bunday sahnalarda oy nurining daraxtlarga tushishi va ularning soyalari bilan yaratilgan chuqurlik hissi insonning tabiatga bo‘lgan ishtiyoqini yuzaga chiqaradi. Rassomlar oy yorug‘ini detalli aks ettirish uchun tiniq va yumshoq shtrixlardan foydalanganlar, bu esa sahnalarning yanada hayotiy va ta’sirchan bo‘lishiga yordam beradi.

Quyoshli kun tasviriy san’atda jonlilik va optimizmni aks ettiradi. Quyosh nurlari daraxtlarning barglarida o‘ynab, nurlar va soyalarning jozibador o‘yinini yaratadi. Bu kabi sahnalar, xususan, impressionistik asarlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Impressionistik asarlarda quyosh nurlari orqali tabiatning o‘zgaruvchan qirralari va kundalik hayotdagi go‘zalliklari tasvirlangan.

Masalan, Klod Mone kabi rassomlar quyosh nurlari yordamida tabiatning yorqin, jonli manzaralarini yaratishga e’tibor qaratishgan. Ularning asarlarida daraxtlarning barglari yorug‘lik manbai bilan o‘zaro ta’sir qilib, go‘yo hayotga kelganday ko‘rinadi. Barglar orasida nurning mayda tarqalib ketishi, ularning tabiiy harakatini jonli va dinamik tarzda tasvirlaydi. Bu kabi manzaralar insonga tabiatning ham o‘ziga xos tartibi, ham betakror go‘zalligi haqida fikr uyg‘otadi.

Bunday asarlarda quyoshli kun sahnalari nafaqat estetik bahra berishga, balki insonning ijobiy his-tuyg‘ularini uyg‘otishga qaratilgan. Quyosh nurlari inson ruhiyatida ilhom va kuch uyg‘otuvchi tabiat hodisasi sifatida, daraxtlar bilan birgalikda, hayotning yengil va mukammal tomonlarini ko‘rsatishga yordam beradi.

Daraxtlar va yorug‘likning ma’naviy ramziyati

San’atda daraxtlar va yorug‘likning chuqur ma’naviy mazmuni ham bor. Daraxtlar ko‘pincha hayotning davomiyligi, bilim va mukammallik timsoli sifatida tushuniladi. Ularning shoxlari osmonga qarab o‘sishi insonning ilohiy yoki yuksak ideallarga intilishini aks ettiradi. Yorug‘lik esa ko‘pincha ma’rifat, umid va hayotning ravshanligi ramzi sifatida qabul qilinadi.

Oy yorug‘i insonning ichki kechinmalari va orzu-umidlarini aks ettirsa, quyosh nurlari hayotning faoliyati va ijobiy energiyasini ko‘rsatadi. Bu ikki yorug‘lik manbai o‘rtasidagi o‘zaro aloqa, shuningdek, inson hayotidagi turli ziddiyatlarni tushunishda ham ko‘maklashadi. Rassomlar bunday qirralarni san’atda yetarlicha tasvirlagan, bu esa ularning asarlariga chuqur ma’naviy qiymat qo‘shgan.

Daraxtlar va yorug‘lik tasviriy san’atda inson va tabiat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni o‘zida mujassam etgan. Ular nafaqat estetik bahra berish uchun, balki insonning ichki ruhiy kechinmalari va hayotning falsafiy qirralarini tushuntirish uchun ham ishlatiladi.

Oydin tun va quyoshli kun sahnalari orqali san’atkorlar tabiatning o‘ziga xos go‘zalliklarini ochib berishga harakat qiladilar. Daraxtlarning yorug‘lik va qorong‘ulikdagi turli shakllari insonning ichki olamining ko‘rinishlarini ham aks ettiradi. San’at asarlarida daraxtlar va yorug‘likning mazmunli tasviri insonga tabiat va hayot haqida yanada chuqurroq fikr yuritish imkonini yaratadi.

Shuningdek, bu mavzu san’at o‘qituvchilari uchun tabiatning vizual qirralarini o‘quvchilarga o‘rgatishda mustahkam asos bo‘lishi mumkin. Maqola orqali yorug‘lik va tabiatning badiiy san’atdagi ahamiyatini tushungan holda, san’atkorlar yangidan-yangi ijodiy g‘oyalar yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бозоров, Шароф. "Тасвирий санъатда ёруғлик ва соялар."2016 йил, Тошкент давлат санъат институти нашри.

2. Ҳайдаров, Азиз. "Ойдин тунлар ва қуёшли кунлар: табиатнинг эстетик қирралари." 2018 йил, Ўзбекистон маданият нашриёти.

3. Кенжаева, Саида. "Дарахтлар ва уларнинг санъатдаги ўрни." 2021 йил, "Ёш ижодкорлар" нашри.

4. Назаров, Камол. "Санъатда нур ва қоронғулик ўйинлари." 2015 йил, Тошкент таълим ва маданият нашриёти.

5. Санъат тарихи энциклопедияси. "Импрессионизм ва табиат тасвирлари." 2017 йил, Энциклопедия нашриёти.

PHISHING ATTACK TYPES AND THEIR STATISTICAL ANALYSIS FOR DEVELOPING A SIMULATOR TO TEACH CYBER ETHICS

N. I. Ibrokhimov

S. Yu. Abdullayev

Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi, Fergana Branch, Fergana, Uzbekistan

sulaymonuser@gmail. com

Introduction. Currently, phishing attacks are among the most prevalent cyber-attacks targeted at social media users. Numerous global studies are being conducted to explore ways to protect against phishing attacks. This creates the need to develop new methods for effectively teaching phishing attacks. Using software tools, including cyber attack simulators, ensures high efficiency in this process.

This article provides information on the most common types of phishing attacks and the factors contributing to the success of these attacks by analyzing phishing statistics provided by international cybersecurity organizations such as the Anti-Phishing Working Group (APWG), the Verizon Data Breach Investigations Report, and Kaspersky. Later, this data will be used in the development of a simulator program to shape cyber ethics.

APWG Report. According to the APWG‘s report for the fourth quarter of 2023, phishing attacks continue to increase, with a significant rise in the targeting of social networks. Currently, social networks account for 42. 8% of phishing attacks, which is a 18. 9% increase from the previous quarter. Furthermore, between 2013 and 2022, Business Email Compromise (BEC) attacks resulted in a loss of 51 billion dollars globally. These attacks typically target employees responsible for financial duties within organizations. Unlike regular phishing attacks, BEC campaigns involve in-depth research of the targets, crafting convincing and accurate messages. The financial damage caused by such attacks is enormous. The report emphasizes the significant threat that phishing poses to financial institutions and social platforms. Attacks on banks and payment systems can lead to unauthorized control of user accounts, while on social networks, successful phishing attacks increase risks such as malware distribution or the widespread dissemination of false information.

Verizon’s 2024 Data Breach Investigations Report (DBIR). Verizon’s 2024 report highlights phishing as the most common method for initiating cybercrimes. The report notes that phishing attacks, utilizing social engineering techniques, remain a key method for data theft. In

these attacks, individuals or groups are specifically targeted, increasing the likelihood of errors. According to Verizon, nearly 36% of data breaches in 2023 were initiated through phishing attacks, with 62% of phishing-related breaches being successful due to user mistakes. This data shows that phishing attacks are closely linked to not only technical but also psychological factors. Factors such as curiosity or fear (e. g., "your account has been blocked" or "you have won a reward") and exploiting trust (e. g., convincing users that the message is from legitimate services or individuals) play significant roles in the success of these attacks.

Kaspersky Data. Kaspersky’s findings align with the above trends, noting that phishing attacks have increased, particularly those exploiting financial crises or global conflicts to deceive individuals. Kaspersky reports an increase in phishing attacks against banks, payment services, and e-commerce websites. Additionally, smishing (phishing via SMS) and vishing (phishing via phone calls) are also being used more frequently.

Research Results Based on the statistical data analysis from international organizations, the most common types of phishing attacks today are Email Phishing, Spear Phishing, Smishing, and Vishing. These types are discussed in detail below:

Email Phishing. Email phishing is the most common form of phishing, where criminals send fake email messages to victims. These emails usually contain fake links or malicious attachments. The attackers pose as legitimate organizations or service providers to steal users' personal information, such as login credentials, passwords, or financial details.

Spear Phishing. Spear phishing is a targeted form of phishing, where attackers focus on a specific individual or small group. The attackers collect information about the victim beforehand and attempt to obtain their information through credible fake messages. Spear phishing messages often contain personal or organization-specific details, which increases the chances of success.

Smishing. Smishing is a form of phishing conducted via SMS. Criminals send fake SMS messages to victims, which may contain harmful links, requests for personal information, or other fraudulent tactics. This type of attack is rapidly increasing, especially because mobile devices are widely used. Smishing is increasingly common in social media contexts.

Vishing. Vishing is a form of phishing carried out through phone calls. Attackers impersonate legitimate organizations and request personal or financial information from victims. They try to create a stressful environment that demands immediate action, prompting victims to make hasty decisions.

Factors Contributing to the Success of Phishing Attacks. Research indicates that the success rate of phishing attacks often depends on human factors. Workplace and personal vulnerabilities, such as weak password usage, lack of awareness, and failure to verify suspicious

communications, leave users exposed to phishing. Additionally, hackers exploit these vulnerabilities using social engineering techniques, which increases the effectiveness of phishing attempts.

Conclusion. The rapid evolution of cyberattacks demands the implementation of serious measures for defense. The most effective approach is to raise awareness about these types of attacks. The best way to learn about them is by using a simulator that organizes virtual attacks. To develop such a simulator, it is necessary to study the most common types of cyberattacks and the factors contributing to their success. This article has analyzed all the critical factors needed for preparing such a simulator and provided the necessary data collection.

References:

1. Makhmudov, I. A., & Isroiljonova, G. S. (2021). The package multiservice services in NGN. Academic research in educational sciences, 2(6), 989-994

2. Abdumalikjon Vahobjon, Umarov, A., & Qodirov Ahmadxon. (2023). PYTHONDA ARRAYLAR, MASSIVLAR, MATRITSALAR VA NUMPY KUTUBXONASI IMKONIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 327–329

3. APWG. (2023). *Global Fishing Survey Report*. https://apwg. org/globalFishingsurvey/

4. Verizon. (2023). *Data Breach Investigations Report*. https://www. verizon. com/business/en-gb/resources/reports/2024/dbir/2024-dbir-data-breach-investigations-report. pdf

5. Kaspersky Lab. (2022). *Fishing Attacks Overview*. https://www. kaspersky. com/about/press-releases/the-number-of-Fishing-attacks-doubled-to-reach-over-500-million-in-2022

6. Symantec. (2023). *The State of Fishing Attacks*.

7. Google Safe Browsing Report. (2023).

8. PhishLabs. (2023). *Fishing Threat Trends and Intelligence*.

9. Trend Micro. (2022). *Smishing and Vishing Analysis*.

OLIY TA’LIMDA O‘YINLAR VA SIMULYATSIYALARNING TA’SIRI: ADABIYOTLARNING TIZIMLI TAHLILI

Fotima Muratovna Alimova

Muhammad al Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Oliy ta’lim muassasalarining asosiy e’tibori bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun ko‘pincha o‘qitishning innovatsion usullari, shu

jumladan ushbu maqola mavzusi bo‘lgan o‘yinlar va simulyatsiyalar qo‘llaniladi. Raqamli o‘yinlar va simulyatsiyalar sohasi doimiy ravishda rivojlanib borayotganligi sababli, ushbu maqola oliy ta’limdagi o‘yinlar va simulyatsiya pedagogikasiga tegishli adabiyotlarni muntazam ravishda ko‘rib chiqishga harakat qiladi.

Asosiy maqsad - o‘yinlar va simulyatsiyalarni ta’lim jarayoniga ta’sirini o‘rganishdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki o‘yinlar va simulyatsiyalar o‘qitish va o‘rganish maqsadlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar o‘yinlarni o‘rganishga integratsiyalashganda uchta ta’lim natijasini aniqladilar: kognitiv, xulq-atvor va ta’sirchan. Yakuniy bosqich sifatida mualliflar o‘yinlar va simulyatsiyalardan pedagogik maqsadlarda samarali foydalanishga qiziqqan oliy ta’lim olimlari va amaliyotchilar manfaati uchun dalillarni sintez qiladilar. Bunday ma’lumotlar, shuningdek, kelajakdagi tadqiqotlar uchun potentsial imkoniyatlar va yo‘llarni taqdim etadi.

O‘yinlar va simulyatsiyalarning samaradorligini o‘rganishga birinchi muammo ushbu masala bo‘yicha aniq empirik dalillarning yo‘qligidir . Ilmiy soha juda keng va qo‘shimcha o‘rganishni talab qiladi. Bundan tashqari, hozirda mamlakatda yoki ta’lim muassasalari tomonidan ta’limda o‘yinlar va simulyatsiyalarni amalga oshirish uchun tavsiya etilgan rasmiy normalar yoki ko‘rsatmalar mavjud emas. Shunga qaramay Yevropa, AQSH va Avstraliyaning ko‘pgina mamlakatlarida o‘quv dasturida o‘yinlarni kiritish o‘qituvchi zimmasiga kiradi.

So‘nggi yillarda oliy o‘quv yurtlarida o‘yinlardan foydalanishni o‘rganishga qiziqish ortdi. Bularga ta’lim o‘yinlari, raqamli o‘yinga asoslangan ta‘lim (DGBL) va amaliy o‘yinlar kiradi. Bundan tashqari, olimlar ba’zida interaktiv mashqlarni, video o‘yinlarni o‘z ichiga oladi va hatto o‘yinlar toifasini keyingi avlod video o‘yinlariga takomillashtiradi . Veb-o‘yinlar bo‘lsa, raqamli o‘yin kodini amalga oshiradigan texnologik platformalar, kompyuterlar va konsollarni o‘z ichiga oladi . Ular mobil telefonlarda va boshqa mobil o‘yin qurilmalarida veb-brauzerida ishga tushirilishi mumkin.

Olimlar va o‘yin ishlab chiquvchilari o‘yinlarni tasniflash uchun turli taksonomiyalardan foydalanishlari mumkin bo‘lsa-da, ko‘pchilik quyidagi etti janrga asoslanadi:

1. Harakatli o‘yinlar: hatti-harakatga asoslangan video o‘yinlar.

2. Sarguzasht turidagi o‘yinlari: O‘yinchi virtual dunyoda darajalarni oshirish uchun vazifalarni hal qiladi.

3. Fighting o‘yinlari: Bular kompyuter tomonidan boshqariladigan belgilar yoki boshqa o‘yinchilar bilan janglarni o‘z ichiga oladi.

4. Rolli o‘yinlar: O‘yinchilar xayoliy qahramonlarning rollarini o‘z zimmalariga oladilar.

5. Simulyatorlar: o‘yinchilar oldindan belgilangan maqsadlarga erishishlari kerak bo‘lgan tabiiy yoki sun‘iy tizimlar yoki hodisalardan keyin modellashtirilgan o‘yinlar.

6. Sport o‘yinlari: Bular turli sport turlariga asoslangan o‘yinlar.

7. Strategiya o‘yinlari: o‘yinchilar maqsadga erishish uchun tegishli strategiyani ishlab chiqishlari kerak bo‘lgan tarixiy sahnalarni yoki xayoliy stsenariylarni qayta yaratadilar.

So‘nggi yillarda jiddiy o‘yinlarning ta’lim natijalariga ta’sirini o‘rganuvchi bir nechta yaxshi ishlab chiqilgan empirik tadqiqotlar nashr etildi. Soyer jiddiy o‘yinlarni video o‘yinlar sanoati tomonidan ishlab chiqarilgan bilim olish bilan muhim aloqaga ega bo‘lgan o‘yinlar deb ataydi. Zida Soyer ta’rifini kengaytirib, jiddiy o‘yinlar asosiy maqsadi o‘yin-kulgi, zavqlanish yoki rohatlanish emasligini ta’kidlaydi. Ta’lim maqsadlari uchun mo‘ljallangan jiddiy o‘yinlar, o‘quv o‘yinlari va virtual olamlar ushbu texnologiyalarning bo‘sh vaqtdan tashqari jalb qilish va motivatsiya qilish imkoniyatlarini ochib beradi . Shu bilan birga, ta’limda o‘rganish, baholash va rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash va yaxshilash uchun o‘yin texnologiyasidan foydalanishga asoslangan ta’lim (GBL) hamda potentsial ta’lim afzalliklarini o‘rganuvchi keng qamrovli adabiyotlar mavjud.

Simulyatsiyalar stsenariy asosidagi muhit yaratilib, unda talabalar o‘zaro aloqada bo‘lgan holda oldingi bilim va amaliy ko‘nikmalarni haqiqiy dunyo muammolarini yechishda qo‘llaydilar . Stsenariy asosidagi mashg‘ulotlar davomida o‘yinchi shaxslararo muloqot, jamoada ishlash, etakchilik, qaror qabul qilish, vazifalarni ustuvorlashtirish va stressni boshqarish kabi muhim ko‘nikmalarni o‘rganadi. Amaliyot stsenariysi yakka tartibda yoki jamoada amalga oshirilishi mumkin, bu o‘z navbatida hamkorlik va bilim almashishga olib keladi.

Web 2. 0 texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan texnologik ilovalar bilan hamkorlik qilish uchun ko‘proq imkoniyatlar paydo bo‘ldi, bu axborotga kirish, g‘oyalar, bilimlar almashish va kontent ishlab chiqarishni osonlashtirdi. Talabalarni interaktiv, haqiqiy va o‘z-o‘zini boshqarishga jalb qiluvchi raqamli simulyatsiyalar oliy ta’limga joriy etilmoqda. Connolly va Stansfield o‘yinga asoslangan elektron ta’limni o‘qitish, o‘rganish va baholashni ta’minlaydigan, qo‘llab-quvvatlaydigan va yaxshilaydigan raqamli yondashuv sifatida belgilaydi. O‘yinga asoslangan elektron ta’lim GBL dan farq qiladi, bu odatda kompyuter va nokompyuter o‘yinlarini qamrab oladi.

Yetkazib berish platformalari o‘yinlar va simulyatsiyalarni (masalan, kompyuter, video, onlayn, mobil, 3D va boshqalar) yaratish va tarqatishda o‘yin dizaynerlari uchun muhim ahamiyatga ega. Dizaynerlar o‘yin dizayni bilan bog‘liq texnik muammolar, modullar va usullar, o‘yinlarda ishtirok etuvchi o‘yinchilar va o‘rganish rejimlari (masalan, bitta o‘yinchi, ko‘p o‘yinchi, kooperativ, sinxron va boshqalar) kabi xususiyatlarga e’tibor berishlari kerak. Ushbu tadqiqot har bir o‘yin erishmoqchi bo‘lgan turli ta’lim sohalari va o‘rganish maqsadlarini ko‘rib chiqadi.

O‘yinlar va simulyatsiyalar o‘rtasidagi asosiy farq shundaki: o‘yinlar sun’iy va pedagogik vositalardir, ular mojarolar, qoidalar va oldindan belgilangan maqsadlarni o‘z ichiga oladi. Simulyatsiya esa haqiqatni ifodalovchi, aniqlik va asoslilikni talab qiluvchi dinamik vositalardir.

Universitet o‘qituvchilari o‘yinlarni o‘quv rejasiga moslashtirishda faolroq rol o‘ynashi, o‘yinlar va simulyatsiyalarning aralash o‘quv moduliga (yuzma-yuz, onlayn materiallar va h. k.) birlashtirilishini ta’minlashi yoki virtual tajriba yaratish uchun o‘yin ustasi sifatida ishlashi kerak.

O‘qituvchilar samarali ta’lim natijalariga erishish uchun ko‘p o‘yinchili hamkorlik uchun o‘yinlarni ishlab chiqishlari kerak. Talabalar, shuningdek, o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun innovatsion g‘oyalar va radikal yondashuvlarni tavsiya etadigan hammualliflar sifatida ishtirok etishlari kerak. Innovatsion yondashuv - bu o‘yinchilar o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantiradigan qo‘shimcha o‘quv resurslaridan (bloglar, vikilar va boshqalar) iborat bo‘lgan metagamelarni joriy etishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alimova F. M., Usmonov J. T., Pulatova Z. M, Kushmanova M. A, Naim N. A. Developing a model for comprehensive and similarity analysis of system. International Journal of «Mechatronics and Applied Mechatronics». Issue 11. Romania – 2022. – P. 107-114

2. Alimova F. M. Determination of student competence level based on “KSQ”. Technical science and innovation. Journal: “Technical science and innovation”. №4(10). Tashkent – 2021. - P. 202-208

3. Alimova F. M., Giyosov U., Abdullayev A. Control of knowledge in the test . “XXI аср ва технология соҳасидаги устувор йўналишлар” VII Халқаро илмий конференцияси бўйича мақолалар тўплами. Том 2. Тошкент – 2014. –P. 473-477

4. Alimova F. M. Journal: Determination of student competence level based on “KSQ” . “Technical science and innovation”. №4(10). Tashkent – 2021. - P. 202-208

5. Farrington, J. (2011). From the research: Myths worth dispelling: Seriously, the game is up. Performance Improvement Quarterly, 24, 105–110.

TALABALARNING MATEMATIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAVIY TA’LIM TEHNALOGIYALARINING AHAMIYATI

Abdusattarova Zaynab Abdujalil qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti 1-bosqich tayanch doktaranti

abdusattarovazaynab@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola PISA matematik muammolarini hal qilishda talabalarning matematik savodxonligini rivojlantirishda loyihaviy ta’lim tehnalogiyalarining ahamiyatiga qaratilgan. Matematik savodxonlik - bu shaxslarning matematikani turli kontekstlarda shakllantirish, ishlatish va sharhlash qobiliyatidir. O‘quvchilarning matematik savodxonlik ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladigan, o‘quvchilarning ishlash usulida loyihaviy tehnalogiyalar orqali amalga oshirish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: matematik savodxonlik, loyihaviy ta’lim texnologiyalari

Matematikada matematik savodxonlik insonlarga matematikaning hayotdagi o‘rni va qo‘llanilishi va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, insonlar bu qobiliyatdan turli xil hayotiy vaziyatlarga oid masalalarni matematik tarzda matematik tamoyillarga asoslangan holda foydalanishlari mumkin (Rizki & Priatna, 2019); Shuning uchun boshlang‘ich maktabdan universitet darajasiga qadar matematikani mukammal o‘rganishi kerak (Nyuton va Tonelli, 2020; Rojers va Kosko, 2019; Sarama va Klements 2009; Stodolskiy, 1988 yil; Tatto, Pek, Shvil, Bankov, Senk, Rodriges, Ingvarson, Reckase va Rouli, 2012). Matematik savodxonlik hali ham asosiy matematika ta’limida katta muammo bo‘lib qolmoqda, shu sababli savodxonlikni oshirish butun dunyo bo‘ylab insonlarga zarur ma’lumotlarni topish, tanlash, sharhlash, tahlil qilish va ishlab chiqarish uchun savodxonlik ko‘nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi. (Genlott & Gronlund, 2016). Oldingi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar ta’lim va tarbiya jarayonlarini takomillashtirish, talabalarning matematikani o‘rganishdagi yutuqlarini oshirish uchun barcha sa’y-harakatlarini amalga oshirib kelganlar (As'ari, 2015). Ammo, so‘nggi kuzatuv natijalaridan shu masala ma’lum bo‘ladiki, ulardan biri, talabalarning matematikani o‘rganishda matematik savodxonlik ko‘nikmalarining pastligi bilan bog‘liq (Ayalon & Wilkie, 2020; Xu, Gong, Lay va Leung, 2018; Ketonen va Hotulainen, 2019).

Matematik savodxonlik, asosan, shaxsni turli hayotiy jabhalarda matematikani qo‘llash va tahlil qilish, matematik fikrlash va matematik tushunchalar, protseduralar, hodisalarni tasvirlash, tushuntirish va bashorat qilish uchun faktlar va vositalarni shakllantirish qobiliyatidir. Matematik qobiliyatlar kishilarga hayotning barcha jabhalarida va konstruktiv, faol tarzda va mulohaza yuritishda zarur bo‘lgan ongli qarorlar qabul qilishda muhim rol o‘ynashini tushunishga yordam beradi. (Colwell & Enderson, 2016; Genlott & Gronlund, 2016; Purpura, Shmitt va Ganley, 2017). Matematik savodxonlik o‘quvchilarning sinfda olingan matematik bilim va ko‘nikmalarni haqiqiy hayotiy tajribalari va matematika bilan bog‘liq har qanday vaziyatni tushunish, qo‘llash imkoniyatini anglatadi. Bundan tashqari, matematik savodxonlik matematik bilimlarni qanday va qachon amalga oshirish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Matematik savodxonlik komponentlari ikkita, ya'ni bilim va malakadan iborat. Bilim real hayotda duch keladigan muammolar hal qilish uchun foydalaniladigan kontseptual va protsessual bilimlardir. Kontseptual bilim matematik mavzular g‘oyalar, tamoyillar, qonunlar, formulalar va tushunchalar bo‘yicha faktlarni bilishni anglatadi. Protsessual bilim matematik protseduralar, matematik til va belgilardan foydalanish, grafiklar va jadvallarni sharhlash va chiza olishni anglatadi. Kompetentsiya talabalarning sinfda olingan matematik bilim va ko‘nikmalarni haqiqiy hayotga tadbiq etish va matematika bilan bog‘liq vaziyatlarni tushunib qo‘llash qobiliyatini anglatadi (Sumirattana, Makanong, & Thipkong, 2017).

OECD (2015) matematik savodxonlikni bir necha aspektlarga ajratgan, ya'ni: (a) tarkib jihatidan, fazo va shakl, o‘zgartirish va munosabat, miqdor va noaniqlik; (b) jarayon jihatidan, ta'riflash va hisoblash, muommoni yechish uchun aloqa va integratsiya matematik fikrlash haqida fikr yuritish, umumlashtirish va tushunish; (c) vaziyat yoki kontekstual jihatidan, shaxsiy, ta'limiy va kasbiy, jamoaviy va ilmiy yoki intramatematikani o‘z ichiga oladi

OECD (2017) o‘quvchilarning matematik savodxonlik ko‘nikmalarini tahlil qilishda quyidagi matematik jarayonlarni e’tiborga olgan: (a) masalani matematik shaklda modellashtirish; (b) matematik tushunchalar, faktlar, protseduralar va mulohazalarni qo‘llash; (c) talqin qilish, qo‘llash va olingan natijalarni baholash.

PISA nazariyasini ishlab chiqishning asosiy tayanchi bo‘lgan yettita asosiy matematik ko‘nikmalar quyidagilar: matematik savodxonlik jarayoni: a) muloqot, matematik savodxonlik muloqotni o‘z ichiga oladi; (b) matematika, matematik savodxonlik ko‘nikmalari matematik qobiliyatlarni yoki matematikani modellashtirishni ham o‘z ichiga oladi, ; (c) tasvirlash, bu matematikani obyektlar, masalan, grafikalar, jadvallar, diagrammalar, rasmlar, tenglamalar, formulalarni ifodalash qobiliyati; d) mulohazalar va dalillar, muammoning yechimini asoslay oladigan xulosalar mantiqiy fikrlash jarayonlarining omili sifatida; (e) loyihalash, muammolarni hal qilish strategiyalari, bu qobiliyat insonning muammolarni bartaraf etish uchun matematikadan foydalanish qobiliyati bilan bog‘liq; (f) belgilarlardan foydalanish, rasmiy va texnik til, va undan amalda foydalanish, izohlash, matematik kontekstni manipulyatsiya qilish qobiliyati tegishli muammolarni hal qilishni o‘z ichiga oladi; (g) matematik vositalardan foydalanish;

Matematik savodxonlik 6 darajadan iborat (OECD, 2015). PISA savollari olti daraja shaklda keltirilgan. PISA savollarining tavsifi talabalarning matematik savodxonligi darajasiga qarab quyida ko‘rsatilgan:

1-jadval. PISA talabalarining matematika savodxonligi darajasi

Daraja tavsifi

1. Muntazam muammolarni hal qilish uchun bilimlardan foydalanish va umumiy kontekst muammolarini hal qilish

2. Masalalarni izohlash va formulalar bilan yechish

3. Yechishda protseduralarni to‘g‘ri bajarish muammolar va muammolarni hal qilish strategiyalarini tanlash

4. Modellar bilan samarali ishlash va tanlash va turli tasvirlarni birlashtirish, ularni real hayotga bog‘lash

5. Murakkab vaziyatlar uchun modellar bilan ishlash va murakkab muammolarni hal qilish

6. Matematik masalalarni yechishda mulohazalardan foydalanish, ularni umumlashtirish, shakllantirish va natijalarni yetkazish.

PISA savollari talabalarning matematik savodxonlik qobiliyatlarini aniqlash uchun ishlatiladi. PISA savollari o‘quvchilarning muommolarni hal qilishda matematik savodxonlik ko‘nikmalarini aniqlashga qaratilgan matematik jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli PISA matematikasini yechishda o‘quvchilarning matematik savodxonlik ko‘nikmalarini loyihaviy ta’lim tehnalogiyalari orqali rivojlantirish jarayonlarini ko‘rib chiqamiz.

PISA xalqaro tadqiqot dasturini amalga oshirishda loyihaviy ta’lim tehnalogiyalari muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tadqiqotda o‘quvchilar loyiha ustida ishlaydilar. O‘qitish o‘quvchi shaxsiga qaratilgan, o‘qituvchi esa ko‘makchi vazifasini bajaradi. Uzoq muddat davomida o‘quvchilar guruhlarda ishlaydilar, ma’lumotlar izlaydilar, ekspertlarga murojaat qiladilar, loyiha yakunida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan taqdimot qiladilar (veb-sayt yaratadilar, broshyura yoki buklet yasaydilar, videoklip yaratadilar). Loyiha davomida o‘quvchilar bir qancha turli xil masalalarni hal etadilar, lekin loyiha har doim ham muammoni hal etishga qaratilgan bo‘lmasligi mumkin. Loyihalar tadqiqotlarga asoslangan bo‘lishi mumkin, lekin loyiha o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishni maqsadida amalga oshirilmasligi ham mumkin.

An’anaviy ta’lim. Matematika darsi.

O‘qituvchi mavzuga oid teorema yoki ta’rifni sinf taxtasida tushuntiradi hamda tegishli masala va mashqlardan namuna yechib ko‘rsatadi. O‘quvchilar darslik bilan ishlaydi, namunadagi yechilgan misol va mashqlarga asoslanib darslikdagi misollarni va testlarni ishlaydilar. O‘qituvchi esa shunga asosan o‘quvchilarning mavzuga oid bilimlarini tekshiradi.

Loyihaviy ta’lim texnologiyasi asosida matematika darsi.

To‘rtburchaklar, ularning xossalari, turlari, tomonlari o‘rtasidagi munosabatlar, perimetr va yuza tushunchalariga oid mavzuni o‘quvchilar loyihaviy texnologiya asosida o‘rganadilar. Bunda, ular maktab sport maydonchasini qurish, uning loyihasini tuzish, o‘lchami, kerakli qurilish ash’yolari haqida hisob-kitob ishlarini amalga oshiradilar. Loyiha davomida o‘quvchilar maktab

atrofida yashovchi aholi o‘rtasida ushbu sport maydonchasi qanday bo‘lsa ular uchun qulayliklar tug‘diradi degan savol bilan murojaat qilishib so‘rovnomalar o‘tkazadilar. Loyiha yakunida esa barcha hisob-kitob ishlari, chizmalar va aholi fikrlarini maktab ma’muriyatiga taqdim etadilar.

“Kasrlar” loyihasi. Ushbu loyihada o‘quvchilar kasrlarning hayotimizdagi ahamiyatini o‘rganadilar. Ushbu matematik tushuncha real hayotiy masalalarni yechishda kasrlardan foydalanadigan insonlar nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda o‘rganiladi. Bunda, o‘quvchilar oshpazlar rolida o‘zlarining kasbiy faoliyatlarida kasrlardan foydalanishadimi degan savolga javob topishadi.

Talabalarning matematik savodxonligining samaradorligini oshirishda ta’lim jarayonida loyihaviy tehnalogiyalardan foydalanish muvaffaqiyatli yechim sanaladi. PISA matematikasini yechish muommoli va mantiqiy savollarga ushbu tehnalogiya orqali javob topish o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Aniq formulalari bo‘lgan savollarga javob topishga odatlangan ta’lim oluvchilarni tehnik yodlash orqali murakkab hayotiy vaziyatlarda o‘zining amaliy qiymatiga ham ega bo‘lmagan an’anaviy ta’lim jarayonidagi matematika darsiga loyihaviy yondashuvning natijasi shuni ko‘rsatadiki, ularda savodxonlik qobiliyatlarini ijodiy fikrlash, tashabbusni namoyon qila olish bilan birga matematik muloqot, shuningdek, yuqorida sanab o‘tilgan PISA matematikasini darajalarini samaraliroq egallashga yordam berishi shubxasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Genlott, A. A., & Gronlund, A. (2016). Closing the gaps-improving literacy and mathematics by ict-enhanced collaboration. Computers and Education, 99, 68–80. https://doi. org/10. 1016/j. compedu. 2016. 04. 004

2. OECD. (2006). Assessing scientific, reading and mathematical literacy: A framework for PISA 2006. Program for international student assessment, 192. https://doi. org/10. 1787/9789264026407-en. OECD. (2015). Learning for Tomorrow’s World First Results from PISA 2003.

3. OECD. (2017). PISA 2015 Mathematics framework. 65–80. https://doi. org/ 10. 1787/9789264281820-5-en.

4. Rizki, L. M., & Priatna, N. (2019). Mathematical literacy as the 21st-century skill. Journal of Physics: Conference Series, 1157(4). https://doi. org/10. 1088/ 1742-6596/1157/4/042088.

5. Rogers, K. C., & Kosko, K. W. (2019). How elementary and collegiate instructors envision tasks as supportive of mathematical argumentation: A comparison of instructors’ task constructions. The Journal of Mathematical Behavior, 53, 228–241. https://doi. org/https://doi.

org/10. 1016/j. jmathb . 2018. 08. 004. Sarama, J., & Clements, D. H. (2009). Early childhood mathematics education research: Learning trajectories for young children.

6. Routledge. https:// doi. org/10. 4324/9780203883785. She, H. C., Stacey, K., & Schmidt, W. H. (2018). Science and mathematics literacy: PISA for better school education. International Journal of Science and Mathematics Education, 16, 1–5.

https://doi. org/10. 1007/s10763-018- 9911-1.

Ключевые слова: технологии, мозаика, образ, цветная бумага, ватный диск, лист растения, семя, жемчуг, зерно

Abstract. The article presents general concepts about the application, types of applications, as well as information about increasing the creative abilities of students in the process of working with applications in elementary school technology lessons.

Keywords: technology, mosaic, image, colored paper, water disk, plant leaf, seed, gem, grain.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ranglar bilan ishlashida, tasavvurlarini rivojlantirishda, san’at va adabiyotga qiziqishini kuchaytirishda applikatsiya bilan ishlash katta ahamiyatga egadir. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida applikatsiya bilan ishlashni to‘g‘ri tashkil etish hozirgi kunda asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkurni o‘stirish texnikasining turli shakllari mavjud bo‘lib, ulardan bir applikatsiyadir. Applikatsiya rang-barang qog‘oz yoki mato parchalarini biror narsaga yopishtirib yoki tikib naqsh, gul hosil qilish usuli bo‘lib, shu usulda hosil qilingan naqsh, gul yoki biror tasvirga aytiladi. Har bir material applikastiyasi bajarish ish usuliga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi xususiyatlarga ega, masalan, qog‘oz, limon, daraxtlar po‘stloqlari, gul va daraxt barglari fonga turli yelimlar bilan yopishtiriladi. Boshlang‘ich sinflarda applikatsiya tayyorlash jarayonining eng sodda va oson usullari o‘rgatilib, unga tabiiy buyumlar bilan ishlov berish yuzasidan tushunchalar ham berib o‘tiladi va buni amaliyotda bajarishadi. Asosiy material qog‘oz bo‘lishiga qaramay, tabiiy buyumlarga ishlov berib ham foydalanish mumkin. Qog‘oz fon ustidan o‘simliklar urug‘i danagidan, barglaridan, gullaridan ham keng foydalaniladi. Qog‘ozning yaltiraydigan marmar, bosma gul tushurilgan, rasm solish va chizmachilik kabi bir qator qog‘oz navlari applikatsiya uchun foydalansa applikatsiya ishini sifatli qiladi. Applikatsiya ustida ishlash jarayoni ma’lum tartibda olib boriladi. Avval eskiz chizilib, so‘ngra kerakli detallar o‘lchami, rangi va miqdori aniqlanadi, tayyor detallar ma’lum tartibda joylashtirilib yopishtiriladi. Hozirgi kunda applikatsiya har bir xalq san’atida juda keng tarqalgandir.

Boshlang‘ich sinf texnologiya darslariga etibor beradigan bo‘lsak darslar mavzusining asosiy qismini applikatsiya bilan ishlashnk tashkil etadi. Bunga misol sifatida 2-sinf texnologiya kitobiga qaraydigan bo‘lsak: Yomg‘irli kun (rangli qog‘ozdan hajmli applikatsiya), Kuz fasli (erkin mavzuda rangli qog‘ozlardan yasalgan applikatsiya), Hosil yig‘ish (paxta disklaridan applikatsiya), Oltin kuz (kuzgi yaproqlardan applikatsiya), Toshbaqa (rangli qog‘ozdan yasalgan

hajmli applikatsiya), Doirachalardan yasaymiz (Erkin mavzu, rangli qog‘oz doiralaridan hajmli applikatsiya), Paxta disklaridan buyumlar yasaymiz (erkin mavzu, paxta disklaridan applikatsiya tayyorlash), tovus (rangli qog‘ozdan yasalgan hajmli applikatsiya), Qiziqarli qo‘l mehnati (erkin mavzuda rangli qog‘ozdan hajmli applikatsiya tayyorlash), Sehrli qahramonlar (applikatsiya), Suvosti dunyosi (hajmli applikatsiya, rangli qog‘oz) kabi darslar applikatsiyaga tayangan holda tashkil etiladi.

2-DARS. KUZ FASLI



Dars maqsadlari:

- Qo‘l mehnati orqali fantaziya va tasavvurni ro‘yobga chiqarish qobiliyatini o‘stirish;

Tabiat go‘zalligi va kuzning rang-barang jilolarini idrok etishni rivojlantirish;

Applikatsiya bilan ishlash ko‘nikmalarini takomillashtirish.

Kerakli materiallar: rangli qog‘oz, qaychi, yelim, qalam, darslik, buyum namunasi.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

2. Dars mavzusini e’lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa)

Dars mavzusiga kirish uchun (o‘qituvchining xohishiga ko‘ra) topishmoq, anagramma yoki rebuslardan foydalanish tavsiya etiladi. O‘quvchilar boshqotirmalarni yechadilar va ularni bitta so‘z bilan ifodalaydilar.

O‘qituvchi bugungi darsning maqsadi “Kuz fasli” mavzusida xayol surish, o‘z applikatsiyasini o‘ylab topish va bajarish ekanligini aytadi.

1. Namuna tahlili (5 daqiqa).

Darslikda misol sifatida kuz mavzusidagi “Kuzgi o‘rmon”, “Qo‘ziqorinlar”, “Kuzgi barglar” kabi applikatsiya namunalari keltirilgan.

O‘qituvchi quyidagi savollarni beradi:

- Applikatsiyalarni yaratish uchun qanday materiallar va asboblar kerak bo‘ldi?
- Qanday ranglar ishlatilgan?
- Applikatsiyalardagi narsalarda qanday shakllarni ko‘ryapsiz?

2. Amaliy qism (25 daqiqa).

Ish mustaqil tarzda bajariladi. Zarur bo‘lsa, o‘qituvchi yordam beradi. Dars davomida sanchuvchi va kesuvchi asboblar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi nazorat qilinadi.

3. Yakunlash va o‘z-o‘zini tahlil qilish (5 daqiqa).

Bajarilgan ishlar muhokama qilinadi. O‘quvchilar sinfdoshlarining ishlarini qarsaklar bilan baholaydilar: qarsak qanchalik baland bo‘lsa, ishga berilgan baho shunchalik yuqori hisoblanadi. Ishni tugatishga ulgurmagan o‘quvchilar uni uyda yakunlaydilar.

Xulosa o‘rnida boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida applikatsiya bilan ishlashni to‘g‘ri tashkil etish o‘quvchilarning bir nechta qobiliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir. O‘quvchilar applikatsiya bilan ishlash orqali ranglarni to‘g‘ri tanlay oladi, fikrlash va tasavvur qobiliyati rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. B. B. Ma’murov, M. M. Axmedjanov, A. R. Hamroev “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi”, “Durdona” nashriyoti. Buxoro – 2021.

2. Kuttibekova G. T. The essence and possibilities of application of art pedagogy and art therapy in a secondary educational school // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Research. Vol. 8, No. 5, 2020, Part III. ISSN 2056-5852. – pp. 151–154.

3. Kulboeva D. A “Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida o‘quvchilarni mustaqil ijodiy fikrlashga o‘rgatish”. Toshkent-2024y

JARAYONLARNI MODELLASHTIRISHDA YANGICHA YONDOSHISH

Aliyeva M. X.

O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti

aniq va amaliy fanlar fakulteti.

Maxsuda0077@gmail. com,

The question of working out the computerized training and methodological complex for the subject “Physics” are dealt with. This complex consist of a curriculum of the subject, theoretical, practical and laboratory part of the course.

В статье предложена физический и математический модель разработке методов организации и применения физических экспериментов.

XXI asrda butunlay yangi tipdagi texnologiyalar: gen muhandisligi – biotexnologiya, nanotexnologiya va informatsion texnologiya, robototexnologiya va fizik vaakum prinsipiga asoslantirilgan torsion texnologiyalar yanada chuqur o‘rganilib takomillashtiriladi.

Hozirgi zamon fan va texnika tuzilishi, tarmoqlanishi va sodir bo‘layotgan innavatsion o‘zgarishlar jihatdan murakkab ijtimoiy, ruhiy-ma’naviy va texnalogik ishlab chiqarishda qaysi jabhani olmaylik, uning revojlanishiga albatta axborot texnologiyalari ta’sir qiladi. Xususan, o‘quv jarayonoda axborot texnologiyalarining qullanishi juda yaxshi samara beradi. Bu o‘z navbatida talabalar o‘rganayotgan jarayonni be’malol ko‘rish va tasavur qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Barcha texnik va fizik jarayonlarni komp’yuter ekranida tasvirlash uhun uning modelini tuzish kerak bo‘ladi, undan keyin dasturli ta’minotda tasvirlash mumkin.

Model so‘zi lotincha so‘z bo‘lib, **moduls** ya’ni o‘lchov, me’yor degan ma’noni bildirib, biror ob’ektning namunasidir. Masalan, xarita - erning modeli, rasm-tabiatning modeli. Tuzilgan model taqribiy ko‘rinishda bajariladi. Chunki tajriba o‘tkazishda olinadigan natija ishlatilayotgan asbobning aniqligiga ham boliqdir. Shunday qilib, model bir obe’ktlar sistemasining xususiyatlari, o‘lchovlari, me’yorlarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Fizik hodisa va jarayonlarni o‘rganishda, ularda mavjud predmet va hodisalarning modellarini yasash va o‘rganish ***modellashtirish*** deyiladi.

Fizik model bu - Olinayotgan jarayonning geometrik tuzilishi va tabiati asl nusxasidek, ammo uning miqdori (o‘lchami, tezligi) jihatidan farq qiladigan modeldir

Matematik model o‘rganilayotgan hodisalarning tuzilishi, ob’ektlarining o‘zaro aloqasi, bajarish vazifasiga oid qonunlar matematik va mantiqiy-matematik tavsiflar asosida, tajriba natijasiga ko‘ra tuzilgan modelga aytiladi.

Fizik jarayonlarni matematik modellari tuzilib, tuzilgan model komp’yuterda o‘rganish fizik jarayonning xarakterini oldindan aytib berish mumkin bo‘ladi. Shuni takidlash kerakki jarayonni tajriba yo‘li bilan tashkil qilish va o‘tkazish ba’zan ancha qiyinchilik tug‘diradi. Jarayonning matematik model’ yordamida o‘rganish ancha engillik yaratadi. Aniq fanlardagi turli amaliy masalalarni echishda matematik modellashtirishdan foydalanish ancha qo‘l keladi. Tekshirilayotgan masalani xarakterlaydigan kattaliklarni miqdor jihatdan ifodalash, so‘ngra bog‘liqligini o‘rganish imkoniyatini matematik modellashtirish metodi beradi. Masalaning modelni tuzilib so‘ngra dasturli ta’minotda dasturni tuziladi.

Masalalarni komp’yuterda echish bir necha bosqichdan iborat buladi.

1. Masalaning qo‘yilish va maqsadning aniqlanishi (fizik model’).
2. Masalani matematik ifodalash (matematik model’).
3. Masalaning echish uslubini ishlab chiqish. Sonli usullarni tanlash.

4. Masalani echish algoritmini ishlab chiqish.

5. Dasturlash va sozlash


6. Olingan natijalarni tahlil qilish va izohlash.

Biz bir o‘lchamli harakat masalalar matematik modellashtirib dastur va echimlarini eng zamonaviy komp’yuterlarda asosiy ish matematik modellashtirishga qaratdik. Unda fizik masalalarni modellashtirish masalasi qaraldi.

Fizik jarayonlarni modellashtirish.

Axborot texnologiyalari axborotni yig‘ish, yig‘ilganlarini saqlash, biror joyga o‘zatish kerak bo‘lsa, kodlash vazifalarini bajaradi. Kodlanib jo‘natilgan ma’lumotlar qayta ishlanib amaliyotga taqbiq qilinadi. Bu jarayonlarni bajarishda axborot texnologiyalari texnik vositaga, dastur muhitiga va algoritmlar muhitiga ega bo‘ladi.

Agar biror jarayoni sxematik komp’yuterda tasvirlaydigan bo‘lsak, u holda quyidagicha bo‘ladi:



Ta’lim sifatini yaxshilashda axborot texnologiyasining ro‘li muhimdir. O‘tilayotgan darsda axborot texnologiyasidan foydalanish ancha samarali, foydali va tushunarli bo‘ladi.

Masalan: fizika yoki ximiya fanlaridan laboratoriya darslarini olib qaraylik. Diffuziya hodisasini qaraylik, bunda bir moddaning ikkinchi moddaga aralashtirishi vaqtida kuzatayotgan talaba vaqtdan yutqazadi. O‘sha ketgan vaqtda qancha kitob sahifalarini o‘qishi mumkin edi.

Ikkinchi bir tomondan qaraydigan bo‘lsak, jarayonni tekshirishda ketgan issiqlik energiyasi, to‘k, moddalar hammasi hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida katta baholanadi. Yana bir tomondan olib qaraydigan bo‘lsak, talaba jarayonni shuncha vaqt sarflab bir marta ko‘radi.

Agar bu ko‘rilayotgan jarayoni modellashtirib, komp’yuterda elektron versiyasi yaratilsa talaba bu jarayonni qayta ko‘raverishi mumkin. Jarayonni tekshirishda vaqt, energiya sarflamaydi. Bu esa talaba jarayonni tushunishi va tasavvur qilshi ancha tez bo‘ladi. Shuning uchun darslarni avtomatlashtirish katta ijobiy natijalar beradi.

O‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishda quyidagilarni e’tiborga olish kerak bo‘ladi:

- Sohada bilim berishda axborotlashtirishni rivojlantirish, loyihalash va yaratish.
- loyihalash va rivojlantirishda axborot bazasini yaratish.
- Komp’yuter, axborot texnologiyalarining boshqa qurilmalari, ularga xizmat ko‘rsatish uchun kerakli axborotlar to‘plash.
- Dasturiy ta’limotlar kerak.

Axborot texnologiyalarida muayyan jarayonni modellashtirish va modellashtirish yordamida tuzilgan algoritmlarni amalga oshirish uchun quyidagilar kerak bo‘ladi:

- komp’yuter va uning tashqi kurilmalari (printer, modem, mikrofon, ovoz eshitish qurilmasi. Skaner. Mulptimedia proektori, raqamli videokamera va boshqalar).
- Dasturiy ta’minot (matnlarni taxrirlash dasturi, grafikli dasturlar, Kahoot, Canvasterra, Math CAD, Plus 1. 0, mul’tmedia dasturlari va hakozolar).
- Axborotlar to‘plami (virtual muzeylar, virtual entsiklopediyalar va boshqalar).

Axborot texnologiyasida raqamlashtirish jarayoni iqtisodning o‘sishiga va fan texnika taraqqiyotining jadallashiga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar borgan sari turmushning har bir sohasiga kirib bormoqda, ya’ni hozirgi vaqtda axborotlarni doimo saqlab turadi, bu esa agar axborotlar to‘plashidan foydalanilmoqchi bo‘lsa, vaqtni tejab yana qayta yig‘masdan foydalanaverish mumkin.

Raqamli texnologiyalar ratsionallashtiruvchi, ma’lumotlar almashinish avtomatlashtirilgan. Masalan, poezdlarga chipta buyurtma berish, mehmonxona, hisob-kitob tizimlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish tushuniladi.

Axborot texnologiyalari yaratuvchi, ya’ni raqamli texnologiyalaridan foydalanish ishlab chiqarishning asosiy negizi bo‘lib qolmoqda. Shu bilan axborot texnologiyalari ta’lim-tarbiya jarayonida ham keng qo‘llanilmoqda. Bu esa komp’yuterdan ko‘rgazmali qurol sifatida foydalanilmoqda, talablarning ilmiy izlanishlarini tashkillashtirmoqda, talablar bo‘sh vaqtlaridan to‘g‘ri foydalanishga keng yo‘l ochib berilmoqda.

Bizning O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika institutida ham Aniq va amaliy fanlar fakultetida o‘qitishni finlyandcha-mikser yangicha usullari va xorij uslubiyatlari chuqur o‘rganilib, talabalarni barcha coxalarda bilimlarini mustaxkamlashda juda yaxshi va qulay dasturlar va uslublardan foydalangan holda qo‘llanilmoqda. Albatta, bunday yondoshuv o‘zbek-fincha modellar, kelajakda OTM mavqeini oshirishga xizmat qiladi deb umid qilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. L. D. Landau, E. M. Lifshits "Teoriya polya", Teoriticheskaya fizika. T1., Nauka, 1967 g.
2. L. D. Landau, E. M. Lifshits "Mexanika. Elektrodinamika", " O‘qituvchi", Ò. 1976
3. Matrosov A. Resheniye zadach matematiki i mexaniki v srede Maple 6. SPb.: Piter, 2000.
4. Dyakonov V. Maple 6. Uchebniy kurs SPb.: Piter, 2001.
5. Vvedeniye v Maple. Matematicheskiy paket dlya vsex. V. N. Govoruxin, V. G. Tsibulin, Mir, 1997 y.
6. A. F. Kavtrev „Matamaticheskiy modelerovanie v fizicheskix eksperimentax. „ 2003, Sank-Peterburg.

PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING HUQUQBUZARLIKLARDAN JABRLANGAN SHAXSLAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH

Amirxanov Meyrbek Nurmaxan o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi IIB Akademiyasi
“Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati” mutaxassisligi 3-kurs kursanti

Annotatsiya. Ushbu maqolada, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimini isloh etish sharoitida huquqni qo‘llash faoliyatini tanqidiy baholash, normativ huquqiy hujjatlarni tatbiq etish jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: xulq-atvor, qo‘mitalar, idora. korxona, muassasa, tashkilot, jinoyat, mahalla, fuqarolar

Аннотатция. Целью данной статьи является критическая оценка деятельности правоохранительных органов в контексте реформирования судебно-правовой системы в нашей стране, выявление недостатков в процессе реализации нормативных правовых документов и их устранение.

Ключевые слова: поведение, комитеты, должность. предприятие, учреждение, организация, преступление, микрорайон, граждане

Abstract. The purpose of this article is a critical assessment of the activities of law enforcement agencies in the context of reforming the judicial and legal system in our country, identifying shortcomings in the process of implementing regulatory legal documents and eliminating them.

Keywords: behavior, committees, position. enterprise, institution, organization, crime, neighborhood, citizens

Huquqni qo‘llash faoliyati milliy huquqiy tizim rivojida muhim o‘rin tutishini inobatga olsak, har bir huquqni qo‘llovchi mansabdor shaxsning o‘z faoliyatiga tanqidiy munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, garchi huquqni qo‘llovchi sub’ektning tegishli huquq normalarini tatbiq etish bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lsa-da, ammo ularning amaliyotdagi kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalaridan huquqni qo‘llashda va qonun ijodkorlik faoliyatida oqilona foydalanish mexanizmini yanada takomillashtirish zarur.

Ma’lumki, xar qanday faoliyatni amalga oshirishda ma’lum bir rejalashtirishlar va rejalar orqali faoliyat ko‘rsatiladi. Xususan profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklardan jabrlangan shaxslar bilan ishlash faoliyatida ham qonun hujjatlariga muvofiq va vazirlikning normativ huquqiy hujjatlariga asosan o‘z faoliyatini olib boradi.

Profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklardan jabrlangan shaxslar bilan faoliyatida quyidagi tartibdagi rejalashtirishlar orqali protsessual hujjatlarni rasmiylashtiradi.

-huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasiga oid dasturlar;

- huquqiy targ‘ibot bayonnomalari;

- taqdimnomalar;

- mahalla fuqarolar yig‘ini muhokama yig‘ilish bayonnomalari;

- kunlik ish yurituv rejalar;

- oylik ish yurituv rejalar;

- profilaktika inspektorining huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasiga oid hisobot yig‘in bayonnomalari1;

- profilaktika inspektorining huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasiga oid ma’lumotnoma ko‘rsakichlarini hamda boshqa hujjatlarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunida huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan bo‘lib, ular quyidagilar:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni “O‘zbekiston respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021 yil 21 noyabrdagi PF 27-son.

- huquqbuzarliklardan jabrlanishning sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni o‘rganish, tahlil qilish hamda jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslar toifalarini aniqlash;

- huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning individual va ijtimoiypsixologik xususiyatlaridan kelib chiqib profilaktika tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarni o‘z vaqtida aniqlash va himoya qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalarni tashkil etish bo‘yicha asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

- huquqbuzarlikdan jabrlanuvchining jismoniy va psixologik xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan maxsus kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish, shuningdek ishlab chiqishda ishtirok etish va amalga oshirish; - huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilarni umumiy va yakka tartibda qonunda nazarda tutilgan o‘zini o‘zi mudofaa qilish usullari va vositalari to‘g‘risida xabardor qilish;

- g‘ayriijtimoiy xulq-atvor nisbatan tez-tez kuzatiladigan yoki huquqbuzarliklar tez-tez sodir bo‘lib turadigan joylarga (hududlarga) patrulpost xizmati va jamoat tartibini saqlash xizmatini jalb etish;

- hujum qilingan taqdirda zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat chegaralari haqidagi ma’lumotlarni targ‘ibot-tashviqot qilish orqali aholida qilingan hujumni bartaraf etish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- g‘ayri ijtimoiy xulq-atvor, tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborotni tezkorlik bilan olish, ularni bartaraf etish;

- ichki ishlar organlarida tashkil etilgan jahon Internet axborot tarmog‘ida veb-saytlar, bloglar, chatlardagi ma’lumotlarni o‘z vaqtida o‘rganib chiqish, tahlil qilish;

- profilaktika dasturi va tadbiri loyihalarining ommaviy muhokamalarini tashkil etish, ularni amalga oshirish jarayonidagi mavjud muammolar va kamchiliklarni aniqlab, bartaraf etish choratadbirlarini ishlab chiqish;

- huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy usullariga doir elektron adabiyotlarni yaratish hamda tarqatish;

- huquqbuzarliklarni sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida taqdimnomalar kiritish va boshqa chora tadbirlardan iborat.

Huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqilishi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2017 yil 25 avgustdagi “Ichki ishlar organlari tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash to‘g‘risda”gi 191–sonli buyrug‘ida huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir

tasdiqlangan davlat dasturlari asosida O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining idoraviy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishini tashkillashtirish vazirlik tashkiliy inspektorlik va axborot taxlil bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi hamda prokuratura organlari xuzuridagi huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengashlar bilan hamkorlik ta’minlanadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirilishini tashkillashtirish Qoraqolpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shaxar ichki ishlar bosh boshqarmasi va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi hamda prkuratura xuzuridagi huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengashlar bilan hamkorlik qilinadi. Ichki ishlar vazirligining huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir idoraviy dasturi asosida vazirlik sohaviy xizmatlari o‘z dasturlarini ishlab chiqishi mumkinligi belgilab o‘tilgan.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish yuzasidan vazirlikda idoraviy dastur ishlab chmqilib tasdiqlanadi hamda ijro etish uchun hududiy ichki ishlar organlariga yuborilishi mumkin.

Huquqbuzarliklarning viktimologik prfilaktikasi yuzasidan vazirlikning idoraviy dasturi asosida soxaviy xizmatlar hamda joylardagi ichki ishlar organlari ham o‘z dasturlarini ishlab chiqishlari mumkin.

Tasdiqlangan dasturlar ijrosini ta’minlash maqsadida Ichki ishlar organlarida ishchi guruxlar tashkil etilishi mumkin. Ishchi guruxlar dasturda belgilangan tadbirlar ijrosini monitoring qilib boradi va natijalarini taxlil qiladi. Shuningdek, ijrosini ta’minlash yuzasidan taklif va tavsiyalar hamda xisobotlar tayyorlaydi[1].

Ichki ishlar organlari shu jumladan profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklardan jabrlangan shaxslar bilan ishlash faoliyati doirasida ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilish, konfirensiya, davra suhbatlari, ilmiy amaliy seminarlar va uchrashuvlar tashkil etish, aholi gavjum joylarida huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi mazmuniga ega bo‘lgan plakatlar, e’lonlar o‘rnatish, video roliklar namoyish qilish, ogohlikka chaqiruvchi ovozli matnni eshittirish kabi chora-tadbirlar asosida amalga oshiradi.

Ichki ishlar organlari xususan profilavktika inspektori o‘z xizmat faoliyati yo‘nalishlari bo‘yicha viktimologik profilaktika ishlarini olib boradi. viktimologik profilaktika olib borish

[1] O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash xaqidagi 191- sonli buyrug‘i. T. 2017 yil 25 avgust

yuzasidan tashkil etilgan tadbirlarga boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarni belgilangan tartibda jalb etishi mumkin.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi bir necha shakllarda amalga oshiriladi ular quyidagilar:

- og‘zaki
- yozma
- ko‘rgazmali
- elektron shakllarda amalga oshiriladi. [1]

Og‘zaki targ‘ibotning bir necha ko‘rinishlari mavjud ular quyidagilar:

- ma’ruzali huquqiy targ‘ibot;
- ilmiy amaliy konfirensiyalar;
- davra suhbatlari;
-seminarlar;
-huquqiy uchrashuvlar;
-teleradio orqali huquqiy mazmundagi eshittirishlar.

Yozma shakldagi huquqiy targ‘ibot.

- darsliklar;
- o‘quv uslubiy qo‘llanmalar;
- risola va savol javob sharhlovchi qo‘llanmalar;
- ma’ruza va maqolalardan iborat to‘plamlar;
- qonun hujjatlar to‘plamlari
- ommabop gazeta va jurnallarda huquqbuzarliklarning viktimologik prfilaktikasiga xizmat qiluvchi maqolalar;

Ko‘rgazmali huquqiy targ‘ibot.

-televideniya orqali viktimologik prfilaktikasiga oid teleko‘rsatuvlar, viktimologik prfilaktika masalalariga bag‘ishlangan hamda shaxslarda huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan, filmlar namoish etish;

- bukletlar va plakatlar orqali turli mazmundagi huquqbuzarlikdan jabrlangan yoxud fuqarolarni ogohlikka chaqiruvchi huquqiy mazmundagi reklama roliklar orqali aholinig huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan ishlar amalga oshiradilar.

[1] “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati” Xo‘jaqulov S. B. O‘quv qo‘llanma/ Mas’ul tahrir prof. I. Ismailov. –T: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. -148 bet.

Profilaktika inspektorlari huquqbuzarliklardan jabrlangan shaxslar bilan viktimologik profilaktikani amalga oshirishni mahalla fuqarolar yig‘inlarni, jamoatchilik insitutlari, nodavlat notijorat tashkilotlar ommaviy axborot vsitalari, boshqa organ va sohaviy xizmatlar bilan hamkorlikda amalga oshirishlari mumkin. Profilaktika inspektorlari o‘tkazilgan viktimologik profilaktikaga oid targ‘ibotlarni bayonnomalarga rasimylashtirib, ularni o‘z hisobotlarida ko‘rsatib boradilar. Bayonnomalar rasmiylashtirilganda bayonnomaga foto, video tasmalar ilova qilinishi mumkin. Jabrlanganlar bilan ishlashda viktimologik prfilaktikaga oid targ‘ibot bayonnomalari rasmiylashtirilib ichki ishlar organlari Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘limiga topshiriladi. Ushbu bayonnomalar Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘limilarida yig‘ilib ularni statistikasi yuritiladi.

Jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual Kodeksining 297-moddaga binoan Jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to‘g‘risida surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning taqdimnomasi. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror jinoyat ishini tergov qilish chog‘ida jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlab chiqib, tegishli davlat organiga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga, jamoat birlashmasiga, jamoaga yoki mansabdor shaxsga ana shu sabab va shart-sharoitlarni bartaraf qilish choralarini ko‘rish to‘g‘risida taqdimnoma kiritadi. Taqdimnomaning nusxasi ishga qo‘shib qo‘yiladi[1].

Ushbu Kodeksning 196 - moddasiga muvofiq huquqbuzarliklarning sodir etish sabablarini hamda uni sodir etishga olib keluvchi shartsharoitlarni bartarf etish yuzasidan Ichki ishlar organlarinig yozma tqdimnomalarini bajarish choralarini ko‘rmaslik, mansabdor shaxslarga eng kam ish xaqqi oyligining ikki barovaridanbesh barovarigacha jarima solishiga sabab bo‘lishi belgilab qo‘yilgan[2].

Maxalla fuqarolar yig‘ini yig‘ilish muxokama bayonnomalari.

Profilaktika inspektorlari ma’muriy hududda huquqbuzarliklarni oldini olish, bartaraf etish, huquqbuzarliklar sodir etilish sabablarini va ularga imkon beorayotgan shart sharoitlarni aniqlash, huquqbuzarlik, jinoyat sodir etib jazoni ijro etish muassasalaridan bo‘shatilgan shaxslar, huquqbuzarlik va jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarni kelgusida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etishlarini oldini olish, jamiyatda qabul qilingin xulq-atvor normalariga og‘ishmay

[1] O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual Kodeksi. Adolat 2021 yil 1 iyul’gacha bo‘lgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksi. Adolat 2021 yil 1 iyul’gacha bo‘lgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan.

rioya qilishlarini ta’minlash maqsadida, huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlaridan kelib chiqib, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan birgalikda mahallalarda yig‘ilish muhokamalarida ishtirok etib, yig‘ilish bayonnomasini tuzishda ishtirok etadi.

Mahalla fuqarolar yig‘ini yig‘ilishda huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan bayonnomasini tuzishda quyidagi shaxslar ishtirok etadi: Mahalla fuqarolar yig‘ini (oqsoqoli) raisi, uning kotibi, maslahatchilari, profilaktika inspektori, jamoatchilik vakillari, mahalla faollari va boshqa shaxslar ishtirok etishi mumkin. Mahalla fuqarolar yig‘ini huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan bapyonnomada kun tartibiga qo‘yilgan muhokama yuzasidan yuqoridagi shaxslar o‘z fikr mulohazalarini va takliflarini beradilar. Yig‘ilish muhokamasi mahalla raisi tomonidan olib boriladi. Yig‘ilish muhokamasida kun tartibidagi masala yuzasidan muhokamada ishtirok etayotgan shaxslarning fikrlari eshitilib yakuni bo‘yicha qaror qabul qilinadi va tegishli shaxslar tomonidan imzolanadi.

Profilaktika inspektorlari huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini amalga oshirish hamda huquqbuzarliklarning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish faoliyatini yanada takomillashtirish uchun o‘zinig kunlik ish yurituv rejalarini rasmiylashtirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoev: “Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir” O‘zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. Postda 2019.

2. Ichki ishlar Vaziri P. R. Bobojonovning ommaviy axborat vositalariga bergan intervyusidan. Toshkent 2018 yil 24 fevral. Postda. №9.

3. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining “Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash xaqida” gi 191- sonli buyrug‘i. T. 2017 yil 25 avgust.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab quvvatlash hamda oila va xotin qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 18 fevral PF5938.

5. Tartib-intizom va mas’uliyatni kuchaytirish, jinoyatchilikning oldini olish muhitini mustahkamlash – huquqbuzarlik profilaktikasi samaradorligining asosiy omilidir // URL: http://xs.uz (Xalq so‘zi, 15. 11. 2017).

6. Viktimologiya: Darslik / Q. R. Abdurasulova, A. G. Zakirova, F. M. Muxitdinov, Sh. X. Aliev, S. B. Xo‘jakulov, B. A. Umirzakov, G‘. S. Qarshiev va boshq. ;Mas’ul muharrir, yu. f. d., professor F. M. Muxitdinov. –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 320b.

INTERAKTIV VA RAQAMLI O‘YINLAR: O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Aripov Nuritdin Yusupovich
Jizzax politexnika instituti
“Muhandistlik kommunikasiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchi
nuritdin_aripov02@ jmayl. com

Zamonaviy ta'lim tizimida o‘qitish samaradorligini oshirish uchun yangi pedagogik metodlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda interaktiv va raqamli o‘yinlar ta'lim jarayoniga samarali tarzda integratsiya qilinayotgan eng innovatsion usullardan biridir. Ushbu texnologiyalar nafaqat o‘quvchilarning bilim olishdagi qiziqishlarini oshiradi, balki ularda muammolarni hal qilish, strategik fikrlash, qaror qabul qilish va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Raqamli o‘yinlar o‘quvchilarga murakkab mavzularni o‘rgatishda amaliy va qiziqarli yondashuvni taklif qiladi, shu bilan birga, o‘qituvchilarga ta'limni yanada interaktiv va samarali qilish imkoniyatini yaratadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o‘qitish samaradorligini oshirish uchun turli xil innovatsion texnologiyalar, shu jumladan interaktiv va raqamli o‘yinlar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning ta'limga bo‘lgan qiziqishini oshirish, o‘rganish jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishda muhim rol o‘ynaydi. Interaktiv va raqamli o‘yinlar o‘quvchilarning faoliyatini oshirish, ko‘nikmalarini rivojlantirish, hamda ularning motivatsiyasini oshirishga qaratilgan samarali vosita hisoblanadi.

Interaktiv va raqamli o‘yinlarning ta'limdagi o‘rni.

a) O‘quvchilarni faollashtirish - Interaktiv o‘yinlar o‘quvchilarga passiv eshituvchidan faol ishtirokchiga aylanish imkoniyatini beradi. O‘yinlar jarayonida o‘quvchilar o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash, muammolarni hal qilish va natijalarni tahlil qilish orqali o‘rganadilar. Bu esa o‘quvchilarning bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirishiga yordam beradi.

b) Ko‘nikmalarni rivojlantirish -Interaktiv o‘yinlar o‘quvchilarga turli ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, matematik masalalarni hal qilishda raqamli o‘yinlar va simulyatsiyalar, ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatishda roli bo‘lgan o‘yinlar, yoki strategik qarorlar

qabul qilishda interaktiv o‘yinlar qo‘llanilishi mumkin. Shu bilan birga, o‘quvchilar o‘zaro hamkorlikda ishlashni o‘rganib, guruhdagi faoliyatlarini yaxshilashadi.

c) Motivatsiya va qiziqishni oshirish - O‘quvchilarda motivatsiya va qiziqishni oshirishda o‘yinlarning roli katta. O‘yinlarda har bir muvaffaqiyatli qadam yoki darajaga erishish uchun mukofotlar, ballar yoki boshqa turtkilar mavjud bo‘lib, bu o‘quvchilarni o‘rganish jarayonida yanada faol bo‘lishga undaydi. O‘yinlar o‘quvchilarga yangi ma'lumotlarni qiziqarli tarzda taqdim etadi va ularning o‘rganishga bo‘lgan ixtiyori va xohishini kuchaytiradi.

Mavzu bilan bog‘liq muammolar:

a) Texnik infratuzilma yetishmasligi - Ko‘pgina ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash uchun zarur infratuzilma etarli emas. Yaxshi ishlaydigan kompyuterlar, internet aloqasi yoki o‘yinlarni o‘tkazish uchun kerakli dasturiy ta'minotning yo‘qligi o‘qitish samaradorligini cheklaydi. Bu muammo o‘qituvchilar va o‘quvchilarni raqamli o‘yinlar va interaktiv texnologiyalarni samarali qo‘llash imkoniyatidan mahrum qiladi.

b) O‘qituvchilarning raqamli texnologiyalarga tayyor emasligi - Barcha o‘qituvchilar o‘z ishida interaktiv va raqamli o‘yinlardan samarali foydalanishni bilishmaydi. Bu o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalarni o‘rgatish bo‘yicha etarli bilim va ko‘nikmalarga ega emasligidan kelib chiqadi. O‘qituvchilarga raqamli o‘yinlar va interaktiv texnologiyalarni ta'lim jarayonida qanday qo‘llashni o‘rgatish zarur.

c) O‘quvchilarning texnologiyalarga qaramligi - Interaktiv va raqamli o‘yinlarning doimiy ishlatilishi ba'zan o‘quvchilarda texnologiyalarga qaramlikni rivojlantirishi mumkin. Bu o‘quvchilarning ijtimoiy faoliyatlari, jismoniy faoliyatlari yoki boshqa ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek, ba'zi o‘quvchilar o‘yinlarga haddan tashqari vaqt sarflashdan charchashlari mumkin.

Muammolarni barqaror hal qilish yo‘llari:

a) Zarur infratuzilmani yaratish - Ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalarni o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish uchun zarur infratuzilma yaratish lozim. Yaxshi internet aloqasi, zamonaviy kompyuterlar va mobil qurilmalar mavjud bo‘lsa, o‘qituvchilar raqamli o‘yinlar va interaktiv texnologiyalardan samarali foydalanishi mumkin.

b) O‘qituvchilarga raqamli texnologiyalar bo‘yicha treninglar o‘tkazish - O‘qituvchilarga raqamli o‘yinlar va interaktiv texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo‘llashni o‘rgatish uchun maxsus treninglar va kurslar tashkil etilishi kerak. O‘qituvchilarni bu texnologiyalarni pedagogik maqsadlar uchun qanday ishlatishni o‘rgatish, ularning yangi metodikalar bilan tanishishini ta'minlaydi.

c) Texnologiyalardan muvozanatli foydalanish - O‘quvchilarga texnologiyalardan foydalangan holda interaktiv o‘yinlar o‘ynash imkoniyati berilishi kerak, lekin bu jarayonni muvozanatli va to‘g‘ri tartibda tashkil etish zarur. O‘qituvchilar o‘yinlarni maqsadga muvofiq va o‘quvchilarning boshqa ijtimoiy va jismoniy faoliyatlariga salbiy ta'sir ko‘rsatmasdan qo‘llashlari lozim.

d) Interaktiv o‘yinlarni individual ehtiyojlarga moslashtirish - O‘quvchilarni individual ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘yinlar bilan ta'minlash kerak. Bu o‘quvchilarning har xil darajadagi bilimlariga va o‘rganish uslublariga mos ravishda o‘yinlarni tanlashni anglatadi. O‘quvchilar o‘zlarining o‘rganish tezligiga qarab o‘yinlar va vazifalarni bajara olishlari kerak.

Takliflar:

Texnologik infratuzilmani yangilash: Ta'lim muassasalarida kompyuterlar, mobil qurilmalar va internet aloqasini yaxshilash va zamonaviy raqamli o‘yinlar va simulyatsiyalar uchun platformalarni yaratish.

O‘qituvchilar uchun treninglar: O‘qituvchilarga interaktiv o‘yinlar va raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga qanday qo‘llashni o‘rgatish bo‘yicha doimiy kurslar va treninglar tashkil etish.

Balansli o‘yinlar va texnologiyalarni qo‘llash: O‘quvchilarga texnologiyalardan samarali va muvozanatli foydalanishni o‘rgatish, ular o‘rganish va boshqa faoliyatlar o‘rtasida muvozanatni saqlashlari uchun nazoratni amalga oshirish.

Yakuniy xulosa qiladigan bo‘lsak, interaktiv va raqamli o‘yinlar zamonaviy ta'limda o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, bilimlarini mustahkamlash va o‘rganish jarayonini samarali qilishda muhim vosita hisoblanadi. Bu o‘yinlar o‘quvchilarga turli ko‘nikmalarni rivojlantirishga, o‘rganish jarayonini qiziqarli va interaktiv qilishga yordam beradi. Ammo, ularni qo‘llashda mavjud muammolarni hal qilish uchun texnologik infratuzilmani mustahkamlash, o‘qituvchilarni tayyorlash va texnologiyalardan muvozanatli foydalanishni ta'minlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. M. Hamidov, Oliy ta’limdagi innovatsion metodlar: raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosida. Toshkent: «Ta’lim va ilm» nashriyoti, 2021 yil. 300 b.

2. M. T. Abdullaev, S. A. Mirzaev, Oliy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2022 yil. 180 b.

3. I. N. Saidov, Raqamli texnologiyalarni o‘qituvchilar tayyorgarligida qo‘llash. Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2022 yil. 270 b.

4. G. M. Nurmatova, Innovatsion pedagogika: raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalari. Toshkent: “Islom Karimov” nashriyoti, 2023 yil. 240 b.

5. M. K. Sultonov, Fan ta’limida raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalari. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2023 yil. 215 b.

TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN STUDENTS

Asatullayeva Malika Shukhrat qizi
JSPU named after A. Kadiri 1st year graduate

Abstract. The article is devoted to the development of social and professional competence in future teachers. The issues of relying on different methods in the formation of professional and social competence in students and future teachers are discussed.

Keywords: competence, social competence, professional competence, multimedia, vocational education, macrotechnology.

Аннотация. посвящена развитию социально-профессиональной компетентности педагогов в будущем. Рассматриваются вопросы опоры на различные методы формирования профессиональных кадров и обсуждается социальная компетентность будущих учителей.

Ключевые слова: компетентность, социальная компетентность, профессиональная компетентность, мультимедиа, профессиональная образование, макротехнологии.

Annotatsiya. Maqola kelajakda o‘qituvchilarda ijtimoiy va kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishga bag‘ishlangan. Kasbiy kadrlarni shakllantirishda turli usullarga tayanish masalalari va talabalar va bo‘lajak o‘qituvchilardagi ijtimoiy kompetentsiya muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: kompetentsiya, ijtimoiy kompetentsiya, kasbiy kompetentsiya, multimedia, kasbiy ta’lim, makrotexnologiya.

Importance: Development of society and culture education and training today depending on the order in which their work is carried out. That is the state of importance is social law. Skilled, not forgetting that the great future of the state is necessarily connected with the fact that we grow young people to be deeply educated it is necessary that we define the formation of educators as the main goal. Currently the fate of the large-scale reforms carried out in our republic is the fate of young people depends on spiritual maturity, intellectual potential and professional qualities. Specialists in addition to theoretical and practical knowledge, the national program of preparation also has its own able to operate independently in the field of choice, constantly improving its qualifications and independently increasing, taking a creative approach to any issue, analyzing,

one of the main tasks is to educate a competent generation that can quickly adapt to conditions marked as. [2: C9]

In the process of education, despite the fact that we live in the age of Information Technology Educators who are still unable to effectively use modern technologies meet. The activities of many of our educators remain limited to lectures. Interactive methods of educational process, multimedia of future pedagogues to their predecessors, technological competence in themselves to enrich with slide, audio-video tools, it is imperative that they aim to build skills. Great Russian pedagogue Y. A. Komensky said “I forget when I hear, I remember when I see, I realize if I do I will reach “ without fail.

Improving the quality of Higher Education will bring education to the harmonious generation guarantees educators that they will grow up to be mature cadres in every way. The reason for this, the pedagogical profession is both a reformist and a managerial profession at the same time . To control personality maturation, it is necessary to be competent. Hence the concept of competence of the teacher performs its pedagogical activity in addition to his theoretical and practical preparation for improvement, he also has a high level of skill represents. 5 of the law of the Republic of Uzbekistan on education- article “persons with high moral qualities with pedagogical activity are entitled to engage “[1, 6-b]

The English concept of “competence” is lexicologically directly related to “ability” expresses meaning. The content is “effective in activity from theoretical knowledge to show usability, a high level of professional competence, skill and talent serves to illuminate the take”. The concept of “competence” is applied to the field of Education entered as a result of psychological research. Competence is therefore “irregular situations, how a specialist behaves in unexpected cases, to communication introduction, new behavior in interaction with opponents, ambiguous tasks in execution, in the use of Information full of contradictions, consistently developing and in complex processes refers to the ownership of the plan of movement”. Competence-theoretical knowledge, skills acquired by a student in a particular subject and the theoretical and practical issues that skills face in everyday life the solution is to be able to use it in practice.

Professional competence special knowledge, qualifications by a specialist integrative knowledge in each independent direction, and not in possession implies the appropriation of actions. Also competence it is important to constantly enrich the knowledge of the specialty, learn new information, to be able to understand social requirements, to search for new information, to process them and it is necessary to be able to apply in his activities.

Professional competence is evident in the following situations:

- in complex processes; - in the performance of ambiguous tasks;

- when using conflicting information;

- when being able to have an action plan in an unexpected situation

Professional competence specialist:

- consistently enriching his knowledge;

- absorbs new information; - deeply understands the requirements of the period;

- seeks new knowledge;

- processes them and effectively applies them in their practical activities.

Conclusion. A person is fond of his work, training, no matter what profession he has approaches, perfectly occupies its secrets. Self-consciousness, maturation in this area finds. When an educator loves and raises children, he grows up, he belongs to an educator adjectives are earned. We say that the future is in the hands of young people, which means that we are the people our tomorrow. We want interactive lessons to be organized. In this, the teacher’s the art of eloquence, the skill of beautiful eloquence attract our attention. Teacher - we respect educators because it is an extremely responsible and honorable profession. In this profession competence is important. In addition to the formation of competence one of our main tasks at the moment is to make students personal, professional and social effective in the type of qualifications that he occupies in situations that occur in his life teaching to apply independently, independently looking for the necessary information relevant to science distinguish materials related to the increase in necessary knowledge as a result of finding, analysis take, which gives work in the event of unclear, problematic situations that are not foreseen giving special importance to qualifications as well as the daily life of the acquired knowledge it consists of upbringing, having acquired the characteristics that he can apply in his process. All about their field in the upbringing of these features in future educators with the absorption of knowledge, skills and qualifications related to the sciences in the course processes together, it is also necessary to form competencies in them**.**

References:

1. The law of the Republic of Uzbekistan “On Education”Tashkent. 1997

2. President of the Republic of Uzbekistan on February 7, 2017 PF”on the strategy of Action for the further development of the Republic-decree No. 4947 “people’s word”, February 8, 2017

3. Muslimov N. A., Abdullayeva K. M, Gaipova N. S. Of future teachers theory and technology of the formation of pedagogical competence. Methodic Guide Tashkent-2014 112b

4. Hasanboev J. Explanatory Dictionary on pedagogy Tashkent-2008 149 b.

Internet sources:

1. http://learnweb. harvard. edu/alps/

2. http://v. ucf. edu/Web/purl. asp?pid=689

3. https://education. stateuniversity. com/pages/1652/Uzbekistan-SECONDARY-EDUCATION. html

4. http://lcweb2. loc. gov/frd/cs/profiles/Uzbekistan. pdf

TA’LIM JARAYONIDA VIRTUAL O‘YINLAR VA SIMULYATSIYALARNI QO‘LLASH: SAMARADORLIK VA MOTIVATSIYANI OSHIRISH

Aynaqulov Husniddin Abduxamidovich

Jizzax Politexnika instituti

Muhandislik va kompyuter grafikasi kafedrasi dotsent v. b.

aynaqulov1975@gmail. com

Hozirgi kunda ta’lim jarayonining samaradorligi va o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati katta. Bu borada virtual o‘yinlar va simulyatsiyalar o‘zining jozibadorligi va interaktivligi bilan e’tiborga molik. O‘quvchilarni yoki studentlarni o‘qitishda zamonaviy vositalardan foydalanish nafaqat ko‘nikmalarni o‘rgatish, balki ularning faollik darajasini oshirishga ham yordam beradi. Virtual o‘yinlar va simulyatsiyalar, jumladan, mavjud muammolarni hal qilish, strategik fikrlash, shoshilinch qarorlar qabul qilish va jamoada ishlash kabi mukammal ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, ular o‘quvchilarga real hayotga yaqin simulyatsiyalar orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Virtual o‘yinlar va simulyatsiyalar ta’lim jarayonida motivatsiyani oshirish, o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, ularga yangi bilimlarni o‘zlashtirishda qo‘shimcha qulaylik yaratishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar ta’limning an’anaviy shakllarini yangi, interaktiv va qiziqarli shakllarda taqdim etish imkonini beradi. Biroq, ularni samarali qo‘llashda ba’zi muammolar mavjud bo‘lib, ularning bartaraf etilishi ta’lim jarayonining sifatiga beqiyos ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Virtual o‘yinlar va simulyatsiyalar ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish uchun samarali vosita sifatida keng qo‘llaniladi. Ushbu texnologiyalar ta’limni jozibador, interaktiv va qiziqarli qiladi, shuningdek, o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan manfaatni va motivatsiyani oshiradi. Quyida ta’limda virtual o‘yinlar va simulyatsiyalarni qo‘llash bilan bog‘liq asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari keltirilgan.

Virtual o‘yinlar va simulyatsiyalarning foydali jihatlari:

a) Samaradorlikni oshirish - Virtual o‘yinlar va simulyatsiyalar interaktiv xususiyatga ega bo‘lgani uchun o‘quvchilarning faol qatnashishini ta’minlaydi. Bu o‘quvchilarning aniqlik bilan ma’lumotlarni qabul qilishini va ularni amaliyotda qo‘llashini osonlashtiradi. Masalan, fanlar, tarix, biologiya, kimyo kabi sohalarda simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliy tajribaga aylantirish imkonini beradi.

b) Motivatsiyani oshirish - O‘quvchilarda ta’limga bo‘lgan qiziqishni va motivatsiyani oshirishda virtual o‘yinlar samarali vosita hisoblanadi. Har xil o‘yin mexanizmlari, darajalarni bosqichma-bosqich o‘tish, raqobat va mukofotlar o‘quvchilarni ilgarilashga undaydi. Bu turdagi o‘yinlar o‘quvchilarni o‘rganishga va muammolarni hal qilishga rag‘batlantiradi.

v) Shaxsiyatni rivojlantirish - O‘yinlar va simulyatsiyalar o‘quvchilarda muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish, guruhda ishlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ular o‘quvchilarga juda turli xil vaziyatlar bilan ishlashni va yangiliklarga moslashishni o‘rgatadi.

Mavzuga oid muammolar:

a) Texnologiyalardan foydalanishdagi muammolar - Barcha ta’lim muassasalarida virtual o‘yinlar va simulyatsiyalarni qo‘llash uchun zarur bo‘lgan zamonaviy texnologiyalar va infratuzilmalar mavjud emas. Aksariyat hollarda, o‘qituvchilarda o‘yinlarning sifati va qo‘llanilishi uchun tegishli bilim va malakalar yo‘q.

b) Oquvchilarning diqqatini uzish - Ba’zi o‘quvchilar virtual o‘yinlarning ko‘p vaqtni olishini va nazariy bilimlarni e’tibordan chetlatishini his qilishlari mumkin. Ushbu holat ularning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishini kamaytirishi va samaradorlikka ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

v) Har doim yangilanib turadigan kontent va usullar - Virtual o‘yinlar va simulyatsiyalar tezkor ravishda yangilanib turishni talab qiladi. Yangiliklarga moslashish va kontentni qayta ishlash ogohlik va vaqtni talab qiladi, bu esa ta’lim muassasalari uchun qiyinchilik tug‘diradi.

Muammolarni bartaraf etish yo‘llari:

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarni mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash - bu unda mehnatga nisbatan uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko‘nikmalarni egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir. O‘quvchilarning to‘g‘ri yo‘naltirilgan mehnat jarayonlari diqqatni bir yerga to‘plashni, serharakatlilikni, qiyinchiliklar bo‘lishiga qaramasdan, boshlagan ishini oxirigacha yetkaza olish odatlarini tarbiyalashga, o‘quvchilarning ijodiy tashabbusini o‘stirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xoliqov A ‖Pedagogik mahorat‖ – Toshkent.: Iqtisod – moliya, 2010 – yil,

2. P. Magzumov. O‘quvchilarning mehnatga tayyorgarlik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari sifati. T. 1994y

3. 1-4 sinf o‘quv uslubiy tavsiya kitobi. “O‘qituvchi” nashriyoti 2017 yil.

4. X. Sanaqulov, D. Xodiyeva. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. – T. ; Tafakkur bo‘stoni, 2015, – 71 b

5. I. A. Mannopova, D. M. Sayfunov. Texnologiya Umumiy o‘rta ta’lim maktablaining 4 – sinfi uchun darslik. – T. ; O‘qituvchi, 2020.

6. Axmedov Ildar Gennadevich “Molodoy ucheniy” № 21. 2019, – 615 b 4. Dilbar Mirahmedova Texnologiya 1 Metodik qo‘llanma. – T – 2021

RAQAMLI TA’LIM VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Muxtorova Dilfuza Mahmudjon qizi
Namangan davlat universiteti pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi,
To‘xtaxo‘jaeva Muxtasarxon Yaxyoxon qizi
Namangan davlat universiteti pedagogika fakulteti
Ijtimoiy ish yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu, maqola o‘qituvchilarga raqamli vositalardan qanday samarali foydalanish, interaktiv ta'lim, onlayn resurslar va masofaviy o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Raqamli kompetensiyalar, sun'iy intellekt, ta'lim texnologiyalari, o‘qituvchilarning professional rivojlanishi, shaxsiylashtirilgan ta'lim, interaktiv ta'lim metodlari, masofaviy o‘qitish.

Аннотация. В данной статье даны рекомендации учителям о том, как эффективно использовать цифровые инструменты, интерактивное обучение, онлайн-ресурсы и дистанционное обучение.

Ключевые слова: Цифровые компетенции, искусственный интеллект, образовательные технологии, профессиональное развитие учителей, персонализированное образование, интерактивные методы обучения, дистанционное обучение.

Abstract. This article provides recommendations to teachers on how to effectively use digital tools, interactive learning, online resources, and distance learning.

Keywords: Digital competences, artificial intelligence, educational technologies, professional development of teachers, personalized education, interactive educational methods, distance learning.

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning roli tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda o‘qituvchilarning ta'lim jarayonidagi samaradorligini oshirish uchun raqamli vositalar, o‘quv platformalari va sun'iy intellekt kabi texnologiyalarni to‘g‘ri va samarali qo‘llash zaruriyati kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bu texnologiyalar o‘qituvchilarga o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini yanada samarali boshqarish, shaxsiylashtirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va darslarni interaktiv qilish imkonini beradi. O‘qituvchilarni bu texnologiyalarni qo‘llashga tayyorlash, ularning professional rivojlanishiga yordam berish, shuningdek, raqamli kompetensiyalarini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilashning muhim qadamlaridan biridir.

Raqamli ta'lim vositalari - bu ta'lim jarayonini yaxshilash va samaradorligini oshirish uchun ishlatiladigan texnologiya yoki dastur. Bu vositalar o‘quvchilarga yangi imkoniyatlar yaratadi va o‘qituvchilarga o‘qitish usullarini yangilab beradi.

Raqamli ta'lim vositalarining foydalari:

• O‘qitish va o‘rganishni shaxsiylashtirish: Har bir o‘quvchiga moslashtirilgan o‘quv rejasi yaratiladi.

• Global imkoniyatlar: Har qanday joydan, har qanday vaqtda o‘qitishga imkon beradi.

• O‘z-o‘zini o‘rganishni rag‘batlantirish: O‘quvchilarga o‘zi o‘rganish jarayonini boshqarishga imkon beradi.

• O‘qitishni boyitish: Interaktiv va ko‘rgazmali o‘qitish usullarini qo‘llashga imkon beradi.

• O‘qituvchilar uchun qulaylik: O‘qitish jarayonini avtomatlashtirishga va o‘qituvchilarning yukini kamaytirishga yordam beradi.

• Ma'lumotlarni tahlil qilish va samaradorlikni oshirish: O‘quvchilarning o‘rganish jarayonini kuzatib borish va o‘quv dasturini takomillashtirishga yordam beradi.

Raqamli ta'lim vositalarining kamchiliklari:

• Texnologiya bilan bog‘liq muammolar: Internetga kirish, dasturlar bilan tanishish va texnik muammolar.

• O‘quvchilarni jalb qilish qiyinligi: Ba'zi o‘quvchilar uchun raqamli vositalar o‘ziga jalb qiluvchi bo‘lmasligi mumkin.

• Narx: Raqamli ta'lim vositalarini qo‘llash uchun investitsiyalar talab etiladi.

O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish. Raqamli kompetensiyalarni oshirish uchun quyidagi yondashuvlar muhim:

Pedagogik tayyorgarlik.

O‘qituvchilarni raqamli texnologiyalarni nafaqat texnik ko‘nikmalar, balki pedagogik maqsadlarda ham qo‘llashga o‘rgatish zarur. Masalan, interaktiv ta'lim texnologiyalarini (smart taxtalar, onlayn o‘quv platformalari va boshqa raqamli vositalar) dars jarayoniga integratsiya qilishni o‘rgatish kerak. Bu pedagogik yondashuv o‘qituvchilarga darslarni nafaqat samarali, balki o‘quvchilar uchun qiziqarli va motivatsion qilish imkonini beradi.

Kurslar va treninglar.

O‘qituvchilarga zamonaviy texnologiyalarni o‘rgatishda turli kurslar, treninglar va seminarlar o‘rni alohida. Ular, masalan, onlayn o‘quv platformalari, ta'lim dasturlari, masofaviy ta'lim tizimlari, ma'lumotlarni tahlil qilish va sun'iy intellektni ta'limda qo‘llash usullarini o‘z ichiga olishi mumkin. Shu tarzda, o‘qituvchilar texnologiyalarni o‘z pedagogik amaliyotlarida to‘g‘ri va samarali qo‘llashni o‘rganadilar.

Sun'iy intellektni ta'limga integratsiya qilish.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari ta'lim tizimida yangi imkoniyatlar yaratadi. O‘qituvchilar uchun SI yordamida o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini kuzatish va baholash, individual yondashuvlarni ta'minlash osonlashadi. SI quyidagi sohalarda ta'limga samarali yordam beradi.

Shaxsiylashtirilgan o‘quv dasturlari.

Sun'iy intellekt yordamida o‘quvchilarning yutuqlari, kuchli va kuchsiz tomonlari tahlil qilinadi va shaxsiy o‘quv rejalarini yaratish imkoniyatlari ochiladi. Misol uchun, SI tizimlari o‘quvchilarning o‘qish tezligini, qaysi mavzularda qiyinchiliklarga duch kelayotganini aniqlab, individual yordam ko‘rsatadi. Sun'iy intellekt yordamida o‘qituvchilar o‘quvchilarning ishlari va test natijalarini tez va aniq baholashlari mumkin. Bu, o‘qituvchilarga ko‘proq vaqtni darsning sifatiga sarflash imkonini beradi, chunki avtomatik tizimlar test va ishlarni baholashni tezlashtiradi. O‘qituvchi, bu orqali, o‘quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ularga moslashgan ta'limni taqdim etishi mumkin.

Sun'iy intellekt texnologiyalari gamifikatsiya (o‘yinlash) metodlarini ta'lim jarayoniga qo‘llashga imkon beradi. O‘qituvchilar o‘quvchilarning qiziqishini oshirish uchun interaktiv o‘yinlar, masalalar va testlar tashkil etishlari mumkin. Bu metod o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va ta'lim jarayonini qiziqarli qiladi. O‘qituvchilarni raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan samarali foydalanishga tayyorlash, ularning professional rivojlanishiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Raqamli vositalar va SI texnologiyalari o‘qituvchilarga o‘quvchilar bilan samarali ishlashda, ularning o‘rganish ehtiyojlarini tushunishda yordam beradi. O‘qituvchilarning professionallik darajasi oshgan sari, ta'limning umumiy sifati ham yuksaladi. O‘qituvchilarni raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni qo‘llashga doimiy ravishda o‘rgatish va qayta tayyorlash muhimdir. Ta'lim sohasidagi texnologik o‘zgarishlar juda tez amalga oshmoqda, shuning uchun o‘qituvchilarga yangi vositalar va metodlardan foydalangan holda o‘z bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda yangilab borish zarur. O‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashish, yirik ta'lim platformalari va forumlarda ishtirok etish, yangi texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha o‘zaro maslahatlashish imkoniyatlarini yaratish kerak. Bunday tarmoqlar o‘qituvchilarga yangi metodlar va texnologiyalarni o‘rganishga yordam beradi va ularning professional rivojlanishini ta'minlaydi.

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan samarali foydalanish, o‘qituvchilarning professional rivojlanishiga va ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchilarni bu texnologiyalar bilan tanishtirish, ularning raqamli kompetensiyalarini oshirish va ta'limda innovatsiyalarni joriy etish orqali biz ta'lim tizimini yanada samarali, qiziqarli va

shaxsiylashtirilgan qilishimiz mumkin. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning professional rivojlanishiga doimiy e'tibor berish, ularning zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llashiga imkon yaratadi, bu esa o‘z navbatida, o‘quvchilarning ta'lim olish sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gulomov, D. (2020). Raqamli ta'lim texnologiyalari va ularning pedagogik yondashuvlar bilan integratsiyasi. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Noshirligi.

2. Razzakov, M. (2019). Ta'limda raqamli texnologiyalar: imkoniyatlar va muammolar. Tashkent: Ma’naviyat va Ma’rifat Noshirligi.

3. Toshmatov, T. (2021). O‘qituvchilarni raqamli kompetensiyalariga tayyorlash: masofaviy ta'lim va interaktiv vositalar. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi O‘qituvchilarni tayyorlash institutining nashri.

4. Abdullayeva, N. & Raxmonov, A. (2020). Sun'iy intellekt va ta'lim: yangi imkoniyatlar va yondashuvlar. Tashkent: Ilm Ziyo Noshirligi.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI DASTURLASHGA QIZIQTIRISHNI SCRATCH DASTURLASH TILI ORQALI AMALGA OSHIRISH

Sadoqat Xoliqulovna Normurodova
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Informatika va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
sadoqatnormurodova33@gmail. com
Asadova Shaxina Halim qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika va informatika yo‘nalishi 1-23-guruh talabasi

Annotatsiya. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun dasturlash ko‘nikmalarini o‘rgatish nafaqat ularning texnologik savodxonligini oshiradi, balki mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashuv va muammolarni hal qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Scratch dasturlash tili, o‘zining interaktiv va vizual bloklari yordamida, o‘quvchilar uchun dasturlashni qiziqarli va tushunarli shaklda o‘rgatishga imkon beradi.

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini dasturlashga qiziqtirish uchun Scratch dasturlash tilidan foydalanib o‘quv jarayonini interaktiv va samarali qilish usullarini ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Logo, Scratch, kompyuter savodxonlik, vizual dasturlash, Mantiqiy va algoritmik tafakkur, ijodiy fikrlash, hamkorlik va jamoaviy ishlash, texnologik savodxonlik, motivatsiya va qiziqish.

Kirish. Xorijiy tajribalar shu ko‘rsatmoqda-ki, o‘quvchilarni boshlang‘ich sinflardanoq o‘zi mustaqil qaror qabul qilish va o‘z fikrini ayta olish ko‘nikmalarini shakllantiribgina qolmay aniq bir yo‘nalishni tanlash va shu yo‘nalish asosida o‘z bilimlarini mustahkamlashni ham boshlash zarur.

Boshlang‘ich sinflarni dasturlashga qiziqtirish mavzusida bir qator olimlar va tadqiqotchilar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Garchi bu soha nisbatan yangi bo‘lsa-da, turli davlatlarda o‘qituvchilar va pedagogika bo‘yicha mutaxassislar boshlang‘ich ta’limga dasturlash elementlarini kiritish bo‘yicha izlanishlar olib borishgan. Quyida bu mavzuga qiziqqan ba’zi taniqli tadqiqotchilar va ularning yondashuvlari keltiriladi:

Seymour Papert – Dasturlashni bolalar ta’limiga kiritish g‘oyasini ilgari surgan mutafakkir. U bolalarning mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun **LOGO** dasturlash tilini ishlab chiqqan .

Mitchel Resnick – **MIT Media Lab** a’zosi bo‘lib, u Scratch dasturlash tilini yaratishda boshchilik qilgan. Resnick va uning jamoasi boshlang‘ich va o‘rta maktab o‘quvchilarini dasturlashga o‘rgatish orqali ularning ijodiy va texnik ko‘nikmalarini rivojlantirishni maqsad qilgan .

Yasmin B. Kafai – Bolalarga dasturlash va kompyuter texnologiyalarini o‘rgatish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. U Scratch va boshqa vizual dasturlash tillari orqali o‘quvchilarning o‘qish jarayonidagi faoliyatlarini qiziqarli qilish usullarini o‘rgangan .

Jean Piaget – U to‘g‘ridan-to‘g‘ri dasturlash bo‘yicha tadqiqot olib bormagan bo‘lsa-da, uning kognitiv rivojlanish nazariyalari ta’limda dasturlashni qanday qo‘llash haqida ko‘plab tadqiqotlarga asos bo‘lgan .

Valery S. Levin va **Elena B. Khenner** kabi rus olimlari – Bolalarni dasturlash va kompyuter savodxonligini oshirish bo‘yicha Rossiyada izlanishlar olib brogan .

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda dasturlashga qiziqtirish uchun turli metodlardan foydalaniladi.

O‘quvchilarga mos metodika: Darslarni o‘yinlar, animatsiyalar va ko‘p bosqichli loyihalar yordamida tashkil qilish.

Proyektsion ta’lim: O‘quvchilarga kichik dasturiy loyihalar yaratish imkoniyatini berish va ularning ijodkorligini rag‘batlantirish.

Vizual dasturlash: Scratchning blok asosida ishlaydigan interfeysi yordamida murakkab kodlash elementlarini sodda ko‘rinishda taqdim etish.

Scratch yordamida tashkil etilgan darslar bolalarning mavzuga qiziqishini orttirib, o‘rganishni qiziqarli qiladi. Bolalar o‘zlari yaratgan o‘yinlar va animatsiyalar orqali o‘zlashtirgan bilimlarini amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu usul bolalarda nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki ijodiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Scratch orqali dasturlashga qiziqtirish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida quyidagi ko‘nikmalar va fazilatlar shakllanadi:

1. Mantiqiy va algoritmik tafakkur: Scratch bilan ishlash orqali bolalar muammolarni bosqichma-bosqich hal qilishni, algoritmlarni tuzishni va o‘z fikrlarini mantiqiy tarzda ifodalashni o‘rganadilar.

2. Ijodiy fikrlash: Scratch o‘quvchilarga o‘z animatsiyalarini, hikoyalari va o‘yinlarini yaratish imkoniyatini beradi, bu esa ularning ijodiy fikrlash va muammolarga o‘ziga xos yondashish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

3. Hamkorlik va jamoaviy ishlash ko‘nikmalari: Scratch orqali loyihalarni birgalikda yaratish va bo‘lishish jarayonida bolalar bir-birlari bilan hamkorlik qilishni, fikr almashishni va birgalikda ishlashni o‘rganadilar.

4. Texnologik savodxonlik: Scratch dasturlash tili bilan tanishish orqali o‘quvchilar dasturlashning asosiy tushunchalari (o‘zgaruvchilar, shartli ifodalar, tsikllar va h. k.) haqida bilimga ega bo‘lishadi va kelajakda murakkabroq dasturlash tillarini o‘rganishga tayyor bo‘ladilar.

5. Muammolarni hal qilish ko‘nikmalari: Scratch-da turli kodlarni yaratish va test qilish jarayonida o‘quvchilar muammolarni aniqlash va ularga yechim topish, xatolarni bartaraf etish ko‘nikmalarini shakllantiradilar.

6. O‘z-o‘zini anglash va ishonch: Yangi loyihalarni yaratish va o‘z loyihalarini namoyish etish jarayoni o‘quvchilarda o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni va o‘z-o‘zini anglashni kuchaytiradi.

7. Motivatsiya va qiziqish: O‘yin va interaktivlik orqali ta’lim berish usullari o‘quvchilarning darslarga nisbatan qiziqishini oshiradi va ularni o‘rganish jarayoniga jalb etadi.

Ushbu ko‘nikmalar bolalarning kelgusidagi ta’lim jarayonlariga tayyor bo‘lishini va turli fanlarda muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

Scratch dasturlash tilini boshlang‘ich sinflarda dasturlashni o‘rgatishda qo‘llash ko‘plab pedagogik afzalliklarga ega. U o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otib, ularda dasturlash asoslarini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi. Shu bilan birga, Scratch yordamida o‘rganilgan

bilimlar boshqa, yanada murakkab dasturlash tillarini o‘zlashtirish uchun poydevor vazifasini o‘taydi.

Kelajakda Scratch asosida yanada keng qamrovli o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, boshqa texnologiyalar bilan integratsiyalashgan loyihalar yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. S. Papert. *Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas*. Basic Books. — Ta’limda dasturlashning asoslari. 1980-y.

2. M. Resnick, *Learn to Code, Learn to Think*. EdSurge. — 2013-y.

3. I. Lee, K. Brennan. *Scratch Programming for Young Learners*. — 2011-y.

4. I. I. Bogomolova, A. A. Boshqarov, *Dasturlash ta’limida Scratchning o‘rni*. —2019-y.

5. S. X. Normurodova. “O‘quvchilarni dars mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishlarini Scratch dasturi imkoniyatlari orqali rivojlantirish” Eurasian journal of academic research jurnali 2023-yil.

6. S. X. Normurodova. Scratch dasturida yaratilgan elektron qo‘llanma orqali 1-sinf o‘quvchilariga “Alifbe”ni o‘rgatishning afzalliklari. Yosh olimlar Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. 2024-yil 4(13)-son.

MODERN STATE AND PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF DIGITAL TECHNOLOGIES AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Ismailova Lobar Maksudovna

1st stage master’s student, group 101,

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Abstract. Digital technologies and artificial intelligence are key drivers of modern societal progress. These technologies are transforming industries such as healthcare, education, agriculture, transportation and more. This paper examines the current state of digital technologies, the prospects for their development, and the impact of Al on society. The paper presents the modern perspectives of digital technologies and artificial intelligence in the field of education, and also touches on the advantages and disadvantages of artificial intelligence.

Keywords: electronic, effective method, science, information, teacher, digital technology, process

The rapidly changing world around us obliges the school to change just as rapidly. Today the world is undergoing a leap into the digital age. Judge for yourself: tablets, mobile phones, smart watches, virtual reality glasses have become part of the everyday life of today's students. Our digital life is evolving rapidly. And in the classroom, showing presentations, videos, audio

applications is no longer a novelty. Digital technologies are the basis of education in the 21st century. Every modern teacher understands that it is necessary to teach in a new way, using innovative computer technologies in the educational process. Digital educational resources (CDR) are photographs, video clips, models, role-playing games, cartographic materials that are necessary for organizing the educational process and presented in digital form, selected in accordance with the content of a specific textbook, "tied" to lesson planning and provided with the necessary methodological recommendations. The introduction of new information technologies, COR, in the educational process makes it possible to activate the learning process, increase the pace of the lesson, and increase the volume of independent and individual work of students. Today, in order for the learning process to be complete, it is necessary that each teacher can prepare and conduct a lesson using various electronic educational.

In recent years, extensive reforms have been implemented in all areas of our country. Long-term strategies with clear goals and indicators are adopted and consistently implemented. The "Digital Uzbekistan-2030" strategy approved by the head of our state and the rapid introduction of artificial intelligence technologies and their widespread use in our country are convenient for ensuring access to digital information and its high quality, training qualified personnel in this field. creation of conditions was determined . For this purpose, innovative business based on artificial intelligence technologies actions have been initiated to create a convenient and alternative ecosystem for the development of models, products and service methods, to quickly introduce and implement them in the identified priority sectors and areas. The reason is that artificial intelligence technologies are one of the fastest growing promising areas of digital technologies. There are two main types of artificial intelligence:

1. Small or weak artificial intelligence: This type of artificial intelligence is developed and trained for a specific task, and its capabilities are limited by a specific field. For example, virtual personal assistants, image and voice recognition programs and chatbots.

2. General or artificial intelligence: This is a more advanced form of artificial intelligence, understanding, learning, processing and applying knowledge in a wide range of tasks similar to the human mind possible Artificial intelligence (AI) is revolutionizing various aspects of the education system, from administrative tasks to personalized learning experiences, to play a significant role in educational management.

If we look at the many advantages of artificial intelligence:

Reduction of human error: One of the greatest achievements of artificial intelligence is that it reduces human error and is considered to be less error-prone. Unlike humans, a computer machine cannot make mistakes if properly programmed. And people because of the waterfall or

the usual occasional they make a mistake with Therefore, artificial intelligence uses a certain set of algorithms by collecting previously stored data, reducing the probability of errors and increasing the accuracy of any task. Hence, artificial intelligence can help solve complex problems that require difficult calculations and how to hash without error. Risk reduction: This is also one of the biggest advantages of artificial intelligence. The technology of developing artificial intelligence-based robots is able to overcome many dangerous situations of humans and can perform tasks that are difficult for humans to do. For example, it can be used in studying and researching dangerous areas, discovering unexplored places in space, performing complex operations, quickly conducting research in any conditions, and in other areas. Thus, he can help in any difficult situation. The debate about artificial intelligence has been going on for almost 50 years. Experts have not yet come to a conclusion. Some worry that mass unemployment could rise as a result of their increasing popularity. Another group of experts say that artificial intelligence should be treated positively. Even among IT billionaires, there are differing views. In particular, the founder of SpaceX, Elon Musk, believes that artificial intelligence can threaten human civilization. According to Musk, artificial intelligence will cause massive labor problems. The reason is that robots can do everything better than us. In the pursuit of cutting-edge technology, companies can lose sight of the dangers posed by artificial intelligence. Also, the head of Microsoft, Bill Gates, touches on its harm: "In a few decades, when robots begin to do most of the work, artificial intelligence will become so powerful that it will eventually start to worry us. "

Artificial intelligence is playing an important role in changing the way students learn and the way teachers teach. We have looked at the positives and negatives of artificial intelligence in education, with human intervention required to balance these aspects. Here the question arises: what important role should the teacher play so that students' use of artificial intelligence in education remains moderate. First of all, a modern teacher should be aware of AI and IT technologies. Curricula should be created in collaboration between the teacher and the AI. AI systems will help with teaching, assessment, and real-time feedback, while teachers will be more in- depth with guidance, explanations, and materials. provide mutual communication. The role of teachers as motivators, coaches and people who provide the necessary support when necessary is crucial for students' learning. Artificial intelligence cannot reproduce human emotional skills. Therefore, teachers should constantly develop creativity and critical thinking skills. The world is developing at a very fast pace, and we need to understand that the power of artificial intelligence will do more good than harm. That's why we need to use AI not only in education, but in many areas of our lives. In order to provide the best education for students and create a good image for

them, we should learn to use artificial intelligence in moderation, without relying on it. No artificial intelligence can express the teacher's feelings and love for his students

References:

1. A. Abdukadirov, S. Zakirov, O. Mamarajabov and A. Sayfulla, "Conditions for the development of students’ information competence in the aspect of the development of distance learning in the humanities, " 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), 2021, pp. 1-4,

2. Shaxnoza Abduhakimovna Abduraxmanova. (2022). INDIVIDUALIZATION OF PROFESSIONAL EDUCATION PROCESS ON THE BASIS OF DIGITAL TECHNOLOGIES. World Bulletin of Social Sciences, 8, 65-67. Retrieved from https://scholarexpress. net/index. php/wbss/article/view/721

3. British Educational Communications and Technology Agency (Becta), (2004). A review of the research literature on barriers to the uptake of ICT by teachers. Retrieved from http://www. becta. org. uk

4. Yoldoshev J., Usmanov S. Basics of pedagogical technology. Teacher, 2004.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA XALQARO BAHOLASH DASTURIGA TAYYORLASH

Eshonqulova Shafoat Ergashevna

Jizzax davlat pedagogika unversiteti dotsenti

Eshonqulov Sherzod Ummatovich

Jizzax politexnika instituti dotsenti

Samandarova Shahnoza

Òzbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti

Annotasiya. Ushbu maqolada Xalqaro baholash dasturlari, ularning olib borilishi tartibi hamda nizomlari haqida yoritilgan. PISA xalqaro baholash dasturi mezonlari, uning natijalari va ushbu dastur ishlab chiqilishidan ko‘zlangan maqsad haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Xalqaro baholash dasturi, OSED, IEA, PISA, matematika, tabiiy fanlar, o‘qish savodxonlik, tadqiqot, dastur, mamlakat, davlat.

Abstract. This article describes International Evaluation Programs, their procedure and regulations. Information about the criteria of the PISA international assessment program, its results and the purpose of the development of this program is provided.

Keywords: International Assessment Program, OSED, IEA, PISA, mathematics, natural sciences, reading literacy, research, program, country, state.

So‘ngi yillarda respublikamizda ta'lim tizimida ko‘plab islohotlar olib borilmoqda. Bu haqida yangi qonunlar qabul qilindi va tez kunlar ichida joriy etildi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasi har tomonlama e’tiborni kuchaytiradi. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lmish yoshlarni ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu bilan birga, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi:

PISA (inglizcha - Programme for International Student Assessment) – turli davlatlarda 15 yoshli o‘quvchilarning savodxonligini (o‘qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur 3 yilda bir marotaba o‘tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo‘llanilgan. Bu dastur bo‘yicha har uch yilda o‘quvchilarning bilimini baholash maqsadida sinovlar o‘tkaziladi. Hozirgi kungacha jami 7 marta (2000, 2003, 2006, 2009, 2012, 2015 va 2018 yillar) PISA dasturi bo‘yicha testlar o‘tkazilgan bo‘lib, keyingi sinovlar 2021 yilda bo‘lishi rejalashtirilgan. Mamlakatimiz ham 2021 yildan bu dasturga qo‘shilishga tayyorgarlik ko‘rmoqda. Lekin bu dasturdan qatnashishdan maqsad testlarni o‘tkazish yoki o‘quvchilarni testga tayyorlash emas, o‘quvchilarimizda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish raqobatbordosh kadrlarni yaratish uchun mustahkam zamin yaratish hisoblanadi. Xo‘sh, PISA dasturining maqsadi nima, u qanday zaruriyat tufayli paydo bo‘ldi va PISA savollari qanday prinsipga asoslangan holda tuziladi?

XXI asr – informatsion texnologiyalar asri. Bu asr o‘z mutaxassislaridan umuman oldingidan farq qiluvchi kompetensiyalarni talab qiladi. XX asrda va undan oldin kuchli xotira, ensiklopedik bilim, o‘z sohasida iloji boricha ko‘proq ma‘lumotni bilgan mutaxassislar yuqori qadrlangan bo‘lsa, endi bu bilimlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lmay qoldi. Qidiruv tizimlari,

onlayn ensiklopedialar, sohalar bo‘yicha mukammal onlayn ma‘lumotlar bazalari yaratildiki, endi bu ma‘lumotlarni eslab qolish zaruriyati ikkinchi planga tushib qoldi.

Hozirgi zamon mutaxassisida bu bilimlarni tahlil qilish, ulardan yangi ma‘lumotlarni hosil qila olish, xalq tili bilan aytganda “kosa tagidagi nimkosa”ni ko‘ra olish kompetensiyasi birinchi o‘ringa ko‘tarilayapti.

PISA testlari xuddi shu o‘zgarishlarni ta‘lim tizimida aks ettirish, maktab o‘quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo‘ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta‘lim tizimining bu o‘zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

PISA test tarkibi

PISA testlari 5 ta yo‘nalish bo‘yicha o‘tkaziladi: O‘qish, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar, hamkorlikda muammolarni hal qilish va moliyaviy savodxonlik yo‘nalishlari. O‘zbekiston 2021 yilda uch yo‘nalish: O‘qish, matematik savodxonlik va tabiiy-ilmiy fanlar yo‘nalishlari bo‘yicha testlarda qatnashishni rejalashtirgan.

Testlarda asosiy e‘tibor o‘quvchilarning mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha eng asosiy tushunchalarni bilish, bazaviy bilim va ko‘nikmalarni egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishga qaratiladi. Bu testlarda o‘quvchilarning dars davomida aniq mavzular bo‘yicha o‘rgangan bilimlarni sinovdan o‘tkazish nazarda tutilmagan.

Respublikamizda qo‘yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to‘g‘risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA-International Association for the Evaluation of Educational Achiyevement) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

IEA(Talim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi) tashkiloti tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyati o‘quvchilarning akademik faoliyatini bir yoki bir nechta fanlardan yoki fanlararo uyg‘unlik asosida baholashni o‘z ichiga oladi, bu esa dunyo bo‘yicha umumiy va har bir mamlakat kesimida ta'lim jarayonlarini chuqur tahlil qilishga yordam beradi. O‘quvchilarning erishgan yutuqlarini o‘rganishda barcha o‘quvchilardan emas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o‘quvchilardan obyektiv testlarni o‘tkazish orqali baholanadi. Shuningdek, maktab direktorlari, o‘qituvchilar, o‘quvchilar, hattoki ota-onalardan so‘rovnomalar o‘tkazilib, maktabdagi ta'lim sifatiga ta'sir ko‘rsatuvchi omillar, jumladan, maktab resurslari, o‘quvchilarning ta'lim olishga oid qarashlari, o‘qitish usullari hamda uy sharoitida o‘quvchilarning bilim olishi qanchalik darajada qo‘llab-quvvatlanayotganligiga doir qimmatli ma'lumotlar to‘planadi. Ushbu tadqiqotlar yuqori texnik va ilmiy talablar asosida o‘tkaziladi.

Shuningdek, o‘rganilayotgan holatlarning xususiyatidan kelib chiqib, amaliy tadqiqotlar bilan birga kuzatuv kabi samarali usullardan ham foydalaniladi. Ushbu dasturning ko‘p yillar davomida muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotganiga 2021-yilda 20 yil to‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi VM ning 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora -tadbirlari to‘g‘risida" gi 997-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspektsiyasi qoshida "Ta'lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi" tashkil etildi. .

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. .

Boshlang‘ich ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalar sifatida esa ta'lim jarayonida turli xil matnlardan foydalanishni ta'minlash zarur: yaxlit, yaxlit bo‘lmagan, murakkab (ko‘plik), turli xil matnlarni o‘qish uchun turli strategiyalarni ishlab chiqish, tushunib o‘qishni shakllantirish va baholashning turli shakllaridan foydalanish (qog‘oz va kompyuter shakllari) kabi vazifalar qo‘yilgan. Rossiyada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi bo‘yicha olib borilayotgan ishlarda PIRLS darslari. O‘qish tezligini nazorat qilishdan ko‘ra tushunib o‘qishga urg‘u berish kuzatildi. O‘qish savodxonligi funksional savodxonlikning integrativ komponenti sifatida anglatmoqda. Rossiyada bu davlat hujjatlari darajasida qayd etilgan (FDAS UBT 2009-y.) Matematik, lingvistik, tarixiy, tabiiy-ilmiy va ma'lumotnomalarni o‘qishni o‘rgatishda o‘ziga xoslik ishlab chiqarilmoqda. O‘qish savodxonligini baholashning turli modellari metapredmet natijasi sifatida yaratiladi. . .

Ushbu tadqiqot sinovi har 5 yilda bir marta o‘tkazishga mo‘ljallangan bo‘lib, 2021-yil uchun mo‘ljallangan tadqiqotlarda O‘zbekistonning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ham ishtirok etishi o‘qituvchilariga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu muhim vazifani amalga oshirish o‘qituvchidan ta'limga yangicha yondashuvni va faollikni talab etadi. O‘quvchini xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga tayyorlashda o‘qish darsi jarayonida darslikda berilgan har bir matn yuzasidan o‘quvchi o‘zi mustaqil ravishda ushbu matndan kelib chiqib savollar tuzish vazifasi qo‘yilsa, har bir bolaning berilgan matnni qay darajada o‘zlashtirganligini uning tuzgan savollari orqali bilib olish mumkin. Bunda o‘quvchining dunyoqarashi, mustaqil fikrlashi va obrazli

tafakkuri har bir dars davomida rivojlantirilib boriladi. Dars jarayonida bola to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri fikrini tinglab, to‘g‘ri xulosani hayotiy faktlar orqali chiqarishga o‘rganib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-sonli farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.

3. "Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish - inson kapitalini rivojlantirish omilidir" mavzusidagi xalqaro vebinar. Sidorova Galina Aleksandrovna, Rossiya ta'lim akademiyasining ta'limni rivojlantirish strategiyasi instituti, ta'lim sifatini baholash markazining katta ilmiy xodimi, pedogogika fanlari nomzodi.

4. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil. 92 b.

e-mail: centeroko@mail. ru Veb-sayt www. centeroko. ru

5. "PISA. 2021 xalqaro solishtirma tadqiqoti doirasida o‘qish savodxonligini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari" nomli taqdimot. Kuznetsova Marina Ivanovna, Rossiya ta'lim akademiyasi Ta'limni rivojlantirish strategiyalari instituti Boshlang‘ich ta'lim markazi yetakchi ilmiy xodimi. e-mail: centeroko@mail. ru Veb-sayt www. centeroko. ru

6. Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi saytlari.

E-mail: markaz@tdi. uz Veb-sayt: http://www. markaz. tdi. uz/ Telegram: https: //t. me/milliymarkaz

RAQAMLI O'YINLAR, SIMULYATSIYALAR VA INTERAKTIV TA'LIM DASTURLARI ORQALI TALABALAR ILMIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MEHANIZMLARI

Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o’g‘li

I. Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institute

Gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. Raqamli transformatsiya asrida ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarning kognitiv ko‘nikmalarini, xususan, ilmiy tafakkurini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Raqamli o‘yinlar, simulyatsiyalar va interaktiv ta’lim dasturlari o‘quvchilarni faol o‘rganishga jalb qilish, tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va so‘rovga asoslangan o‘rganishni rag‘batlantirish uchun innovatsion vositalar sifatida paydo bo‘ldi. Ushbu maqola ushbu raqamli vositalarning asosiy ta'lim nazariyalari, kognitiv jarayonlari va sinfdagi amaliy qo'llanilishini ta'kidlab, ilmiy fikrlashni rivojlantirish mexanizmlarini ko'rib chiqadi.

Talabalar uchun ilmiy fikrlash juda muhim, chunki u ularga axborotni mantiqiy qayta ishlash, taxminlarni so‘roq qilish va muammolarni tizimli ravishda hal qilish imkonini beradi. So'nggi yillarda o'rganishni osonlashtirish uchun raqamli texnologiyalar sinflarga integratsiya qilindi. Ular orasida raqamli o'yinlar, simulyatsiyalar va interfaol ta'lim dasturlari o'quvchilarni an'anaviy o'qitish mumkin bo'lmagan usullarda jalb qilish qobiliyati bilan ajralib turadi. Ushbu vositalar orqali talabalar murakkab ilmiy tushunchalarni o'rganish, gipotezalarni ishlab chiqish, virtual tajribalar o'tkazish va immersiv muhitda muammoni hal qilish faoliyati bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Raqamli vositalar ilmiy fikrlashni qanday rivojlantirishini tushunish uchun kognitiv va ta'lim psixologiyasi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan bir nechta mexanizmlarni ko'rib chiqish muhimdir. Raqamli o'yinlar va simulyatsiyalar ko'pincha o'quvchilarni o'quv jarayoniga chuqur jalb qiladigan immersiv hikoyalar, vizual effektlar va interfaol elementlardan foydalanadi. Ushbu immersiya ilmiy fikrlash uchun zarur bo'lgan ichki motivatsiyani kuchaytiradi, chunki u o'quvchilarni tushunchalarni faol ravishda o'rganishga, savollar berishga va echimlarni izlashga undaydi. Raqamli vositalar ko'pincha maqsadga yo'naltirilgan stsenariylarni, mukofotlarni va qiyinchiliklarni qo'llaydi, bu esa talabalarni muammolarni hal qilishda qat'iyatli bo'lishga undaydi va natijada ularning ilmiy asoslarini mustahkamlaydi.

Simulyatsiyalar va interfaol dasturlar talabalarga virtual tajribalar o'tkazish, o'zgaruvchilarni manipulyatsiya qilish va fizik laboratoriya cheklovlarisiz natijalarni kuzatish imkonini beradi. Ushbu tajribalarni o'tkazish orqali talabalar ma'lumotni passiv qabul qilishdan ko'ra faol ishtirok etish orqali o'rganadilar. Ushbu eksperimental o'rganish konstruktivistik nazariyaga mos keladi, bu esa bilimni atrof-muhitni faol o'rganish va manipulyatsiya qilish orqali eng yaxshi shakllantirilishini ta'kidlaydi. Masalan, fizika simulyatsiyalarida talabalar kuchlarni, burchaklarni yoki ishqalanish darajasini moslashtirishi, ob'ektlarga real vaqt ta'sirini kuzatishi va shu bilan sabab-ta'sir munosabatlarini tushunishlarini yaxshilashlari mumkin. Raqamli o'yinlar va ta'lim simulyatsiyalari tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilishni talab qiladigan murakkab muammolar va stsenariylar bilan yaratilgan. Muammoni hal qilish ilmiy fikrlashning ajralmas qismidir va raqamli

vositalar talabalarga muvaffaqiyatsizlik, o'rganish va qayta urinib ko'rish uchun xavfsiz joy beradi. O'yinlar ko'pincha jumboqlarni yoki mantiqiy ketma-ketlikni o'z ichiga oladi, ular tahlil qilish, gipoteza yaratish va testni talab qiladi - ilmiy usulni aks ettiruvchi jarayonlar. Misol uchun, ilmiy asoslangan o'yinlar talabalarni ma'lumotlarni tahlil qilish, bashorat qilish va turli xil echimlarni sinab ko'rishga undaydigan haqiqiy muammolarni taqlid qiladigan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Fikr-mulohaza o'rganishning muhim jihati hisoblanadi, chunki u o'quvchilarga tushunchalarini aniqlashtirish va strategiyalarini o'zgartirishga yordam beradi. Raqamli vositalar iterativ o'rganishni qo'llab-quvvatlovchi tezkor, amalda bo'ladigan fikr-mulohazalarni ta'minlaydi. Misol uchun, simulyatsiyalarda o'quvchilar o'z harakatlarining oqibatlarini darhol ko'rishlari mumkin, bu ularga moslashish va yaxshilash imkonini beradi. Ushbu qayta aloqa halqasi fikrlashning o'sishiga va ilmiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, chunki talabalar ilmiy fikrlash ko'pincha yangi ma'lumotlarga asoslangan faraz va yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni o'z ichiga olishini bilishadi. Ko'pgina ilmiy tushunchalar mavhum bo'lib, o'quvchilar uchun faqat an'anaviy usullar orqali tushunish qiyin. Interaktiv simulyatsiyalar va raqamli o'yinlar ushbu tushunchalarni hayotga tatbiq etadigan vizualizatsiyalarni taklif qiladi. Masalan, molekulyar biologiya simulyatsiyalari talabalarga oddiy ko'zga ko'rinmaydigan DNK tuzilmalari va hujayra jarayonlarini tasavvur qilish imkonini beradi. Ushbu ko'rgazmali qurollar kognitiv qayta ishlashni qo'llab-quvvatlaydi va o'quvchilarga murakkab hodisalarning aqliy modellarini yaratishga imkon beradi, bu ilmiy tamoyillarni tushunish va qo'llash uchun zarurdir. Ko'pgina raqamli ta'lim dasturlari o'quvchilarga muammolarni hal qilish, strategiyalarni muhokama qilish va tushunchalarni almashish uchun birgalikda ishlash imkonini beruvchi hamkorlik funktsiyalarini o'z ichiga oladi. Bu hamkorlik muhiti ilmiy fikrlashni rag‘batlantiradi, chunki talabalar o‘z g‘oyalarini ifoda etishlari, boshqalarni tinglashlari va konstruktiv bahs-munozaralarga kirishishlari kerak. Ilmiy fikrlarni etkazish orqali talabalar murakkab tushunchalarni soddaroq qilib tushuntirishni, muqobil istiqbollarni tanqidiy baholashni va o'z tushunchalarini aniqlashtirishni o'rganadilar.

Raqamli o'yinlar, simulyatsiyalar va interfaol ta'lim dasturlari talabalarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishning kuchli vositasidir. Immersiv, faol va fikr-mulohazalarga boy muhitlarni ta'minlash orqali ushbu vositalar o'quvchilarni an'anaviy usullar ko'pincha qila olmaydigan tarzda jalb qiladi. Faol eksperimentlar, mavhum tushunchalarni vizualizatsiya qilish va hamkorlikda muammolarni hal qilish kabi mexanizmlar orqali raqamli vositalar ilmiy fikrlash asosida yotadigan kognitiv jarayonlar bilan chambarchas mos keladi. Kirish va amalga oshirishni sinchkovlik bilan

hisobga olgan holda, ushbu texnologiyalar talabalarni ilmiy savodxonlik shaxsiy, akademik va kasbiy muvaffaqiyat uchun muhim bo'lgan kelajakka tayyorlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muratovich M. F. et al. TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI //QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – T. 9. – C. 237-240.

2. RUSTAMOVNA R. N. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VITAGEN TA’LIM //KASB-HUNAR TA’LIMI МУНДАРИЖА. – С. 82.

3. Boymurodov B. E. et al. INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDA VIRTUAL REALLIK (VR) VA KENGAYTIRILGAN REALLIK (AR) USULLARI //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2023. – T. 3. – №. 30. – C. 276-278.

4. Ikromova S. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA SHAKLLARI VA MAZMUNI //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – T. 4. – №. 3. – C. 918-924.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TOVUSH VA HARFLARNI O‘RGATISH JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Rahimova Fanuza Samandar qizi
JDPU Boshlang‘ich ta'lim yo‘nalishi talabasi
Farsaxonova Dilafro‘z Rizaxanovna
Ilmiy rahbar, dotsent

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ona tili fanining ahamiyati, metodikasi, muhim vazifalari, maqsadlari haqida so‘z yuritiladi. O‘quvchilarga savod o‘rgatish kelajak avlod hayotida muhim ahamiyatga ega jarayondir. O‘quvchilarning savodi asosan "Alifbe" darsligi asosida amalga oshadi. Ona tili fani bolalarning nutqidagi muammolarni bartaraf etish uchun ham xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ona tili, unli tovush, undosh tovush, jarangli undoshlar, jarangsiz undoshlar, tovushlar, harf, tovush, metodika, mohiyat, uslubiyat, qobiliyat, savodxonlik, o‘quv mativi, jarangli undoshlar, jarangsiz undoshlar, harf birikmasi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish birmuncha qiyin, lekin, ularning o‘qish ko‘nikmalarini to‘g‘ri shakllantirishimiz lozim. Har bir bolaga ta'lim va tarbiya ishini to‘g‘ri, sifatli holda olib borish kerak. Buning uchun ota-ona, murabbiy, ustozning xizmati beqiyosdir. Ona tili o‘qitish savodxonligi predmeti, o‘quvchilarga o‘zbek tilini o‘rgatish, usullari bilan tanishtirish hisoblanadi.

O‘quvchilarga ona tili darsini o‘tishda, avvalo, ularning ko‘nikmalarini shakllantirishimiz, mohiyatini tushunishalari uchun yordam berishimiz lozim. Metodika maktab oldiga qo‘yilgan ta'lim va tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib ona tilini o‘rganishning vazifalarini ham belgilaydi. Shunday ekan, ona tilining muhim jihatlari, aosiy bo‘lgan mavzulari bilan tanishishni boshlaymiz. Avvalo, ona tilini o‘rganishda biz "harf", "tovush" tushunchalariga duch kelamiz. Ma'lumki, nutq tovushlari ikki guruhga bo‘linadi:unli va undosh tovushlar. Bolalarga o‘rgatishda quyidagi belgilarga tayanamiz:

1) talaffuz qilinishi usuli.

2) ovoz va shovqinning ishtiroki.

3) bo‘g‘iz hosil qilish xususiyati.

Ona tilining asosiy manbaasi ham shu hisoblanadi. O‘quvchining ongigacha yetib boradigan bilimlarni, yangi tushunchalarni berish o‘qituvchining vazifasidir. Ona tilining ilk darslari nutq, til birligi, tovush, harflar bilan bog‘liqdir. Harflarimiz ikkiga bo‘linadi: unli va undosh tovushlar. Mavzu orqali ona tilining barcha jabhalarini ochishga harakat qilamiz. Bu tushunchalar boshalang‘ich sinf o‘quvchilarida endi maktabga qadam qo‘yganidan boshlab o‘rgatiladigan tushunchalardir. Ayniqsa, 2-sinf ona tili darsligida chuqurlashtirib mavzu tahlili berilgan. Ona tili "qanday o‘qitamiz", "nima uchun o‘qitamiz", "nega xuddi mana shunday o‘qitish kerak" degan savollarga javob beradi. Harflarni o‘rganar ekanmiz, harflarni talaffuz qilib ko‘rsatib, rasmlar orqali, kichik o‘quvchilar uchun qulay metodlar bilan o‘rgatishimiz lozim. Shunday qilib, o‘quvchilar qanday so‘zlar tekshirishini talab qilishi va uning sababini, qanday so‘zlar tekshiruvchi so‘zlar hisoblanadi va uni nima uchunligini bilishlari zarur. O‘yin tarzda tashkil qilingan har bir dars qiziqarli, esda qolarli bo‘ladi, mushohadali bo‘ladi. Harflarni har tomonlama o‘rganish mumkin. Jarangli tovushlar, jarangsiz tovushlarni o‘rganishimzda: [8;82].

"Juftimni top" metodidan foydalansak bo‘ladi. Metodning sharti shundan iboratki, doskaga rangli qog‘ozlar ikki qator qilib joylashtirib olinadi, ularning biriga jarangli, biriga jarangsiz harflarni yozib qo‘yamiz. O‘quvchilardan tovushlarning juftlarini topish talab etiladi, bu shart bir necha o‘quvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Yana shuni ta’kidlash lozimki, ch, sh, ng birikmalarini tovush va harflarga ajratamiz, harflar ishtirokida so‘zlarni ko‘proq topib mashq qilish lozim.

"Qo‘ziqorin” metodi qo‘ziqorin rasmini ikkiga bo‘lib olamiz, doskaga alohida-alohida qilib yopishitirib chiqamiz bu bo‘laklarga savollar qolganilariga javoblar yozilgan bo‘ladi, so‘ngra o‘quvchilar doskaga chiqib savollarning javobini birlashtirishi kerak bo‘ladi, o‘quvchilar esa birma-bir ularning ikkinchisini to‘g‘ri va mos qilib topishlari kerak bo‘ladi, metodimiz shu tariqa davom etadi.

“Doskacha" bu metod kichik o‘quvchilar uchun ayni keraklidir. O‘quvchilar doskaga o‘qituvchi tomonidan aytilgan so‘zlarni mustaqil, xatosiz va to‘g‘ri qilib yozishlari kerak va bu metodda birinchilardan bo‘lib yozganlar va chiroyli, xatosiz yozganlar taqdirlanadi.

"Oltin tarvuz" qiziqarli va mazali metodimiz mazmuni tarvuz bo‘laklariga jarangsiz va jarangli undoshlar yoziladi, butun tarvuzga esa faqat jaranglilarni qolgan bo‘laklarga jarangsizlarni yozib chiqamiz, o‘quvchilar esa doskaga chiqib qatnashishadi, bu metodni guruhlar o‘rtasida o‘tkazsak, guruh a'zolari bilan birga chiqishlari talab etiladi. Keyingi metodimiz ham ayni biz yuqorida ta'kidlab kelayotgan mavzu, ya'ni harflar haqida.

"Bosh harfini top" metodning sharti, to‘liq yozilmagan so‘zni qolgan qismini topish hisoblanadi. Qog‘oz parchalariga so‘zlarni to‘liq bo‘lmagan holatda yozib chiqilgan bo‘ladi, kichik o‘quvchilar esa ularni navbatma-navbat chiqib shartni bajarishadi, bunda biz ahamiyat beradigan jihat hammaning birdek ishtirok etishi hisoblanadi. Shu kabi metodlar o‘quvchining ongi va tafakkuriga ta'sir ko‘rsatadigan o‘yinlar hisoblanadi. Dars davomida qo‘llash juda qulay va o‘quvchilar uchun qiziqarlidir. O‘yin tarzda olgan bilim uzoq muddat yodda saqlanadi. O‘quvchilarda o‘yinlarni to‘g‘ri tashkil qilish, o‘quvchilarda tovush tushunchasini tasavvur qilidirishimiz bir unli undosh tovushlarni farqlarini tushuntirishimiz lozim. Masalan: opa, aka, gul, kitob, maktab, buvi, buva, o‘rtoq, sumka, ona, ota, uka, singil bu kabi so‘zlar o‘quvchilar uchun tanish va kundalik hayotida ko‘p foydalanadigan talaffuz qiladigan so‘zlaridir. Bu so‘zlarning talaffuzi va yozilishi ular uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi. O‘quvchilarda uchun mana shunday so‘zlarni talaffuzini shakllantirish qiyinchilik bo‘lmaydi.

Nutq nazariyasini 1-sinfdanoq o‘rganib kelishsa, 2-3-sinflarda yana ham mustahkamlashishadi. 2-3-4-sinf darsliklarida yanada umumlashtirishadi. So‘z va bo‘g‘inlarni o‘qishga o‘rgatishda tovush-harfalarni to‘g‘ri talaffuz etilishi, har bir tovushning o‘ziga xos jihatlariga e'tibor berish kerak. Interfaol usul, metodlar o‘quvchi uchun ahamiyatli hisoblanadi.

"Parushut metodi". Barcha o‘quvchilar aylana shaklida turib olishadi, keyin esa har biri yoqtirgan kasblarini birma-bir aytib ketaverishadi, aytgan so‘zlarining tahlilini, ya'ni kasblarga oid so‘zlarning tarkibidagi jarangli va jarangsizlarni doskaga yozishlari kerak bo‘ladi. To‘g‘ri va aniq bajarilgan ish yuqori baholanadi.

"Analitik-sintetik tovush metodi" o‘quvchini shaxs sifatida shakillantirishga yordam beradi. Bu metodni 3-4-sinflar yuzasida bajarish maqsadga muvofiq sanaladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Dars jarayonida har xil metodlardan foydalanish o‘qituvchining izlanishiga va o‘quvchini o‘z ustida ishlashga olib keladi.

"Bayon qilish" metodi ona tili darslarida qo‘llanadigan asosiy metodlardan biridir. Bu metod orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan bilimlarini aniqlab oladi. O‘tilgan darsning uyga vazifalari va yangi mavzuning yangi tushunchalari haqidagi ilk tushunchalar o‘quvchilardan so‘rab chiqiladi.

Xulosa. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida o‘qituvchining zamonaviy metodlari keng ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta'limning 1-4-sinflari bola hayotida muhim, esda qolarli davr hisoblanib, o‘quvchilarning keyingi davrdagi o‘qish jarayoniga bo‘lgan tasavvurida ahamiyatlidir. Inson tug‘ilibdiki, o‘z ona tili bilan yashaydi va uni hayoti davomida o‘rganadi, rivojlantiradi. Shunday ekan, ona tilimiz bizga kerakli bo‘lgan muhim vositalardan biridir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kelajak avlodga ta’lim-tarbiya berishda juda e'tiborli bo‘lishlari kerak. Bolalar har bir ishlayotgan so‘zlari va ularni talaffuz qilishni bilishlari va uni idrok qila olishlari kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tovush va harflarni farqlashga, unli va undoshlarning qator va yonma-yon kelishini o‘rgatish ularda yuzaga keladigan yozma va nutqiy xatolarini oldini olishga yordam beradi va ilmiy saviyasini oshirishga ko‘maklashadi. Ona tili barcha fanlarni o‘rganishimizning asoschisi va eng ahamiyatlisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi "qarori. _"Xalq so‘zi" gazetasi. 2017-yil 21-aprel.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev. Toshkent shahri 2019-yil 21-oktabr O‘zA.

3. Abdulayeva. Q Nazarov. K, Shu. Yo‘losheva "Savod o‘rgatish darslari". "O‘qituvchi’’. nashriyoti

4. Bakiyeva. H, Matchonov. S, Qosimova. K, Matchonov. S va boshqa boshalang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish Toshkent. Noshir. 2009. 391-bet.

5. K. Qosimova, S. Matchanova, X. G‘ulomovna "Ona tili o‘qitish metodikasi". T. . "Nosir" nashriyoti.

6. N. Jo‘rayeva. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasining dolzarb masalalari.

7. K. Qosimova, S. Matchanova, X. G‘ulomovna "Ona tili o‘qitish metodikasi". T. "Nosir" nashriyoti.

8. Xolboyeva. G. A Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish fanlarini o‘qitish metodikasi T. 2023, 288-bet.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA “TARBIYA” DARSLARINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH

Dilafruz Farsaxonova
Jizzax davlat pedagogika Universiteti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchilar yosh davrlarini hisobga olgan holda boshlang‘ich sinflar uchun mo‘ljallangan «Tarbiya» fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar, interaktiv metodlardan unumli foydalanish usullari, uning yoshlarni kreativ, tahliliy fikr yuritadigan, faol qilib tarbiyalashdagi o‘rni xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ta'lim, tarbiya, o‘quvchi, «Tarbiya» fani, darslik, metod, interaktiv metod, step by step, decoder, faoliyat, jarayon, dunyoqarash.

Аннотация. В данной статье рассматриваются инновационные подходы к преподаванию предмета «воспитание» для начальных классов с учетом возрастных периодов учащихся, способы эффективного использования интерактивных методов, его роль в воспитании молодежи творческой, аналитически мыслящей, активной.

Ключевые слова: образование, воспитание, ученик, предмет «воспитание», учебник, метод, интерактивный метод, шаг за шагом, декодер, деятельность, процесс, мировоззрение.

Abstract. This article focuses on innovative approaches to teaching the subject "upbringing", designed for primary classes, taking into account the age periods of students, methods of productive use of interactive methods, its role in the creative, analytical thinking, active education of young people.

Keywords: education, upbringing, student, discipline, textbook, method, interactive method, step by step, decoder, activity, process, worldview.

Mustaqillik yillari tom ma’noda O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o‘rin egallashga intilish yo‘lidagi keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o‘rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda, jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan yangi yutuqlarga erishishni ta’minlamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligiga erishgach, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy hayotida tub o‘zgarishlar ro‘y berishiga keng imkoniyatlar ochildi.

Respublika rahbariyati boshchiligida mamlakat taraqqiyotining barcha sohalarida chuqur islohotlar amalga oshirildi va bu jarayon davom etmoqda. Jumladan, zamon talabiga va jahon standartlariga javob beradigan yetuk kadrlar tayyorlash bo‘yicha ta’lim sohasida ham islohotlar olib borilmoqda. Shu asnoda, mustaqillik sharoitida mamlakatimizda buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish maqsadida, yetuk kadrlar tayyorlash ishini jahon andozalari darajasiga chiqarish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining Oliy Majlisga Murojaatnomasida “. . . intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekani, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo‘q”[1], – deya ta’kidlagan edi.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yilning 23 avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash yuzasidan Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta'lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy qilish choralari to‘g‘risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqildi.

2020 yil 06 iyulda “Umumiy o‘rta ta'lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 422-sonli qaror qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, umumiy o‘rta ta'lim muassasalarida “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma'naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan holda “Tarbiya” fani 1–9-sinflarda – 2020G`2021 o‘quv yilidan, 10–11-sinflarda esa 2021G`2022 o‘quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etiladi.

Qaror bilan umumiy o‘rta ta'lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani kontseptsiyasi tasdiqlandi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qitiladigan tarbiya fanini zamon talablariga mos, zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish ta’lim samaradorligini oshirishga, o‘quvchilar dunyoqarashini, nutqini, iqtidorini, qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Quyida 4-sinf tarbiya darsida “Zamondan o‘zgan ma’rifatparvar” mavzusini o‘qitish texnologiyasi haqida ma’lumot berib o‘tiladi.

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi. 2017-yil 23-dekabr.

Dars “STEP BY STEP” texnologiyasi asosida qadamma-qadam olib borililadi va har bir qadamda o‘quvchilarga topshiriqlar berib boriladi.



“Step by step” metodi 6-bosqichdan iborat bo‘lib, darsning bosqichlarini aks ettiradi.

“STEP BY STEP” texnologiyasi 6 qadamdan iborat bo‘lib har bir qadamdagi topshiriqlar oldindan tayyorlab olingan oyoq izlariga yozilgan holatda vatman qog‘ozga yopishtirilib boriladi va topshiriq shartlari, reglamenti e’lon qilinib bajariladi.

1-qadam. Aqliy hujum.

2-qadam. “3, 4, 5, 6, 7” metodi.

3-qadam. Yangi mavzu bayoni.

4-qadam. Mavzuni mustahkamlovchi savol-javoblar.

5- qadam. Amaliy topshiriqlar bajariladi.

6-qadam. Xulosa. “O‘quv qurollari” metodi.

Dars “3, 4, 5, 6, 7” metodi asosida o‘tilgan mavzuni mustahkamlash bilan boshlanadi.



“3, 4, 5, 6, 7” metodi asosan darsning boshida o‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun qo‘llaniladi. Unda o‘quvchilar dars jarayonida olgan ma’lumotlaridan 3 ta harfli, 4 ta harfli, 5 ta harfli, 6 ta harfli va 7 ta harfli so‘zlardan iborat ma’lumotlarni yozadilar. Mavzu chet tillarini o‘rganishga bag‘ishlanganligi bois o‘quvchilar chet tilidan o‘rgangan so‘zlarini yozadilar. Yozgan ma’lumotlarini o‘qib beradilar.

Yangi mavzu “Decoder” metodi orqali e’lon qilinadi. Ushbu metod orqali mavzu yoki muhim ma’lumotlarni harflarda emas, balki harflarning alifbo tartibidagi raqamlarda yoziladi. O‘quvchilar raqamlar o‘rniga harflarni qo‘yib mavzu yoki ma’lumotni qisqa vaqt ichida o‘qib olishlari muhim.

“Decoder” metodi o‘quvchiga nima beradi:



- diqqatini jamlaydi;
- darsga qiziqishi ortadi;
- ma’lumot esida saqlanib qoladi;
- alifbo tartibini yodlab oladi;
- xotirasi mustahkamlanadi.

“Decoder” metodi o‘qituvchiga nima beradi:

- o‘quvchilar diqqatini tezda jalb qilish;
- o‘quvchilarni darsga qiziqtirish;
- o‘quvchilar tomonidan ma’lumotlarni eslab qolinishiga erishish.

“Zamondan o‘zgan ma’rifatparvar”.

Bundan yuz yil avval mashhur ma’rifatparvarlardan biri Is’hoqxon Ibrat chet tillarini o‘rganish zarurligini ta’kidlagan edi. Is’hoqxon Ibrat yoshlar ta’lim, ilm-fan, madaniyat va texnika sohalaridagi yangiliklarni shu yo‘l bilan o‘zlashtiradi, deb hisoblagan.

Ibrat 25 yoshida Makkai Mukarramaga, haj safariga otlandi. Hajdan qaytishda Istanbul, Sofiya va Rimga borib, u yerdagi xalqlarning madaniyati va an’analari bilan tanishdi. U uzoq vaqt Kobul (Afg‘oniston) va Jidda (Saudiya Arabistoni) shaharlarida istiqomat qildi. So‘ng Hindistonga kelib, Mumbay va Kalkuttada yashadi. Bu yerda yana to‘rt tilni – arab, fors, hind-urdu va ingliz tilini mukammal o‘rgandi.

Is’hoqxon Ibrat “Lug‘ati sitta as-sina” (“Olti til lug‘ati”) deb nomlangan kitob yozib, unga arab, fors, hind, turk, o‘zbek va rus tillaridagi juda ko‘p so‘zlarni kiritdi. Olti tillik lug‘at tuzish nihoyatda murakkab ish bo‘lsa-da, bir necha tilni mukammal bilgan olim bu ishning uddasidan chiqdi. Bu lug‘at barcha yangi maktablarda rus, arab, fors va boshqa tillarni o‘rganish uchun asosiy darslik bo‘lgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol-javob hamda amaliy topshiriqlar bo‘lib o‘tadi. Dars yakunida esa “O‘quv qurollari” metodidan foydalanibladi.



“O‘quv qurollari” metodi asosan darsning yakuniy qismida mavzuni mustahkamlash uchun qo‘llaniladi. Unda o‘quvchilar dars jarayonida olgan ma’lumotlarini o‘quv qurollariga qiyoslab tasavvur qiladilar va qaysi o‘quv quroliga va nima uchun aynan shu oquv quroliga o‘xshatganlarini tasvirlab beradilar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich ta’limda o‘qitiladigan fanlarni zamon talablariga mos holda, har bir darsni interaktiv metodlar, o‘yinli texnologiyalar, zamonaviy muammoli ta’lim hamda hamkorlik texnologiyalari asosida tashkil etish ta’lim samaradorligini oshirishga, o‘quvchilar dunyoqarashini, nutqini, iqtidorini, kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga inkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. . - T.: O‘zbekiston. 2021. - 464 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-406-son.

3. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Nornurodova B., Matnazarova K. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik Nizomiy nomidagi TDPU Riziografida nashr qilindi. Toshkent, 2014 y.

4. Abdullayeva B. S., Xoliqov A. A., Farsaxonova D. R., Muhammadiyeva S. V., Sheranova M. B. Umumiy pedagogika (1-qism). Darslik. - Toshkent: «Innovatsiya-Ziyo”, 2020, 496 bet.

5. Farsakhanova, D. (2020). Improvement of the methodology of spiritual and moral education of students of pedagogical institutions. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

6. Farsaxonova D. R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o‘qitish texnologiyasi. – Toshkent: “Fan ziyosi”, 2022. – 132 b.

7. Shermuxamedova S. va b. Tarbiya: 4-sinf uchun darslik. 1-nashr. - T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 96 b.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING AQLIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

G‘ofurova Mohidil Sayfutdin-qizi

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 2- bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini raqamli ta’lim texnologiyalari, zamonaviy usullari, o‘ziga xos xususiyatlari, pedagogik imkoniyatlari, muammo va yechimlari haqida fikr yuritilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyati jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning o‘rni, o‘quvchilar rivojlanishidagi ahamiyati kabi masalalar aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, raqamli ta’lim, tarbiya, pedogogik texnologiya, tafakkur, boshlang‘ich sinf, innovatsion texnologiyalar.

Raqamli texnologiyalar vositasida ta'lim amaliyotlari: Germaniyadagi boshlang‘ich va o‘rta maktablarda safarbarlik va o‘qituvchilar strategiyasini ko‘raylik. Mualliflar Arruda, Eucidio Pimenta, Kerres, Maykl bo‘lgan maqolada "Pandemiyadan keyingi ta'lim: Braziliya va Germaniyadagi ta'lim muassasalari va o‘qituvchilari nuqtai nazaridan analogik ta'lim va raqamli ta'limni tushunish" tadqiqoti natijalari keltirilgan, uning asosiy maqsadi o‘qituvchilar va ta'lim muassasalarining o‘zlarini qanday safarbar qilishlari va pozitsiyalarini tahlil qilishdir. “Raqamli ta'lim amaliyotini kengaytirish uchun quyidagi usullardan foydalanilgan: Germaniya ta’lim davlat kotibiyatlari bilan hujjatli tadqiqotlar, shuningdek, Germaniyada majburiy ta’lim tizimida raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan ta’lim siyosatining hujjatli tahlili. Keyin biz turli darajadagi ta'lim darajasidagi o‘qituvchilar tomonidan javob berish uchun

keng ko‘lamli so‘rovnoma tuzishga kirishdik. Biz Germaniyaning uchta yirik shtatidagi 9400 ga yaqin majburiy ta'lim muassasalari bilan bog‘landik. Natijada, umuman olganda, o‘qituvchilar talabalar ta’limida raqamli texnologiyalarning ahamiyatini tushunib, davlat idoralari tomonidan belgilab berilgan siyosatni bilishlarini namoyish etadilar. Raqamli pedagogik amaliyotlar atrofidagi safarbarlik o‘qituvchilar va talabalarning maktab ichida va tashqarisida texnologiyalar haqidagi bilimlarini hisobga olish muhimligini ochib beradi. Natijalar raqamli texnologiyalar kundalik o‘qitish tartibida qanday o‘rin egallashini tushunishga imkon beradi. ”[1]


2021-yilda nashr qilingan “Astra Salvensis”dagi maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘quv dasturiga raqamli kompetensiyalarni integratsiya qilish haqida fikrlar bayon qilingan: Ruminiyada ta'limni raqamlilashtirish yaqinlashib kelayotgani "Ruminiyada ta'limni raqamlashtirish bo‘yicha strategiya"da tasvirlangan va e'lon qilingan . Bu boshlang‘ich ta'limga bir qator yangilanishlarni olib keladi, ammo ushbu o‘tishni tahlil qilish uchun raqamli ta'limga nima uchun e'tibor berish kerakligi, boshlang‘ich ta'lim o‘quv dasturining kelajakdagi yangilanishi ortida nimalar qolishi va uni yangilash istiqbollari ko‘rsatilgan. Haqiqiy o‘quv rejasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta'limning barcha fanlariga xos bo‘lgan ikkita kompetentsiya raqamli kompetentsiyani rivojlantirishni tangensial ravishda qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu tahlil Yevropa ta'lim siyosatidan olingan raqamli kompetentsiya ta'riflarida ishlatiladigan umumiy terminologiya, shuningdek, Yevropa va milliy darajadagi umumiy ma'lumot vositalari ostida amalga oshirildi. O‘quv rejasining maqsadli asosiy kompetentsiya bilan aniqroq o‘zaro bog‘liqligi uchun bir xil atamalar asosida, hatto maktab o‘quv dasturlarida taklif qilingan o‘quv faoliyati ham tahlil qilindi, o‘qitishda raqamli kompetentsiyalarning integratsiyalashuvining past ulushi topildi. Shu sababli, ushbu hujjat ma'lumotlariga nisbatan "Ruminiyada ta'limni raqamlashtirish strategiyasi" orqali ko‘rib chiqilgan ertangi maktab prognozlari mamnuniyat bilan qabul qilinadi. [2] Bundan tashqari ko‘plab jahonda amalga oshirilayotgan raqamli ta’lim muhitida ta’limni rivojlantirishdagi ilmiy tadqiqotlarni misol sifatida keltirishimiz mumkin: Iordaniyadagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida Nearpod platformalariga muanosabat va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishda raqamli ta’limdan foydalanishning ta’siri o‘rganib chiqilgan. Ma’lumot uchun shuni qayd qilish lozimki, Nearpod bu Internetda mavjud bo‘lgan eng yaxshi ta’lim platformalaridan biri va unda ko‘plab online darslar, topshiriqlar va ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin.

Raqamli ta’lim muhitida aqliy tafakkurni shakllantirishda albatta, elektron kutubxona ta’limining ham o‘rni beqiyos. Eronda o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, Eron kutubxonasi va axborot


[1] Arruda, Eucidio Pimenta, Kerres, Maykl muallifligidagi maqola
[2] Astra Salvensis, 2021, Issue2, p7

fanlari o‘qituvchilari va akademik kutubxonachilarning raqamli kutubxonalar bo‘yicha maxsus ta’lim dasturi haqidagi qarashlarini o‘rganadi. Shuningdek, raqamli kutubxonalar bo‘yicha taklif qilingan modellar va kurslarni so‘raydi. 45 ta Axborot fani o‘qituvchilari va 66ta akademik kutubxonachilardan online so‘rovnoma o‘tkazilgan. Javoblar tavsifiy va statistik kontentli tahlil qilinganda natijalar shuni ko‘rsatadiki, so‘rovnomada ishtirok etganlarning ko‘pchiligi maxsus raqamli kutubxona ta’lim dasturi tarafdori. Ushbu tadqiqot Eron kutubxona maktablarida, ayniqsa Eronda yangi tashkil etilgan LIS bo‘limlarida raqamli kutubxonalar bo‘yicha maxsus dastur yoki tegishli kurslarni ishlab chiqish va yetkazib berish uchun empirik ma'lumotlarni taqdim etadi. Raqamli kutubxonalarni boshqarish, raqamli saqlash, raqamlashtirish, raqamli kutubxona arxitekturasi va metama’lumotlar raqamli kutubxona ta’lim dasturining asosiy komponentlari bo‘ladi. Raqamli kutubxona ta'limi bo‘yicha tadqiqotlar Eronda ilgari amalga oshirilmagan edi. Shunday qilib, ushbu tadqiqot Eron raqamli kutubxonachiligi nazariyasi va amaliyoti o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldirib, shuningdek, LIS bo‘limlariga raqamli kutubxona dasturini ishlab chiqish va o‘quv dasturlarida kurslarni amalga oshirishga yordam bergan.





Yuqorida biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkurining shakllanishida raqamli ta’lim muhiti, uning pedagogik imkoniyatlari haqida jahon tajribasidan misollar ko‘rib chiqdik. Albatta, bizning jonajon Vatanimizda ham bu borada ko‘plab yangiliklar, izlanishlar olib borilmoqda. Biroq bu yangi imkoniyatlarni taqdim etuvchi izlanishlar mamlakatda yetarlicha keng tarqalmaganligi taassufli. Yurtimizda bir necha yillardan buyon mavjud bo‘lgan Respublika bolalar kutubxonasining Book. uz nomli



web-sayti borligidan aksariyat bolajonlar notanish. Bizni quvontirgan yangiliklardan 2024-yil 1-may kuni Toshkentda o‘zbek tilidagi kitoblar va audiokitoblardan iborat Mutolaa mobil kutubxonasi taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Bepul mobil ilova o‘zbek tilidagi 1000dan ortiq kitoblarni o‘z ichiga olgan, ularning yarmidan ko‘pi audio versiyaga ega. Matnlar esa professional dublyaj aktyorlari tomonidan o‘qilgan. Bundan tashqari monoton bo‘lib qolmasligi uchun matnga musiqiy hamrohlik qo‘shilgan. Bu loyiha Yoshlar ishlari agentligi va Xalq banki bilan hamkorlikda amalga oshirilgan va kundan-kunga ilovadan yangi kitoblar o‘rin olmoqda. Garchi Book. uzdagi foydalanuvchilar soni kamchilikni tashkil etsa ham, Mutolaa ilovasidan foydalanuvchi kitobxonlar borgan sari ortib bormoqda. Ilovada Bolalar adabiyoti bo‘limi mavjud bo‘lib, bu bo‘lim aynan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkurini shakllantirishga xizmat qiluvchi badiiy kitoblarni o‘z ichiga oladi. Biz aynan shu ilovani boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ham tatbiq qilishimiz kerak. Bu albatta, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish bilan birga, ularning aqliy tafakkurini shakllanib borishida ham xolis xizmat qiladi. Ilovadan kompyuter, telefon va shunga o‘xshash raqamli vositalardan bemalol turli joylarda foydalanishimiz mumkin.

Kitob o‘qishdan tashqari o‘zlari ijodkorlikni yaxshi ko‘radigan bolajonlarga ham xizmat qiluvchi Scratch nomli ilova mavjud. Bu ilova o‘quvchilarda yaratuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirib, aqliy salohiyatini oshishida xizmat qiladi. Quyida Scratch ilovasining suratlarini keltiramiz:

O‘qituvchi o‘qitish va o‘rgatish, shuningdek, mavjud imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalanish uchun mas’ul shaxs hisoblanadi. Bu vazifani bajarish uchun o‘qituvchi o‘qitish jarayoni hamda o‘qitiladigan fanlarning ilmiy va texnik jihatlarini to‘liq bilishi lozim. Bundan maqsad shuki, o‘qitish uslubi shunday yo‘lga qo‘yilsin-ki, bunda o‘quvchilar o‘qitilayotgan fanni to‘liq o‘zlashtira olishsin, o‘qituvchi ham oldiga qo‘ygan maqsadiga to‘laqonli erishsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. “JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS” jurnali, 2023-yil, may soni, 19-21b.
3. Arruda, Eucidio Pimenta, Kerres, Maykl muallifligidagi maqola

4. . Isoqov I., Qulmamatov S. I. Informatika o‘qitishning zamonaviy shakl va metodlari. O‘quv qo‘llanma. Guliston, GulDU, 2014 y., 151 b.

5. Astra Salvensis, 2021, Issue2, p7

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA RAQAMLI TA’LIM MUHITI HAQIDA DASTLABKI TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH

G‘ofurova Mohidil Sayfutdin qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi magistranti

mokhidilgofurova@gmail. com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yurtimizdagi raqamli ta’lim olami, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining raqamli jarayon, raqamli texnologiyalar bilan qay darajada tanish ekanligi, kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining raqamli vositalardan foydalanishdagi tanishuvi, ustuvorliklari, imkoniyatlari haqida so‘z boradi. Maqola orqali raqamli ta’lim muhiti boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga, ularning kelajagi va hayoti uchun qay darajada zarur ekanligini tushunib olamiz. Ota-onalar va ustozlarning bu jarayonda bolalar bilan qanday tarzda ishlashi maqolada ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, innovatsiya, raqamli jarayon, raqamli vositalar, boshlang‘ich ta’lim, sifat, yangi texnologiyalar.

Bugun biz axborotlashgan jamiyatda yashar ekanmiz, hayotimizning turli jabhalarini raqamlashtirish jarayonlari egallab olganligining guvohi bo‘lmoqdamiz. Raqamli jarayonlar hayotimizdagi jarayonlarni osonlashtirish bilan bir qatorda, ko‘plab qulayliklar, yangi innovatsiyalarga zamin yaratmoqda. Tabiiyki, yurtimizda kuchli IT mutaxassislari, yuqori intellekt egalarining qay darajada ko‘p bo‘lishi bevosita yosh avlod ta’limi bilan bog‘liq. Raqamlashtirish jarayonida yangi innovatsiyalarni yaratish uchun, avvalo, axborot-kommunikatsiyalashtirish jarayonlarini yaxshi tushunish, AKT va multimedia vositalaridan erkin foydalana olish zarur.

Mamlakatimiz uchun ta’limni raqamlashtirishning asosiy tahdidi global ta’lim muhitining asosini topishdir. Ushbu tahdid bir necha omillar natijasida amalga oshirilishi mumkin: jahon bozoriga kirishning kechikishi; mahsulot sifati yetarli emasligi til to‘sig‘i maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimi mutaxassislarining raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘rsatkichining pastligi; til bilish ko‘rsatkichining pastligidir. Hozirgi kunda rus va ingliz tilidagi bolalar uchun mo‘ljallangan rivojlantiruvchi interaktiv tizimlar, kompyuter o‘yinlari, multimedia

mahsulotlari juda ko‘p, tilni bilgan kishi esa ulardan bemalol foydalanishi mumkin. Yuqorida aytib o‘tilganlarga asoslanib ta’kidlash joizki, raqamli texnologiyalarni joriy etish maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimini rivojlantirish uchun juda muhimdir, ammo shu bilan birga ularni amalga oshirishda ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirish zarur. Hozirgi kunda mamlakatimizda ham ushbu soha rivoji uchun bir qancha loyihalar amalga oshirilmoqda. O‘zbek tilidagi bolalar uchun bo‘ljallangan rivojlantiruvchi, yangi bilim beruvchi elektron portallar yaratilmoqda. O‘zbekistondagi AKT sohasasidagi eng yirik tadbir hisoblangan ICTWEEK 2004-yildan buyon har yili o‘tkazib kelinmoqda. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan Toshkentda 2019-yil 24-iyul kuni ilk IT park ochildi. Maktablarimizning boshlang‘ich sinf darsliklariga ilova tarzida elektron multimedia darslari taqdim etilgan.

Ta’lim makonini raqamlashtirishga o‘tish zarurati bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, bugungi kunda deyarli barcha o‘quvchilar raqamli mahalliy avlodga mansub bo‘lib, ular yangi texnologiyalarni kundalik hayotida qo‘llashga katta moyilligini namoyon etmoqda. Ayniqsa, bu IT va Internet texnologiyalariga, shuningdek, ularni nafaqat professional sohada, balki ijtimoiylashuv va aloqa uchun ham qo‘llashga tegishli. Shunday qilib, raqamlashtirilgan ta’lim tizimidan foydalanish boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining kelajakda raqamlashgan jamiyatga kirishishi uchun, maqsadli auditoriya a’zosi bo‘lishi uchun tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Bu, albatta, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’lim bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga, qo‘shimcha qiymat yaratishga va bolalarni jalb qilishga olib keladi. Bu birinchi navbatda, raqamli ta’lim muhitida ta’limni, sog‘lom raqobatni oshiradi; Ikkinchidan, ta’lim jaraonini jahon standartiga moslashtirishiga imkon yaratadi. Bunday sharoitda shaxsni shakllantirish avvalgi an’anaviy usullardan tubdan farq qiladi, bu globallashayotgan axborot zamonida uni boshlang‘ich ta’lim integratsiyasida tatbiq qilishning sifat jihatidan yangi modelini ishlab chiqishni, hozirgi sharoit uchun zarur bo‘lgan va ularg mos keladigan mutlaqo yangi usullarini o‘zida jamlagan metodik ishlarni shakllantirishni talab qiladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalardan foydalana bilishi kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida qaraladi, u boshlang‘ich maktabning o‘ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, AKTning o‘ziga xosligi va tabiatini hisobga olgan holda, kasbiy muammolarni hal qilishda AKTdan foydalanish imkonini beruvchi kompetensiyalar majmuasidan iborat va boshlang‘ich maktabda qo‘llaniladi.

Hozirgi kunda biror-bir raqamli jarayon ishtirokchisiga aylanar ekanmiz, bu sohada ish boshlashni kompyuter, telefon yoki internetsiz tasavvur qilishimiz qiyin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ham raqamli ta’lim muhiti bilan tanishtirishdagi ilk darslarimizda biz albatta, axborot texnologiyalardan yaxshi xabardor bo‘lishimiz bilan birga, o‘z vazifamizni zamon talabida bajarishimiz uchun axborotga ishlov beruvchi vositalarni, ularni ishlatish uslubiyotiga,

ular bilan ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishimiz zarur. Zero, boshlang‘ich sinfga kelgan bolalarning aksariyati maktabgacha ta’lim jarayonida kompyuter va u bilan ishlashdagi elementar funksiyalarni puxta egallagan bo‘lishlari mumkin. Shunday bo‘lsada, ilk darsimizni kompyuter, elektron vositalar, raqamli texnologiyalar bilan ishlashda texnika xavfsizligi va saniteriya-gigiyena qoidalari bilan tanishuvdan boshlasak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bolalarning kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalarini tekshirish yoki hosil qilish maqsadida biz turli xil aqlni charxlovchi, mantiqiy o‘yinlar, didaktik o‘yinlar, mashg‘ulotlardan foydalanamiz. Buning uchun bizga tegishli moddiy va material baza, ya’ni maxsus jihozlangan informatika xonasi bo‘lishi lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini raqamli ta’lim muhiti bilan tanishtirishning asosiy vazifasi kichik yoshdagi bolalarga komyuter, texnologiyalar haqida dastlabki ma’lumotlarni berish, ularning ijobiy va salbiy taraflarini tushuntirish, ularga raqamli texnologiyalardan foydalanish usullarini o‘rgatish, ular bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

O‘quvchilar ongining rivojlanishida, bilim saviyasini oshirishda va tarbiyasida ham komputerning ahamiyati katta. 6-7 yoshli bolalar dunyoni tezroq anglay oladilar, raqamli texnologiyalar ularga ko‘mak beradi va ulardagi ayrim ko‘nikmalarni oshirishda katta rol o‘ynaydi. Psixologlarning fikricha, kompyuter diqqatni jamlab, tayin bir obyektga yo‘naltirishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar bolaning ijodiy qobilyatini kutilmaganda uyg‘otishi mumkin. Ba'zi bolalar til o‘rganishni boshlasalar, ba'zilari komputerda ajoyib rasmlar chizishni boshlaydilar. Yosh bolalarning computer, telefon, raqamli vositalar bilan muloqotlarini ota-onalar, tarbiyachilar va o‘qituvchilar muntazam nazorat qilib turishlari zarur. Bolalarning maromidan ortiqcha komputerda shug‘ullanishlari ularga jismoniy va ruhiy jihatdan salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Kompyuterda ishlashga yoki o‘yinlarni o‘ynashga haddan tashqari berilib ketish natijasida bolaning vaqtida uxlash, ovqat yeyish, dars tayyorlash tartibi buziladi. Bu esa bolaning xulqiga ta'sir ko‘rsatadi. Kompyuterdan va raqamli texnikadan noto‘g‘ri foydalanish natijasida bolaning ko‘zi, umurtqa pog‘onasi, nafas yo‘llari shikastlanishi mumkin. Bola yoshiga mos kelmagan ma'lumotlar (kino, o‘yin, kliplar) uning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi.

Bolaning yoshiga qarab kompyuter oldida qancha vaqt shug‘ullanishiga ham katta ahamiyat berish kerak. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kuniga 6 yoshgacha bo‘lgan bolalar 10-15 minut, 7-8 yoshli bolalar 30-40 minut, 9-11 yoshli bolalar esa 1 soat shug‘ullanishlari mumkin.

Xulosa o‘rnida, o‘qituvchi-pedagoglar bilan bir qatorda ota-onalarga ham bolalarning ta’limiy-didaktik o‘yinlarini nazorat qilib, ular bilan birga ishlash tavsiya etiladi. O‘yinda taqdim etilayotgan barcha tadbir, harakatlar haqida fikr bildirish, muvaffaqiyatga erishish uchun bolani maqtash bolaning biz bilan yaqinlashuviga yordam beradi. Keyinchalik bola mustaqil bo‘lgach,

bizning fikrimiz ham ahamiyatini yo‘qotmaydi, ota-ona yoki ustozlar bilan muloqot qilish ham muhim vazifani bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. it-park. uz

2. R. R. Boqiyev, R. Yu. Mehmonov, D. K. Husnitdinova. ”Kompyuter o‘rgatish metodikasi”. Toshkent “IQTISOD-MOLIYA”-2012.

3. Arapbayeva D. K., Norqulova N. T., Rustamova M. M. “Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari”. T.: “Navro‘z 2017-y.

4. Ochilova G. Pedagogik mahorat asoslari. Ma’ruzalar matni. – Toshkent, TDIU, 2012.

5. Sayidahmedov N. ”Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”. – T.: 2003.

6. Xoliqov A. “Pedagogik mahorat” Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011 y

TALABALARNI BILIM KO‘NIKMALARINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Tayirov Hamza O‘ktamovich

Urganch Davlat Pedagogika Instituti.

Axborotlashtirish bugungi kunda ta‘lim tizimini modernizatsiya qilishning asosiy vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayon nafaqat texnika va texnologiyaning rivojlanishi, balki axborot jamiyati shakllanishi natijasida yuzaga keladigan o‘zgarishlar bilan ham bevosita bog‘liqdir. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yordamida o‘qituvchilar o‘quv jarayonini samarali tashkil qilish, o‘quvchilar bilan interaktiv muloqotni yo‘lga qo‘yish va o‘quv materiallarini aniq, vizual shaklda taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. Har qanday o‘qituvchi o‘quv jarayonida AKT vositalaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlarga ega. Misol uchun, elektron darsliklar, interaktiv taqdimotlar, virtual laboratoriyalar kabi vositalar yordamida darslarning mazmuni boyitilib, ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida tezkor axborot almashinuvi ta’minlanmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim sifatini sezilarli darajada yaxshilashga imkon yaratadi. Bundan tashqari, masofaviy ta’lim texnologiyalari rivojlanishi bilan o‘quvchilarga nafaqat dars jarayonida, balki darsdan tashqari mustaqil ravishda ham bilim olish imkoniyatlari kengaymoqda. AKTning ta’lim tizimida qo‘llanilishi natijasida o‘quvchilar o‘zlarining mustaqil fikrlash, tahlil qilish va yangi bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantira olmoqdalar.

Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish nafaqat darslarni samarali tashkil etishga yordam beradi, balki o‘quvchilarga mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini yaratadi. Masalan, onlayn platformalar, elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar va masofaviy o‘quv kurslari orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini yanada chuqurroq o‘rganish va o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘lishmoqda. Bu usullar ta’lim jarayonida bilimlarning interaktiv o‘zlashtirilishini ta’minlab, darslarni jonli va qiziqarli o‘tkazishga imkon beradi.

AKT asosida o‘quv jarayonini tashkil qilish nafaqat fanlarni jonli o‘qitish imkoniyatini beradi, balki visual mashqlar, animatsiyalar va simulyatsiyalar orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. Ayniqsa, vizual materiallar yordamida murakkab tushunchalarni oson tushuntirish mumkin bo‘lib, bu o‘quvchilarning bilim olish jarayonini soddalashtiradi. Interaktiv ta’lim vositalari yordamida o‘quvchilar mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammolarni hal qilish kabi qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Bundan tashqari AKTdan foydalanish talabalarda texnik ljodkorlikni rivojlantirishda ko‘plab afzalliklarga ega. Yaniy raqamli vositalar va dasturiy ta’minot talabalarga prototiplarni loyihalash va yaratish uchun juda samarali platformalardan foydalanish imkonini beradi. Bu platformalar yordamida loyihalash dasturi orqali talabalar o‘zlarining g‘oyalarini tasavvur qilishlari va takomillashtirishlari mumkin. Bu ularga dizaynlarini takrorlash va takomillashtirish, talabalarga amaliy tadqiqotlar olib borish, ularning innovatsion fikrlarini bajarish va texnik ijodiy yechimlarni qidirishda yordam beradi, bilim almashishni osonlashtiradi va talabalarga texnik loyihalarda birgalikda ishlash, fikr almashish va ijodiy jarayonlarini yaxshilash uchun fikr-mulohazalarni taqdim etish imkonini beradi. Onlayn resurslar va o‘quv qo‘llanmalarining mavjudligi, talabalarning texnik bilim va ko‘nikmalarini mustaqil ravishda kengaytiradi.

Yana bir afzallik shundaki, kompyuter imitatsion modellari yordamida o‘quvchilarda mavzuni tahlil qilish va amaliy bilimlarni o‘zlashtirish yanada osonlashadi. Bu usul orqali murakkab tajribalarni yoki qiyin tushunchalarni o‘quvchilarga sodda va tushunarli tarzda taqdim etish mumkin.

Yangi axborot texnologiyalarini ta’lim jarayonida keng qo‘llash quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

Yangi axborot texnologiyalarining ta'limga ta'siri

O‘quv jarayoni ko‘lamini kengaytirish: Yangi texnologiyalar ta'lim jarayonining turli xil komponentlarini qamrab olish imkonini beradi

Amaliy yo‘nalishni oshirish: Axborot texnologiyalaridan foydalanish darslarni amaliyotga yaqinlashtiradi

O‘quvchilarning ishtiyoqini oshirish: Yangi texnologiyalar darslarni qiziqarli va interaktiv qilish orqali o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Intellektual va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish: Axborot texnologiyalari yordamida o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni o‘rganadilar, balki ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar

Mustaqil ta’lim olish imkoniyatlari: Yangi texnologiyalar orqali o‘quvchilar o‘z vaqtlarida mustaqil o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladilar

Kelajak maqsadlariga erishish uchun sharoit yaratish: Raqamli savodxonlikni rivojlantirish, texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali o‘quvchilarga kelajakdagi maqsadlariga erishish uchun zarur ko‘nikmalarni beradi

Xulosa qilib aytganda, AKT yordamida o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning bilim olishdagi faoliyatini kuchaytirish, shuningdek, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Zamonaviy ta’lim jarayonida AKT qo‘llanilishi o‘quvchilarga mustaqil o‘qish, bilim olish va yangi texnologiyalarni amaliy qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alimov N., Tog‘aev X., Turmatov J. O‘quvchilarni texnik ijodkorlik faoliyatiga r ahbarlik qilish // Kasb-hunar ta’limi. -T.: 2004. - № 3. – B. 26- 27.

2. Pardabaev J. E. “O‘quvchilar kasb– hunar ko‘nikmalarini rivojlantirishda robototexnikaning o‘rni” Fan va jamiyat, 2020 yil 2-son., 81-83 b.

3. Sharonin Yu. V. Oliy va kasbiy ta’limdagi raqamli texnologiyalar: shaxsiy yo‘naltirilgan Smart didaktikadan mutaxassislarni maqsadli tayyorlashda blokcheyngacha // Fan va ta’limning zamonaviy muammolari. – 2019 yil. – 1-son.

4. Norboeva N Erkinovna, Xashimova D Paxritdinovna. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning roli // ACADEMICIA: Xalqaro multidisiplinar tadqiqot jurnali 10 (3), 25-31.

O‘QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISH:BOSHLANG‘ICH TA'LIMDA IJODIY YONDASHUV

Sayliyeva Mashkura Muxtorkuli qizi
ChDPU Boshlang‘ich ta’lim metodikasi o‘qituvchisi
Husanova Umida To‘lqin qizi
ChDPU talabasi

Bugungi kunning ta'lim tizimi, avvalo, o‘quvchilarga bilim berish bilan cheklanmaydi, balki ularni jamiyatda muvaffaqiyatli va ijodkor shaxslar sifatida tarbiyalashni ham o‘z ichiga oladi. Bu maqsadga erishish uchun boshlang‘ich ta'limda kreativ fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish juda muhimdir. Ijodiy fikrlash — bu muammolarga yangi, o‘zgacha va samarali yechimlarni topishga yordam beradigan muhim kompetensiya bo‘lib, u o‘quvchilarni keng qamrovli fikrlash, analitik va kritik yondashuvlarni rivojlantirishga undaydi.

Ijodiy fikrlash, eng oddiy ta'rifi bilan, yangicha fikrlar, g‘oyalar va yechimlar yaratish qobiliyatidir. Bu faqat san'at yoki adabiyot sohalari bilan bog‘liq emas, balki matematika, fanlar, tilshunoslik va boshqa fanlarga ham taalluqlidir. Ijodiy fikrlash, muammo yechish jarayonida standart usullardan tashqari, yangi va innovatsion yo‘llarni izlashni o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich ta'limda ijodiy fikrlashni rivojlantirish, o‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifodalashga, yangi g‘oyalarni yaratishga va o‘z bilimlarini kengaytirishga imkoniyat yaratadi

Boshlang‘ich ta'limda kreativ fikrlashning rivojlanishi bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga katta ta'sir ko‘rsatadi. Quyidagi jihatlar boshlang‘ich ta'limda ijodiy yondashuvning muhimligini tasdiqlaydi:

1. Muammolarni hal etish qobiliyati: Ijodiy fikrlash o‘quvchilarga muammolarni turli burchaklardan ko‘rishga va yangi yechimlar topishga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, ular uchun hayotda duch keladigan turli qiyinchiliklarga moslashishga imkon yaratadi.

2. Innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish: Ijodiy fikrli o‘quvchilar yangi g‘oyalar yaratish, mavjud tizimlarni takomillashtirish yoki yangi ishlanmalarni ishlab chiqishga qodir bo‘lishadi.

3. O‘z-o‘zini ifodalash va mustaqillik: Boshlang‘ich sinfda ijodiy fikrlashni rivojlantirish, bolalarga o‘z fikrlarini ifodalash imkoniyatini beradi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning mustaqil va erkin fikr yuritish qobiliyatini oshiradi.

4. Jamoada ishlash va hamkorlik: Ijodiy fikrli o‘quvchilar jamoada ishlashda yaxshi natijalar ko‘rsatadi. Ular boshqa o‘quvchilar bilan hamkorlikda yangi yechimlar ishlab chiqish va jamoaviy ishlarni tashkil etishda faol qatnashadilar.

Boshlang‘ich ta'limda o‘quvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatishning turli yo‘llari mavjud. Ular orasida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Mavzularni yangi burchaklardan ko‘rish: O‘quvchilarga oddiy mavzularni yoki amaliyotlarni yangi va o‘zgacha burchakdan ko‘rishga imkon berish kerak. Masalan, "Meva" mavzusida o‘quvchilarni nafaqat mevalarni o‘rganishga, balki ularni san'atda qanday ifodalash mumkinligini ham ko‘rib chiqishga undash mumkin.

2. Savatdagi savollar: O‘quvchilarga ko‘proq ochiq savollar berish, ularni oddiy javobdan tashqari, murakkab va kengroq fikrlashga undaydi. Masalan, "Qanday qilib tabiatni saqlash mumkin?" kabi savollar bolalarga o‘z g‘oyalarini yaratishda yordam beradi.

3. Ijodiy ta'lim texnologiyalari: Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchilarga interaktiv va kreativ tajribalar yaratish mumkin. Kompyuter o‘yinlari, virtual laboratoriyalar, dizayn dasturlari o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga va yangi g‘oyalarni sinashga undaydi.

4. Boshqa madaniyatlar bilan tanishtirish: O‘quvchilarga boshqa madaniyatlar va ularning san'ati, musiqasi, adabiyoti haqida ma'lumot berish, ularning fikrlash doirasini kengaytiradi. Bu orqali o‘quvchilar yangi g‘oyalarni qabul qilishga va o‘z ijodiy fikrlarini shakllantirishga o‘rganadilar.

5. Bardoshlilik va qat'iyatlilikni rivojlantirish: Ijodiy fikrlash, ko‘pincha muvaffaqiyatsizlikka uchrash va yangi yo‘llarni izlashni talab qiladi. O‘quvchilarni xatolardan qo‘rqmaslikka va ularni to‘g‘ri tahlil qilishga o‘rgatish kerak.

Boshlang‘ich ta'limda ijodiy fikrlashni rivojlantirish, o‘quvchilarga faqat bilim olishda yordam bermaydi, balki ularni muammolarni hal qilish, yangi g‘oyalar yaratish va o‘z-o‘zini ifodalashda ham qo‘llab-quvvatlaydi. Ijodiy yondashuvning rivojlanishi nafaqat o‘quvchilarning individual muvaffaqiyatiga, balki jamiyatning innovatsion rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi. Shuning uchun, boshlang‘ich ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantirishga e'tibor qaratish, kelajakdagi yuksak jamiyatni qurish uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sayliyeva, M. (2023). Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining milliy tarbiya ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasi. Academic research in educational sciences, 4(3), 390-393.

2. Shoyusupova, S. (2023). Ta’limiy o ‘yin faoliyati–kreativ qobiliyatni rivojlantirishning o ‘ziga xos vositasi sifatida. NamDU axborotnomasi, 2(2), 736-741.

3. Shavkatbekovna, N. S. (2023). FORMATION STRATEGIES OF POSITIVE ATTITUDES TOWARDS THE LESSON IN FOREIGN COUNTRIES. International Journal of Pedagogics, 3(12), 126-131.

4. Sarvinoz, T. (2024). BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARINING MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 3(33), 174-177.

INTERFAOL TA’LIM DASTURLARI ORQALI TA’LIMDA SAMARADORLIKDA ERISHISH

Djanbayeva Sevara Farxod qizi

Guliston pedagogika insituti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’limning mohiyatini ochib berish, pedagog faoliyatini keng qamrovli yoritish, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy mahorat va darsga ijodiy yondashib, unda o‘qitishning yangi shakl va usullarini qo‘llash haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: interfaol dasturlar, ta’lim, texnologiya, onlayn ta’lim platformalar, IQ interfaol ta’lim platformasi

Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, global dunyoda raqobatning ortishi sharoitida har bir davlat va jamiyatning bu jarayonda raqobatbardoshligi yoshlarning intellektual rivoji hamda ularning iste‘dodi va qobiliyatlarini to‘liq amalga oshirishga e‘tibor berishga bog‘liq bo‘ladi. Biz yashayotgan tez sur‘atda rivojlanib borayotgan dunyoda uzluksiz o‘rganish va malaka oshirish zarurati muhim bo‘lib qoldi. Onlayn ta’lim platformalari o‘z uyingizdan yoki internetga ulangan istalgan joyda bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishning moslashuvchan va qulay usulini taklif etadi. Ushbu platformalar turli fanlar va tajriba darajalariga moslashtirilgan keng doiradagi kurslar va resurslarni taqdim etadi.

Interfaol ta’lim platformalari ko‘pincha o‘quvchilarni jalb qilish va tushunishni kuchaytirish uchun videolar, animatsiyalar va interaktiv simulyatsiyalar kabi turli multimedia kontentini o‘z ichiga oladi. Interfaol o‘quv platformasidagi multimedia kontenti axborotning bir nechta turlarini birlashtirgan turli shakllarni ifodalaydi: matn, tasvir, audio, video, animatsiya va boshqa elementlar. Ushbu turdagi kontent yanada qiziqarli, ko‘rgazmali va samarali o‘quv materiallarini yaratishga imkon beradi.

Interfaol o‘quv platformasida multimedia kontentidan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

➢ Vizual ishtirokni mavjudligi: Tasvirlar, videolar va animatsiyalar o‘quvchilar e‘tiborini tortadi va o‘quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

➢ Ma‘lumotni yaxshiroq saqlash: Multimedia kontenti o‘quvchilarga turli sezgi kanallaridan foydalanish orqali ma‘lumotni yaxshiroq eslab qolish va saqlashga yordam beradi.

➢ Interfaollik: Multimedia kontenti interaktiv bo‘lishi mumkin va o‘quvchilarga o‘quv jarayonida faol ishtirok etish, masalalarni yechish, mashqlar va testlarni bajarish imkonini beradi.
➢ Moslashuvchanlik: Multimedia kontentini har bir talabaning individual ehtiyojlari va bilim darajasiga moslashtirish uchun moslashtirilgan o‘quv materiallarini yaratish imkonini beradi.

IQ Interfaol ta’lim platformasi

IQ sifatida ham tanilgan interfaol ta’lim platformasi Interaktiv doska uchun dasturiy ta‘minot, an‘anaviy doskalarning raqamli versiyasini yaratadi, bu o‘qituvchilarga real vaqt rejimida o‘quvchilar bilan aloqasini taminlaydi. . O‘qitish uchun bunday interfaol platformalar o‘qituvchilarga matematika uchun funktsiya grafikasi, davriy jadval va kimyo uchun atom tuzilishi kabi tezkor kirish uchun mo‘l-ko‘l mavzular vositalari bilan taqdimot qilish imkonini beradi. U o‘qituvchilar uchun o‘quvchilarni yanada faolroq va diqqatni jamlagan interfaol o‘yinlarni yaratish uchun sinfdagi qiziqarli faoliyat shablonlarini taklif qiladi. Interfaol o‘qitish platformasi ta‘lim sohasida tobora ommalashib bormoqda, chunki u o‘qituvchilarga qayerda va qanday o‘qitishda ko‘proq moslashuvchanlikka ega bo‘lish imkonini beradi.

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub‘ektlarning suhbat (dialog), o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi. SHunday qilib, interfaol ta’lim texnologiyalari t’’lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o‘qituvchi, talaba, talabalar guruhi, shuningdek, jamoa o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirish, g‘oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta’lim oluvchi (o‘quvchi, talaba)ning ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo‘lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi, 2017. 16 yanvar, №11

2. R. A. Mavlonova, B. Normurodova "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" Toshkent 2007

3. N. Egamberdieva "Tarbiya texnologiyasi" Fan va texnologiyalar 2016-yil

4. R. A. Mavlonova, D. Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma Toshkent Fan va texnologiya 2012-yil

5. S. Nishonova, M. Imomova, R. Xasanov. Pedagogika tarixi. Darslik Toshkent O‘qituvchi 1996-yil 6. M. Ochilov. Muallim qalb me’mori. O‘quv qo‘llanma Toshkent O‘qituvchi 2004-yil

TABIIY FANLAR YO‘NALISHI TALABALARIGA FIZIKANI RAQAMLI O‘YINLAR VA INTERAKTIV TA'LIM DASTURLARI ORQALI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMI

Farmonov O‘tkir Mirzaqobilovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
farmonov-81@mail. ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada fizika ta'limida raqamli o‘yinlar va interaktiv dasturlardan foydalanishning samaradorligi va afzalliklari tahlil qilinadi. Raqamli o‘yinlar, talabalar uchun qiziqarli va motivatsion vosita sifatida, o‘zlashtirishni kuchaytirish, mustahkamlash va muloqot orqali bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini yaratadi. Interaktiv ta'lim dasturlari esa fizika fanining abstrakt tushunchalarini ko‘rgazmali va amaliy shaklda taqdim etishga yordam beradi, bu esa tushunishni yanada chuqurlashtiradi.

Bundan tashqari, talabalarning o‘zini o‘zi baholash va o‘zlashtirish darajasini kuzatish imkoniyatlari kengayadi, bu esa o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini yanada individualizatsiya qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli platformalar yordamida fizika fanining qiyin bo‘lgan jihatlarini o‘rganish jarayonini yanada interaktiv va samarali qilish mumkin.

Mazkur ishda, fizika o‘qituvchilarining raqamli o‘yinlar va interaktiv dasturlar orqali o‘qitish metodologiyasini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi va ushbu metodlarning samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Fizika ta'limi, Raqamli o‘yinlar, Interaktiv ta'lim dasturlari, Ta'lim samaradorligi, O‘quv metodikasi, Innovatsion ta'lim texnologi, Amaliyot va muloqot, O‘z-o‘zini baholash va o‘qitish samaradorligi

Fizika fanini o‘rgatishda an'anaviy ta'lim metodlari bilan bir qatorda, yangi va zamonaviy usullarni joriy etish talab qilinmoqda. So‘nggi yillarda, raqamli texnologiyalar va interaktiv ta'lim vositalari fizika fanini o‘qitishda samarali vosita sifatida tobora keng qo‘llanilmoqda. Xususan, raqamli o‘yinchalar va interaktiv dasturlar yordamida fizika ta'limining samaradorligini oshirish imkoniyatlari katta. Bu maqolada raqamli o‘yinlar va interaktiv ta'lim dasturlarining fizika ta'limiga qo‘shgan hissasi va ularning samaradorligini oshirishdagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi.

1. Raqamli o‘yinlar va interaktiv ta'lim dasturlarining ta'limdagi o‘rni

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga texnologiyaning kirib kelishi, talabalarning qiziqishini oshirish va materiallarni o‘rganishning samaradorligini oshirishga imkon yaratmoqda. Raqamli o‘yinlar va interaktiv dasturlar talabalarga fizika fanini qiziqarli va oson tushuniladigan shaklda o‘rgatish imkoniyatini beradi. Bunday texnologiyalar, talabalarga o‘rganilayotgan materialni tajriba qilish, sinovdan o‘tkazish va real vaqt rejimida natijalarni ko‘rish imkoniyatini taqdim etadi. Bu talabalarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va mustahkam bilimlarni shakllantirishga yordam beradi.

Raqamli o‘yinlar, talabalarga qiziqarli va interaktiv muhitda o‘qituvchining nazoratidan tashqarida o‘rganish imkoniyatini beradi. O‘yinlar fizikaning turli jihatlarini o‘rgatishda juda foydalidir. Masalan, kuchlar, energiya, tezlik va tezlanish kabi mavzularni o‘ynab o‘rganish mumkin. O‘yinlar talabaning fikrlashini rivojlantiradi, mantiqiy fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatini oshiradi.

Interaktiv ta'lim dasturlari talabalarga nafaqat ma'lumotlarni o‘rganish, balki amaliy mashg‘ulotlar va tajribalarni o‘tkazish imkoniyatini beradi. Fizika fanida interaktiv simulyatorlar yordamida turli tajribalar va fizika qonunlarini ko‘rish va o‘rganish mumkin. Masalan, elektromagnit maydonni yoki issiqlik o‘tkazuvchanligini simulyatsiya qilish orqali talabalar nazariya va amaliyotni birlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

2. Raqamli o‘yinlar va interaktiv dasturlar orqali Fizika ta'limining samaradorligini oshirish

Talabalar qiziqishini oshirish - Fizika fani ko‘pincha murakkab va quruq mavzular bilan bog‘lanadi. Ammo raqamli o‘yinlar va interaktiv dasturlar yordamida bu fanni o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va o‘ziga jalb etuvchi qilish mumkin. O‘yinlar va simulyatsiyalar yordamida talabalar fizik hodisalarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rish va ularga bevosita ta'sir qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu talabalarni mavzu bilan yaxshiroq tanishtiradi va ularning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi.

Amaliy mashg‘ulotlarni kuchaytirish- Fizika fanini tushunishda amaliy tajribalar katta ahamiyatga ega. Raqamli o‘yinlar va interaktiv dasturlar amaliy mashg‘ulotlarni simulyatsiya qilish imkonini beradi. Talabalar bunday dasturlar orqali o‘zlari tajriba o‘tkazib, natijalarni tahlil qilishlari mumkin. Bu o‘rganilayotgan fizika qonunlarini tushunishni yaxshilaydi va talabalarda nazariy bilimlar bilan birgalikda amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi.

Shaxsiy o‘rganish jarayonini qo‘llab-quvvatlash- Raqamli o‘yinlar va interaktiv dasturlar talabalarga o‘z sur'atida o‘rganish imkoniyatini beradi. Har bir talaba o‘ziga mos usulda, qaysi mavzularda qiyinchiliklarga duch kelayotganini aniqlab, o‘z vaqtida yordam olishi mumkin. Shu

bilan birga, talabalarni boshqalarning qadamlaridan orqada qolish yoki oldinga o‘tish kabi raqobatga jalb qiladigan o‘yin elementlari o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi.

3. Interaktiv ta'lim platformalarining afzalliklari

Vizual va dinamik o‘rgatish- Fizika kabi murakkab fanlarni o‘rganishda vizual tasvirlar va animatsiyalar juda foydalidir. Interaktiv dasturlar, talabalarga fizika hodisalarini dinamik tarzda ko‘rsatib, murakkab jarayonlarni oson tushunishga yordam beradi. Masalan, issiqlik o‘tkazuvchanligi yoki elektr tokining o‘tishini ko‘rsatuvchi grafiklar va animatsiyalar talabalar uchun mavzuni aniqroq tushunishga imkon beradi.

Sinov va xatoliklar orqali o‘rganish- Raqamli o‘yinlar va interaktiv dasturlar talabalarga sinovlar va xatoliklar orqali o‘rganish imkonini beradi. Bu metod talabalarga xatolarini ko‘rish va ulardan o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Talabalar sinovlardan o‘tgach, ularning natijalari ko‘rsatiladi, bu esa talabaning o‘z bilimlarini baholashga yordam beradi.

Fizika fanini o‘qitishda raqamli o‘yinlar va interaktiv ta'lim dasturlarining qo‘llanilishi ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu usullar talabalarning qiziqishini oshiradi, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, o‘rganilayotgan materialni yanada tushunarli va o‘zlashtirilishi oson qiladi. Shuningdek, bunday texnologiyalar talabalarning bilim darajasini va mustahkamligini oshiradi, bu esa kelajakda ilm-fan va texnika sohasida muvaffaqiyatga erishishlariga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, o‘qituvchilar uchun ham yangi texnologiyalarni o‘qitish jarayoniga kiritish imkoniyati taqdim etiladi. Biroq, bunday texnologiyalardan samarali foydalanish uchun ularni o‘qituvchilar tomonidan to‘g‘ri va professional tarzda qo‘llash zarur. Bunday innovatsiyalarni amalga oshirishda ta'lim tizimining barcha darajalarida yangi usullarni o‘zlashtirish, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashni o‘rgatish va muntazam ravishda yangilanishlar kiritish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Anderson, C. A., & Dill, K. E. (2000). *Laboratoriyada va hayotda Video o‘yinlar va tajovuzkor fikrlar, his-tuyg‘ular va xatti-harakatlar.* Shaxs va ijtimoiy psixologiya jurnali, 78(4), 772-790. Bu ilmiy maqola raqamli o‘yinlarning talabalarning psixologik va hissiy holatiga qanday ta'sir qilishini o‘rganadi, ta'lim jarayonida o‘yinlardan foydalanishning afzalliklarini tahlil qiladi.

2. Stein, M. L., & Reynolds, R. D. (2018). *Interfaol ta'lim: zamonaviy talabani jalb qilish uchun yondashuv.* STEM ta'limi jurnali, 19(1), 1-12. Interaktiv ta'lim metodlarini o‘rganishga qaratilgan maqola, ayniqsa fizika fanida, raqamli texnologiyalar va o‘yinlarning o‘rnini ko‘rib chiqadi.

3. Skvayr, K. D. (2005). *O‘yin o‘zgartirish: Video o‘yinlar tarbiyalash qachon nima sodir bo‘ladi?* Innovatsiya: onlayn ta'lim jurnali, 1(6). O‘yinlarni ta'lim vositasi sifatida ishlatish va ularning o‘quv jarayoniga ta'siri haqida muhim tushunchalar berilgan.

4. Mayer, R. E. (2005). *Multimedia ta'lim Kembrij qo‘llanma.* Kembrij Universiteti Matbuoti. Multimediya va interaktiv o‘qitish usullarini o‘rganishga bag‘ishlangan ushbu kitobda, o‘yinlarning va interaktiv texnologiyalarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli tahlil qilingan.

5. Jonassen, D. H., & Er, S. M. (2000). *O‘quv muhitining nazariy asoslari.* Lourens Erlbaum Associates. Bu kitob o‘qitishning nazariy asoslarini va interaktiv, raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq yangi yondashuvlarni o‘rganadi.

OTM PROFESSOR-O‘QITUVCHILARINING KASBIY RIVOJLANISHIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TURLARI

Norboyev O‘razali Muratovich

Jizzax Politexnika Instituti

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonlarining barcha bosqichlariga chuqur kirib bormoqda. Oliy ta’lim muassasalari (OTM) professor-o‘qituvchilari uchun raqamli texnologiyalar nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki ularning kasbiy rivojlanishi uchun ham katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada OTM professor-o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishida qo‘llaniladigan raqamli texnologiyalarning turlari va ularning ahamiyati tahlil qilinadi.

1. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash zarurati

Zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar bilan birga raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi talimning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Professor-o‘qituvchilar o‘z bilim va ko‘nikmalarini zamonaviy texnologiyalar orqali yangilab, ulardan ta’lim jarayonida foydalanishda ilg‘or tajribaga ega bo‘lishi lozim.

2. Raqamli texnologiyalar turlari

Professor-o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida foydalaniladigan raqamli texnologiyalar quyidagi turlarga ajratiladi:

Masofaviy ta’lim platformalari

Masofaviy ta’lim platformalari (masalan, Moodle, Google Classroom, Blackboard) professor-o‘qituvchilarga o‘z kurslarini yaratish, boshqarish va talabalarga yetkazish imkonini beradi. Ular o‘zlarini masofadan o‘qitish usullari bo‘yicha rivojlantirish uchun ushbu platformalarda treninglar va vebinarlar tashkil etishlari mumkin.

Onlayn ta’lim resurslari

Khan Academy, Coursera, edX va Udemy kabi onlayn platformalar professor-o‘qituvchilarga dunyoning yetakchi universitetlari va mutaxassislaridan yangi bilimlarni o‘zlashtirish imkonini beradi. Ushbu resurslar orqali o‘qituvchilar o‘z sohalarida yetakchi bo‘lish uchun kerakli bilimlarni olishadi.

Multimedia va vizualizatsiya vositalari

Prezi, Canva va PowerPoint kabi vositalar o‘qituvchilarning dars jarayonlarini interaktiv va qiziqarli qilishga yordam beradi. Bular nafaqat talabalarning e’tiborini jalb etadi, balki professor-o‘qituvchilar uchun yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Raqamli simulatsiyalar va laboratoriyalar

Fizika, kimyo yoki boshqa texnik fanlar bo‘yicha raqamli simulatsiya vositalari (masalan, PhET Interactive Simulations) orqali o‘qituvchilar talabalar uchun laboratoriya ishlarini masofaviy tarzda tashkil qilish imkoniyatiga ega. Bu, ayniqsa, pandemiya kabi sharoitlarda samarali bo‘lib, professor-o‘qituvchilarning bilim berish qobiliyatini oshiradi.

a) Sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalar

Sun’iy intellekt professor-o‘qituvchilarga ta’lim jarayonini individuallashtirish, talabalarning bilim darajasini avtomatik ravishda baholash va ularning ehtiyojlariga mos o‘quv rejalarini taklif qilish imkonini beradi.

b) Ijtimoiy media va blog platformalari

Professor-o‘qituvchilar o‘z ilmiy va pedagogik faoliyatlarini rivojlantirish uchun ijtimoiy media platformalaridan foydalanishlari mumkin. Masalan, LinkedIn, ResearchGate va Academia. edu orqali ilmiy maqolalar va fikr almashish imkoniyati mavjud.

3. Raqamli texnologiyalarning kasbiy rivojlanishga ta’siri

Raqamli texnologiyalar professor-o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga quyidagi jihatlar orqali ta’sir ko‘rsatadi:

- **innovatsion yondashuvlar:** Yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish orqali o‘qituvchilar dars jarayonlarida innovatsion usullardan foydalanadi;

- **doimiy o‘rganish:** Raqamli resurslar o‘qituvchilarga doimiy ravishda o‘z bilimlarini oshirish imkoniyatini yaratadi;

- **global tarmoqqa ulanish:** Onlayn platformalar orqali xalqaro tajribaga ega bo‘lish va ilmiy hamkorlik qilish imkoniyati paydo bo‘ladi;

- t**alabalar bilan muloqot:** Raqamli texnologiyalar talabalarning ehtiyojlarini tezroq va samarali tushunishga yordam beradi.

OTM professor-o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishi raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish va ulardan samarali foydalanishga bog‘liq. Ushbu texnologiyalar ta’lim jarayonini innovatsion va interaktiv qilish bilan birga o‘qituvchilarning bilim va tajribalarini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, professor-o‘qituvchilarni raqamli texnologiyalardan foydalanishga o‘rgatish va ularga tegishli sharoit yaratish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Anderson, T. (2020). Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning.

2. Khan, S. (2012). The One World Schoolhouse: Education Reimagined.

3. UNESCO (2021). Digital Learning and Innovation.

BOSHLANG‘ICH SINFDA TO‘GARAKLARNI TASHKIL ETISH ORQALI O‘QUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi

Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi mudiri,

Pedogogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Kamolova Nodirabegim Lutfullo qizi

Nizomiy nomidagi TDPUning Boshlang‘ich ta’lim fakulteti, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda fan to‘garaklarini tashkil etish orqali o‘quvchilarning ijodkorlik va kreativlik qobiliyatini rivojlantirish, kreativlik tushunchasi va uning pedagogikadagi ahamiyati, o‘quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirishga doir masalalar tahlil qilingan va tegishli xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, kreativlik, tafakkur, qobiliyat, to‘garak, ijodkorlik, rivojlanish, ta’lim, metod.

Аннотация. В данной статье проанализированы и актуальны вопросы, связанные с развитием творческих способностей и творческих способностей учащихся, понятием творчества и его значением в педагогике, а также формированием творческого мышления учащихся посредством организации научных кружков в начальных классах. выводы были сделаны.

Ключевые слова: начальный класс, творчество, мышление, способности, кружок, творчество, развитие, обучение, метод.

Abstract. In this article, the issues related to the development of creativity and creativity of students, the concept of creativity and its importance in pedagogy, and the formation of creative thinking of students through the organization of science clubs in elementary grades were analyzed and relevant conclusions were drawn.

Keywords: primary class, creativity, thinking, ability, circle, creativity, development, education, method.

Yurtimizda ta’lim tizimini rivojlantirish, zamonaviy dunyoda o‘z o‘rnini topa oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash haqida so‘z yuritar ekanmiz, bugungi kunda ta’lim jarayonlarida o‘quvchilarga turli fan doiralarda bilim, ko‘nikma va malakalarni berish bilan birga, ulardagi ijodkorlik, kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishga ham e’tibor berishimiz zarur. Kreativlik lotincha “create”- yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor degan ma’nolarni ifodalaydi. Kreativlik- individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat ma’nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o‘tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ tafakkurini rivojlantirishning turli yo‘llari mavjud. Shulardan biri boshlang‘ich sinfda sinfdan tashqari ishlarni to‘g‘ri tashkil etish hisoblanadi. To‘garaklar maktabda tashkil etiladigan sinfdan tashqari ishlarning o‘quvchilar kreativligini oshirish uchun eng zarur turi hisoblanadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda ularning darsdan bo‘sh vaqtlarida o‘quv-tarbiya jarayonini to‘ldiradi. U o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. To‘garaklar maktab ta’lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini yo‘lga qo‘yish shakllaridan biridir. To‘garaklar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga, aktiv faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko‘ngillilik asosida tashkil qilinadi.

To‘garaklar birnecha xilda bo‘lishi mumkin:

a) fan to‘garaklari;

b) mohir qo‘llar to‘garaklari;

d) duradgorlik to‘garaklari;

e) sport to‘garagi;

f) badiiy to‘garak.

To‘garaklarning turi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar ular o‘quvchilarning qobiliyatlari, xohish-istaklariga ko‘ra tashkil etiladi. To‘garaklarda o‘quv dasturida qat’iy belgilangan rejalar asosida emas, o‘quvchilarning layoqati, qiziqishlari va shart-sharoitlardan kelib chiqilgan holda mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Bu o‘quvchilarning o‘zlari mustaqil ravishda qobiliyatlarini namoyish etishlariga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf darslarida o‘quvchilar tafakkurini shakllantirish katta ahamiyatga ega. Agar ijodkorlik haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, ijodkorlik insonning shaxsiy sifati bo‘lib, u madaniyatga asoslangan shaxs bo‘lish jarayonida namoyon bo‘ladi. Biroq, dars mashg‘ulotlari paytida o‘quvchilarga erkin fikrlashlari, ijodiy g‘oyalarini ko‘rsatish uchun doim ham imkoniyat bo‘laveraydi. Bunday vaziyatlarni yaratish uchun darsda ortiqcha vaqtning o‘zi bo‘lmaydi. Shu sababdan ham turli to‘garaklar tashkil etish, o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish boshlang‘ich sinfda muhim sanaladi. Misol uchun, boshlang‘ich sinfda o‘quvchilar o‘z kreativligini, ijodkorligini namoyish eta oladigan fan texnologiya ta’limidir. O‘qituvchi qanchalik darslarda ijodkorlikni ustun qo‘ymasin, dars rejasida mavjud bo‘lmagan ishlarni amalga oshira olmaydi. Shu fan yuzasidan “ Yosh iqtidorlar” yoki “Kreativ bolalar” kabi to‘garaklar tashkil etilsa, o‘quvchilarning o‘z qobiliyatlarini namoyon etishlariga ko‘proq vaqt bo‘ladi. Shuningdek, matematika, ona tili va shu kabi fanlarda ham fan to‘garaklarini tashkil etish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin. O‘qituvchining ijodkorligi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq, shuning uchun o‘qituvchi, birinchi navbatda, dars va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda ijodiy bo‘lishi kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich sinfda to‘garaklarni tashkil etish o‘quvchilarning kreativligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. To‘garaklarni to‘g‘ri tashkil etish va o‘quvchilarni shu to‘garaklarga to‘g‘ri yo‘naltirish orqali ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin. Shuningdek, bu jarayonda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining roli katta. Ular o‘z o‘quvchilarining ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o‘z vaqtida aniqlab borishi va doimiy ravishda rivojlantirib borishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “SCIENCE AND INNOVATION”. “BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KREATIV TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH 21 ASR TALABI”. Nusratova Hamida Cho‘liboyevna, Egamqulova Iroda Safar qizi.

2. “To‘garak mashg‘ulotlarni tashkil etish”. Gulchehra Darxonova. 2023.

3. “Formation of creative thinking in younger grades” Shakhnoza KHALMURATOVA, Nursulu NAGMETOVA. 2021y, https://inscience. uz/index. php/socinov/index

4. Adizov B. ” Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari” dis. Toshkent, 2018.

5. Sanaqulov X. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. T.: TDPU, 2017.

MODERN SOLUTIONS FOR IMPROVING THE PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL SKILLS OF SCHOOL TEACHERS

Karayev Fayozjon Kazakdjanavovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi

fayyozdjon. karayev@gmail. com

Isakova Dilso‘z Sho‘hratovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Magistranti

isakovadilsuz14@gmail. com

Abstract. School teachers are important persons who not only provide knowledge, but also shape the personality and outlook of the young generation. Improving their pedagogical and psychological skills is one of the main factors of improving the quality of education. In the modern education system, the professional qualification of a teacher is not limited to imparting knowledge, but includes skills such as understanding the psychological state of students, motivating them, managing stress, and using effective teaching methods.

Keywords: pedagogical skills, psychological skills, teacher qualifications, modern educational technologies, differentiated education, individual approach, constructivism, emotional intelligence, stress management, motivation and inspiration.

Definition and Significance

Pedagogical skills are a set of knowledge, methods and experience necessary for a teacher to teach students, develop them and ensure their spiritual and moral growth.

These skills include:

1. Organization and management of the lesson— creating an effective lesson plan, conducting the lesson process, focusing students' attention and developing the skills they need.

2. Taking into account the individual characteristics of students— analyzing the unique characteristics, learning methods and needs of each student.

3. Communication and communication— effective communication between the teacher and the students, providing them with knowledge in an understandable and interesting way.

Psychological skills include the teacher's ability to understand the mental state of students, manage stress and work with them on the basis of empathy. These skills include:

1. Emotional intelligence— understanding and managing one's own emotions and the emotions of other people.

2. Stress management - the ability to reduce stress in students and the ability of the teacher to overcome his own stress.

3. Motivation and inspiration - to give students a high level of motivation, to increase their self-confidence.

Various approaches and innovative methods are used to improve the pedagogical and psychological skills of modern teachers. Below are some modern solutions.

1. Individual approach and differential education.

It is important to take into account the individual needs of each student at school. During the lesson, the teacher should monitor the unique characteristics of the students, the speed of learning, and their abilities.

This unique approach helps to ensure the personal success of students. With the help of modern technologies, for example, adaptive learning platforms and digital learning resources, it is possible to provide educational materials that are adapted to each student.

2. Supporting cognitive and emotional development.

In the pedagogical process, the teacher should pay attention to the cognitive and emotional development of students. Modern pedagogical methods, for example, constructivism, involve students in the process of active learning. The main principle of constructivism is the development of students' independent thinking. This teacher is required not only to impart knowledge, but also to advise students on how to organize and manage the learning process.

3. Development of emotional intelligence.

Modern teachers should know how to communicate with students based on empathy. It is desirable to conduct special trainings and seminars for the development of emotional intelligence, to improve the skills of teachers to manage their emotions. It is also important to manage stress in communication with students, understand students' emotions and help them.

4. Integrated educational technologies.

Modern technologies, for example, online platforms, interactive lessons and multimedia resources, serve as an effective tool for improving the pedagogical and psychological skills of teachers. For example, teachers can improve their pedagogical skills by providing students with interesting and interactive materials and communicating with them through various tasks. These

methods help to ensure the active participation of students and make the educational process more effective.

5. Mentoring and collaboration.

It is also important to establish a mentoring system among teachers, to provide teachers with the opportunity to share knowledge and experience with each other. This helps the teacher to develop not only pedagogically, but also psychologically. In modern pedagogical practice, collective learning and joint work among teachers play an important role in improving the quality of education.

Conclusion.

Improving the psychological and pedagogical skills of school teachers directly affects not only the quality of education, but also the personal development of students. By using modern approaches, technologies and innovative methods, teachers can develop their skills and provide more effective education to students.

At the same time, teachers manage their psychological state, reduce stress, and develop emotional intelligence to create a more comfortable learning environment for students.

References:

1. "The Courage to Teach: Exploring the Inner Landscape of a Teacher's Life" by Parker J. Palmer.

2. "Mindset: The New Psychology of Success" by Carol S. Dweck

3. "The Art of Teaching" by Gilbert Highet.

4. "Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ" by Daniel Goleman.

5. "Teaching for Critical Thinking: Tools and Techniques to Help Students Question Their Assumptions" by Stephen D. Brookfield.

6. "Pedagogy of the Oppressed" by Paulo Freire.

7. "The First Days of School: How to Be an Effective Teacher" by Harry K. Wong and Rosemary T. Wong.

8. "How to Talk So Kids Will Listen & Listen So Kids Will Talk" by Adele Faber and Elaine Mazlish.

9. "The Pedagogy of Hope: Reliving Pedagogy of the Oppressed" by Paulo Freire.

10. "Teaching with the Brain in Mind" by Eric Jensen.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING INTERCULTURAL COMPETENCE OF STUDENTS THROUGH RUSSIAN LANGUAGE

Khamidova Sayyora Nabijon kizi
Tashkent institute of economic and pedagogy, teacher
sayyoraxamidova1993@gmail. com

In the globalization era of modern educational paradigm, the issues of intercultural communication are in the focus of modern science. The recent interpretation of the term “intercultural communication” supposes not only the knowledge in linguistic cultural studies, but the formation of motivation for the intercultural dialogue and guarantees efficient interaction with the native speakers of different languages and the bearers of various cultures.

The term “intercultural communication” was introduced in the USA in the 1950-s and was aimed to boost the efficiency of the work of the American diplomacy abroad. In Europe intercultural communication as the university discipline took place later, in 1970-1980-s and was associated with the immigration flow and the necessity to solve a number of corresponding problems. On the edge of the new millennium the faculties of intercultural communications were launched in a number of European universities, special courses in intercultural communication were developed.

In Russia apart from the foreign experience foreign language teachers were the initiators of the research of intercultural communication. In the 1990-s the intensity of intercultural interactions increased what brought it in the spotlight of linguistics as the scholars become increasingly aware of the fact that the pure knowledge of the foreign languages was not sufficient for the fruitful communication with the representatives of other cultures.

The notion of “intercultural competence” is one of the key terms of the intercultural communication theory and has a variety of theoretical justifications. A number of scholars regard this notion as the efficiency of the communication between the representatives of different cultures, thus as the result of intercultural interaction in the certain situation . The term “intercultural competence” is also viewed as “the set of social skills and abilities that help an a personality to carry out communication with the partners belonging to other cultures in everyday routine and in the professional sphere”.

The problem of intercultural communicative competence formation from the position of lingvodidactics was elaborated in the works of the Russian scholars. Furthermore, the research is based on the methodology of teaching practices of intercultural communications

Thus two basic approaches to the study of the theoretical aspects of intercultural communication were formed in the Russian and foreign practice:

1. anthropological and cultural, based on the achievements in sociology, psychology, ethnography

2. linguistic which refers the processes of intercultural communication to the speech processes by their nature.

The problem of intercultural communicative competence formation from the position of lingvodidactics was elaborated in the works of the Russian scholars Furthermore, the research is based on the methodology of teaching practices of intercultural communications.

In the modern system of education intercultural communication is widely integrated in the learning process as one of the leading humanitarian disciplines. Thus scholars and methodologists are in the state of active search of ways of formation of intercultural communication and its control. The initial methods were introduced by foreign scholars, and nowadays domestic lingvodidactics can proudly present its own practices in the field of intercultural communication testing. Domestic exploratory work in this sphere is not aimed to control, but is applied as the methodology in teaching. Thus the current research is aimed to determine the ways of formation of intercultural competence, its strengths and weaknesses as well as to compare domestic and foreign approaches to intercultural learning in general.

The methods applied in the current research include theoretical methodology (the study of the psychological and pedagogic domestic and foreign literature, related to the posed problem; the critical

analysis of teaching of intercultural communication and the German language); empirical methods (questionnaire, tests, interactive exercises).

More than 80 models of formation of intercultural communication are developed on the present day stage of its development. The pattern of intercultural teaching designed by the American scholar Bennet is considered to be one of the most wide-spread models. It includes six stages of

teaching, which reflect the process of learners’ promotions from ethnocentric views (negation, rejection, minimization of intercultural differences) to ethnorelativistic position (acception, adaptation, integration of intercultural differences). Bennet's model has served as the base of the intercultural approach to education.

However it is worth taking into account that this pattern cannot be regarded as universal and suitable for all the cases of intercultural communication and may possess certain divergences in its stages.

To sum up, we would like to emphasize again the complexity of formation of intercultural communication being a challenging multi-level process. To run it smoothly and efficiently it is essential to take into account the main stages and principles of intercultural competence formation, which are seen as universal categories in the process of acquisition of various cultures. The basic difference in methodology of intercultural competence formation lies in the fact that Western scholars prefer informal training sessions, focusing not on intercultural divergences of certain countries, but on the formation of particular personal qualities, which provide successful communication between the representatives of various cultures.

In Russia the foreign language teachers have served as initiators of intercultural communication studies, and as a result the formation of intercultural competence is taking place alongside with the communicative competence formation and more conventional technologies are applied for that purpose (questionnaire, tests, observation). However, the final target of all the technologies applied is the formation of particular personal qualities, which will enable the student to lead successful intercultural communication professionally and in everyday life, preserving one's own cultural identity.

To achieve stable and intensive increase in indicators denoting the formedness of intercultural completeness it is essential to provide adequate pedagogical assistance, which in its turn will provide the systematization of necessary theoretical knowledge concerning intercultural divergences and the experience of interaction with the representatives of a foreign culture.

References:

1. Belaya, Y. (2011). Theory and practice of intercultural communication. Moscow

2. Byram, M. S. (1997). Teaching and assessing intercultural communicative competence. Multilingual Matters Ltd.

3. Grushevitskaya, T., Popkov, V., & Sadokhin, A. (2002). Fundamentals of Intercultural Communication. Moscow

OLIY TA’LIMDA KIMYO FANINI O‘QITISHDA IMITATSION MODELLARNI QO‘LLASH IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLAR

Davronova Firuza Laziz qizi

QarDU I kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. So‘nggi yillarda ta’lim texnologiyalaridagi yutuqlar imitatsion va simulyatsion modellarni yanada rivojlantirib, kimyo fanini o‘qitishda ilg‘or metodlarni qo‘llash imkonini berdi. Bu usullar talabalarga kimyoviy tushunchalarni intuitiv tarzda tushunishga,

o‘zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishga va o‘quv jarayoniga qiziqishni oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, imitatsion modellar pedagogika sohasida ham muhim ahamiyat kasb etib, talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ularning qobiliyatlarini amaliyotga yo‘naltirish imkoniyatini yaratadi. Ushbu maqolada yetakchi tadqiqotchilarning ishlari va ta’lim texnologiyalari asosida imitatsion modellar ta’lim samaradorligini qanday oshirishga xizmat qilishi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ushbu metodik yondashuvning ta’lim jarayonida innovatsion imkoniyatlarni yaratishga qanday yordam berishi ham ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: imitatsion model, visual, verbal, virtual,

Oliy ta’lim tizimida kimyo fanini o‘qitish jarayoni, odatda, murakkab va ko‘p qirrali bilimlarni talab qiladi. An’anaviy ta’lim usullari, jumladan, ma’ruza va laboratoriya mashg‘ulotlari, talabalarga fundamental bilimlarni yetkazishda muhim rol o‘ynasa-da, zamonaviy ta’lim texnologiyalari bu jarayonni yanada samarali qilish imkoniyatini bermoqda. Kimyo kabi abstrakt va murakkab tushunchalarga boy fanlarda ko‘pincha real tajribalarni amalga oshirish qiyin yoki qimmat bo‘lishi mumkin, bu esa talabalarning bilim olish jarayonini cheklaydi. Shu sababli, imitatsion modellar va simulyatsiya texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta’lim tizimida yangi imkoniyatlarni yaratib bermoqda.

Imitatsion modellar yordamida talabalarga real voqelikni virtual muhitda kuzatish va o‘rganish imkoniyati beriladi. Bunday modellarda talabalar kimyoviy jarayonlarning barcha tafsilotlarini sinchkovlik bilan tahlil qilishlari va ular bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tushunchalarni o‘zlashtirishlari mumkin. Xususan, kimyo ta’limida molekulalarning shakllanish jarayoni, kimyoviy reaksiya mexanizmlari va boshqa murakkab jarayonlarni simulyatsiya yordamida talabalarga aniq va tushunarli qilib yetkazish osonlashadi. Konstruktivizm nazariyasiga ko‘ra, talabalar yangi bilimlarni avvalgi tajribalari va bilimlari bilan bog‘laydilar. Imitatsion modellar orqali kimyo darslari larga yangi bilimlarni avval o‘zlashtirgan tushunchalariga asoslanib qurishga yordam beradi. Bu usul orqali murakkab kimyoviy jarayonlarni simulyatsiya qilish, talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash imkonini beradi. Paivio tomonidan ishlab chiqilgan “Dual Coding” nazariyasiga ko‘ra, odamlar vizual va verbal axborotni birlashtirib yaxshiroq o‘rganadi. Simulyatsiyalar bu nazariyaga asoslanib, kimyoviy jarayonlarni vizualizatsiya qilish orqali talabalarga mazmunli va samarali o‘rganish imkonini beradi. Kimyo darslarida grafiklar, diagrammalar va animatsiyalar orqali talabalarga murakkab jarayonlarni tushuntirish mumkin.

Deci va Ryan tomonidan ishlab chiqilgan “Self-Determination Theory” ga ko‘ra, talabalarning avtonomiya va kompetentlik hislari oshganda, ular mavzuga nisbatan qiziqish bilan o‘rganishga intiladi. Simulyatsiyalar talabalarga o‘zlarini mustaqil his qilish, eksperimentlar

o‘tkazish va natijalarni kuzatish imkonini beradi, bu esa ularda mavzuga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Simulyatsiyalar orqali talabalar fikr-mulohaza olishga va o‘z harakatlarini baholash va zaruriy o‘zgarishlarni kiritish imkonini beradi. Vizualizatsiya va modellashtirish yordamida taqdim etilgan bilimlar o‘quvchilarga ko‘proq yo‘naltirilgan va samarali o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Imitatsion modellar orqali o‘rganish **materiallarni qabul qilish va o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni** kamaytiradi va talabalarga o‘z bilimlarini samarali tarzda mustahkamlash imkonini beradi .

Imitatsion o‘quv muhitini ishlab chiqish faqatgina mustaqil ta’lim jarayonida emas, balki raqamli ta’limda an’anaviy ta’lim jarayoni uchun ham dasturiy ta’minot ko‘rinishidagi ularning dizayni ishdan oldin amalga oshiriladi ijobiy va salbiy professional tajribani umumlashtiradigan va sxematiklashtiradigan tahlilchilar, o‘rganish sababiy munosabatlar va munosabatlarni amalda ta’minlashda o‘qituvchilarning o‘rni ham katta variativ qobiliyatlarini o‘quv jarayoniga va yakuniy muhitlarga integratsiya qilish, shu tariqa, yaxlit didaktik tizimni shakllantirishni namoyon etadi .

Imitatsion modellar orqali talabalar kimyo fanidan molekulyar bog‘lanishlar, reaksiya tezligi, yoki termokimyo kabi mavzularni vizual va interaktiv ravishda tushunib, nazariy bilimlarini amaliyot bilan mustahkamlaydi. Eksperimental guruhda virtual laboratoriyalar yordamida o‘rgatilgan talabalar nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalar ko‘rsatishi kuzatilgan. Ularning bilim o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 30-40% oshirilgan. Talabalarning tajribalar davomida xatoliklardan o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ladi, bu ularning mas’uliyatli qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Imitatsion model sifatida virtual laboratoriyalardan foydalanilganida real muhitda xavf tug‘diradigan tajribalarni xavfsiz tarzda o‘tkazish imkoniyatini beradi. Bu ayniqsa portlovchi moddalar bilan ishlashda yoki yuqori harorat talab qiladigan jarayonlarda dolzarbdir. Qimmat reagentlar va uskunalarni ishlatish ehtiyoji kamayadi, bu esa ta’lim muassasalarida moliyaviy resurslarni tejash imkonini beradi. Virtual laboratoriyalar kichik imkoniyatli yoki resurs cheklovlari bo‘lgan ta’lim muassasalari uchun ideal yechim bo‘lib xizmat qiladi. Talabalar istalgan vaqtda va joyda virtual laboratoriya modullaridan foydalanib, o‘zlarining individual ehtiyojlariga mos ravishda ta’lim olishlari mumkin. Masofaviy ta’limda ham laboratoriya tajribalarini amalga oshirish imkoniyati yaratiladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar (masalan, konstruktivizm va faol o‘qitish metodlari) kimyo o‘qitish tizimiga integratsiya qilinadi. Virtual laboratoriyalar kimyo ta’limi uchun individual yondashuv va differensial o‘qitish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hattie, J., & Yates, G. C. R. (2014). *Visible learning and the science of how we learn*. Routledge

2. Rasulovna M. K. et al. Innovation teaching method in primary education //Czech Journal of Multidisciplinary Innovations. – 2022. – T. 5. – C. 31-34.

MUSTAQIL TA’LIM OLISH JARAYONI TA’LIM TIZIMINING MUHIM TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Jonuzoqova Kamola Elham qizi
JDPU talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqil ta'lim olish jarayoni va talabalarda mustaqil ta'lim olish ko‘nikmalarining rivojlanishi muammosi muhokama qilingan. Shuningdek, mustaqil ta'limning asosiy yutuqlari, ya'ni ta'limning ushbu shaklida o‘rganilishi lozim bo‘lgan mavzularni, o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni mutaxassis uchun qulay vaqtga ko‘chirish, qiziqtirgan va eng dolzarb sanalgan masalalar yuzasidan mavzuni tanlash imkoniyati mavjudligi to‘g‘risidagi xulosalar shakllantirilgan.

Abstract. This article discusses the process of independent learning and the problem of developing independent learning skills in students. Also, conclusions were formed about the main achievements of independent education, that is, the ability to transfer the subjects to be studied, the knowledge and skills to be mastered to a time convenient for the specialist, and the possibility to choose a topic based on the most relevant and interesting issues.

Аннотация. В данной статье рассматривается процесс самостоятельного обучения и проблема формирования у учащихся навыков самостоятельного обучения. Также были сформированы выводы об основных достижениях самостоятельного образования, то есть возможности переноса изучаемых предметов, осваиваемых знаний и умений в удобное для специалиста время, а также возможность выбора темы исходя из самые актуальные и интересные вопросы.

Bugungi kunda ta'lim tizimining zamon bilan hamnafas olib borilishi, ehtiyojlardan kelib chiqib, insonning butun umrini qamrab oluvchi uzluksiz ta'limning rivojlantirilayotgani alohida ahamiyatga molik. Chunki ta'lim tizimiga tatbiq etilayotgan ta'limning yangi, zamonaviy konsepsiyasi yurtimizda azaldan targ‘ib qilingan «Beshikdan to qabrgacha ilm izla» degan qoidani ўzida mujassam etib, sifatli ta'lim olish muhim qadriyat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Faqatgina sifatli ta'lim professional malakali muxataxassisni, ijodiy, kreativ, mas'uliyatli, chaqqon, o‘z

sohasida yanada yuqori yutuqlarga erishishga harakat qiladigan xodimlarni taqdim qila oladi. Zamonaviy oliy ta'lim tizimi bugungi kunda shunisi bilan diqqatga sazovorki, u bir sohaga yo‘naltirilgan tor mutaxassisni tayyorlashdan voz kechib, doimiy o‘z ustida ishlaydigan, bilimlarni o‘zlashtiradigan, ko‘nikmalarini zamonaviy bilimlar bilan boyitib boradigan, ijodiy faollik ko‘rsata oladigan, tashabbuskor, professional qarorlar qabul qilishga layoqatli bo‘lgan bitiruvchilarni tayyorlashga yo‘naltirilgani bilan diqqatga sazovordir. Ushbu vazifalarning yechimi talabalarning professional ta'lim davrida shakllangan mustaqil, ongli, o‘quv-professional ishlarning yuqori darajada bo‘lishiga imkon yaratadi.

Zamonaviy ta'limdagi an'anaviy “ta'lim berish” paradigmasining o‘rnini yangi “ta'lim olish” paradigmasi egallab bormoqda. Bunda talaba o‘qitilayotgan bilimning passiv iste'molchisi emas, balki u olingan bilimlar asosida fanga doir har qanday masalada o‘z pozisiyasiga ega, muammoni tahlil eta oladigan, muammoga tanqidiy yondasha oladigan va uning yechimlarini izlay oladigan bilimning faol ijodkoriga aylanadi.

Shuningdek, mustaqil ta'limning ustun jihatlari:

• talabalarga tafakkurini kengaytirishga yordam beradi;

• qandaydir cheklovlarsiz ta'lim olish erkinligini taqdim qiladi;

• u orqali talabalar o‘z vaqtini to‘g‘ri rejalashtirishni o‘rganadi;

• an'anaviy ta'limga qaraganda talabalarga huzur baxsh etadi;

• talabalarda mas'uliyat hissini shakllantiradi;

• talabalarga turli zerikarli matnlarni emas, balki maqsadi bo‘lgan aniq kitoblarni o‘qishga imkon yaratadi;

• talabalar mustaqil tarzda o‘quv materiallarini yaratishni o‘rganadilar;

• tanqidlar oldidagi qo‘rquvdan xalos bo‘ladi;

• talabalar o‘z jadvaliga qarab, rejadagi vaqtida dars qila oladi;

• mustaqil ta'lim olayotganlar o‘qituvchi tomonidangina berilgan axborotlardan ko‘ra, o‘zlari uchun muhim bo‘lgan axborotlarni tabiiy ravishda topishni va saqlashni o‘rganadi;

• mustaqil ta'lim olish natijasida, talaba o‘z faniga qanchalik imkoni bo‘lsa, shunchalik chuqur sho‘ng‘ib o‘rganishiga imkon beradi;

• talabalarda ijobiy mehnat etikasini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarni taqdim qiladi;

• talabalar o‘z ishlarini bajarishlari uchun ishonch va yaxshi ruhiy hissiyotlar, motivasiyalar beradi;

• talabalar testlar va boshqa topshiriqlarni yaxshi bajara oladilar, chunki ular topshiriqlarni mustaqil tarzda bajarishga o‘rgangan bo‘ladilar va bu ulardagi ishonchni oshiradi.

Talabalarda mustaqil ta'limni shakllantirish jarayoni bugungi kun ta'lim tizimining eng muhim ajralmas qismi sifatida shakllanib ulgurdi. Ayniqsa, ma'lum bir fan tarmog‘ini chuqur egallash yoki xorijiy tillarni egallash bilan bog‘liq o‘quv jarayonlarida talabalarda mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish masalasini hal qilish, uning yechimi doirasida yangi metodologik va mental xususiyatlarni hisobga olish, pedagog va talaba o‘rtasida ta'limning yangi shakllari va bilim olishning innovasion texnologiyalarini tatbiq qilish bugungi kun oliy ta'lim tizimining eng muhim metodologik asosi bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Узлуксиз таълим тизимининг чет тиллар бўйича давлат таълим стандартини тасдиқлаш тўғрисида”ги 124-сонли қарор. 2013 йил 8 май. – www. lex. uz.

2. N. Muslimov, M. Usmonboyeva, D. Sayfurov, A. To‘rayev. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma.

3. D. A. Karimova. “TALABALARNING MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH KASBIY AHAMIYATLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA”. Tashkent Medical Academy Volume 4 | TMA Conference | 2023 *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*

4. O. Shegolova. типология задании длю самостоятельной контролируемой работы в свете компетентностного подхода к обучению иностранному языку как специальности (на материале английского языка). А В Т О Р Е Ф Е Р А Т. Ставрополь – 2006.

O‘QUVCHILARDA INTERNET SAVODXONLIGINI OSHIRISH UCHUN PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARNI YARATISH

Dedaxonova Moxira Oltmishboyevna
Namangan Davlat Univesiteti doktoranti

Anotatsiya. Ushbu maqola o‘quvchilarda internet savodxonligini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, internet madaniyatini rivojlantirish uchun qanday qilib pedagogik shart-sharoitlarni yaratish kerakligini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: Internet, savodxonlik, shart-sharoitlar, tanqidiy fikrlash, onlayn maxfiylik, axloqiy fazilat, onlayn kontent, pedagogik strategiyalar.

Bugungi raqamli asrda internet ta'limda, muloqotda va axborotlarni tarqatish uchun ajralmas vositaga aylandi. Internet o‘zining katta resurslari va cheksiz imkoniyatlari bilan o‘quvchilarning

o‘rganish tajribasini oshirishda ulkan imkoniyatlarni taqdim etadi. Biroq, uning afzalliklari bilan bir qatorda, ayniqsa, o‘quvchilarning onlayn kontentga sog‘lom va tanqidiy yondashishini ta'minlashda qiyinchiliklar mavjud. O‘quvchilar orasida internetdan mas'uliyatli foydalanish madaniyatini shakllantirish uchun o‘qituvchilar raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash va axloqiy xulq-atvorni rivojlantiruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratishi kerak. Bu yerda biz o‘quvchilarda internet savodxonligini rivojlantirish uchun ba'zi muhim pedagogik strategiyalarni ko‘rib chiqamiz.

Buning uchun raqamli savodxonlik bo‘yicha o‘quv dasturlarini turli fanlar va sinflar bo‘yicha o‘quv dasturiga integratsiyalash yani o‘quvchilarga onlayn manbalarning ishonchliligini baholash, noto‘g‘ri fikrlarni aniqlash va ishonchli ma'lumot va noto‘g‘ri ma'lumotni ajratishni o‘rgata bilish. Bu orqali o‘quvchilarga manbalarni tekshirish, ma'lumotni o‘rganish va noto‘g‘ri fikrlarni aniqlash strategiyalarini o‘rgatish hamda onlayn kontentning ishonchliligi va ishonchsizligi haqida munozaralarda qatnashish orqali o‘quvchilarni aqliy qobilyatini rivojlantirish mumkin.

Faol ishtirok va so‘rovga asoslangan ta’lim: Bu so‘rovga asoslangan o‘quv faoliyati orqali onlayn kontent bilan faol ishtirok etishni rag‘batlantirish. Yani o‘quvchilardan turli xil onlayn manbalardan ma'lumotlarni tadqiq etish, tahlil qilish va sintez qilishni talab qiladigan loyihalarni tayinlash, tanqidiy fikrlash va axborot savodxonligi ko‘nikmalarini rivojlantirish lozimdir.

Mediasavodxonlik ta’limi: o‘quvchilarga raqamli mediada qo‘llaniladigan ishontirish usullarini, jumladan reklamalar, ijtimoiy media postlari va yangiliklar maqolalarini tushunishlariga yordam berish uchun media savodxonligini ta'minlash lozimdir. Onlayn kontentning maqsadi va ishonchliligini tanqidiy baholashga o‘rgatish, ularga ongli qarorlar qabul qilish imkoniyatini berish kerak bo‘ladi.

Axloqiy raqamli fuqarolik: bu hozirda yoshlar orasida juda dolzarb muammolarni keltirib chiqarmoqda, buni oldini olsh uchun o‘quvchilarga onlayn maxfiylik, xavfsizlik va mas'uliyatli xatti-harakatlar haqida o‘rgatish orqali axloqiy raqamli fuqarolikni tarbiyalash[2. 300]. Kiberbulling, onlayn ta'qib va plagiat oqibatlarini muhokama qilib, onlayn munosabatlarda odob va axloqiy fazilatlar muhimligini ta'kidlab borish muhimdir.

Hamkorlikda o‘rganish va o‘zaro baholashni oladigan bo‘lsak: Onlayn tadqiqot va loyihalarda hamkorlikda o‘rganish va tengdoshlarni tekshirish yutuqli jarayonlarini rag‘batlantirish. O‘quvchilarni onlayn kontent bo‘yicha baxs va munozaralarga jalb qilish, bu ularga istiqbollarni baham ko‘rish, taxminlarga qarshi chiqish va bir-birining tushunchalaridan o‘rganish imkonini beradi.

O‘qituvchilarni modellashtirish va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish: o‘quvchilar uchun ijobiy onlayn xulq-atvor, o‘zlarini tutish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini bir-birlariga namuna qilib ko‘rsatish lozim. Qanday qilib samarali onlayn tadqiqot o‘tkazishni, manbalarni baholashni va ma’naviyatni yuksaltiruvchi onlayn muloqotlarda qatnashishni tavsiya etish joizdir. O‘quvchilar internetning murakkab tomonlarini o‘rganishida yo‘l-yo‘riq va yordam ko‘rsatib boorish o‘rinli bo‘ladi.

Doimiy baholash va fikr-mulohazalar: O‘quvchilarning raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini baholash va yaxshilash uchun o‘z vaqtida fikr-mulohazalarni taqdim etish uchun doimiy baholash strategiyalarini amalga oshirish lozimdir. Mulohaza yuritish va o‘z-o‘zini baholash imkoniyatlarini taklif eting, bu o‘quvchilarga ularning taraqqiyotini kuzatish va o‘sish yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

O‘quvchilarning internetdan foydalanish madaniyatini rivojlantirishda ota-onalarning va jamoatchilik ishtiroki juda ham muhimdir. Ota-onalar va keng jamoatchilikni o‘quvchilar o‘rtasida internet savodxonligini oshirishga jalb qilish[1, 54]. Ota-onalar uchun raqamli tarbiya strategiyalari, onlayn xavfsizlik va farzandlarining raqamli o‘rganish tajribasini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha resurslar, ota-onalar telegram guuruhlarida tafsiyalar va seminarlar tashlik etish muhimdir. Shuni ta’kidlash joizki o‘qitish strategiyalarini mos ravishda moslashtirish uchun texnologik yutuqlar va rivojlanayotgan onlayn platformalardan xabardor bo‘lish. Potensial xavf va muammolardan ogoh bo‘lib, o‘quvchilarning internet savodxonligi ko‘nikmalarini oshiruvchi innovatsion vositalar va ta’lim texnologiyalarini qo‘llash kerak bo‘ladi. Chunki, o‘quvchilar o‘rtasida internet savodxonligini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratishdan maqsad onlayn landshaftda ishonch, aql-idrok va axloqiy mas'uliyat bilan harakat qila oladigan tanqidiy raqamli fuqarolarni tarbiyalashdir. O‘quvchilarga internet quvvatidan samarali foydalanish imkoniyatini berish orqali o‘qituvchilar ularni raqamli asrda rivojlanishga tayyorlashlari va jamiyatga ijobiy hissa qo‘shishlari mumkin bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilar o‘rtasida internetdan mas'uliyatli foydalanish madaniyatini tarbiyalash raqamli savodxonlik ta'limi, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari va axloqiy raqamli fuqarolikni o‘zida mujassam etgan ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Ushbu tamoyillarga ustuvor ahamiyat beradigan pedagogik strategiyalarni amalga oshirish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarga tobora o‘zaro bog‘langan dunyoda bilimli, aqlli va mas'uliyatli raqamli fuqarolar bo‘lish imkoniyatini berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dedaxonova M. (2024). YOSHLAR VA ILM-FAN ilmiy ommabop, o‘quv-metodik va ma’naviy-ma’rifiy jurnal 1-son. Www. talaba-edu. uz –B. 53-57

2. Dedaxonova M. Inamov D, Internet savodxonligini oshirishda zamonaviy ta’limdagi pedagogik sharoitlar/ Respublika ilmiy-onlayn yoshlar anjumani to‘plam 03. 04. 2024/ Keljak o‘qituvchisi-kelajak bunyotkori. Namangan, 2024. -B 299-302.

3. Dedaxonova M. Internet savodxonligini oshirishda o‘quvchilar imkoniyatlarini kengaytirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratish/ Respublika ilmiy-amaliy onlayn anjumani materyallari to‘plam 24-25. 04. 2024/ Psix va ped. bug. muam va yechimlari. – Namangan, 2024. -B 380-382.

4. Демьятович О. В. Самооценка как социально-психологический феномен// http://www. sch612. edusite. ru/samoocenka. pdf.

5. World Internet Project. (2023). "Internet Usage and Safety Statistics. "

MULTIMEDIA VOSITALARINING IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARI

Burxonova Kamola Soyibjon qizi

JDPU 1-kurs magistranti

Anotatsiya. Zamonaviy axborot texnologiyalari va multimedia vositalari ijtimoiy pedagogik faoliyatda o‘ziga xos yangiliklarni olib kirdi. Ushbu maqolada multimedia vositalarining ijtimoiy pedagogik faoliyatga ta’sir etuvchi omillari, ularning o‘qitish jarayonidagi ahamiyati va samaradorligi muhokama qilinadi. Shuningdek, ushbu vositalar yordamida o‘quv jarayonini individuallashtirish, interfaol o‘qitish va o‘quvchilarning faolligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqola so‘ngida multimedia vositalaridan pedagogik faoliyatda samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ham keltirilgan .

Kalit so‘zlar: multimedia vositalari, ijtimoiy pedagogika, ta’lim, innovatsion texnologiyalar, interaktiv o‘quv jarayoni.

Анотация. Оценены их роль и влияние на улучшение качества обучения, развитие креативных навыков и вовлеченность студентов. Мультимедийные инструменты, такие как видео, аудио, анимация и интерактивные платформы, значительно способствуют лучшему восприятию учебного материала, а также помогают создавать более динамичную и эффективную образовательную среду.

Ключевые слова: мультимедийные инструменты, социальная педагогика, образование, инновационные технологии, интерактивный процесс обучения.

Abstract. This article discusses the importance of multimedia tools in the modern educational process. It evaluates their role and impact on enhancing the quality of learning, fostering creativity,

and increasing student engagement. Multimedia tools, such as videos, audio, animations, and interactive platforms, significantly contribute to better comprehension of learning materials and help create a more dynamic and effective educational environment.

Keywords: multimedia tools, social pedagogy, education, innovative technologies, interactive learning process.

Multimedia vositalarining pedagogika sohasida dolzarbligi: Multimedia vositalari ta'lim jarayonini samarali va interaktiv qilish uchun zamonaviy vosita sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Ularning pedagogika sohasidagi dolzarbligini quyidagi jihatlar bilan izohlash mumkin:**Vizual va audial usullarni birlashtirish**: Matn, rasm, audio va video orqali taqdimotlar o‘quvchilarning ma'lumotni yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. Masalan, biologiya darslarida animatsiyalar orqali jarayonlarni tushuntirish osonlashadi. **Interaktivlik**: O‘quvchilar multimedia vositalari yordamida savollarga javob berish, virtual tajribalarni amalga oshirish va testlarda qatnashish orqali faollashadi.

Zamonaviy jamiyatda texnologiyalarning rivojlanishi ta’lim sohasida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Ijtimoiy pedagogik faoliyat nafaqat o‘qitish va tarbiyalash, balki o‘quvchilar bilan interaktiv munosabatlarni rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. *Multimedia vositalari* — bu matn, tasvir, ovoz, video va animatsiyalarni birlashtirgan axborot texnologiyalari tizimi bo‘lib, ular pedagogik jarayonni boyitish va uni yanada samarali qilish imkonini beradi. Ushbu vositalar ijtimoiy pedagogik faoliyatda yangi yondashuvlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Multimedia vositalarining ijtimoiy pedagogik faoliyatga ta’siri

1. Axborot uzatish samaradorligini oshirish:Multimedia vositalari axborotni taqdim etishda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. O‘quvchilarga bir vaqtning o‘zida vizual, eshitish va matnli axborot taqdim etilishi ularning ma’lumotni o‘zlashtirishini yengillashtiradi. Masalan, interfaol darslar davomida taqdimotlar, animatsiyalar va audio materiallardan foydalanish axborotning yaxshi qabul qilinishiga yordam beradi.

2. Interaktivlik va qiziqishni oshirish:Multimedia texnologiyalari o‘quv jarayonini *interaktiv* shaklda tashkil etishga imkon beradi. Bu o‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb qilish, ularning motivatsiyasini oshirish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, interfaol taxtalar va o‘quv ilovalari orqali talabalar mavzuni o‘rganishda faol ishtirok etish imkoniga ega bo‘ladi.

3. O‘quv jarayonini individuallashtirish: Multimedia vositalari har bir o‘quvchining qobiliyat va ehtiyojlariga moslashtirilgan darslarni tashkil etishga imkon beradi. Masalan, onlayn platformalarda mavjud bo‘lgan kurslar o‘quvchilarni mustaqil o‘qishga undaydi va ularga o‘z tezligida o‘qish imkoniyatini beradi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

4. O‘zaro aloqalarni rivojlantirish: Ijtimoiy pedagogik faoliyatda multimedia vositalari o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqotni yanada samarali qilishga yordam beradi. Masalan, guruh ishlari uchun onlayn forumlar, chat xonalari yoki video konferensiyalar o‘quvchilarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vositalar hisoblanadi.

5. Innovatsion yondashuvlarni qo‘llash: Multimedia texnologiyalari ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni kiritish imkonini beradi. Virtual laboratoriyalar, 3D modellashtirish va simulyatsiyalar orqali murakkab mavzularni sodda va tushunarli tarzda o‘rganish mumkin. Shuningdek, o‘quvchilarni real hayotga yaqin bo‘lgan vaziyatlarga tayyorlashda simulyatsiyalar samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Multimedia vositalarining ijtimoiy pedagogik faoliyatga ta’sir etuvchi asosiy omillari:Texnologik imkoniyatlar: Multimedia vositalarining ta’siri ko‘pincha mavjud texnologik resurslarga bog‘liq. Ta’lim muassasalarining texnologik bazasi kuchli bo‘lsa, multimedia vositalaridan samarali foydalanish imkoniyati oshadi.

Pedagogik kompetensiya: O‘qituvchilar multimedia vositalaridan samarali foydalanish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim. Ularning texnologiyalarni o‘qitish jarayoniga moslashtirish qobiliyati ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarning tayyorgarligi va texnologik savodxonligi:O‘quvchilar multimedia vositalaridan foydalanishga tayyor bo‘lishi, ular bilan ishlashda kerakli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Bu esa o‘qitish jarayonining samaradorligini oshiradi. Resurslarning mavjudligi: Yuqori sifatli multimedia vositalari va ularni qo‘llab-quvvatlovchi dasturiy ta’minotning mavjudligi ham muhim omillardandir. Bunday resurslar ta’lim jarayonini boyitadi va uni yanada qiziqarli qiladi. Ijtimoiy muhit va qo‘llab-quvvatlash: Multimedia vositalaridan samarali foydalanish uchun ijtimoiy muhit va ta’lim tizimining qo‘llab-quvvatlashi muhimdir. O‘qituvchilarga treninglar o‘tkazish, texnik xizmat ko‘rsatish va tegishli metodik materiallar bilan ta’minlash bu jarayonni yengillashtiradi.

Multimedia texnologiyalari pedagogikada *afzallikari* nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki o‘qituvchilarga yangi metodlarni joriy qilish imkonini ham beradi. Masalan, interaktiv taqdimotlar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar murakkab mavzularni sodda va tushunarli qilib yetkazishda yordam beradi. Shuningdek, onlayn platformalar orqali masofaviy ta’lim tashkil etish imkoniyati yaratiladi, bu esa geografik yoki vaqt bo‘yicha cheklovlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Multimedia vositalari individual ta’lim jarayonini tashkil qilishda ham qo‘l keladi, chunki har bir o‘quvchi o‘zining bilim darajasi va tezligiga mos ravishda bilim olishi mumkin. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

Multimedia texnologiyalarining rivojlanishi hayotimizni osonlashtirgan bo‘lsa-da, uning *zararli tomonlari* ham mavjud. Haddan tashqari multimedia vositalaridan foydalanish inson

salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, masalan, uzoq vaqt ekran oldida o‘tirish ko‘zlarning charchashi, bel va bo‘yin og‘rig‘i kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarga bog‘lanib qolish insonning ruhiy holatiga zarar yetkazib, vaqtni samarasiz sarflashga olib keladi. Multimedia vositalaridagi noxolis yoki zararli axborotlar esa yosh avlodning dunyoqarashi va axloqiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, multimedia vositalaridan me’yorida va maqsadli foydalanish muhimdir.

Multimedia vositalari *ijtimoiy pedagogik faoliyatda* axborot uzatish samaradorligini oshiradi, interaktivlikni ta’minlaydi va ta’lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Ushbu vositalardan samarali foydalanish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:O‘qituvchilarni multimedia texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha o‘qitish va ularga muntazam treninglar o‘tkazish. Ta’lim muassasalarini zamonaviy texnologik vositalar bilan ta’minlash. Multimedia vositalaridan foydalanish uchun o‘quvchilarni tayyorlash va ularning texnologik savodxonligini oshirish. Ta’lim jarayonida interaktiv va innovatsion yondashuvlarni joriy qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akhmedov, R. (2021). Ta’limda multimedia texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

2. Salimov, B. (2020). Ijtimoiy pedagogik faoliyat: Nazariya va amaliyot. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

3. Jonassen, D. H. (1994). Thinking Technology: Toward a Constructivist Design Model. Educational Technology, 34(4), 34-37.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-avgustdagi “Ta’limni raqamlashtirishni rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori.

5. Shavkatov, I. (2019). Pedagogik innovatsiyalar. Toshkent: Sharq nashriyoti.

6. **O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi rasmiy sayti** (www. uzedu. uz)

7. *ZiyoNET* portali (www. ziyonet. uz)

8. ResearchGate (www. researchgate. net)

9. Academia. edu (www. academia. edu)

10. Google Scholar (scholar. google. com)

PROFESSIONAL TA’LIMNING RAQAMLI MALAKA OSHIRISH MUHITIDA TINGLOVCHILARNING MUSTAQIL O‘QUV FAOLIYATGA TAYYORGARLIGI – KASBIY TAYYORGARLIKNI RIVOJLANISHI OMILI

Ro‘ziyev Dilshod Ubaydullaevich
Professional ta’limni rivojlantirish instituti
Malaka oshirish va qayta tayyorlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari
dilshod. rziyev@mail. ru

Annotatsiya. Ushbu maqola professional ta’lim tizimini zamon talabiga mos formatda tashkil etish, shaklan va mazmunan mutlaqo yangi, uzluksiz professional ta’lim muassasalari tarmog‘ini shakllantirishning yangi paradigmasi belgilangan.

Kalit so‘zlar: Professional ta’lim, malaka oshirish, raqamli malaka oshirish muhiti.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 6 sentabrda “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmonida yangi professional ta’lim tizimini zamon talabiga mos formatda tashkil etish, shaklan va mazmunan mutlaqo yangi, uzluksiz professional ta’lim muassasalari tarmog‘ini shakllantirishning yangi paradigmasi belgilandi.

Bunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun, xususan, tadbirkorlik, kichik biznes, oilaviy biznes, tomorqa biznesi, qurilish, xizmat ko‘rsatish, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik kabi tez sur’atlarda ravnaq topayotgan sohalar uchun 200 dan ortiq ishchi kasblar bo‘yicha kadrlar tayyorlanishi ko‘zda tutildi .

Mamlakatimizda malaka oshirishning yangi 18 ta modullari joriy qilinib, pedagogika tamoyillaridan androgogika tamoyillariga o‘tildi. Malaka oshirishga kelgan tinglovchilar uchun ta’limni innovatsion rivojlantirishga doir 17 ta taqdimotlar tayyorlanib, taqdim etildi.

Malaka oshirish tizimini takomillashtirish uchun quyidagilar zarur:

pedagogik kadrlar va ishlab chiqarish ta’limi ustalarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimiga yangi o‘quv va axborot texnologiyalarini, shuningdek, innovatsion dasturlarning natijalarini joriy etish, yuqori darajadagi nazariy va amaliy bilimlarni, kasbiy mahorat va kompetentlikni ta’minlaydigan zamonaviy jihozlangan korxonalar bazasidan keng foydalanish;

tashkiliy strukturani takomillashtirishni ta’minlash, professional ta’lim tizimining boshqaruv va pedagogik kadrlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo‘yicha yagona markazlashgan institutni tashkil etish;

o‘rnatilgan davlat talablariga muvofiq, malaka oshirish kurslarini tugatgandan so‘ng pedagogik kadrlarga tegishli malakaviy toifalarni berish tartibini joriy etish .

Malaka oshirishni uch yo‘nalishda tashkil etish:

a) kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo‘yicha rejalashtirilgan kurslarni tashkil etish,

b) uzluksiz malaka oshirishni tashkil etish (videokonferensiyalar, seminarlar, masofaviy o‘qitish va boshq.),

v) malaka oshirishning qisqa muddatli kurslarini tashkil etish;

pedagogik kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashning samarali shakllarini (masofaviy o‘qitish, “Ustoz-shogird”, ballarni yig‘ish asosida individual malaka oshirish va boshq.) hisobga olgan holda yangi shakllari va usullarini joriy etishni amalga oshirish;

ixtisoslik va maxsus fanlarning o‘qituvchilarini, shuningdek ishlab chiqarish ta’limi ustalarini ularning amaliy mashg‘ulotlari, mustaqil ishlari hajmini oshirish, dasturlarni individualizatsiyalash, shuningdek bilimlarni baholash tizimini rivojlantirish orqali davlat talablarini, o‘quv rejalarini va malaka oshirish dasturlarini takomillashtirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish .

Professional ta’limning raqamli malaka oshirish muhitini tashkil etishning maqsadi malaka oshirish jarayoniga raqamli va telekommunikatsion texnologiyalarni qo‘llash hisobiga tinglovchilarning kasbiy tayyorgarligini uzluksiz rivojlantirishdan iborat. Ushbu muammolarni hal qilish doirasida raqamli texnologiyalar va axborotlashtirish vositalarini bir tizimga birlashtirishning pedagogik, metodik va texnologik asoslarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar o‘tkazish lozim. Bunday tizim sifatida professional ta’limning raqamli malaka oshirish muhiti taklif qilinishi mumkin.

Professional ta’limning raqamli malaka oshirish muhiti - bu malaka oshirishda ta’limiy axborotlarni o‘zatish va tezkorlik bilan almashishni ta’minlovchi vosita hisoblanadi. Ushbu muhit asosida tinglovchilarni bir-birini tushunishga, o‘zgalar fikrini hurmat qilishga, o‘z fikrini erkin bayon qilishga va birgalikda muammolarni hal etishga o‘rgatishga imkoniyat yaratiladi. Natijada yagona malaka oshirish muhitiga kirib boriladi.

Professional ta’limning raqamli malaka oshirish muhitini samarali tashkil etish uchun quyidagilar e’tiborga olinishi zarur: qo‘yilgan muammoni yechish uchun tabiiy, fizik, ijtimoiy va boshqa hodisalar ustidan ko‘p, tizimli, bir martalik yoki uzoq muddatli kuzatish, turli mintaqalardan ma’lumotlar to‘plash; turli joylarda yuzaga keladigan hodisalar, dalillar, voqealarning aniq tendensiyasini aniqlash uchun taqqoslab o‘rganish, qarorlar qabul qilish va takliflar ishlab chiqish; tarmoq ishtirokchilarining madaniy, etnik, geografik shartlari o‘rtasidagi

farqlarni hisobga olgan holda har bir muammo yoki masalani yechish yo‘llarining (alternativ yoki turli usullarini) samaradorligini taqqoslab o‘rganish; o‘ziga xos madaniy, an’anaviy va boshqa xususiyatlarni hisobga olgan holda ijtimoiy va madaniy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish; birgalikda ma’lum bir muammoni hamkorlikda tadqiq qilish sharti bilan biror bir (amaliy, ijodiy, ilmiy va boshqa) ijodiy g‘oyani ishlab chiqish; malaka oshirish mummmolarni o‘rganish va hal etish bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish va bunda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni madaniy, malaka oshirishdagi an’analar boshqa sohalar bilan bog‘liq bo‘lishiga qaratish .

“Raqamli malaka oshirish muhiti” tushunchasini qo‘llashning tadqiqot imkoniyatlarini ochish “muhit” tushunchasining ma’nosini aniqlashni talab qiladi.

M. Chernoushekning ishlariga muvofiq, bu tushunchani talqin qilishda ilmiy amaliyotda bir qancha yondashuvlar shakllangan: muhit – makon va zamonda aniq belgilangan va qayd etilgan chegaralarga ega emas; muhit to‘g‘risidagi axborotni biz turli sezgi organlaridan olingan ma’lumotlarini qo‘shish va kelishish yo‘li bilan olamiz; muhit to‘g‘risidagi axborot bir xil emas, unda yadroli bosh qismni ham, atrofdagi birikmalarni ham ajratish mumkin; muhitdoimo biz anglagan holda ro‘yhatdan o‘tkazishimiz, qayta ishlashimiz va tushunishimiz mumkin bo‘lgandan ko‘proq axborotni o‘z ichiga oladi; muhit inson tomonidan uning amaliy faoliyati bilan qabo‘l qilinadi; har qanday muhit jismoniy va boshqa xususiyatlari bilan birga psixologik va ramziy qiymatlarga ega; muhit bir butun ko‘rinishda ta’sir etadi[1].

Raqamli malaka oshirish muhitining nazariy yadrosi – pedagogika fanining yangi yo‘nalishi bo‘lib, raqamli malaka oshirish muhiti yangilanishga yo‘naltirilganlik mohiyatidan kelib chiqib, pedagogik jarayonlarni tadqiq qiladi. Shuning uchun an’anaviy malaka oshirish jarayoniga u yoki bu shaklda yangi pedagogik tizimni kiritish ko‘p hollarda samarasizdir. Shu bois yangi sifat tuzilmasiga, tizimni tashkil etishning yangi mezonlariga ega bo‘lgan butunlay yangi didaktik modelni yaratish lozim.

Malaka oshirish jarayonida asosiy e’tiborni professor-o‘qituvchi egallaydi. Shu sababli malaka oshirishni sifatli tashkil etish professor-o‘qituvchilar tarkibini to‘g‘ri shakllantirishdan boshlanadi. Savol tug‘iladi: professor-o‘qituvchi sifatini qanday aniqlash mumkin? Professor-o‘qituvchi nafaqat tinglovchilarga bilim beradi, u kadrlar shaxsini, dunyoqarashini va ma’naviyatini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli professor-o‘qituvchi sifati majmuaviy tushuncha bo‘lib, u asosan quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

kompetentlik darajasi – aniq fan va amaliyot sohasi bo‘yicha yuqori bilim va tajribaga ega bo‘lishi;

professor-o‘qituvchilik faoliyati bilan shug‘ullanishga qobiliyat va ishtiyoqning mavjudligi;

ko‘zatuvchanlik – tinglovchilardagi qobiliyatlarni va alohida xususiyatlarni tez ilg‘ab olish;


tashqi va ichki muhit bilan aloqa o‘rnatish qobiliyati;

o‘z sohasi bo‘yicha tanilganligi, mavqei;

ilmiy –tadqiqot sohasidagi faolligi;

ilmiy maktabining mavjudligi .

Tinglovchilarni professional ta’lim malaka oshirish muhitida mustaqil ishlashi sifati professor-o‘qituvchi tomonidan uning tashkil etish metodikasini ishlab chiqilishi, tayyorlanishi va amalga oshirilishi va tinglovchilar tomonidan uning bajarilishi sifati bilan ta’minlanadi (1- rasm).



1-rasm. Raqamli malaka oshirish muhitida tinglovchilarning mustaqil ishlash sifati tuzilmasi

Ochiq raqamli malaka oshirish muhitida tashkil etiladigan professional ta’limda professor-o‘qituvchining vazifalari birmuncha o‘zgaradi. Chunki ochiq malaka oshirish masofadan boshqarishga asoslangan bo‘lib, unda professor-o‘qituvchi va tinglovchi o‘rtasida ma’lum masofaviy oraliq bo‘ladi. Bunda professor-o‘qituvchi malaka oshirish jarayonini muvofiqlashtirishi, maslahatlar berishi, mustaqil o‘quv faoliyatga rahbarlik qilishi, malaka oshirish kursini takomillashtirishi va o‘z malakasini oshirish ustida ishlashi talab etiladi. Ochiq malaka oshirish muhitida malaka oshirish jarayoni yuqori texnologiyaga asoslangan bo‘lib, unda raqamli va telekommunikatsiyaning yutuqlaridan keng foydalaniladi. Professor-o‘qituvchi sifatini baholash uchun yuqorida tavsiya etilgan ko‘rsatkichlar sonli baholanmaydigan omillar

hisoblanadi. Jumladan, kompetentlik darajasini professor-o‘qituvchining tayanch ma’lumoti, ilmiy darajasi va unvoni, pedagogik staji, aniq soha bo‘yicha amaliy tajribasi orqali baholash mumkin.

Tadqiqotimiz mavzusiga doir mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarini o‘rganish natijasi shuni ko‘rsatadiki, tinglovchilarni raqamli professional malaka oshirish muhitida mustaqil o‘quv faoliyatiga tayyolash bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlari yetarli darajada va ahamiyatga molikdir. Lekin tinglovchilarni mustaqil ishlarini tashkillashtirish asosida kasbiy kompetensiyalarini shallantirishga yetarlicha ahamiyat berilmagan va hozirgi global vaziyatni inobatga olgan holda raqamli malaka oshirish muhitida mustaqil o‘quv faoliyatga tayyorgarlikni rivojlantirish asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yakunlanmagan.

Ilm-fan va raqamli texnologiyalari konvergensiyasi professional ta’limni rivojlanishining yangi bosqichini belgilab berdi, bunda uning tushunchalar apparati kengayishini, pedagogikada yuzaga kelayotgan transfer-integrativ hududlar, qadriyatlar va malaka oshirish mazmunini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Malaka oshirish jarayonlari integratsiyasiga bo‘lgan ehtiyoj ochiq malaka oshirish muhitini shakllantirishni taqozo etadi, u quyidagilarga imkon beradi: o‘quv jarayonini malaka oshirish muassasasidan tashqariga olib chiqish, masofaviy malaka oshirishni qo‘llab-quvvatlash; yirik malaka oshirish konsorsiumlarini barpo etish; raqamli malaka oshirish resurslari global kutubxonalarini yaratish; tinglovchilarning global axborot makonidagi yangicha ish sharoitiga moslashuvini ta’minlash. Shunga ko‘ra, professional ta’limda malaka oshirish jarayonida malakali kadrlarni tayyorlashda amaldagi malaka oshirish yondashuvlarini o‘zgartirish, mustaqil o‘quv faoliyatga tayyorgarlikni rivojlantirish orqali mantiqiy tafakkur va kasbiy muammolarga yechim topishda zaruriy kompetensiyalarni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi .

Shu sababli tinglovchilarni professional ta’limning raqamli malaka oshirish muhitida mustaqil o‘quv faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish ularning kasbiy faoliyat turlariga tayyorgarligini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Djo‘raev R. X. Ta’limda interfaol texnologiyalar. – Toshkent, 2010.

2. Hamidov J. A., Murodova A. Y. (2023) Virtual ta’lim texnologiyalari asosida bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompitentligini rivojlantirishning nazariy asoslari. Science and innovations, 2023/2, 182-189 pp.

3. Murodova A. Y. (2023) Virtual ta’lim texnologiyalari asosida bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatiga tayyorlashning tashkiliy-tuzulmaviy modelini yaratish. “Zamonaviy ta’limni

raqamlashtirish: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. O‘zDJTU. 188-191 betlar.

4. Murodova A. B. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KASBIY LAYOQATLARIN SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK O‘ZIGA XOSLIKLARI //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5. – S. 259-263.

5. Hamidov J., Muradova A. TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND TECHNICAL COMPONENTS OF FUTURE ENGINEERS THROUGH VIRTUAL EDUCATIONAL TECHNOLOGY.

6. Muradova A. TECHNOLOGY OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND TECHNICAL COMPONENT OF FUTURE ENGINEERS BY MEANS OF VIRTUAL EDUCATION TECHNOLOGY //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B2. – S. 306-311.

7. Abdurasulovich H. J., Qizi M. A. Y. VIRTUAL TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNINGNING NAZARIY ASOSLARI //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 10. – S. 182-189.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYADA QO‘LLANILADIGAN USUL VA VOSITALAR

Xamrayeva Nazira Ravshanovna

JDPU o‘qituvchi

Annotatsiya. Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirisga imkoniyatlar yetarli. Nazariya va amaliyot birligining ta’minlanishi pedagogik texnologiya ning asl mohiyatini aniqlashga yo‘l ochadi. Fikrimizcha, yangi pedagogik texnologiya fanining alohida tarmog‘i sifatida yoki faqat ta’lim amaliyotini maqbullashtirishga yo‘naltirilgan tizim deb qarash mumkin emas. Pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi. Pedagogik texnologiya o‘qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishishni kafolatlaydi. Bunga, faqat o‘quv jarayoni boshqariladigan taqdirdagina erishish mumkin.

Kalit so‘zlar: Pedagogik texnologiya, kompetensiya, psixologik ta’sir, pedagogika.

Jamiyat hayotining jadal tarzda rivojlanishi, taraqqiyot ehtiyojs, lari va imkoniyatlarining kengayishi, turli-tuman axborotlar oqimining tezlashishini hisobga olib, zamonaviy pedagogik texnologiya fani pedagogik prognostikaning yangishakl, vosita va usullaridan foydalanish mexanizmini yaratishni o‘z zimmasiga olmog‘i talab etiladi.

Bugungi kunda turli tipdagi ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ta’limning o‘rni va darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan tadqiqotlarda pedagogik prognostikaning imkoniyatlaridan keng foydalanishni taqozo qiladi. Shundagina ta’lim jarayonining natijalari fan, ishlab chiqarish, madaniyat, iqtisod hamda jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga xizmat qila oladi.

Pedagogik texnologiyafttrrg asosiy mohiyati har bir shaxsda mavjud bo‘lgan uning ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatlari asosida ularda ijobiy xislat va fazilatlami shakllantirish, rivojlantirish sanaladi. Bu o‘rinda ta’lim mazmuni shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uchun muhit sanaladi. Shuning uchun ta’lim mazmuni insonparvarlikka yo‘naltirilgan gumanistik g‘oya va me’yorlami o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi lozim.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya yakka hokimlik texnologiyasiga tubdan qarshi bo‘lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g‘amxo‘rlik, o‘quvchilar, talabalar shaxsini hurmat qilish, e’zozlash orqali shaxsni rivojlantirish va ijod qilishga qulay muhit yaratadi.

An’anaviy ta’limda o‘qituvchi (pedagog) ta’lim mazmunining sub yekti, o‘quvchi-talabalar pedagogik jarayonning obyekti deb qaralsa, hamkorlik pedagogikasida o‘quvchi-talaba o‘z o‘quv faoliyati ning subyekti sanaladi. Shu sababli hamkorlik pedagogikasida yagona ta’lim jarayonining ikkita subyekti hamkorlikda o‘quv-tarbiya vazi falarini hal etadi.

Ushbu pedagogik texhologiyada ta’lim tizimi markazida barkamol inson shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan insonparvarlik g‘oyasi muhim o‘rin tutadi. Bu g‘oya qay darajada amal ga oshirilganligi ta’lim jarayonining asosiy natijasi pedagogik jamoa mehnatining sifatiga berilgan baho asosida aniqlanadi. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirishda o‘quv- tarbiyaviy jarayonning asosiy natijasini aniqlovchi muhim omil shaxs- ga bo‘lgan munosabat hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyalarni qo‘llash jarayonida quyidagi uslublardan foydalaniladi.

Ta’lim uslubi — o‘qituvchi (pedagog) bilan o‘quvchi-talabalar orasida bilim berish va uni olish maqsadida amalga oshiriladigan o‘zaro aloqalarni tizimga soluvchi pedagogik tadbirdir. O‘qitish uslublari o‘quv jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Tegishli uslublarsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirib bo‘lmaydi.

Ma’ruza — bilimni so‘z bilan ifodalash uslublaridan biri sifatida beriladigan bilimlarni og‘zaki bayon qilishni ko‘zda tutib, o‘z hajmining kattaligi, mantiqiy qurilishi, obrazli isbotlash va umumlashti- rishning murakkabligi bilan hikoyadan ajralib turadi. Ma’ruza davomida beriladigan bilimni og‘zaki bayon qilish, uzoq vaqt davomida o‘quvchi-talabalaming diqqatini tutib turish hamda ularning fikrlarini faollashtirish, isbotlash, ta’rif berish, bir tizimga keltirish, umumlashtirish kabi pedagogik usullardan foydalaniladi.

Amaliy uslublar tarbiya faoliyatining xilma-xil turlari keng doirasini qamrab oladi. Amalda quyidagi usullar qo‘llaniladi: vazifa (maqsad)ni qo‘yish, uni bajarish uslubini rejalashtirish, bajarish jarayonini boshqarish, tahlil qilish, kamchiliklar sababini aniqlash. maqsadga to‘liq erishish uchun ta’lim jarayoniga tuza tish kiritish. Amaliy mashqlaming aniq turlaridan biri mashqni sharhlash hisoblanadi. Uni bajarishda o‘quvchi-talaba bo‘lajak xatti-harakatini faol mushohada qiladi, o‘ziga o‘zi eshittirib gapiradi hamda bo‘lajak voqeani sharhlaydi. Harakatni sharhlash o‘quvchi-talabaga o‘zining tipikxatosini anglashgavaharakatigatuzatishlar kiritishiga ko‘mak- lashadi.

Muammoli-qidiruv uslublari muammoli ta’lim jarayonida qo‘llanadi. Bu uslublardan foydalanishda o‘qituvchi (pedagog) awalo, muammoli vaziyat yaratadi, savollar qo‘yadi, masalalarni, topshiriqlarni taklif qiladi, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtiradi, xulosalarining to‘g‘riligini tasdiqlaydi. O‘quvchi-talabalar oldingi bilim va tajribalariga asoslanib muam moli vaziyatni hal qilish yo‘llari to‘g‘risidagi takliflarini aytadi va oldin olgan bilimlarini umumlashtiradi, muammoli vaziyatni yechishning eng oqilona variantini tanlaydi. Bu uslub o‘quvchi-talabalarning bilimga qiziqishlarini oshiribgina qolmay, ularda fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Muammoli-qidiruv uslublari ko‘proq ijodiy bilim faoliyati ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida qo‘llanadi. Ular o‘quvchi-talabalarning bilimni chuqur anglashiga, mustaqil egallashiga yor dam beradi. Bu uslublar ta’lim jarayonida tushuncha, qonun va nazariya kabilarni shakllantirish ko‘zda tutilganda, faktik axborotni ma’lum qilish, mehnat faoliyatining laboratoriya tajriba o‘quv ko‘nikmalarini hosil qilishda, o‘quv materialining mazmuni prinsipial jihatdan yangi bo‘lmasdan, ilgari o‘rganilganining mantiqiy davomi bo‘lsa, uning asosida o‘quvchi-talabalar yangi bilimni qidirish uchun mustaqil qadam tashlasa, mazmun hodisadagi sabab- oqibat va boshqalarga olib kelsa, samarali qo‘llanadi.

Ta’limni amalga oshirish jarayoniga zamonaviy pedagogik tex nologiyalarni kiritish quyidagilarga asoslanadi:

- ta’lim jarayonida ishtirok etuvchi talaba shaxsi ustuvorligini ta’minlash;
- ta’lim maqsadining natijaga erishuvini amalga oshirish;
- ta’lim jarayoni boshqariluvchi jarayon ekanligidan kelib chiqqan holda uning maqsadli boshqariluviga erishish;
- ta’lim mazmunini ta’minlovchi vosita, usul shakllari texnologiyasini yagona bir tizimga keltirish.

Jahon pedagogika fani ilmiy-texnika taraqqiyoti ta’sirini boshidan kechirib, psixologiya, kibernetika, tizimlar nazariyasi, boshqaruv nazariyasi va boshqa fanlar yutuqlarini birlashtirib,

bugungi kunda faol yangilanish jarayonlari bosqichiga o‘tdi va inson imkoniyatlarini samaraii rivojlantirish amaliyotiga boy mahsul bermoqda. Pedagogik texnologiya uslublari dastlab ta’lim berishning namunaviy vaziyatdagi o‘zlashtirish talab etiladigan mahsuldor, ya’ni reproduktiv darajasi uchun ishlab chiqilgandi. Reproduktiv ta’lim har qanday ta’limning zarur tarkibiy qismi hisoblanadi, u insoniyat jamg‘argan tajribani aniq o‘quv fani doirasida o‘zlashtirish bilan bog‘liq. Ta’lim oluvchilarda bilim va ko‘nikmalaming ma’lum «poydevori» hosil qilingandan keyingina, ta’limning natijali, ya’ni produktiv va ijodiy yondashish uslublariga o‘tish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N. Saidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. - T.: «Moliya», 2003.
2. Farberman B. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. - T.: Fan, 2000.
3. Borisova, N. V. Ta’lim texnologiyalari pedagogik tanlov ob’ekti sifatida: darslik.
4. N. V. Borisova. - M .: ITsPKPS, 2000 . -- 146 p.
5. Gulova, M. N. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: darslik. DPT muassasalari uchun qo‘llanma / MN Gulova, 4-nashr, qayta ko‘rib chiqilgan. - M .: IT akademiyasi, 2013 . -- 208 b.

O‘QUVCHILARNING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Rahmonova Gulchehra Zokirjon qizi
A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti doktoranti
rahmonova. g@bk. ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada tabiiy fanlarni o‘qitishda raqamli texnologiyalrning o‘rni va ahamiyati haqida so‘z yuritildi. Raqamli texnologiyalar vositasida o‘quvchilarning tabiiy fanlar savodxonligini rivojlantirish masalasi tahlil qilindi. Raqamli texnologiyalardan foydalanib o‘qitish samaradorligini oshirish usullari keltirildi.

Kalit so‘zlari: raqamli texnologiya, eksperiment, texnologiya, tabiiy fanlar, bilim, ko‘nikma, ilmiy dunyoqarash, ta’lim.

Ta’lim jamiyat va davlat rivojining eng muhim omillaridan biri hisoblanib, hozirda uning samarali tashkil etilishi insonlarning farovon turmushiga sabab bo‘lishiga ko‘pchilikka ma’lum. Savodxonlik tushunchasi tor ma’noda qaralganda kishining o‘qish, yozish olish ko‘nikmalarini nazarda tutsada, u fikrlash, o‘qigan ma’lumotni tushuna olish, ma’lumotlarni talqin qila olish ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi. Dars jarayonlari tahlili va kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, boshlang‘ich sinfda savodxonlik ko‘nikmalarini yaxshi egallagan o‘quvchilar keyingi

bosqichlarda boshqa fanlarni, xususan, matematika, tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarni yaxshi o‘zlashtirishadi.

Savodxonlik tushunchasi keng ma’noda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etishkabi inson hayotida davomida foydalanishiga to‘g‘ri keladigan ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi. Tabiiy-ilmiy savodxonlik tushunchasi esa savodxonlikning xususiy bir tomoni desak xato bo‘lmaydi. Tabiiy-ilmiy savodxonlik deganda kishining tabiiy fanlarga oid jarayonlarni tushuna olishi, tabiiy fanlarni o‘rganish davomida egallagan bilimlaridan kundalik hayotda duch keladigan muammolarni hal etishda foydalana olishi, tabiiy fanlarga oid muammolarni (ekologik muammolar kabi) muhokama etishda faol ishtirok eta olishi tushuniladi. Texnika va texnologiya tobora taraqqiy etib borayotgan ushbu davrda o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish muhim masalalardan biriga aylanib ulgurdi. Zotan, bugungi kunga kelib jamiyatda faol fuqaro pozitsiyasiga ega bo‘lish va farovon turmush kechirish uchun faqatgina o‘qib o‘rganishni o‘zi yetarli emasligi ma'lum bo‘lmoqda. Rivojlangan texnologiyalarning ta’limga kirib kelishi undan kutilayotgan natijaga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Raqamli texnologiyalar, shuningdek, planshetlar, ta’lim dasturlari va onlayn darsliklar kabilardan dunyoning juda ko‘p davlatlarida, jumladan bizning mamlakatimizda ham ta’lim vositalari sifatida foydalanilmoqda. Raqamli texnologiyalar turli xil ta’lim manbalariga kirish uchun osonligi bilan ajralib turadi. Ular yordamida biz dunyoning istalgan burchagidagi istalgan kitobni mutolaa qilish imkoniga ega bo‘lamiz. Ular kirish imkoniyati osonligi va har yerda hamma vaqt mavjudligi bilan foydalanuvchi uchun qulaylik yaratadi. Ular yordamida o‘quvchilar mustaqil ravishda o‘z qobiliyatlariga ko‘ra bilim olish imkoniga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar orqali interaktiv o‘qitish metodlaridan, shuningdek, fanlarga oid videolar, ta’limiy o‘yinlar (kahoot kabi) foydalanish o‘quvchilarning qiziqishlari va motivatsiyasini oshirish imkonini beradi.

Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan keng foydalanilishiga qaramasdan o‘qitish sifatida bir qator sezilarli kamchiliklar qayd etilmoqda. Shuulardan biri Xalqaro baholash dasturlarida o‘quvchilarimiz tomonidan qayd etilgan natijalar juda past ekanligi bo‘lsa, boshqa bir muammo o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishi pastligi va ularda XXI asr ko‘nikmalari yetarli darajada shakllantirilmaganligidir. Bugungi kunga kelib raqamli texnologiyalar vositasida o‘qitish uchun resurslar yetishmasligi katta muammo hisoblanmaydi. Chunki, hozirda ko‘pchilik oilalarda internetga kirish va undan foydalanish uchun yetarli manbalar mavjud. Shunga qaramasdan, o‘quvchilar ushbu manbalardan ta’lim olish uchun emas balki boshqa maqsadlarda (ijtimoiy tarmoqlarda kezish va hk) foydalanishmoqda. Ota-onalar bolalarini kerakli o‘quv jihozlari bilan taminlash bilan birgalikda ulardan nima maqsadlarda foydalanishayotganini nazorat qilishi maqsadga muvofiq. PISA -2022 natijalari tahlil qilinganda mamlakatimiz o‘quvchilari orasida

uyida kitoblari yoki kutubxonasi bor bolalar tomonidan qayd etilgan natijalar boshqa o‘quvchilarnikiga qaraganda yuqori ekanligi ma’lum bo‘ldi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, ota-onalr bolalarni ta’lim olishga rag‘batlantirish bilan bir qatorda ularni nazorat qilib borishi, sifatli ta’lim resurslari (o‘quv adabiyotlari, raqamli texnologiyalar) bilan ta’minlash barobarida ular uchun o‘zlari namuna ko‘rsatishi lozim.

Hozirgi kunda ta’limda, shuningdek, tabiiy fanlarni o‘qitishda besh xil turdagi raqamli texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Bular planshetlar, ta’lim dasturlari, onlayn kitoblar, o‘rganishni boshqarish uchun dasturlar (LMS), virtual laboratoriya dasturlari, video dasturlaridir.

Planshetlar har bir o‘quvchi uchun alohida bo‘lishi bilan ajralib turadi va uning yordamida o‘quvchi o‘zi istagan o‘quv materialidan istalgan paytda foydalanish imkoniga ega bo‘ladi. Uning yordamida o‘quvchilar onlayn tadqiqotlar o‘tkazishlari, topshiriqlarni bajarishlari, guruh loyihalarida tengdoshlari bilan hamkorlik qilishlari mumkin. Qurilma bolalar foydalanishi uchun juda qulay.

Ta’lim dasturlari ham o‘qish va o‘rganish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ishlab chiqiladi. Ular matematika va o‘qish kabi asosiy ko‘nikmalarni shallantirish hamda kodlash va tabiiy fanlardan murakkabroq mavzularni o‘rganish uchun mo‘ljallangan. Misol uchun Duolingo dasturi til o‘rganish uchun, Khan academy dasturi matematika va boshqa fanlarni o‘rganish uchun, Scratch dasturi programma tuzishni o‘rgatuvchi dasturlardir.

Onlayn kitoblar chop etilgan kitoblarning xilma-xil turlarini o‘z ichiga oladi. Ulardan planshetlar, noutbuklar, kompyuterlar orqali oson foydalanish mumkin. Bundan tashqari electron kitoblarda gipermatnli ilovalar, videolar, amaliy mashg‘ulotlar uchun topshiriqlarning mavjudligi fandagi murakkab mavzularini tushunishni osonlashtiradi. Audiokitoblar esa ko‘rish imkoni cheklangan o‘quvchilar uchun bilim olishga imkoniyat yaratadi. O‘quvchilar uy yumushlarini bajarish mobaynida yoki transportda yurganda audiokitoblardan foydalanib yangi bilimlarni egallashlari yoki olingan bilimlarini takrorlashlarish mumkin bo‘ladi.

Ta’limni boshqarish tizimi (LMS) -o‘quv jarayonini rejalashtirish, amalga oshirish va maholash maqsadida ta’lim muassasalari tomonidan qo‘llaniladigan texnologiya hisoblanadi. Moodle, Google Classroom, Blackboard kabi ta’limni boshqarish tizimlari o‘qituvchilarga o‘quv materialini yuklash, topshiriqlar berish, testlar o‘tkazish va o‘quvchilar bilan onlayn muloqot qilish imkoni beradi. Bu aralash o‘qitishni ta’minlaydi va o‘quv materialiga moslashuvchan foydalanishni amalga oshiradi.

Virtual laboratoriyalar esa tabiiy sharoitda bajarish mumkin bo‘lmagan eksperimentlari kompyuter dasturlari orqali bajarishga imkoniyat yaratadi. Ularga misol sifatida kimyoviy reaksiyalarni bajarib ko‘rish imkonini beruvchi Crocodile chemistry 605, Chemsk 12, Chemix 12,

GaussView dasturlarini, fizika fanidan PheT (Physics Education Technology) kabi laboratoriya dasturlaridan foydalanish orqali ta’lim resurslari tejalishi bilan bir qatorda amalda bajarishga imkonsiz bo‘lgan laboratoriya ishlarini bajarib ko‘rish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, raqamli texnologiyalar o‘qitsih tizimini tashkil qilishda o‘zining o‘rnini egallab bormoqda. Chunki ular o‘quvchilarga qisqa vaqt ichida ko‘p ma’lumot olish imkonini beradi o‘rganish jarayonini qiziqarli va jozibali bo‘lishini ta’minlaydi. Bundan tashqari raqamli kutubxonalarning o‘z bazasini ko‘p xildagi akademik va badiiy adabiyotlar bilan boyitish bilan o‘quvchilarning ushbu materiallardan foydalanish orqali o‘z dunyoqarashi va bilimini oshirishiga yordam bermoqda. Bu esa ularning mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini va tabiiy fanlar savodxonligini rivojlantirishga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alim Hardiansyah, Netty Huzniati Andas, Darma Jasuli. The role of digital technology in improving literacy skills of primary school students. International Journal of Social and Education (INJOSEDU)Vol. 1No. 4July2024, hal., 1104-1116

2. Andreas Schleicher. PISA-2022 Insights and interpretations. OECD-2023

TA’LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH VA ULARNING TA’LIM OLUVCHIGA TASIRI

Hamrayeva Nazira Ravshanovna
JDPU o‘qituvchi

Annotatsiya. Milliy istiqlol tufayli jadal rivojlanib borayotgan mamlakatimizda yosh avlodning bilim darajasini jahon andozalari talablariga javob beradigan, fan-texnika yangiliklaridan xabardor, mustaqil fikrlay oladigan, hayotga dadillik bilan kirisha oladigan, tadbirkor, ma’naviy jihatdan barkamol qilib voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu esa, avvalo, pedagogika fanini, ta’limtarbiya tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

Kalit so‘zlar: Pedagogik texnologiya, kompetensiya, psixologik ta’sir, pedagogika.

Hozirgi vaqtda zamonaviy ta’lim sharoitida o‘qitish usullari ta’lim maqsadlarini o‘zgartirish, kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida qurilgan yangi avlod davlat ta’lim standartini ishlab chiqish bilan bog‘liq murakkab davrni boshdan kechirmoqda. fanining metodologiyasini pedagogik amaliyotga tatbiq etishda jahon pedagogik tajribasida tan olingan va samarali natijalar berayotgan nazariy qarashlar, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi.

Ular shaxsning ta’lim faoliyatini liberallashtirish yo‘llari, ta’lim mazmunini tanlash va ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish prinsiplari, politexnik va kasb ta’limi nazariyasi, ta’limni ijtimoiy foydali mehnat bilan uyg‘unlashtirish konsepsiyasi, ta’lim-tarbiya jarayonining fiziologik qonuniyatlariga asoslanib tashkil etilishida namoyon bo‘adi.

Har qanday pedagogik yangilik zamirida biron-bir g‘oya yotadi. G‘oya asosida esa o‘qituvchining bolalar bilan o‘zaro harakati yotadi, ya’ni:

sinfda psixologik birlik vaziyatini yaratish; har bir o‘quvchi o‘z shaxsini o‘zi namoyon etishini ta’minlash;

har bir metodik yondashuv uchun o‘ziga xos muloqot yo‘lini tanlash;

o‘quvchilar tashabbusini zimdan boshqarib borish va boshqalar.

Bunda o‘qituvchi har bir o‘quvchi qalbiga kirib borish uchun o‘zining didaktik usullari, tashkiliy shakllari orqali yo‘l topadi. Bularning hammasi didaktik topilmalar, pedagogik kashfiyotlar, bir so‘z bilan aytganda, yangi pedagogik texnologiyalardir. Pedagogik texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, bunda ta’lim jarayonini rejalashtirish, tashxis qilish, natijalash, tuzatish va o‘zgarishlar kiritish imkoniyatlari mavjud. Bunda ta’limdan kutilgan natijaga erishiladi, vaqt tejaladi, bu esa pedagogik texnologiyaning samarasi, demakdir. Pedagogik texnologiyaning jo‘nligi-ishlangan modelni boshqa pedagoglar qo‘llaganda ham xuddi o‘shanday samara berishi kerakligini bildiradi.

O‘qituvchi o‘quvchini faollashtiradigan, o‘zi va o‘rganuvchi uchun qulay bo‘lgan yo‘llarni, metod, o‘qitish shakllari va vositalarini takomillashtirib boradi. Shu boisdan ham ≪pedagogik texnologiya≫, ≪didaktik texnologiya≫, ≪ta’lim texnologiyasi≫ atamalari qatoridan ≪pedagogik innovatsiyalar≫ atamasi mustahkam o‘rin olmoqda.

Pedagogik faoliyatda innovatsion usullardan foydalanish tajribasiga asoslanib, ularning ayrim afzalliklarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

ular o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘zlashtirishning faol usullarini o‘rgatishda yordam beradi;

shaxsiy ijtimoiy faollikning yuqori darajasini o‘zlashtirish imkoniyatini berish;

ta’lim jarayonida o‘quvchilar o‘rganmay qolmaydigan sharoitlarni yaratish;

talabalarning ijodiy faolligini rag‘batlantirish;

o‘qishni kundalik hayot amaliyotiga yaqinlashtirishga, fan bo‘yicha nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarni, balki faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishga yordam beradi.

Hozirgi bosqichda ta’lim, birinchi navbatda, shaxsni rivojlantirishga, uning faolligi va ijodiy qobiliyatlarini oshirishga, binobarin, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini nazorat qilish usullaridan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan. o‘qitishning faol

shakllari va usullari, bularning barchasiga qiziqish mavjud bo‘lgandagina erishish mumkin. o‘quvchilarning fanni o‘rganishi. Kognitiv qiziqish - bu o‘quv jarayoniga intellektual va hissiy munosabat, o‘quvchining o‘rganishga bo‘lgan intilishi, individual va umumiy vazifalarni bajarish, o‘qituvchi va boshqa talabalar faoliyatiga qiziqish.

Zamonaviy texnologiyalar hissiy qulay muhitda o‘quvchilarning faol ko‘p bosqichli kognitiv faoliyati jarayonida fan va o‘quv bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, o‘rganish uchun ijobiy motivatsiyani rivojlantirish imkonini beradi. Hozirgi bosqichda pedagogik texnologiya tushunchasidan pedagogik amaliyotda faol foydalanilmoqda. Biroq, uni tushunish va qo‘llashda katta tafovutlar mavjud, shuningdek, turli olimlar tomonidan berilgan ko‘plab ta’riflar mavjud, masalan, B. T. Lixachev, V. P. Bespalko, I. P. Volkov, V. M. tushunish pedagogik texnologiyani barcha ta’riflarning ma’nolarini o‘zida mujassam etgan mazmunli umumlashtirishdir. turli mualliflar. G. K. Selevkoning fikricha, “pedagogik texnologiya” tushunchasini uch jihat bilan ifodalash mumkin:

1) ilmiy: pedagogik texnologiyalar - pedagogika fanining maqsadlari, mazmuni va o‘qitish usullarini o‘rganuvchi va ishlab chiqadigan hamda pedagogik jarayonlarni loyihalashtiruvchi qismi;

2) protsessual va tavsifiy: jarayonning tavsifi (algoritmi), rejalashtirilgan o‘quv natijalariga erishish uchun maqsadlar, mazmun, usullar va vositalar majmuasi;

3) protsessual jihatdan samarali: texnologik (pedagogik) jarayonni amalga oshirish, barcha shaxsiy, instrumental va uslubiy pedagogik vositalarning ishlashi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya o‘qitishning eng oqilona usullarini o‘rganuvchi fan sifatida ham, o‘qitishda qo‘llaniladigan usullar, tamoyillar va tartibga soluvchilar tizimi sifatida ham, real o‘quv jarayoni sifatida ham faoliyat yuritadi. Albatta, har bir o‘qituvchi o‘z faniga talabalarda chuqur qiziqish uyg‘otishini, ular nafaqat o‘ylanmasdan ma’ruza yozishni, balki aytilayotgan gaplarni tushunib yetishlarini, mantiqiy fikr yurita olishlarini, har bir dars yuk bo‘lmasligini, balki har bir darsning o‘ziga yuk bo‘lmasligini xohlaydi.

O‘qituvchi gapiradi, o‘quvchi esa tinglaydi va o‘rganadi, lekin tayyor ma’lumotni tinglash o‘qitishning eng samarasiz usullaridan biri hisoblanadi. Bilimni mexanik ravishda boshdan boshga o‘tkazib bo‘lmaydi (eshitilgan - o‘rganilgan). Shuning uchun o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish zarur.

Xulosa qilib aytsak, yangi ta’lim tizimi, mazmuni, o‘quv rejasi, o‘quvdasturlari, darsliklar asosidao‘quvjarayonini loyihalashtirishga ham yangicha yondashish, uni yangicha tashkil etish zaruriyati tug‘ilmoqda. Ta’lim shunday bir jarayonki, u doimiy holatda o‘zgarib boradi. Jamiyat taraqqiy etib borgan sari ta’lim ham jamiyat maqsadlarini ko‘zlagan holda o‘zgarib boradi.

Fan va texnika olamida insoniyat tomonidan erishiiayotgan yutuqlar ham ta’limning yangilanib borishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, mamlakatimiz ta’lim tizimi hozirgi kunda katta o‘zgarishiarni boshidan kechirmoqda. Uning oldidagi maqsadlar o‘zgarib bormoqda, qolaversa, ta’limga oxirgi yillarda yangi pedagogik texnologiyalami joriy etilishi ham fikrimizga dalil sifatida xizmat qila oladi. Zero, pedagogik texnologiya - bu o‘rganish nazariyasiga asoslangan va rejalashtirilgan natijalarni ta’minlovchi ta’lim faoliyatini tashkil etish usullari, uslubiy texnikasi, shakllari yig‘indisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N. Saidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. - T.: «Moliya», 2003.
2. Farberman B. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. - T.: Fan, 2000.
3. Borisova, N. V. Ta’lim texnologiyalari pedagogik tanlov ob’ekti sifatida: darslik.
4. N. V. Borisova. - M .: ITsPKPS, 2000 . -- 146 p.
4. Gulova, M. N. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: darslik. DPT muassasalari uchun qo‘llanma / MN Gulova, 4-nashr, qayta ko‘rib chiqilgan. - M .: IT akademiyasi, 2013 . -- 208 b.

ILM-FAN VA TA'LIMDA INNOVATSION RIVOJLANISHNING ZAMONAVIY TRENDLARI

Sandiboyeva Durdona Furqat qizi
A. Qodiriy nominadagi Jizzax davlat pedagogika universiteti
1- bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola ilm-fan va ta’lim sohasida yuz berayotgan innovatsion rivojlanishning zamonaviy trendlari haqida batafsil ma’lumot beradi. Maqolada raqamli texnologiyalar, masofaviy ta’lim, sun’iy intellekt (AI) va virtual haqiqat (VR) kabi innovatsion vositalarning ta’lim jarayoniga kiritilishi, shuningdek, ta’limning individualizatsiyasi, moslashuvchanligi va kollaborativ yondoshuvlarining ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim tizimi, integratsiyasi, ekologiya, barqarorlik, o‘qituvchi, professional rivojlantirish, masala, innovatsiya, ta’lim, joriy etish, ilmiy va texnologik taraqqiyot, tezlashtirish, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot, yangi imkoniyat, yaratish, ilm-fan, zamonaviy innovatsiya, trend, raqamli ta’lim, innovatsiya, sun’iy intellekt, masofaviy ta’lim.

Bugungi kunda ilm-fan va ta’lim sohasida innovatsion rivojlanish jahon miqyosida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, bu sohalarda yuz berayotgan o‘zgarishlar global iqtisodiyot va jamiyatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Innovatsiyalar ta’lim tizimining samaradorligini oshirish, ilm-fanning taraqqiyotini tezlashtirish va ijtimoiy hayotning barcha

jabhalariga yangi imkoniyatlar yaratishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada ilm-fan va ta’limdagi zamonaviy innovatsion rivojlanish trendlariga e’tibor qaratiladi.

Raqamli ta’lim texnologiyalari

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini yangilash va optimallashtirishda muhim o‘rin tutadi. Internet, mobil ilovalar, onlayn kurslar, virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR va AR), sun’iy intellekt (AI) kabi texnologiyalar ta’limni yanada interaktiv va samarali qilish imkonini beradi. Masalan, onlayn platformalar (Coursera, edX, Udemy) orqali dunyoning istalgan nuqtasida talaba o‘z bilimini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, sun’iy intellekt yordamida individual o‘quv rejalari tuzish, talabalar ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘quv jarayonlarini yaratish mumkin.

Ta’limda individualizatsiya va moslashuvchanlik

Innovatsion ta’lim tizimi talabalarning individual ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashuvchan bo‘lishi kerak. O‘qishning an’anaviy shakllaridan tashqari, individualizatsiya orqali har bir talaba o‘z tezligi bilan o‘rganishi va rivojlanishi mumkin. Masalan, “flipped classroom” metodikasi, ya’ni “tortilgan darslar” modeli orqali, talaba o‘zi mustaqil ravishda yangi bilimlarni o‘rganadi, o‘qituvchi esa ularni amaliyotda mustahkamlash va savollarni hal qilishda yordam beradi. Shuningdek, moslashuvchan ta’lim tizimlari, masalan, “blended learning” yoki gibrid ta’lim modeli ham innovatsion yondoshuv sifatida keng tarqalgan.

Kollaborativ o‘rganish va guruh ishlari

Ta’limda kollaborativ o‘rganish yondoshuvining kengayishi o‘z navbatida ijodkorlik, jamoaviy ish, va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar guruhlar shaklida ishlash orqali o‘zaro fikr almashadilar, turli nuqtai nazarlarni o‘rganadilar va umumiy qarorlar qabul qilishni o‘rganadilar. Innovatsion texnologiyalar, masalan, onlayn guruh ishlari va kollaborativ platformalar (Google Docs, Microsoft Teams) yordamida o‘quvchilar o‘zlarining bilimlarini bir-birlari bilan baham ko‘rishadi.

Ilm-fan va sanoat o‘rtasidagi integratsiya

Innovatsiyalar ilm-fan va ta’limning sanoat ehtiyojlari bilan bog‘lanishiga yordam beradi. Bugungi kunda ko‘plab ta’lim muassasalari ilmiy va texnologik sohalarda ish beruvchilar bilan hamkorlik qilishni yo‘lga qo‘ygan. Bu, o‘z navbatida, talabalar uchun amaliyot va ish tajribasini olish, sanoatning yangi talablariga mos bilim va ko‘nikmalarni egallash imkoniyatini yaratadi. Masalan, STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) tizimi orqali texnik va san’at yo‘nalishlari o‘rtasida integratsiya qilinib, talabalarga ijodiy va texnologik fikrlashni birlashtirishga imkon beriladi.

Ta’limda barqarorlik va ekologik ong

Zamonaviy innovatsion ta’limda ekologik masalalar va barqaror rivojlanish tamoyillari muhim o‘rin tutadi. O‘qitish va ilmiy izlanishlar ekologik xavfsizlik, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ijtimoiy mas’uliyat kabi masalalarni o‘z ichiga olgan yangi trendlarga yo‘naltirilmoqda. Masalan, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun ta’lim dasturlariga ekologiya va barqarorlik tamoyillarini o‘rgatish kiritilmoqda. Bu talabalar va yoshlarni zamonaviy dunyoning muhim ekologik va ijtimoiy masalalari bilan tanishtirishga yordam beradi.

O‘qituvchilarni professional rivojlantirish

Ta’limda innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun o‘qituvchilarni malakasini oshirish va ularning pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish juda muhim. Innovatsion o‘qituvchilar o‘z ish uslublarini doimiy ravishda yangilab borishlari, yangi metodlarni o‘rganishlari va amaliyotga tatbiq etishlari kerak.

Bunda raqamli resurslar, masofaviy kurslar va o‘qituvchilar uchun onlayn treninglar muhim o‘rin tutadi.

Ilm-fan va ta’limdagi innovatsion rivojlanish global o‘qitish va ilmiy faoliyatni yangi bosqichga olib chiqish imkonini yaratadi. Raqamli texnologiyalar, individual yondoshuvlar, kollaborativ o‘rganish va sanoat bilan integratsiya kabi trendlari ta’lim tizimini yanada samarali, dinamik va moslashuvchan qilishga yordam bermoqda. Bularning barchasi zamonaviy jamiyatda bilim va ma’lumotlarni tarqatishda muhim rol o‘ynaydi va kelajak avlodlarning muvaffaqiyatli rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Siemens, G. (2005). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2(1), 3-10.

2. Selwyn, N. (2016). Education and Technology: Key Issues and Debates. London: Bloomsbury Academic.

3. Stevenson, R., & Bell, T. (2018). Blended Learning in the Digital Age: Learning from Experience. New York: Springer.

4. OECD. (2019). The Future of Education and Skills: Education 2030. Paris: OECD Publishing.

EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYADAN ASOSIDA O‘RGANISH

Mirzayeva Durdona

JDPU Boshlang‘ich ta’lim 3-bosqich 818-22 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologiya, atrof-muhit bilan bog‘liq muammolar, ularning kelib chiqishiga sabab bo‘layotgan omillar tahlil qilingan. Bundan tashqari ushbu omillarni bartaraf etish bo‘yicha ma’lum tavsiyalar berilgan

Kalit so‘zlar: tabiat, atrof-mihit, muammo, zarar, jamiyat, atrof-muhit, hayot, resurs

Аннотация. В данной статье анализируются экология, экологические проблемы и факторы, вызывающие их возникновение. Кроме того, даются определенные рекомендации по устранению этих факторов

Ключевые слова: природа, окружающая среда, проблема, ущерб, общество, окружающая среда, жизнь, ресурс

Abstract. This article analyzes ecology, environmental problems and the factors causing their occurrence. In addition, certain recommendations are given to eliminate these factors.

Keywords: nature, environment, problem, damage, society, environment, life, resource

Fan texnika inqilobi jamiat va tabiatning o‘zaro munosabatida sifat jixatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Bu bosqich tabiiy boyliklarni o‘zlashtirish g‘oyat zarurligi sayyoramizdagi mavjud resurslardan misli ko‘rilmagam darajada foydalanish bilan tavsiflanadi. Fan texnika inqilobi ilgari ma’lum bo‘lmagan texnik va texnologik vositalarni yuzaga keltirdi. Inson fan va texnika inqilobi natijasida tabiatga munosabat borasidagi erkinlikda yangi bosqichga ko‘tarildi, natijada u o‘ziga ilgari buysunmagan ko‘pgina kuchlarni jilovlab oldi. Fan texnikaning shiddatli taraqqiyoti hozirgi vaqtda insonning tabiatga ta’sir ko‘rsatishi doirasi va mikeslarining kengayganligi shunga olib keldiki, antropogen omillarning ta’sirida tabiiy muhitda o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Bunday o‘zgarishlar esa hayotning moddiy asoslarini qo‘pormoqda. Insonni o‘rab olgan atrof-muhitni, jamiyat hayot faoliyati uchun yaroqsiz holatga aylantirmoqda, sayyoramizning o‘lib borish xavfini tu g‘dirmoqda. Hayot kechirish vositalarini saqlab qolish muammosi; Asr mavzusiga aylanib, jahon jamoatchiligi diqqat markazida turibdi. Ishlab chiqarish jarayonlari oqibatida muhitning ifloslanishi kelgusi avlodlar uchun mutloqo ochiq-ko‘rinib turgan xavf bo‘libgina qolmay, balki u hozirning o‘zida ham ijtimoiy halokat yoqasiga kelib qoldi.

Fan texnika inqilobi atrofimizni o‘rab turgan tabiatga ijtimoiy ta’sirning kuchayishi tabiatning jamiyatga ta'siri kuchayishiga olib kelganligini yaqqol ko‘rsatmoqda. Ishlab chiqarish

jarayonlarining ro‘y berayotgan jadallashuvi xalq xo‘jaligiga tobora o‘sib boruvchi miqdorlarda tabiat boyliklarini jalb qilishni taqozo etadi. Bu bilan jamiyatning tabiatga bevosita qaramligini ham kuchaytiradi. Hozirgi fan texnika inqilobi davrida insonning tabiat boyliklaridan foydalanish imkoniyatlari g‘oyat kengayadi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning tabiatga va atrof muhitga xavfli zararli tasiri ancha ortadi. Keyingi 100 yilda insoniyat energetika boyliklarini ming barobar ko‘paytirdi. Bu esa unga tabiatga jiddiy va oqibatlari uzoqqa cho‘ziladigan tasir o‘tkazish imkonini beradi.

Fan texnika inqilobi davomida bu ko‘rsatkichlar yana o‘sib boradi. Rivojlangan mamlakatlarda tovarlar va xizmatlarning umumiy hajmi endilikda har 15 yilda 2 barobarga ortmoqda. Shunga muvofiq ravishda atmosferani, suv havzalarini, tuproqni bulg‘ovchi xo‘jalik faoliyati chiqindilari miqdori ham 2 barobar ko‘paymoqda. Ishlab chiqarish tabiatdan 100 shartli birlikni oladi, lekin 3-4 qismidan foydalanadi xolos, qolgani esa ifloslangan modda va chiqindilar ko‘rinishida atrof-muhitga chiqarib tashlanadi. Fan texnika inqilobi shunga olib keldiki, birinchidan biosferaning xarakat qilish jarayonlari jadallashadi, ikkinchidan biosferaning materiya va energiyaning yangi ko‘rinishlari joriy qilinadiki, ular tabiatda tabiiy ko‘rinishda bo‘lmaydi: uchinchidan tabiat kuchlari va qonuniyatlari tobora yangi yo‘nalishlari harakatga ega bo‘lib boradi. Jamiyatning tabiat bilan munosabatlaridagi uygunlashuv talablari insoniyat oldiga yangi-yangi muammolarni qo‘yaversa, bora-bora muammolar ham ko‘ndalang bo‘ladi. Hozir atrof muhitga ta’sir o‘tkazishning asosiy yo‘nalishlari - bu ilmiy texnika taraqqiyotini industrlashtirish va sanoatning yuqori sur'atlarda o‘sishi, moddiy iste’molning yuqori darajadaligi deb xisoblanmoqda. Ijtimoiy guruhda odamlar birligi tarixiy shakllari oila, ishlab chiqarish jamoasi, kasbkorlar guruhi, millat, davlat, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya turli darajalarda aloqalar va munosabatlarning ijtimoiy tizimini chuqur urganmasdan inson ekologiyasini tushunib bo‘lmaydi. Ekologik vaziyat turli ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda jamiyat va tabiatning o‘zaro ta’siri aniq shakllarining rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liqdir. Organizm bilan atrof-muhit o‘rtasidagi munosabat moslashuv negizida ro‘y beradi. I. P. Pavlovning fikricha, jonzot eng umumiy tavsifi shundan iboratki u o‘zining muayyan o‘ziga xos faoliyati bilan nafaqat tashqi kuzatuvchilarga balki shuningdek alohida davrida aloqada bo‘lgan boshqa ya'ni jonli mavjudot moslashish qobiliyatigaega bo‘ladi. Bu xususiyat turli tarzda namoyon bo‘ladi, unga faqat tor ma’noda qaramaslik kerak. Hayvonot turlarining katta guruxi ob-havo sharoitlariga ham sust va faol moslashadi. Shu nuqtai nazardan moslashuv shunday jarayondirki, u ham organizmlarga ham uni o‘rab turgan atrof muhitga ta’lluqlidir. Insoniyat jamiyati o‘zining butun tarixi davomida atrof muhit bilan uzliksiz-munosabatda bo‘ladi. Bunda u atrof muhitga muttasil moslashib boradi. Lekin bu moslashuv faol xarakterga ega bo‘ladi. O‘z atrofidagi muhitni va turmush tarzini asta-sekin

takomillashtira borish insonning moslashuvida ayni faol shakl hisoblanadi. Inson atrof muhitga o‘z ta’sirini mehnat orqali amalga oshiradi. Boshqa jonli organizmlardan farqli o‘laroq, ayni ishlab chiqarish tabiatni o‘zgartiruvchanlik faoliyati o‘ziga xos va insonga xos faoliyatidir. Inson o‘z atrofidagi muhitni shakllantiradi. Tabiat va inson jonli mavjudotlarni tashkil etadi. Jamiyat tabiatdan tashqari o‘zining noorganiq jismida yashay olmaydi. Xorijiy ijtimoiy amaliyotchilar, ijtimoiy gigienachilar fan texnika taraqqiyotining insoniyat taqdiriga ta’sirini baholab, fan va texnika o‘z-o‘zidan insoniyatni elektron jannatga olib keladi, deb xisoblaydilar. Unda hozirgi zamonning barcha ziddiyatlari bartaraf etiladi, odamlar va maorif rivoji ta'siri ostida eng oliy axloqiy sifatlarga ega bo‘ladilar. Keyingi vaqtda yangi texnikaning umumiy tez rivojlanishi bilan birga xavfsizlikni ta'minlashda ham sezilarli siljish kuzatilmoqda. Ammo hayotning barcha jabhalari jadal texnikalashayotgani, texnikaviy uskunalar sonining keskin ko‘payishi, ular hayoti tabiiy sharoitlarini uning sog‘lig‘i va hayotini muhofaza qilishning samarali chegaralari jiddiy ravishda keskinlashmoqda. Bu ziddiyat o‘z manbasiga ko‘ra ishlab chiqarish munosabatlari xarakteri bilan bog‘liq emas va texnikani keng qo‘llaydigan har bir jamiyatda paydo bulaveradi. Ammo ishlab chiqarish munosabatlari xarakteri bu ziddiyatlarni hal etishning shakl va usullariga o‘z ta'sirini ko‘rsatadi. o‘tmishdan xulosa chiqarib, ilmiy texnikaviy va muxandislik loyihalarini chinakamiga va ulkan miqyoslarga ijtimoiy ekspertiza qilishni yo‘lga qo‘yish zarur. Bu ishga keng jamoatchilikni jalb etish lozim. Ana shunda loyihalarni nazoratsiz ishlab chiqish va ularni amalga oshirish oqibatida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan ekologik va boshqa qusurlarni juda kamaytirish va qolaversa to‘la yo‘q qilisb mumkin. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish muammolari jiddiy tus olgan hozirgi davrda tabiat va jamiyat urtasidagi munasabatlarni muvozanatga keltirish asosiy vazifalardan xisoblanadi. Tabiat, inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik muammosi asosiy masalalardan biridir. Tabiat jamiyatning yashash muhiti, uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish manbai hisoblanadi. Jamiyat tabiat rivojlanishining oliy bosqichi bo‘lib, alohida ijtimoiy mazmunga ega. Tabiat va jamiyat o‘zaro uzviy boglangan bir butun materiyaning ikki qismi, o‘ziga xos ijtimoiy ekosistema hisoblanadi. Tabiat va jamiyatning o‘zaro aloqadorlik tizimida inson markaziy o‘rin egallaydi. Inson bir vaqtning o‘zida ham tabiat ham jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, ijtimoiy-biologik mohiyatga ega. Modda va energiya almashinuvi tabiat mavjudligining asosidir. Materiya xarakatning yuqori shakli bo‘lgan jamiyat tabiatning alohida qismi sifatida yashaydi va rivojlanadi. Jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida uning tabiatga bo‘lgan munosabati ham o‘zgarib borgan. Ibtidoiy jamoa tuzumida insoniyat tabiatga sezilarli ta'sir o‘tkazmagan. quldorlik tuzumida dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi tabiatga ta’sirning kuchayishiga sabab bo‘lgan. Atrof muhitning zararli chiqindilar bilan ifloslanishi muammosi kelib chiqdi. Tabiat va jamiyat o‘rtasida o‘ziga xos antropogen modda va energiya

almashinuvi vujudga keldi. Antropogen modda almashinuvi yani xom ashyolarini tabiatdan oshig‘i bilan olinishi va zararli chiqindi xolida atrof muhitga tashlanishi tabial va jamiyat o‘rtasidagi azaliy muvozanatning buzilishiga sabab bo‘ldi. Tabiat va jamiyat munosabatlarining rivojlanishida biogen, antropogen va texnogen (noogen) bosqichlar ajratiladi. Yer yuzida ekologik tang vaziyatli hududlarning keskin ko‘payishi ekologik inqiroz xavfining real ekanligini ko‘rsatadi. Agar keyingi 30-40 yil ichida ekologik muammolarni hal qilish uchun barcha zarur chora tadbirlar ko‘rilmasa, ekologik inqiroz muqarrar bo‘lib qolishi mumkin. Tabiat va jamiyatning o‘zaro mutanosib rivojlanishi koevolyutsiya deb ataladi. Bu rivojlanish suratlari o‘zaro mos kelmasa inqirozga olib keladi. Jamiyatning tabiatga ta'sirini meyorga solib turish lozimdir. Ekologiya deganda organizmlarning o‘zaro va muhit bilan aloqadorligini o‘rganadigan biologik fan tushuniladi. Tabiatni muhofaza qilish deganda barcha avlodlarning extiyojlarini hisobga olgan xolda tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va atrof muhitni mussafo xolida saqlashga qaratilgan, ilmiy asosda amalga oshiriladigan mahalliy, davlat va xalqaro tadbirlar majmuasi tushuniladi. Tabiatni muhofaza qilish deganda kompleks fan ham nazarda tutiladi.

Demak, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish tushunchalari alohida mazmun va maqsadga ega bo‘lgan tushunchalardir. Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko‘rsatayotgan ta’siri bilan bog‘liq xolda tabiatning insonga aks ta’siri, ya’ni uning iqtisodiyotida, hayotda xo‘jalik ahamiyatiga molik bo‘lgan jarayonlar, tabiiy xodisalar bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday xodisa tushuniladi. Biz tabiatsiz yashay olmaymiz, shunday ekan biz barchamiz tabiatni asrab avaylashimiz, uning har-bir qarich yerini ko‘z qorachig‘iday asrashimiz, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishimiz, har-bir tomchi suvni tejab ishlatishimiz, tabiat haqida doimo g‘amxo‘rlik qilishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M. I. Nuriddinova “Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi” T. 2005y

2. D. Sharipova, D. P. Xodiyeva, M. K. Shirinov. Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi. Toshkent. 2018 yil

3. A. Baxromov. Tabiatshunoslik. 4-sinf Umumiy o‘rta ta`lim maktablari uchun darslik. T:Sharq. NMIU. 2020.

4. Sangirova Z. B. va boshqalar. Tabiiy fanlar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. Toshkent- 2022. 136 b.

5. Suyarov K. T. va boshqalar. Tabiiy fanlar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. Toshkent- 2021. 120 b.

6. Suyarov K. T. va boshqalar. Tabiiy fanlar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. Toshkent- 2021. 88 b.

7. Suyarov K. T. va boshqalar. Tabiiy fanlar. 2-sinf o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. Toshkent- 2021. 112 b.

DIGITAL EDUCATION: FACTS AND VIEWS OF A NEW DEVELOPMENT

Yuldashev Mirzohid Maxmudjonovich
Andijon mashinasozlik institute

Abstract. This research explores the significance of studying education digitalization in today’s society. It aims to help young people identify themselves in the modern world and to address the lack of theoretical, content, and scientific development in this field. The article examines the current state and future prospects of education digitalization, focusing on its features and potential outcomes. Theoretical methods are employed to analyze the current state and envision the future of this transformative process. The research seeks to understand the prospects of education digitalization for young people’s self-identification in the modern era and to provide practical recommendations for addressing this pressing issue.

In today’s rapidly evolving world, the fourth industrial revolution is bringing about profound transformations across various domains. This state of affairs demands that the education system swiftly adapt to emerging requirements. One such area of transformation is the increasing prevalence of digital learning environments. Digitalization offers the opportunity to create personalized educational trajectories and facilitate continuous education, equipping individuals with the skills and knowledge necessary for the rapidly changing job market.

The current stage of social transformations in the field of digitalization is evident in various documents, such as the Decree of the President of the Russian Federation dated May 9, 2017, No. 203. This decree underscores the importance of digitalization in shaping the future of education and society as a whole.

Digital technologies have become an integral part of our lives, and concepts like “cyberspace, ” **“**cybersocium, ” and “cybersociality” have become our new reality. Education must adapt to this reality by introducing digital education.

The fourth industrial revolution has facilitated the transition of human society into cyber reality and transformed traditional education into a digital one.

The following research methods were used: theoretical analysis, synthesis, comparison, and systematization of facts that reflect the process of education environment digitalization; and searching for specific information to collect, select, process, and analyze data concerning modern scientific investigations that highlight the research problem.

According to the “generation theory, ” today we are dealing with the generation “Z, ” also known as the “digital” generation. This generation has several unique characteristics, including digital addiction, rapid intellectual development, susceptibility to informational influence, consumerism, developed clip thinking, low attention span, developed short-term memory, perceptual disorder, Attention-Deficit Hyperactivity Disorder and hyperactivity, autism tendencies, infantilization, blurring of life principles and guidance.

Therefore, the digitalization of the educational environment is focused on this generation, as well as those who understand the importance and necessity of analyzing and utilizing cutting-edge scientific developments for their professional and career growth.

Challenges and risks of digital learning. There are several digital learning challenges and risks that educational systems should consider. Some of these include the lack of a comprehensive digital learning psychological and pedagogical theory, inconsistencies in the understanding of information and knowledge as part of a sign system and person substructure, the absence of a “teacher-student” communication channel, the potential deterioration of speech and mental activity, the absence of the concept of “upbringing, ” the weakening of socialization, reduced social contacts and communication, leading to loneliness, the impossibility of shaping a systematic worldview, the weakening of imagination and creative thinking, and nomophobia, the fear of being without a mobile device (or any other gadget).

In the context of the current state of the educational environment, digitalization. Particularly the impact of the COVID-19 pandemic and the subsequent measures implemented by governments to prevent the spread of the virus, has led to a significant shift towards distance learning. This transformation has resulted in the widespread adoption of digital learning and distance education technologies, resulting in large-scale online education on various digital platforms.

Initially, there were several challenges associated with the transition to digital learning. Distance learning websites were overwhelmed and became inaccessible, there was a partial lack of computer equipment for education, and teachers were unprepared for the technical aspects of digital learning. Additionally, psychological discomfort was identified among learners, teachers, and parents, highlighting the need for psycho-pedagogical support.

Independent research conducted using digital media (messengers like Skype, Viber, Discord, WhatsApp, Telegram, and social networks like Facebook, VK, and Odnoklassniki) revealed a number of problems. A survey of 1619 individuals, including 1318 parents and 301 students, provided valuable insights into the challenges faced during the digital learning transition.

To assess the state of education digitalization, we conducted a survey among both categories of respondents. The responses to the question, “How many hours do you or your children spend on a computer during distance learning?” are presented in Table 1. For illustrative purposes, age categories are categorized based on the levels of education.

The results in Table 1 reveal that the minimum amount of time for primary level education is four times greater than the optimal time, while the maximum amount of time is six times greater. Additionally, learners of basic and secondary education spend a minimum of three times more time on a computer and a maximum of four times more time compared to the optimal time. These data indicate a lack of control over the time spent by learners during digital learning.

Based on the responses, the main digital learning problems were categorized according to the respondents ’categories.

The results in Table 3 show that learners faced significant challenges during digital learning. The survey results suggest that digital learning should be integrated into traditional education.

Digital learning perspectives. Digital learning offers opportunities for representatives of the Z generation to develop essential skills such as multilingualism and multiculturalism, multidisciplinary communication, project management, the ability to work under pressure and in rapidly changing conditions, control of attention, creativity, and proficiency in working with artificial intelligence, complex computer-aided systems operation, IT-solutions programming, and more. These skills are crucial for specialists in a “digital” society.

To ensure the effective evolution of digital learning, several requirements must be met. Firstly, educational organizations need to provide teachers with new-generation digital devices, sufficient software, and objective evaluation and feedback systems. Secondly, teacher training and professional development are essential to ensure that teachers have the necessary skills to effectively implement digital learning. Thirdly, teachers should be provided with digital study materials, educational games, and simulators. Fourthly, artificial intelligence technologies should be utilized to modify the education process based on the individual characteristics of learners.

In conclusion, digitalization of the educational environment, particularly digital education, is an integral part of modern education. The transition to digital learning is complex and multifaceted but is necessary in the current context of the fourth industrial revolution. However, this process should be implemented gradually, considering not only the necessary technical equipment but also professional training and retraining of teaching staff, methodological support for digital education, and early career guidance for learners in a “digital” society.

References:

1. Augmented Reality and Virtual Reality in Education by Giovanni Vincenti and Simone Mora

2. Virtual Reality and Education: Opportunities and Challenges by Melissa D. Loble and J. Christian Jones

3. Virtual and Augmented Reality in Education, Art, and Museums by Hanna Schraffenberger.

4. Yuldoshev I. A. “Ta‘lim texnologiyalari” O‘quvchilar mustaqil ta‘limini tashkil etishda mobil texnologiyalardan foydalanish. Maqola, 65-70 betlar

LEGOKONSTRUKSIYALASH STEAM TA’LIM MODULI SIFATIDA

Musurmonova Ruxshona Rasul qizi
A. Qodiriy nomidagi JDPU,
Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
Qilichova Marhabo Xudoyqulovna
A. Qodiriy nomidagi JDPU maktabgacha
talim yo‘nalishi 2- kurs talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar uchun STEAM ta’lim modulidan biri bo‘lgan legokonstruksiyaning ahamiyati haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: lego-konstruktorlar, konstruksiyalash, faoliyat, ta’lim, robototexnika, tasavvur, o ’xshashlik, sintez, dasturlash, rejalashtirish, modellashtirish, qobiliyat.

Аннотация. В этой статье рассматривается ценность конструирования LEGO как одного из модулей обучения STEAM для детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: легоконструкторы, конструирование, деятельность, обучение, робототехника, воображение, подобие, синтез, программирование, планирование, моделирование, способности.

Abstract. This article discusses the importance of Lego construction as one of the STEAM learning modules for preschool children.

Keywords: lego-constructors, construction, activity, education, robotics, imagination, similarity, synthesis, programming, planning, modeling, ability.

Lego-qurilish, konstruksiyalashning mazmun-mohiyati. Bolalalarni obyektlarni guruhlash, yangi tasvirlar yaratish, tasavvur qilish, o ’xshashlik va sintezdan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish. Qurish-yasash, konstruksiyalash bolalar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

Konstruksiyalash bolalaning eng sevimli faoliyatlaridan biridir. Qurish yasash, konstruksiyalash faoliyati - amaliy faoliyat bo‘lib, oldindan belgilangan, biror maqsadga qaratilgan real voqelikdir. Bu faoliyatga o‘rgatish jarayonida bolalaning aqliy, sensor, axloqiy, estetik va mehnat

tarbiyasi yanada shakllanib boradi. Bunday faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalani tevarak-atrofdagi narsa-buyumlarni tahlil qilish, ular haqida mustaqil fikr yuritish, maqsadga intilish, o ‘z faoliyatini rejalashtirishga undaydi, badiiy didini o‘stiradi, o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasini egallashga yordam beradi, o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etishga o ‘rgatadi, shuningdek, bolalarni maktabda o ‘qishga tayyorlaydi. Bolalar qurish-yasash, konstruksiyalash ishida qurish materiallari, ya’ni qog‘oz, karton, qurilish bloklari, lego, konstruktor, kubiklar, geometrik shakllar, tangram, mozaika, qutilar, geometrik loto, pazllar va boshqa materiallardan turli xil o‘yinchoqlar, inshootlar yasashga o ‘rganadi. Bu faoliyat orqali kichkintoylar geometrik shakllaming ayrim xossalari va ular bilan bog‘liq fazoviy tushunchalami egallay boradilar.

Lego-bot "bolalar uchun Lego-dizayn va robotika bo‘yicha ishlab chiqilgan bo‘lib, u maktabgacha yoshdagi bolalarda 3yoshdan 7 yoshlgacha texnik ijodkorlikni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Lego - qurilish va robototexnika bo‘yicha mashg‘ulotlar 10-12 kishidan iborat yosh guruhlari bo‘yicha, haftasiga 2 marta maxsus jixozlangan xonada amalga oshiriladi. Mashg‘ulotning davomiyligi bolalarning yosh guruhiga bog‘liq.

LEGO Education seriyasi barcha yoshdagi bolalar uchun to‘plamlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, har bir yosh uchun o‘lchamdagi eng qulay qismlar ishlab chiqilgan. Kichkintoylar to‘plamlari katta DUPLO qismlaridan iborat bo‘lib, kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalar esa standart o‘lchamdagi LEGO tizimi qismlari bilan ishlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun STEM kompetentsiyalarini o‘zlashtirish uchun dastlabki to‘plam STEAM Planet loyihasi bo‘lib, unda bolalar asosiy tushunchalarni o‘yin shaklida o‘rganadilar.

Qurish-yasash bolalar uchun eng sodda va qiziqarli, mahsuldor faoliyat turi bo‘lib, bu faoliyat o ‘yin bilan chambarchas bog‘lanib, yana ham maroqli tus kasb etadi. Bolalar o‘zlari qurilmalar yasaydilar, o‘yin jarayonida ularga turli xil o ‘zgartirishlar kiritadilar. Shu bois metodist olimlar qurish- yasash, konstruksiyalash faoliyatini “qurish- yasash o ‘yinlari” deb nomlaganlar. Bunda o ‘yin turli mazmunga ega bo‘lgan bolalar faoliyati orqali konstruksiyalash jarayoni bilan qo‘shilib ketadi. Qurish-yasash jarayoni ikki bosqichda amalga oshadi: g ‘oyaning vujudga kelishi (yaratiladigan qurilmaning namunasini yaratish, materiallarni tanlash, harakatni amalga oshirish yo’llarini topish va rejalashtirish) hamda amaliy faoliyatni ro‘yobga chiqarish. Keyingi holatda bola bajaruvchigina emas, balki

tadqiqotchi (ijodkor) bo‘lib faoliyat ko‘rsatadi, chunki u qo’llari bilangina harakat qilmay, fikr yuritadi ham: bir nechta yechimni tekshiradi, g‘oyalarni qisman o‘zgartiradi, detallarni moslaydi va hokazo.

Rivojlanish markazlarida bolalar faoliyatini samarali tashkil etish uchun qurish-yasash materiallari ko‘p bo‘lishi lozim. Tarbiyachi shu maqsadda qurish materiallari sifatida odamlar, hayvonlar, o‘simliklar, transportlarni ifodalovchi mayda o‘yinchoqlar tanlaydi. Bolalarning konstruksiyalash texnikasini yaxshi o‘zlashtirib olishlari uchun guruhlarda zarur shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Namunaga qarab qurish-yasash, konstruksiyalash bilan bogiiq faoliyat turida kichkintoylarni qurish materiallaridan cheklab qo‘ymay, har biriga keragicha taqsimlab berish lozim. Bunday sharoitda bolalarda zarur materialIarn tanlab olib ishlatish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi. Kichik qurilish materiallari asosida o ‘yinlar tashkil etish, mashg‘ulotlar o‘tkazishning ahamiyati katta. [1]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Legokonstruksiyalash bolalarni qurish yasashga bo‘lgan qiziqishlarini va har xil ijodiy faoliyatlarini yanada takomillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. "Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari" N. I. Ismailova

2. "Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari" Namangan davlat universiteti maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi. Ma'ruzalar matni

3. "Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari" R. Y. Maxmutazimova o‘quv qo‘lanma.

4. Sh. S. Sharipov, X. A. Meliyev, Sh. A. Buranova STEAM texnologiyalari doshkolnom obrazovanii T.: Издательство “Jizpi tipografiyasi”, 2023г. - C. 264

5. M. M. Berdiyeva Darslik. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari 2024 yil. NIF MSH nashriyoti.

6. Maxmudazimova Yulduz Raxmatovna. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma Toshkent “Tamaddin”2022 yil. 7. R. X. Bultakova., M. Qilichova., Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari JDPU-Taxririy nashriyot bo‘limi. 2024y

O‘QITISHDA O‘YIN ASOSIDAGI YONDOSHUVLAR VA SIMULYATSIYALAR: TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING YANGI YO‘LLARI

Toshtemirova Nodira Nematillayevna

Raqamli texnologiyalar va sun’iy intelektni rivojlantirish ilmiy tadqiqot instituti

doktorant, PhD, texnika fanlri nomzodi

nodira3110@mail. ru

Bizga ma’lumki, o‘qitishda o‘yin asosidagi yondoshuvlar va simulyatsiyalar: Ta'lim samaradorligini oshirishning yangi yo‘llari mavzusi zamonaviy ta'lim tizimida keng rivojlanayotgan yondoshuvlardan biridir. O‘yin asosidagi yondoshuvlar (gamification) va simulyatsiyalar ta'lim jarayonini qiziqarli, interaktiv va samarali qilishga yordam beradi. Bu yondoshuvlar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, bilimni chuqurlashtirish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bunda, o‘yin asosidagi yondoshuvlar (Gamification) va simulyatsiyalarni atroflicha ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, quyidagilarga ega bo‘lamiz:

1. O‘yin asosidagi yondoshuvlar (Gamification) - O‘yin asosidagi yondoshuvlar ta'lim jarayonini o‘yin tamoyillari yordamida qiziqarli va motivatsiyalovchi qilishni nazarda tutadi. Bu yondoshuv o‘quvchilarga o‘zaro musobaqalar, vazifalar va mukofotlar orqali o‘rganishni rag‘batlantiradi. O‘quvchilar o‘yin orqali o‘z bilimlarini baholash, yangi ma'lumotlar olish va muvaffaqiyatga erishish uchun ko‘proq harakat qilishga intiladi. O‘yin tamoyillari yordamida ta'limni o‘zgartirishda o‘quvchilarga muvaffaqiyatni nishonlash, yutuqlarni qayd etish va doimiy rivojlanish imkoniyatlari yaratiladi.

2. Simulyatsiyalar - Simulyatsiyalar o‘quvchilarga real hayotdagi vaziyatlarni o‘rganish va ular bilan yuzlashish imkonini beradi. Bu usul orqali o‘quvchilar turli xil muammolarni yechishda tajriba olishadi, xatolarini tahlil qilishadi va turli qarorlar qabul qilishni o‘rganishadi. Masalan, tibbiyot, muhandislik, iqtisodiyot kabi sohalarda simulyatsiyalar o‘quvchilarga amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va vaziyatlarga tezda moslashish imkonini beradi. Bu yondoshuv o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash va o‘rganish jarayonini mustahkamlashga yordam beradi.

3. Raqamli o‘yinlar va ta'lim platformalari - O‘yinlar va simulyatsiyalar raqamli platformalar yordamida yanada qulayroq va samarali tarzda joriy qilinmoqda. Online platformalar o‘quvchilarga o‘z bilimlarini baholash, doimiy teskari aloqa olish va o‘zaro ta'sirda bo‘lish imkoniyatlarini taqdim etadi. Shuningdek, bu platformalar o‘qituvchilarga o‘quvchilarning rivojlanishini kuzatib borish va o‘quv jarayonini yanada individual tarzda boshqarish imkoniyatini beradi.

Endi yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqadigan bo‘lsak, mavzuga oid muammolar va ularni yechish yo‘llarini ko‘rib chiqamiz.

1. Muammo: Texnologik infratuzilmaning yetishmasligi - Ko‘plab ta'lim muassasalarida raqamli o‘yinlar va simulyatsiyalarni qo‘llash uchun zarur texnologik infratuzilma yo‘q. Internetning cheklangan tezligi, zarur qurilmalar va platformalar bo‘lmasligi ta'lim jarayonining samarali bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi.

Uni yechish yo‘llari:

Ta'lim tizimida zarur texnologiyalarni (kompyuterlar, planshetlar, interaktiv taxtalar) taqdim etish.

Internet tezligini yaxshilash va onlayn platformalarni joriy qilish.

Xususiy va davlat sektori o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish.

2. Muammo: O‘qituvchilarning raqamli yondoshuvlarni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklari - Ba'zi o‘qituvchilar yangi texnologiyalar va o‘yin asosidagi ta'lim metodlarini o‘zlashtirishda qiynalishlari mumkin. Bu esa o‘quvchilarga raqamli o‘yinlar va simulyatsiyalarni samarali qo‘llashga to‘sqinlik qiladi.

Uni yechish yo‘llari:

O‘qituvchilarni raqamli ta'lim vositalari va gamification metodikasi bo‘yicha doimiy ravishda tayyorlash.

O‘qituvchilarga yangi texnologiyalarni qo‘llashda yordam beradigan resurslar, qo‘llanmalar va treninglar tashkil etish.

3. Muammo: O‘quvchilarning motivatsiyasini saqlashdagi qiyinchiliklar - Raqamli o‘yinlar va simulyatsiyalar orqali o‘rganishni qiziqarli qilish mumkin bo‘lsa-da, ba'zi o‘quvchilar o‘zlarini motivatsiya qila olmaydi yoki bu metodlarga qiziqish ko‘rsatmaydi.

Uni yechish yo‘llari:

O‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda o‘yinlar va simulyatsiyalarni ishlab chiqish.

O‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini baholash va mukofotlash tizimini joriy qilish.

O‘quvchilarga ta'limning amaliy ahamiyatini tushuntirish va o‘rganishning foydaliligini ko‘rsatish.

4. Muammo: Xavfsizlik va maxfiylik masalalari - Raqamli platformalarda o‘quvchilarning shaxsiy ma'lumotlari va xavfsizligini ta'minlash masalasi muhim ahamiyatga ega. Bu masalalar platformalar orqali ta'limni qo‘llashni cheklashi mumkin.

Uni yechish yo‘llari:

O‘quvchilarning ma'lumotlarini himoya qilish uchun maxfiylik siyosatlarini ishlab chiqish.

Ta'lim platformalarida xavfsizlikka oid qat'iy choralar ko‘rish, ma'lumotlar shifrlash va o‘quvchilarga onlayn xavfsizlikni ta'lim berish.

O‘z-o‘zidan kelib chiqib, muammo va uni bartaraf etish yo‘llaridan keyin bu borada takliflarimizni bersak bo‘ladi. Bular:

1. O‘qituvchilarni yangi ta'lim metodlari va texnologiyalariga doimiy ravishda tayyorlash - Treninglar va seminarlar orqali o‘qituvchilarga yangi metodlar, o‘yin asosidagi yondoshuvlar va simulyatsiyalarni qo‘llashni o‘rgatish.

2. Raqamli o‘yinlar va simulyatsiyalarni kengaytirish - O‘quvchilarning turli ehtiyojlari va qiziqishlariga mos keladigan o‘yinlar va simulyatsiyalarni ishlab chiqish.

3. O‘quvchilarga ta'limning amaliy ahamiyatini tushuntirish - O‘quvchilarga o‘rganishning foydaliligini va amaliy qo‘llanilishini ko‘rsatish uchun real hayotdagi vaziyatlarni simulyatsiyalash.

4. Xavfsizlik va maxfiylikni ta'minlash - Raqamli ta'lim platformalarida xavfsizlikni ta'minlash va o‘quvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish.

Demak, yuqorida zikr etilganlarni hisobga olgan holda xulosa qiladigan bo‘lsak, bunda o‘yin asosidagi yondoshuvlar va simulyatsiyalar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, bilimni chuqurlashtirish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda samarali vositalar bo‘lishi mumkin. Biroq, bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta'lim tizimida zarur texnologik infratuzilma, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalari va xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur. Shuningdek, o‘quvchilarni yangi ta'lim metodlariga moslashtirish va o‘rganishning foydaliligini tushuntirish ta'lim jarayonining samarali bo‘lishini ta'minlaydi. Agar bu muammolarni yechish uchun zarur choralar ko‘rilsa, o‘yin asosidagi yondoshuvlar va simulyatsiyalar ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. B. B. Qodirov, Sun’iy intellekt va ta’limdagi innovatsiyalar. Toshkent: “G‘afur G‘ulom” nashriyoti, 2018 yil. 180 b.

2. S. J. Maxmudov, Raqamli va sun’iy intellektning ta’limdagi o‘rni. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2019 yil. 220 b.

3. Sh. R. To‘xtov, Sun’iy intellekt va ta’limdagi roli. Toshkent: “Fan va texnika” nashriyoti, 2020 yil. 250 b.

4. A. M. Hamidov, Oliy ta’limdagi innovatsion metodlar: raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosida. Toshkent: “Ta’lim va ilm” nashriyoti, 2021 yil. 300 b.

5. M. T. Abdullaev, S. A. Mirzaev, Oliy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2022 yil. 180 b.

GEYMIFIKASIYA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING FANLARGA BO‘LGAN QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRUVCHI METOD SIFATIDA

Xaitova N. F.

JDPU, boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi dosenti

Ma’lumki, bugungi kunda, dunyoda geymifikasiyaning shaxs ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ta’siri, bolalarning chuqur bilim olishini ta’minlash, geymifikasiyani ijtimoiy, pedagogik va psixologik nuqtai nazardan tadqiq etish, o‘yin faoliyatining ilmiy-metodologik asoslarini ishlab chiqishga doir qator tadqiqotlar olib borilmoqda.

Geymifikasiya rivojlanish dinamikasidagi bolalar o‘tasidagi farqlarni reprezentativ bo‘lishi ta'minlangandagina o‘quv jarayoniga kiritilsa samarali natija berishi mumkin. Istalgan boshqa metodikalar kabi, mazkur metodika turli xil murakkablikdagi vazifalarni qo‘llashni o‘z ichiga oladi, bu turli xil rivojlanish darajalarini ko‘rsatuvchi o‘quvchilar tomonidan bajariladi. Shu bilan birga, turli darajadagi vazifalarni bajarish guruhda nizolar chiqishiga sabab bo‘la olmaydi, chunki aslini olganda, o‘quvchilar bir jamoadir, ular bir maqsadga intiluvchi kollektiv tarzda umumiy maqsadga baribir olg‘a intiladilar. O‘yinlashtirishda jamoaviylik hamda to‘g‘ri ijtimoiylashuvni ta’minlash uchug individual topshiriqlarni kamroq qo‘llanilash maqsadga muvofiq va individual vazifalar o‘quvchilarda salbiy natijalarga olib boruvchi hissiyotlarni paydo qilmasligi uchun bir qancha istisnolardan iborat yo‘riqnomalarni ishlab chiqish lozim.

Inson taraqqiy etishi doimiy ravishda yangiliklar, innovasiyalarning joriy etilishi hamda barcha yangiliklarni qo‘llash kabi, geymifikasiya sohalasida ham muayyan qonuniyatlarning amal qilishini kuzatish mumkin:

1) bola psixikasining o‘ziga xos bo‘lgan individual jihatlari, komponentlari, shuningdek, inson tana a’zolarining turlicha rivojlanishi;

2) bolaning ijtimoiy, jismoniy, aqliy va jihatdan tekis rivojlanmasligi. Bu bolaning ayrim jihatlarda tezroq, boshqalarida sekinroq rivojlanishini nazarda tutadi.

Mazkur qonuniyatlar ta’limni geymifikasiyalash jarayonini psixologlar va o‘qituvchilar tomonidan ushbu bir tekis bo‘lmagan rivojlanish bosqichlarini inobatga olishga undaydi va psixofizik rivojlanishning notekisligi ta’lim jarayonida o‘yinlardan foydalanish zaruriyatini ham izohlaydi.

Ta’limni o‘yinlashtirish metodikalari juda xilma-xil bo‘lish bilan birga o‘zgaruvchandir, uning vositalari va usullarini o‘quv jarayoniga joriy etilishining istalgan bosqichida qulay o‘zgartirish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, geymifikasiyani o‘quvchilarning ma’lum sinfda tahsil olayotgan davridagi ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslash mumkin.

Xulosa qilish mumkinki, ta’lim jarayonida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish boshlang‘ich ta’lim jarayonini o‘ta qiziqarli, hayajonli qila oladi. Bundan tashqari, o‘yinlarni nafaqat chet tili, matematika, tabiiy fanlarga, balki boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun asosiy fanlar bo‘lgan har qanday fanga joriy etish, istalgan tanlangan mavzuga tadbiq qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Khaitova N. F. History of Gamification and Its Role in the Educational Process. // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. ISSN 2364-5369, Volume 8, Issue 5, May, 2021, 212-216 p. (Impact Factor: 6, 76)

2. Xaitova N. F. Geymifikasiyadan foydalanish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari motivasiyasini rivojlantirish // O‘zMU xabarlari ilmiy jurnali, Toshkent 2021, 1/5. – B. 224-227. (13. 00. 00 №15)

3. Sattarov A. R., D. Jomurodov, N. Xaitova. Amaliy topshiriqlarni bajarishga mo‘ljallangan mobil texnologiyalariga asoslangan o‘qitish metodlari // "innovasion va zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim, fan va boshqaruv sohalarida qo‘llash istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy–amaliy onlayn konferentsiyasi materiallari. –Samarqand, SamDU nashri, 2020. -B 436-439.

PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR YORDAMIDA O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Nazirov Kamoliddin Xusnitdinovich,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU,
Karimov Yusuf Narzullayevich
Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim jarayonini raqamli vositalar asosida tashkil qilish zarurati, zamonaviy axborot texnologiyalari va pedagogik dasturiy vositalarni joriy etish orqali dars samaradorligini oshirish yo‘llari muhokama qilingan. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning fizikaga bo‘lgan qiziqishini oshirish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, raqamli ta’lim, axborot texnologiyalari, dasturiy vositalar.

Bugungi kunda ta’limning zamonaviy talablari o‘qituvchilarni o‘z pedagogik faoliyatini qayta ko‘rib chiqishga, raqamli texnologiyalarni keng qo‘llashga undamoqda. Ayniqsa, fizika kabi aniq fanlarni o‘qitishda turli dasturiy vositalardan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi va nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatini beradi. Raqamli texnologiyalar ta’limda quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga imkon beradi: o‘quv materiallarini yanada qiziqarli va tushunarli taqdim etish, talabalarning mustaqil o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirish, statistik ma’lumotlar orqali o‘quvchilarni baholash va bilimlarini tahlil qilish [1-3].

Raqamli ta’lim tizimi va pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish bir qancha afzalliklarni ta’minlaydi:

Interaktivlik: O‘quvchilar dars jarayonida faol qatnashadilar, natijada bilimlarni amalda qo‘llash imkoniyatlari oshadi.

Moslashuvchanlik: O‘quv dasturlarini har bir talabaning bilim darajasiga moslashtirish imkoniyati mavjud.

Masofaviy ta’lim: Internet vositalaridan foydalanib, o‘qituvchilar va talabalar masofadan turib ham samarali ta’lim olishi mumkin.

Ta’lim jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalangan holda darslarni tashkillashtirish uchun maxsus dasturiy ta’minotlar bo’lishi kerak. Bugungi kunda o‘qitishning ananaviy ko‘rinishidan farq qiladigan zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘qitishni tashkil etish yuqori samaradorlikka erishishga imkoniyat yaratadi. Fizika fanini o‘qitish borasida o‘quvchilar ongida nazariy modelning tasavvurlarini shakllantirish, hodisalar va jarayonlar bilan tanishtirishning samarali metodlarini ishlab chiqish muhimdir. Fizik va matematik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish uchun informatsion texnologiyaga oid bilimlardan keng foydalaniladi [4-7]. Ta’lim tizimida multimediyali elektron o‘quv adabiyotlar, ma’ruzalar, virtual labaratoriya ishlari, har xil animatsion dasturlar va yana boshqa ishlarni yaratishda kerak bo‘ladigan maxsus dasturlar mavjud. Fizik jarayonlarni modellashtirish imkoniyatini beradigan dasturlarga: Origin, MathCad, MatLab, Maple, Crocodile Physics, Electronics, Workbench, Interactive Physics va boshqa dastur paketlarini misol keltirish mumkin. Shu bilan birga tayyor ochiq kodli Phet pedagogik dasduriy ta’minoti ham mavjuddir. Phet pedagogik dasturiy paketini Kalorada uinversiteti olimlari tomonidan ishlab chiqilgan va keng ommoga ochiq kod bilan tarqatilgan. Bu dastur paketining afzalliklari juda ko’p bo’lib shulardan:

-laboratoriya sharoitida amalga oshira olmaydigan fizik, matematik, kimyoviy va biologik jarayonlarni modellashtirilgan holatda kuzatishimiz mumkin,

-bu ishlarni amalga oshirishimiz uchun real va va ortiqcha resurs talab qilinmaydi (modellashtirilgan ishlarni qayta va qayta kompyuterda bajarishimiz mumkin)

-dastur ilovasini bir marta o‘rnatib offlayn ko‘rinishida foydalanaverishimiz mumkin

-dasturning kompyuter versiyasi bilan bir qatorda mobil versiyasi ham mavjuddir

Bu pedagogik dasturiy vositalar yordamida o‘rganuvchi o‘quvchilar istalgan paytda fizik jarayonlarni to‘xtatib qo‘yishi, orqaga qaytarishi hamda dastlabki parametrlarni o‘zgartirib jarayonning ishtirokchisidek his qilishi mumkin. Fizik jarayonni o‘rganish albatta ma’lum bir model, ya’ni mazkur jarayonning mavhumlashtirilgan, soddalashtirilgan obrazi asosida olib boriladi. Real fizik jarayonning immitatsion kompyuter modelini yaratishda ma’lum bir model asos qilib olinadi [8-10].

Shuningdek modellashtirishning o‘ziga xos muhim tomonlari shundaki, turli xil fizik qurilma va asboblar tayyorlash shart emas, hodisalarni jonli va tabiiy ko‘rinishda tasvirlanishi, tajribani oz fursat ichida istalgan marta takrorlash mumkinligi, kuzatish qiyin bo‘lgan yoki umuman kuzatilishi mumkin bo‘lmagan jarayonlarni ham namoyish eta olish imkoniyatiga egaligi. O‘qituvchi-professorga bu pedagogik dasturiy vositalar kompyuter monitorida shuningdek, multimedia proyektori yordamida ko‘pgina fizik effektlarni namoyish etishning hamda yangi noan’anaviy o‘qitish turini takomillashtirishning imkonini beradi. Bugungi kunga kelib informatsion texnologiyalardan foydalanish ko‘zga ko‘rinmas, tez yoki sekin o‘tuvchi jarayonlarning, murakkab hodisalarning fizik mexanizmlarni animatsiya qilish imkonini yaratadi.

Raqamli texnologiyalar va dasturiy vositalar nafaqat fizika, balki boshqa barcha fanlarni o‘qitishda ham samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu vositalarni ta’lim jarayonida to‘g‘ri va samarali qo‘llash orqali, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi ortadi, bilimlarni mustahkamlash jarayoni esa tezlashadi. Shunday ekan ta’lim jarayoniga zamonoviy texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’limning sifat va samaradorligini oshirishimiz mumkin. Fundamental fizik nazariyalarga asosan fizika kursi materiallari to‘g‘ri va yagona sistemaga keltirilgan. Bu esa fan olamidagi barcha ilmiy yo‘nalishlarning g‘oyalari asosidagi ilmiy bilimlar talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish uchun asos bo‘ladi, degan xulosaga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. X. N. Karimov, A. E. Imamov, E. Z. Imamov, //Development of creative thinking in higher education. // Science and innovation» international scientific journal. (ISSN: 2181-3337) 2023. No3. -C. 359-361.

2. X. N. Karimov. //Fizika fanini o‘qitishda virtual laboratoriya ishidan foydalanish. // “Yosh olimlar, doktarantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi” materiallar to‘plami. –P. 102-104

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, raqamli ta'lim vositalarining samaradorligi, interaktiv o‘yinlar va simulyatsiyalar yordamida o‘quvchilarga ta'limni yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Bu vositalar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, o‘rganish jarayonini individualizatsiya qiladi va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Biroq, raqamli ta'limning samarali ishlashi uchun zarur infratuzilma, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalari va xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. M. Hamidov, Oliy ta’limdagi innovatsion metodlar: raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosida. Toshkent: «Ta’lim va ilm» nashriyoti, 2021 yil. 300 b.

2. M. T. Abdullaev, S. A. Mirzaev, Oliy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2022 yil. 180 b.

3. I. N. Saidov, Raqamli texnologiyalarni o‘qituvchilar tayyorgarligida qo‘llash. Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2022 yil. 270 b.

4. G. M. Nurmatova, Innovatsion pedagogika: raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalari. Toshkent: “Islom Karimov” nashriyoti, 2023 yil. 240 b.

5. M. K. Sultonov, Fan ta’limida raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalari. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2023 yil. 215 b.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Mamasoliyeva Shirinoy Sirojiddin qizi
University of economics and pedagogika
“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish afzalliklarini tahlil qiladi. Ta'lim jarayonida sun'iy intellektning roli doimiy ravishda ortib bormoqda va bu texnologiyalar o‘qituvchilarga individual yondoshuv, o‘quvchilarni samarali baholash, interaktiv ta'lim materiallari yaratish va pedagogik faoliyatni optimallashtirishda yordam beradi. Maqolada SI texnologiyalarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun asosiy afzalliklari va ularning o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga ta'siri ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, SI ning ta'limga kiritilishining ijtimoiy va axloqiy jihatlari ham muhokama qilinadi. O‘qituvchilarning professional rivojlanishida sun'iy intellektning qo‘llanilishi ham o‘z o‘rnini topgan.

Abstract. This article analyzes the benefits of using artificial intelligence (AI) technologies for future primary school teachers. The role of artificial intelligence in the educational process is constantly increasing, and these technologies help teachers in individual approach, effective assessment of students, creation of interactive educational materials and optimization of pedagogical activities. The article examines the main advantages of SI technologies for primary school teachers and their impact on the learning process of students. Also discussed are the social and ethical aspects of the inclusion of SI in education. The use of artificial intelligence has also found its place in the professional development of teachers.

Kalit so‘zlar: Sun'iy intellect. (SI)Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari. Ta'lim texnologiyalari. Individual yondoshuv. O‘quvchilarni baholash. Interaktiv ta'lim. Pedagogik innovatsiyalar. Ta'lim samaradorligi. Axloqiy masalalar. O‘qituvchilarning professional rivojlanishi.

Zamonaviy ta'lim tizimi har doim o‘qituvchilarni yangicha pedagogik yondoshuvlar, metodlar va vositalar bilan ta'minlashni talab qilmoqda. Bugungi kunda ta'limning sifatini yaxshilash va o‘quvchilarni yanada samarali tarzda ta'limlash uchun sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta'lim sohasiga kiritilishi dolzarb masala bo‘lib, bu pedagogik jarayonni modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun SI ning afzalliklari, ularning ta'lim metodologiyasiga qo‘shgan yangi imkoniyatlari, o‘qitish samaradorligini oshirishdagi roli haqidagi ilmiy tadqiqotlar bugungi ta'lim

sohasi uchun alohida ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt - bu kompyuter tizimlarining inson miyasi kabi o‘rganish, qaror qabul qilish, tafakkur qilish va muammolarni hal etish qobiliyatini ifodalovchi texnologiyalardir. Ta'lim sohasida sun'iy intellekt texnologiyalari o‘qituvchilarga dars berish usullarini yanada samarali, interaktiv va individualizatsiyalashgan tarzda rivojlantirish imkonini beradi. SI yordamida o‘qitish jarayonida quyidagi muhim afzalliklarga erishish mumkin. Sun'iy intellekt (SI) sohasidagi texnologik taraqqiyot dunyo miqyosida tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston ham o‘z ta'lim, sanoat va iqtisodiyot sohalarida sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etishga intilmoqda. SI ning rivoji nafaqat texnologik yutuqlarga, balki jamiyatning barcha sohalarida samarali integratsiyasiga, yangi ish o‘rinlari yaratishga va iqtisodiy barqarorlikka katta ta'sir ko‘rsatishi kutilmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekistondagi sun'iy intellektning rivoji, davlat siyosati, asosiy tashabbuslar va kelajakda bu sohaning imkoniyatlari tahlil qilinadi. O‘zbekiston uchun sun'iy intellekt sohasidagi rivojlanish nisbatan yangi bo‘lsa-da, u katta e'tibor va strategik tashabbuslarni talab qilmoqda. 2020-yillardan boshlab, O‘zbekiston hukumati SI sohasidagi rivojlanish uchun bir qator milliy strategiyalar va dasturlarni ishlab chiqishga kirishdi. Ushbu dasturlarning asosiy maqsadi sun'iy intellektni sanoat, ta'lim, tibbiyot, agrar sohalar va davlat boshqaruvida samarali qo‘llashdir. O‘zbekistonda ta'lim tizimida ham sun'iy intellektni joriy qilish bo‘yicha bir qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash maqsadida, bir nechta universitetlar va ilmiy tadqiqot institutlari SI sohasida maxsus kurslar va o‘quv dasturlarini taklif qilmoqda. Shuningdek, mamlakatda sun'iy intellektning ta'limdagi rolini kuchaytirish maqsadida, zamonaviy o‘quv vositalari, interaktiv ta'lim platformalari va masofaviy o‘qitish tizimlarini ishlab chiqish ishlari olib borilmoqda.

Individual yondoshuvni ta'minlash. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun sun'iy intellekt texnologiyalari har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlarini aniqlashda yordam beradi. SI yordamida o‘qituvchilar o‘quvchilarning tezligini va muvaffaqiyatini real vaqt rejimida tahlil qilishi mumkin. Bu o‘z navbatida, o‘quvchilarga individual ravishda qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish imkonini yaratadi. Masalan, sun'iy intellekt asosidagi tizimlar orqali o‘quvchilarni bilim darajalariga qarab moslashtirilgan mashqlar yoki topshiriqlar taqdim etish mumkin.

O‘qitish sifatini oshirish. SI yordamida o‘qituvchilar o‘quvchilarning darsdagi qatnashishini va o‘qish jarayonidagi faolligini kuzatib borishlari mumkin. O‘quvchilarning xatolari va tushunmovchiliklarini avtomatik tarzda aniqlash, ularning xatolarini to‘g‘rilashda yordam beruvchi tizimlar ta'lim jarayonini optimallashtiradi. Sun'iy intellekt algoritmlari

yordamida o‘qituvchilar o‘quvchilarning xatolarini tushunish va ularni qanday tuzatish kerakligini ko‘rsatuvchi tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Interaktiv va o‘zlashtirishni osonlashtirish. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun sun'iy intellekt asosidagi o‘yinlar va interaktiv materiallar o‘quvchilarning o‘zlashtirishini sezilarli darajada oshiradi. Ta'limda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni darsga qiziqtiradi va ularning faolligini oshiradi. Sun'iy intellekt tizimlari o‘quvchilar bilan interaktiv tarzda ishlashga yordam beradi, masalan, ularni darsga qiziqtiruvchi video va ilovalar orqali yanada o‘zlashtirishga yordam beradi.

Pedagogik ma'lumotlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish. Sun'iy intellekt o‘qituvchilarga pedagogik faoliyatni yaxshilash uchun zarur bo‘lgan statistik ma'lumotlarni taqdim etadi. O‘qituvchilar, masalan, o‘quvchilarning dastlabki ko‘nikmalarini, darsdagi faolligini, yutuqlari va kamchiliklarini tahlil qilib, o‘quvchilarni rivojlantirishda yanada samarali qarorlar qabul qilishlari mumkin. Bu, o‘z navbatida, darslar va dasturlarni individuallashtirish va optimallashtirish imkonini yaratadi.

O‘qituvchilarning professional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash. Sun'iy intellekt o‘qituvchilarga o‘z bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Masalan, SI tizimlari o‘qituvchilarga dars materiallarini tayyorlash, o‘quvchilarga individual yondoshuvlarni ishlab chiqish, ularni o‘qitish va baholashda foydali vositalarni taklif qiladi. O‘qituvchilarga yangiliklar va pedagogik yondoshuvlar bilan tanishish uchun onlayn kurslar va treninglar tashkil etilishi mumkin.

Darslarni avtomatlashtirish va samaradorligini oshirish. Sun'iy intellekt yordamida darslarni avtomatlashtirish imkoniyatlari mavjud. Masalan, o‘qituvchilar darsni o‘tkazish jarayonida vaqtni tejash uchun SI tizimlaridan foydalanishi mumkin. Bu o‘qituvchilarga ko‘proq vaqtni o‘quvchilarning yutuqlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan faoliyatga sarflash imkonini beradi.

Sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga kiritilishi, albatta, bir qator ijtimoiy va axloqiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, SI texnologiyalarining adolatli va insonparvar tarzda qo‘llanilishini ta'minlash uchun axloqiy me'yorlarga rioya etishlari zarur. Masalan, o‘quvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, sun'iy intellektning haqiqatni tasvirlashdagi cheklovlari va o‘qituvchilarni texnologiyalarga qarshi ortiqcha qaram bo‘lishining oldini olish zarur.

O‘zbekistonda sun'iy intellektning rivoji sezilarli sur'atlar bilan davom etmoqda va u bir qator sohalarda innovatsiyalar va samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Hukumat tomonidan qo‘llanilayotgan tashabbuslar va texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha amalga

oshirilayotgan islohotlar O‘zbekistonni sun'iy intellekt texnologiyalari sohasida jahon miqyosida raqobatbardosh qilishga qaratilgan. Shuningdek, sun'iy intellektning ta'limda, sog‘liqni saqlashda, sanoatda va boshqa sohalarda qo‘llanilishi O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonini jadallashtiradi. Sun'iy intellektning bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun afzalliklari ko‘plab ijobiy jihatlarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchilarning dars berish uslublarini optimallashtirish, o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim tizimlarini yaratish, va ta'lim samaradorligini oshirishda sun'iy intellektning o‘rni beqiyosdir. Biroq, texnologiyaning ahamiyatini anglash bilan birga, ularning axloqiy, ijtimoiy va ma'naviy masalalariga ham jiddiy e'tibor berish zarur. Bo‘lajak o‘qituvchilar sun'iy intellektni to‘g‘ri va samarali tarzda qo‘llash orqali, ta'limni yangi darajaga ko‘tarish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O‘zbekiston 2030" strategiyasiga oid farmoni (2019).

2. Isroilov, A. (2021). "Sun'iy intellekt va uning iqtisodiyotdagi roli". *O‘zbekiston ilmiy va texnologik yangiliklari*.

3. Anderson, C. (2021). "Artificial Intelligence in Education: Opportunities and Challenges". *Journal of Educational Technology & Society*.

4. Shah, P. (2023). "AI in the Classroom: A Future Perspective for Teaching". *International Journal of Educational Research*.

5. Aliyev, T. (2020). "Pedagogical Integration of Artificial Intelligence: New Horizons in Teaching". *Uzbekistan Education Journal*.

6. Zhang, J., & Wang, H. (2022). "AI-Driven Learning: The Future of Pedagogical Innovation". *Education and Information Technologies*.

KIMYO FANIDAN ELEKTRON INTERAKTIV QO‘LLANMALAR VA ELEKTRON TA’LIM RESURSLARINI YARATISH

Julboyev To‘lqin Abduvaliyevich
Normatov Niyatulla Raxmat o‘g‘li
Shodiyorova O‘g‘iloy Abdurashid qizi
Jizzax Davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonida mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini samarali tashkil qilishda turli elektron axborot ta’lim resurslarni yaratishga alohida ahamiyat

berish talab etiladi. Mustaqil ta’lim olishda zamonaviy axborot texnologiyalari ya’ni kompyuterning dasturiy vositalari asosida yaratilgan elektron o‘quv-uslubiy materiallar, elektron darsliklardan foydalanish, ta’limning masofadan o‘qitish usullarini amalda joriy etish va umumjahon elektron o‘quv tizimiga kirishdan iborat.

Аннотация. It is necessary to give special importance to the creation of various electronic information and educational resources in the effective organization of independent educational activities during the educational process in educational institutions. Independent education consists of the use of modern information technologies, i. e. electronic teaching and methodical materials created on the basis of computer software, the use of electronic textbooks, the practical implementation of distance learning methods and access to the universal electronic educational system.

Abstract. Особое значение для эффективной организации самостоятельной образовательной деятельности в образовательном процессе в образовательных учреждениях необходимо придавать созданию различных электронных информационно-образовательных ресурсов. Самостоятельное обучение заключается в использовании современных информационных технологий, т. е. электронных учебно-методических материалов, созданных на основе компьютерных программ, использовании электронных учебников, практической реализации методов дистанционного обучения, а также в доступе к универсальной электронной образовательной системе.

Kalit so‘zlar: elektron darslik, kompyuter texnologiyalar, audio, video, animatsiya, davlat ta’lim standarti, xalqaro ta’lim standarti, multimedia, grafik, jadval, rasm, gipermatn, ovoz, grafik, jadval.

Ключевые слова: электронная книга, компьютерные технологии, аудио, видео, анимация, государственный образовательный стандарт, международный образовательный стандарт, мультимедиа, графика, таблица, рисунок, гипертекст, звук, графика, таблица.

Keywords: electronic book, computer technology, audio, video, animation, state education standard, international education standard, multimedia, graphic, table, picture, hypertext, sound, graphic, table.

Elektron darslik kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta’lim metodlardan foydalanishga mo‘ljallangan o‘qitish vositasi bo‘lib, kimyo fanlari bo‘yicha mustaqil ta’lim olishda va o‘quv materiallarini har tomonlama samarali o‘zlashtirishda eng asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Elektron darslikda fanning o‘quv materiallari talabaga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o‘rinli foydalaniladi.

Kimyo fanlari bo‘yicha elektron darslik va o‘quv qo‘llanma ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan, zamonaviy texnik vositalar va texnologiyaning mahsuli hisoblanadi. Elektron darsliklar yangi ta’lim shakli-masofaviy ta’limning asosiy o‘quv-uslubiy yadrosini tashkil etadi. O‘qitish samaradorligini oshirishda zamonaviy informatsion-pedagogik texnologiyalar, jumladan, elektron darsliklardan foydalanish alohida o‘rin egallaydi.

Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini yuqori saviyada tashkil qilish uchun davlat ta’lim standartlari hamda xalqaro ta’lim standartlariga to‘liq javob bera oladigan o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash masalasi dolzarb hisoblanadi. Amaliy sharoitda, eskirgan konsepsiyalar elektron o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va darslik sifatida talqin etishga harakat qilinayotgan elektron mahsulotlar disketlarda elektron shaklda mavjud bo‘lgan matnlar va o‘quv materiallari va boshqalarining yaratilishiga olib keladi.

Darslik-talaba uchun asosiy quroli hisoblanib, darsliklarsiz fan bo‘yicha mustahkam va keng qamrovli bilim va malakalarga ega bo‘la olmaydi. Insoniyat tarixida darslik kabi yosh avlodga bilimlami ketma-ket yetkazuvchi qulay vosita yaratilmagan. Bizning davrimizda kompyuterli, audiovizual va boshqa yangi o‘qitish vositalari qanchalik rivojlanib borishiga qaramasdan, darsliklar o‘z ahamiyatini hali yo‘qotgan emas, chunki u eng samarali hamda eng ko‘p tarqalgan pedagogik model va o‘rganish vositasi bo‘lgan va shunday bo‘lib ham qoladi. Elektron darslik xattoki, u eng yaxshi deb hisoblanganda ham an’anaviy bosma o‘quv adabiyotlar o‘rnini egallay olmaydi. Elektron darslikning mavjud bo‘lishi nafaqat oddiy darslikni o‘qib-o‘rganishni almashtirmasligi, balki talabalarda kimyo fanini sir –sinoatlarinni o‘rganishda kitob o‘qishga qiziqish uyg‘otishi kerak. Shuning uchun ham elektron darslik yaratish uchun yaxshi yozilgan darsliklarning mavjud bo‘lishi yetarli emas ekan. Uni navigatsiyalar, gipermatnlarni tuzib chiqish bilan jihozlash va illustrativ materiallar, multimedia va vositalarini qo‘shgan holda boyitish va kompyuter ekranida jozibali ko‘rinishlarda akslanishga erishish kerak.

Kimyo fanidan elektron darslikning an’anaviy darslikdan asosiy farqlandan biri matn, rasm va virtual ko‘rinishda ishlab chiqarishda, majmuaviy va jamoaviy yondoshuvning mavjudligidir. Haqiqatdan ham, agar ananaviy darslik bitta muallif tomonidan yaratilishi mumkin bo‘lsa, elektron darslik bir yoki bir necha mualliflar va dasturchilar tomonidan bir qator mutaxassislardan iborat alohida ijodiy jamoa tomonidan yaratiladi. Elektron darslik talabalarining bilim olishi va ayniqsa, masofaviy o‘qish shakllarida mustaqil ishlash uchun zarur, chunki ular: o‘rganilayotgan materialni an’anaviy qog‘ozga chop etilgan o‘quv adabiyotlariga nisbatan boshqacha: induktiv yondoshish, eshitish, emotsional xotiralarga ta’sir qilish yo‘llari bilan materialni yetkazish hisobiga uni tushunishni yengillashtiradi, talabalaming ehtiyojiga, tayyorgarlik darajasiga, intellektual imkoniyatlariga mos holda rivojlantiradi, fanning mohiyatiga diqqatni jalb etgan hamda ko‘p

sondagi misollami ko‘rib chiqish va ko‘proq masalalar yechishga imkon yaratgan holda, murakkab hisoblashlar va almashtirishlardan xalos etadi, o‘rganishning hamma bosqichlarida o‘z-o‘zini tekshirib ko‘rish uchun keng imkoniyatlar beradi, ishni chiroyli va aniq rasmiylashtirilishiga hamda uni o‘qituvchiga fayl yoki qog‘ozga chop etgan holda topshirishga imkon beradi, o‘ta toqatli ustoz rolini cheklanmagan tushuntirishlar, sanoqsiz takrorlashlar, eslatishlami taqdim qilgan holda bajaradi.

Elektron darslik ixtisoslashgan auditoriyalarda o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar uchun juda qulay, chunki ular: kompyuterli qo‘llab-quvvatlashlardan foydalangan holda katta miqdordagi masalalami yechishga, topilgan yechimlami va ulaming grafik talqinini tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan vaqtdan ozod bo‘lishiga, o‘qituvchiga o‘zida rahbarlik va maslahatchi (konsultant) rolini qoldirgan holda, kompyuter oldida mustaqil ish shaklida mashg‘ulot o‘tkazishga, o‘qituvchiga tekshirish tadbirlari tarkibi va murakkablik darajalarini belgilagan holda kompyuter yordamida talabalar bilimini tez va samarali nazoratdan o‘tkazishga imkon beradi.

Elektron darsliklami loyihalashtirish, ishlab chiqish va o‘quv jarayonida keng foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda, chunki ulardan ommaviy ravishda ta’lim sohasida qo‘llanila boshlandi Oxirgi vaqtlarda elektron o‘quv nashrlaming turli xillari yaratilib, ular o‘z tarikibiga oddiy gipermatn darslikdan tortib masofaviy o‘qitishning kompleks tizimlarigacha qamrab olmoqda.

Elektron darsliklami quyidagi turlarga ajratish mumkin: matnmng elektron versiyasi, kitobning gipermatnli elektron versiyasi; grafik, jadval, rasmlar va gipermatnlar mavjud darslik, animatsiya, ovoz, grafik, jadval, rasmlar va gipermatnlar mavjud darslik va animatsiya, ovoz, grafik, jadval, rasm, gipermatnli va test tizimlari mavjud darsliklar.

Ushbu sohaning yangiligi va o‘quv-uslubiy ta’minotning yo‘qligi ishlab chiqilayottan elektron darsliklaming sifat darajasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, darsliklami yaratishning yagona standartlari majud emasligi va dasturiy vositalarining turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilishi elektron darsliklami o‘quv jarayonida samarali qo‘llashga to‘sqinlik qilyapti deyish mumkin. Shuning uchun ham yaratilayotgan elektron darsliklami baholash mezonlarini belgilab olish lozim. Elektron darsliklar o‘tilayotgan darslar sifatini yuksaltirishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini bilish kerak.

Elektron darsliklarning an’anaviy usullarga nisbatan quyidagi afzalliklarini keltirish mumkin: o‘quv axborotlarining taqdim etilish shakli, kerakli axborotlami qidirish imkoniyati, olingan bilimlar darajasini nazorat qilish usullarining mavjudligi, o‘qituvchi bilan teskari aloqaning mavjudligi.

Shulardan kelib chiqib, elektron darsliklami yaratishning quyidagi tamoyillarini keltirish mumkin: multimedia ma’lumotlari matn, grafik, audio, video, animatsiya asosida axborotlarni taqdim etish, qidirish va yo‘llash imkoniyatlarini kiritish, olingan bilimlar darajasini nazorat qilishning obyektiv tizimini kiritish, tarmoq texnologiyalari asosida o‘qituvchi va talabaning o‘zaro interaktiv va teskari aloqasining yo‘lga qo‘yilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 2020 yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.

3. Sultonov M. M., Julboyev T. A., Xolboyev O. N., Bakaxonov A. A., Babayev B. N. Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash. O‘quv qo‘llanma. Ilm nuri print, 2024. - 188 b.

4. Q. M. Karimov, B. E. Daminova. “Ta’limda axborot texnologiyalari” fanidan laboratoriya ishlari. Qarshi- 2019.

5. X. E. Tangirov, R. M. Yusupov, A. Shamsiyev. O‘qitishning elektron vositalarini yaratish texnologiyasi. T.: “Fan va texnologiya”, 2017. 180 b.

21-ASR KOMPETENSIYALARINING TARKIBI VA ULARDA KREATIV FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING O‘RNI

Tashmatova Shalola Ravshanbekovna

Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada 21-asr kompetensiyalari va kreativ fikrlashning ahamiyati tahlil qilingan. Unda zamonaviy ta‘lim tizimining global muammolarni hal qilish va innovatsiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan jihatlari ochib berilgan. Kreativ fikrlashni rivojlantirishning asosiy usullari, jumladan, qayta o‘ylash va rejalashtirish, muntazam mashqlar va interaktiv texnologiyalarni qo‘llashning roli batafsil yoritilgan. Ushbu usullar orqali o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini shakllantirishga va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishga yo‘naltirilgan metodlar taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: Kreativlik, ijodkorlik, ijodiy strategiyala, ijodiy yondoshish, kreativlikni rivojlantirish bosqichlari.

21-asr — bu yangi texnologiyalar, innovatsiyalar va global aloqalar asri bo‘ lib, bu davrda har bir shaxsdan tez o‘zgaruvchan va raqobatbardosh dunyoda muvaffaqiyatli bo lish uchun turli

kompetensiyalarni egallash talab etiladi. Ushbu kompetensiyalar nafaqat bilimlar, balki individual qobiliyatlarni ham oz ichiga oladi. 21-asr kompetensiyalarining tarkibi juda keng, ular orasida kreativ fikrlash (yaratish va yangiliklarni ishlab chiqish)ning oz orni ham alohida muhimdir. Bu maqolada 21-asr kompetensiyalarining tarkibi va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning ahamiyati haqida soyuritamiz.

21-asr kompetensiyalari ta‘lim va ish dunyosidagi tub o‘zgarishlar ta‘sirida shakllanib, shaxslarni tez o‘zgarayotgan dunyoda muvaffaqiyatli bo‘lishga tayyorlashni ko‘zda tutadi. Ushbu kompetensiyalar odamlarning nafaqat bilimlari, balki malakalari, qobiliyatlari va munosabatlarini rivojlantirishni talab qiladi. Quyida ularning har bir yo‘nalishi haqida batafsil ma‘lumot beramiz.

Kritik fikrlash va muammolarni hal qilish. Bugungi dunyo murakkab va ko‘p qirrali muammolarga to‘la. Shaxslar ushbu muammolarni tahlil qila olish, sabab va oqibatlarni aniqlash hamda mantiqiy, ijodiy yondashuv orqali yechim topa olish qobiliyatiga ega bo‘lishlari lozim. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Tahliliy fikrlash: Muammolarni asosli tahlil qilish va dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish.

Muammolarga innovatsion yondashuv: Standart yechimlardan chiqib, yangi, yanada samarali usullarni topish.

Hamkorlik va jamoada ishlash.

Global dunyo bir-biriga bog‘langan tizimga aylanmoqda, fugiens uchun hamkorlik va jamoada ishlash qobiliyati yuqori baholanadi.

Samarali jamoaviy ish:

Kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish: Boshqalar bilan ochiq va aniq muloqot qilish, fikr almashish.

Turli madaniyatlarni qabul qilish: Global muhitda turli millat va madaniyat vakillari bilan ishlash qobiliyatini talab qiladi.

Ishonch va mas‘uliyatni bo‘lishish: Jamoa ichida ishonchli hamkor bo‘lish, o‘z vazifasini mas‘uliyat bilan bajarish.

Texnologik savodxonlik.

Raqamli asrda yashash zamonaviy texnologiyalarni tushunish va ulardan samarali foydalanishni talab etadi. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Raqamli vositalarni o‘zlashtirish: Kompyuter dasturlari, mobil ilovalar va turli platformalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Texnologiya orqali innovatsiyalar yaratish: Raqamli vositalarni kreativ yechimlar va yangi imkoniyatlarni topish uchun qo‘llash.

Moslashuvchanlik va o‘zgarishlarga tezda javob berish

21-asrning dinamik dunyosida o‘zgarishlar normaga aylangan. Shaxslar o‘zgarishlarga moslashish va yangi vaziyatlarga tezda javob berish uchun quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

O‘zgaruvchan sharoitlarni qabul qilish: Kutilmagan holatlarga nisbatan moslashuvchan bo‘lish.

Muntazam o‘qish va rivojlanish: Hayot davomida o‘z bilim va ko‘nikmalarini yangilash.

Stressga chidamlilik: Bosim va noaniqlik sharoitida samarali ishlash.

Kreativ fikrlash va innovatsiyalar

Kreativ fikrlash 21-asr kompetensiyalarining lat muhim tarkibiy qismi bo‘lib, shaxsning mavjud muammolarga yangicha yondashishi va innovatsion yechimlar topishini talab qiladi. Kreativ fikrlashni rivojlantirish zamonaviy jamiyatning ko‘plab sohalarida katta ahamiyat kasb etadi:

Kreativ fikrlashning asosiy jihatlari;

G‘oyalarni yaratish:

Yangi, o‘ziga xos g‘oyalar ishlab chiqish.

Standart va odatiy yondashuvlardan voz kechish.

Noan‘anaviy fikrlash:

Masalalarni o‘zgacha ko‘rinishda ko‘ra bilish.

Turli qarashlarni birlashtirib, yangi yechimlarni sintez qilish.

Innovatsion ishlanmalar:

Amaliy jihatdan foydali va samarali texnologiyalar, mahsulotlar yoki xizmatlar yaratish.

Kreativ fikrlashning rolini oshirish yo‘llari:

Ijodkorlikka undovchi muhit yaratish: Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni erkin fikr bildirish va yangi g‘oyalar taklif qilishga rag‘batlantirish.

O‘yin va simulyatsiyalar: Texnologiyalar yordamida kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar va o‘yinlar.

Ko‘p fanli yondashuvlar: Turli sohalar bilimlarini birlashtirish orqali innovatsion fikrlarni shakllantirish.

Kreativlikning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati:

Iqtisodiyotda kreativlik: Yangi mahsulot va xizmatlar yaratish orqali kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirish.

Jamiyatda kreativlik: Murakkab ijtimoiy muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash.

21-asr kompetensiyalari shaxslarni nafaqat muvaffaqiyatga, balki jahon miqyosida samarali bo‘lishga tayyorlaydi. Ayniqsa, kreativ fikrlash va innovatsiyalar global muammolarga yechim topish hamda yangi imkoniyatlarni ochishda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Bu kompetensiyalarni rivojlantirish orqali shaxslar nafaqat o‘z hayotini, balki jamiyatning umumiy farovonligini oshirishga hissa qo‘sha oladi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish ta‘lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, u nafaqat o‘quvchilarning, balki o‘qituvchilarning ham innovatsion qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Zamonaviy ta‘limda kreativlikni oshirish uchun turli metod va vositalardan foydalanish mumkin. Quyida ushbu usullarni batafsil yoritamiz.

1. Qayta o‘ylash va rejalashtirish

O‘quvchilarni mavjud muammolarni turli usullar bilan hal qilishga undash ularning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Asosiy tamoyillar:

Savol-javob usuli: Muammolarni qayta ko‘rib chiqish va har bir savolga turli javoblarni izlash orqali o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni kuchaytirish.

Alternativ variantlarni izlash: Bir masala bo‘yicha bir necha yechim taklif qilishni talab etish. Masalan, muammoga an‘anaviy va noan‘anaviy yondashuvlarni ishlab chiqish.

Loyiha rejalashtirish: O‘quvchilarga o‘zg‘oyalarini amalga oshirish rejasini tuzish va uni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini berish.

Misollar:

Ijtimoiy muammolarni hal qilishda turli rolli o‘yinlar yoki bahs-munozaralar o‘tkazish.

Mavjud texnologiyalardan yangi mahsulot yoki xizmat yaratish bo‘yicha loyiha topshiriqlari berish.

2. "Aqliy hujum" (Brainstorming)

" Aqliy hujum " — bu jamoaviy ish orqali kreativ fikrlashni rivojlantirishning samarali metodlaridan biri. Ushbu usul o‘quvchilar va o‘qituvchilarning erkin ravishda o‘zg‘oyalarini ifodalash va yangi fikrlar ishlab chiqishlariga imkon beradi.

Amalga oshirish bosqichlari:

Guruh tashkil qilish: O‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratish.

Erkin fikr bildirish: Har bir ishtirokchi o‘z fikrini hech qanday tanqid yoki to‘xtovsiz aytishi kerak.

G‘oyalarni yig‘ish: Har bir g‘oya muhokama qilinmaydi, balki ro‘yxat shaklida yig‘iladi.

Tahlil va saralash: Qiziqarli va ijodiy yechimlar muhokama qilinadi hamda lat samaralilari tanlanadi.

Foydalari:

Jamoaviy muloqotni rivojlantiradi.

Turli qarashlar va tajribalarni birlashtiradi.

Erkin fikr almashinuvi orqali innovatsion yondashuvlarni kashf etadi.

3. Qayta ishlash va mashq qilish

Muntazam mashqlar va ijodiy ishlar orqali kreativ fikrlashni shakllantirish mumkin. Bu usul shaxsning o‘z tajribalaridan saboq chiqarishi va ularni yangicha yondashuvlarda qo‘llashiga yordam beradi.

Qo‘llash usullari:

Ijodiy vazifalar berish: Mavjud predmetlarga yangi xususiyatlarni qo‘shish yoki ulardan noodatiy foydalanish yo‘llarini topish. Masalan, oddiy qog‘oz qutini kreativ mahsulotga aylantirish.

Tajriba ishlari: Fan yoki texnologiya darslarida amaliy tajribalarni o‘tkazish. Bu jarayonda o‘quvchilar o‘z natijalarini tahlil qilib, ularni yaxshilashga harakat qilishadi.

Refleksiya va qayta aloqa: O‘quvchilar o‘z ijodiy ishlarini qayta ko‘rib chiqib, o‘zo‘zini baholash orqali yangi g‘oyalarni rivojlantiradi.

Misol vazifalar:

"Mahsulotni yaxshilash": Kundalik foydalaniladigan buyumlarga yangi funksiyalarni qo‘shish.

"Yaratishdan qayta yaratishga": Bir nechta kichik elementlarni ishlatib, yangi mahsulot yaratish.

4. Interaktiv texnologiyalarni qo‘llash

Zamonaviy texnologiyalar kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Virtual muhitlar, onlayn platformalar va o‘yinlar ta‘lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Interaktiv texnologiyalarning afzalliklari:

Simulyatsiyalar va o‘yinlar: Maxsus o‘yinlar va simulyatsiyalar orqali o‘quvchilar virtual muhitda turli muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Konstruktiv muhit yaratish: Onlayn muhitda o‘quvchilar o‘z loyihalarini yaratishlari va boshqalar bilan baham ko‘rishlari mumkin.

AI va texnologiyalardan foydalanish: Sun‘iy intellekt vositalari orqali o‘quvchilarga turli sohalar bo‘yicha kreativ yondashuvlarni o‘rganishga yordam berish.

Amaliy misollar:

Minecraft Education Edition kabi platformalarda o‘quvchilar o‘z virtual dunyolarini yaratadilar va loyihalarini quradilar.

Virtual reallik (VR) texnologiyalari yordamida turli muammolarni sinovdan o‘tkazish va yechimlarni ishlab chiqish.

Grafika va dizayn dasturlaridan foydalanib, san‘at va texnologiyani birlashtirish.

21-asrda kreativ fikrlashning roli ortib boradi, chunki texnologik va iqtisodiy o zgarishlar shaxsiy va jamiyatlar darajasida innovatsiyalarni talab qiladi. Shu bois, ta‘lim tizimi va ish joylarida kreativ fikrlashni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish kerak. Yangi texnologiyalar va yangi iqtisodiy sharoitlarda, yaratish va innovatsiyalarni oz ichiga olgan yondashuvlar jamiyatning rivojlanishiga katta hissa qo`shadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joyizki, kreativ fikrlashni rivojlantirish ta‘lim jarayonining markaziy elementlaridan biridir. Ushbu qobiliyat nafaqat individual shaxsiy o‘sish uchun, balki jamiyatning umumiy taraqqiyotida ham katta rol o‘ynaydi. Qayta o‘ylash va rejalashtirish, "miya zarbasi", muntazam mashqlar va interaktiv texnologiyalarni qo‘llash kabi usullar shaxslarning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bunday yondashuvlar bilan ta‘minlangan ta‘lim tizimi kelajakda innovatsiyalarni kashf etuvchi va global muammolarga yechim topuvchi shaxslarni yetishtirishga qodir bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muslimov N. A., Inoyatev U. I., Usmonboyeva M., Inog‘omova D. “Pedagogika:1000 ta savolga 1000 ta javob”/ Metodik qo‘llanma –T.: TDPU, 2012. -193-b.

2. Beghetto, R. and J. Kaufman (2014), «Classroom contexts for creativity», High Ability Studies, Vol. 25/1, pp. 53-69, http://dx. doi. org/10. 1080/13598139.

2014. 905247.

3. Ishmuhamedov R, M. Yuldashev. “Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. ” (ta‘lim tizimi xodimlari, metodistlar, o‘qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o‘quv qo‘llanma) Toshkent-2017, 366 bet.

4. R. Mavlonova, N. Raxmankulova, N. Vohidova. “Pedagogika nazariyasi va tarixi. ” Darslik. -T.: Fan va texnologiyalar. 2010.

5. Ibragimova G. Ijodkor pedagoglarda shaxs xususiyatlarini namoyon bo‘lishi// Xalq ta‘limi. -Toshkent, 2010. –B. 40-43.

DEVELOPMENT OF READING AND SPEAKING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL USING INTERACTIVE METHODS

Shoyusupova Shakhzoda
Lecturer, Department of Methodology of Primary Education, ChDPU
Kuchkorova Zarina
Student, Department of Methodology of Primary Education, CHPU

Abstract. This article examines the use of interactive methods to enhance reading and speaking skills in primary school students. In the modern educational landscape, traditional methods are often insufficient for fostering active student participation and language acquisition. Interactive techniques, including storytelling, role-playing, and cooperative games, provide an engaging environment that promotes skill development. The paper explores theoretical frameworks, practical applications, and outcomes from research, offering a model for integrating interactive methods in primary classrooms.

Keywords: reading skills, speaking skills, interactive methods, primary education, language development

Introduction

The development of reading and speaking skills in primary school students is a cornerstone of language education. These skills form the basis of effective communication, critical thinking, and academic success. In primary education, where students are at the foundational stage of language acquisition, fostering these abilities requires thoughtful planning and innovative approaches. However, traditional teaching methods, which often rely on rote learning and passive instruction, can fail to address the dynamic needs of young learners.

Interactive methods in education have emerged as an effective alternative to traditional techniques. These approaches actively engage students in the learning process, transforming the classroom into an interactive space where students become participants rather than mere recipients of information. Through group activities, discussions, and hands-on tasks, students not only learn but also experience the language in meaningful and enjoyable ways.

The relevance of interactive methods is particularly significant in the context of 21st-century education. With a growing emphasis on the "4 Cs" — critical thinking, communication, collaboration, and creativity — educators are challenged to prepare students for a future that values adaptability and interpersonal skills. Interactive techniques not only enhance linguistic

competence but also align with this broader educational paradigm, equipping students with the tools to thrive in diverse social and academic environments.

The primary objective of this article is to explore the use of interactive methods to develop reading and speaking skills in primary school students. By integrating innovative activities into the curriculum, teachers can foster an environment where students feel motivated and confident to learn. This paper discusses theoretical foundations, practical applications, and empirical findings to highlight the effectiveness of interactive methods in primary education.

In addressing the topic, this article aims to answer the following questions:

How can interactive methods be effectively incorporated into primary education to enhance reading and speaking skills?

What specific activities and strategies have proven successful in engaging young learners?

What measurable outcomes can be achieved through the implementation of these methods?

By presenting evidence-based insights and practical recommendations, this article seeks to contribute to the growing body of literature on innovative teaching methods in primary education. It also aims to provide educators with actionable strategies to create a dynamic and student-centered classroom environment.

The ability to read and speak effectively is fundamental in primary education as it lays the groundwork for lifelong learning. However, the challenge for educators lies in designing activities that maintain student interest while fostering language development. Interactive methods, which prioritize active participation, collaborative learning, and real-world relevance, are increasingly recognized as effective tools for achieving these goals.

This article investigates how interactive methods can enhance the reading and speaking skills of primary school students. It draws on both theoretical insights and practical implementations to propose strategies that educators can use in their classrooms.

Interactive methods are rooted in constructivist learning theories, particularly those proposed by Piaget and Vygotsky, which emphasize the role of social interaction and active engagement in learning. These methods encourage students to participate actively rather than passively receive information, fostering critical thinking and communication skills.

This study involved a four-week intervention with a group of 30 fourth-grade students. The lessons were designed to integrate reading and speaking skills through interactive activities. The pre-test and post-test assessments measured students' progress in reading fluency, comprehension, and speaking ability.

Sample Activities:

-Students collaboratively created and narrated a story. Each student contributed a sentence, practicing both reading aloud and spontaneous speaking.

- Students acted out dialogues from storybooks, helping them understand context and practice expressive speaking.

- Small groups read stories together, discussing themes and characters to enhance comprehension and encourage verbal interaction.

- Games such as "Find the Word" and "Guess the Character" were used to make reading fun while improving vocabulary.

The results revealed significant improvements in both reading and speaking skills. Students demonstrated increased fluency in reading aloud and showed greater confidence in expressing their ideas during discussions. The collaborative nature of the activities fostered peer learning and reduced the fear of making mistakes.

Enhanced Engagement: Students were more attentive and enthusiastic during interactive lessons compared to traditional ones.

Improved Comprehension: Discussing stories and role-playing helped students grasp deeper meanings of texts.

Confidence in Speaking: Regular practice in a supportive environment reduced hesitation and promoted verbal fluency.

Conclusion

The integration of interactive methods into primary education has proven to be a transformative approach for developing students' reading and speaking skills. Traditional teaching practices, while foundational, often lack the engagement and adaptability necessary to meet the diverse needs of young learners in the 21st century. By fostering active participation, collaboration, and meaningful engagement, interactive methods bridge the gap between theoretical knowledge and practical application.

This study highlights the effectiveness of techniques such as storytelling, role-playing, and cooperative games in creating an immersive learning environment. These methods not only enhance linguistic proficiency but also nurture confidence, creativity, and critical thinking. The data collected during the four-week intervention underscores the significant improvement in students' reading fluency, comprehension, and speaking abilities.

One of the key takeaways from this research is the importance of student-centered learning environments. Interactive methods empower students to take ownership of their learning journey, fostering intrinsic motivation and a love for language. By making lessons enjoyable and relevant,

educators can address common challenges such as lack of attention, language anxiety, and passive learning behaviors.

This research opens several avenues for further exploration. Long-term studies could examine the sustained impact of interactive methods on language proficiency, while comparative analyses could investigate their effectiveness across different age groups and learning environments. Additionally, integrating technology into these methods could further enhance their effectiveness and scalability. By embracing interactive methods, educators can unlock the full potential of primary school students, preparing them not only to succeed academically but also to navigate an increasingly interconnected world with confidence and competence.

References:

1. Piaget, J. (1976). The Child's Conception of the World.

2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.

3. Pinter, A. (2011). Children Learning Second Languages.

4. Shoyusupova, S. (2024). TECHNOLOGY OF PROFESSIONAL SKILLS DEVELOPMENT OF PRIMARY EDUCATION STUDENTS. *Web of Teachers: Inderscience Research*, *2*(9), 87-91.

THE INFLUENCE OF MARXISM ON 20th CENTURY LITERARY CRITICISM

Inoyatova Gulruxsor Do‘stnazar qizi

Chirchik State Pedagogical University, Faculty of Tourism,

Department of Foreign Language and literature (English),

Bachelor degree students

Abstract. This study explores the profound impact of Marxism on 20th-century literary criticism, highlighting its emergence as a critical framework that reshaped literary theory and analysis. Beginning with the foundational texts of Karl Marx and Friedrich Engels, the paper examines how Marxist theory, particularly the concepts of class struggle, ideology, and historical materialism, influenced critical approaches to literature. Key figures such as Georg Lukas’s, Antonio Gramsci, and later, the Frankfurt School, are analyzed for their contributions to the intersection of literature and socio-political critique. The analysis also addresses the adaptation of Marxist thought in various literary movements, including socialist realism and post-colonial literature. Additionally, the paper considers critiques of Marxism within literary studies, exploring tensions between ideology and aesthetic form. Ultimately, the study underscores the lasting legacy

of Marxist criticism in shaping contemporary literary discourse and its ongoing relevance in addressing issues of power, representation, and social justice in literature**.**

Keywords: literary criticism, critical framework, theory and analysis, ideology, historical materialism, exploring tensions and aesthetic form.

Introduction. Marxist literary criticism is a theory of literary criticism based on the historical materialism developed by philosopher and economist Karl Marx. Marxist critics argue that even art and literature themselves form social institutions and have specific ideological functions, based on the background and ideology of their authors. The English literary critic and cultural theorist Terry Eagleton defines Marxist criticism this way: "Marxist criticism is not merely a 'sociology of literature', concerned with how novels get published and whether they mention the working class. Its aims to explain the literary work more fully; and this means a sensitive attention to its forms, styles and, meanings. But it also means grasping those forms styles and meanings as the product of a particular history. " In Marxist criticism, class struggle and relations of production are the central instruments in analysis. Most Marxist critics who were writing in what could chronologically be specified as the early period of Marxist literary criticism, subscribed to what has come to be called "vulgar Marxism". In this thinking of the structure of societies, literary texts are one register of the superstructure, which is determined by the economic base of any given society. Therefore, literary texts reflect the economic base rather than "the social institutions from which they originate" for all social institutions, or more precisely human–social relationships, are in the final analysis determined by the economic base.

Karl Marx's studies have provided a basis for much in socialist theory and research. Marxism aims to revolutionize the concept of work through creating a classless society built on control and ownership of the means of production. In such a society, the means of production (the base in the architectural metaphor Marx uses to analyze and describe the structure of any given society in written human history) are possessed in common by all people rather than being owned by an elite ruling class. Marx believed that economic determinism, dialectical materialism and class struggle were the three principles that explained his theories. (Though Marx does attribute a teleological function to the economic, he is no determinist. As he and Friedrich Engels write in The Communist Manifesto, the class struggle in its capitalist phase could well end "in the common ruin of the contending classes, " and as Terry Eagleton argues in Why Marx Was Right, "Capitalism can be used to build socialism, but there is no sense in which the whole historical process is secretly laboring towards this goal. ") The bourgeoisie (dominant class who control and own the means of production) and the proletariat (subordinate class: ones who do not own and control the means of production) were the only two classes who engaged in hostile interaction to achieve class

consciousness. (In Marx's thought, it is only the proletariat, the working class, that must achieve class consciousness. The bourgeoisie is already quite well aware of its position and power in the capitalist paradigm. As individuals, workers know that they are being exploited in order to produce surplus value, the value produced by the worker that the capitalists appropriate; however, the working class must realize that they are being exploited not only as individuals but as a class. It is upon this realization that the working class reaches class consciousness). Marx believed that all history is a struggle between hostile and competing economic classes in a state of change. Marx and Engels collaborated to produce a range of publications based on capitalism, class struggles, and socialist movements.

These theories and ideologies can be found within three published works:

The Communist Manifesto (1848)

Preface to the Contribution to the Critique of Political Economy (1859)

Das Kapital or Capital (1867)

The core publication of the movement, the Communist Manifesto (1848), argues that 'the history of all hitherto existing societies is the history of class struggles'. As class struggle is the engine room of history, to understand the course of history, one must analyze the class relations that typify different historical epochs, the antagonisms, and forms of class struggle embodied in such class relations. This involves the development of class consciousness and follows the revolutionary movements that challenge the dominant classes. It extends to rating the success of these revolutions in developing new modes of production and forms of social organization. In contrast to the Manifesto, Preface to the Contribution to the Critique of Political Economy (1859) and Capital (1867) focus on the unfolding logic of a system, rather than class struggle. These provide an alternative account of historical development and emphasize the self-destructive contradictions and law of motion of specific modes of production. Preface argues that society's economic organization consists of a distinctive pattern of forces and relations of productions. From this foundation arises a complex political and ideological superstructure, where economic development impacts societal progress.

Marxism profoundly influenced 20th-century literary criticism by providing a framework that emphasized the relationship between literature and socio-economic conditions. Critics utilized Marxist theory to analyze how class struggles, materialism, and ideology shape literary texts and their reception. This perspective not only challenged traditional aesthetic values but also encouraged a focus on marginalized voices and the socio-political context of literary production. As a result, Marxism opened new avenues for understanding literature as a reflection and critique of societal structures, ultimately reshaping critical discourse and inspiring various movements,

5. Умарова Ф. А., Умаров Х. А. Масофадан ўқитиш, интернет ва бошқа манбалардан фойдаланиш орқали дарс самарадорлигини ошириш //Сборники конференций НИЦ Социосфера. – Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro, 2016. – №. 9. – С. 219-221.

VR SIMULYATSIYALAR ORQALI FIZIKA FANINI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Usmonov Saidjon Abdusubxon o‘g‘li

Farg‘ona jamoat salomatligini tibbiyot instituti, Farg‘ona shahri

Annotatsiya. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalaridagi fizika fani virtual laboratoriya ishlari, amaliy topshiriqlar simulyatsion tajribalarining yangi bilimlar manbai, fizikaviy nazariyalarning fundamental asoslari, o‘qitish usuli, o‘rganilayotgan hodisalarni vizuallashtirish – illustrasiya qilish, talabalarning fizikaviy tafakkurini rivojlantirish, amaliy malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish vositalari ekanligi ko‘zda tutilgan.

Kalit so‘zlar: Kadrlar esa mavjud resurslarni to‘g‘ri baholay bilgan holda tajribada to‘g‘ri qo‘llay bilishi ham kerak.

Fizika eksperimental fandir. Fizika - fani va fizika - o‘quv predmeti o‘rtasida chambarchas bog‘liqlik mavjud bo‘lganligi sababli, fizikani o‘qitish jarayoni tajribaga asoslangan bir nechta fundamental qoidalar asosida talabalar uchun yangi fizik tushunchalar va nazariyalarni izchil shakllantirishdan iborat. Fizikadan o‘quv jarayonida tajribadan foydalanish bizga quyidagilarga imkon beradi:

· o‘rganilayotgan hodisalarni pedagogik jihatdan o‘zgartiriladigan shaklda ko‘rsatish va shu bilan ularni o‘rganish uchun zarur eksperimental bazani yaratish;

· fanda o‘rnatilgan qonun va qonuniyatlarni talabalar uchun qulay shaklda ko‘rsatish va ularning mazmunini talabalarga tushunarli qilish;

· o‘qitishning ko‘rgazmaliligini oshirish;

· talabalarni fizik hodisalarni o‘rganishning eksperimental usuli bilan tanishtirish;

· o‘rganilayotgan fizik hodisalarning texnika, texnologiya va kundalik hayotda qo‘llanilishini tushuntirish;

· talabalarning fizika fanini o‘rganishga qiziqishini oshirish;

· bilim va eksperimental ko‘nikmalarni shakllantirish.

Yuqoridagilar bilan bog‘liq holda o‘quv eksperimenti ikki turga bo‘linadi:

1- Ko‘rgazmali (ma’ruza namoyish) 2 - Laboratoriya (amaliy topshiriq).


Laboratoriya eksperimentini o‘qituvchi va talabalar faoliyatining xarakterini to‘liq aks ettiruvchi tashkiliy xususiyatlariga ko‘ra tasniflash qulay. Ushbu tasnifga ko‘ra o‘quv laboratoriya tajribasining to‘rt turi mavjud: · frontal laboratoriya ishi; · klinika va ustaxonalar;

· uyda kuzatishlar va tajribalar; · eksperimental vazifalar.

Ko‘rgazmali eksperiment o‘qitish usuli sifatida illustrativ usullarga mansub. Ko‘rgazmali eksperimentda asosiy boshlovchi o‘qituvchi bo‘lib, u nafaqat o‘quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil qiladi, balki tajribalar namoyishini ham o‘tkazadi. Ko‘rgazmali eksperimentning sezilarli kamchiligi bor - talabalar qurilmalar bilan ishlamaydilar (garchi ularning ba’zilari ko‘rgazmalar tayyorlashda ishtirok etishlari mumkin). Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarining fizika modulining har bir mavzusidan ma’ruzalar ro‘yxati dasturlarda, sillabuslarda mavjud bo‘lib, har bir ma’ruza bo‘yicha taqdimotlar yaratib ularga asoslangan ko‘rgazmali darslar o‘tilishi ko‘zda tutiladi. U, birinchi navbatda, zamonaviy fizikaning eksperimental bazasini tashkil etuvchi tajribalarni o‘z ichiga oladi, ular fundamental deb ataladi, bular, birinchi navbatda, Galiley, Stoks, Kavendish, Shtern, Ersted, Faraday, Gers, Stoletov va boshqalar. Ulardan ba’zilari institutning laboratoriya sharoitida yetarlicha ishonchlilik bilan namoyish etilishi mumkin, boshqalari esa murakkab va qimmatbaho jihozlarni talab qiladi (Lebedev, Milliken, Rezerford, Yadro reaksiyasi tajribalari) va shuning uchun ularni faqat kino, televizor yoki kompyuter texnologiyalari yordamida modellashtirish mumkin.

Bu tajribalarni sahnalashtirish imkon qadar aniq, tushuntirish esa o‘ylangan bo‘lishi va tajribaning nafaqat fizik mohiyatini, balki uning fizika fanlari tizimidagi o‘rnini ham aks ettirishi kerak. O‘rganilgan fizik hodisalar va nazariyalarni texnika, texnologiya va kundalik hayotda qo‘llashnilishini ko‘rsatish. Bunday tajribalarni namoyish qilish nafaqat fizika, tibbiyot va texnika o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish, balki talabalarni zamonaviy texnologik jamiyat sharoitida hayotga tayyorlash uchun ham zarurdir. Texnik va texnologik xarakterdagi ob’ektlar bilan tanishish fizikani o‘rganish motivatsiyasini shakllantirishga yordam beradi, talabalarning ilgari o‘rganilgan jismoniy hodisalar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish va tizimlashtirishga imkon beradi. Jismoniy hodisalar va nazariyalarga kognitiv qiziqishni qo‘zg‘atish va faollashtirish uchun. Samarali ko‘rgazmali eksperiment talabalarning faol kognitiv faoliyatiga turtki bo‘lishi mumkin, ayniqsa muammoli xarakterga ega bo‘lsa. (Masalan, sirt taranglik kuchlari hisobiga gaz emboliyasining qon tomirida hosil bo‘lishini namoyish qilish suyuqlikning sirt taranglik xususiyatlarini o‘rganish uchun asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammoli vaziyatni yaratadi). Masalan https://phet. colorado. edu/uz/ sayti orqali bepul simulyatsion laboratoriyalarni ko‘rishingiz mumkin. Mazkur saytda tibbiyot oliy ta’lim muassalari laboratoriyalarida o‘tkazishga

imkon bermaydigan laboratoriyalarni simulyatorlar orqali amalga oshirish mumkin. Hozirgi davrda har bir auditoriya xonalari videoproyektorlar, interaktiv panellar va internet tarmoqlari bilan jihozlangan. Bular orqali istalgan vaqtda simulyatsiyalar orqali fizika darslarini o‘tkazish mumkin. Quyida “Biotibbiyot muhandisligi” yo‘nalishi talabalariga yadro fizikasi bo‘yicha radioaktiv elementlarning yarim yemirilish davrini o‘rganish amaliy mashg‘ulotida qo‘llanilgan VR simulyatsiyasi ekrani ko‘rsatilgan. Albatta 3d ko‘zoynakdan foydalanilganda modul bo‘yicha o‘zlashtiriladigan bilimlar yanada taassurotlarga boy bo‘ladi.



VR simulyatorli laboratoriya ikkita talabga javob berishi kerak:

· Simulyatsion laboratoriyalar bilan ishlash usuli iloji boricha ilmiy usulga mos kelishi va ishonchli natijalar berishi kerak;

· Simulyatsion laboratoriyalarni bajarish davomida o‘rgatishning kutilgan va muhim tarkibiy qismlarining maksimal ko‘rinishiga erishish kerak.

Ta’lim jarayonida laboratoriya tajribalari yangi bilimlar manbayi, fizikaviy nazariyalarning fundamental asoslari, o‘qitish usuli, o‘rganilayotgan hodisalarni vizuallashtirish, illustrasiya qilish vositasi, olingan bilimlarni amaliy qo‘llanilishini tushuntirish vositasi, talabalarning fizikaviy tafakkurini, ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi, amaliy malaka va ko‘nikmalarni tarbiyalash va rivojlantirish vositasi kabi qator funksiyalarni bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmadaliyeva G. H. et al. YARIMO‘TKAZGICH MODDALAR VA ULARNING XARAKTERISTIKALARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 91-93.

2. Ximmatova J. K, Jumaniyazov A. U “FIZIKA DARSLARIDA VIRTUAL LABORATORIYA ISHLARI, AMALIY TOPSHIRIQLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH USULLARI” RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA FANLARARO INTEGRATSIYANI QO‘LLASHNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI 2024-yil 15-16-mart konferensiya materiallari to‘plami.

3. https://phet. colorado. edu/uz/simulations/filter?subjects=physics&type=html

4. Usmonov S., Alisherjonova F. INSON TANASIDA BO‘LADIGAN ELEKTR HODISALARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 4 Part 2. – С. 200-203.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA RAQAMLI O‘YINLAR VA SIMULYATSIYALARDAN FOYDALANISH

Sarimsoqova Dinora Odil qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabasi

Annotatsiya. Bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Ana shu raqamli texnologiyalarning bir qismi bo‘lgan vertual o‘yinlar, videolar barcha jabhani qamrab olgan. Boshlang‘ich ta’limda raqamli o‘yinlar va simulyatsiyalardan foydalanish o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga qiziqishini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: raqamli o‘yinlar, simulyatsiya, video, gadjet, metod, ta’lim sifatini oshirish, axborot muhiti.

Abstract. Today, Information Technology is penetrating into all spheres of the world. It was these digital technologies that were part of vertual games, videos that covered all aspects. The use of digital games and simulations in primary education plays an important role in increasing students ' interest in the educational process.

Keywords: Digital Games, simulation, video, gadget, method, improving the quality of education, information environment.

Аннотация. Сегодня информационные технологии глубоко проникают во все сферы мира. Виртуальные игры, видео, которые являются частью этих цифровых технологий, охватывают все аспекты. Использование цифровых игр и симуляторов в начальном образовании играет важную роль в повышении интереса учащихся к учебному процессу.

Ключевые слова: цифровые игры, симуляция, видео, гаджет, метод, повышение качества образования, информационная среда.

XXI asr vertuallashgan zamonda hayotimizni telefon, internet, ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qila olmay qoldik. Ularni salbiy va ijobiy tomonlarni qanchalik o‘rganmaylik ulardan butunlay voz kechib bo‘lmaydi. Yosh avlodni turli axborot hujumlaridan himoyalash, gadjetlardan unumli foydalanishga o‘rgatish zamon talabi bo‘lib qoldi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. ” Bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Ana shu raqamli texnologiyalarning bir qismi turli xil vertual o‘yinlar, barcha jabhani qamrab olgan videolar tashkil qiladi. Boshlang‘ich ta’limda raqamli o‘yinlar va simulyatsiyalardan foydalanish o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga qiziqishini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Raqamli o‘yinlar deganda qo‘limizdagi telefon, planshet, kompyuterlarga play market orqali yuklab olib, vaqtimizni o‘tkazish uchun o‘ynaladigan barcha o‘yinlar tushuniladi. Simulyatsiya esa biror real voqea yoki vaziyatni sun’iy yaratish (odatda o‘rganish maqsadida). Ushbu vositalar ta’limni qiziqarli va tushunarli qilib, o‘quvchilarning faolligini kuchaytirish, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda yordam beradi.

Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga kundan-kunga turli va yangi pedagogik metodlar, tavsiyalar berilmoqda. Mana shu tavsiyalardan biri raqamli o‘yinlar va simulyatsiyalar sanaladi. Raqamli o‘yinlar boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni yangi mavzular bilan tanishtirish, ularga qiziqish uyg‘otish va bilimlarni mustahkamlash uchun keng qo‘llaniladi. Ushbu o‘yinlar o‘quvchilarga o‘rganish jarayonida xatolarini tushunish va to‘g‘rilash imkoniyatini beradi. Boshlang‘ich ta’limda raqamli o‘yinlar quyidagi afzalliklarga ega:

– o‘quvchilar o‘yin jarayonida faol qatnashib, bilimlarni amalda qo‘llashga imkon topadi;

– o‘yinlar orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va o‘quv jarayonida ko‘proq vaqt ajratish rag‘batlantiriladi;

– o‘quvchilarning diqqat va e’tiborini juda tez jalb qiladi;

– matematika, ona tili, tabiiy fanlar bo‘yicha mahoratni rivojlantiruvchi o‘yinlar ta’lim jarayoniga qulay integratsiyalashadi.

Raqamli o‘yinlardan takrorlash, umumlashtiruvchi, sinfdan tashqari darslarida foydalanish tavsiya etiladi. Raqamli o‘yinlar, asosan, matematika fanidan har bir sinfga doir turlari keng rivojlangan. Shuni unutmaslik kerakki, matematika darsida mavzu yuzasidan darslik va o‘quv-rejada misol-masala ko‘pligi, o‘quvchilar 45 daqiqada bitta mavzuni o‘zlashtirishga qiynalishi hisobiga raqamli o‘yinlardan foydalanib mavzuni mustahkamlash o‘quvchini o‘zi mustaqil

ishlashi kerak deganidir. O‘qituvchi bunda yo‘nalish ko‘rsatib beradi. Quyida boshlang‘ich sinf matematikasiga oid raqamli o‘yinlar keltirilgan:

1. https://play. google. com/store/apps/details?id=math. games. education. learn. logic. fun
2. https://play. google. com/store/apps/details?id=com. aziz. multiplication. uz
3. https://play. google. com/store/apps/details?id=com. agandeev. mathgames. free

Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning so‘z boyligi va so‘zlarni imloviy to‘g‘ri yozish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Bu borada eng samarali usul diktant olish, bayon yozdirish bo‘lsa-da, hozirgi texnika asrimizda so‘z boyligi, so‘zlarni to‘g‘ri yozishga qaratilgan o‘yinlar ham ishlab chiqilgan. Bu raqamli o‘yinlardan ota-onalar ham o‘z farzandlarini bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishda ham foydalansa bo‘ladi. Ona tili va o‘qish savodxonligi uchun turli raqamli o‘yinlar ichida quyidagi 2 tasi 7-12 yoshli bolalarga har tomonlama mos:

1. https://play. google. com/store/apps/details?id=aziz. quiz
2. https://play. google. com/store/apps/details?id=com. uzprog. sozlartoplami

Simulyatsiyalar boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarga real hayotdagi hodisalarni xavfsiz muhitda o‘rganish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, tajriba o‘tkazish yoki murakkab mavzularni vizual ko‘rinishda tushuntirish zarur bo‘lgan vaziyatlarda foydalidir. Simulyatsiyalarni tabiiy fanlarni o‘qitishda keng foydalansa bo‘ladi. Turli jarayonlarni (mavsumiy o‘zgarishlar, suv sikllari va boshqalar) simulyatsiya qilish o‘quvchilarga jarayonni yaxshiroq tushunish imkoniyatini yaratadi. Simulyatsiyalardan darsda foydalanish imkoniyati biroz cheklangan unga kerakli jihozlar maktabda mavjud bo‘lmasligi mumkin. Shu jumladan, U. Sh. Begimkulov ta’lim jarayonida hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan kompyuter axborot muhitini yaratish hamda ta’lim jarayonida multimedia, o‘qitishda immitatsiya, zarur axborotlarni kompyuter texnikasi yordamida kiritish, tizimlashtirish, saqlash va foydalanish uchun tavsiya qilinadigan ma’lumotlar bazasini yaratishni taklif etadi. Mamlakatimizdagi deyarli barcha umumta’lim maktablari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan. Boshlang‘ich sinf xonalarida videolar qo‘yishga sharoit yaratib, tabiiy fanlarni har bir darsiga mos 2-3 daqiqalik videolar ishlab chiqish tavsiya etiladi. Ekskursiyaga olib chiqqanda zamonaviy kino teatrga olib borib, tabiiy fanlarga oid (dengiz tubiga, o‘rmonlarga, koinotga sayohat kabilar) kinolar qo‘yib bersa ham bo‘ladi.

Raqamli o‘yinlar va simulyatsiyalarni muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun boshlang‘ich ta’lim uchun mos o‘yinlar va simulyatsiyalarni tanlashda o‘quvchilarning yoshi, bilim darajasi va qobiliyatlarini hisobga olish kerak. Ular orqali o‘quvchilar nafaqat ko‘ngilochar, balki ta’limiy jihatdan foydali tajribaga ega bo‘lishlari kerak. O‘yin va simulyatsiyalarni dars jarayoniga kiritishda, o‘quvchilar qiziqishini saqlab qolish va samaradorligini oshirish uchun bosqichma-

bosqich tartibga rioya qilish muhimdir. O‘qituvchilar o‘yin va simulyatsiyalarni dars jarayonida qanday qo‘llash kerakligi bo‘yicha bilimga ega bo‘lishi lozim. Ular texnologiyalarni to‘g‘ri boshqarish va o‘quvchilarni qiziqtirish uchun kerakli ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak. Muhim eslatma, axborot vositalaridan muntazam ravishda foydalanish bolalar ko‘z nuriga ta’sir qilishini unutmaslik kerak!

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda raqamli o‘yinlar va simulyatsiyalardan foydalanish o‘quv jarayonini samarali va qiziqarli qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Ular orqali o‘quvchilar o‘rganish jarayonida faol qatnashadi, murakkab mavzularni o‘zlashtirishda ko‘proq muvaffaqiyatga erishadi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalarni ta’limga kiritish, ta’lim jarayonini yanada boyitadi va o‘quvchilarning bilim darajasini yuqori bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-60-son. 18. 01. 2022.

2. Babaraximova D. “Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari”. “O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar” jurnali 18-son 20. 04. 2023.

3. Babaraximova D. Ta’lim tizimida axborot texnologiyalarini qo‘llashning ilmiy-pedagogik masalalari; 6-tom 3-son/2022-yil/15-mart

https://bestpublication. org/index. php/pedg/issue/view/81

4. Yo‘ldoshev J. G., Usmonov S. A. “Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish” –T: Fan va texnologiya, 2008.

INTERAKTIV TA’LIM DASTURLARI ASOSIDA O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING MOHIYATI

Rasulova Dilrabo Raxmatullayevna

JDPU, Pedagogika ta’limi nazariyasi kafedra katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada interaktiv ta'lim dasturlari asosida o‘qitishni takomillashtirish, o‘quvchilarning faol ishtirokini oshirish va o‘qitish jarayonini samarali tashkil qilish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: multimediya, interaktiv, masofaviy, animatsiyalar, gamifikatsiya, interaktiv mashqlar, kollabarotiv o‘qitish, sinxron o‘qitish.

Interaktiv ta'lim dasturlari asosida o‘qitishni takomillashtirish, o‘quvchilarning faol ishtirokini oshirish va o‘qitish jarayonini samarali tashkil qilish uchun samarali usullardan biridir.

Interaktiv ta'lim, o‘quvchilarning faolligini, mustaqil fikrlashini va o‘rganish jarayoniga qiziqishini oshiradi. Buning uchun interaktiv dasturlarni samarali qo‘llash zarur.

Interaktiv ta'lim dasturlari asosida o‘qitishni takomillashtirish uchun quyidagi yondoshuvlar va tavsiyalarni ko‘rib chiqish mumkin:

Multimedia vositalaridan foydalanish. Videolar, animatsiyalar, diagrammalar va grafiklar orqali materiallarni tushuntirish, o‘quvchilarning mavzuni yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. Videolarni interaktiv qilish, ya'ni ularga testlar, savollar yoki interaktiv qism qo‘shish, o‘quvchilarni o‘z bilimlarini sinab ko‘rishga undaydi.

Onlayn va mobil ta'lim platformalari. Moodle, Google Classroom, Canvas kabi platformalar orqali darslar va topshiriqlarni tashkil qilish. Bu platformalar o‘qituvchiga darslarni kuzatish va baholashda, o‘quvchilarga esa o‘z vaqtidan samarali foydalanishda yordam beradi. Mobil qurilmalarda o‘quvchilarga mo‘ljallangan ta'lim ilovalarini yaratish yoki ularni foydalanishga taklif qilish, ta'lim jarayonini har doim va har joyda o‘rganish imkoniyatini taqdim etadi.

Gamifikatsiya (o‘yin elementlarini qo‘llash). O‘quvchilarga o‘yin orqali bilim olish, masalan, ballar to‘plash, darajalarni oshirish, raqobatni kuchaytirish, motivatsiyani oshiradi. Bu jarayon o‘quvchilarga bilimlarni o‘rganish jarayonini qiziqarli va interaktiv qilish imkonini beradi. Darslarda virtual tarzda yutuqlarni mukofotlash yoki g‘oliblarni e'tirof etish, o‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirishga nisbatan qiziqishini oshiradi.

Sinxron va asinxron o‘qitish. O‘quvchilarni bir vaqtning o‘zida onlayn platformalarda yig‘ib, o‘zaro fikr almashish, darsni jonli ravishda o‘tkazish (masalan, Zoom, Microsoft Teams) orqali o‘qitishni amalga oshirish. Bu, o‘quvchilarning bir-biri bilan va o‘qituvchi bilan bevosita aloqada bo‘lishiga yordam beradi. ***Asinxron o‘qitish***: O‘quvchilarga videodarslar, o‘quv materiallari, forumlar orqali o‘z vaqtida o‘qish imkonini berish. Bu usul talabalarga o‘z ustida ishlash imkoniyatini yaratadi.

Interaktiv mashqlar va testlar. O‘quvchilarga bilimni mustahkamlash uchun turli interaktiv testlar va mashqlarni taqdim etish. Masalan, turli xil so‘zli, rasmli testlar va mashqlar orqali, o‘quvchi har bir javobni aniqlashni o‘rganadi. O‘quvchilarga o‘z bilimlarini tekshirish uchun so‘rovlar va boshqa interaktiv baholash tizimlaridan foydalanish. Bu orqali o‘quvchi o‘zgarishlarni sezib, yanada yaxshiroq natijalarga erishishga intiladi.

Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR va AR). Virtual haqiqat texnologiyasi yordamida o‘quvchilarga maxsus o‘qitish simulyatsiyalari va tajribalarini yaratish. Masalan, kimyo yoki biologiya fanlarida laboratoriya tajribalarini virtual muhitda bajarishi o‘quvchilarda bilimlarni hosil qilishga samarali ta’sir o‘tkazadi. ***Kengaytirilgan haqiqat (AR)****:* AR texnologiyasidan

foydalanish orqali o‘quvchilarga haqiqiy dunyo bilan bog‘liq o‘quv materiallarini interaktiv tarzda ko‘rish imkonini berish.

Kollaborativ o‘qitish. O‘quvchilarni guruhlarga ajratib, ularni birgalikda ishlashga undash. Kollaborativ loyihalar va guruh ishlari orqali o‘quvchilar o‘zaro fikr almashadilar, hamkorlikda ishlashni o‘rganadilar. O‘quvchilarga o‘quv materiallari haqida forumlarda yoki onlayn guruhlarda fikr almashish imkoniyatini yaratish. Bu o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini va muammolarni hal qilishni rivojlantiradi.

Fasilitator sifatida o‘qituvchining roli. O‘qituvchi faqat ma'lumot beruvchi emas, balki o‘quvchilarning o‘rganish jarayonida yo‘naltiruvchi va yordamchi sifatida harakat qilishi kerak. O‘qituvchi o‘quvchilarning faoliyatini kuzatib borishi, ularni rag‘batlantirishi va kerak bo‘lganda yordam ko‘rsatishi zarur.

Shaxsiylashtirilgan ta'lim. O‘quvchilarning o‘qish uslubi va qobiliyatiga mos ravishda shaxsiylashtirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish. Interaktiv ta'lim dasturlari o‘quvchilarga o‘zining ehtiyojlari va qiziqishlariga mos materiallar taqdim etadi.

O‘quvchilarning natijalarini tahlil qilish: Interaktiv ta'lim dasturlari orqali o‘quvchilarni baholash va ularning muvaffaqiyatlarini kuzatib borish, o‘qituvchiga ta'lim jarayonini tahlil qilish va uning samaradorligini oshirishda yordam beradi.

Interaktiv ta'lim dasturlarini qo‘llash nafaqat o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash, balki ularni o‘rganishga rag‘batlantirish va yangi texnologiyalarni samarali qo‘llashda o‘qituvchining faol rolini ta’minlashga yordam beradi. Bu usul ta'lim jarayonini yanada jonli va qiziqarli qilishga, o‘quvchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. С_Шойимова_Таълим_технологиялари_2020

2. Xasanboyev J, To‘rakulov X., Xaydarov M., Xasanboyeva O. Pedagogika fanidan izoxli lug‘at. – T., 2008.

3. S. I. Mirhaitova “Pedagogik texnologiyalar” o‘quv qo‘llanmasi. 2020-yil

4. I. Temirova “ Jahon tajribasida ta’limda kollaborativ yondashuvdan foydalanish samaradorligiga oid nazariy qarashlar” Talqin va tadqiqotlar jurnali. 2024-yil.

O‘YIN ORQALI BOLALARNING IJODIY FIKRLASH QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Berdiyorova Shoira Axmadjonovna
JDPU, Pedagogika ta’limi nazariyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
Ziyayeva Feruza Axmadjonovna
Jizzax shahar 11-maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada o‘yinchoq bolalarni turli rang-barang harakatlarga undaydi va bolaning faol harakatga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi. Tezkor javob reaksiyasini, harakatlarning aniqligi va muvofiklashtirishini rivojlantiradi, lug‘at boyligini oshiradi, ularda tahlil qilish, taqqoslash, diqqatni jamlash kabi qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: O‘yinchoq, bolalar, shakl, bo‘yoq, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiya.

Аннотация. В статье игрушка мотивирует детей к различной деятельности и удовлетворяет потребность ребенка в активном движении. Развивает быструю реакцию, точность и координацию действий, увеличивает словарный запас, уделяет внимание развитию таких навыков, как анализ, сравнение, концентрация внимания.

Ключевые слова: Игрушка, дети, форма, краска, физическое, нравственное, эстетическое воспитание.

Abstract. The article discusses the toy as a means of motivating children to engage in various activities and satisfying the child's need for active movement. It develops quick response, accuracy and coordination of movements, increases vocabulary, and is aimed at developing such abilities as analysis, comparison, and concentration.

Keywords: Toy, children, shape, paint, physical, moral, and aesthetic education.

O‘yinchoq - bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlab ularga yuldosh quvonch manbaidir. O‘yinchoq bolaning o‘ynashi uchun mo‘ljallangan va boshqa maqsadlarda foydalanilmaydigan buyum hisoblanadi. Unda buyumlarning tipik xususiyatlari umumiy tarzda aks etadi. Pedagog A. S. Makarenko, «O‘yinchoq o‘yinning «material asosi», o‘yinchoq o‘yinni yaratishda ishtirok etadi, bolaning uziga xos sherigi sifatida namoyon bo‘ladi, uning shaxsiga ta’sir ko‘rsatadi», - deb ta’kidlaydi. Rus pedagoglari o‘yinchoq bolalarga atrofdagi mavjud vokelikni o‘rganishga yordam beradigan, ranglar, buyumlar kulamini ularning materiallarini farqlash malakasini rivojlantiruvchi vosita deb ta’kidlab, bola dunyoqarashini kengaytirishdagi ahamiyatini ko‘rsatib berdilar. Xalk pedagogikasida o‘yinchoqlarning butun bir tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, bular bolaning sensor qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O‘yinchoqlar bolalarning

nutqiy faolligini uyg‘otadi, lug‘at boyligini oshiradi, ularda tahlil qilish, yaxlit holatga keltirish, umumlashtirish, taqqoslash, tavsiflash, diqqatni jamlash kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi.

O‘yinchoq bolalarda – ma’naviy-axloqiy tuyg‘ularni (mehribonlik, avaylash, e’tiborlilik) shakllantiradi, atrof-muhitga ijobiy munosabatni uyg‘otadi. O‘yinchoqlar tanlashda bolaning yosh va individual xususiyatlari, qiziqishlari, istaklari hisobga olinadi. Maksadga qaratilgan bunday yondoshuv – o‘yinchoq tanlashga bo‘lgan talabni yanada oshiradi. Asosan, pedagogik, gigienik, badiiy talab orqali o‘yinchok tanlanadi. *Pedagogik talab.* O‘yinchoq obrazi va mazmunining bola tarbiyasiga muvofikligi; jamiyatimiz g‘oyasi nuktai nazariga mos kelishi, g‘oyaviy jihatdan qimmatli bo‘lishi pedagogik talabning muhim belgisi hisoblanadi. O‘yinchoq bolada olijanob tuyg‘ularni uyg‘otishi, boshqa millat bolalari bilan do‘stona munosabatlarni tarbiyalash, vokelikka nisbatan olijanob tuyg‘ular uyg‘otishi, ijobiy axloqiy tajriba to‘plashga yordam berishi lozim. Bolaning faollikka bo‘lgan intilishini koniktirishi va uni uyg‘otishi kerak. Obrazli o‘yinchoq real haqiqatni ifoda etadi, buyum, uning xususiyatlari va hayotdagi ahamiyatini aks ettiradi.

O‘yinchoqning dinamiklik xususiyati undan kup marotaba rejali tarzda foydalanish imkonini yaratadi. Bu xususiyatidan kelib chiqib, o‘yinchoqqa quyidagi talablar quyiladi:

Gigienik talablar. O‘yinchok qanday materialdan va rangdan tayyorlanganligi, bolaning hayotiga hech qanday xavf solmasligi, yaxshi tozalanishi mumkinligi asosiy talablardan hisoblanadi.

Badiiy talablar. Shakl, bo‘yoq va bezaklarning har tomonlama uyg‘unlashuvi, bir-birini rang va shakl jihatdan tuldirib, ta’kidlab, o‘yinchoqning badiiy ifodaliligini oshiradi. O‘yinchoqlarning tuzilishi va bezalishi bolalarning turli yosh bosqichlarida idrok etish xususiyatlariga tula mos kelmog‘i lozim.

Tug‘ri tanlangan o‘yinchoq - bolaning jismoniy, axloqiy, aqliy va badiiy-estetik tarbiyasi rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bolani aqliy jihatdan tarbiyalashda ijodiy o‘yinchoqlarning butun bir tizimi katta ahamiyat kasb etib, sensor va nutk rivojiga ta’sir etadi, fikrlash jarayonlari va diqqatini tarbiyalaydi, buyum va uning xususiyatlariga, ko‘rilishiga bo‘lgan qiziqish shakllanadi, bilimi, tushunchalari boyib boradi.

- O‘yinchoq bolani quvontiradi, atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi, birgalikda o‘ynash tuyg‘usini uyg‘otadi va ijobiy his-tuyg‘ularni tarkib toptiradi. Axloqiy his-tuyg‘ularni shakllantirishda qo‘g‘irchoq muhim ahamiyatga ega. Milliy qo‘g‘irchoq bolalarni boshqa millatga mansub bo‘lgan tengdoshlariga bo‘lgan ijobiy munosabatini tarbiyalash manbalaridan hisoblanadi. San’atni birinchi yorqin obrazli va eng tushunarli buyumi bo‘lgan o‘yinchoq estetik hislar va kechinmalarni uyg‘otadi, estetik tarbiyani to‘plashga yordam beradi va badiiy didni shakllantiradi. Shu o‘rinda bolalarga yaqin va tushunarli bo‘lgan xalq

o‘yinchoqlarining ahamiyatini alohida ta’kidlash lozim. O‘yinchoq bolalarni turli rang-barang harakatlarga undaydi va bolaning faol harakatga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi. Tezkor javob reaksiyasini, harakatlarning aniqligi va muvofiklashtirishini rivojlantiradi. Ilk yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan ko‘p o‘yinchoqlar (shakldoklar, rezina koptokchalar, shaklchalar va boshk.) bolada ko‘rish va eshitish diqqatini rivojlantiradi, ushlash harakatlari va buyumli harakatlarni o‘stirishga yordam beradi.

O‘yinchoqlarning turlari va ko‘rinishlari bo‘yicha quyidagi turkumlarga ajratiladi:

- Ijodiy-obrazli;
- texnika o‘yinchoqlari;
- ko‘rish–yasash, qurilish materiallari o‘yinchoqlari;
- ijodiy o‘yinchoq va o‘yinlar;
- sport va harakatli o‘yinlar uchun muljallangan o‘yinchoqlar;
- yig‘ma–bo‘linma o‘yinchoqlar;
- teatr va dekorativ o‘yinchoqlar (soya va qo‘g‘rchoq teatrlarining personajlari, dramalashtirilgan o‘yinlar uchun kiyimlar, archa o‘yinchoqlari);
- o‘yinchoq-ertaklar;
- ohang chiqaruvchi musiqaviy o‘yinchoqlar;
- qo‘lbola o‘yinchoqlar va o‘yin materiallari, turli-tuman o‘yin jihozlari.

- *Ijodiy-obrazli o‘yinchoqlar* ijodiy o‘yin uchun foydalaniladi. U bolalarda ijobiy xarakter qirralarini, muloyimlik, g‘amxo‘rlik, yordam berishga ehtiyoj, shuningdek kattalar mehnatiga hurmat va tengdoshlari bilan uynay olish malakalarini tarbiyalaydi.

- *Texnika o‘yinchoqlari* bolalarda texnikaga va texnika asboblariga bo‘lgan qiziqish uyg‘otib, ularni o‘z o‘yinlarida qullay olish imkonini yaratadi. Bolalarga texnikaga bevosita aloqasi bor buyumning (mashinalar, mexanizmlar, transport turlari, aloka vositalari) tashki ko‘rinishi, obrazini va unga xos harakatlarini tanishtiruvchi texnik o‘yinchoqlar yakin turadi.

- *Qurish-yasash o‘yinchoqlari* sodda, boshqarish va foydalanish jihatdan qulay va osondir. Bu o‘yinchoqlarni o‘ynash buyumning asosiy vazifalariga taqlid qilish imkonini yaratishi lozim. (avtomobilda g‘ildiraklar harakatlanishi, eshik ochilishi). Qurilish materiallari bilan o‘ynaladigan o‘yinchoqlarning asosiy 2 tipi mavjud:

a) kublar, prizmalar, konuslar, piramida, selindrlar, plastinkalar, geometrik shakllar to‘plami.

b) turli blok - devor, froniton, kolonka, tom, ark va boshqa arxitektura va qurilish materiallari. Mayda (stol o‘yinlari uchun) va yirik (polda va maydonchada) o‘ynashga mo‘ljallangan bu qurilish materiallarining rangi har xil bo‘lishi mumkin.

- *Ijodiy o‘yinchoqlarning* asosini xalq o‘yinchoqlari tashkil qiladi. Ular o‘ynashda bola o‘z-o‘zini nazorat qiladi. Xilma-xil mozaykalar sensor qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ulardagi o‘yin vazifasi naqshlar, rasmlarni tanlash va joylashtirishdan iborat.

- *Harakatli o‘yinlarga* mo‘ljallangan o‘yinchoqlar: suv, qum bilan o‘ynaladigan o‘yinchoqlar, koptoklar, arg‘amchilar, chambaraklar, kegli va boshqalar. Ularning asosiy vazifasi bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalashdir.

- *Musiqali va teatrlashtirilgan o‘yinchoqlar* bolalarning musiqaviy ohang va ritmni eshita olish qobiliyatini o‘stirishga yordam beradi. Katta yoshdagi bolalar ertaklarni sahnalashtiradilar.

- *O‘yinchoq-ovutmachoqlar* harakatchan, ko‘pincha ovoz chiqaradigan bo‘ladi. Ular bolalarni o‘zlarining ajoyib xatti-harakatlari bilan quvontiradilar, ijodiylari esa vaqtichog‘lik bag‘ishlaydi.

- *Qo‘lbola o‘yinchoqlarni* kattalar bolalar bilan birgalikda tayyorlaydilar va turli ertak, hikoyalarni sahnalashtiradilar.

O‘yinchoklarni materialiga ko‘ra: hunarmandchilik, ko‘lbola usulida, fabrikada tayyorlanadi. Tanikli pedagog A. S. Makarenko o‘yinchoqlarning 3 turini ajratib ko‘rsatgan edi: tayyor o‘yinchoqlar, yarim tayyor o‘yinchoqlar va o‘yin materiallari. Birinchi turi bolalarni buyumlar va narsalarning rang-barangligi bilan tanishtiradi, tasavvurini o‘stiradi. Ikkinchi turi boladan faol faoliyatni talab qiladi, mantiqan va aqlan o‘sishga yordam beradi. Uchinchi turi bevosita bolaning ijodiy faoliyatini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’limga qo‘yilgan Davlat talablari. T., 2000 y.

2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’limi to‘g‘risida»gi Qonuni. «Ma’rifat» gazetasi. 1997 yil 1 oktabr

3. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim- tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari. T., O‘z PFITI, 2000. To‘zuvchilar Rasulova. M, Abduraxmonova. X va boshqalar 4. Bolalarni maktabga o‘qishga tayyorlash(ilmiy maqolalar to‘plami). T. ., O‘z PFITI, 1997.

5. Maktabgacha ta’lim davlat standarti. O‘z PFITI, T. ., 1995-96.

RAQAMLI O‘YINLAR, SIMULYATSIYALAR VA INTERAKTIV TA’LIM DASTURLARI ORQALI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Egamberdiyev Hojiakbar Salohitdinovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM dotsenti
Xidirova Noila Boymuratovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli o‘yinlar, simulyatsiyalar va interaktiv ta’lim dasturlari orqali o‘qitish samaradorligini oshirish mexanizmlari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar. simulyatsiya, interaktiv ta’lim, dastur, raqamli o‘yinlar, mexanizm, yondashuv, gemifikatsiya.

Аннотация. В данной статье представлена информация о механизмах повышения эффективности обучения посредством цифровых игр, симуляций и интерактивных образовательных программ.

Ключевые слова. симуляция, интерактивное образование, программа, цифровые игры, механизм, подход, геймификация.

Abstract. This article provides information on the mechanisms of increasing the effectiveness of teaching through digital games, simulations and interactive educational programs.

Key words. simulation, interactive education, program, digital games, mechanism, approach, gamification.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali qilish uchun raqamli texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. Raqamli o‘yinlar, simulyatsiyalar va interaktiv dasturlar o‘quvchilarning e’tiborini jalb qilish, ularning bilim olish jarayonini qiziqarli va shaxsiylashtirilgan qilish imkonini beradi. Ushbu maqolada raqamli vositalar yordamida o‘qitish samaradorligini oshirish mexanizmlari, ushbu yondashuvning afzalliklari va duch kelinayotgan muammolar tahlil qilinadi.

Nik Pelling va Richard Bartl kabi olimlar tomonidan ta’riflangan gemifikatsiya tushunchasi va uning tarixi o‘rganiladi. Gemifikatsiyaning o‘yin mexanikasidan foydalanish orqali o‘quvchilarni jalb qilish va ta’lim jarayonini interaktiv qilishdagi roli tahlil qilinadi. O‘yin elementlari orqali bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirish tajribalari va tadqiqotlari muhokama qilinadi. Jumladan, Richard Dyuk va Andrey Viktorovichning ta’lim jarayonidagi gemifikatsiya ishlari hamda ularning o‘quvchilarning bilim olish tajribasiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Ta’limda, chet tilini o‘rganishda, hamda universitet darajasidagi ta’lim muhitida

gemifikatsiyaning qo‘llanishi, uning foydalanuvchilar motivatsiyasiga va bilimni o‘zlashtirishga ta'siri haqida Sibiryakov Andrey Viktorovichning tadqiqotlari muhokama qilinadi. K. Ushinskiy, K. Verbax va boshqa tadqiqotchilarning gemifikatsiyaning afzalliklari, cheklovlari va amaliy qo‘llash texnikalari haqidagi izlanishlari ham tahlil qilinadi .

Adabiyotlarni o‘rganish: Ilg‘or raqamli o‘yinlar, simulyatsiyalar va interaktiv dasturlar bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlil qilindi.

Amaliy eksperiment: O‘quvchilarga raqamli o‘yinlar va interaktiv dasturlar asosida maxsus darslar o‘tkazildi. Natijalari an’anaviy o‘qitish usullari bilan solishtirildi.

So‘rovnoma va intervyu: O‘qituvchilar va o‘quvchilar orasida raqamli ta’lim vositalarining samaradorligi va ularning qoniqish darajasini baholash uchun so‘rov o‘tkazildi.

Statistik tahlil: Eksperiment natijalari asosida ma’lumotlar tahlil qilinib, raqamli vositalarning ta’lim samaradorligiga ta’siri baholandi.

Motivatsiyaning oshishi: Raqamli o‘yinlar va simulyatsiyalar o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirdi. Gamifikatsiya elementlari o‘quv jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Bilimni yaxshiroq o‘zlashtirish: O‘quvchilar interaktiv dasturlar orqali an’anaviy usullarga qaraganda bilimlarni tezroq va samarali o‘zlashtirganliklari kuzatildi. Masalan, biologiya fanida simulyatsiyalar yordamida o‘quvchilar laboratoriya tajribalarini yaxshiroq tushunishdi.

Shaxsiylashtirilgan o‘qitish: Interaktiv dasturlar har bir o‘quvchining bilim darajasiga moslashtirilgan vazifalar va mashqlarni taqdim eta oldi. Bu esa o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashgan o‘quv jarayonini ta’minladi.

Texnologik to‘siqlar: Raqamli vositalarni joriy etishda texnologik infratuzilma va internet sifatiga bog‘liq muammolar aniqlangan. Qishloq hududlarida bu jarayon qiyinchilik bilan amalga oshirilmoqda.

Olingan natijalar raqamli o‘yinlar, simulyatsiyalar va interaktiv dasturlar ta’lim samaradorligini oshirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ba’zi muammolarni hal qilish talab etiladi:

O‘qituvchilarni tayyorlash: Raqamli vositalarni ta’limda qo‘llash uchun o‘qituvchilarga maxsus treninglar tashkil etish zarur.

Infratuzilmani rivojlantirish: Ta’lim muassasalarini raqamli texnologiyalar bilan ta’minlash va internet sifatini yaxshilash kerak.

Kontent sifatini oshirish: Mahalliy o‘quv dasturlariga mos keladigan raqamli vositalar ishlab chiqilishi kerak.

Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida gamifikatsiya va interaktiv yondashuvlar o‘quvchilarning uzoq muddatli bilimlarni o‘zlashtirishini yaxshilaydi.

Raqamli o‘yinlar, simulyatsiyalar va interaktiv ta’lim dasturlari ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali qilishda muhim vosita hisoblanadi. Ular motivatsiyani oshirish, bilimni shaxsiylashtirish va qiyin mavzularni tushunishni osonlashtirishda katta rol o‘ynaydi. Biroq, ushbu yondashuvlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun texnologik infratuzilmani rivojlantirish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va kontent sifatini yaxshilash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M. M. Xakimova. Ta’limda simulyatsion geymifikatsiya va uning ahamiyati. Inter education & Global study. 2024.

2. Bartle R. The History, Design, Fun, and Art of Massively-Multiplayer Online RolePlaying Games // MMOs 2. From the Inside Out. Apress. -2016. -P. 735. DOI: 10. 1007/978-1-4842-1724-5

3. Ушинский Константин Дмитриевич (1824-1870). Человек как предмет воспитания: опыт пед. Антропологии // Из классического наследия педагогики. М.: Фаир-Пресс (ОАО Можайский полигр. комб.), 2004. - С. 574.

4. Сибиряков Андрей Викторович «Геймификация образовательного процесса при обучении иностранному языку в современном вузе» https://cyberleninka. ru/article/n/geymifikatsiya-obrazovatelnogo-protsessa-priobuchenii-inostrannomu-yazyku-v-sovremennom-vuze

ONE-HOT, DUMMY AND LABEL ENCODING METHODS

Sh. A. Tursunov

A. E. Rashidov

Samarkand State University named after

Sharof Rashidov Faculty of Intelligent System and Computer technologies,

sherzodtursunov943@gmail. com

Abstract. In today's digital world, artificial intelligence is becoming an important tool in all fields. The main reason for this is that data processing with the help of artificial intelligence technologies can contribute to the development of many fields. But the result of the use of artificial intelligence is closely dependent on the input data, and only high-quality pre-processed data can provide efficiency. Data preprocessing is a complex process that includes separate steps that are performed depending on the type of data. In this case, textual data stands out as the most common

type of data that needs to be processed. Since these data are not in digital form, they cannot be subjected to mathematical and statistical analysis . Therefore, it is necessary to convert this type of data into digital form. In this research, the 3 most used methods of text data transformation, one-hot encoding, dummy encoding and label encoding methods, their advantages and disadvantages are considered and a comparative analysis is carried out.

Keywords: Artificial Intelligence, Data Preprocessing, One-hot Encoding, Dummy Encoding, Label Encoding, Categorical Data Encoding.

Introduction

World scientific communities are conducting research aimed at solving problems in various fields using artificial intelligence [1-3]. New algorithms are being created or existing algorithms are being improved, which increases the accuracy of solutions [4, 5]. Sufficient data is required for problem solving and effective machine learning but often this data is in text form . Since it is difficult to directly apply text data to artificial intelligence algorithms, it is necessary to convert them into digital form . Digital data facilitates statistical analysis and machine learning, and enables efficient processing of large volumes of data. One-hot encoding, Dummy encoding and Label encoding algorithms and their properties are considered in the study with examples for the purpose of performing form exchange in textual data. As a result of the research, a table representing the characteristics of the methods of form exchange is formed in the textual data reviewed at the end of the research**.**

Methods

One-hot encoding, Dummy encoding and Label encoding algorithms were considered for converting text data into digital form. In the course of the research, in order to determine the advantages and disadvantages of the algorithms, practical examples of each of them were presented, then the shape change was performed using these algorithms on the selected data and the results were analyzed. During the analysis, aspects such as dimensionality, efficiency of working with the volume of data, ability to maintain relationships between categories, and flexibility of algorithms were compared. As a result, the effectiveness of each method in certain cases was evaluated and their mutual differences were concluded.

One-hot-encoding

One-hot encoding is a shape-shifting algorithm for data in text columns by creating a separate column for each category [2, 3]. This method works well with nominal columns where there is no order or value relationship between the data, such as "states, " "computers, " "countries, " or "colors. " However, this method is not always convenient for large amounts of data, as the total data volume increases as a result of the increase in the number of columns, which can

negatively affect the speed of the algorithm. In the table-1, the categories "red", "green", "blue" were transformed using one-hot encoding.

Dummy encoding

Dummy encoding, like one-hot encoding, uses values 0 and 1 for each category and creates new columns when converting text data to digital form. However, its main difference is that dummy encoding uses N-1 features to encode N categories, meaning the first column is discarded. In this method, dummy encoding preserves only the necessary columns and thus prevents the increase of data size, which improves the performance of the algorithm. [4, 5] Therefore, dummy encoding is effective when working with small data, because this method is more suitable when working with sparse data and helps to reduce data size. In the table-2, there were categories "Red", "Green", "Blue", for 3 categories, N-1, i. e. 2 columns were created and replaced with 0 and 1, respectively. Row 0 0 in Table 2 indicates the "Red" category.

Label encoding

Label encoding is an efficient method for ordinal text data. This method transforms the categories into numerical values according to their natural order. If there is no natural order between the categories, encoding them with numeric values using label encoding can produce misleading results. For example, categories such as " secondary ", "higher education", "uncompleted higher" in the "education" column have a natural order and can be converted to correct numerical values using label encoding. Or weather categories: categories such as " Rainy ", "Cloudy", "Sunny" also have an order, and when coding them, for example, Rainy represents the worst weather, and Sunny represents the best weather.

Color	Red	Green	Blue
Red	1	0	0
Green	0	1	0
Blue	0	0	1
Red	1	0	0
Blue	0	0	1

Table-1. One-hot-encoding

Color	Green	Blue
Red	0	0
Green	1	0
Blue	0	1
Red	0	0
Blue	0	1

Table-2. Dummy encoding

Color	Label encoding
Red	0
Green	1
Blue	2
Red	0
Blue	2

Table-3. Label encoding

We can see the advantages and disadvantages of the above algorithms by comparing them in the table below:

Properties	One-hot encoding	Dummy encoding	Label encoding
Increases the number of categories	+	+	-
Preserves inter-category relationships	-	-	+
Leads to high dimensionality	+	+	-
Flexibility with numerical data	-	-	+
Compatibility with models	+	+	+

Handles missing values	-	-	-
Scalability with a growing number of categories	-	-	+

Table-4. Comparison of the three algorithms considered in the research work

One-hot and Dummy encoding increase the number of categories by adding new columns for each unique value, leading to high dimensionality, especially with a growing number of categories, while Label encoding uses a single column and is more scalable. Label encoding preserves inter-category relationships and works well with tree-based models but may introduce bias in linear models. In contrast, One-hot and Dummy encoding are better suited for linear models but lose inter-category relationships. Label encoding is flexible with numerical data, whereas the other two focus on categorical data. All three methods require preprocessing to handle missing values effectively.

References:

1. Rashidov, A., Akhatov, A., Nazarov, F. (2023). The Same Size Distribution of Data Based on Unsupervised Clustering Algorithms. In: Hu, Z., Zhang, Q., He, M. (eds) Advances in Artificial Systems for Logistics Engineering III. ICAILE 2023. Lecture Notes on Data Engineering and Communications Technologies, vol 180. Springer, Cham. https://doi. org/10. 1007/978-3-031-36115-9_40

2. Nazarov F, Rashidov A, Pardayev M, Sunnatova S. (2023). Clustering Method Of Distributed Technologies In Data Flow Management. Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal of Education (2994-9521), 1(5), 222-225. https://multijournals. org/index. php/excellencia-imje/article/view/115

3. Akhatov, A., Nazarov, F., & Rashidov, A. (2024). Application of machine learning algorithms for optimal data storage based on distribution mechanisms. Digital transformation and artificial intelligence, 2(4), 8–14. https://dtai. tsue. uz/index. php/dtai/article/view/v2i42

4. Akhatov A., Renavikar A., Rashidov A. "Optimization of the database structure based on Machine Learning algorithms in case of increased data flow" Proceedings of the International Conference on Artificial Intelligence, Blockchain, Computing And Security (ICABCS 2023), Gr. At N01, Up, India, 24-25 February 2023

5. Rashidov AE, Sayfullaev JS "Selecting methods of significant data from gathered datasets for research" International journal of advanced research in education, technology and management, Vol. 3 No. 2 (2024), p. 289-296, doi: 10. 5281/zenodo. 10781255.

ВСЕСТОРОННЕЕ РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТИ ПОСРЕДСТВОМ КОРПОРАТИВНОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАСТНИКОВ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Буранова Шохноза Абдуразаковна

доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент

Джизакского Государственного Педагогического Университета

Аннотация. В этой статье раскрывается содержание работы воспитателя ДОО в условиях реализации государственного стандарта дошкольного образования и воспитания, взаимосвязано дошкольной образовательной организации с социальными институтами в целях развития детей по подготовке их к школе.

Ключевые слова: профессиональная деятельность воспитателя, призвание, идеальный воспитатель, цели семейного воспитания, формы работы с родителями.

Abstract. This article reveals the content of the work of a preschool teacher in the context of the implementation of the state standard of preschool education and upbringing, the interconnection of a preschool educational organization with social institutions in order to develop children in preparing them for school.

Keywords: Professional activity of an educator, vocation, ideal educator, goals of family education, forms of work with parents.

Построение взаимоотношений между дошкольной образовательной организацией, семьёй и махаллёй в системе партнёрства является неотъемлемой частью обновления содержания работы дошкольной образовательной организации в условиях реализации государственного образовательного стандарта дошкольного образования. В настоящее время построению партнёрских доверительных отношений между родителями и дошкольной образовательной организацией уделяется большое внимание как со стороны органов, осуществляющих государственную политику в сфере дошкольного образования, так и самими педагогическими коллективами. Изменение нормативно-правовой базы, регулирующей эти взаимоотношения, повлекло за собой формирование нового взгляда, как на статус родителя, так и на педагога дошкольной образовательной организации. Однако новые подходы к взаимодействию с семьями определены не только в государственной учебной программы дошкольного образования, но и в целом изменениями в обществе, в системе ценностей современной семьи, запросами сегодняшних родителей на воспитательно-образовательные услуги дошкольной образовательной организации.

freely and at any time choose the resources and use them from the point of view of purpose, means, and content. Autonomy in independent learning is the ability to determine and choose educational goals, principles, content, methods and tools, to implement them without difficulty and without the help of external influences. Since independent education is directly related to independent thinking, it is appropriate to mention the definition given to it: “Independent thinking is a person's knowledge and life experiences, defining the goals and objectives of the person before him., is a mental activity that consists of solving independently at the level of one's intellectual capabilities, using different ways, methods, and tools. ” The content of the independent work of the students by the teacher, the active organization of independent work, the fulfillment of the didactic goals set before them and the time specially allocated for it is understood. It is necessary to form the interest and ability to acquire independent knowledge in the future teachers who are studying in the field of technological education as a factor that encourages the improvement of pedagogical culture.

Pedagogical improvement, deepening of professional knowledge and improvement of skills are required from future teachers who are studying in the direction of technological education as an important factor in solving the problem. Students determine the goals and tasks that make up the content of independent education, depending on the strength and motivational reasons that arouse interest in independent education. This can be expressed as follows:

1. Political independent education, modern reality and attitude towards them, which are considered important in conducting independent activities;

2. Professional independent education in the preparatory period aimed at carrying out activities in the chosen direction, mastering the student's independent education;

3. Independent education focused on deeper learning of academic subjects, personal life plans, personal interest;

4. Independent education related to the development of one's talents and hobbies.

5. Independent education aimed at developing one's own character.

Professional independent education is the main factor in the development of a person and serves as a description of his ability to work independently in his future activities. The content of independent education depends on the ability to find opportunities for independent education, not directly affecting the nature of work, but indirectly. The future teacher should direct the activities of independent improvement of his knowledge to a specific goal and to achieve this goal, he must comply with the following conditions.

1. The content of the independent improvement of one's knowledge should be adapted to the specific conditions in the training workshop of the educational institution where the pedagogical

practice in the future technological education specialty is taking place, the conditions and requirements of the practice.

2. The future teacher should develop the following qualities based on a certain goal and in a certain order:

- to deeply feel and understand the aspirations and interests of students, to be able to take into account their spiritual needs;

- establishing an emotional connection with students, actively influencing aspects of their intellectual, moral and practical activities.

3. The future teacher must independently study the list of questions on general pedagogy, psychology, occupational hygiene and physiology, technical and technological sciences.

4. The future teacher should choose the most effective methods and ways of the work system to improve his pedagogical skills, choose the right technological process and technical objects.

5. Taking into account specific conditions and in accordance with them, it is desirable for the future teacher to use the forms of improving his knowledge individually or together with the team, to perform practical exercises.

We have considered the opinions and definitions of the above-mentioned research scientists about the processes of organizing independent education and the tasks, goals and conditions of future teachers in this regard. We will consider the scientific-methodological importance of independent education in the development of professional competences of future teachers on the example of the “Technological education” direction, “Technical creativity and construction science”. The purpose of forming the special competence of the future teacher of technological education in “Technical creativity and construction science learning” is to create a fully mastered qualified teacher along with a number of tasks to be performed in technological education. is to create conditions for the formation of a specialist and competent high-tech teacher. Taking into account that the main hour of this subject is made up of practical training courses, a lot of time is needed for the student to complete practical training assignments. Naturally, in order to become a mature specialist in his field, a student must constantly search for himself and be able to independently perform design processes. For this, the student should either improve his professional skills in extracurricular processes, or improve his knowledge by studying. In this regard, it is important to develop the professional competencies of future technology teachers who are studying in the direction of “Technological education” in higher educational institutions. The in-depth knowledge acquired by the technology teacher during classes and group work is of great importance in independent work, practical application, creation of new projects, and research. The

role of independent education is incomparable in the formation of future teachers as mature specialists and success in the field of their future work.

References:

1. The concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030 by the President of the Republic of Uzbekistan on October 8, 2019 Decree No. PF-5847.

2. Abdullaeva S. M., Karimova N. Formation of practical competence of vocational education teachers during independent education. Independent education in the higher and secondary special vocational education system: problems and solutions. Proceedings of the republic scientific-practical conference. - Gulistan: GulDU. 2012 year. Pages 222-224

3. Barakaev. M. and others. Methodology of organizing independent education. Educational - methodical manual. T., "Light of Independence". 2017 year

4. Koysinov O. A. The scientific-methodical foundations of independent education in the training of bachelor teachers in the field of professional education, ped. fan. nom. diss. - Tashkent 2008 - 160 p.

5. Rajabova G. J., methodical instructions for performing independent works in the subject of TJL. B., 2018

BOSHLANGICH TA’LIM O‘QUVCHILARINING MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINI TASHKIL ETISH VA TA’MINLASHGA TAYYORLASH

Abdullayev Komiljon Rizqulovich

Boshlang‘ich ta’lim fakulteti

ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari, dotsent v. b. (PhD)

Annotatsiya. Maqolada kelajakda o‘qituvchilarni maktab o‘quvchilarining ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga o‘rgatish muammolari muhokama qilinadi. Mavzu respublika va xorijda ishlab chiqilganligi tahlil qilinadi. Pedagogika oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining innovatsion malakasi (innovatsion tayyorligi) mazmunini ko‘rib chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kalit so‘zlar: ma’naviy-axloqiy tarbiya; ma’naviy tiklanish; kelajakda o‘qituvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga tayyorlash modeli; innovatsion yetuklik; innovatsion yetuklikning tarkibiy qismlari.

Mustaqil O‘zbekistonning jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilishi, mamlakatimizning keng tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyati o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlari va salohiyatini tiklashga qo‘shimcha turtki bo‘ldi va bugun biz mamlakatimizning ma’naviy

tiklanishida guvoh va ishtirokchilarmiz. O‘zbekistonda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar nafaqat ijtimoiy-madaniy hayotning turli jihatlariga, balki odamlarning, ayniqsa, yosh avlodning ongiga ham ta’sir qiladi.

Mazkur shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda, ma’naviy sog‘lom yosh avlodni tarbiyalash ustuvor, davlat ahamiyatiga, vazifasiga aylanmoqda. Kelajakda o‘qituvchilarni ta’lim ishlariga tayyorlash mazmunini tahlil qilib, bugungi kunda ma’naviy-axloqiy tarbiya va zamonaviy pedagogik oliy o‘quv yurtlarining bunday mutaxassislarni tayyorlashga tayyor emasligi, talabalarning (kelajak pedagoglarning) qiziqishi o‘rtasida kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirishga qodir bo‘lgan pedagogik kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj o‘rtasida ziddiyat yuzaga kelgan degan xulosaga keldik. ularning ma’naviy va axloqiy o‘sishida va bu jarayonni amalga oshirishga qodir emasligi. Bundan tashqari, pedagogik ta’limning milliy metodikasida bo‘lajak pedagoglarning ma’naviy – axloqiy tarbiyalashga tayyorligi mezonlari va darajalarini aniqlash, bo‘lajak mutaxassislarni tarbiyaviy ishlarni olib borishga tayyorlash modelini yaratish va boshqa qator masalalar shaxsning kasbiy shakllanishi uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan qator masalalar hal etilmay qolmoqda.

Bugungi kunda rus adabiyotida (O. Musurmonova, M. Kuronov, A. Erkayev, B. Ziyomuhamedov va boshqalar) kelajakda o‘qituvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga tayyorgarlikning mohiyati haqida yagona, tizimli tushuncha mavjud emas – bu faoliyat uchun zarur bo‘lgan sifatlarni aks ettiradi-ularning ma’naviy-axloqiy sohasini tushunish, o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘qituvchining mas’uliyatini anglash, o‘quvchining psixologik xususiyatlarini bilish va boshqalar. . Davlat ta’lim standartida ma’naviy-axloqiy tarbiya sohasidagi mutaxassisning pedagogik vakolatiga doir qoidalar ham yetarli darajada shakllantirilmagan

Ma’naviy-axloqiy tarbiya uchun tayyorgarlikning xorijiy modellari (mualliflar: E. A. Lixanov, A. A. Melik - Pashayev; T. M. Gorbachev; T. A. Florenskaya), shuningdek, kamchiliklardan mahrum emas – xususan, kelajakda o‘qituvchilarda ta’lim ishiga tayyorgarlik ko‘rishning ko‘plab rus kontseptsiyalarida muqaddas (pravoslav) pedagogik merosni professional o‘qitish amaliyotida qo‘llashga etarlicha kuchli e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, yuqorida keltirilgan modellardan biri, tegishli metodik takomillashtirish bilan, mahalliy o‘xshashlikni ishlab chiqishda asos sifatida qabul qilinishi mumkin-biz modeli haqida gapiramiz. T. Gorbachev (6).

Ushbu modelga ko‘ra, o‘qituvchining o‘quvchilarning ma’naviy va axloqiy tarbiyasiga psixologik va pedagogik tayyorgarligi sifat va malakalarning rivojlanish darajasini ifodalovchi bir-biriga bog‘liq bo‘lgan tayyorgarlik to‘plamidir:

1) shaxsning qiymat yo‘nalishlari va ma’nolarining tegishli darajasi sifatida qiymat-semantik tayyorlik;

2) shaxsning zarur ehtiyojlari, intilishlari va niyatlarini shakllantirish uchun motivatsion tayyorgarlik;

3) pedagogik muloqotning zarur fazilatlari va ko‘nikmalarini shakllantirish uchun kommunikativ tayyorlik;

4) o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini hurmat qilish va o‘qituvchining Holistik I-kontseptsiyasini rivojlantirishning zarur darajasi sifatida refleksiv tayyorgarlik;

5) kasbiy bilim, dunyoqarash, axloqiy tushunchalar tizimi sifatida bilimga tayyor bo‘lish;

6)ma’naviy-axloqiy tayyorgarlik uning ma’naviyatini va ma’naviy-axloqiy yo‘nalishlarini tavsiflovchi o‘qituvchi-murabbiyning shaxsiyatining ajralmas xususiyati sifatida.

Psixologik va pedagogik tayyorgarlikning tasvirlangan modeli kelajakdagi o‘qituvchi-o‘qituvchining professional pedagogik va maxsus psixologik tayyorgarligi natijasidir. Bizning fikrimizcha, T. M. Gorbachyovaning modeli jamiyatning zamonaviy pedagogik haqiqatlariga va talablariga to‘liq mos kelmaydi va shu asosda qo‘shimcha elementni – innovatsion tayyorgarlikni (innovatsion vakolatni) tavsiya etamiz. Ma’naviy-axloqiy tarbiya, shuningdek, tarbiyaviy ishlarning boshqa yo‘nalishlari "shablonga ko‘ra" ishni bir marta va umuman tasdiqlangan metodik tavsiyalar bilan o‘z ichiga olmaydi, aksincha – o‘quvchilarning ehtiyojlariga, ularning yaqin rivojlanish zonasiga mos kelishi, shaxsni shakllantirishning ijtimoiy – madaniy xususiyatlarini hisobga olishi va natijada doimo rivojlanib, takomillashib, zamonaviy pedagogik tajribaning eng yaxshisini o‘ziga singdirishi kerak. Bunday yondashuv shuni anglatadiki, respublika oliy maktabida bilim olish yondashuvidan ta’lim natijalariga amaliy yo‘naltirilgan yondashuvga o‘tish kerak. Shunday qilib, an’anaviy bilimlar, ko‘nikmalar, ko‘nikmalar o‘rniga, vakolatlar birinchi o‘rinda turadi.

Keling, ta’lim fanida "vakolat" va "vakolat" tushunchalarining bir aralashmasi borligini ta’kidlaylik. Qishki Ia ta’kidlaganidek, vakolatni "bilim, intellektual va shaxsiy ravishda inson hayotining ijtimoiy va professional xususiyatlariga asoslangan haqiqiy, shakllangan shaxsiy sifat" deb tushunish kerak. Har bir vakolatli guruhda ba’zi ichki, potentsial, yashirin psixologik neoplazmalar kabi asosiy vakolatlar doirasi aniqlanadi: bilim, vakillik, harakat dasturlari, qadriyatlar va munosabatlar tizimi, keyinchalik insonning vakolatiga kiradi" (2). Ushbu tezisdan kelib chiqqan holda, vakolat faqat maxsus tashkil etilgan faoliyat natijasida shakllanadi.

"Innovatsion yetuklik" tushunchasi bugungi kunda O‘zbekistonda ilmiy qo‘llanishda keng tarqalmagan. Xorijiy tadqiqotlarda bu ta’rif asosan menejmentga nisbatan qo‘llaniladi. Ushbu kontseptsiyani talqin qilishning pedagogik sohasiga yanada yaqinroq bo‘lgan E. S. Simbirsk, yu. B. Suvorov: "innovatsion qobiliyat" - mutaxassis (3) tomonidan innovatsiyalarni tez va samarali rivojlantirishga yordam beradigan qobiliyatlar, fazilatlar va ko‘nikmalar majmui. Zamonaviy

ta’lim fanida innovatsion malakaning tarkibiy qismlari allaqachon aniq belgilangan. Birgalikda, ushbu komponentlar har bir o‘qituvchi uchun samarali innovatsion pedagogik faoliyat uchun, ayniqsa, ta’lim ishlarida zarur bo‘lgan shaxsning muhim fazilatlari va aqliy xususiyatlarini tashkil etadi.

Innovatsion mahorat qanday shakllantirilishi kerak? Ushbu masalaning yechimi aniq emas va har bir oliy ta’lim muassasasi sharoitida innovatsion vakolatni shakllantirishning o‘z yo‘llari topiladi.

Shu bilan birga, ushbu muammoning universal echimi ta’lim texnologiyalaridan foydalanishdir. Belgilangan maqsadlarga erishishda faol va interaktiv ta’lim shakllari va usullari muhim rol o‘ynaydi. Faol o‘qitishda talaba passiv o‘rganishdan ko‘ra, o‘qituvchi bilan muloqotga kirishadi, ijodiy, qidiruv, muammoli vazifalarni bajarib, bilim jarayonida faol ishtirok etadi. Innovatsion vakolatni shakllantirish jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

I. Karimov. O‘zbekiston XXI asr ostonasida: xavfsizlikka tahdid, taraqqiyot shartlari va kafolatlari. O‘tish: Saytda Harakatlanish, Qidiruv

Зимняя И. А. Компетентностный подход. Каково его место в системе современных подходов к проблемам образования? (Теоретико-методологический аспект) // Высшее образование сегодня. – 2006. – № 8. - С. 20-26

M. Kuronov. Milliy tarbia. Toshkent ma’naviyat 2007.

Gorbachev, T. M. o‘qituvchining ma’naviy murabbiy sifatida professional faoliyatining tarkibi [matn]/ T. M. Gorbachev / / fan va gumanitar ta’limning dolzarb muammolari: universitetlararo ilmiy ishlar to‘plami. 2004. - 65-75.

Toshpulatova D. K. “The role of mental arithmetic in improving mathematical literacy in primary school”. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science Published 18. 12. 2019.

Toshpulatova D. K. “The role of mental arifmetics and thinking skills in mathematics lessons of primary schools”. International Engineering Journal For Research & Development – 2020.

STEAM (STEM, STREAM) TA’LIM

Abdumalikova Gulchiroy Tohir qizi
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti 814-23-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada STEAM ta’limning tarixi, uning rivojlanishi, shakllari va bugungi kundagi ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan. STEAM ta’limning kengaytmasi va izohlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘z: STEAM, ta’lim, boshlang‘ich sinf, texnologiya, matematika, san’at, robototexnika, ilm-fan, muhandislik, pedagogika, innavotsiya.

Аннотация. В этой статье представлена информация об истории образования STEAM, его развитии, формах и значении сегодня. В ней говорится о расширении и объяснениях образования STEAM.

Ключевые слова: STEAM-образование, начальная школа, технологии, математика, искусство, робототехника, наука, инженерия, педагогика, инновации.

Abstract. This article provides information about the history of STEAM education, its development, forms and importance today. It talks about the extension and explanations of STEAM education.

Keywords: STEAM education, elementary school, technology, mathematics, art, robotics, science, engineering, pedagogy, innovation.

STEAM bu - S — science, **T — technology**, **E — engineering**, **A — art** va **M — math**. Ingliz tilida bu shunday bo‘ladi: **tabiiy fanlar**, **texnologiya, muhandislik**, **san’at** va **matematika. [1]** Ushbu yo‘nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo‘lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta’limi yo‘nalishi va amaliy yondashuvni qo‘llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta’lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan. Uning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya’ni o‘rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo‘limiz bilan ham ishlashimiz kerak. STEAM yondashuvning asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o‘rganish uchun ham miyani, ham qo‘llarini ishlatadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-

tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan quydagi qaror yurtimiz kelajagi uchun xizmat qiladi.

2019 — 2021-yillar davomida respublikaning har bir hududida bosqichma-bosqich STEAM (fan, texnologiya, injiniring, san’at va matematika) yo‘nalishlariga ixtisoslashtirilgan “Prezident maktablarini” tashkil etish [2]

STEAM ta’lim tizimiz nafaqat Prezident maktablarida, balki oddiy maktablarda ham olib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. STEAM ta’lim bizning hayotimizga qachon va qanday shaklda kirib kelgan? STEAM dastlab Amerikada ishlab chiqilgan. Ba’zi maktablar bitiruvchilarining martabalarini e’tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishi natijada STEM yuzaga keldi. Keyinchalik bu atamaga Art qo‘shildi va endi u STEM emas STEAM deb atala boshladi. Art -so‘zi inglizchadan olingan bo‘lib, “san’at” degan ma’noni bildiradi. Hozirgi kunda san’at ham zamon bilan hamnafas holda rivojlanyapti. “Art” so‘zi san’atning barcha turlarini qamrab oladi. STEAM ta’limga juda ko‘p davlatlar e’tibor bermoqda . STEAM ta’limning eng yaxshi na’munasi sifatida quyidagini misol keltirishimiz mumkin. Massachusets Texnologiya Instituti(MIT) -ushbu dunyo universitetining shiori quydagicha: “ Mens et manus”(Aql va qo‘l). Bu institut bolalarga STEAM tushunchasini o‘rgatish uchun o‘quv kurslari ochadi va unga bolalarni jalb qila boshlaydi. Ba’zi joylarda esa aynan STEAM ta’lim uchun o‘quv markazlari ochiladi. [3] Bu o‘sha davlatda STEAM ta’limning rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi. “Aql va qo‘l” shiorida ham aynan STEAM ta’lim aks etgan. Inson nimadir qilayotganda uni o‘ylaydi, uning rejasini miyasida tuzib olib, so‘ngra uni puxta bajarishga harakat qiladi. Universitet va institutlarda ham nazariy bilimlar qanchalik kuchli o‘tilmasin, talabalarda amaliy ko‘nikma paydo bo‘lmas ekan, insonning hayotida bu samarasizdir. Ko‘pgina mamlakatlarda STEAM ta’lim ba’zi sabablarga ko‘ra ustuvor ahamiyatga ega. Zamon rivojlanayotgan bir paytda, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish mutaxasisliklariga talab juda yuqori bo‘ladi. Mutahasislar texnologiya, tabiiy fan va muhandislikning turli sohalaridan keng qamrovli ta’lim va tajribaga muhtoj bo‘ladi. Bilamizki, yaxshi mutaxasislar hech qayerda hor bo‘lmaydi. Ularga talab yuqori bo‘ladi. Buning uchun har bir kasb egasi o‘zining ustida ishlashi, mehnat qilishi va zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalana bilishi kerak. Shuningdek, juda ko‘p davlatlarda STEAM ta’lim tizimi o‘rganilmoqda.

2014-yilda Quddusda bo‘lib o‘tgan «STEAM forward» xalqaro konferensiyasida quyidagi bayonotlar bildirildi:

Bolalarni STEAMga jalb qilish. Ushbu ta’lim maktabgacha yoshdan boshlab boshlanishi kerak, shuning uchun dasturlarni bolalar bog‘chalariga kiritish kerak.

Fan tili ingliz tilidir. Agar ilm-fanni o‘rganish va olim bo‘lishni istasangiz, bu tilni bilishingiz kerak.

Qizlar uchun Steam-ta’lim dasturlari kerak. Ilm-fan sohasidagi qizlar, ularning tartibliligi tufayli, o‘g‘il bolalar qila olmaydigan narsalarni qilishlari mumkin.

Science is fun! Ilm-fan quvnoq bo‘lishi kerak, u o‘quvchilar uchun qiziqarli va o‘ziga jalb qiluvchi bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, shuni ta’kidlashni istardikki, an’anaviy o‘qitish uslublari bilan taqqoslaganda, o‘rta maktabdagi STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o‘tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o‘z g‘oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. [4]

Quddusda bo‘lib o‘tgan konferensiyadagi birinchi bayonotda-bolalarni STEAM ta’limga o‘rgatish maktabgacha yoshdan boshlanishi kerakligi aytib o‘tildi. Bu to‘g‘ri qaror. Chunki yosh bolaga nazariy bilim o‘rgatildimi, demak uni amaliyotda ham bajarib ko‘rsatish kerak. Shundagina bola u bilimni tasavvur qila oladi. Natijada uning tasavvuri, nimadirlarni yaratishga oid kashfiyotchiligi uyg‘ona boshlaydi. Ikkinchi bayonotga ko‘ra, ingliz tilini bilish dunyodagi ko‘p bilimlarga ega bo‘lish demakdir. Dunyo rivojlanayotgan bir paytda ingliz tili yirik dunyo tiliga aylanib ulgurgani buning asosiy sababi. Inson yangi bilimlarni o‘rganaversa, u hech qachon qarimaydi. Shunday ekan til o‘rganish ham insonning aqlini charxlaydi, unda yangi narsalarni o‘rganishga, ularni amalda sinab ko‘rishga moyilligi orta boshlaydi. Uchinchi bayonotga ko‘ra, qizlarni ko‘proq ilm-fanga jalb qilish -yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin. To‘rtinchi bayonotga ko‘ra, bolalarga bilim o‘rgatayotganda, bolani jalb qila oladigan usullardan, metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi. O‘quvchiga biror ma’lumot beryapsizmi, demak uni hayotiy voqealar bilan boyiting, o‘sha narsani amalda ko‘rsatib bering. Shundagina siz o‘z kasbingizning ustasi bo‘lasiz. Bolaga biron narsani o‘rgatayotganada, uni erkin fikrlashiga qo‘yib berishimiz kerak. Shunday holatda bolaga yangi fikrlar, g‘oyalar keladi. Fikrlash doirasi kengayadi.

O‘zbekistonda STEM sohasidagi ta’lim yo‘nalishlari va kasblarda juda kam sonli xotin-qizlar mavjud.

2017 yilgi ko‘rsatkichlarga ko‘ra, mamlakatda kasb-hunar bilim yurtlarida va universitetlarda axborot texnologiyalari, arxitektura va qurilish sohasida o‘qiyotgan talabalarning mos ravishda 43% va 17% qismini xotin-qizlar tashkil etadi. Mustamlaka paytimizda, bizning o‘qish suratimiz o‘smagan. Yaqin kunlargacha ham O‘zbekistonda qizlarning o‘qishiga oddiy xalq tomonidan ijobiy qaralmagan. Xotin-qizlar faqat dala mehnatlari bilan, uy ishlari bilan shug‘ullanishgan. Shuning uchun ularning ongi zamonaviy bilimlardan orqada qolib

ketgan. Natijada, erkakalar texnologiyaga oid kasblar bilan shug‘ullanib, yuqori maoshli kasblarni egallay boshlaganlar. Hozirgi kunda buning aksi. Prezidentimiz tomonidan qizlarning o‘qishi uchun juda ko‘p imkoniyatlar yaratildi.

Dunyoda STEM bilan bog‘liq sohalardagi barcha talabalarning atigi 35 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Tadqiqotchilarning 30% dan kamrog‘i ayollardir va bunday holat dunyoning barcha mintaqalarida kuzatiladi. Global miqyosda ayollarning maoshi erkaklarga nisbatan 23 foiz kamroq. Ushbu farqni yengish uchun 68 yil talab etiladi, deyiladi tadqiqotda. Ayollarning mehnatdagi ishtiroki esa 63 foizni, erkaklarniki 94 foizni tashkil etadi.

YUNESKOning STEM va gender bo‘yicha bo‘yicha hisobotiga (SAGA) ko‘ra, bunga asosiy sabablar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

Kasb tanlashdagi farqlar;

Hayotiy qadriyatlardagi farq;

Ishonch va o‘z-o‘zini anglash;

Gender stereotiplari;

Gender tarafkashligi. [5]

O‘zbekistonda STEAM ta’limni rivojlantirish uchun Osiyo banki juda katta mablag‘ ajratgan. Bugungi kunda STEAM yanada takomillashib, STREAM nomi bilan atala boshladi. Bu so‘zdagi “R” harfi “Robototexnika” fanini bildiradi. **Robototexnika** (chex. —majburiy mehnat + qadimgi yunoncha: *τέχνη* — san’at; inglizcha: *robotics*) — bu robotlarni qurish, ishlatish va ulardan foydalanish, shuningdek ularni boshqarish, sezish va ma’lumotlarni qayta ishlash bilan shug‘ullanadigan mexanik, elektrotexnika va elektron muhandislik va kompyuter fanining birlashgan sohasi hisoblanadi. [6] Bu soha XXI asrda eng takomillashgan, rivojlangan sohalardan biridir. XXI asr “Axborot texnologiyalari asri” hisoblanadi. Shunday ekan bu soha insoniyat olamiga kirib kelishi, insonlarning turmush tarzini yaxshilashiga yordam beradi. Bilimi bor va uni amaliyotda qo‘llay oladigan, fikrlash doirasi keng insonlar bu sohada qiynalmay ishlay oladi.

Xulosa qilib aytganda, shuni ta’kidlashni istardikki, an’anaviy o‘qitish uslublari bilan taqqoslaganda, o‘rta maktabdagi STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o‘tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o‘z g‘oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta’lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko‘nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va universitetga kirish va keyingi o‘qishni osonlashtiradi. STEAM -ta’limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo‘lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyotiga va matematikaga integratsiya qilish yotadi. Dunyo o‘zgarib bormoqda, hatto ta’lim bir joyda turmasa ham. So‘nggi o‘n yilliklardagi o‘zgarishlar yoqimli, ammo shu bilan birga bizni havotirlantiradi. Ushbu yangi

narsalarning ixtiro qilinishi bilan odamlar ilgari duch kelmagan ko‘plab yangi muammolar mavjud. Har kuni yangi ish turlari va hattoki butun kasbiy sohalar paydo bo‘ladi, shuning uchun zamonaviy o‘qituvchilar o‘qitadigan bilimlari va mahoratlari vaqt talablariga javob beradimi yoki yo‘qmi deb o‘ylashlari kerak. O‘zingizning g‘oyangizni topishga bilim yordam beradi, ammo haqiqiy ish bu g‘oyani haqiqatga aylantiradi. Agar biz an’anaviy ta’limning asosiy maqsadi bilimlarni o‘rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko‘nikmalar bilan birlashtirishga o‘rgatadi. Bu maktab o‘quvchilariga nafaqat ba’zi bir g‘oyalarga ega bo‘lish, balki ularni amalda qo‘llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. O‘sha haqiqatda ishlatilishi mumkin bo‘lgan bilimgina haqiqatan ham qadrlidi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Davlatova Saidaxon "Boshlang‘ich ta’limda STEAM texnologiyasini qo‘llash" maqola. "Involta" Innovation Scientific Journal. 2023

2. https://lex. uz/docs/-4327235

3. "STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI. BOLALARGA TA’LIM-TARBIYA BERISH IMKONIYATLARI" Anvarova Dilshoda, Bekpòlatova Diyora. maqola

4. https://dzen. ru/a/X-UUPbWQzx1kK_ED

5. Махмудов А. Х. , Абдурахмонов З. Б. Таълимда замонавий рақамли технологияларидан фойдаланишнинг ютуқлари ва муаммолари //Academic research in educational sciences. – 2021.

6. https://uz. m. wikipedia. org/wiki/Robototexnika.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING O‘QUVCHILAR YOZMA NUTQIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Abduraxmonova Dinara Yusupovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

Аннотация.В статье рассматриваются педагогические возможности совершенствования методической подготовки будущих учителей начальных классов к развитию письменных и устных компетенций учащихся.

Abstract. The article examines the pedagogical possibilities of improving the methodological training of future primary school teachers for the development of written and oral competencies of students.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning asosiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega. Aynan shu davrda bolalar o‘qish, yozish va muloqot qilishni o‘rganib, kelajakdagi ta’lim jarayoniga poydevor qo‘yadilar. Yozma nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini til boyligini oshirish, fikrlarini aniq ifodalash va mantiqiy tahlil qilishga o‘rgatishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilarda yozma nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodik tayyorgarligini takomillashtirish pedagogik jarayonning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Yozma nutqiy kompetensiyalar o‘quvchilarning fikrlarini yozma shaklda aniq, mantiqiy va grammatik jihatdan to‘g‘ri ifoda etish ko‘nikmasini shakllantiradi. Yozma nutq orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini tizimli va mazmunli tarzda bayon qilishni o‘rganadilar, bu esa ularning kelajakdagi o‘qish faoliyatida ham, kundalik hayotda ham muhim ko‘nikma hisoblanadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilarda yozma nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodik tayyorgarligida turli qiyinchiliklar va muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish pedagogik tayyorgarlikning samaradorligini oshirish uchun muhimdir.

Boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisi kasbiy kompetentliligining shakllanishi va rivojlanishi uzoq hamda uzluksiz tarzda amalga oshadigan jarayondir. Ya’ni o‘qituvchi pedagogik faoliyatda tinimsiz ravishda o‘z ustida ishlashi, soha yangiliklaridan xabardor bo‘lishi, darsdan-darsga o‘zida yangi sifatlarni shakllantira borishi lozim [1].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilim olishida o‘quvchilarda yozma nutqiy kompetensiyalarni, tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metodik tayyorgarligida ta’lim mazmunining o‘rni beqiyos. Jumlada “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmada ta’kidlanishicha “Ta’lim mazmuni davlat va jamiyat talablariga ko‘ra pedagogik texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlari asosida belgilanadi, shakllanadi” [2]. Bu pedagogik texnologiyalar amaliyotga qanchalik rivojlangan holda tadbiq qilinsa, ta’lim mazmuni shu darajada rivojlanadi. Bo’lajak boshlang‘ich sinf o’qituvchilarini o‘quvchilar yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish mazmuni o’quv-

me’yoriy hujjatlari Davlat talablari, o’quv reja va o’quv dasturlariga tayangan holda olib boriladi. Ushbu dasturlar asosida olib boriladigan ta’lim jarayoni negizida bo’lajak boshlang‘ich sinf o’qituvchilarini o‘quvchilar yozma nutqiy kompetensiyalarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish vazifasi yotadi. Bu uzluksiz jarayon tizimli va izchillik bilan olib borilishini talab etadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari

Pedagogik imkoniyatlari			
Mazmuni	Me’yoriy-huquqiy hujjatlar, DTS, malaka talablari, o‘quv reja, darslik.		
Shakli	Auditoriya mashg‘uloti.	Auditoriyadan tashqarida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar	
	ma’ruza, amaliy, seminar mashg‘ulotlari.	mustaqil ta’lim, 4+2 amaliyot dasturu	
Metodlari	Og‘zaki	Yozma	Amaliy
	Suhbat, hikoya.	mustaqil ta’lim, referatlar, tezislar, esselar	Bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya.

Bo’lajak boshlang‘ich sinf o’qituvchilarini metodik tayyorlashda oliy ta’limda o’qitiladigan mutaxassislik fanlari muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich ta’lim “Ona tili o‘qitish metodikasi” fanining mazmunini bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi fanining mazmuni va vazifalari, o‘qish usullari, ta’lim vositalari bilan tanishtirish va ularn ta’lim jarayoniga tadbiq etish shakllantrish hamda amaliyotga tadbiq ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat. Fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masallarning mazmun mundarijasini belgilash, ona tili didaktikasi va metodikasi haqida ma’lumot berish hamda ona tili o‘quv predmeti sifatida qanday o‘qitish kerakligiga oid kompitentlikni shakllantirishdan iborat.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini yoritishda boshlang‘ich ta’limda o‘tiladigan ona tili o‘qitish metodikasi fani o‘qitishni takomillashtirish nazarda tutiladi. Ona tili o‘qitish metodikasi fanini tashkil etish shakli ikki turga bo‘linadi.

- Auditoriyada tashkil etiladigan dars mashg‘ulotlari: ma’ruza, amaliy, seminar mashg‘ulotlari.

- Auditoriyadan tashqarida tashkil etiladigan dars mashg‘ulotlari: mustaqil ta’lim, 4+2 amaliyot dasturu.

Ona tili o‘qitish metodikasi fanini o‘qitish metodi: og‘zaki, yozma va amaliy.

Og‘zaki metodlarga: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilarda yozma nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish hikoya, suhbat metodlari orqali amalga oshiriladi.

Yozma metodlarga: ona tili o‘qitish metodikasi fanidan mustaqil ishlarni bajarish, referatlar, tezislar, esselar yozish orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilarda yozma nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishga yordam beradi.

Amaliy metodlarga: Ona tili o‘qitish metodikasi fanini o‘qitish jarayonida bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirish orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilarda yozma nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishtiriladi. Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi Ona tili o‘qitish metodikasi fani bo’yicha tayanch o’quv reja, o’quv dasturi, malaka talablari tahlil qilindi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Oliy ta’limning tayanch o’quv rejasiga muvofiq “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi Ona tili o‘qitish metodikasi fani bo’yicha belgilangan ta’lim mazmunini bo’lajak boshlang‘ich sinf o’qituvchisiga yetkazish uchun ajratilgan o’quv soatlari:

O’quv fani	**Kurslar**				**Haftalik umumiy soat**
Ona tili o‘qitish metodikasi	**2 kurs**		**3 kurs**		
	3 semestr	4semestr	5 semestr	6 semestr	
Ma’ruza	13	14	13	13	Kurslar kesimida
Amaliy	15	15	15	15	
Seminar	4	2	4	4	
Mustaqil ta’lim	60	60	60	60	
Jami:	240		240		4 soat

Oliy ta’limning o’quv dasturi boshlang‘ich sinflarda Ona tili o‘qitish metodikasi fanining kurslar va mavzular bo’yicha hajmi, mazmuni, o’rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan ko’nikmalar tahlil qilindi. Unga ko’ra Ona tili o‘qitish metodikasi fanini asosiy mazmunini

individual o’zlashtirilishini hisobga olgan holda bo’lajak boshlang‘ich sinf o’qituvchilarning kuchli bilim va tafakkurga ega bo’lishi eng muhim omil hisoblanadi.

Umumiy o’rta ta’lim davlat ta’lim standartida umumiy o’rta ta’lim muassasalari uchun umumta’lim fanlaridan o’quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo’yiladigan umumiy talablar ham belgilab berilgan bo’lib unga ko’ra o’quv-metodik majmua sifatida darslik ham bir qator umumiy talablarga muvofiq bo’lishi lozim. Xususan, tadqiqot ishimizdan kelib chiqib, darsliklarning davlat ta’lim standartida belgilab berilgan talabga ko’ra nazariy ma’lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olinishi va o’quv materiallari sifatida yangi ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ko’ra amaldagi Ona tili darsliklar tahlil qilindi.

Xulosa qilib, taqdiqot jarayonida shuni aytish mumkinki, o‘quvchilarning tafakkuri va faoliyati mustaqilligi darajasini aniqlash hamda uni munosib baholay bilish o‘qituvchining o‘zi mustaqil fikr sohibi bo‘lishini taqozo etadi. Chunki o‘zi mustaqil fikr egasi bo‘lmagan o‘qituvchi o‘quvchilarini mustaqil faoliyatga yo‘naltira olmaydi, ularni munosib baholashga ham qodir bo‘lolmaydi. O‘zining mustaqil nazari bo‘lmagan muallim o‘rganilayotgan ob’yektdagi o‘quvchilardan mustaqil mulohaza yuritishni talab etadigan detallarni ilg‘amaydi. Natijada, o‘quvchilar badiiy asarning mazmunini qayta hikoyalab berish, tasviriy san’at asarlari bo‘yicha ko‘rinib turgan asosiy jihozlarni sanash bilan chegaralanadilar va ularning aqliy, ma’naviy taraqqiyoti ham shu atrofda bo‘laveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Husanboyeva. Q, Shodiyev. F, Hazratqulov. M. Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi. SamDU. 2019. 332 b. 36-bet.

2. Тўхлиев Б. , Шамсиева М. , Зиёдова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. –Тошкент: 2010. – 314 б.

3. Boynazarova D. D. Ona tili 3-sinf 2-qism. “Novda Edutainment” Toshkent-2023. 85 b.

4. Toirova M. E. Ona tili 4-sinf 1-qism. “Novda Edutainment”. Toshkent-2023. 87 b.

TIRIK ORGANIZMGA TA’SIR ETUVCHI MUXIT VA EKOLOGIK OMILLAR

Abdurazzoqova Dilobar Shuxrat qizi

JDPU Boshlang‘ich ta’lim 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada asosiy ekologik omillar hamda ularning titik organizmlarga ta’siri haqida ma’lumotlar berilgan. Ekologik omillar har doim organizmlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi va tirik organizmlar ham o‘z navbatida ularga nisbatan javob reaksiyasini qaytaradi.

Kalit so‘zlar: abiotik, biotik, antropogen, biogen, zoogen mikrobiogen, biosferaning tuzilishi, muhofaza qilish, ekologik vaziyat.

Аннотация. В данной статье представлена информация об основных факторах окружающей среды и их влиянии на организмы клещей. Факторы окружающей среды всегда оказывают воздействие на организмы, а живые организмы, в свою очередь, реагируют на них.

Ключевые слова: абиотический, биотический, антропогенный, биогенный, зоогенный, микробиогенный, структура биосферы, охрана, экологическая ситуация.

Abstract. This article provides information on the main environmental factors and their effects on tick organisms. Environmental factors always have an effect on organisms, and living organisms in turn respond to them.

Keywords: abiotic, biotic, anthropogenic, biogenic, zoogenic, microbiogenic, biosphere structure, protection, ecological situation.

Omillar atamasi bilan muhit, atrofdagi organizm yoki ularning jamoasini sharoit va elementlarining vaqt va makonda dinamik xilma-xilligi tavsiflanadi. Omil-jarayon yoki uning sharoitini, jarayonga ta’sir etuvchi harakat kuchini yoki qandaydir jarayon yoki hodisaning mavjudlik shart-sharoitini ifodalaydi. Ekologik omillar odatda jonsiz (abiotik) tabiat omillari, jonli (biotik) tabiat omillari turkumga bo‘linadi. Muhitning ekologik omillarini batafsil tasniflash I. N. Ponomaryova tomonidan taklif etilgan. Bu taklif 1-jadvalda keltirilgan. Ba’zi mualliflar antropogen omillarni (ularning muhimligi va o‘ziga xosligidan kelib chiqib) alohida turkumga ajratishadi.

Ekologik omillar tirik organizmlarga doimo ta’sir ko‘rsatib turadi. Ular ma’lum bir muhitda va shu muhitning omillarni ta’sirida yashaydi, rivojlanadi, doimo harakatda bo‘lib o‘zidan nasl qoldiradi. Organizmlar muhit omillarisiz yashay olmaydi va o‘z hayotiy faoliyati davomida o‘zlari yashab turgan joyga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi. Masalan tog‘ mintaqalarida tarqalgan o‘simliklarning ildizlari tog‘ jinslarini yemirib tuproq hosil bo‘lishida ishtirok etsa, cho‘llarda tarqalgan o‘simliklar qumlarni ko‘chishini oldini oladi.

Tirik organizmlarni individual rivojlanish jarayonining bir fazasi davrida to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qiladigan muhit elementlariga ekologik omillar deyiladi. Omillar organizmlarga turlicha ta’sir ko‘rsatadi.

1. Ayrim turlarni siqib chiqaradi va ularning tarqalishini o‘zgarishiga olib keladi.

2. Har xil turlar rivojlanishiga hevosita ta’sir ko‘rsatib, ko‘payishi hamda nobud bo‘lishini o‘zgartiradi.

3. Tirik organizmlarda moslanish hususiyatlarini keltirib chiqaradi, ularda yozgi va qizgi tinim davri, fotodavr reaksiyasining kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Tirik organizmlar tashqi muhit omillariga nisbatan turlicha shaklda moslashgan bo‘ladi. Masalan ayrim o‘simliklar yorug‘lik va haroratga nisbatan talabegan bo‘lib ular yorug‘sevar o‘simliklar deyiladi va ayrim o‘simliklar esa yorug‘likni ko‘p talab qilmaydi. Shunga ko‘ra mikroorganizm, o‘simlik hamda hayvonlar muhit omillardan turli miqdorda foydalanadilar.

Har bir tur turli ekologik omillarga nisbatan chidamlilik chegarasiga ega. Organizmlar yashashi, o‘sishi, rivojlanishi hamda ko‘payishi uchun ekologik omillarning ta’sir ko‘rsatadigan eng qulay chegarasi biologik optimum yoki optimum zona deb ataladi. Agar omillar maksimum yoki minimum darajada ta’sir qilsa organizmlar hayot faoliyati pasayishiga yoki to‘xtashiga sabab bo‘ladi. Optimum zonadan og‘ish va organizmlar nobud bo‘lish chegarasi pissimum zona deb ataladi.

Ekologik omil ko‘rsatgichlarining tirik organizmlar yashashi mumkin bo‘lgan chidamlilik chegaralari doirasi tolerantlik (lot. "tolerantia" sabr - toqat) zonasi deb ham aytiladi. Har bir organizmlar uchun ekologik omillarning maksimum, minimum hamda optimum chegaralari mavjud. Masalan uy pashshasi +7 dan past va +50 dan yuqori haroratda yashay olmaydi. Ular uchun eng qulay optimum zona +23 +25 hisoblanadi.

Tirik organizmlarning muhit omillarining o‘zgarishiga moslanishiga ekologik valentlik deb aytiladi. Muhitning bunday o‘zgarishiga nisbatan tor doirada moslashgan turlar stenobiontlar va kech doirada moslanish chegarasiga ega bo‘lgan turlar evribiontlar deb ataladi. Bularga kalamush, suvarak, pashsha hamda burgalar misol bo‘ladi.

Ekologik omillar asosiy 3 ta guruhga ajratiladi:

1. Abiotik omillar organizmlarga ta’sir ko‘rsatadihan anorganik omillar yig‘indisi. Bularga atmosfera, suv, tuproq, harorat, bosim, yorug‘lik, namlik, shamol kabilar misol bo‘ladi.

2. Biotik omillar muhitda yashayotgan biogen, zoogen, mikrobiogen va mikogen organizmlarning o‘zaro hamda bir-biriga ta’siri natijasida kelib chiqadi.

3. Antropogen omillar-insonlar faoliyati ta’siri natijasida kelib chiqadigan omillar. Abiotik omillar

Yorug‘lik uning o‘simlik hamda hayvonlar hayotidagi ahamiyati katta. Yorug‘lik ta’sirida. o‘simliklar uchun zarur hayotiy jarayonlar, fotosintez, transpiratsiya, fotoperiodizm kabi jarayonlar amalga oshadi. O‘simliklar yorug‘likka bo‘lgan munosabatiga ko‘ra yorug‘sevar (geliofit), soyasevar (ssiofit) va soyaga chidamli yokifakultativ geliofit o‘simliklar guruhlariga bo‘linadi.

Yorug‘lik hayvonlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Yorug‘lik ko‘pchilik hayvonlarning fazoda mo‘ljal olishiga yordam beradi. Arilar quyosh bilan ma’lum burchak hosil qilib aylanib, asalshiraga bor joyni ko‘rsatadi. Qushlar esa uzoq masofalarga uchib ketayotganda quyoshga qarab mo‘ljal oladi. Yorug‘lik organizmlarning rivojlanishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Tajribada o‘rmon suvsarlariga qiz faslida qo‘shimcha yorug‘lik ta’sir qilinganda ular muddatdan oldin bolalagan.

Temperatura hayvon va o‘simliklarga ta’sir ko‘rsatadi. Tana haroratini doimo bir xil saqlab turadigan hayvonlar gomoyoterm, tana harorati doimiy bo‘lmagan, tashqi muhit harorati bilan bog‘liq holda o‘zgaradigan hayvonlar poykiloterm, oraliq havonlar esa geteroterm yoki gomoyoterm organizmlar deb ataladi. Bu hayvonlar uyquga ketgan vaqtida hayotiy faoliyati pasayadi. Bularga yumronqoziq, olmaxon, ko‘rshapalak, tipratikan, kolibrilar misol bo‘ladi. O‘simliklarda ham temperaturaga nisbatan o‘ziga hos moslanishlar bo‘lib, issiq haroratga chidamli o‘simliklar termofillar va sovuqqa chidamlilar psixrofillar deb ataladi. Tuproq o‘simliklar, mikroorganizmlar, hayvonlarning yashash muhiti bo‘lib, ularga ekologik omil sifatida ta’sir ko‘rsatadi. O‘simliklarning tuproq tarkibidagi tur xil tularga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra kalsifillar, kalsefoblar, galofitlar kabi guruhlari mavjud.

Biotik omillarga tirik organizmlarning bir-biriga va o‘zaro munosabatlari misol bo‘ladi. Masalan bir turga yoki bitta populatsiyaga mansub o‘simliklar o‘zaro ta’sir kuchiga ega bo‘lib bir-biriga doimo ta’sir qilib turadi. Bularga 1. O‘simliklarning o‘simliklarga, 2. O‘simliklarning hayvonlarga, 3. Hayvonlarning o‘simliklarga, 4. Hayvonlarning hayvonlarga, 5. Mikroorganizmlarning o‘simlik va hayvonlarga ta’siri misol bo‘ladi. O‘simliklarning hayvonlarga va hayvonlarning o‘simliklarga ta’siriga hayvonlarning o‘simlar bilan oziqlanishi. hamda ayrim botqoqliklarda tarqalgan hasharotxo‘r o‘simliklar va zaxarli ayiqtovon, kampircho‘pon, kakra, mingdevona, bangidevona kabi zaxarli o‘simliklarni misol qilib keltirish mumkin. Hayvonlarning hayvonlarga ta’siriga yirtqichlilik misol bo‘ladi. Mikroorganizmlarning o‘simliklar va hayvonlarga ko‘rsatadigan ta’siri ularda turli parazitlar ta’sirida vujudga keladigan kasalliklarda namoyon bo‘ladi.

Antropogen omil deyilganda insoniyatning tirik organizmlarga ko‘rsatayotgan ta’siri tushuniladi. Bugungi kunda turli korxona, fabrikalarni ko‘plab qurilayotgani, shaharlar barpo etilayotgani sababli hayvonlar hamda o‘simliklarga jinni ziyot yetmoqda. Ko‘plab hayvonlar qirilib yo‘q bo‘lib ketyabti butun dunyoda va yurtimizda ham flora va faunani asrash maqsadida "Qizil Kitob" ta’sis etilgan. Bundan tashqari ko‘plab qo‘riqxona, milliy bo‘g‘lar ham bor. Shularga qaramasdan bugungi kunda ko‘plab turlar havf ostida qolmoqda. Neft mahsulotlarini okean hamda dengizlar orqali tashilganda okeanlarga chiqqan qismi, aholining chiqindi mahsulotlarini suvga

oqizib yuborishlari natijasida suvning ifloslanishi ham hayvonlarning ko‘pi nobud bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Tirik organizmlar atrof-muhitdagi ko‘plab omillar ta’sirida yashaydi. Ularning hayoti va rivojlanishi iqlim, suv, tuproq tarkibi, boshqa organizmlar va antropogen omillarga bog‘liq. Ekologik tizimlar muvozanatni saqlashda bir-biriga bog‘liq bo‘lib, insonning tabiatga ta’siri esa bu muvozanatni buzishi mumkin. Shuning uchun tabiiy resurslarni oqilona va barqaror tarzda boshqarish ekologik tizimlarni saqlab qolishda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. T. Oqituvchi, 1991.
2. Tilovov T. Ekologiyaning dolzarb muammolari. Qarshi. Nasof, 2003.
4. To‘xtayev A. Ekologiya. T. O‘qituvchi, 1996.
5. Ulomov N. Inson va tabiat. T. O‘qituvchi, 1990.
6. Otaboyev Sh. Nabiyev M. Inson va biosfera. T. O‘qituvchi, 1995.
7. Shodimetov Yu. Ijtimoly ekologiyaga kirish. T. O‘qituvchi, 1994.
8. Rofiqov A. A. Geoekologik muammolar. T. O‘qituvchi, 1997.
9. Ergashev A. , Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. T. O‘qituvchi, 2005.

ABU RAYHON BERUNIYNING PEDAGOGIK QARASHLARIDAN TA’LIM JARAYONIDA SAMARALI FOYDALANISH

O‘ralova Odina Ravshanovna
JDPU Pedagogika ta’limi nazariyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniy inson kamolotida, mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etilgan. Mutaffakkir har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo‘ladi. Og‘ir mehnat sifatida binokor, ko‘mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnati keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: mehnatni yuksak baholash, mineralogiya, mehnat tarbiyasi, maktabgacha ta’lim, odob-axloq, ko‘nikma va malaka.

Аннотация. В этой статье представлены важные мысли Абу Райхана Беруни о развитии человека, труде и трудовом образовании. Мыслитель делится на типы в зависимости от работы владельца каждого ремесла. Труд строителей, угольщиков, ремесленников и ученых назывался тяжелым трудом.

Ключевые слова: высшая оценка труда, минералогия, трудовое воспитание, дошкольное образование, манеры, навыки и компетентность.

Abstract. In this article, Abu Rayhan Beruni’s important thoughts on human development, work and work education are presented. The thinker is divided into types depending on the work of the owner of each craft. The work of builders, coal miners, artisans, and scientists was cited as hard works.

Keywords: high appreciation of labor, mineralogy, labor education, preschool education, ethics, skills and qualifications.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni xar tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlarimizni ongiga singdirish hamda mehnat ko‘nikmalarini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Tarbiyalanuvchilarni mehnatga o‘rgatish va tarbiyalashda albatta sharq mutafakkirlarimizning qarashlari alohida ahamiyatga ega. Bola tarbiyasi va uning kamoloti to‘g‘risida sharq mutaffakirlarimizdan Abu Rayhon Beruniy asarlarini ko‘rib chiqqanimizda yoshlarni odob-axloqi, jismoniy barkamolligi, aqlan yetuk, mehnatsevarligi hamda vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e’tibor berib kelinganligiga guvoh bo‘lamiz. Xususan, bolalarni mehnatga tayyorlash va mehnatsevarlik ko‘nikma va malakalarini shakllantirib, barcha tarbiya shahobchalarini tarkib toptirish borishning muhim omili ekanligi ta’kidlangan. Ular mehnatni yuksak baholab, kishilarning bir-birlari bilan qiladigan muomala va munosabatlari ham mehnat orqali yuzaga keladi deydi.

Abu Rayhon Beruniy inson kamolotida, mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadilar. Mutaffakkir har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo‘ladi. Og‘ir mehnat sifatida binokor, ko‘mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltirib o‘tadilar. Ayniqsa, ilm ahli - olimlar mehnatiga alohida e’tibor berish kerakligi, hayrixoh bo‘lishga chaqiradi, ularni ma’rifat tarqatuvchilar, jamiyat ravnaqiga hissa qo‘shuvchilar deb, biladi. Shuningdek, og‘ir mehnat qiluvchi konchilar, yer ostida gavhar izlovchilar, dehqonlar haqida gapirib, ularning mehnatini rag‘batlantirib turish kerakligini ta’kidlaydilar.

Abu Rayhon Beruniy o‘z asarlarida bolalarni mehnatga o‘rgatish metodlari, yo‘llari haqida ham fikr yuritadilar. Masalan, bolalarni eng kichik yoshidan mehnatga o‘rgatish kerakligini uqtiradilar. Mehnat tarbiyasida o‘sha davr tarbiya an’anasiga binoan vorislikka katta ahamiyat beradi. Buni E. To‘raqulov va S. Rahimovlar «Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta’lim-tarbiya haqida» nomli risolalarida juda yaxshi bayon etishgan. Abu Rayhon Beruniyning «Mineralogiya» asarida faqat qimmatbaho metallar, toshlar haqida emas, hunarmandchilikka oid ma’lumotlardan tashqari, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o‘rgatish metodlari haqida ham qimmatli fikrlar bayon etilgan. Bunda hozirgi pedagogika fani tili bilan aytganda, shaxsiy namuna

metodidan foydalangani, ish jarayoni bevosita ham nazariy, ham amaliy jihatdan ustaxonaning o‘zida bajarilgani shogirdlarning malakali usta bo‘lib yetishishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy yoshlarni tarbiyalashda axloqiy mehnat tarbiyasi, oila tarbiyasi, nafosat tarbiyasi, insonning shaxsiy gigiyenasi, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, hamkorlik haqidagi tushunchalar katta ahamiyatga egadir. Olim axloqiylikning belgilari sifatida yaxshilik, to‘g‘rilik, adolat, kamtarlik, sahovatlilik, oliyjanoblik, do‘stlik va hamkorlik, mehnat va hunar egallash, poklik, go‘zallikka intilish kabilarni ilgari surilgan. Mehnat qilgan kishi doimo o‘zgalar mehn atni qadrlay oladi hamda to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi deb hisoblagan. Bularning barchasini mutaffakirimiz o‘zlari yaratgan asarlaridagi ijtimoiy-falsafiy fikrlarga bog‘lab tushuntirganlar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, buyuk mutafakkirimizning mehnat tarbiyasi xaqidagi fikrlari bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etib, maktabgacha yoshidagi bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib hizmat qiladi.

Pedagogika fani tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Vatanimizda yetishib chiqqan buyuk qomusiy olimlarning pedagogik qarashlarida olg‘a surilgan insonparvarlik, komil insonni yetishtirish, yoshlarda insoniy fazilatlarni shakllantirish xususidagi g‘oyalari, ta’lim, bilim berish, tarbiyalash vositalari, ta’lim va tarbiyani amalga oshirish usullari haqidagi tavsiyalari milliy pedagogika tarixi rivojiga qo‘shgan hissalari bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasi uchun xizmat qilmoqda.

Xuddi shunday qomusiy olimlarimizdan biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048) hisoblanadi. Alloma quyidagi pedagogik tamoyillar, o‘quv-tarbiya shakllari va usullarining shaxsni kamolga yetkazishdagi o‘rni va roli beqiyosdir. Bemniyning ta’kidlashicha, bilim olish va insoniyat yaratgan bilimlarni egallash uchun o‘quvchi-talabadan dastlab axloqiy poklikni talab qiladi. Shuningdek, ta’lim bilan tarbiyaning bir butunligini ko‘rsatadi, faqat shu birlikka amal qilgan shogirdlar kamolot sari bora oladi deb ishontiradi. O‘quvchi - talabalarning yaxshi o‘qishi uchun muallim rostgo‘y, savodxon, shogirdlariga prinsipial yumshoq muomalali bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh. M. Mirziyoyev. ” Erkin va farovon demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. ”. Oliy Majlis palatalarining qo`shma majlisidagi nutqi. – T. : O`zbekiston, 2016. – 14 b

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi “O‘zbekiston- 2030” Strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-158-son Farmoni. Toshkent-2024 yil

3. F. Qodirova, SH. Toshpo‘latova, N. Kayumova, M. A’zamova "Maktabgacha pedagogika" darslik Toshkent-2019. Tafakkur nashriyoti.

4. "Mustahkam oila-ma’naviy tarbiya maskani" ilmiy to‘plam Toshkent 2012 Sano-standart nashriyot

PEDAGOGIK NAZARIYA VA AMALIYOTDA MODELLASHTIRISH MUAMMOSI

Axadova Komila Said qizi

tayanch doktorant Jizzax politexnika instituti, Jizzax, O‘zbekiston

Pedagogik, didaktik va uslubiy adabiyotlarda modellashtirish ma’lum bir ob’ektning o‘rganish uchun maxsus yaratilgan va model deb ataladigan xususiyatlarini takrorlash deb talqin qilinadi.

Pedagogik modellashtirishda simulyatsiya qilingan obyekt va uning modelining tizimli xususiyatlarini aniqlash, o‘z tajribasini pedagogik modellashtirish natijalari bilan bog‘lash va natijada olingan ma’lumotlarning o‘sishini baholash kerak.

Pedagogik modellashtirish mavjud pedagogik tizimning xususiyatlarini model deb ataladigan maxsus yaratilgan ob’ektda aks ettiradi. Ob’ekt bu holda asl deb ataladigan boshqa ob’ektning modeli deb hisoblanishi uchun u tizim bo‘lishi, qaysidir ma’noda asliga o‘xshash bo‘lishi, ma’lum parametrlari bo‘yicha undan farq qilishi, ma’lum jihatlari bo‘yicha uni almashtirishi kerak. tadqiqot jarayoni va asl nusxa haqida yangi bilim olish imkoniyatini beradi.

Kasbiy pedagogikada modellashtirish tahlil, sintez, abstraksiya, konkretlashtirish va boshqalar bilan bir qatorda nazariy tadqiqot usuli sifatida tasniflanadi. Bu pozitsiya A. M. Novikov rahbarligida olib borilgan tadqiqot natijalari bilan tasdiqlanadi [96].

Kasb-hunar ta’limi psixologiyasida S. L. Rubinshteyn tomonidan taklif qilingan psixologik usullar tizimini tahlil qilib, B. G. Ananev kuzatish usullari (kuzatish va o‘z-o‘zini kuzatish) bilan birga modellashtirishni empirik tadqiqot usuli sifatida tasnifladi; eksperimental usullar (laboratoriya; dala yoki tabiiy; shakllantiruvchi yoki psixologik-pedagogik tajribalar); psixodiagnostika usullari (testlar, anketalar, suhbatlar va suhbatlar).

Modellashtirish tajribasi ayrim mehnat jarayonlarining katta murakkabligi va yuqori dinamikligi ularni haqiqiy texnik qurilmalarning normal ishlash rejimida o‘rganishga imkon bermaydigan holatlarda qo‘llaniladi. Bunday jarayonlar soddalashtirilgan. O‘rganilayotgan mehnat jarayonida uning ishning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy tarkibiy qismlari aniqlanadi, bu faoliyatni amalga oshirish uchun sun’iy sharoitlar yaratiladi va murakkab mehnat jarayoni shunday taqlid qilingan sharoitlarda o‘rganiladi. Modellashtirish eksperimenti, shuningdek, shaxsning kasbiy rivojlanishi jarayonida uning kasbiy muhim fazilatlarini o‘rganishda ham qo‘llaniladi.

Modellashtirish asosiy tushunchadir. Biz buni umume’tirof etilgan talqinda ko‘rib chiqamiz: birinchidan, bilim ob’ektlarini ularning modellari bo‘yicha o‘rganish usuli sifatida, ikkinchidan, haqiqatda mavjud va loyihalashtirilgan ob’ektlar va hodisalarning (ijtimoiy tizimlar, kasbiy faoliyat jarayonlari, kasbiy faoliyat tizimlari) modellarini qurish sifatida. pedagogik tayyorgarlik va boshqalar).

Asosiy konsepsiyaning birinchi jihati "model" va "simulyatsiya" tushunchalarini ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Ensiklopedik lug‘at modelni o‘xshash (sxema, tuzilma, belgilar tizimi), tabiiy yoki ijtimoiy voqelikning ma’lum bir bo‘lagi, inson madaniyati, kontseptual va ijodiy ta’lim va boshqalar mahsuloti - original model sifatida belgilaydi. Model (fransuzcha modele lotincha modulus — o‘lchov, namuna) keng ma’noda — har qanday ob’yekt, jarayon yoki hodisaning har qanday tasviri (aqliy yoki an’anaviy: tasvir, tavsif, diagramma, chizma, grafik, reja, xarita va boshqalar) Ushbu modelning "asl nusxasi"), uning "o‘rnini bosuvchi", "vakili" sifatida ishlatiladi.

Model - bu o‘rganish jarayonida asl ob’ektning o‘rnini bosadigan, ikkinchisining ushbu tadqiqot uchun eng muhim bo‘lgan xususiyatlarini saqlaydigan moddiy yoki mavhum jism.

Ilmiy model - bu tadqiqot predmetini adekvat aks ettiruvchi va modelni o‘rganish ushbu ob’ekt haqida yangi ma’lumotlarni olish imkonini beradigan tarzda almashtirishga qodir bo‘lgan aqliy ifodalangan yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizimdir.

Model tushunchasining turli ta’riflarini tahlil qilib, uning ikkita xususiyatini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin: model o‘rganilayotgan obyektning analogidir.

Shunday qilib, model quyidagi funksiyalarni bajaradi:

● boshqaruv jarayoni uchun ideal yoki ishlaydigan model;

● boshqaruvning tanlangan shakllari, vositalari va usullarini taqqoslash, taqqoslash, to‘g‘riligini aniqlash uchun namuna;

● ta’lim va bilish jarayonining mazmuni, tashkil etilishi va rivojlanishining ko‘rinishi;

● nazariy va amaliy bilim va ko‘nikmalarning to‘g‘riligi va to‘liqligini tekshirish.

Modellashtirish usullari fan va texnikaning turli sohalarida eksperimental tadqiqotlarda, mavhum mantiqiy sxemalarda murakkab tizimlarni o‘rganishda qo‘llaniladi.

Modellashtirish "taqlid qilish" (lotincha imitatio dan) - kimgadir, biror narsaga taqlid qilish, ko‘paytirish tushunchasini ham o‘z ichiga oladi. 25].

Pedagogik tadqiqotlarda modellashtirish, qoida tariqasida, uchta asosiy (umumlashtirilgan) maqsadga erishishga qaratilgan [113]:

● evristik maqsad - olingan ma’lumotlarni tasniflash, belgilash, yangi qonunlarni topish, yangi nazariyalarni yaratish va sharhlash uchun;

● hisoblash maqsadi – modellar yordamida hisoblash masalalarini hal qilish. Pedagogikani matematiklashtirish, I. P. Podlasining fikricha, o‘zi bilan juda katta gnoseologik salohiyatga ega. U ilm-fanni bir tomonlama sifat tavsifidan qutqaribgina qolmay, balki erishilgan narsalarni qat’iy qayta ko‘rib chiqishni tashkil qiladi, bu tekshirishning ob’ektiv usullarini va yanada mukammal tilni ta’minlaydi [113];

● eksperimental maqsad - ma’lum modellar bilan ishlash orqali gipotezani empirik tekshirish (tekshirish) muammosini hal qilish.

Modellashtirish - ob’ektlarning har qanday hodisalari, jarayonlari yoki tizimlarini ularning modellarini qurish va o‘rganish orqali o‘rganish; yangi qurilgan ob’ektlarni qurishning xususiyatlarini aniqlash yoki aniqlashtirish va usullarini ratsionalizatsiya qilish uchun modellardan foydalanish. Modellashtirish bilim nazariyasining asosiy toifalaridan biridir: ilmiy tadqiqotning har qanday usuli mohiyatan modellashtirish g‘oyasiga asoslanadi - nazariy va eksperimental.

Modellashtirish usuli asl nusxa bilan bevosita ishlashda ob’ektiv qiyinchiliklar yuzaga kelganda qo‘llaniladi. Model tadqiqotining roli shundaki, u oddiyroq ob’ektda asl nusxaning individual xususiyatlarini olish imkonini beradi. Binobarin, modelning majburiy xususiyati uning pedagogik tadqiqot maqsadlari bilan belgilanadigan ba’zi jihatlari bo‘yicha asl nusxani almashtirish qobiliyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Axadova K. "BO‘LAJAK MUHANDISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA QO‘LLANILADIGAN ZAMONAVIY METODLAR" O‘zMU xabarlari. 2023 1/4. Ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumi. 41-43 b.

Abdurasulovich H. J. , Qizi A. K. S. TEXNIK UNIVERSITETLARDA RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BO ‘LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASH //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 18. – С. 809-813.

Ахадова К. Bo ‘lajak muhandislarni kompyuter modellashtirish ko‘nikmalarini takomillashtirish tamoyillari //Цифровизация современного образования: проблема и решение. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 144-146.

Akhadova K. , Usanov M. , Adilov B. Factors to improve computer modeling skills of future engineers in the context of digitalization //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2024. – Т. 3045. – №. 1.

Hamidov J. , Akhadova K. Usage of modern information technologies in technical education //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2024. – Т. 3045. – №. 1.

LANGUAGE AS A TOOL FOR COMMUNICATION AND CULTURAL REALITY DISCLOSER

Berdikulova Munira Azizovna
an English teacher of department “Foreign languages- 2’’
University of Tashkent for applied sciences (UTAS), Uzbekistan
maftunaberdikulova99@gmail. com

Abstract. Everybody uses language as a communication tool in their daily lives to share arguments and information with others. Since language represents a country and is closely linked to the attitudes and behaviors of groups of speakers, it is impossible to separate language from culture in this situation. The fact that 1) language is a part of culture, 2) language and culture are different but have a close relationship, 3) language is strongly influenced by culture, and 4) language has a significant impact on culture and the way of thinking of those who live there all demonstrate the role of language as a tool to express cultural reality. People’s language has an impact on their culture or the other way around. The language and culture are inseparable if parables are employed, like Siamese twins. Or think of it like a coin, with culture on one side and language on the other.

Keywords: communication, arguments, behaviors, relationship, significant, inseparable

INTRODUCTION

According to a parable, language is a symbol of each nation. Deeper consideration of its meaning could help us better understand and handle any situations that relate language to the attitudes or actions of groups of language speakers. The connection between language and culture is the subject of various hypotheses. Some claim that although language and culture are distinct, they are inextricably linked and it is impossible to separate them. According to some, culture has a significant influence on language, meaning that everything in the culture will be reflected in the language. On the other hand, it is also said that language shapes culture and the mindset of the speaker. The purpose of this essay was to examine the nature of language, culture, and the ways in which language can convey the cultural realities of its users.

LANGUAGE FUNCTIONS

According to conventional wisdom, language serves as a tool for interaction and communication, a way to express ideas, concepts, feelings, and even thoughts. The idea that language is a means of communicating ideas has been around for a while. Sociolinguistic theory, however, views this as being overly limited since language use is essentially a "who speaks what

language to Whom, when, and to what end. " Thus, from a sociolinguistic perspective, language functions can be viewed from a variety of perspectives, including those of speakers, listeners, themes, codes, and the goal of a discussion (Chaer and Agustina, 2004: 15). According to Jakobson, language has an affective function and functions as a personal or private identity from the speaker’s perspective. It indicates that speakers have voiced their opinions about what they have to say. The speakers displayed emotion during their speech delivery in addition to using language to convey their feelings. As a result, the listener can tell if the speaker is joyful, sad, or angry. According to both the speaker and the listener, language serves as a directive that controls the listener’s behavior. Halliday refers to this as an instrumental function, whereas Jakobson calls it rhetorical. According to this perspective, the acts were in line with the speaker’s intentions, and the language not only persuades the listener to take action. Language has a fatigue function based on the speaker-listener contact angle; Finnocchiaro referred to this as interpersonal.

LANGUAGE AS A COMMUNICATION DEVICE

Whether or whether the language has a significant significance for its speakers was determined after a discussion of its nature and function. Through the use of sound symbols generated by the speech organ, language serves as a medium of communication among community members. We can express our viewpoint, our comprehension of the issue, the history of the country and our state, our degree of education, and even our character through language. Language turns into a reflection of who we are as a people and as a country. Both parties need to be proficient in their native tongue for communication to be successful. Language, according to Gorys Keraf (1997:1), is a way for people in a community to communicate with one another through a sign of sound that is created by the speech organ. The claim that language is not the only means of communication may raise an argument. They think that two people or parties should communicate using predetermined means, such as paintings, smoke, drumming, barrels, and so forth. However, they should also understand that all previous communication tools had major flaws in comparison to language. In essence, language serves a variety of purposes that are dependent on an individual’s requirements, including self-expression, communication, organization and adaptation to social integration in a given setting, and social control (Keraf, 1997:3). The function of language as a tool for communication is explained as follows:

Language as a means of communication. In order for communication to take place, two or more people must be involved in the conversation. In this instance, emphasis is placed on the interaction process to enable feedback exchange between the speaker and his interlocutor.

A person’s level of education is reflected in their language. People with more education would be easier to remember than those without. A person’s speech wisdom increases with their

level of schooling. This opinion developed as a result of the fact that the conversation is frequently conducted by highly educated individuals who are impacted by their living, educational, and professional environments. Because of this, persons with higher levels of education are more likely to interact with environments that encourage the use of high-quality language than people with lower levels of education.

As the legal force. One can use language to recognize the language of rivalry or self-defense. Someone who speaks, even if it’s just to get out of the situation that’s being presented to him. This implies that language can be used as a communication skill or aptitude.

Draw in the client. Good and engaging advertising language will pique consumers’ interest in testing your goods. Advertising language is included in the definition of advertising in communications. The communication process cannot be separated from the distribution of a product to customers in an attempt to communicate the advantages and effectiveness of the product.

The Relationship between Communication, Language and Culture

Culture refers to the manner of life of humans. People learn, think, feel, believe, and seek out culturally relevant information. Cultural patterns served as the foundation for language, friendship, custom, communication practices, social action, economic activity, politics, and technology. Regarding who speaks English, Malay, Javanese, Sundanese, Gorontalonese, and Makassarese. All of this is because they were born into, or at least brought up in, a society that had these components. Their actions, their demeanor, and their reaction to cultural roles. This indicates that communication and culture are inextricably linked because culture not only dictates who is speaking to whom, what is being discussed, and where the communication occurs, but it also influences how messages are encoded, what they mean, and how the recipient must pay attention and interpret them. As was previously revealed at the start of the conversation, the entire set of behaviors we rely heavily on is the culture in which we were raised. Therefore, the basis of communication is culture. Cultural diversity encompasses a range of communication practices as well.

Language as a Cultural Reality discloser

The existence of various hypotheses regarding the connection between culture and language. Some claim that language is a component of culture, while others maintain that although language and culture are distinct, they are inextricably linked. According to some, culture has a significant influence on language, meaning that everything in the culture will be reflected in the language. On the other hand, it is also said that culture and language have an impact on public speakers’ or people’s thoughts. Linguists are interested in the subject of whether speakers of different cultures

have a relationship with language and thought. The existence of various cultures is frequently linked to linguistic variety. The work of anthropologists, who frequently respond to the language as a component of a culture that is characterized as socially acquired knowledge, greatly influenced the perspective (Cahyono 1995: 409). According to the viewpoint, the existence of various civilizations is intimately linked to linguistic variety. According to Gee (1993: 7), human language is the outcome of a protracted evolutionary process. Although human languages and civilizations differ due to cultural differences, they share a great deal in common because people are essentially the same. They share a similar biological foundation, similar eyes, and a similar brain. Due to human evolution, certain languages are learned and used by people. We must disregard a language’s word level to ascertain the link between language and culture. Is the influence of culture on language more important than deciding which words will be used in a language? Language is constrained by cultural background. In other words, one could consider the language to be a continuation of the culture. The Sapir-Whorf hypothesis, also known as the Linguistic Relativity Theory, states that every language exhibits a typical symbolic world that represents inner experience, mental reality, and the necessity for users to think, perceive, and interact with the world in different ways. According to Benjamin Lee Whorf’s theory, which popularized and validated the theory of educator Edward Sapir, (1) language influences perception, and (2) language influences mental processes. Consequently, the language was mastered in human thought and behavior. For example, because snow plays a significant role in their life, the Eskimos have roughly 20 words to describe it, suggesting that they are more sensitive to its actuality.

There are specific terms for snow falling, snow that is blown by the wind, snow that forms a line of soft snow on the ground, and so forth. In this instance, the classification of the snow is crucial to them since it may have an impact on their safety and lives. Additionally, there is apparently a phrase in classical Arabic that describes 6000 camels, warnanta, body structure, gender, age, movement, condition, and equipment. Additionally, Saharans have 20 ways to describe the dunes and 200 phrases to describe dates, which are a mainstay in their existence (Condon and Fathi Yousep in Dedi Mulyana, 2007:277). This demonstrated how significant the items were to their culture. In contrast, there are 39 words in the Zulu language that describe the color green. The Zulu people’s care for the environment and the locations they encounter while traveling across the grassland is demonstrated by the abundance of names for the many shades of green, particularly before they were aware of national highways and automobile transportation (Lewis in Dedi Mulyana, 2007:277). Language is therefore a crucial instrument for deciphering our social lives. The language becomes a part of its culture when it is utilized for communication. The language used by members of a social group is seen to naturally correlate with their social

identity. A speaker identifies himself and is recognized as a group member by his accent, vocabulary, or discourse pattern. Additionally, they demonstrate their pride and strength through their membership (Kramsch, 1998:66). The words then allude to an individual’s experience. because they convey ideas, facts, or understanding of the world that is happening.

Additionally, speakers’ actions or opinions, concepts, or anything else are reflected in the words. In this instance, it can be claimed that the language conveys the cultural reality. Nonetheless, social group members use language to both generate and convey their experiences. Through tools people use to communicate with others, such as writing a letter or sending an email, reading the newspaper, or analyzing graphs, they gave that experience a name. Tone, accent, speaking style, body language, and facial expressions are some examples of how someone’s well-spoken, written, or visual media convey messages that people who possess them can understand.

References:

Ahira, Anne. Peran Bahasa Indonesia dan Daerah Sebagai Komunikasi. (http://www. anneahira. com/bahasa-17353. htm).

Alwi, Hasan. 2004. Menabur Benih Menuai Kasih. Persembahan Karya Bahasa, Sosial dan

Language: Fundamental Concepts in Linguistics. New Jersey: Prentice Hall. 1993.

“TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARINI YOSHLAR ONGIDA AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI VA AXBOROT VOSITALARINING TA’SIRI

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi

Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi mudiri,

pedagogika bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Bo‘riyeva Shaxnoza Inat qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta’lim fakulteti 3-bosqich talabasi

shaxnozam001@gmail. com

Annotatsiya. Mazkur maqolada axloqiy qadriyatlar jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, u insonlar hayotining har bir sohasiga ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda yoshlarning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda milliy madaniyat, an’analar, adabiyotlar bilan bir qatorda, axborot vositalarining ham ta’siri kuchli. Bu jihatdan, "Turkiy Guliston yoxud Axloq" asari yoshlar ongida axloqiy va milliy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Maqolada asarning

ahamiyati va uning zamonaviy axborot vositalari ta’siriga qanday javob bera olishi haqida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: mediamadaniyat, axloq, odob, adabiyot, axborot, mediata’lim

Tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq axloqimizni kuchlantirmoq, zehnimizni rivojlantirmoq lozim.

Abdulla Avloniy

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Turkiston (Markaziy Osiyo) o‘lkasida pedagogik fikrlarning rivojlanishida, xalq maorifi ishlarini yuksaltirishda ilg‘or ziyolilarning xizmatlari kattadir. Bunda jadid adabiyotining yirik vakili shoir, dramaturg, muallim Abdulla Avloniy (1878–1934)ning xizmatlari ko‘p. U maktablar ochib, shaxsan o‘zi muallimlik qilish bilan birga maktablarni darsliklar bilan ta’minlash ishiga katta hissa qo‘shdi. Uning qalamiga mansub “Turkiy Guliston yoxud axloq”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” “Maktab Gulistoni” asarlari bir necha bor nashr etildi. Bular ichida “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari o‘zbek klassik pedagogikasining ajoyib namunasi hisoblanadi.

Abdulla Avloniy mazkur asarni fors klassik shoiri shayx Muslihiddin Sa’diy (1184–1310)ning “Guliston” asaridan ta’sirlanib, unga taqlid qilib yozganligi haqida shunday deydi: “Ban bu asari nochizonami bir necha muallim birodarlarimning iltijolari ila yozmoq va nashr qilmoqg‘a g‘ayrat va jasorat qilmish edim. Alhamdulilloh val minna ikkinchi tab’ihada muvaffaq o‘ldum, chunki Turkiston maktablarida o‘z shevamizda (o‘zbek tilida demoqchi) yozilmish mukammal “Axloq kitobi”ning shunday asarga tashna va muhtoj ekanlig‘i o‘zum muallimlar jumlasidan o‘ldig‘imdan manga ham ochiq ma’lum o‘ldi. Shuning uchun ko‘p vaqtlar tajriba so‘ngidan adibi muhtaram shayx Sa’diy usulida yozmoqni, garchi og‘ir ish bol’sa ham, o‘zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq bu kamchilikni oradan ko‘tarmakni munosib ko‘rdim”. Demak, aytish mumkinki, “Turkiy Guliston yoxud axloq” Sa’diyning “Guliston” asari usulida o‘zbek tilida yozilgan axloq kitobidir. Abdulla Avloniyning mazkur asari 1913-yilda Toshkentda bosmaxonada litografik (toshbosma) usulida nashr etildi. Asar bunday darslikka bo‘lgan ehtiyojni hisobga olib 1917-yilda ikkinchi marta chop qilindi.

Har ikki nashr ham hajm jihatidan bir-biridan farq qilmaydi. Faqat birinchisi kotib Abdusalom Abdurahmon o‘g‘li, ikkinchisi kotib Abdul Mannon ibni Abdul Majid (o‘zbek milliy teatrining mashhur aktyori Mannon Uyg‘ur Majidov) dastxatidir. Axloqiy qadriyatlar jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, u insonlar hayotining har bir sohasiga ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda yoshlarning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda milliy madaniyat, an’analar, adabiyotlar bilan bir qatorda, axborot vositalarining ham ta’siri kuchli. Bu jihatdan, “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari yoshlar ongida axloqiy va milliy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Yosh

avlod ma’naviyatini shakllantirish va barkamol bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiluvchi ta’lim-tarbiyaning metod va pedagogik g‘oyalari pedagog olimlarimizning boy ma’naviy merosida o‘z ifodasini topgan. Bebaho ma’naviy meros qoldirgan ana shunday mutafakkirlardan biri Abdulla Avloniydir. Avloniy butun umrini maorif rivojiga bag‘ishladi. Adib o‘zining ilmiy asarlari va darsliklarida vatan, ilm-fan, odob-axloq, ta’lim-tarbiya, inson kamoloti, jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi o‘z fikrlarini bayon etgan.

Avloniy asaridagi axloqiy saboqlarni hozirgi zamon axborot muhitiga moslashtirish va uni yoshlarning mediamadaniyatida aks ettirish masalasini yoritish mumkin. “Turkiy guliston yoxud axloq” asari, o‘z mazmuni bilan yoshlarni axloqiy qadriyatlar va madaniy me’yorlarni anglashga undaydi, bu esa ularni media orqali tarqaladigan turli ta’sirlarga qarshi tayyorlaydi. Avloniy o‘rgatgan axloqiy tamoyillar bugungi media muhitida yoshlar ongiga qanday ta’sir qilishi mumkinligi haqida fikr yuritish mumkin. Masalan, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa media vositalari orqali berilayotgan tezkor axborot oqimida yoshlar axloqiy tanqidiy fikrlash va qadriyatlarni qanday saqlab qolishlari mumkinligi, Avloniyning bu boradagi ko‘rsatmalari asosida tahlil qilinishi lozim. Shu tariqa, bu mavzu yoshlar uchun media orqali tarbiyaviy va axloqiy jihatdan qanday tayyorgarlik ko‘rish mumkinligini, Avloniyning asaridagi g‘oyalarini zamonaviy media sharoitiga moslashtirish orqali yoritib berishni maqsad qiladi. Avloniy o‘rgatgan axloqiy tamoyillar bugungi media muhitida yoshlar ongiga qanday ta’sir qilishi mumkinligi haqida fikr yuritish mumkin. Masalan, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa media vositalari orqali berilayotgan tezkor axborot oqimida yoshlar axloqiy tanqidiy fikrlash va qadriyatlarni qanday saqlab qolishlari mumkinligi, Avloniyning bu boradagi ko‘rsatmalari asosida tahlil qilinishi lozim. Shu tariqa, bu mavzu yoshlar uchun media orqali tarbiyaviy va axloqiy jihatdan qanday tayyorgarlik ko‘rish mumkinligini, Avloniyning asaridagi g‘oyalarini zamonaviy media sharoitiga moslashtirish orqali yoritib berishni maqsad qiladi.

Mediamadaniyat va axloqiy qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik: Mediamadaniyat axborotning tarqalish tezligi va shaklini belgilaydi, ammo bunda axloqiy qarashlarni shakllantirish ham katta ahamiyatga ega. Avloniy asaridagi axloqiy qadriyatlar, media vositalari orqali tarbiyalash imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Masalan, Avloniy o‘rgatgan ijtimoiy me’yorlar va odob-axloq qoidalarini yoshlar orasida keng tarqalgan ijtimoiy tarmoqlarda aks ettirish orqali media vositalarining axloqiy va tarbiyaviy roli kuchaytirilishi mumkin.

2. Axborotning tanqidiy tahlili: “Turkiy guliston yoxud axloq” yoshlarni axborotni tanqidiy qabul qilishga undaydi, ya’ni ular media orqali keladigan ma’lumotlarni ongli ravishda tahlil qilishni o‘rganishlari kerak. Avloniy axloqiy barkamollikni o‘rganishni ta’kidlaganidek,

mediamadaniyatda yoshlarning axborotni shunchaki iste’mol qilmasdan, uni axloqiy va tanqidiy mezonlar orqali baholash qobiliyatlarini rivojlantirish lozim.

3. Shaxsiy axloqiy mas’uliyat va madaniyat: Avloniy asarida shaxsiy mas’uliyat va o‘zini tarbiyalash zarurligi tilga olingan. Media sharoitida bu mas’uliyat har bir foydalanuvchining o‘z axloqiy qadriyatlarini shakllantirishi va boshqalarga nisbatan madaniy munosabatda bo‘lishini talab qiladi. Asar mazmunidan foydalangan holda, yoshlarni ijtimoiy tarmoqlarda mas’uliyatli va axloqiy munosabatda bo‘lishga undash mumkin. Bu orqali ular ham axloqiy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirib, boshqalarga namuna ko‘rsatadi.

4. Tarbiyaviy kontent yaratish: “Turkiy guliston yoxud axloq” asari asosida zamonaviy platformalarda tarbiyaviy videolar, audio lavhalar yoki blog postlarini yaratish mumkin. Bu, Avloniy asaridagi axloqiy saboqlarni raqamli avlodga yetkazishning samarali usuli bo‘lib, yoshlarni raqamli dunyoda ham an’anaviy axloqiy qadriyatlar bilan tanishtiradi.

5. Milliy qadriyatlar va identitetni saqlash: Mediamadaniyatda ko‘pincha xalqning milliy qadriyatlari e’tibordan chetda qolishi mumkin. Avloniy asaridagi milliy axloqiy qiyofa va ma’naviy qadriyatlarni o‘rganish va ulardan foydalanish, yoshlar ongida o‘z milliy identitetiga hurmat va sadoqatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Asarda bayon etilgan g‘oyalardan kelib chiqib, milliy madaniyatni zamonaviy media muhitida aks ettirish orqali yoshlar o‘z an’anaviy qadriyatlarini saqlab qolishlari mumkin.

6. Ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik axloqi: Avloniy ijtimoiy axloqning jamiyat taraqqiyoti uchun zarur ekanligini ta’kidlaydi. Bu g‘oyani mediamadaniyatda ham aks ettirish mumkin. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy me’yorlarga rioya qilish, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va noto‘g‘ri axborotni tarqatmaslik kabi tamoyillarni Avloniy asari yordamida kengroq yoritish mumkin. Bu fikrlar yordamida Avloniy asarining zamonaviy mediamadaniyatda qanday o‘rin tutishi va uning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati kengroq ochib berilishi mumkin. Avloniy asari yoshlar ongida axloqiy qarashlarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, unda insoniy fazilatlar, o‘zini tarbiyalash, vatanparvarlik, oila qadriyatlari va boshqa ijtimoiy ahamiyatli mavzular keng yoritiladi. Buni mediamadaniyat bilan bog‘lashda asar mazmunidan zamonaviy axborot muhitida axloqiy barqarorlikni saqlashda foydalanish mumkin.

Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o‘zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langanligi adibning boy pedagogik merosi ta’lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni o‘quvchilar qalbida shakllantirish-da axloqiy va ma’naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda milliy maktab va qimmatbaho manba bo‘lib xizmat qilganini o‘rganib chiqish davr talabiga aylanmoqda. Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan asarlari va ularda axloq-odob tushunchalarining yoritilishi tarbiya masalasining ifodasi nafaqat

badiiy, balki noyob tarixiy-pedagogik, ta’limiy va qomusiy yodgorlik hisoblanadi. Avloniy asarlari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, yana bir bor shunga iqror bo‘lamizki, uning asarlarida ifoda etilgan ta’limiy, tarbiyaviy g‘oyaviy, falsafiy pedagogik hikmatlar o‘zining hayotiy mazmuni bilan bizni bugun ham hayratda qoldiradi. Avloniy asarlarining tub ma’no-mohiyatini belgilab beradigan insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatan- parvarlik g‘oyalari va axloq-odob tamoyilida hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo‘lgan saboqlar borligini alohida ta’kidlab o‘tmoq joiz.

- Shavkati inson erur ilmu adob,
- E’tibor etmas anga molu nasab

Xulosa qilib aytganda, Avloniy ijodiy merosi ma’naviy-ma’rifiy tarbiya g‘oyasining targ‘ibotchisidir. Uning asarlarida ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga oid fikrlar milliy ma’naviyatimiz rivojlanishida qimmatli bir manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu ulug‘ adib ijodi, amaliy faoliyati bugungi kun yoshlarimiz uchun ibrat maktabi, desak adashmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. _ Kitob mollari yetib borish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish va Prezident Farmoni . “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil 13 yanvar – 9-son.
2. Mirziyaev Sh. M. _ Milliy taraqqiyot davom etdi Toshkent - 2017, " O‘zbekiston
3. O’quvchi-yoshlarda axborot iste’moli madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi / B. Xodjayev, M. Maxmudova – Toshkent: «Tafakkur qanoti», 2016.
4. Ochiq axborot tizimlarida axborot- psixologik xavfsizlik: o’quv qo’llanma Umarov B. , Axmedova M. O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi ; O’zbekiston davlat jahon tillari un-ti : - T. Chashma Print, 2013.
5. Abdulla Avloniy . Turk gulistoni yoki axloq. T. , 2008.
6. Mustaqillik davri adabiyoti. Toshkent. , 2004.
7. Qosimov va boshqalar yugurishdi. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Toshkent “ Ma’naviyat ” 2004
8. Mirzaev S. O‘zbek adiblari. "Muxlis". 2002. 7. Abdulla Avloniy . Tanlangan asarlar. T. , 2008 yil.
9. Abdulla Avloniy . Turk gulistoni yoki axloqi. - T. : "O‘qituvchi", 1996 yil.
10. Abu Nasr Farubi . Olijanob odamlar shahri. - T. : “Abdulli Qodiriy nomidagi xalq merosi ”, 1993 y.
11. http :// www . bilimdon . uz

ABDULLA AVLONIY ASARLARIDAGI MILLIY ONG VA ZAMONAVIY MEDIAMADANIYAT: MADANIY QADRIYATLARNI TARG‘IB QILISHNING YANGI USULLARI

Bo‘riyeva Shaxnoza Inat qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti 3-bosqich talabasi
shaxnozam001@gmail. com

Har bir millatning o‘z ma’naviy qiyofasi mavjud. Bugungi kunda har tomonlama taraqqiy topib borayotgan jamiyatimizda ma’naviyatni yuksaltirish yuksak vazifalardan biridir. Ma’naviyatimizni yanada rivojlantirishda esa millatimiz tarixini, ma’naviy qiyofasini o‘zida badiiy aks ettirgan tarixiy badiiy hamda ilmiy asarlarning ahamiyati va o‘rni beqiyosdir. Abdulla Avloniy o‘zbek milliy ma’rifatparvarlik harakatining yirik namoyandasi va xalqni ongli, bilimli, madaniyatli qilishga intilgan fidoyi shaxs. Uning asarlari o‘z zamonasi uchun chuqur ahamiyat kasb etgan bo‘lib, hozirgi kunda ham ular mediamadaniyatni shakllantirishda katta ilhom manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Avloniy asarlarida milliy ongni uyg‘otish, madaniy qadriyatlarni asrab-avaylash va axloqiy tarbiyani targ‘ib qilish borasida ilgari surilgan g‘oyalar, zamonaviy media vositalari orqali keng ommaga yetkazilsa, yosh avlodning ma’naviy va axloqiy tarbiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Abdulla Avloniy ijodiy merosi bilan ilk darsliklarning mukammal yaratuvchisi sifatida ham gavdalanganligi, asarlaridagi ta’lim va tarbiyaga doir tushunchalarning, g‘oyaviy-badiiy mushohadalarning tadqiq qilinganligi, qolaversa, mavzuning dolzarbligi ma’rifatparvar adib, serqirra ijodkor Abdulla Avloniyning ijodida bugungi kunning eng muhim masalasi-ta’lim va tarbiyaga doir fikrlarning dalili hikoyalar, she’riy lavhalar misolida yoxud majoziy xarakterga ega hikoyatlar asosida ochib berilishi asnosida ko‘zga tashlanadi.

Abdulla Avloniy o‘z asarlarida milliy ongni shakllantirish masalasini dolzarb qo‘ygan. “Turkiston qayg‘usi” asarida xalqning o‘z madaniyati, tili, va qadriyatlarini anglashga va uni qadrlashga undagan. Bu asarda madaniy o‘zlik, milliy qadriyatlarni saqlab qolishning ahamiyati yoritilgan bo‘lib, bugungi kunda bu g‘oyalar ijtimoiy media orqali keng targ‘ib qilinishi mumkin. Zamonaviy mediamadaniyatning imkoniyatlari, masalan, ijtimoiy tarmoqlar va videokontent platformalari orqali xalqimizning tarixiy merosi va milliy qadriyatlari haqidagi bilimlar keng ommaga yetkazilishi mumkin. Avloniy kabi ma’rifatparvarlarning asarlaridagi milliy ong haqida gapirilgan g‘oyalarni yosh avlodga yetkazish, ularda o‘ziga xos milliy o‘zlik va madaniyatni anglash tuyg‘usini uyg‘otishda zamonaviy media vositalarining samarasi katta.

Avloniy ijodida axloqiy tarbiya alohida o‘rin egallaydi. Uning “Maktab g‘oyalariga” e’tibor qaratilsa, unda jamiyatni axloqiy jihatdan yuksaltirish, oilaviy qadriyatlar, o‘zaro hurmat va mehr-muruvvat kabi masalalarga katta urg‘u berilganini ko‘ramiz. Zamonaviy mediamadaniyat uchun ham axloqiy tarbiyani targ‘ib qilish dolzarbdir. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, videokontentlar orqali Avloniy kabi mutafakkirlar qoldirgan axloqiy va ma’rifiy merosni yoshlar orasida targ‘ib qilish mumkin. Bunday targ‘ibot axloqiy qadriyatlarni saqlash va ularga amal qilishni rag‘batlantirishga yordam beradi. Avloniy asarlaridagi axloqiy masalalarni ommalashtirish, zamonaviy media orqali yosh avlod ongiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga xizmat qilishi mumkin. Abdulla Avloniyning birgina “Vatan” she’ridan ham ko‘rishimiz mumkinki, o‘quvchilarni sadoqat ruhida tarbiyalaydi

Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,
Har kim sening qadring bilmas — aqli pas(t)dur.
Sening tuyg‘ung yuraklarga savdo solur,
Sening darding boshqa dardni tortib olur.

Avloniy o‘z asarlarida tilning milliy madaniyat va ong shakllanishidagi o‘rnini kuchli ta’kidlaydi. Tilni saqlash orqali millatning o‘zligini saqlab qolish g‘oyasi uning asarlarida yetakchi mavzulardan biridir. Bugungi kunda esa media til va madaniyatni ommaviylashtirish uchun qulay platforma bo‘lib xizmat qilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda milliy til va madaniyatni targ‘ib qilish, masalan, o‘zbek tilidagi o‘quv, ilmiy-ma’rifiy, tarixiy kontentlar yaratish Avloniy ilgari surgan g‘oyalarning zamonaviy shakli hisoblanadi. Shunday qilib, zamonaviy mediamadaniyatda milliy til va madaniyatni saqlash va rivojlantirish uchun yetakchi kuchga ega ekanligi ta’kidlanadi. *“Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur”* deya e’tirof etadi.

Avloniy ma’rifatning, ilmning kuchiga ishongan va asarlarida xalqni ma’rifat bilan yuksalishga chaqirgan. “Maktab g‘oyalariga” kabi asarlarida u xalqni bilim olishga undagan.

Maktabdadur ilm-u kamol,
Maktabdadur husn-u jamol,
Maktabdadur milliy xayol,
G‘ayrat qilib o‘qing, o‘g‘lon!

Bu she’rda Avloniy maktabni insonning najot yo‘li, hayotning gulshani, kishilarni kamolot sari safarbar qiluvchi kuch deb maqtaydi. Bugungi kunda internet va digital media platformalar ma’lumotlarni ommaviylashtirishda o‘ta samarali vosita bo‘lib, Avloniy asarlaridagi ma’rifiy g‘oyalarni keng tarqatish uchun xizmat qilishi mumkin. Onlayn kurslar, videodarslar, podkastlar orqali Avloniyning ma’rifiy g‘oyalarini yosh avlodga yetkazish va ularni bilimga oshno qilish

mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatda bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqni oshiradi va milliy ongni yuksaltirishga yordam beradi.

Hozirgi kunda mediamadaniyat madaniy qadriyatlarni saqlash va ommaviylashtirish uchun yangi usullarni taklif qiladi. Avloniy asarlaridagi g‘oyalarni raqamli formatda keng tarqatish, ularni zamonaviy vizual va audiomateriallar bilan uyg‘unlashtirish orqali avlodlarga yetkazish mumkin. Masalan, Avloniy asarlaridagi milliy va axloqiy qadriyatlarni turli ko‘rsatuvlar, sahna asarlari, raqamli grafikalar va qisqa videolar orqali yoshlarga yetkazish nafaqat qiziqarli, balki samarali ham bo‘ladi. Bundan tashqari, Avloniy asarlaridagi qadriyatlarni ommabob formatlarda, masalan, qisqa hikoyalar, multifilmlar va animatsiyalar shaklida internet foydalanuvchilariga taqdim etish ularning ko‘proq e’tiborini jalb qiladi.

Bugungi kunda mediamadaniyat yangi usullarni qo‘llagan holda madaniy qadriyatlarni ommalashtirish imkonini beradi. Masalan:

Vizual kontentlar: Avloniy asarlaridagi axloqiy tarbiya haqidagi qismlar qisqa hikoya formatida grafik dizayn va animatsiyalar orqali namoyish etilishi mumkin. Yoshlar uchun bu kabi vizual materiallar osonroq va qiziqarli qabul qilinadi. Bu kabi usullar ham Avloniy asarlarini saqlab qolishga shuningdek, yosh avlodga yetkazishimiz mumkin.

Audiokontentlar: O‘zbek tilida audio-podkastlar va o‘qilgan qisqa hikoyalar orqali Avloniy asarlaridagi axloqiy qadriyatlarni tinglovchilarga yetkazish mumkin. Audiokontent nafaqat ma’lumotni uzatishning qulay yo‘li, balki uni xalq orasida keng tarqatishning samarali usulidir.

Interaktiv dasturlar: Mobil ilovalar va interaktiv o‘yinlar orqali Avloniy ijodini yosh avlodga o‘rgatish mumkin. Masalan, uning qahramonlari, hikoyalari va g‘oyalari asosida turli o‘yinlar va viktorinalar yaratish orqali yoshlarda Avloniy asarlariga qiziqish uyg‘otish mumkin.

Avloniy asarlari axloqiy tarbiya berishga katta e’tibor qaratgan bo‘lib, bugungi mediamadaniyat uchun ham bu masala dolzarb hisoblanadi. Hozirgi kunda mediamadaniyat axloqiy qadriyatlarni tarbiyalash uchun kuchli vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Avloniy axloqiy tarbiyaning xalq hayotidagi ahamiyatini ta’kidlab, har bir insonda mehnatsevarlik, halollik, odob-axloq normalariga rioya qilish kabi fazilatlarni shakllantirish lozimligini ilgari surgan. Axloqiy qadriyatlarni media orqali targ‘ib qilish usullari:

Qisqa videolar va roliklar: Ijtimoiy tarmoqlarda qisqa va ta’sirli videoroliklar tayyorlash orqali Avloniy asarlaridagi axloqiy qadriyatlarni yoshlarga yetkazish mumkin. Masalan, uning asarlaridan qismlar sahnalashtirilgan roliklar yoshlarda axloqiy va ma’naviy tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi.

Blog postlari va maqolalar: Yoshlar orasida bloglar va maqolalar orqali Avloniyning axloqiy qadriyatlari haqida yozish, ularning hayotiy qirralarini tushuntirish axloqiy tarbiyani yanada kuchaytiradi.

Avloniy milliy tilning ahamiyatini chuqur anglagan va uning asarida tilni saqlab qolish milliy o‘zlikni saqlab qolish bilan teng ekanligini ko‘rsatgan. Bu g‘oya bugungi mediamadaniyatda ham muhim bo‘lib, o‘zbek tili va madaniyatini yangi avlodga yetkazish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan:

O‘zbek tilida kontent yaratish: Ijtimoiy media va videoplatformalarda o‘zbek tilida sifatli kontent yaratish va tarqatish orqali tilning obro‘si oshiriladi. Bunga Avloniy asarlaridagi til va madaniyat haqidagi g‘oyalarni yetkazish ham kiradi.

Madaniy tadbirlar va jonli efirlar: Avloniy ijodiy merosini nishonlash maqsadida madaniy tadbirlar va jonli efirlar o‘tkazish orqali milliy til va madaniyatni kengroq ommaga yetkazish mumkin. Bu yoshlarni til va madaniyatga yanada chuqurroq qiziqtiradi. maktab radiosi orqali Avloniy she’r va hikoyalarini munozara hamda mushoira kechalarini o‘tkazish orqali ham asarlarini tanishtirish mumkin.

Avloniy xalqni ilm-ma’rifatga chorlagan, bu esa bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi. Internet va raqamli media platformalar ilmni keng targ‘ib qilishda samarali vosita bo‘lib, Avloniyning ma’rifiy g‘oyalarini keng ommaga yetkazishda qulay imkoniyat yaratadi.

Onlayn o‘quv materiallar: Avloniy asarlaridagi ilm-ma’rifatga oid g‘oyalar asosida onlayn darsliklar, maqolalar va ta’limiy videolar tayyorlanishi mumkin. Bu, yoshlarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi va Avloniy targ‘ib qilgan ma’rifiy qadriyatlarni keng ommaga yetkazadi.

Tahliliy kontentlar va munozaralar: Mediada Avloniy asarlari bo‘yicha munozaralar, tahliliy dasturlar va suhbatlar uyushtirish orqali yoshlar ma’rifiy qadriyatlar bilan yaqindan tanishishi va ulardan ilhom olishi mumkin.

Abdulla Avloniy asarlaridagi milliy ong va madaniy qadriyatlar, zamonaviy media texnologiyalari orqali keng tarqatilsa, yosh avlod uchun ma’naviy, madaniy va axloqiy poydevor yaratish mumkin. Mediamadaniyatning yangi imkoniyatlari Avloniy g‘oyalarini ko‘proq yoshlar orasida ommalashtirish, ularni milliy madaniyatga qiziqtirish va milliy o‘zlikni shakllantirishga yordam beradi. Avloniy asarlari mediamadaniyatda boy manba bo‘lib xizmat qiladi va undagi g‘oyalarni raqamli shaklda yetkazish milliy madaniyatni yanada rivojlantiradi. Axloqiy qadriyatlarni media orqali targ‘ib qilish usullarida Qisqa videolar va roliklar tuzilishi qanday bo‘ladiAxloqiy qadriyatlarni targ‘ib qilishda qisqa videolar va roliklar zamonaviy auditoriyaga samarali tarzda yetib borishi mumkin. Quyida qisqa videolar va roliklar tuzish jarayoni, ularda

axloqiy qadriyatlarni qanday ko‘rsatish usullari haqidabosqichma-bosqich batafsil ochiqlashga harakat qilamiz:

Maqsad va mavzuni aniqlash

Maqsad: Videoning asosiy maqsadi nima? Bu axloqiy qadriyatlarni ommaga ta’sirli va aniq yetkazish bo‘lishi kerak, masalan, halollik, mehnatsevarlik, o‘zaro hurmat va yordam.

Mavzu: Avloniy asarlaridagi muayyan qadriyat yoki axloqiy darsni tanlang, masalan, “Mehr-muruvvat” yoki “O‘zgalar bilan halol bo‘lish”.

Ssenariy yaratish

Kirish: Qisqa va qiziqarli kirish qismida e’tiborni tortish kerak. Masalan, voqea qandaydir muammoli yoki odatiy hayotiy vaziyatdan boshlanishi mumkin.

Muammo yoki ziddiyat: Qadriyatni ko‘rsatish uchun, kichik bir ziddiyat yoki muammo paydo qilinadi. Masalan, bir kishi halol qaror qabul qilishi yoki qilmasligi lozim bo‘lgan vaziyatda turib qolishi.





Yechim: Qadriyatning mohiyati yechim orqali ochiladi. Bu holatda, masalan, halol qaror qabul qilinib, uning ijobiy natijasi ko‘rsatiladi. Xulosa: Videoning oxirida kichik xulosa yoki mazmunli gap bilan yakunlanadi, bu orqali qadriyatga bo‘lgan urg‘u yanada kuchayadi.

3. Vizual va estetik elementlarni tanlash

Rang va atmosfera: Videoda iliq va yorqin ranglardan foydalanish qadriyatlarni ifodalashda ijobiy tasir ko‘rsatadi.

Simvolika: Axloqiy qadriyatlarni ta’sirli ifodalash uchun turli ramz va belgilardan foydalanish mumkin. Masalan, halollikni ta’kidlash uchun toza va ravshan fon, mehr-muruvvat uchun esa iliq va yaqin kadrlar.

Qahramonlar: Qahramonlar sodda, odatiy insonlar bo‘lishi kerak, bu orqali ular auditoriyaga osonlik bilan yaqin his qilinadi. Bugungi kunda televidiniyadan taqdim qilinayotgan multifilmlar yoshlar ongini rivojlanishi shuningdek dunyoqarashi kengayishiga afsuski yo‘l bermayapti.

4. Audiovizual vositalardan foydalanish

Musiqa: Axloqiy qadriyatlarni ifodalashda musiqa juda muhim. Video davomida yengil va ilhomlantiruvchi musiqa yordamida tomoshabinni mazmunli vaziyatga jalb qilish mumkin.

Dialog va ovoz: Dialoglar sodda, ammo mazmunli bo‘lishi kerak. Har bir so‘z tomoshabinga oson tushuniladigan tilda ifodalanishi zarur.

5. Video davomiyligi va dinamikasi:

Videoning uzunligi 30 sekunddan 2 daqiqagacha bo‘lishi kerak. Qisqa davomiylik tomoshabinning e’tiborini saqlashga yordam beradi va asosiy g‘oyani tezda yetkazadi. Video oxirida kuchli va aniq xulosa yoki chaqiruv qo‘yish kerak. Masalan, “Doimo halol bo‘ling”, “Yaxshilikni unutmang” kabi qisqa va ta’sirli ifodalar orqali axloqiy qadriyatni eslab qolish oson bo‘ladi.

Abdulla Avloniy asarlarini ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish strategiyasi: Videoni turli ijtimoiy tarmoqlarda-Instagram, TikTok, YouTube kabi platformalarda tarqatish orqali auditoriyaga yetib borishni kuchaytirish mumkin. Shunday qilib, qisqa videolar va roliklar orqali axloqiy qadriyatlarni zamonaviy auditoriyaga ta’sirli va samarali tarzda yetkazish mumkin.

Xulosa qilib ta’kidlashimiz mumkinki, Abdulla Avloniy asarlaridagi ma’rifiy va axloqiy g‘oyalar zamonaviy mediamadaniyat shakllanishi uchun kuchli asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Avloniyning fikrlari va e’tiqodlari o‘z davri uchun dolzarb bo‘lsa-da, bugungi media jamiyatining ijtimoiy-ma’naviy masalalarini hal qilishda ham bebaho o‘ringa ega. Mediamadaniyatning rivojlanishi xalqni ma’naviy, madaniy va axloqiy jihatdan yuksaltirish, yosh avlodni sog‘lom madaniyatni qadrlashga o‘rgatish uchun katta imkoniyatdir. Shunday qilib, Avloniy asarlaridagi g‘oyalarni zamonaviy media orqali ommalashtirish xalq madaniyatining mustahkamlanishiga xizmat qiladi va yosh avlod uchun sog‘lom madaniy dunyoqarashi shakllaishiga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28. 01. 2022 yildagi PF-60-son.

Shavkat Mirziyoyev. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. “Xalq so‘zi”, 2017-yil 4-avgust .

Shavkat Mirziyoyev. O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi tabrigi, ” Xalq so‘zi”, 2020-yil 1-oktyabr. № 207. (7709) 3-bet.

Abdulla Avloniy. . Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxonovna, Bo‘riyeva Shaxnoza Inat qizi. ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA TA’LIM VA TARBIYAGA OID QARASHLAR

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxonovna, Bo‘riyeva Shaxnoza Inat qizi. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MEDIAMADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA ABDULLA AVLONIYNING ASARLARINI O‘RNI 2023 yil 11-iyul respublika maliy konferensiya

Dolimov, U. Abdulla Avloniy-milliy uyg‘onish davri o‘zbek pedagogikasining asoschisi

Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun, Zeboxon Ro‘zmetova “Ona tili va o‘qish savodxonligi”3-sinf uchun darslik 1-qism . Toshkent-2022 9-11-16-21-betlar.

Ulug‘bek Dolimov. "Milliy uyg‘onish pedagogikasi" «NOSHIR» TOШKEHT – 2012

Zunnunov, A. Pedagogika tarixi. O‘quv qo‘llamna. Toshkent- 2004.

BOSHLANG`ICH TA`LIMDA TEXNOLOGIYA FANINING AHAMIYATI

D. A Kulboyeva

JDPU o`qituvchisi, pedagogika fanlari bo`yicha falasafa doktori

Asatullayeva Muhlisa

811-23- guruh talabasi

Annotatsiya. Texnologiya darslari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalash, Boshqa o‘quv fanlari bilan hamkorlikda ular o‘quvchilarni har tomonlama rivojlanishi, Bu hayotdagi, san’atdagi go‘zallikni idrok etish, his qilish, tushunish qobiliyati, go‘zallikni o‘zi yaratish, atrofdagi narsalarda go‘zallikni ko‘ra olish qobiliyati, kognitiv faoliyat singari, bu bolalarning aqliy tarbiyasi kabi kreativ qobiliayatlarini rivojlantirish bo`yicha ma`lumotlar berilgan.

Texnologiya darslari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalash tizimida katta ahamiyatga ega. Boshqa o‘quv fanlari bilan hamkorlikda ular o‘quvchilarni har tomonlama rivojlanishiga sezilarli ta`sir ko‘rsatadi. Bu hayotdagi, san’atdagi go‘zallikni idrok etish, his qilish, tushunish qobiliyati, go‘zallikni o‘zi yaratish, atrofdagi narsalarda go‘zallikni ko‘ra olish qobiliyati. dastlab, Texnologiya darsining mazmun mohiyatini tushunib olish maqsadga muvofiqdir.

Texnologiya darsi-bu voqeilikning o‘ziga xos xayolan anglash sanaladi. Har qanday kognitiv faoliyat singari, bu bolalarning aqliy tarbiyasi uchun katta ahamiyatga ega. Maqsadli vizual idrok bo‘lmish kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantirmay turib yaratuvchanlik qobiliyatini o‘zlashtirib bo‘lmaydi. Ob’ektni haykalini yasash uchun avval u bilan yaqindan tanishish kerak, uning shakli, o‘lchami, tuzilishi, rangi, qismlarining joylashishini eslab qolish kerak.

Tahlil, taqqoslash, sintez, umumlashtirish kabi aqliy operatsiyalarni shakllantirmasdan Texnologiyani o‘rganib bo‘lmaydi. Tahlil qilish qobiliyati umumiy farqdan shaxsiygacha rivojlanadi. Ob’ektlar va ularning xususiyatlari haqidagi samarali tarzda olingan bilimlar ongda mustahkamlanadi.

Quyi sinflarda Mehnat ta’limi fani Texnologiya ta’lim sohasiga organik ravishda kiritilgan, chunki u har doim materiallarni qo‘lda qayta ishlashning mazmunli «Texnologiya»si bo‘lib kelgan. Uning nomi ushbu fan bo‘yicha ta’lim faoliyatining ma’nosiga to‘liq mos keladi; bolalarga kattalar bajarayotgan ishlar o‘rgatiladi, ya’ni, qo‘yilgan vazifani anglash, uni amalga oshirish imkoniyat va vositalarni baholash, ushbu vazifani bajarib mahsulot olish uchun zarur bo‘lgan hamma harakatlarni shaxsan bajarish, o‘z ishining sifati uchun shaxsan javobgar bo‘lish.

Texnologiya o‘quv predmeti sifatida maktab o‘quvchilarining madaniy va shaxsiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish uchun katta imkoniyatlarga ega. Texnologik ta’lim sohasidagi jamiyatning ijtimoiy tartibi o‘quvchilarning shaxsini rivojlantirish, o‘qitishning gumanistik mazmunini mustahkamlash, har bir o‘quvchining individualligi bilan bog‘liq holda o‘quv predmetining o‘quv, tarbiyaviy va rivojlanish salohiyatini yanada to‘liq ro‘yobga chiqarish vazifasini qo‘yadi.

Texnologiya fani boshlang‘ich ta’lim tizimida muhim rol o‘ynaydi. U shaxsning hissiy, ma`naviy, estetik va axloqiy rivojlanishi, uning ijodiy salohiyatini shakllantirish maqsadida insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan fundamental qadriyatlarni uzatish bilan bog‘liq aniq vazifalarni hal qilish uchun mo‘ljallangan.

O‘quv jarayonida Texnologiya fani badiiy-ijodiy faoliyatning ustunligi bilan ajralib turadi. Texnologiya darslari jarayonida o‘quvchining individualligi, masalan, majoziy fikrlash, fantaziya, tasavvur, hissiyotlar, aqliy faoliyat, intuitsiya (sezish qobiliyati) va boshqalar faol rivojlanadi.

Texnologiya fani amaliyotga yo‘naltirilganligi bilan boshqa fanlardan ajralib turadi. Uning mazmuni bolaga nafaqat har qanday mahsulotni ishlab chiqarish jarayoni haqida tasavvurni rivojlantirish, balki ushbu bilimlardan ta’lim faoliyatining turli sohalarida qanday foydalanishni ham kiradi. xxI asr-yuqori «Texnologiya»lar asri hisoblanadi. Bu bizning davrimizning shioriga aylandi.

Zamonaviy dunyoda turli texnologik operatsiyalarni amalga oshirish madaniyati haqidagi bilimlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Insonni «Texnologiya» olamiga bolalik davrida, boshlang‘ich maktabdan boshlab kiritish kerak. Texnologiya fanining imkoniyatlari o‘quvchilarga texnologik yo‘nalishdagi dunyo haqida rivojlangan tasavvurni hosil qilish imkonini beradi. Texnologiya fanining o‘ziga xos xususiyati, uning amaliy faoliyatga asoslanganligi va ob’ektlar bilan amaliy harakatlar bolaga voqelikni hissiy bilish imkonini berishida namoyon bo‘ladi.

Texnologiya darslarida o‘quvchilar turli xil materiallar bilan ishlashadi va sezish, idrok qilish orqali ularning xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot olishadi: og‘ir yoki yengil, silliq yoki qattiq, mo‘rt yoki yumshoq va boshqalar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehnatga qiziqish uyg‘otishda texnologiya fanining o‘rni katta. Bolalarda kattalar mehnatiga ijobiy munosabat erta uyg‘onadi. O‘quvchilar texnologiya darsini o‘tish mobaynida ularga oddiy mehnat ko‘nikmalarini o‘rgatib qolmay, ayni vaqtda bola uchun zarur axloqiy sifatlarni, mustaqillik, maqsadga erishish uchun qat’iyatlilik, tengdoshlariga xushmomilalik tuyg‘ularini singdirish muhumdir. Bugungi kunda jamiyatimiz uchun har tomonlama rivojlangan fan texnika taraqqiyotini hayotga tatbiq eta oladigan yetuk, malakali kadrlar tayyorlash masalasi turibdi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni mahnatga tayyorlash, ularning qiziqishlari, moyilliklari va imkoniyatlariga asoslangan qo‘l mehnati hisoblanadi.

Qo‘l mehnati jarayonida bolalar asosan, ishlab chiqarish texnologiya chiqindilari bilan: tabiiy va sun’iy xomasholar, elektr, radiotexnika to‘plamlari va hokozalar bilan ishlashni o‘rganadilar. Bularning hammasi o‘quvchilarga qo‘l mehnati va asboblar bilan ishlash, har xil xom- ashyolardan foydalanishning ma’lum tajribasini to‘plashga imkon beradi. Bu esa mehnatning qadrini va ma’nosini tushunishga mehnat kishilarga hurmatda bo‘lishga mehnatning va kasbning u yoki bu turiga qiziqishlarini shakklantirishga yordam beradi. O‘quvchilar texnologiya darslarida bunday ko‘nikmalarni olishni qog‘oz va kartondan foydalanishni va ularga ishlab berishni o‘rganadilar.

Mehnat tarbiyasi, mehnatga munosabatni tarbiyalash maktabdagi o‘quv hamda sinfdan tashqari ishlarning o‘zagi, maktabni hayot bilan aloqasini mustahkamlashning asosiy yo‘lidir. O‘quvchilarni mehnatga psixolik va amaliy tayyorlash maktabning asosiy tarbiyaviy vazifalaridan biridir. Maktabning turmush bilan aloqasi kundan- kunga mustahkamlanib bormoqda. O‘quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ish maktabning butun ta’lim ish maktabning butun ta’lim – tarbiyaviy kompleksini qo‘llash orqali amalga oshirish kerak. Tarbiyaviy ishning ajralmas qismi bo‘lib, u bolani har tomonlama rivojlantirish darslarda egallayotgan bilimlarini mustahkamlash, sinfdan tashqari ish ayni bir vaqtda o‘quvchilarning bilim chegarasini kengaytiradi. Texnologiya darslarida bolalarda fan, texnika, san’atning turli xil sohalariga qiziqishni o‘stirish masalasini eng maqbul yo‘l bilan hal etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hasanboev J. , To‘raqulov X. , Haydarov M. , Hasanboeva O. , Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. T. : “Fan va texnologiya”. 2009. 121 – 189 b.

2. Bekmurotova N. A. Texnikaviy ijod va dizayn. – T. : “Fan va texnologiya”. 2006. 131 – 148 b.

3. Bulatov S. S. , Axmedov M. B. Badiiy ta’limning falsafiy asoslari. – T. : “Fan va texnologiya”. 2010. 12 – 154 b. va h. k.

PEDAGOGIKA FANI TA’LIM-TARBIYA JARAYONINING TAYANCHI SIFATIDA

Diyora Xujakulova
JDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti
Pedagogika yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogika fanining bugungi kundagi ahamiyati, ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni, pedagogika fanining tarixiy rivoji, bugungi kunda pedagogika fanidagi texnologik yutuqlar, bola tarbiyasida oilaning ahamiyati, tarbiya orqali o‘quvchilarda insonparvarlik hislatlarini shakllantirish haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogika, ta’lim, tarbiya, jamiyat, PISA, "Ta’lim-2030" dasturi, interaktiv metodlar, masofaviy ta’lim, virtual laboratoriyalar, oila, axloq, shaxs.

Abstract. This article discusses the importance of pedagogy today, its place in the educational process, the historical development of pedagogy, technological achievements in pedagogy today, the importance of the family in child education, and the formation of humanitarian feelings in students through education.

Keywords: Pedagogy, education, education, society, PISA, "Education-2030" program, interactive methods, distance learning, virtual laboratories, family, ethics, personality.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение педагогики сегодня, ее место в образовательном процессе, историческое развитие педагогики, технологические достижения в педагогике сегодня, значение семьи в воспитании детей, а также формирование гуманитарных чувств у учащихся через воспитание.

Ключевые слова: Педагогика, образование, образование, общество, PISA, программа «Образование-2030», интерактивные методы, дистанционное обучение, виртуальные лаборатории, семья, этика, личность.

Yosh avlodni ham manan, ham jismonan yuksaltirish pedagoglarning asosiy vazifasidir. Pedagogika – bu ta’lim va tarbiya jarayonini nazariy va amaliy o‘rganadigan, jamiyat rivoji uchun ahamiyatli bo‘lgan ilmiy soha. Pedagogika nafaqat ta’lim va tarbiya masalalarini tadqiq etadi, balki jamiyatni rivojlantirishda insonning aqliy, axloqiy va madaniy salohiyatini shakllantirishni maqsad qiladi. Ushbu fan yoshlarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, oilaparvarlik kabi hislatlarni shakllantirib, ularni noaniq vaziyatlarda qarorlar qabul qilish, mustaqil fikrlash, dunyoqarashini hamisha boyitib borishga da’vat etadi. Pedagogika nazariya va amaliyot birligi fanidir. Shaxsni

tarbiyalash, o‘qitish va shakllantirish fanning asosi hisoblanadi. Bunda shaxs tarbiyasi oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyatidir. Tarbiya orqali inson ma’naviyatini yuksaltirish mumkin, ularda e’tiqod, yaxshilik, adolat, insonparvarlikka doir ko‘nikmalar shakllanadi.

Pedagogikaning asosi sifatida ta’lim va tarbiya bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlardir. Tarbiya – insonning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy fazilatlarini shakllantirish, ta’lim esa insonni bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantiradi. Misol uchun, Ushinskiy ta’kidlaganidek, "Ta’lim-tarbiya jarayonida bolani shaxs sifatida shakllantirishning poydevori qo‘yiladi". Bu tamoyil zamonaviy ta’lim jarayonida ham dolzarbdir. Tarixga nazar tashlasak, pedagogika qadimiy davrlardan boshlab insoniyatning ijtimoiy rivojida muhim rol o‘ynagan. Masalan, Yunonistonda Platon va Aristotelning falsafiy ta’limotlari pedagogikaning ilk nazariy asoslari bo‘lgan. Sharqda esa Al-Farg‘oniy, Ibn Sino va Al-Farobiy ta’lim-tarbiya masalalarida katta iz qoldirgan. Bugungi kunda pedagogika ta’lim tizimining barcha bosqichlarida – maktabgacha ta’limdan oliy ta’limgacha – asosiy nazariy tayanch hisoblanadi. Masalan, konstruktiv pedagogika tamoyillari bo‘yicha o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Finlyandiya ta’lim tizimida bu yondashuv muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda, bu esa xalqaro PISA reytingida ularning yuqori o‘rinni egallashiga sabab bo‘lmoqda.

Ta’lim va tarbiya jarayoni bir-biridan ajralmasdir. Tarbiya jarayoni ta’lim orqali amalga oshiriladi. Masalan, o‘quvchilarga tarix fanini o‘qitishda ular nafaqat faktlarni o‘rganadi, balki tarixiy voqealardan axloqiy saboq oladi. Bu esa shaxsning umumiy madaniy va ma’naviy rivojiga xizmat qiladi. O‘qituvchi pedagogikaning eng muhim omillaridan biridir. O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiyachi sifatida ham harakat qiladi. Zamonaviy pedagogikada o‘qituvchilarning kasbiy rivoji va ularning tarbiya berish uslublarini yangilash muhim hisoblanadi. Bu borada Janubiy Koreya tajribasi diqqatga sazovor, u yerda o‘qituvchilarning doimiy malaka oshirish tizimi ishlab chiqilgan. XXI asrda pedagogika axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib bormoqda. Masalan, onlayn ta’lim platformalari o‘quv jarayonini zamonaviylashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Biroq, bu jarayonda o‘qituvchining tarbiyaviy rolini texnologiya bilan almashtirib bo‘lmaydi. Ta’lim va tarbiya jarayonida oila va jamiyatning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Oiladagi muhit, ota-onaning tarbiya uslublari bolaga ta’sir qiladi. Shu nuqtai nazardan, oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlik pedagogikaning muvaffaqiyati uchun zarur shart hisoblanadi. Pedagogik jarayonning natijasi shaxsning o‘z bilim va ko‘nikmalarini jamiyat foydasiga qo‘llay olishida namoyon bo‘ladi. Masalan, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "Ta’lim-2030" dasturi global ta’lim tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlashni ko‘zda tutadi. Ushbu dastur pedagogik nazariyalarni amaliyotga tadbiq qilishning

muvaffaqiyatli namunasidir. Pedagogikada o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar axloqiy me’yorlar asosida qurilishi zarur. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yoshlar uchun axloqiy namuna hamdir. Shu jihatdan pedagogik etika o‘qituvchining mas’uliyatini oshiradi. Bugungi globallashuv jarayonida ushbu fanning ahamiyati ortib bormoqda, chunki u nafaqat shaxsni tarbiyalash, balki ijtimoiy hayotga moslashuvchan insonlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Pedagogika fanining milliy xususiyatlari Amir Temur va Alisher Navoiy kabi buyuk shaxslarning tarbiya haqidagi qarashlarida namoyon bo‘lgan. Zamonaviy davrda esa bu fandagi rivojlanish 1997-yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun asosida mustahkamlandi.

O‘zbekistondagi ta’lim tizimi, jumladan, maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha, pedagogika faniga asoslangan holda shakllangan. Ushbu tizimning maqsadi – barkamol avlodni tarbiyalash va ularni jamiyatda faol shaxsga aylantirishdir. Bugungi kunda pedagogika fani texnologik yutuqlar bilan uyg‘unlashmoqda. Interaktiv metodlar, masofaviy ta’lim, virtual laboratoriyalar kabi texnologiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda pedagogika fanining rivojlanishida bir qator muammolar mavjud, jumladan, malakali pedagoglarning yetishmasligi va ta’lim resurslarining yetarlicha emasligi. Shu bilan birga, davlat tomonidan taqdim etilayotgan imkoniyatlar ushbu sohaning istiqbollari borasida katta umidlar uyg‘otadi. Pedagogika fani O‘zbekistonda ta’limning poydevori hisoblanadi. Uni rivojlantirish orqali yosh avlodning bilimli va tarbiyali bo‘lib yetishishiga erishish mumkin. Shu sababli, ushbu sohani muntazam ravishda qo‘llab-quvvatlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

2. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (1997).

3. Hasanov A. "Pedagogika asoslari". Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2019.

4. Navoiy A. "Mahbub ul-qulub".

5. Karimov I. A. "Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori". Toshkent, 1997.

6. Dehqonov R. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar". Toshkent: Fan, 2020.

7. Abdurahmonov T. "Pedagogika va psixologiya". Toshkent: Sharq, 2018.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

Djurayeva Nargiza To‘rayevna
Toshkent viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli
30-umumiy orta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tanqidiy fikrlashning bugungi kunda ta’lim jarayonining muhim komponentlaridan biriligi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu qobiliyatni shakllantirish nafaqat ularning aqliy salohiyatini oshiradi, balki kelajakdagi mustaqil qarorlar qabul qilish, muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuning uchun ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan metodlarni qo‘llash zaruratga aylanmoqda.

Kalit so‘zlar: tanqidiy, ta’lim, aqliy fikrlash, komponent, fikrlash haqida o‘ylash, kontseptualizatsiya, kognitiv fikrlash.

“Aql tanqid qilish bilan charxlanadi,
tanqid esa fikrlashdan boshlanadi.”

Bugungi kunda ta’lim tizimida zamonaviy metod va uslublardan foydalanish alohida e’tiborga loyiqdir. Shular orasida tanqidiy fikrlashni shakllantirish asosiy o‘rinni egallaydi. Bu usul nafaqat o‘quvchilarning bilim olish jarayonini jonlantiradi, balki ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o‘ta muhimdir, chunki bu yoshda shakllangan qobiliyatlar kelajakdagi muvaffaqiyatlarning asosidir. Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq dolzarb muammolarni hal etish mustaqil fikrlash va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan yangi avlodga bog‘liq. Biz vaziyatga qarab o‘zgarib turadigan fikrni tasavvur qilamiz. Bola ma’lum bir vaziyatga tushib qoladi va u darhol ma’lumotni kuzatishni, tahlil qilishni, qayta ishlashni, xulosalar chiqarishni, qaror qabul qilishni, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishni boshlaydi. Bu tanqidiy fikrlash.

Tanqidiy fikrlash – bu ma’lumotlarni tahlil qilish, ularni baholash va mazmunli xulosa chiqarish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ularning o‘z bilimlariga ijodiy yondashishini, muammolarni yechishda turli yo‘llarni izlashini va aniq xulosalar chiqarishini ta’minlaydi. Tanqidiy fikrlash-bu nimaga ishonish yoki qanday harakat qilish kerak? nima qilish kerakligi to‘g‘risida qaror qabul qilishga qaratilgan samarali, aks ettiruvchi fikrlash. Bundan tashqari, tanqidiy fikrlash-bu o‘rganilayotgan ma’lumotlarga, shu

jumladan o‘z hukmlariga shubha qilish qobiliyati. “Fikrlash haqida o‘ylash” nomi bilan ham tanilgan. Eng keng tarqalgan ta’riflardan biri bu “nimaga ishonish va nima qilish kerakligini hal qilishga qaratilgan ratsional refleksiv fikrlash”, faol va mohirona tahlil qilish, kuzatish, tajriba, aloqa natijasida olingan yoki hosil bo‘lgan ma’lumotlarni ishonch va harakat uchun maqsadli nuqta sifatida kontseptsiyalashdir. Qo‘llash, sintez qilish yoki baholashning intellektual tartibga solinadigan jarayoni”.

Bizning fikrimizcha, tanqidiy fikrlash bilimlarni egallash va mustaqil fikrlashning yuqori darajadagi tarkibiy qismi bo‘lib, u insonning voqealar, hodisalar va mavjudlikni ob’ektiv idrok etish qobiliyatini kengaytiradigan aqliy hodisadir. Tanqidiy fikrlashda g‘oyalar va ularning ahamiyati bir nechta nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi va boshqa g‘oyalar bilan taqqoslanadi. Tahlil, taqqoslash, talqin qilish, innovatsiya, muammolarni hal qilishga alohida e’tibor beriladi va talabalar ijodiy g‘oyalarning yovuz g‘oyalar ustidan g‘alaba qozonishiga ishonishadi. Bizning fikrimizcha, tanqidiy fikrlash bilimlarni egallash va mustaqil fikrlashning yuqori darajadagi tarkibiy qismi bo‘lib, u insonning voqealar, hodisalar va mavjudlikni ob’ektiv idrok etish qobiliyatini kengaytiradigan aqliy hodisadir. Tanqidiy fikrlashda g‘oyalar va ularning ahamiyati bir nechta nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi va boshqa g‘oyalar bilan taqqoslanadi. [5;23-24]Tahlil, taqqoslash, talqin qilish, innovatsiya, muammolarni hal qilishga alohida e’tibor beriladi va talabalar ijodiy g‘oyalarning yovuz g‘oyalar ustidan g‘alaba qozonishiga ishonishadi. Bizning fikrimizcha, tanqidiy fikrlash bilimlarni egallash va mustaqil fikrlashning yuqori darajadagi tarkibiy qismi bo‘lib, u insonning voqealar, hodisalar va mavjudlikni ob’ektiv idrok etish qobiliyatini kengaytiradigan aqliy hodisadir. Tanqidiy fikrlashda g‘oyalar va ularning ahamiyati bir nechta nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi va boshqa g‘oyalar bilan taqqoslanadi. Tahlil, taqqoslash, talqin qilish, innovatsiya, muammolarni hal qilishga alohida e’tibor beriladi va talabalar ijodiy g‘oyalarning yovuz g‘oyalar ustidan g‘alaba qozonishiga ishonishadi. “Tanqidiy fikrlash-bu odamlardan o‘z fikrlari va harakatlarini shakllantiradigan qarorlarni aks ettirish va ko‘rib chiqishni talab qiladigan fikrlash turi. Tanqidiy fikrlashni turli yo‘llar bilan aniqlash mumkin bo‘lsa-da, uning asosiy tarkibiy qismi qoniqarli natijaga erishish istagi ekanligi to‘g‘risida umumiy kelishuv mavjud va bunga oqilona fikrlash va natijalarga yo‘naltirilgan ish orqali erishish kerak. [4-21-23] Kichik guruhlarda ishlash jarayonida talabalar o‘zlarini erkinroq tutadilar. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish usullari, Boshlang‘ich sinflarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

Savol-javob metodlari

O‘quvchilarga oddiy savollar emas, balki ularni tahlil qilishga undaydigan ochiq savollar berish zarur. Masalan: “Nima uchun bunday deb o‘ylaysan?”, “Bu ma’lumotni tasdiqlaydigan dalillar bormi?”

Muammoli vaziyatlarni yaratish

O‘qituvchi dars jarayonida muammoli vaziyatlar yaratib, ularni o‘quvchilar bilan birgalikda muhokama qiladi. Masalan, ertak qahramonlari xatti-harakatlarini baholash yoki turli voqealarga munosabat bildirish.

Tahlil qilish va taqqoslash

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun hikoya yoki matnlarni o‘qib, ularni tahlil qilishni o‘rgatish muhimdir. Masalan, ikki turli hikoyani solishtirish orqali umumiy va farqli jihatlarni aniqlash.

Ijodiy vazifalar

O‘quvchilarga ertak yoki hikoya davomini yozishni taklif qilish ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Jamoaviy ishlar

Guruh bo‘lib ishlash orqali o‘quvchilar birgalikda yechim topishga harakat qiladilar, bu esa ularning muloqot va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Boshlang‘ich sinflarda tanqidiy fikrlashning ahamiyati

Tahliliy qobiliyatni shakllantirish

Boshlang‘ich sinfda berilgan savollar va topshiriqlar orqali o‘quvchilar fikrlashning chuqur darajalariga kiradi. Bu ularning tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

O‘z-o‘zini anglash va baholash

Tanqidiy fikrlash orqali o‘quvchilar o‘zlarining bilim darajasini, qarashlarini baholashni va o‘z fikrlarini qayta ko‘rib chiqishni o‘rganadilar.

Ijodkorlikni rivojlantirish

Tanqidiy fikrlash jarayonida o‘quvchilar muammolarni yechishning turli yo‘llarini izlashadi, bu esa ijodiy yondashuvni rag‘batlantiradi.

O‘qituvchining o‘rni:

Boshlang‘ich sinflarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o‘qituvchi yetakchi rol o‘ynaydi.

O‘qituvchi dars jarayonida:

O‘quvchilarning fikrlarini hurmat qiladi va rag‘batlantiradi;

Ularni mustaqil qaror qabul qilishga undaydi;

Har xil fikrlarni muhokama qilish imkonini yaratadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bugungi ta’lim jarayonining asosiy maqsadlaridan biridir. Bu qobiliyatni shakllantirish o‘quvchilarning nafaqat maktab davridagi, balki kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ham ta’minlaydi. Zamonaviy o‘qitish metodlarini qo‘llash orqali bolalarda mustaqil fikrlash, xulosalar chiqarish va ijodkorlikka intilish shakllanadi. Shu sababdan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ushbu metodlarni faol qo‘llashlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aristotel. Metafizika M. : "Nauka", 1934.
2. Abdulloh Avloniy. Tanlangan asarlar. / O. Sharofiddinov tahriri ostida-T. : "Ma’naviyat", 1998. - p. 302
3. Boltaeva Sh. T. boshlang‘ich ta’limda talabalarning ijodiy faoliyati shakllanishning nazariy va amaliy asoslari. Uslubiy qo‘llanma. - Navoiy: NDPI, 2018. - B. 126
4. Devi Dj. Psixologiya va pedagogika myshleniya. / Boshiga. Ingliz N. M. Nikolskoy; Pod ed. (i spredisl.) N. D. Vinogradova. — M. : "Mir", 1915. - 202.
5. Xodjieva F. O. shpallarda tankidli fikrlashni shakllantirish. / Monografiya. - T. : "Fan", 2008. - p. 140.

FAN VA ILMIY TADQIQOTNING GLOBALLASHUVIDA TEXNOLOGIYALAR QO‘LLANISH AHAMIYATI

Q. Mnajadinov
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
Aynura Paraxatova
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
2- kurs Badiiy gimnastika
Alisher Mambetnazarov
Qoraqalpoq davlat universiteti
2-kurs magistr

Annotatsiya. Bugungi kunda fan va ilmiy tadqiqotlarining globallashuvida texnologiyalarning ro‘li ahamiyatli, Bu yo‘nalish asosan XX asrdan boshlandi va keyingi on yillarda dadil osib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu yonalishdagi fan globallashuvi obyektiv asosga ega bolib, uning omillari bo‘lib global moliyaviy va fond bozorlarining vujudga kelishi; halqaro raqobatning kuchayib global tus olishi; transmilliy korporatsiyalarning iqtisodiy faoliyat

ko‘lamining o‘sishi; aloqa vositalari, shuningdek global “INTERNET” tarmog‘ining rivojlanishi, erning maxsus sun’iy yoldoshlarining chirilishi xizmat qiladi.

Ka’lit so‘zlar: Bilim, texnologiya, globallashuv, jarayon, ilm, fan.

Аннотация. Сегодня роль технологий в глобализации науки и научных исследований значительна. Глобализация науки в этом направлении имеет объективную основу, а ее факторами являются возникновение глобальных финансовых и фондовых рынков; усиление глобальной конкуренции; рост масштабов экономической деятельности транснациональных корпораций; средств связи, а также развитие глобальной сети «ИНТЕРНЕТ» и распад специальных спутников Земли.

Ключевые слова: Знания, технологии, глобализация, процесс, наука, наука.

Abstract. Today, the role of technology in the globalization of science and scientific research is significant. The globalization of science in this direction has an objective basis, and its factors are the emergence of global financial and stock markets; increasing global competition; growth of the scale of economic activity of transnational corporations; means of communication, as well as the development of the global “INTERNET” network, and the decay of special satellites of the earth.

Keywords: Knowledge, technology, globalization, process, science, science.

Bilimlar taraqqiyoti kelajakda qanday boladi? Globallashuv jarayonlari fan taraqqiyotiga qanday tasir qilishi mumkin? Mutaxassislarning fikriga qaraganda, globallashuv jarayonlari fanda ham global o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Bular eng avvalo fanning mohiyati, strukturasi, funksiyalaridagi transformatsiya jarayonlari, yani chuqur, yangi sifat o‘zgarishlar bilan xarakterlanadi. Bularni eng avvalo fanning tobora global, internatsional mazmun kasb etib, globallashib borayotganida ko‘ramiz. Bu jarayon ikki yo‘nalishda rivojlanayotganligi ta’kidlanmoqda. Bulardan birinchisi, fanning notijorat globallashuv yo‘nalishi bo‘lib, unda olimlar va turli o‘quv yurtlari birgalikda ilmiy tadqiqot olib boradilar, o‘zaro bilim almashish sodir boladi. Ikkinchisi tijorat yo‘nalishidagi fandagi globallashuv hisoblanadi. Bu yonalish asosan XX asrdan boshlandi va keyingi on yillarda dadil osib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu yo‘nalish asosan XX asrdan boshlandi va keyingi on yillarda dadil o‘sib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu yonalishdagi fan globallashuvi obyektiv asosga ega bolib, uning omillari bo‘lib global moliyaviy va fond bozorlarining vujudga kelishi; halqaro raqobatning kuchayib global tus olishi; transmilliy korporatsiyalarning iqtisodiy faoliyat ko‘lamining o‘sishi; aloqa vositalari, shuningdek global “INTERNET” tarmog‘ining rivojlanishi, erning maxsus sun’iy yoldoshlarining chirilishi xizmat qiladi. Tijorat yonalishidagi fan

globallashuvida transmilliy korporatsiyalar va davlatlar chet eldagi ilmiy ishlanmalarni moliyalaydi va bu holat bugungi kunda o‘sib bormoqda.

Shuni ham aytib otish kerakki, bunday fandagi globallashuv jarayonlari ijobiy tomonlari bilan birga bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Ya’ni xalqaro alyanslarning faoliyatida faqatgina iqtisodiy maqsadlarni kozlab, ilmiy tadqiqotlarni olib borish keng tus oladi, bu esa fundamental bilimlar taraqqiyotini susaytiradi. Shuningdek, xalqaro alyanslar mahaliy ilmiy xodimlar o‘rtasidagi qonimsizlik, ilmiy salohiyatning pasayishi, axborotlarning qo‘ldan boy berilishi kabi oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shunga qaramasdan, fandagi globallashuv ham obyektiv jarayon bo‘lib, uning salbiy tomonlarini bartaraf etish uchun ilm - fan va har bir davlat ortasida mustahkam hamkorlik talab etiladi. Demak, aytish mumkinki, globalashuv jamiyat hayotining barcha sohalariga o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi jarayondir. Global jarayonlar insoniyat oldidagi global muammolarni global – evolyutsionizm, sinergetik paradigmaga asoslangan fanni yanada rivojlantirish, bilim va texnologiyalarni innovatsion ishlab chiqarishga joriy etish asosidagina hal qilish mumkinligini ko‘rsatmoqda. Zamonaviy globallashuv postnoklassik fannining mazmuni, funktsiya, strukturasi, obyektiga ta’sir etdi. Murakkab, o‘z-o‘zini tashkil etadigan, sinergetik xarakterga ega bolgan tizimlar zamonaviy jahon fanninig obyektiga aylandi. Fanda integratsiya, differentsiatsiya, globallashuv jarayonlari kuchaydi. Fanning borgan sari qadriyatlar bilan uzviy holda rivojlanishi, uning gumanizatsiyalashuvi, uning ekologik muvozanatni saqlashdagi roli ortdi. Shuningdek, globallashuv paradigmasida “moddiy” resurslar emas, “nomoddiy” resurslar, yani bilim, nou-xau, axborot tizimi va patentlarni, ilmiy axborotni boshqarish ahamiyatli bo‘lib borayotganligi sababli kelgusida ham jamiyat taraqqiyoti fan, bilimlar bilan uzviy bogliqlikda rivojlanishi e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, jamiyatning kelajagi asosan, genetika, materialshunoslik, energetika, suniy intellekt, inson miyasini organish, bilimlar dinamikasi, bilimlarni boshqarish, globallashuv davrida qanday bilimlarni translyatsiya qilish, ekologiya sohalaridagi yutuqlarning amaliyotga qollanish darajasiga bog‘liq boladi. Natijada olimlarning xalqaro ilmiy hamkorligiga talab yanada kuchayadi.

Shu bois, globallashuv davrida ilmiy bilim va fan taraqqiyotining hal qiluvchi ahamiyati har bir davlat doirasida ilmiy siyosat tushunchasining shakllanishiga olib keldi. Bugungi kunda rivojlangan va Yevropa hamkorligiga a’zo davlatlar va O‘zbekiston ilmiy siyosatiining asosini butun dunyo ilmiy imkoniyat va salohiyatini integratsiya qilish tashkil etadi. Chunki globallashuv davrida yuzaga kelgan global muammolar faqatgina butun jahon olimlarining birgalikdagi ilmiy izlanishlari natijasidagina o‘z echimini topishi mumkin. Bu oz navbatida ilm-fanning yanada taraqqiy etishini taqozo etadi. “Globallashuv sharoitida mamlakatning innovatsion rivojlantirish

salohiyati raqobatbardoshlikning hal qiluvchi omillaridan biriga aylangan bir paytda aholining yuqori bilim darajasi mamlakatga ozini jamiyatga daxldor deb hisoblash imkonini beradigan obro emas, balki yashovchanlik va iqtisodiy taminot, pirovardida siysiy mustaqillik omiliga aylanadi”. Malumki globallashuvning fundamental omillaridan biri axborotlashuv jarayonlari hisoblanadi. Shu bois, globallashuv davrida fanning, madaniyat sohasida ham axborotlashuv jarayonlari sodir boladi va bu oz navbatida fanning ham axbortlashuvini talab etadi. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bolgani singari, globallashuv jarayonlari ham bundan mustasno emas. Uning keng qamrovli va goyat o‘tkir ta’siri natijasida u mafkuraviy tasir o‘tkazishning quroliga ham aylanib bormoqda. Prezidentimiz takidlaganidek “bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham koproq kuchga ega. ” Bunday vaziyat odamning o‘z mustaqil fikriga, bilimga, keng dunyoqarash va boy manaviyatga ega bo‘lishini talab etadi. Biz istiqbolimizni marifatli dunyo, rivojlangan mamlakat qurmoqchi ekanmiz, xalqimiz, avvalambor yosh avlodimiz manaviy olamining daxlsizligini asrash uchun biz nimalarga tayanib-suyanib ish olib borishimiz kerakligi muhimdir. Buning uchun mamlakatimizda fan va bilimlarni translyatsiya qilish vositasi bolgan talim tizimini jahon fani va talim tizimi bilan integratsiyasini taminlash, globallashuv davrida sodir bolayotgan fan va talimdagi global tendentsiyalarni falsafiy-metodologik tahlil qilish ozbekiston olimlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Shu sababli buni qilmasdan amalga oshirib bolmaydi. Ijtimoiy subyektlarning faol faoliyatining zamirida bilim yotadi. Talim shaxs, davlat va jamiyatning iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustivor ijtimoiy taraqqiyot sohasi deb etirof etilgan. Talim bu tizimlashgan bilim, mahorat, va malakalarni shaxs tomonidan ozlashtirish jarayoni va natijasi hisoblanar edi. Bugungi kunda talim ijtimoiy institut sifatida tsivilizatsiyaviy (iqtisodiy, gumanitar, madaniy) funktsiyani bajaradi va insoniyat toplagan ilmiy bilimlarni, malaka, konikmalarni ozlashtirish va ijodiy shaxsni tarbiyalashi lozim. Malumki bilimlarni uzatishning sinxron (kommunikatsiya) va diaxron (talim) turlari farqlanadi. Talim tizimi bilimlarni diaxron uzatish turi bolib, eng avvalo bilimlarni avdloddan avlodga uzatish vositasi hisoblanadi. Talim tizimi insonni savodxonlik- talim-kasbiy malaka-madaniyat-mentalitet bilan taminlaydi.

Buni falsafiy izohlaydigan bolsak, jamiyat murakkab tizim sifatida yangilanar ekan, o‘zini-o‘zi tashkil etuvchi tizimning asosiy omili-inson ham yangi muhitga moslashishi, uning talablariga javob berishi uchun majburiy funktsiyalarni bajara olishi lozim. Jamiyatning rivojlanishiga qarab bilim olish usullari va bilmni uzatish vositalari ozgarib boradi. Adabiyotlarda talimning mifologik, sxolastik, dunyoviy va zamonaviy turlari farqlanadi. Mifologik talim turi ertak, mif va qoshiqlar asosida olib borilgan. Sxolastik talimda matnlarni

organish, ritorika, gramatika, inson mohiyatini anglashga qaratilgan. Dunyoviy talim turi XX asr boshlarida vujudga keldi. Zamonaviy talim insonda nafaqat bilim, balki sifatli bilim va talim, manaviy qadriyatlarni shakllantiradi. Bundan tashqari, bilim olishning agrar, industrial, axborot jamiyatidagi hisoblash texnikasini qollashga asoslangan bilim olish turlarini tasniflash mumkin. Rivojlanishning agrar usulida kuzatuv bilim manbai hisoblangan va u asosida mehnatga oid samarali hatti-harakatlar va tabiiy resurslarning osishi ta`minlangan. Industrial rivojlanish usulida esa kuzatuv, eksperiment, nazariyalar bilim manbai edi. Axborotlashgan jamiyatda yangi bilimni olish usuli hisoblash texnikasini qollashga asoslanadi. Har bir fan taraqqiyotining malum davrida yangi talim paradigmasi vujudga keladi. Masalan, klassik fanda talim insonning hayot va mehnatga zarur bolgan bilim, malaka, konikmalarni ozlashtirish jarayoni va natijasi sifatida etirof etilgan edi. Bu davrda talim klassik ratsionalizmga asoslangan bolib, talim natijasida shaxsda mexanistik va deteterministik olam manzarasi shakllanar edi. Talim jarayonida bilimlar va muammolarni echish usullari togridan - togri uzatilar edi. Murakkab tizimlarni organish, ozini-ozi tashkil etuvchi, ozini-ozi rivojlantiruvchi tabiatni organishga otilishi tizimlarning yopiqligi togrisidagi mexanistik tasavvurlarning radikal transformatsiyasiga olib keldi. Postnoklassik fanning vujudga kelishi natijasida talim tizimida ham modernizatsiya jarayonlari yuz bermoqda.

Talimdagi modernizatsiya jarayonlari serqirra jarayondir. U taraqqiyotning bir bosqichidan ikkinchisiga otayotgan mamlakatimiz ijtimoiy ozgarishlarning tarkibiy qismi, mustabid tuzum mafkuraviy asoratlaridan xalos bolish jarayoni hamdir. 1997 yili qabul qilingan va sobitqadamlik bilan amalga oshirilatgan Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi, “Talim togrisidagi” Qonun mamlakatimiz ilmiy salohiyatini yuksaltirish, jahon andozalariga javob bera oladigan mutaxassis- kadrlar tayyorlash vazifasini qo`ydi. “Hozirda respublikamiz aholisining yalpi savodxonlik muammosi tola hal qilingan. Zero, aholining savodxonligi 1991 yildagi 97, 7 % dan 2003 yilda 99, 3% ga etdi. Orta maxsus, kasb- hunar yoki oliy malumotga ega katta yoshli aholi hissasi 75% dan oshadi. Boshlangich va orta talim darajasida qamrab olingan qiz va ogil bolalar soni orasida amalda farq yoq. ” SHuningdek, Ozbekiston umumiy boshlangich talimni taminlab, global Mingyillik Rivojlanish Maqsadlaridan birini muvaffaqiyat bilan royobga chiqarganini qayd etish lozim. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq nisbatan qisqa davr ichida orta kasb- hunar oquv yurtlarining yangi tiplari tarmogi yaratildi, talim dasturlarining rangbarangligini taminlashga, talim tizimini moliyalashtirish kop tomonlama bolishiga erishildi. 2004 yil may oyida Prezident Farmoni bilan maktablar moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va uzluksiz talimning yagona yaxlit tizimini shakllantirish bilan bogliq maktab talimini rivojlantirishning

davlat umummilliy dasturi qabul qilindi. Mustaqillik tufayli xalqimizning kop asrlik tarixga ega bolgan manaviy- intelllektual merosini organish imkoniyati yaratildi. Mamlakatimiz talim tizimida jahon talim tizimining ilgor tajribasini qollash, talimni axborotlashtirish, gumanizatsiyalashtirish, elektron darsliklar bilan taminlash, masofaviy talimni rivojlantirish keng kolamda olib borilmoqda. Respublikamizda aalga oshirilayotgan talim sohasidagi islohotlar xalq manaviyatining yuksalishi, asrlar davomida yaratilgan qadriyatlarni tiklash, asrab-avaylash, kelajak avlodga etkazish, umuminsoniy merosdan bahramand bolish, global ozgarishlar sodir bolayotgan jamiyatda faol, manaviy etuk insonlarni shakllantirishning asosidir.

Talim tizimining ijtimoiy taraqqiyotdagi, jamiyatni modernizatsiya qilishdagi roli mutaxassislar tomonidan keng yoritilmoqda. Masalan, Fukuyama ozining “Velikiy razriv” asarida zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy kapitalning asosiy manbalaridan biri- ijtimoiy qadriyat sifatida taminlanadigan-talim tizimidir”-deb yozadi. Subetto esa jamiyat progressiv evolyutsiyasining assosiy omili “tizim intelektinining” sifati, moslashuvchanligi, kelajakni yaratuvchanligi va kelajakni boshqara olish qobiliyatlarining osishida deb takidlaydi. Uning fikricha, har qanday progressiv evolyutsiya doirasida bu qonun amal qiladi. Har qanday ijtimoiy taraqqiyot, umumjahon tarixiy qonuniyati ijtimoiy intellekt bilan bogliq. bolib, olim fikriga kora u quyidagi funktsiyalarni bajaradi: ijod, loyihalashtirish, bashorat qilish, rejalashtirish, dasturlash. Olim XX va XXI asrda insoniyatning Ulkan Portlash davriga qadam qoyganligini, bu davr noosfera evolyutsiyasidagi sakrash bolib, bu jamiyat intellekt va talim jamiyati asosida boshqarilishini etirof etadi. Olim ijtimoiy intellekning substantsiyasi bilim, talim esa – ijtimoiy va individual intellektni qayta ishlab chiqarishning asosiy mexanizmi deb hisoblaydi. Ammo bu jarayonlarning amalga oshishi uchun talim tizimini intellektuallashtirish lozimligini takidlaydi. Zamonaviy talimni modernizatsiya qilish butun XXI asrni oz ichiga olishini va talimni fundamentallashtirish, noosferizatsiyalash, gumanizatsiyalashtirish, kreativlashtirish, intellektullashtirish, axborotlashtirish, talim va tadqiqot jarayonlarini birlashtirishni nazarda tutadi.

Bugungi kundagi modernizatsiya jarayonlari davrida talimni modernizatsiya qilish jamiyatdagi integrativ mexanizm bolib, modernizatsiya jarayonlarining kuchaytirishga olib keladi. Bugungi kunda dunyo hamjamiyati tomonidan talimni rivojlantirish, uni tubdan qayta ozgartirishda aniq yonalishlar belgilandi. Ularning birinchisi - talimni tubdan demokratlashtirishdir. Ikkinchisi - uzluksiz talim goyasi, songra esa “talim bir umrga”goyasini “talim butun umr davomida” goyasiga almashtirishdir. Uchinchisi - bu nafaqat mutaxassislarni tayyorlash vositasi, balki balki jamiyatga ongli, insonlarni etkazib berishdir. Uchinchisi talimni globallashuviga erishish. Tortinchisi-talimni axborotlashtirish. Talimni

modernizatsiya qilishni talim zamonaviy jamiyatda asosiy ishlab chiqarish va rivojlanish, raqobatbardoshlik asosi va jahon hamjamiyatining rivojlanish kabi omillar taqazo etadi.

Zamonaviy ijtimoiy ozgarishlarning murakkabligi talimga ham sinergetik yondoshuv zarurligini talab etadi. Bunda zamonaviy talim paradigmasi yopiq tizimlarni organishdan, evolyutsion ochiq tizimlarni organishga otish zarurligini etirof etadi. Talim tizimi ochiq tizim sifatida tasniflanmoqda. Ochiq talim – bu oz-ozini tashkillashtiruvchi tizim bolib, ijodiy shaxsni rivojlantirish jarayonidir. Bu zamonaviy axborotlashgan jamiyat talim tizimi falsafasining asosiy jihatidir. Sinergetik yondoshuvda oqitish, oquvchi va oqituvchi ortasidagi munosabat - bilimlarni togridan-togri uzatish emas, balki bilimlarni uzatishdagi ochiq dialog, hamkorlikdagi talim maydoniga asoslanadi. Ochiq talim tizimi uzluksiz, innovatsion, masofaviy oqitish orqali moslashuvchan, faol, ijodiy shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir. Bunda bilimlar subyekt keyinchalik ulardan yangi bilimlarni hosil qila olish qobiliyatini shakllantirish uchun uzatiladi. Bunda oquvchidagi yashirin qobiliyatlarni uygotish, ozini namoyon etishga, imkon yaratiladi. Bilish yangi mazmun kasb etadi. Bilish subyekti faol bolib, talimda uzatilayotgan bilimlar absolyut haqiqat sifatida etirof etilmaydi. Talim jarayonining nochiziqli tafakkurga asoslanishi etirof etiladi. Nochiziqli tafakkur rivojlanishning kop variantliligini, bilish jarayonida tizim tabiatini yagona qonunlarda aks ettirib bolmasligini. etirof etadi. Nochiziqli tafakkur tadrijiy (evolyutsion) yonalishlarning kop variantliligi va muqobilliligi goyasi hamda bu muqobillardan birining tanlanishi, muhitdagi jarayonlarning taraqqiyot (darajasida) surati, tadrijiylikning orqaga qaytarilmasligi goyalari sifatida tushuniladi. Bunday tafakkur tamoyillariga kora talim rivojlanishining kop variantliligini tan olinmoqda. Bu talim jarayonida bir yoqlama yonalganlik, tafakkur jarayonining inertsiyasiga barham beradi. Bilish jarayonida “subyekt- subyekt” munosabatlari amal qiladi. Bilish jarayonining beqaror, xaotik holatlarga ega ekanligi etirof etiladi. Natijada shaxs faolligining osishiga, bilimlar generatsiyasining samaradorligining ortishiga erishiladi.

Sinergetik tamoyillarni talimning barcha pogonalariga kiritish uchun olamning yaxlitligini anglatuvchi integrativ kurslarni tashkil etish, har bir fan sohasiga sinergetika tamoyillarini yorituvchi materiallarni kiritish zarurdir Sinergetikaning talim tizimida amal qilishi fanlararo dialogni taminlash imkonini beradi, natijada fan va madaniyat birligiga erishish mumkin boladi.

Bolonya jarayoni bir tomondan yaqinlashuv va muvofiqlashtiruv orqali raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan bolsa, boshqa tomondan Yevropa madaniyati va manaviyatini asrab qolishga qaratilgan. Bular Bolonya bayonotining asosiy tamoyillarida aks ettirilgan: ishga joylashish imkoniyati bilan grajdanlar mobilligining asosiy yonalishi sifatida

oliy talim Yevropa zonasini qorish; Yevropaning intellektual, madaniy, ijtimoiy va ilmiy va texnikaviy salohiyatini mustahkamlash, Yevropa oliy talimining dunyodagi obroini oshirish; talabalar, mablag, tasir borasidagi Yevropa oliy oquv yurtlarining raqobatbardoshligini taminlash; universitetlar Yevropa ongining tashuvchilari sifatida qaraladigan Yevropa madaniy qadriyatlarini rivojlantirishda universitetlarning markaziy ornini oshirish; oliy talimda Yevropacha qarashlarga komaklashish, talim va tadqiqot sohalarida hamkorlikni ragbatlantirish. Bolonya tamoyillari metodologik ahamiyat kasb etadi: Mamlakatlar orasidagi tavofutlarga qaramay, Yevropa tashki dunyo qarshisida yagonalikka intiladi. Globallashuv, tabir joiz bolsa, davr talabi bilan uzluksiz talim, masofadan talim goyalari Markaziy Osiyo, xususan Ozbekistonda ham rivojlana boshladi. Davlat tomonidan AKT rivojiga etibor berilib huquqiy zamin yaratildi. Boshqa tomondan Yevropa Ittifoqi dasturlari asosida Markaziy Osiyoda oliy talim sohasida AKTni qollash kolami oshirib borildi. Bunday rivojlanish natijasida, umuman olganda, Ozbekiston grajdanlari masofadan talim orqali chet el universitetlarida tahsil olishlari mumkin. Shu o‘rinda muayyan masalalarni korib chiqish kerak bolur. Birinchidan, talim tili masalasi. Bolonya jarayonida til masalalari ochiq korib chiqilmagan. Implitsit ravishda jarayon Garbiy Yevropaning yirik millatlari tili foydasiga amal qiladi. Markaziy Osiyolik talabalar shunda asosan ingliz tili orqari talim oladilar. CHet el universitetlar talim mundarijasida Markaziy Osiyo xalqlari qadriyatlari aks ettirilmagan. Ya’ni, milliy qadriyatlarga zarar etadi. Taqiq yoli bilan bu imkoniyatni bekor qilib bolmaydi. Talim globallashuvining salbiy oqibatlariga qarish turish uchun Markaziy Osiyo “bolonya” jarayonini yolga qoyish lozim, Markaziy Osiyo ongini shakllantirish va rivojlantirish kerak. Universitetlar esa bu jarayonda, Yevropada moljallangandek, markaziy orinda turishi kerak. Talim sifati orqali raqobatbardoshlikni taminlash mumkin. Paradoksdek tuyulsa ham, yuqoridagi maqsadga erishish uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va elektron oquv muhitini Markaziy Osiyo miqyosida rivojlantirib, talim tizimlarini yaqinlashtirib borish zarur. Elektron oquv muhitini tola kolamda rivojlantirish kerak. YAni Internetdan referatlar izlash, elektron shakldagi darsliklardan foydalanish va shu kabilardan tola kolamli interaktiv usullar va bilimni tekshishish tizimiga otish lozim.

Globallashuv atamasi otgan asrning 80 yillaridan keng qollanila boshlandi. Ammo, uning salohiyati, mazmuni, oqibatlari togrisida xilma- xil fikrlar shunchalik kopki, natijada har bir muallif ozining mafkuraviy qarashlariga kora va oz fanining predmetidan kelib chiqib, oz qarashini, tushunchasini ifoda qiladi. Globallashuv tushunchasiga berilgan tariflarni umumlashtirib, muhim xususiyatlarini ajratib korsatsak uning, qonuniy, obektiv jarayon ekanligi hozirgi davrda sifat jihatidan yangi belgilar kasb etganligi, yangi transport, kommunikatsiya,

axborot vositalari va texnologiyalarini qollash natijasida mamlakatlarning u yoki bu faoliyatlarini, malum maqsadlarini amalga oshirish uchun jugrofiy makonning minimal darajaga qisqarganligini, ijtimoiy vaqtning kechishini esa benixoyat tezlashganligini qayd qilish zarur. Globallashuv jarayonining afzalliklari bilan bir qatorda insoniyatga tahdidlari ham mavjudligi umum etirof etilgan fikrdir. Bu tahdidlar iqtisodiy va siyosiy munosabatlar sohasida keskin, yaqqol namoyon bolmoqda. Ammo iqtisodiy globallashuvning tahdidlari va uni xal qilish yollari togrisida o‘zaro tafovutli, hatto qarama- qarshi fikrlar talaygina.

Texnikaviy, texnologik kommunikatsiya axborot va boshqa sohalardagi global jarayonlardan rivojlangan mamlakatlar asosan oz iqtisodiy manfaatlari yolida foydalanmoqdalar. Hozirgi davrda jahon miqyosida qaror topgan iqtisodiy tartibot rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar ortasidagi tafovutni, nomutanosiblikni kuchaytirib bormoqda. Shu munosabat bilan istiqbolda jamiyatni, tsivilizatsiyalarni nima kutayotganligi xaqida turli farazlar aytilmoqda. TSivilizatsiyalar toqnashuvi, iqtisodiy, texnologik va axborot neokolonealizmi, diniy va etnik konfliktlar xaqidagi taxminlar shular jumlasidandir. Bugun biz yashayotgan asr fan, texnika, axborot rivojlanganligi va shu bilan birga globallashuv jarayonlari osayotgan davr hisoblanadi. XXI asrda insoniyat katta yutuqlarga erishdi va erishmoqda ham. Ammo shu bilan birga bugungi kunda insoniyatning er yuzida uzoq yashashi va faoliyatini chegaralayotgan muammolar doirasi ham borgan sari kopayib bormoqda.

Bugun insoniyat va atrof muhitga havf solayotgan bir nechta muammolarni global muammolar deyish mumkin. Ekologiyaning buzilishi, SPID, narkobiznes, yadroviy qurollar, va odam savdosi hamda ochlik kabi muammolar hozirda faqatgina bir davlat bir millat doirasidagina emas, balki er yuzida mavjud bolgan barcha millatlar qolaversa, butun insoniyatga havf solmoqda. Umuman globalizatsiya va global jarayonlar XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib kuchaya boshladi. Globalizm atamasi oxirgi yuz yillikda tobora katta ahamiyat kasb eta boshladi. Xususan «global» tushunchasining lugaviy manosiga etibor qaratadigan bolsak «umumiy», «globus», «yer shari» kabi tushunchalarga duch kelamiz. Demak, globalizm tushunchasi ana shu har ikki manoda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bogliq bolgan katta muammolarni, «sayyoraviy», «umumsayyoraviy», «umuminsoniy», «dunyoviy» muammolarni, «umumplanetar ahamiyatga ega bolgan masalalar» va global taraqqiyot istiqbollarini oziga qamrab oladi. Ijtimoiy fanlarda ushbu masalalarni yoritish va tadqiq etish esa afsuski ancha kech boshlandi. CHunki yuqorida aytib otilgan muammolar faqatgina ayrim millat va davlatlarga tegishli degan dunyoqarash mavjud edi. Va shuning uchun ham bu kabi masalalar hammani qiziqtirmas edi. Keyinchalik esa global muammolar echimi dolzarb va butun dunyo uchun havfli ekanligi anglana boshlandi. Hozirgi zamonda mutaffakkirlar va

olimlar er sayyorasi miqyosida yagona tsivilizatsiya qaror topayotganligi xususida tobora koproq gapirmoqdalar. Fan va amaliyotda bu goyaning mustahkam orin olishi bilan «globalizatsiya» atamasi qollanila boshlandi. Globalizatsiya sotsiumning barcha sohalarini qamrab olib, ijobiy jihatlari bilan birga qator jiddiy muammolarni ham tugdirdi. Hozirda ularning muayyan qismini «hozirgi davrning global muammolari» deb atash mumkin. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki globalizatsiya va global muammolar kabi jarayonlarning echimi butun insoniyatning hamjihatlik bilan faoliyat yuritishiga bogliqdir. Zero global muammolarga echim topish har bir davlatning vazifasi bolib, dunyo davlatlarining ozaro hamkorlikda ish tutishini taqozo etadi. Ta’riflardan birida globallashuv Er kurrasi bo‘ylab yoyilayotgan kommunikatsiya va ayirboshlash tarmoqlar orqali va ular tufayli mintaqaviy xo‘jaliklar, jamiyatlar va madaniyatlar bir biri bilan yaqinlashib, bir biriga singib ketganligini ifoda etadi, deyiladi. F. Tolipovning “global taraqqiyot deganda biz kishilar hamjamiyatlarining hayotiy faoliyati natijasida jahon miqyosida sodir bo‘layotgan va butun insoniyat taraqqiyoti uchun tizimiy ahamiyatga ega siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik, psixologik o‘zgarishlar majmuini tushunamiz”, degan ta’rifi globallashuvning asosiy jihatlarini qamrab oladi, deb hisoblaymiz. Globallashuv alomatlari qadim zamonlardan beri kuzatiladi. Qadimgi va o‘rta asrlar imperiyalari tarix qatlarida qolib qetgan bo‘lsa-da, o‘sha davrlardagi globallashuv tamoniga bo‘lgan siljishlar saqlanib qoldi. Bunga bir misol Ipak yo‘li bo‘lsa, boshqa misol sifatida CHingizxon imperiyasida barpo etgan pochta xizmatini ko‘rsatish mumkin. Ammo xususiy, tor ma’noda globallashuv, deb eng oxirgi davr yuritiladi.

Globalizatsiya 19-asrining 60-yilaridan boshlab yonqin namoyon bo‘ldi. Boshqa fikrlarga ko‘ra globalizatsiya 19-asrning oxirida boshlanib, o‘tgan asrning oxirgi choragida jadallashdi. Globallashuv transmamlakat korporatsiyalarining tez sur’atlar bilan kengayishi ortidan xo‘jaliklarning “o‘sish-yo-o‘lish” dinamikasini ifoda etuvchi sistemik tendensiyaning natijasidir, degan fikr bildirilgan. [26] O‘z navbatida bu tendensiya trasmamlakat korporatsiyalarning jadal o‘sib borishi bilan bog‘liqdir. Iqtisodiy kontekstda globallashuv tovarlar, sarmoya, xizmatlar va ishchi kuchi oqimini osonlashritish maqsadida davlatlar chegaralaridagi to‘siqlarni bartaraf qilish yoki sezilarli darajada pasaytirishni anglatadi. Tor ma’nodagi globallashuv savdo-sodiq, bevosita chet el investitsiyalari, kapital oqimi, migratsiya orqali mamlakatlar xo‘jaligining bir internatsional xo‘jalikka intregrallashuvni anglatadi. Keng ma’nodagi globallashuvga g‘oyalar, tillar va ommabop madaniyatning mamlakatlararo almashinuvi hamroh bo‘ladi.

O‘zbekiston globallashuv jarayonidan chetda qolmadi. Ipak yo‘lining bir necha marshruti hozirgi O‘zbekiston eridan o‘tgan, Samarqand va Buxoro Ipak yo‘lidagi yirik savdo

markazlari sifatida jahonga tanildi. Hozirgi O‘zbekiston eri xalqaro tijorat yo‘llarining chorrahasi sifatida o‘z ahamiyatini kech o‘rta aslargacha saqlab keldi. Ushbu globallashuv natijasi o‘laroq Markaziy Osiyo erlarida ma’naviy sohada diniy tolerantlik, ilm-fanga charqoqlik vujudga kelgan, islom diniy tafakkuri va grek falsafasi kirib kelgan bo‘lsa, xo‘jalikda ipakchilik va paxtachilik rivojlandi, muayyan mahsulot ekport qilindi. Salbiy oqibatlar ham yo‘q emas edi – “miyalar sizib ketishining” ilk ko‘rinishlari, yalpi ichki mahsulotning bir qismi markazga to‘lov sifatida olib ketilishi, masalan. Rossiya istilosi bilan globallashuv jadallalashdi va boshqa yo‘nalish oldi. Turkiston oykumenasi deformatsiyaga uchradi. Iqtisodda paxtachilik va ipakchilik ko‘lami oshgan, temir yo‘llar va shular asosida paxtaga dastlabki ishlov berish, mexanik ishlab chiqarish paydo bo‘lgan bo‘lsa, turmush tarziga evropacha unsurlar kira boshladi va ko‘payib bordi. Ma’naviy sohada ta’lim tizimini isloh qilish g‘oyalari, yangi usul maktablari, dramaturgiya janri, teatr yuzaga keldi. Siyosiy sohada konstitutsiyaviy monarxiya, imperiya tabaalarining millati, dinidan qat’i nazar tenghuquqligi g‘oyalari muhokama qilina boshladi. Mustaqillik O‘zbekiston uchun oykumenani kengaytirib xalqaro munosabatlarning to‘laqonli qatnashchisiga aylanishga imkon yaratdi, respublika BMTga, ko‘pchilik xalqaro shartnoma, konvensiya, ularga qo‘shimcha protokollar va hokazolarga a’zo bo‘ldi.

Barcha globallashuv jarayonlarida iqtisodiy globallashuv etakchi ahamiyatga ega. U ta’lim sohasidagi globallashuvni ham belgilaydi. Bir tomondan ishlab chiqarish va boshqaruv sohalarida bir xil bilim, qo‘nikma va usullar talab qilinadi. Boshqa tomondan ta’lim sohasining o‘zi ham global bozor va raqobat sharoitida faoliyat ko‘rsatishi kerak. Yuzaga kelgan muammolarga javoban masofadan ta’lim, umr davomida ta’lim va Bolonya jarayoni, deb yuritiladigan choralar vujudga keldi. Globallashgan xo‘jalik va transmamlakat korporatsiyalar bir mamlakatda ta’lim olib boshqa mamlakatda, undan yana uchinchisiga o‘tib ishlay oladigan mutaxassislarni talab qiladi. Yuqoridagilarda axborot kommunikatsiya texnologiyalari turli miqyosda bo‘lsa-da, katta ahamiyat qasb etadi. Bolonya jarayoni bir tomondan yaqinlashuv va muvofiqlashtiruv orqali raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan bo‘lsa, boshqa tomondan Evropa madaniyati va ma’naviyatini asrab qolishga qaratilgan. Bular Bolonya bayonotining asosiy tamoyillarida aks ettirilgan: ishga joylashish imkoniyati bilan grajdanlar mobilligining asosiy yo‘nalishi sifatida oliy ta’lim Evropa zonasini qo‘rish; Evropaning intellektual, madaniy, ijtimoiy va ilmiy va texnikaviy salohiyatini mustahkamlash, Evropa oliy ta’limining dunyodagi obro‘ini oshirish; talabalar, mablag‘, ta’sir borasidagi Evropa oliy o‘quv yurtlarining raqobatbardoshligini ta’minlash; universitetlar Evropa ongining tashuvchilari sifatida qaraladigan Evropa madaniy qadriyatlarini rivojlantirishda universitetlarning markaziy o‘rnini oshirish; oliy ta’limda Evropacha qarashlarga

ko‘maklashish, ta’lim va tadqiqot sohalarida hamkorlikni rag‘batlantirish. Bolonya tamoyillari metodologik ahamiyat kasb etadi: Mamlakatlar orasidagi tavofutlarga qaramay, Evropa tashki dunyo qarshisida yagonalikka intiladi.

Globallashuv, ta’bir joiz bo‘lsa, davr talabi bilan uzluksiz ta’lim, masofadan ta’lim g‘oyalari Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekistonda ham rivojlana boshladi. Davlat tomonidan AKT rivojiga e’tibor berilib huquqiy zamin yaratildi. Boshqa tomondan Evropa Ittifoqi dasturlari asosida Markaziy Osiyoda oliy ta’lim sohasida AKTni qo‘llash ko‘lami oshirib borildi. Bunday rivojlanish natijasida, umuman olganda, O‘zbekiston grajdanlari masofadan ta’lim orqali chet el universitetlarida tahsil olishlari mumkin.

Shu o‘rinda muayyan masalalarni ko‘rib chiqish kerak bo‘lur. Birinchidan, ta’lim tili masalasi. Bolonya jarayonida til masalalari ochiq ko‘rib chiqilmagan. Implitsit ravishda jarayon G‘arbiy Evropaning yirik millatlari tili foydasiga amal qiladi. Markaziy Osiyolik talabalar shunda asosan ingliz tili orqari ta’lim oladilar. Chet el universitetlar ta’lim

mundarijasida Markaziy Osiyo xalqlari qadriyatlari aks ettirilmagan. Ya’ni, milliy qadriyatlarga zarar etadi. Taqiq yo‘li bilan bu imkoniyatni bekor qilib bo‘lmaydi. Ta’lim globallashuvining salbiy oqibatlariga qarish turish uchun Markaziy Osiyo “bolonya” jarayonini yo‘lga qo‘yish lozim, Markaziy Osiyo ongini shakllantirish va rivojlantirish kerak. Universitetlar esa bu jarayonda, Evropada mo‘ljallangandek, markaziy o‘rinda turishi kerak. Ta’lim sifati orqali raqobatbardoshlikni ta’minlash mumkin.

Paradoksdek tuyulsa ham, yuqoridagi maqsadga erishish uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va elektron o‘quv muhitini Markaziy Osiyo miqyosida rivojlantirib, ta’lim tizimlarini yaqinlashtirib borish zarur. Elektron o‘quv muhitini to‘la ko‘lamda rivojlantirish kerak. Ya’ni Internetdan referatlar izlash, elektron shakldagi darsliklardan foydalanish va shu kabilardan to‘la ko‘lamli interaktiv usullar va bilimni tekshishish tizimiga o‘tish lozim.

Globallashuv atamasi o‘tgan asrning 80 yillaridan keng qo‘llanila boshlandi. Ammo, uning salohiyati, mazmuni, oqibatlari to‘g‘risida xilma- xil fikrlar shunchalik ko‘pki, natijada har bir muallif o‘zining mafkuraviy qarashlariga ko‘ra va o‘z fanining predmetidan kelib chiqib, o‘z qarashini, tushunchasini ifoda qiladi. Globallashuv tushunchasiga berilgan ta’riflarni umumlashtirib, muhim xususiyatlarini ajratib ko‘rsatsak uning, qonuniy, obektiv jarayon ekanligi hozirgi davrda sifat jihatidan yangi belgilar kasb etganligi, yangi transport, kommunikatsiya, axborot vositalari va texnologiyalarini qo‘llash natijasida mamlakatlarning u yoki bu faoliyatlarini, ma’lum maqsadlarini amalga oshirish uchun jug‘rofiy makonning minimal darajaga qisqarganligini, ijtimoiy vaqtning kechishini esa benixoyat tezlashganligini qayd qilish

zarur. Globallashuv jarayonining afzalliklari bilan bir qatorda insoniyatga tahdidlari ham mavjudligi umum e’tirof etilgan fikrdir. Bu tahdidlar iqtisodiy va siyosiy munosabatlar sohasida keskin, yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ammo iqtisodiy globallashuvning tahdidlari va uni xal qilish yo‘llari to‘g‘risida o‘zaro tafovutli, hatto qarama-qarshi fikrlar talaygina.

Texnikaviy, texnologik kommunikatsiya axborot va boshqa sohalardagi global jarayonlardan rivojlangan mamlakatlar asosan o‘z iqtisodiy manfaatlari yo‘lida foydalanmoqdalar. Hozirgi davrda jahon miqyosida qaror topgan iqtisodiy tartibot rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi tafovutni, nomutanosiblikni kuchaytirib bormoqda. Shu munosabat bilan istiqbolda jamiyatni, sivilizatsiyalarni nima kutayotganligi xaqida turli farazlar aytilmoqda. Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi, iqtisodiy, texnologik va axborot neokolonealizmi, diniy va etnik konfliktlar xaqidagi taxminlar shular jumlasidandir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki globalizatsiya va global muammolar kabi jarayonlarning echimi butun insoniyatning hamjihatlik bilan faoliyat yuritishiga bog‘liqdir. Zero global muammolarga echim topish har bir davlatning vazifasi bo‘lib, dunyo davlatlarining o‘zaro hamkorlikda ish tutishini taqozo etadi.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MA’NAVIY- AXLOQIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISH PRINSIPLARI

Kuttibekova Guljan Tulepbaevna
A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti
Sultonboeva Yoqutjon Xasanboy qizi
3-kurs talabasi
kuttibekova80@mail. ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarning ma’naviy-axloqi tarbiyasini ota-ona va atrof muhitga munosabatini rivojlantirish haqida bayon qilingan.

Tayanch so‘zlar: ma’naviy-axloqiy, tarbiya, ustoz, xayrixohlik, muhabbat, mehr-oqibat, axloq, meros, kasb.

Аннотация. В данной статье описывается духовно-нравственное воспитание школьников, формирование у них отношения к родителям и окружающему миру.

Ключевые слова: Духовное-нравственность, воспитание, учитель, благожелательность, любовь, доброта, нравственность, наследие, профессия.

Abstract. This article describes the spiritual and moral education of students, the development of their relationship with parents and the environment.

Keywords: Spiritual and moral, upbringing, teacher, benevolence, love, kindness, morality, heritage, job

Boshlang‘ich sinflarda ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlanishda o‘qituvchining ro‘li, unung oldidagi ma’sulyati juda katta hisoblanadi. Talim va tarbiya doimo hamohanglikda bir biri bilan chambarchast bog‘lik holda olib boriladi. Ta’limsiz tarbiyani, tarbiyasiz esa ta’limni tasavvur etib bo‘lmaydi. Manaviyatli-axloqli kelajak qurishimiz uchun bularga juda katta e’tibor berishimiz kerak. [4. 132] Bugungi kunda axloq tushunchasi juda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bilamizki kitoblar dunyo qarashni rivojlantiradi, hayotdagi har bir javhada ustoz sanaladi. Kitob o‘qimagan odam faqat o‘zining hayotida yashaydi, o‘qigan odam esa har bir asar qahramoni bilan yashaydi va minglab hayotlarni ko‘radi. Lekin afsuski hozirgi kunda kitob o‘qib o‘tirgan o‘quvchini uchratish juda qiyin. Bunga asosiy sabab o‘zimiz, ota-onalar, ustozlar va atrof muhit hisoblanadi. Bolani yoshligidanoq telefonga, televizorga o‘zimiz bilmagan holda o‘rgatamiz. Kitob o‘qi deymiz-u o‘zimiz kitobni qo‘lga olmaymiz, bolani shovqin qilmasligi uchun televizor yoki telefon bilan band qilamiz. Ular bu manbadan qanday ma’lumot olmoqda, unga bu ma’lumotlar qanday ta’sir qilmoqda, ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga qay tarizda ta’sir etmoqda. Kelajaklarimiz bo‘lmish farzandlarimizning har bir qilayotgan hatti – xarakatlariga barchamiz birdek javobgar hisoblanamiz. Shu jumladan bo‘shlang‘ich sinf o‘qituvchilari ham o‘quvchining ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ma’sul hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy-axloqiy rivojlanishi va tarbiyalash prinsiplari ta’lim faoliyatining majburiy elementidir. Ma’naviy-axloqiy tarbiya o‘quvchini o‘z-o‘zini tushunishga, rivojlantirishga, oyoqqa turishga yordam beradi. Shunday ekan dars jarayonida o‘qituvchi faqat ta’lim beribgina qolmay ularga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish ham shart. [1. 213bet]

Tabiyani asosan so‘z bilan emas amalda qo‘llab ko‘rsatib ya’ni dars jarayonidan chiqib, tashqi olam bilan hamohanglikda tabiatga, oilaga bo‘lgan axloqiy tarbiyani ekskursiyalar va mehmondorchiliklarga borib rivojlantirish kerak. O‘qish kitobida “Mehmonga borish odobi” mavzusida o‘quvchilar bilan biror oilaga amaliy tarzda uchrashuv o‘tkazish kerak. [3. 213]

Usha jarayonda ustoz o‘zining hatti-xarakati so‘zlashish odobi, yon atrofdagi insonlarga qilayotgan muomalasi bilan o‘quvchilarga o‘rnak bo‘la olish kerak va har aytgan so‘ziga izoh berib o‘tishi shart. Ota-ona bilan o‘tkazilgan suhbat davomida barcha o‘quvchilarning ahilligini, odobli va har javhada intiluvchan ekanlagini ta’kidlab o‘quvchilarga axloqiy -ma’naviy tarbiyani singdirib boriladi.

Axloq – o‘quvchining bir-biriga oilaga atrof-muhitga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan xatti-hatrakatlari, xulq-atvori, odoblari majmuidir. [2. 131] Albatta o‘quvchilardagi axloq oilada rivojlanib keladi. O‘z kasbining yetuk mutaxxassislari uni takomillashtiradi. Har bir bola uchun ta’lim muassasasi moslashish, axloq va ko‘rsatmalarni shakllantirish, dunyo qarashni o‘stirish muhitiga aylanadi. Aynan boshlang‘ich sinflarda bola ijtimoiylashadi, ma’naviy va axloqiy rivojlanadi, muloqot doirasini kengaytiradi, shaxsiy xususiyatlarini namoyon qiladi, uni ichki dunyosini belgilaydi. Bu davrda odatda shaxsiy va ma’naviy fazilatlarni shakllantiradigan vaqt deb nomlanadi. Bunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi har bir o‘quvchining oilaviy sharoiti, psixologik jihati, atrofdagilarga qilayotgan muomalasini baholay olish kerak. Hozirgi kunda ota-onalarda ma’naviy-axloqiy tarbiya haqida tushunchasi kamligi, ilmiy darajasi yetmasligi, farzandi bilan shug‘ullanishga vaqti kamligi, e’tiborsizligi, o‘quvchilarning axloqiy jihatdan passiv ekanligiga olib keladi. Biz avvalo maktablarda ota-onalar yig‘ilishlari, muhokama kechalari, davomida ularga ma’naviy-axloqiy tarbiya bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni asta sekinlik bilan singdirib borishimiz kerak. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ota-onalar bilan birgalikda o‘quvchidagi kamchiliklarni bosqichma-bosqich yo‘qotib borish mumkin. O‘qituvchiga bo‘lgan e’tiqodni o‘quvchida shallantirib uning ijodkorlikka izlanishini oshirishimiz, “Ma’no” va “Maqsad” kategoriyalari orqali belgilangan ma’naviy-axloqiy yuksalish sirlari ochiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini doima erkin fikrlashga va har doim o‘z fikrini aytishga o‘rgatish lozim. O‘quvchilarni axloqiy meyyorlar bilan tanishtirishni avvalo unung ota-onasidan boshlashimiz kerak, chunki bolalar aksariyat vaqtini oilada davrasida o‘tkazishadi.

Xulasa qilib aytganda shaxsning ma’naviy-axloqiy tushunchasi qachon boshlanadi. Bolani oilada ham maktabda ham xayrixohlik va muhabbat, mehr- oqibat va munosabatlarning pokligi muhitini o‘rab olish kerar. Xalqimizda “Bola aziz odobi undan aziz” degan maqol bejizga aytilmagan. Kelajagimiz uchun farzandlarimizning ma’naviy – axlaqiy tarbiyasiga befarq bo‘lmaylik. Ota-ona bilan o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish orqali biz o‘zimizning kelajagimiz bo‘lmish farzandlarimizni har tomonlama mukammal shaxs qilib tarbiyalashimiz mumkin. Buning uchun bolamizdagi bo‘sh vaqtlarni to‘g‘ri taqsimlab berishimiz, uning qiziqishlari bo‘yicha yo‘naltirish, kelajakdagi orzulariga yonma-yon turib yelkadosh bo‘lishimiz, hayotning past – balandliklarini ko‘rsatib borishimiz lozim. Biz har bir jihatdan farzandlarimizga, o‘quvchilarimizga o‘rnak bo‘lishimiz shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh. Mirziyoyev “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘ va kelajagi ham farovon bo‘ladi” 2019-yil Toshkent nashri

2. X. To‘raqulov “Ilmiy tadqiqot asoslari” 2019 yil

3 R. A Movlanava “Umumiy pedagogika” 2018 yil Toshkent nashri
4 J Xasanov, X To‘raqulov “Pedagogika”2011 yil Toshkent nashri

TIBBIY MA’LUMOTLARGA ASOSLANIB NEYRON TARMOQLAR YORDAMIDA KASALLIKNI DIAGNOSTIKA QILISH

Ulug‘bekov Muhammadmirzo Mutalibjon o‘g‘li
Andijon mashinasozlik instituti IB va KT fakulteti
Sun‘iy intellekt yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola tibbiy ma’lumotlarga asoslanib neyron tarmoqlar yordamida kasalliklarni diagnostika qilishning imkoniyatlari va muammolarini tahlil qiladi. Maqolada, neyron tarmoqlarni tibbiyotda qo‘llashning samaradorligi, afzalliklari, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va ehtiyot choralariga alohida e’tibor qaratilgan. Neyron tarmoqlari tibbiy ma’lumotlarni tez va aniq tahlil qilish imkoniyatini yaratib, kasalliklarni aniqlash jarayonini sezilarli darajada takomillashtirishga yordam beradi. Biroq, bunday texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun ma’lumotlarning sifatini yaxshilash, modelni rivojlantirish, klinik tajriba va etika masalalariga e’tibor berish zarur. Shuningdek, maqolada sun’iy intellekt va neyron tarmoqlari yordamida tibbiy diagnostika tizimlarini integratsiya qilish va malakali mutaxassislarni o‘qitish masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqola tibbiyotda sun’iy intellektning kelajakdagi o‘rni va uning imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun bir qator takliflar va tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: neyron tarmoqlar, kasallikni diagnostika qilish, tibbiy ma’lumotlar, sun’iy intellekt, ma’lumotlarni qayta ishlash, ma’lumotlarni tahlil qilish, mashinasozlik o‘rganish texnologiyalari.

So‘nggi yillarda tibbiy texnologiyalar va sun’iy intellektning rivojlanishi kasalliklarni aniqlash va davolash jarayonlarini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Neyron tarmoqlar va boshqa sun’iy intellekt texnologiyalari tibbiy ma’lumotlar bilan ishlashda keng qo‘llanilmoqda. Ular shifokorlarga kasalliklarni tez va aniq tashxislashda yordam beradi, bu esa bemorlarning davolanish samaradorligini oshiradi. Ushbu maqolada tibbiy ma’lumotlarga asoslanib neyron tarmoqlar yordamida kasalliklarni diagnostika qilish jarayoni, texnologiyalar va amaliy qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi.

Tibbiy ma’lumotlar va neyron tarmoqlar: Neyron tarmoqlar - bu sun’iy intellektning bir turi bo‘lib, ular inson miya faoliyatini simulyatsiya qilishga asoslangan. Neyron tarmoqlari katta hajmdagi tibbiy ma’lumotlarni qayta ishlashda samarali hisoblanadi. Masalan, tasvirlar orqali

kasalliklarni aniqlashda konvolyutsion neyron tarmoqlari (CNN) keng qo‘llaniladi. Bu tarmoqlar rasm, rentgen tasvirlari yoki boshqa vizual ma’lumotlarni tahlil qilish uchun ishlatiladi.

Tibbiyotda kasalliklarni aniqlash jarayoni shifokorning bilim va tajribasiga, shuningdek, mavjud tibbiy resurslarga bog‘liq. Biroq, ba’zi hollarda, kadrlar va vaqt yetishmovchiligi sababli diagnostik xatoliklar yuzaga kelishi mumkin. Shifokorlar ko‘pincha bir nechta bemor bilan bir vaqtning o‘zida ishlashga majbur bo‘lganligi sababli, kasalliklarni aniqlashda va davolashda noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishi ehtimoli mavjud. Masalan, murakkab tibbiy holatlarda yoki tashxisni aniqlashda vaqtni tejash kerak bo‘lganda, shifokorlar zarur bo‘lgan barcha tahlil va ma’lumotlarni to‘liq hisobga olishga vaqt ajrata olmaydilar. Bu esa bemorning sog‘lig‘ini yomonlashtirishga olib kelishi mumkin. Neyron tarmoqlari va sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari bu muammoni hal qilishda samarali vositalardan biri sifatida paydo bo‘ldi. Neyron tarmoqlari katta hajmdagi tibbiy ma’lumotlarni tez va aniq qayta ishlash imkonini beradi. Ular rentgen tasvirlarini, kompyuter tomografiyasini, MRT va boshqa diagnostik ma’lumotlarni tahlil qilib, o‘ziga xos xususiyatlarni ajratib, kasalliklarni aniq va samarali aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, neyron tarmoqlari orqali avtomatlashtirilgan diagnostika jarayonlari shifokorlarga tez va to‘g‘ri tashxis qo‘yishda yordam beradi. Bu esa davolashni tezlashtirish, bemorlarni erta davolashni boshlash va xatoliklarni kamaytirishga imkon yaratadi. Neyron tarmoqlarining asosiy afzalligi shundaki, ular shifokorlarning qaror qabul qilish jarayonini optimallashtiradi va ularga to‘g‘ri tavsiyalar beradi. Bu texnologiyalar shifokorlarga o‘z vaqtlarini samarali sarflab, bemorlarga sifatli va tezkor davolash xizmatlarini ko‘rsatishga yordam beradi. Tibbiyotda neyron tarmoqlari va sun’iy intellektning qo‘llanilishi kelajakda diagnostika jarayonlarini yanada rivojlantirish va xatoliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Texnologiyalar (Methods): Kasalliklarni diagnostika qilishda quyidagi texnologiyalar ishlatiladi:

Konvolyutsion neyron tarmoqlari (CNN) - tibbiy tasvirlarni tahlil qilish uchun samarali usul hisoblanadi. Rentgen, tomografiya yoki ultratovush tasvirlaridan olingan ma’lumotlarni tahlil qilishda ishlatiladi.

Recurrent Neural Networks (RNN) - bu tarmoq turi vaqt seriyasidagi ma’lumotlar (masalan, bemorning yurak urish tezligi, qon bosimi va boshqa dinamik ko‘rsatkichlar) bilan ishlashda qo‘llaniladi.

Autoencoderlar - ma’lumotlarni siqib chiqish va keyinchalik qayta tiklashda ishlatiladi, bu usul tibbiy ma’lumotlarning bo‘shliqlarini topishda qo‘llaniladi.

Deep Learning (Chuqur o‘rganish) - bu texnologiya tibbiy tasvirlarni sinfifikatsiya qilishda, jumladan, kasalliklarni aniqlashda keng tarqalgan.

Amaliy qo‘llanilishi: Neyron tarmoqlari tibbiyotda. . .

Kasalliklarni erta aniqlash - o‘pka saratoni, yurak kasalliklari, diabet va boshqa xastaliklarni erta bosqichda aniqlashda neyron tarmoqlari yordamida ishlab chiqilgan tizimlar samarali ishlaydi.

Tibbiy tasvirlarni tahlil qilish - rentgen tasvirlari, MRI va CT skanerlari orqali kasalliklarni aniqlashda neyron tarmoqlari ishlatiladi.

Elektron sog‘liqni saqlash tizimlari - neyron tarmoqlari bemorlarning elektron kartalaridan foydalanib, ularning holatiga qarab tavsiyalar beradi va davolash jarayonini optimallash kabi sohalarda keng qo´llaniladi.

Foyda va natijalar:

Aniqlik va tezlik. Ya´ni neyron tarmoqlari yordamida kasalliklar aniq va tez aniqlanadi, bu esa bemorlar uchun hayotni saqlash imkoniyatlarini oshiradi.

Resurslarni tejash. Sun’iy intellekt tizimlari yordamida shifokorlarning ishini yengillashtirish va tibbiyot sohasidagi resurslardan samarali foydalanish mumkin.

Ishonchlilik. Ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish shifokorlarning xatoliklarini kamaytiradi va tibbiy yordamni yanada sifatli qiladi.

Tibbiy ma’lumotlarga asoslanib neyron tarmoqlar yordamida kasalliklarni diagnostika qilish sog‘liqni saqlash tizimida yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Tibbiy diagnostikada neyron tarmoqlari, kasalliklarni aniqlashda yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu texnologiya, tibbiy ma’lumotlarni tez va aniq tahlil qilishga yordam beradi, shu bilan birga kasalliklarni erta bosqichda aniqlash va davolash samaradorligini oshiradi. Biroq, neyron tarmoqlarining ishlashi ko‘plab omillarga bog‘liq, jumladan, ma’lumotlarning sifatiga, tizimni o‘qitish jarayoniga va uning murakkabligiga. Kelajakda ushbu texnologiyalarni yanada rivojlantirish va tibbiyot tizimida joriy etish uchun ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va tajribalar o‘tkazilishi zarur. Neyron tarmoqlari, sun’iy intellekt va boshqa texnologiyalar orqali kasalliklarni tez va aniq aniqlash mumkin. Bunday texnologiyalar tibbiyotda inqilobiy o‘zgarishlarga olib kelmoqda, shuningdek, bemorlarning hayotini saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydi. Sun´iy intellekt va neyron tarmoqlar bir tomonlama ancha foyda keltirishi mumkin, lekin inson omili degan tushuncha ham mavjud. Ya´ni robotlarda hayajon, qo´rquv, ma´suliyat umumiy qilib aytgancha hissiyot bo´lmaydi. Bu tomonlama ham baribir inson omili tibbiyotda kerak bo´ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Ikromov Khusan Kholmakhamatovich, . (2023). HISTORICAL CONTEXT OF DEVELOPMENT OF INFORMATION SYSTEMS AND DATABASE MANAGEMENT. International Journal of Pedagogics, 3(11), 119–123. https://doi. org/10. 37547/ijp/Volume03Issue11-23

Ikromov, X. TA’LIM JARAYONIDAGI SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN AXBOROTNI QAYTA ISHLASH VOSITALARINING TAHLILI. O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI UMUMIY PEDAGOGIKA KAFEDRASI, 315.

Amisha, M. , et al. (2018). Machine learning in healthcare: A review. „Journal of King Saud University-Computer and Information Sciences“.

https:/sbermed. ai, htpps:/ict-online. ru

IMPORTANCE OF SEARCH ENGINE OPTIMIZATION (SEO) IN WEBSITES

Ostanaqulov Xojiakbar Mansurqul o‘g‘li

Student of the Faculty of Intellectual Management and Computer Systems of the Andijan Machine-Building Institute

Abstract. This article explores the importance of SEO (Search Engine Optimization) for websites, focusing on its core components: On-Page SEO, Off-Page SEO, and Technical SEO. It highlights how effective SEO practices can improve website visibility, drive organic traffic, enhance user experience, and increase conversion rates. Additionally, the article explains how SEO builds brand credibility, offers a competitive edge, and contributes to long-term success. Through practical insights and actionable strategies, the piece emphasizes why SEO is essential for achieving online success.

Keywords: SEO, On-Page SEO, Off-Page SEO, Technical SEO, SEO strategies, Organic traffic, Keyword research, Content optimization.

In today’s digital age, **Search Engine Optimization (SEO)** has become a crucial aspect of online marketing and web development. SEO refers to the process of optimizing a website to improve its ranking on search engines like Google, Bing, and Yahoo. The goal is to make a website more visible to users who are searching for relevant content, products, or services. The importance of SEO cannot be overstated, as search engines are the primary gateway through which users discover online content. When users search for a product or service, they typically click on the first few results displayed. This means that higher-ranking websites receive more traffic, which can lead to more customers, sales, and brand recognition.

Core Components of SEO. SEO isn’t just one thing – it’s a mix of strategies that work together to help your website rank higher on search engines like Google. You can think of SEO as a toolkit with three main parts: **On-Page SEO**, **Off-Page SEO**, and **Technical SEO**. Each one plays a different role in getting your site seen by the right people.

On-Page SEO: This focuses on optimizing the content and structure of the website itself. Key practices include **keyword research** to identify relevant search terms, creating **high-quality content** that addresses users’ needs, and optimizing **meta tags** (titles and descriptions) for better visibility. Effective **internal linking** helps visitors and search engines navigate the site, while improving **user experience (UX)** – like faster loading times and mobile responsiveness – ensures visitors stay longer and engage with the content.

Off-Page SEO: This refers to strategies that take place outside the website to build its reputation and authority. **Backlinks** from reputable websites act as endorsements for your content, signaling to search engines that your site is trustworthy. Additionally, **social media engagement** and collaborations with influencers can drive traffic and increase brand visibility, indirectly boosting search rankings.

Technical SEO: This addresses the behind-the-scenes aspects that affect how search engines crawl and index a site. **Site speed** is crucial for both user experience and SEO, as slow-loading pages lead to high bounce rates. **Mobile optimization** ensures the site is usable on all devices, which is a ranking factor for search engines. **SSL security** (HTTPS) is important for safety, while maintaining a clean and crawlable site through an **XML sitemap** and fixing any **crawl errors** helps search engines better index the website.

How SEO Impacts Website Success: In today’s digital age, having a website is only part of the equation. If people can’t find your site, it’s like having a store in the middle of nowhere – no matter how great your product or content is, it won’t get the attention it deserves. That’s where SEO comes in.

Increased Visibility: When your website is properly optimized for search engines, you’re more likely to show up in search results when people look for topics related to your business or content. This increased visibility means that more people can find your site, leading to more traffic. If you’re on the first page of Google (ideally in one of the top three positions), you’re likely to get a lot more clicks. People rarely go beyond the first page, so appearing there is crucial. The higher you rank, the more likely people are to trust you and visit your site.

Higher Organic Traffic: Organic traffic is the traffic that comes to your site without you having to pay for ads. SEO helps you attract this kind of traffic by ensuring your site ranks well for the right search terms. Unlike paid ads, organic traffic is long-term. Once you establish a solid SEO strategy, you can see steady, ongoing traffic growth without continuously spending money. This kind of traffic is also more valuable. Users who find you through search are actively looking for information or services related to what you offer, which means they’re more likely to convert

– whether that means making a purchase, signing up for your newsletter, or contacting you for more information.

Improved User Experience (UX): A big part of SEO isn’t just about search engines – it’s also about how users interact with your website. SEO helps you make your website easier to navigate, faster to load, and more mobile-friendly. These improvements make it more likely that visitors will stay on your site longer, reducing your bounce rate and encouraging them to engage with your content. A website that provides a great user experience tends to keep people around longer, which is a strong signal to search engines that your content is valuable and relevant.

Better Conversion Rates: SEO helps you attract the right kind of visitors – the ones who are looking for exactly what you offer. When you target the right keywords and create content that answers people’s questions or solves their problems, you’re more likely to turn visitors into customers or leads. For example, a blog post that answers a specific question can lead to visitors signing up for your newsletter or purchasing your product. By providing value, you build trust with your audience, which ultimately leads to higher conversion rates.

Brand Trust and Credibility: Ranking high on search engines isn’t just about visibility; it’s also about building credibility. Users tend to trust sites that rank well in search results. In fact, studies show that people associate high-ranking sites with reliability and authority. When you focus on SEO, you’re not just optimizing for search engines – you’re optimizing for the trust of your audience. And when people trust your website, they’re more likely to return and recommend it to others.

One of the **most significant challenges** in improving SEO is the intense competition for visibility in search engine results. With millions of websites vying for the top spots, standing out becomes increasingly difficult, especially for smaller or newer websites that lack the domain authority and resources of well-established brands. This competitive landscape can overshadow even high-quality content if it doesn’t align perfectly with search engine algorithms or user intent. Additionally, search engines like Google frequently update their algorithms, prioritizing different factors over time, such as mobile-first indexing, page speed, and user experience. These constant changes mean businesses must not only compete with others but also stay informed and adapt their strategies to remain relevant in the ever-evolving SEO landscape.

The **most effective way** to address this challenge is by adopting a focused and adaptive SEO strategy centered on creating unique, high-value content tailored to your specific audience. By identifying the exact needs, questions, and pain points of your target users, you can craft content that establishes your website as an authority within your niche. This content should incorporate long-tail keywords that align with user intent, as these are often less competitive yet highly

effective in driving relevant traffic. In addition to content, investing in technical SEO improvements—such as enhancing site speed, ensuring mobile optimization, and securing your site with SSL—can boost rankings. Building high-quality backlinks from reputable sources further strengthens your website’s credibility. Finally, regularly analyzing competitors, staying updated on algorithm changes, and monitoring SEO performance with tools like Google Analytics ensure your strategy remains dynamic and competitive. By combining these efforts, you can carve out a sustainable path to SEO success, even in a highly competitive environment.

References:

“A complete guide to getting started in SEO”. Copyright 2018 Search Engine Journal. Published by Alpha Brand Media.

"SEO 2023: Learn Search Engine Optimization with Smart Internet Marketing Strategies" Adam Clarke

"The Art of SEO: Mastering Search Engine Optimization" Eric Enge, Stephan Spencer, and Jessie Stricchiola

“Search Engine Optimization” Andreas Veglis, Dimitrios Giomelakis

The Core Aspects of Search

Engine Optimisation Necessary

to Move up the Ranking

The Core Aspects of Search

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA ALOHIDA TA’LIM EHTIYOJLARI BO‘LGAN BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARNI IJTIMOIY, EMOTSIONAL VA AKADEMIK TAYYORLASHNING SAMARALI METODIKASI

Omonova Sevara Nurilla qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti Pedagogika fakulteti Ta’lim- tarbiya nazariyasi va metodikasi yo‘nalishi 1-kurs magistranti

sevaraomonova024@gmail. com

Annotatsiya. Ushbu maqola Inklyuziv ta’lim sharoitida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarning ijtimoiy, emotsional va akademik tayyorlashning samarali metodikasi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, Inklyuziv ta’lim, alohida ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, emotsional, metod, deskiriminatsiya, intinsiv, adaptatsiya.

Bugungi dunyo global o‘zgarishlarga boy bo‘lib inson uning hayoti ijtimoiy mavqei tobora o‘zgarib bormoqda. So‘ngi yillarga kelib ta’lim tizimida o‘qitishning xilma -xil usul hamda shakllari paydo bo‘lib bormoqda. Bu o‘zgarishlar barchamizni habardor bo‘lishni namoyon qilmoqda. Biz yashab turgan jamiyatda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning borligi ular haqida bir muncha bo‘lsa ham o‘ylashimizga ularni jamiyatda munosib kadrlar bo‘lishiga barchamiz mas’ulmiz.

Oxirgi yillarga kelib O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni joriy etish masalasi kundan kunga ustuvor bo‘lib bormoqda. Bu borada ta’lim muassasalarining inklyuziv ta’lim sharaoitiga to‘laqonli mos bo‘lishi pedagog kadrlarning bu boradagi malakalari yetarli darajada bo‘lishligini davrni o‘zi barcha barchamizdan taqozo etmoqda. Ayniqsa boshlang‘ich ta’lim bosqichida inklyuziv ta’lim muassasasiga qabul qilingan imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim olishi o‘z tengdoshlari bilan do‘stona munosabatda bo‘lishi shuningdek turli xil deskriminatsion vaziyatlarga qolmasligi uchun ta’lim muhitini sog‘lom tashkil etishni talab etadi. Bu borada inklyuziv talim maktablarida faoliyat olib borayotgan boshlang‘ich ta’lim pedagoglari quyidagi vazifalarni bajarishlari lozim.

Inklyuziv sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘zaro do‘stona muhitni shakllantirish.

Jismoniy imkoniyati cheklangan va sog‘lom o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik bir – biriga yordam berish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Jismoniy imkoniyati cheklangan o‘quvchilar bilan ta’lim muassasasiga moslashish jarayonlarini tizimli yo‘lga qo‘yish.

Inklyuziv sinflarda ta’lim berayotgan pedagoglar o‘rtasida imkoniyati cheklangan bolalar xususida ma’lumotlarning o‘quv qobiliyatlarini ijtimoiy holatlarini muntazam ravishda nazorat qilib borish.

Inklyuziv ta’lim sharoitidagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy yetuklikka chorlash va ularni ichki qobilyatlarini oshirish.

Inklyuziv ta’limni amalga oshirishda boshlang‘ich ta’lim pedagoglar oldida juda ko‘p vazifalar paydo bo‘ladi. Bu vazifalar inklyuziv ta’lim muassasasiga qabul qilingan boshlang‘ich sinf o‘quvchisini shu ta’lim muassasasiga to‘laligicha adaptatsiya bo‘lishiga va ta’lim faoliyatini davom ettirishiga boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchining o‘rni yuqori o‘rin tutadi bu borada ta’lim olayotgan boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilar o‘rtasida imkoniyati cheklangan bolaning deskriminatsiya xolatiga tushishi boladagi ta’limga bo‘lgan qiziqishlarini xohish istaklarini jamoa bilan yaxshi munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning uchun pedagog o‘zi faoliyat olib borayotgan sinf o‘quvchilari bilan birgalikda turli xil ziddiyatlarni hamda kelishmovchiliklarni pedagogik -psixologik yo‘llar orqali bartaraf etishi zarur.

Ta’lim - o‘quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, kompetentlikni tarkib toptirish, ularning bilish qobilyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayon. [1] Inklyuziv ta’lim - jismoniy-ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan ta’lim oluvchilarning sog‘lom bolalar bilan bir muhit va sharoitda o‘qib o‘rganishi hamda bir xil o‘quv dasturi bo‘yicha ta’lim olishi. Inklyuziv talimning o‘ziga xos ijobiy jihatlarini quyidagi omillarda ko‘ramiz. Birinchidan, nogironligi bo‘lgan bolalarning sog‘lom bolalar bilan bir muhitda ta’lim olishining yaratilganligi, ikkinchidan, ta’lim oluvchilarning o‘zaro bir-biriga yordam berish va bir-birini kamsitmaslik tamoyilining o‘rnatilganligi, uchinchidan, barcha fuqarolarning ta’lim olishga huquqlari kafolatlanganligi, to‘rtinchidan, nogiron bolalarning sog‘lom bolalar bilan uyg‘un ta’limga integratsion bir-biri bilan uzviy aloqadorligi. So‘nggi yillarga kelib, mamlakatimizda ham jismoniy-ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qitishga e’tibor bir muncha bo‘lsa ham o‘zgarib bormoqda. Bu albatta, yaxshi holat. Ayni vaqtda, O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarning deyarli barchasi ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida ta’lim olib kelmoqdalar[2]. Ilk marotaba inklyuziv sinfda qabul qilingan o‘quvchilar bilan doimiy ravishda kuzatuv hamda muntazam ravishda o‘quvchilar bilan suhbat olib borishni intinsiv tashkil etishni taqozo etadi. Inklyuziv sinflarda ta’lim beradigan boshlang‘ich ta’lim pedagoglar jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar bilan bevosita muloqot qilish ularning ota-onasi hamda maktab defektologi yoki psixologi o‘rtasida kommunikativ aloqani o‘rtanitishni doimiy ravishda yo‘lga qo‘yishni talab etadi. Shundagina jismoniy imkoniyati cheklangan bolaning ta’lim muassasasiga erkin ta’lim olishiga o‘z tengdoshlari bilan yaxshi munosabatda bo‘lishiga olib keladi. Inklyuziv ta’lim nogironlarning ijtimoiy tengdoshlari bilan bir qatorda ta’lim olishini ta’minlaydi, (agarda ularning rivojlanishida jiddiy sabablar bo‘lmasa) umumta’lim maktablariga qabul qilishini nazarda tutadi. O‘ta murakkab nuqsonli bolalar ayrim hollarda maxsus maktablar va maxsus reabilitatsiya markazlari yoki umumta’lim maktablar qoshidagi maxsus sinflarda korreksion dasturlar yordamida ta’lim oladilar. Ushbu maktablarda ta’lim ta’minotini albatta bolaning ehtiyojini e’tiborga olgan holda amalga oshirish ko‘zda tutiladi. Umumta’lim maktab jarayonida imkoniyati cheklangan bolaning shaxsiy xususiyatlariga ko‘ra yakka tartibda korreksion metod va moslashtirilgan o‘quv reja, dastur va boshqa omillardan foydalanib, atrofdagi jamoatchilik bilan birgalikda o‘qitishning turli shakllarini tashkil qilish hamda maxsus yordamchi apparatlar (eshitish apparatlari, linza, lupa, nogironlar aravachalari),

[1] B. X. XODJAEV UMUMIY PEDAGOGIKA
Pedagogika ta’lim sohasi bakalavriant ta’lim yo’nalishlari uchun darslik
Toshkent – 2017. 27- bet.

[2] A.Q. Xoliqov. INKLYUZIV TA’LIMNI AMALGA OSHIRISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR TAHLILI. Maktab va hayot ilmiy-metodik jurnal 4-2021.14- bet.

turli xil texnik vositalar va maxsus ko‘rgazmali qurollarni qo‘llash asosida amalga oshirishni nazarda tutadi. [1]

Xulosa qilib aytganimizda har bir ta’lim oluvchining o‘ziga xos ehtiyojlarini ularni qobiliyatlarini to‘g‘ri rivojlantirsak o‘ylaymanki, oldimizda turgan muammolarni yechgan bo‘lamiz. Ayniqsa bu borada alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning sifatli ta’lim olishi ularning jamiyatda o‘z o‘rnining egallashi bizning oldimizda turgan dolzarb masaladan biri desak xato bo‘lmaydi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1: B. X. XODJAEV UMUMIY PEDAGOGIKA
Pedagogika ta’lim sohasi bakalavriant ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik
Toshkent – 2017. 27- bet

2: A. Q. Xoliqov. INKLYUZIV TA’LIMNI AMALGA OSHIRISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR TAHLILI. Maktab va hayot ilmiy-metodik jurnal 4-2021. 14- bet

3:F. U. Qodirova, Sh. Z. Matupayeva, Sh. T. Shermuxamedova, B. Z. Fozilov, B. M. Abdullaev, Z. X. Xusnuddinova. MAXSUS PEDAGOGIKA ASOSLARI O‘QUV QO‘LLANMA . Chirchiq – 2022. 187- bet

INNOVATSION TIZIMLAR ASOSIDA TALABALARDA SPORT VA SALOMATLIK IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISH SHAKLI

Qayumov Shohruh Abdujalol o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti, p. f. f. d. (PhD), doktaranti
Shohruh_Qayumov@mail. ru

Annotatsiya. Butun jahon uzluksiz ta’limi mazmunida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini sport musobaqalariga tayyorlashga oid bilim va tajribalarini jismoniy madaniyat mazmunini ommaviy axborot vositalari orqali boyitib borish, sohaga oid bilimlarni tarkib toptirish mexanizmlarini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarning sport musobaqalarini zamonaviy shakllarda tashkil etish pirovardda axoli o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini yanada yaxshilash, jamiyatda insoniyat ongida sog‘lomoashtirish, ijobiy tushuncha, dunyoqarashni barpo etish bo‘yicha jahon andozalari asosida rivojlantirish shakl, usul va vositalarini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, mazkur pedagogik muammo yechimiga jarayonni zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida tashkil qilish, yoshlarni jismoniy rivojlantirish

[1] F.U.Qodirova, Sh.Z.Matupayeva, Sh.T.Shermuxamedova, B.Z.Fozilov, B.M.Abdullaev, Z.X.Xusnuddinova. MAXSUS PEDAGOGIKA ASOSLARI O’QUV QO’LLANMA .Chirchiq – 2022. 187- bet.

muammolarga oid materiallarni takomillashtirish, ta’lim jarayonida talabalar ning sport musobaqalarini tashkil etishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini rivojlantirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda.

Kalit so‘zlar: sog‘lom turmush tarzi, innovatsiya, talaba, sport, immunitet, rivojlantirish, pedagogika, strategiya, olimpiada, mehnat, tabiat.

Bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri respublikamiz aholisini jismoniy tarbiyaga oid madaniyati va ma’naviyatini rivojlantirish masalasi ekan, insonni yoshlikdan tarbiyalanmasa, kerakli jismoniy tarbiyaga oid bilimlarni o‘z vaqtida egallamasa atrof-muhitga, tabiatga nisbatan befarq bo‘lib shakllanadi. Shuning uchun ham aholini jismoniy tarbiyaga oid bilimlarini rivojlantirishni OTMdanoq amalga oshirish ayni muddaodir.

Jismoniy tarbiyadan davlat ta’lim standartida talabalar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga qo‘yiladigan davlat talablarida shaxsiy gegiena, kun tartibi, ovqatlanish gigienasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Bunda shaxsning jismoniy tayyorgarligi bilan bir qatorda qat’iy gigienik bilimlarni rivojlantirishga ham e’tibor berilgan.

Ammo mazkur fan bo‘yicha davlat ta’lim standartida talabalarning jismoniy tarbiyaga oid bilimlariga doir ko‘rsatmalar, atrof-muhitga munosabati, o‘zining jismoniy ishi vaqtida tabiatga, yon atrofiga keltirishi mumkin bo‘lgan zararlari to‘g‘risida kerakli fikrlar, ko‘rsatmalar berilmagan.

Vaholanki, ekologiyadan davlat ta’lim standartida talabalar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga qo‘yilgan talablarida: tabiatshunoslik, ona tili, o‘qish, mehnat, tasviriy san’at, jismoniy tarbiya yo‘nalishidagi ekologiyaga oid tushunchalarga alohida urg‘u beriladi. Unda atrof-muhitni himoya qilish va inson ekologiyasiga oid bilimlarning egallanishiga katta e’tibor qaratilgan. Bunda shaxsning faqat jismoniy holatidagi mo‘tadillik va barqarorlik emas, balki ekologik ma’naviyati, tabiat, atrof-muhit, boshqa kishilar bilan ahloqiy munosabatlariga ham e’tibor qaratilgan.

Jismoniy tarbiyaga oid bilimlarni jismoniy tarbiyaning turli o‘quv materiallari mazmuniga singdirilishini taqozo qiladigan jismoniy tarbiyadan davlat ta’lim standartida keng mazmunda yoritilishini hisobga olish kerak. Jismoniy tarbiyaga oid bilim sifatini ta’minlashda metodik ishlar ko‘lamini kengaytirish, o‘quv dasturi va darsliklar mazmunini jismoniy tarbiyaga oidga oid ma’lumotlar bilan boyitish, mazkur yo‘nalishda tayyorlangan ilmiy ishlar, o‘qituvchilar uchun metodik ishlanma va tavsiyalarning keng yo‘lga qo‘yilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Talabalarni jismoniy tarbiyaga oid bilimlarini rivojlantirishga doir ilmiy-metodik jurnallar tahlilidan ma’lum bo‘ldiki, olimlar turli yoshdagi talabalarga jismoniy tarbiyaga oid fikr mulohazalar rossiyalik pedagog olim Krutova Vera Yurievnaning “OTMgacha yoshdagi

bolalarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari” deb nomlangan dissertatsiyasida inson salomatligining asosi sifatida irsiy omillar, atrof-muhit sharoitlari, ekologiya, sog‘liqni saqlash tizimi faoliyati, insonning o‘ziga, sog‘lom turmush tarziga bog‘liqligi bilan bir qatorda ta’lim va rivojlanishning birligi hamda ta’lim-tarbiyaning ahamiyati to‘g‘risida yetarlicha fikr mulohazalar yuritgan.

OTMtalabalariga jismoniy tarbiya fanidan ta’lim berish muammolariga chet el olimlari ham o‘z e’tiborlarini qaratishgan.

Talabalarni jismoniy tarbiyaga oid bilimlarini rivojlantirish muammosiga oid manbalar mazmunini o‘rganish va tahlil qilish natijasi shuni ko‘rsatdiki, bu yo‘nalishda bir qator ishlar amalga oshirilgan. Biroq, innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirish **nazariyasi va amaliyotiga oid ishlarni tadqiq qilish e’tibordan chetda qolgan. Shuningdek jismoniy tarbiya darslari va darsdan tashqari sport ishlari, o‘zi va yon atrofdagi kishilarning salomatligini saqlash mas’uliyatini shakllantirish muammosi o‘z yechimini topmagan.**

Oliy o‘quv yurtlarining ta’lim va tarbiya jarayonida mustaqil, tashabbuskor, ijodiy va sog‘lom shaxs sifatlarini shakllantirish muxitini yaratish davlat dasturlarining ustuvor vazifalari qatorida o‘rin olgan.

Xususan dunyoda kechayotgan globallashuv davrining ekologik, iqtisodiy va axborot oqimi ta’sirida o‘zgarayotgan talabaning hayoti o‘zining favqulodda va sinovli vaziyatlari sababli ko‘pincha stress, asabiy taranglik xolatlarini boshdan kechiradi.

Talabalar bilan xayotning dastlabki 25 yilida to‘plangan jismoniy imkoniyatlarning doimiy ravishda saqlanib turilishi kerakligi va bu yoshdagi salomatlik zaxiralarini maqsadli sarflash, jismoniy saloxiyatini yetarlicha yuqori darajada saqlab borish, boshqarish va nazorat qilishga mas’uliyatsiz munosabat asoratlari to‘g‘risida tushuntirish ishlarini olib borish talab etiladi.

O‘rganilgan manbalarga asoslanib aytish joizkim, talabalar organizmida yuz berayotgan turli funksional (adaptiv) buzilishlar, moslashuv mexanizmlarining zuriqish xolatlarini tadqiq etish nafaqat tibbiy-biologik balki, o‘z yechimini kutayotgan pedagogik muammo bulib xisoblanadi va zamonaviy axborot texnologik ta’limni amalda qo‘llashni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori” 2015. 4-b.

O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Ta’lim to‘g‘risida” O‘RQ-637, 2020 yil 23 sentabr.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 fevraldagi 118-son qarori bilan tasdiqlangan “2019-2023 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va

sportni rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi” //lex. uz// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14. 02. 2019 y. , 09/19/118/2612-son;

“O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.

Sh. M. Mirziyoevning oliy majlisga murojaatnomasi. // «Xalq so‘zi» gazetasi. 2020 yil. 25 yanvar, 19(7521)-son.

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019 yil 8 oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son farmoni.

Sh. M. Mirziyoevning “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2019 yil 27 avgustagi PF-5789-soni farmoni.

Sh. A. Qayumov “Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning innovatsion yondashuvi” Monografiya. T. : Ziyo chashmasi. 2023. 109 b.

INNOVATSIYA — BIZ, YOSHLARNI KELAJAKIMIZ

Sattarov Inomjon Odilbay o‘g‘li

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi

inomjonsattarov6@gmail. ru

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda, Bundan bir necha yil oldin “innovatsiya” so‘zi ko‘pchilik uchun notanish tushuncha edi. Xorijdan kirib kelib, qulog‘imizga tez-tez chalina boshlagan bu atamani ahyon-ahyonda qo‘llay boshladik. Ammo ko‘p o‘tmay — Yangi O‘zbekiston islohotlari avvalida rivojlana boshlagan zamonaviy texologiyalar va bilimlar sabab bugun “innovatsiya” til lug‘atimizdagi asosiy so‘zlardan biriga aylandi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston “innovatsiya” ilg‘or g‘oyalar, “nou-xau” va “aqlli”, Yangi fikr, yangi g‘oyaga, “Innovatsiya — bu kelajak degan, Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo‘liga o‘tishimiz bejiz emas.

Abstract. In this article, a few years ago, the word "innovation" was an unfamiliar concept for many. We started to use this term, which came in from abroad and started to ring in our ears often. But soon - due to the modern technologies and knowledge that began to develop at the beginning of the reforms of New Uzbekistan, today "innovation" has become one of the main words in our vocabulary.

Keywords: New Uzbekistan, "innovation", peredovyye idei, "know-how" and "um", Novaya mysl’, novaya ideia, "Innovatsii - eto budushcheye", Innovationnoye razvitiye i tsifrovaya ekonomika. My ne sluchayno perokhidim v ligu.

Аннотация. В этой статье несколько лет назад слово «инновация» было для многих незнакомым понятием. Мы начали использовать этот термин, который пришел из-за границы и стал часто звучать в наших ушах. Но вскоре – благодаря современным технологиям и знаниям, которые начали развиваться в начале реформ Нового Узбекистана, сегодня «инновация» стала одним из главных слов в нашем лексиконе.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, «инновации», передовые идеи, «ноу-хау» и «ум», Новая мысль, новая идея, «Инновации – это будущее», Инновационное развитие и цифровая экономика. Мы не случайно переходим в лигу.

Bundan bir necha yil oldin “innovatsiya” so‘zi ko‘pchilik uchun notanish tushuncha edi. Xorijdan kirib kelib, qulog‘imizga tez-tez chalina boshlagan bu atamani ahyon-ahyonda qo‘llay boshladik. Ammo ko‘p o‘tmay — Yangi O‘zbekiston islohotlari avvalida rivojlana boshlagan zamonaviy texologiyalar va bilimlar sabab bugun “innovatsiya” til lug‘atimizdagi asosiy so‘zlardan biriga aylandi. Hozirgi dunyoda innovatsion taraqqiyot modellarini joriy etish, ilg‘or g‘oyalar, “nou-xau” va “aqlli” texnologiyalarni eksport qilish hisobidan tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan davlatlar soni tobora ortib boryapti. Tan olishimiz kerak, ma’lum muddat mamlakatimizda bu yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlar qoniqarli bo‘lmadi. SHu bois, davlatimiz rahbari o‘z lavozimiga kirishgan dastlabki yillardanoq bu yo‘ldagi dolzarb muammolarni hal etishga qat’iy chog‘landi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Innovatsiya — bu kelajak degani. "Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmini tashkil etadigan yoshlar bilan ishlash masalasi, bundan buyon ham eng asosiy vazifalarimizdan biri bo‘lib qoladi - deydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev[1]. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni aynan innovatsion g‘oyalar asosida boshlashimiz kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo‘liga o‘tishimiz bejiz emas. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”. Bu so‘zlar amalda ham o‘z isbotini topa boshladi. Harakatlar strategiyasida aynan innovatsiyalar masalasiga alohida urg‘u berildi. Xususan, unda ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga Murojaatnomasi Абрамова М.Н. Исследовательская деятельность как технология становления личности обучающихся // Муниципальное образование: инновации и эксперимент. 2011. № 2. С. 23-25.

ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi.

Bugungi kunda g‘oyalar amalga oshadi!

Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan Innovatsion rivojlanish vazirligida

3 yildan ortiq vaqt davomida faoliyat yuritib kelyapman. Bu yerda biz ishni avvalo, innovatsiya o‘zi nima ekanini odamlarga tushuntirish, u bizga qanday imkoniyatlar bera olishidan xabardor qilishdan boshladik. Bugunga kelib, innovatsiya — foydalanish uchun kiritilgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayon, sotuvlarning yangicha uslubi yoki ish amaliyotidagi, ish o‘rinlarini tashkil etishdagi va tashqi aloqalarni o‘rnatishdagi yangi tashkiliy uslub ekanidan ko‘pchilik xabardor. Vazirlikda yoshlarga yaratilgan sharoitlarni ta’kidlash uchun birgina mening talabalik davrimdagi va hozirgi talabalarga berilayotgan imkoniyatlarni taqqoslashning o‘zi kifoya. Innovatsion iqtisodiyot - bu "bilim, yangilik, yangi g‘oyalar, yangi mashinalar, tizimlar va texnologiyalarni xayrixohlik bilan idrok etishga, ularni inson faoliyatining turli sohalarida amaliy tatbiq etishga tayyorligiga asoslangan jamiyat iqtisodiyoti"[1] Men oliy o‘quv yurtida tahsil olgan vaqtlarim grantlarni qo‘lga kiritish juda qiyin edi. Hatto, grantlarning turlari ham kam bo‘lgan. Qizig‘i, grant olish uchun qanday turdagi loyihalarni shakllantirish yoki taqdim etishni bilmasdik. Bu borada bizga yordam beradigan xizmat turlari ham yo‘q edi. Shu bois, grant olishga loyiha topshirish men uchun katta orzudek tuyulardi. Oxirgi 3-4 yil ichida yoshlarimiz uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Bu mubolag‘a emas, aksincha, shu kunlarni orzu qilgan bir yigit tilidan chiqayotgan shukronalik so‘zlari, xolos. Axir, qachon o‘z g‘oyasi, loyihasiga ega yigit-qizlar vazirlik darajasida qo‘llab-quvvatlangan, ular uchun turli tanlovlar tashkil etilgan? Bugun bu ishlar odatiy holga aylandi. Yoshlar “Start up”, “TexnoWays” singari yirik texnologik rivojlanish marafonlarida o‘z iqtidor va imkoniyatlarini namoyon etyapti. Grantlar g‘olibiga aylanib, ishlanmalarini foydali qurilmalarga aylantiryapti. Ana shunday yigit-qizlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida birinchilardan bo‘lib “Yoshlar akademiyasi” tashkil etildi. Akademiyaga o‘z jamoasi, ilmiy ishlanmasi, g‘oya yoki startap loyihalariga ega 40 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlar qabul qilinadi. Yosh ixtirochilar bu yerda “G‘oyalar generatorlari”, “Startaplar”, “Biznes vakillari” hamda “Bo‘lajak akademiklar” kabi 4 ta platformadan birida faoliyat yuritishi mumkin. Ayni paytda Yoshlar akademiyasining 2 mingga yaqin a’zosi bor. Ular geologiya, matematika, fizika, qishloq xo‘jaligi, kimyo sanoati, sog‘liqni saqlash, ta’lim, sun’iy intellekt, robototexnika va mexatronika,

[1] Берестовицкая С.Э., Сизова М.Б., Семенова Т.В., Белова Е.А. Мировоззрение как личностный результат образования: традиции и инновации // Муниципальное образование: инновации и эксперимент. 2013. № 2. С. 3-18.

dasturlash, 3D modellashtirish va boshqa yo‘nalishlarda o‘z loyihalarini amalga oshirib kelmoqda. A’zolar orasida innovatsion va amaliy ishlanmalarini hayotga tatbiq etib, muayyan soha rivojiga hissa qo‘shayotgan faol va tashabbuskor jamoalar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Bugun ular tomonidan ishlab chiqilgan ko‘plab loyihalar hayotimizga keng joriy etilmoqda. Xususan, ayni paytda turli sohalarda foydalanilayotgan, tug‘ma qo‘lsiz va hayoti davomida qo‘li amputatsiyaga uchragan nogironlar uchun bionik protezlar, o‘pkani sun’iy shamollatish apparatlari uchun maxsus oksigenatsiya niqoblari, kiyimlar, bolalar o‘yinchoqlari va boshqa uy-ro‘zg‘or buyumlaridagi bakteriya va hidlarni bartaraf etishga mo‘ljallangan “CleanBox” qurilmasi, avtomobillar xavfsizligini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan “Carwon smart security system” mobil ilovasi, maishiy chiqindilar asosida sun’iy uglerodlashtirilgan material olish qurilmasi, rangli metall buyumlar quyish uchun vakuum asosida ishlaydigan “Humo S1” uskunasi, “Sky project” virtual parashyut simulyatori va boshqa bir qancha ixtirolar o‘zbek yigit-qizlari, xususan, “Yoshlar akademiyasi” a’zolari tomonidan yaratilgani bizni quvontiradi.

Kelajak bunyodkorlari yoshlardir

Bugun respublikamizning har bir viloyatida akademiyaning yetakchisi saylanib, iqtidorli yoshlar jamoalari tomonidan ishlab chiqilgan loyihalar saralab olinyapti. O‘tgan qisqa vaqt ichida ana shunday yigit-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, akademiya a’zolarini rag‘batlantirish, istiqbolli ishlanmalarga ega yoshlarga motivatsiya berish maqsadida bir qator yo‘nalishlarda amaliy, innovatsion va startap loyihalar tanlovlari o‘tkazib kelinyapti. Ayniqsa, Prezidentimizning joriy yil aprel oyidagi qarori bilan tashkil etilgan “Bo‘lajak olim” tanlovi doirasida yoshlarning eng yaxshi innovatsion hamda startap loyihalariga 50 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirilishi yigit-qizlar uchun katta imkoniyat bo‘ldi. “Yoshlar akademiyasi” tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalarning aksariyati hududlarda o‘g‘il-qizlarning intellektual, ilmiy, ijodiy salohiyatini oshirish, ularni jamiyatda olib borilayotgan islohotlarning faol yetakchilariga aylantirishga qaratilgan. Ana shu maqsadda hukumat qarori bilan bugun respublikaning har bir hududida bosqichma-bosqich Yoshlar texnoparklari tashkil etilyati. Chekka hududlarda istiqomat qiladigan yigit-qizlarni mamlakatimiz rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan soha va yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitishga qaratilgan “Texnobus” innovatsion ta’lim avtobusi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shu o‘rinda, Innovatsiyalar Milliy Ofisi faoliyati haqida ham alohida to‘xtalsak. Ma’lumki, innovatsiyalarni yaratgandan ko‘ra, uni joriy etish anchayin qiyin. Biz Innovatsiyalar Milliy ofisida bevosita ana shu jarayon bilan shug‘ullanamiz. Yoshlarga o‘z ishlanmalarini qanday taqdim etishi va qanday qo‘shimchalar kiritib, uni mukammal darajaga olib chiqish bo‘yicha yo‘nalish hamda ko‘rsatmalar berib boramiz. Bu yerda Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan moliyalashtirilgan loyiha egalarining ishlanmalarini takomillashtirishlari uchun bir qancha

laboratoriyalar xizmatlari yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, ilmiy tajribalar olib borayotgan yosh olimlar “Aviatsion va kosmik”, “Uchuvchisiz uchish qurilmasi” (dron), “3D prototiplashtirish”, “Informatsion texnologiyalar”, “Robototexnika”, “5G” o‘quv-tadqiqot laboratoriyalaridan foydalanish imkoniyatiga ega. Joriy yilda “Aviatsion va kosmik” o‘quv-tadqiqot laboratoriyasi mutaxassisi Ziyodulla Butaxonov mavjud eng zamonaviy qurilmalardan foydalanib, yirik loyihani amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldi. Yerni 42 km balandlikdan suratga olishga erishgan yosh olim harakatlari bilan yurtimiz tarixida ilk bor fazoga “aerostart” uchirildi. Bir so‘z bilan O‘zbekiston birinchi marta yaqin kosmos, ya’ni starotasferani zabt etdi, desak ham bo‘ladi. Ushbu ulkan yutuq mamlakatimiz mustaqilligining 30 yilligiga munosib sovg‘a bo‘ldi. Shuningdek, Innovatsiyalar Milliy ofisi tomonidan har mavsumda yurtimizning biror hududida “Texnoways” texnologik rivojlanish marafoni o‘tkazib kelinmoqda. Loyiha doirasida deyarli bir hafta mobaynida yoshlarning texnologik bilimlarini oshirish, ilg‘or texnologiyalar bilan yaqindan tanishtirish bo‘yicha turli xil qiziqarli tadbirlar uyushtiriladi. YOshlarning loyihalarini shakllantirish, to‘g‘ri tahlil qilish, innovatsion ishlanmalarini taqdim etishda to‘g‘ri yo‘nalish va ko‘rsatmalar berish masalasida soha mutaxassislari tomonidan treninglar tashkil etiladi. Marafon yakunida eng yaxshi g‘oyalar g‘oliblariga pul mukofotlari ajratiladi. Joriy yilda ofis tomonidan yana bir yirik loyiha — “Ixtirochi abituriyent” tanlovi e’lon qilindi. U turli xil yangilik yaratishga qiziquvchi abiturient yoshlarga o‘z ishlanmalarini taqdim etish va ular orasidan saralanadigan “original g‘oya” egalari qatorida Turin universitetiga imtiyozli o‘qishga kirish yo‘llanmasini qo‘lga kiritish imkonini beradi. O‘ylaymanki, bu yoshlar uchun juda katta imkoniyat. Axir, talaba bo‘lish va nufuzli oliygohlarda imtiyozli tarzda ta’lim olish har bir yigit-qizning orzularidan biri. Bugun yurtimiz aholisining 60 foizini tashkil etadigan yoshlar orasida iqtidorlilar ko‘p. Ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash zamirida esa mustaqil, o‘z g‘oyalari bilan yurtimiz va jahon maydonida munosib o‘rin egallay oladigan shaxslarni tarbiyalash yotadi. Zero, ana shunday yoshlar Yangi O‘zbekiston kelajagini bunyod etish yo‘lida shahdam qadam tashlashni boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Берестовицкая С. Э. , Сизова М. Б. , Семенова Т. В. , Белова Е. А. Мировоззрение как личностный результат образования: традиции и инновации // Муниципальное образование: инновации и эксперимент. 2013. № 2. С. 3-18.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga Murojaatnomasi Абрамова М. Н. Исследовательская деятельность как технология становления личности обучающихся // Муниципальное образование: инновации и эксперимент. 2011. № 2. С. 23-25.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28. 01. 2022 yildagi PF-60-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26. 03. 2021 yildagi PQ-5040-son

O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 20. 01. 2021 yildagi O‘RQ-668-son

Yaxshilikov J. Ya. Muhammadiyev N. E. Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik. –T. : Cho‘lpon nomidagi nashriyot. 2018-yil. –B. 516-517.

J. ya. yaxshilikov. n. e. nurmuhammedov. texnika va informatsion texnologiyalar falsafasi. Samdu. 2022-yil

CHALLENGES OF LEARNING ENGLISH AS A SECOND LANGUAGE

Yoqubov I. Q

Saparbayeva Shaxlo

department of foreign languages - 2,

university of tashkent for applied sciences

Abstract. to learn a second language, a physical, intellectual and emotional involvement is needed to successfully send and interpret linguistic messages. This study is an analysis of some causes of the problems in learning ESL. The objectives of the study were to find out the leading cause of the problems in learning ESL.

Keywords: second language, experimental, educational, self-esteem, practical.

Learning English as a second language has long been of interest for teachers and educators. Everyone has tried to reduce the obstacles and difficulties in learning English. But unfortunately, few people are able to reduce these problems. Many students and teachers of English Language have always encountered with problems that did not made the full learning of this language. As the facts and evidence show, our students have difficulty in learning English at different levels of education and always complain about its unclearness. Basically the problem occurs when we do not learn the basic principles of something. This issue may happen in everything and when we refer to its origin we see that all the problems can be resolved [1, p. 7]. Nowadays technology, information and knowledge explosion have led to the increase of teaching and learning English as an international language. Teaching and learning English in different countries have been faced with some problems. English has been taught in schools in Uzbekistan since some years ago. The organizing the learning method is to meet a specific educational goal. Programmed teaching, lectures, and practical display are considered as examples of teaching methods. Teaching method is different from the concept of “educational medium” (a means of exposing the students to a data source, such as text books, TV, PC, or the teacher and other students). In fact several different teaching methods may be used in an educational medium (Such as programmed teaching, lectures, and practical display on TV) Or a specific teaching method in several different educational

mediums (such as the use of programmed teaching in text books or TV). Teaching method is a set of procedures and experimental activities performed to achieve a certain goal. The best method is the one which spends the least time and with there sources available, and thus achieves the highest returns. Teaching method is a set of activities that are carried out according to the conditions and possibilities to provide the most favorable area for the effective and desirable teaching. Learning is any constant change in behavior which comes from the experience. It must be considered that teaching does not mean learning and any teaching necessarily lead to learning. The present decade and the past century are different from what is known to the history. Very deep and broad changes which have never been seen in the past have affected all human activities and teaching is no more based on the transfer of constant information to passive students. Minds filled with Inflexible material cannot figure out the present and future complexity and dynamic. Teaching 70 English indifferent countries have faced with many problems Although most teachers and students spent many hours in classrooms to teach and learn the language, they have not had success in this area. There are a wide variety of challenges that face the second language learner, even in the best of learning situations. The most basic of these is first language interference or negative transfer, the psycholinguistic tendency to rely on familiar forms of expression when the intent is to develop a new form, that of the second language. This was defined by Ellis as “the influence that the learner’s L1 (first language) exerts over the acquisition of an L2 (second language)” [2, p. 51]. Since FL learning is the learning of language, skills in the native language provide the foundation for FL learning. Therefore, if a learner experiences relatively high difficulty in learning ESL, this difficulty is likely due to weaknesses in the learner’s native language learning experience. If a learner’s first language learning experience is incomplete, in that, it did not include the development of some or many of the skills necessary for effective language learning, it follows that the learner will have difficulty in learning a second or foreign language since the necessary skills are undeveloped or underdeveloped [3, p. 22]. These types of difficulties can be especially pronounced if the tools necessary for the learning of the second or FL are not necessary

or do not exist in the learning of the first language. Despite a great experience, most teachers still have not really found what is important in language teaching and learning in the classroom they usually ignore the most important element of any training session that includes providing a valuable learning experience which has a significant contribution in the development of second language performance. If language is taken from the human society, human civilization will be destroyed, thus teaching and learning language is apriority in the field of education . Nowadays, with the advancement of science and technology, English is essential as an international language. So in this new millennium, language is the guiding factor for trading,

politics, economy, science and technology.

References:

1. Eaglestone R. (2000). Doing English. Great Britain Rontledge.

2. Chan Alice Y. (2004). Syntactic transfer; Evidence from the inter languageof Hong KongChinese ESL learners. The modern language Journal. 88. 51-74.

3. Jarvis S. (2002). Topic continuity in L2 English article use. Studies insecond language Acquisition. 24

MAKTAB BOSHQARUV ISHLARINI AMALGA OSHIRISHNING PEDAGOGIK TALQINI

Ko‘bayev Akmal Sirliyevich

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi

“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasi dotsenti p. f. f. d (PhD)

Anotatsiya. Ushbu maqolada maktab ichki boshqaruvi tizimini tashkil qilish, boshqariluvchi tizim hamda boshqarish manbalari haqida, mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida keng ko‘lamda ijtimoiy islohotlar, ijtimoiy munosabatlarning demokratik va insonparvarlik g‘oyalariga asoslanishini ta’minlash, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish kabi ezgu maqsadlarni amalga oshirishga yo‘naltirilishi borasidagi fikr mulohazalar ustida to`xtalib o`tilgan.

Аннотация. В данной статье затрагиваются вопросы организации системы школьного внутреннего управления, управляемой системы и источников управления, широкомасштабных социальных реформ в Республике Узбекистан в годы независимости, обеспечения демократических и гуманистических идей общественных отношений, а также ориентации на реализацию благородных целей, таких как достижение социально-экономической стабильности.

Abstract. This article focuses on the organization of the school internal management system, the management system and the sources of management, the provision of large-scale social reforms in the Republic of Uzbekistan during the years of independence, the foundation of democratic and humanitarian ideas of social relations, as well as the orientation towards the implementation of noble goals such as achieving socio-economic stability.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida keng ko‘lamda ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Islohotlar jamiyat hayotini yaxshilash, ijtimoiy munosabatlarning demokratik va insonparvarlik g‘oyalariga asoslanishini ta’minlash, shuningdek,

ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish kabi ezgu maqsadlarni amalga oshirishga yo‘naltirildi. Ijtimoiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasini ta’minlashda rahbarlar va ularning kommunikativ faoliyati alohida o‘rin tutadi. Ta’lim muassasalari subyektlari faoliyatini tashkil etishga oqilona rahbarlik qilish esa islohotlar jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, kutilgan maqsadlarga erishishga imkon beruvchi muhim omil sanaladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi ta’lim-tarbiya muassasasidir. Uning rahbarlari zimmasiga yosh avlodni va tarbiyalash, inson shaxsini davrning goyalari ruhida tarkib toptirish jarayonini boshqarish vazifasi yuklatilgan. Madomiki, shunday ekan, maktab ishini asosda tashkil qilish o‘quv-tarbiya ishlariga rahbarlik va nazoratni boshqarish aqidalari asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatda har bir xojalik tizimi va ishlab chiqarish o‘chog‘i ikki tizimning: boshqariluvchi va boshqaruvchi tizimining birligidir. Masalan, korxona tizimida direktor boshchiligidagi zavod boshqarmasining butun boshqarma apparati boshqarish tizimiga kiradi.

Maktab ichki boshqaruvi tizimini tashkil qilishda ham ana shu qoidalarga asoslaniladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganimizda maktab ichki boshqaruv tizimida ham boshqaruvchi (maktab ma’muriyati, kasaba uyushmasi tashkilotlari) va boshqariluvchi tizimchalar mavjud. Masalan, maktab ichki tizimida direktor boshliq uning o‘quv, tarbiya va xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlari boshqariluvchi tizimchasiga kiradi. Lekin bu tizimcha o‘z faoliyatida maktabdagi tashkilotlarga suyangan holda, ular bilan yaqindan hamkorlikda boshqaruv ishlarini amalga oshiradi.

Boshqariluvchi tizimcha esa o‘z yo‘lida bir qancha boshqarish manbalarga bo‘linadi. Ularga quydagi manbalar kiradi:

Maktabning o‘quv-metodik va texnikaviy bazasiga taluqli ishlar;

Maktabni o‘qituvchi va tarbiyachi hamda texnik xodimlar bilan ta’min etish ularni joy-joyiga to‘g‘ri qo‘yish va ular bilan ishlash;

Maktab jamoasi faoliyatida boshlang‘ich, to‘liqsiz o‘rta va o‘rta umumiy ta’limni amalga oshirish;

Maktab o‘quv-tarbiya (1-11-sinflar) ishlari;

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlari;

Maktabning metodik ishlari;

Sinf rahbarlari;

Maktab o‘quvchilari bilan olib boriladigan ishlar;

Maktab kutubxonasi ishlari;

Ota-onalar qo‘mitasi ishlari;

O‘quvchilarga meditsina xizmatini tashkil qilish bo‘yicha ishlar;

Maktabning moliya-xojalik ishlari;

Maktabning boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikdagi ishlari;

Maktab hujjatlarini yuritish ishlari;

Pedagog xodimlarning malakasini oshirish ishlari;

Maktabning pedagogik tashviqot ishlari va shu kabilar.

Shunday qilib, maktabni boshqarish ishida samarali uslubni hosil qilish muammosi ko‘p kuch-g‘ayrat va bir talay vaqt sarflab hal etiladigan murakkab, ko‘p qirrali muammodir. Bu muammo darsxona yoki qiroatxonadan ko‘ra ko‘proq xizmat va jamoat faoliyati, shu jumladan, muntazam ravishda o‘z bilimini oshirish jarayonida hal etiladi. Bu muammo har bir maktab rahbarining diqqat markazida bo‘lishi lozim.

Maktabni boshqarish ijodiy jarayon bo‘lib, o‘ziga xos bir san’ardir. Bu pedagogik jarayon maktab rahbarining xilma-xil ish usullarida namoyon bo‘ladi. Bu usullar esa har bir rahbarga maktabshunoslikning dolzarb masalalarini nazariy va amaliy jihatdan bilib olish, maktab-maorif sohasida ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish hamda bu sohadagi omilkor kishilarning maktabni boshqarish borasidagi fikr va mulohazalarini o‘rganish hamda mazkur fikr, mulohazalardan maktab ishini boshqarish jarayonida ijodiy foydalanish taqazo qiladi. Bundan esa, o‘z navbatida maktab ishini boshqarishda va rahbarlik uslubini yanada takomillashtirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Har bir maktab rahbari ta’lim-tarbiya ishining u yoki bu masalasi yuzasi yuzasidan qaror qabul qilinganida, uning bajarilishini tashkil qilganida, qo‘l ostidagi (o‘qituvchi, sinf rahbari, tarbiyachi kabilar) xodimlar ishini nazorat qilganida u o‘z vazifalariga muvofiq ish ko‘radi. Lekin har bir rahbar bunda o‘ziga xos ravishda, boshqaruv jarayoni o‘zi uchun xos bo‘lgach, o‘z rahbarlik uslubini belgilaydin turli samarali usullar bilan ish ko‘radi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mutlaqo bir xil ikki kishi bo‘lmaganidek, rahbarlikda ham mutlaqo bir xil uslub yo‘q. Rahbarlik uslubi rahbarlarning o‘z qo‘l ostidagilar bilan bevosita aloqasida, ularning o‘zaro munosabatlarida tarkib topadi. Rahbarlik uslubi uchun demokratizm, jamoachilik, yuksak javobgarlik va siyosiy onglilik, tashabbuskorlik kabi aqidalar xosdir.

Har bir rahbar – tarbiyachidir. U pedagogik jamoani tarbiyalash uchun yuksak javobgarlikni his etish tuyg‘usiga to‘liq ega bo‘lmog‘i lozim. Rahbar qo‘l ostidagilar shaxsiga shu qadar pedagogik madaniyatlilik bilan ta’sir ko‘rsata bilishi kerakki, bu ta’sir natijasida mazkur maktab pedagoglar jamoasining har bir a’zosida onglilik shakillansin, u pedagogik mehnatga nisbatan ijodiy yondashadigan, ijtimoiy hayotga faol qatnashadigan bo‘lsin. Maktab direktorining jamoaga tayanib rahbarlik qilish san’ati, qo‘l ostidagilarning, maktabdagi jamoat tashkilotlari vakillarining

fikirlarini anglab olishi va tezda to‘g‘ri xulosalar chiqarish qobiliyatini boshqaruv ishini to‘g‘ri tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabning ta’lim-tarbiya va xo‘jalik masalalari kengashib muhokama qilinishi lozim, qabul qilingan qarorlarni bajarishda maktab pedagoglar jamoasining har bir a’zosi tashabbus ko‘rsatish zarur.

Rahbarning maktabni boshqarish bo‘yicha mehnatini qaror qabul qilish uchun sarflangan vaqtga qarab emas, balki uning faoliyatidagi pirovard natijani hisobga olish bilan baholash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Sh. M. Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. Toshkent-2018 yil.

2. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston”-NMIU, 2017.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun. 2020 yil.

“Pedagogning maqomi to‘g‘risida”. 2024 yil.

Axlidinov R. Sh. Maktabni boshqarish san’ati. –Toshkent, Fan, 2006. –304 b

ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASHINI TA’MINLASH

Nasiba Bayturaeva

A. Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi P. f. f. doktori

Mardiyeva Muborak Bolqiboy qizi

JDPU Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs magistranti

mardiyevamuborak37@gmail. com

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy hayotda o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish masalasi ko‘rib chiqilgan. Kreativlikning ahamiyati, unga erishish usullari va o‘qituvchilarning roli tahlil qilingan. Ijodiy yondashuvlar, texnologiyalardan foydalanish va innovatsion ta’lim usullari orqali o‘quvchilarning kreativ salohiyatini oshirish yo‘llari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: kreativ fikrlash, o‘quvchilar, ta’lim, innovatsion metodlar, ijodkorlik, texnologiyalar, muammoga yo‘naltirilgan o‘qitish, kreativ muhit, o‘qituvchi roli.

Abstract. This article explores the issue of developing students’ creative thinking in modern life. The importance of creativity, methods for achieving it, and the role of teachers are analyzed.

The paper discusses ways to enhance students’ creative potential through creative approaches, the use of technology, and innovative teaching methods.

Keywords: creative thinking, students, education, innovative methods, creativity, technologies, problem-based teaching, creative environment, teacher’s role.

Аннотация. В статье рассматривается проблема развития креативного мышления учащихся в современной жизни. Анализируется значение креативности, способы её достижения и роль учителей. Обсуждаются пути повышения креативного потенциала учащихся с помощью творческих подходов, использования технологий и инновационных методов обучения**.**

Ключевые слова: креативное мышление, учащиеся, образование, инновационные методы, творчество, технологии, проблемно-ориентированное обучение, креативная среда, роль учителя.

Bugungi kunda jamiyatimizda innovatsiyalar va texnologiyalar keskin rivojlanib borayotgan bir davrda kreativ fikrlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda ham bu borada bir qator ishlar olib borilmoqda, jumladan prezidentimiz “Yangi O‘zbekistonda maktab ta’limini rivojlantish”(2019-yil) qarorida o‘quvchilarning kreativ fiklash qobiliyatiniga rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdi va “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasida ham ta’lim jarayonin raqamlashtirish, o‘quvchilarning innovatsion va kreativ fikrlashini rivojlantrish maqsad qilingan.

O‘quvchilarning kreativ fikrlashi ularning hayotiy muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirish, o‘ziga xos yechimlar topish va har qanday vaziyatda moslashish imkoniyatlarini yaratadi. Bundan tashqari kreativ fikrlash jarayonining katta qismi ko‘rinmaydigan topshiriqlarda o‘quvchilar ijodiy ishlarining kreativligini ta’minlaydi. Kreativ fikrlash nafaqat yangi g‘oyalarni yaratish, balki jamiyatimizda mavjud muammolarga noodatiy yondashish, yangicha yo‘llar orqali o‘ziga xos yechimlarni taklif qilishni ham o‘z ichiga oladi. Bugungi jadal rivojlanayotgan zamonaviy hayotimizda, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar fonida kreativ fikrlashga ega avlodning yetishib chiqishi mamlakatimiz taraqqiyoti uchun, kelgusida turli sohalarda rivojlanishimiz uchun muhim hisoblanadi. Ushbu mahorat o‘quvchilarga: muammolarni yangicha usullar bilan tahlil qilish va mantiqiy xulosa chiqarish, mavjud hayotiy vaziyatlarga va muammolarga turli nuqtai nazardan yondashish hamda o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘qitish jarayonini takomillashtirish imkonini beradi.

O‘quvchilarning kreativ fikrlashini ta’minlash uchun o’quvchilarni qiziqarli, murakkab vazifalar, aniq maqsad va vaqt bilan ta’minlash, o’quvchilarga kreativlik muvozanatsiz hissini yuzaga keltirishni anglatish, bezovtalik va qo’rquv hissidan xalos bo’lishga yordam berish, kreativ

fikrlash ko’nikmalarini boshqa ko’nikmalar bilan rivojlantirishga yordam berish hamda yo’l yo‘riq ko’rsatish, o’quvchilarni suhbat orqali rag‘batlantirish, konstruktiv sharxlar bilan ta’minlash, yangi ko’rsatmalar bilan tanishtirib borish, o’quvchilar o’zlarida kreativlikning boshqa turlarini ham rivojlantira olishlari, guruhlarda ishlay olishlari, hissiy jihatdan ijobiy fikrlarga ega bo’lishlari uchun poydevor bo’ladigan muhitni yaratish jarayonida o’qituvchilar ushbu omillarni bartaraf etishga e’tibor qaratishlari lozim. Qolaversa o‘qituvchidan o‘quvchining kreativligini oshirish maqsadida boshqacha o‘qitish metodlarini qo‘llash ya’ni an’anaviy o‘qitish usullaridan biroz chetga chiqgan holda, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv aloqani kuchaytiruvchi metodlarga o‘tkazish talab etilmoqda. Jumladan, loyihalar asosida ta’lim berish, muammoga yo‘naltirilgan o‘qitish (problem-based learning), munozaralar va rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilarni faollikka jalb qilish lozim. Zamonaviy pedagog o‘quvchilarning yangicha fikrlay olishini oshirishi uchun Ijodiy mashqlar va topshiriqlardan foydalana olishi, har bir fan bo‘yicha ijodiy mashqlarni qo‘llash o‘quvchilarning yangicha yondashuvlariga yo‘l ochadi. Masalan, adabiyot darsida ertak yoki hikoya yozish, matematika darsida muammoli masalalarni yaratish va yechish, tabiiy fanlarda esa tajribalar o‘tkazish o‘quvchilarni yaratish jarayoniga jalb qiladi. Kreativlikni ta’minlashning eng asosiy yo‘llaridan biri kreativ muhit yaratishdir. Bunda o ‘quvchilarning kreativ fikrlashi muhitdan ham ko‘p jihatdan ta’sirlanadi. Yaratilgan qiziqarli va erkin fikr almashish imkonini beruvchi muhit ularni o‘z g‘oyalarini erkin ifoda etishga chorlaydi. O‘qituvchilar o‘quvchilarni yangi yondashuvlar uchun ruhlantirishi va qo‘llab-quvvatlashi lozim va zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish orqali o‘quvchilar uchun yangi bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Virtual laboratoriyalar, o‘yinlar va dasturlar yordamida ularda tajriba va ijodkorlik rivojlanadi.

Kreativlikni rivojlantirishda o‘qituvchining roli juda katta va ahamiyatli hisoblanadi . Negaki o‘qituvchi – bu o‘quvchining hayotdagi yo‘lboshchisi va ilhomlantiruvchisi. O‘qituvchi o‘quvchilarda kreativ fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishda nimalarga e’tibor berish lozim. Kreativ fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishda o’quvchi o’zini erkin seza oladigan o’z fikrlari, g‘oyalari bilan bo’lisha oladigan muhit yaratishi lozim. O’quvchilar ongida yuz berayotgan jarayonning faollashtirish uchun o’rnatilgan qonun qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollarga javob berishda erkin harakat qilishlari kerak. O’qituvchi o’quvchilardagi kreativlikni noodatiy g‘oyalarni o’rtaga tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda rag‘batlantirish orqali qo’llab quvvatlaydi. O’qituvchining o’quvchilar berayotgan kreativ g‘oyalariga nisbatan to’g‘ri munosabati ularning mumkin bo’lgan va mumkin bo’lmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi o’qituvchi o’quvchi munosabatining muhim qismi bo’lib o’quvchilar muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Hamda o‘qituvchi yaratgan metodlari

o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. O‘qituvchilar o‘zlarini doimiy ravishda rivojlantirib, yangi metodikalarni sinab ko‘rishi va yangiliklarga ochiq bo‘lishi muhim. Bu o‘z navbatida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rag‘batlantiradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki zamonaviy hayotda o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish ta’limning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lishi lozim. Kreativlik faqat o‘quvchilar uchun emas, balki butun jamiyat uchun innovatsion rivojlanishga yo‘l ochadi. Yaratish va ijod qilish qobiliyatini rivojlantirish orqali biz yosh avlodni kelajakka tayyorlashimiz mumkin. Shu sababli, ta’lim tizimimizni o‘quvchilarning ijodiy salohiyatlarini yuksaltirishga yo‘naltirish va har bir o‘quvchiga o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta’lim sohasidagi islohotlar to‘g‘risidagi ma’ruzasi (2019).
2. "Yangi O‘zbekistonda maktab ta’limini rivojlantirish" Prezident qarori (2019-yil)
3. Ahmadov, N. (2020). "O‘zbekistonda kreativ ta’limning rivojlanishi: amaliyot va imkoniyatlar. " Ta’lim va rivojlanish jurnali, 18(2), 34-45.
4. Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim sohasida kreativ ta’lim metodikasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va normativ hujjatlar.
5. Abdirimov Inoyatbek Axmedovich. O’quvchilarni kreativ fikrlashga yo’naltirilgan pedagogik jarayonlarni loyihalashning ayrim muammolari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www. oriens. uz.

INKLYUZIV TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

M.Tilakova
Jizzax viloyati Pedagogik Mahorat markazi
Pedagogika-psixologiya ta’lim texnologiyalri
kafedra mudiri p. f. f. d. (PhD)dots.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ro‘y berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlar bolalarning ta’lim va tarbiyasiga bo‘lgan qarashlarning o‘zgarishiga, bu esa mamlakatimiz ta’lim tizimida jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Umumiy va maxsus ta’limning integratsion jarayonlarida tendensiyalar mavjud bo‘lib, buning natijasida nogironligi bo‘lgan bolalarni tarbiyalash muammosi asosiylardan hisoblanadi. Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarga erta tashxis qo‘yish va ularga yordam ko‘rsatish davlat tizimi ilmiy o‘rganish va amaliyotga joriy etish uchun

dolzarb bo‘lib bormoqda. Shunga ko‘ra, turli yosh guruhlari va toifalaridagi bolalarga, ularning yaqin atrofiga, shuningdek, ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilariga psixologik, tibbiy va pedagogik yordam va qo‘llab-quvvatlash zarur. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir” deb belgilab qo‘yilganligi ham ta’lim sohasiga bo‘lgan ulkan e’tibordir. Undan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi qonunga alohida modda kiritilishi va ushbu modda inklyuziv ta’limga bag‘ishlanganligi diqqatga sazovordir.

Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi. (20-modda).

Inklyuziv ta’lim-hamkorlikdagi ta’lim bo‘lib, butun hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va samarali ta’lim sifatida tan olingan. Inklyuziv ta’lim bu shunday ta’limtarbiya jarayoniki, unda jismoniy, ruhiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat’iy nazar barcha bolalar umumiy tarzda, o‘z uyi va hududida, ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan maktablarda, o‘z tengqurlari bilan birga ta’lim olishi demakdir. Inklyuziv ta’limning maqsadi—alohida ehtiyojli bolalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, umumta’lim muassasalarida to‘laqonli ta’lim olishlarini ta’minlash, ta’lim muassasalarida har bir bola uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish.

Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar inklyuziv ta’limini yanada takomillashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish 20-modda. Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi. chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori qabul qilindi. Qarorda inklyuziv ta’limning barcha subyektlari uchun psixologikpedagogik va ijtimoiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish hamda inklyuziv sharoitlarda ta’lim oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish vazifalari yuklatilgan.

2021/2022 o‘quv yilidan respublikamiz miqyosida umumta’lim muassasalarida tajriba sinov tariqasida inklyuziv ta’lim joriy etildi. Bunday birinchi inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflariga o‘quvchilar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlash maqsadida umumta’lim

maktablari uchun belgilangan yosh me’yoridan ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etiladi. Inklyuziv ta’lim subyektlarini psixologikpedagogik qo‘llab-quvvatlash alohida ta’lim ehtiyojli o‘quvchilari kamsitilmasdan sifatli ta’lim olish, rivojlanish buzilishlarini tuzatish va ijtimoiy moslashish, maxsus pedagogik yondashuvlar va usullar asosida erta tuzatish yordami ko‘rsatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish nazarda tutiladi. Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinadigan bolalar:

- eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo‘qotilishi 60 Db gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar);

- ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (ko‘rish qobiliyatining buz

rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o‘zi harakat qila oladigan yoki qo‘shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar tserebral falaji);

- intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar;

- hulq-atvor va ruhiyatning qo‘pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar;

- intellektual rivojlanishi saqlanib qolingan, tutqanoq holatida bo‘lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1-martadan oshmagan paytda).

Ushbu shaxslar uchun eng mos muloqot va ma’lum darajadagi va ma’lum bir yo‘nalishdagi ta’lim olish, shuningdek, ushbu o‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishi, shu jumladan alohida ta’lim ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta’limni tashkil etish orqali eng qulay bo‘lgan sharoitlarni yaratish lozimdir. Shunday qilib, inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish ushbu ta’lim modelida tashkiliy, huquqiy, uslubiy axborot va kadrlar muammolarining paydo bo‘lishiga olib keladi.

- ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (ko‘rish qobiliyatining buzilishi 0, 1 gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar);

- somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);

- nutqida og‘ir nuqsonlar bo‘lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish);

- tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar (bolalar tserebral falaji, skolioz, poliomiyelit, miopatiya, osteomiyelit, amputatsiya, bo‘y o‘sishining yetishmovchiligi — pakanalik);

- aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-xarakat tizimidagi buzilishi bo‘lgan bolalar;

Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadi esa - ta’lim olish uchun teng imkoniyatni ta’minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta’lim

yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat’iy nazar ta’limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardir:

- inklyuziv ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish (maqsadli malaka oshirish kurslari):

- pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim dasturlarini joriy etish, inklyuziv ta’lim metodikasiga oid o‘quv materiallarini takomillashtirish;

- inklyuziv ta’lim berishni zamonaviy nazariyalarini o‘zlashtirish, inklyuziv ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarini tashkil etish hamda ta’lim berishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashga sharoit yaratish (olg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish);

- o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona, jamoat tashkilotlari mutaxassislari, keng jamoatchilik uchun inklyuziv ta’lim bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmualar va ommabop nashrlar yaratish (metodik qo‘llanma va tavsiyalar);

- inklyuziv ta’lim tizimi joriy etilgan umumta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning sifat tarkibini, xususan magistrlik darajasiga ega bo‘lgan pedagoglar sonini bosqichma-bosqich oshirish;

- inklyuziv ta’limni joriy etishda avvalo chekka hududlarda joylashgan, o‘quvchilar soni kam bo‘lgan umumta’lim maktablaridagi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitishga e’tibor qaratish;

- inklyuziv ta’lim sifatini mustaqil baholash tizimini shakllantirish va alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun qo‘shimcha pedagogik ta’lim xizmatlarini yo‘lga qo‘yish;

- xalq ta’limi sohasida rahbar kadrlar tayyorlash bo‘yicha standartlashtirilgan dastur ishlab chiqish, ularga inklyuziv ta’limini amalga oshirish mexanizmlarini ko‘zda tutuvchi o‘quv kurslarini kiritish;

- masofaviy kurslarni yo‘lga qo‘ygan holda, inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan umumta’lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi pedagoglarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi samaradorligini kuchaytirish va qamrovini kengaytirish;

- pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarining “Maxsus pedagogika” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha qabul parametrlarini oshirish;

- inklyuziv ta’lim tizimi joriy etilgan umumta’lim muassasalarida yosh o‘qituvchilarni, ularning xizmat mavqeyi o‘sishini hisobga olgan holda, kasbiy qo‘llab-quvvatlash va hamkorlikda ishlash mexanizmini takomillashtirish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga inklyuziv ta’lim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash yuzasidan pedagog xodimlar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

Inklyuziv ta’limda o‘qitish usullarini takomillashtirish, mazkur jarayonga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olishiga bo‘lgan huquqini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilash va amalga oshirish; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni kamsitish, ularga nisbatan shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalada bo‘lishning oldini olishga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni erta aniqlash va qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;

Inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, bolaning jismonan sog‘lom va baquvvat shakllanishiga erishish:

- inklyuziv ta’lim muassasalarida o‘quvchilar uchun sog‘lom ovqatlanish tamoyillarini ommalashtirish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun sport to‘garaklarini tashkil qilish;

- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan ota-onalar o‘rtasida inklyuziv ta’lim tizimi to‘g‘risida tushuntirish ishlarini olib borish;

- rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rgangan holda inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan ta’lim muassasalarida o‘quvchilar o‘rtasida zo‘ravonlik (bulling) ning oldini olishga qaratilgan dasturlarni joriy etish;

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida:

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim oladigan ta’lim muassasalari binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash zarur; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitishga mo‘ljallangan uskuna va jihozlar bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; Inklyuziv ta’limga jalb qilingan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks choratadbirlarni o‘z ichiga olgan tashabbusni amaliyotga tatbiq etish:

“Barkamol avlod” bolalar maktablari to‘garaklarida inklyuziv ta’lim ishtirokchilarining qamrovini oshirish;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni madaniyat va san’at muassasalariga keng jalb etish;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchi-qizlarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning madaniyat, san’at, sport va boshqa yo‘nalishlarda erishgan yutuqlari to‘g‘risida targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish.



Odamlarning jamiyatda Hamkorlikdagi ish faoliyatlari jarayoni davomida ularda hosil bo‘ladigan tasavvurlar, fikrlar, etiqodlar, g‘oyalar, his tuyg‘ular, kechinmalar, turli xil xulq atvor shakllarini psixologiyaning asosiy soxasi bo‘lgan ijtimoiy psixologiya o‘rganadi va tushintirib beradi. Har bir shaxsning jamiyatda yashashi uning ijtimoiy normalarga rioya kilgan xolda o‘ziga o‘xshash odalar bilan o‘rnatadigan murakkab o‘zaro munosabatlari va ularning tasirida xosil bo‘ladigan xodisalarning tabiatini va qonunyatlarini tushintirib berish – ijtimoiy psixalogiyaning asosiy vazifasidir.

Ijtimoiy trening ana shunday murakkab psixik voqyeliklarni o‘rganuvchi ijtimoiy psixologiyaning Amaliy tadbiqiy sohasi hisoblanadi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son qarori qabul qilindi

Hujjat bilan quyidagilar tasdiqlandi:

• 2020-2025 yillarga xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda – Konsepsiya) va 2020-2021 yillarda uni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”;

• alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’limini 2025 yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari (indikatorlari).

Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshiriladi.

I Bosqich	II Bosqich
Normativ bazani takomillashtirish	Inklyuziv ta`lim tizimini bosqichma bosqich umumiy o`rta ta`lim muassalarida joriy qilish
Malakali pedagog xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish	Alohida ta`lim ehtiyojlari bo`lgan har bir bolaning inklyuziv ta`lim olish huquqini taminlashga qaratilgan chora tadbirlarni amalga oshirish
Moddiy texnik bazasini mustahkamlash va muassasalarni maxsus moslamalar(ko`tarilish qurilmasi, pandus tutqich va boshqalar) zarur adabiyotlar, metodik qo`llanmalar, turli kasblar o`qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta`minlash	O`qitish usullarini takomillashtirish hamda ta`lim jarayoniga induvuduallashtirish tamoyillarini bosqichma bosqich joriy etish
Zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalar va innovatsiyion loyihalarni joriy etish	O`quvchilarni ma`naviy axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog`lom va baquvvat shakllanishiga qaratilgan choralash ko`rish
Aholi o`rtasida ijobiy-ijtimoiy muhitni shakllantirish.	O`quvchilarni jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta`lim muasasalarining gegrafik joylashuvidan kelib chiqib alohida ta`limga ehtiyoji bo`lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muasasalari(Maktab va maktab-internatlar) sonini optimallashtirish
Alohida ta`lim ehtiyojlari bo`lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muaomalada bo`lishning oldini olishga qartilgan chora tadbirlarni amalga oshirish.	
Inklyuziv ta`lim tizimini tajriba sinov tariqasida alohida ta`lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilish	

Inklyuziv ta’lim muhitiga qo‘shilishning dastlabki bosqichida o‘qituvchilar bilan treninglar o‘tkazish kerak, unda barcha ishtirokchilar o‘z qo‘rquvlari, umidlari va noto‘g‘ri tushunchalarini

erkin ifoda etishlari mumkin. Trening davomida o‘qituvchilarga turli xil xususiyatlarga ega bo‘lgan bolalar haqida tushunarli ma’lumotlar, hissiy sohaning tipik xususiyatlari va bunday bolalarning xatti-harakatlari tavsifi haqida tushuntirish. Psixologik nuqtai nazardan, maktab o‘qituvchilari alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan xotirjam va yetarli darajada muloqot qilishga harakat qilishlari, boshqa bolalar oldida ularning xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishga harakat qilishlari juda muhim, bu yetarli darajada sabr-toqat va noziklikni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

V. M. Karimova «Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliy» Toshkent «Universitet» 1999 yil

2. N. P. Anikeyeva «Jamoadagi ruhiy muhit» Toshkent «O‘qituvchi» 1992 yil

3. G. M. Andreyeva «Aktualno‘ye problemo‘ sosialnoy psixologii» M: Iz-vo MGU. 1998 god

4. Z. T. Nishonova «Psixologik xizmat» Toshkent 2006 yil

5. Qodirova, F. , Ibadullayeva, S. N. (2022). Nutq ustida ishlashning tizimli yondashuvlari orqali eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limga tayyorlash. Pedagogik ta’lim innovatsiyon klasteri, 1(1), 350-352.

O‘QUVCHILARDA YUKSAK MA’NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH

Nasiba Bayturaeva

A. Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi P. f. f. doktori

Narqulova Mushtariy Uralbekovna

JDPU Pedagogika yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

m_narkulova@icloud. com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish jarayoni o‘rganiladi. Ma’naviyat va axloqiy tarbiya muammolari zamonaviy ta’lim tizimi, shuningdek, jamiyatda ahloqiy qadriyatlar inqirozi fonida tahlil qilinadi. Milliy va xalqaro tajribalar hamda bugungi siyosiy yangiliklarga asoslangan holda o‘quvchilarni ma’naviy jihatdan rivojlantirish usullari ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar. Ma’naviyat, axloqiy tarbiya, ta’lim tizimi, o‘quvchilar, ijtimoiy qadriyatlar, zamonaviy tahdidlar, siyosiy yangiliklar, islohotlar, zamonaviy muammolar.

Аннотация. В данной статье рассматривается процесс формирования высоких духовно-нравственных качеств у учащихся. Проблемы духовности и нравственного воспитания анализируются в контексте современной системы образования и кризиса

моральных ценностей в обществе. Уделяется внимание национальному и международному опыту, а также методам духовного развития учеников с учетом современных политических событий.

Ключевые слова. Духовность, нравственное воспитание, система образования, ученики, социальные ценности, современные угрозы, политические новости, реформы, современные проблемы.

Abstract. This article examines the process of developing high moral and spiritual qualities in students. Issues of spirituality and ethical upbringing are analyzed against the backdrop of the modern educational system and the moral crisis in society. It highlights methods for fostering students’ spiritual growth, drawing from national and international practices and contemporary political developments.

Keywords. Spirituality, moral education, educational system, students, social values, modern threats, political news, reforms, modern issues.

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi nafaqat davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri, balki jamiyatning har bir a’zosiga daxldor masaladir. Ma’naviyat va axloq — insonni shaxs sifatida shakllantiruvchi asosiy omillardir. O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga bo‘lgan e’tibor va ularning har tomonlama kamol topishini ta’minlashga qaratilgan “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonun, davlat dasturlari, ayniqsa, Prezident farmonlari va qarorlari bu boradagi ishlarni jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy jamiyatda texnologiyalar rivoji bilan ma’naviy va axloqiy qadriyatlarning ayrim ko‘rinishlari inqirozga uchramoqda, bu esa ushbu masalaning dolzarbligini oshiradi.

Maqolaning dolzarbligi: O‘quvchilarda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish bugungi kunda qator sabablarga ko‘ra dolzarbdir:

Zamonaviy tahdidlar: Globallashuv va internet ta’siri natijasida yoshlarning dunyoqarashi tez o‘zgarib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy cheklovlarning yo‘qligi ularga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Milliy va xalqaro miqyosdagi siyosiy yangiliklar: Bugungi dunyoda siyosiy beqarorlik va turli ideologik oqimlar yosh avlodning qarashlariga ta’sir qilmoqda. O‘zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlar yoshlar orasida milliy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan.

Ta’lim tizimidagi islohotlar: So‘nggi yillarda ta’limga kiritilgan yangiliklar, jumladan, dars jarayonlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, yoshlarni ijtimoiy jihatdan faollashtirish va ularda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ushbu mavzuning muhimligini ta’kidlaydi.

1. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati

Ma’naviy tarbiya shaxsning ichki olamini boyituvchi, uni jamiyatning faol a’zosiga aylantiruvchi asosiy omillardan biridir. Axloq esa shaxsning kundalik hayotdagi qarorlari va xatti-harakatlarini belgilab beradi. Bu ikki unsur birlashganda, o‘quvchining shaxsiy va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishiga zamin yaratadi.

2. Zamonaviy muammolar va yechimlar Bugungi kunda ko‘plab yoshlar uchun ma’naviy qadriyatlar va axloqiy me’yorlar chetga surilib, zamonaviy tendensiyalarga moslashish maqsadida e’tibordan chetda qolmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun:

*Ta’lim jarayoniga milliy qadriyatlar asosidagi maxsus kurslarni kiritish;

*Oilaviy tarbiyani kuchaytirish;

*Ommaviy axborot vositalari orqali ma’naviy mavzularni targ‘ib qilish zarur.

3. Milliy va xalqaro tajribalar

Milliy tajribaga ko‘ra, o‘zbek adabiyoti va madaniyatida Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlar tomonidan ilgari surilgan ma’naviyat va axloqiy tarbiya masalalari yoshlar tarbiyasining asosi bo‘lib kelgan. Xalqaro tajribada esa Yaponiya va Skandinaviya mamlakatlari ta’lim tizimida axloqiy ta’lim alohida fan sifatida o‘qitiladi, bu esa ularning jamiyatdagi ahloqiy barqarorlikka erishishiga yordam bermoqda.

O‘quvchilarda yuksak ma’naviy va axloqiy fazilatlarni rivojlantirish bugungi ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ma’naviyat insonning ichki dunyosini, uning estetik va axloqiy qadriyatlarini shakllantiradi. Axloq esa bu qadriyatlarni amaliy hayotga tatbiq etish jarayonidir. Zamonaviy sharoitda ushbu jihatlar birgalikda rivojlanishi lozim.

O‘quvchilarni ma’naviy tarbiyalashning asosiy nazariy yondashuvlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim: Har bir o‘quvchining qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini inobatga olish orqali shaxsiy ma’naviy fazilatlarni rivojlantirish.

2. Jamoaviy hamkorlik tamoyili: Jamoa bilan ishlash jarayonida ijtimoiy muloqot va mas’uliyatni shakllantirish.

3. Tarixiy va madaniy asoslar: Milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish.

Ma’naviy-axloqiy Tarbiya muammolari va dolzarbligi

Bugungi kunda globallashuv, texnologik rivojlanish va internetning keng ommalashuvi ma’naviy tarbiya sohasiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Globallashuv jarayonida dunyoning turli burchaklarida tarqalgan axloqiy qadriyatlar bir-biriga ta’sir o‘tkazadiZamonaviy axloqiy muammolar yoshlar o‘rtasida individualizm, iste’molchilik va ijtimoiy mas’uliyatsizlik kabi muammolar kuzatilmoqda. Ushbu muammolarni hal qilishda maktab va oila tarbiyasi muhim rol

o‘ynaydi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonini ta’minlash uchun : darslarda axloqiy mavzularni o‘rganish, adabiyot, tarix va madaniyat fanlari orqali axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qilish, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy va boshqa mutafakkirlarning ijodiga e’tibor qaratish, jamoaviy loyihalar va tadbirlar va axloqiy mavzularga bag‘ishlangan teatr tomoshalari va mushoiralar tashkil etish kabi usullardan foydalanishimiz samarali hisoblanadi. Bundan tashqari zamonaviy hayotimizda turli yangi usullar ishlab chiqilmoqda va o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy fazilatlari rivojlantirilmoqda. Masalan o‘quvchilarni ijtimoiy loyihalarda ishtirok ettirishi, texnologiyalardan foydalanishi, axloqiy tarbiya uchun mos bo‘lgan onlayn kurslar va mobil ilovalarni ishlab chiqilishi, o‘quvchilarni ijtimoiy tarmoqlarda faqat ijobiy maqsadlarda foydalanishi kabi zamonaviy usullar hisoblanadi.

Oilaning Ma’naviy Tarbiyadagi O‘rni

Oila axloqiy tarbiyaning birlamchi instituti hisoblanadi. Bolalar o‘z xulq-atvorini ko‘pincha ota-onalardan o‘rganadi. Shu sababli ota-onalar farzandlari bilan doimiy muloqotda bo‘lishlari, axloqiy me’yorlarni shaxsiy hayotlarida namoyon qilishlari kerak Oilaviy qadriyatlar orqali o‘quvchilarda quyidagi fazilatlar shakllantiriladi,

* Hurmat: Katta yoshdagilarga hurmat ko‘rsatish.

* Mas’uliyat: Oilaviy majburiyatlarni bajarish.

*Samimiylik: O‘zaro halollik va ochiqlikni rivojlantirish.

Xulosa qilib shuni aytadigan bo‘lsak o‘quvchilada yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish ta’lim tizimi va jamiyatning muhim vazifalaridan biridir. Bu nafaqat yoshlarning shaxsiy hayotiga, balki ularning kelajakdagi professional faoliyatiga ham ta’sir qiladi. Shu boisdan, milliy va xalqaro tajribalarni uyg‘unlashtirib, o‘quvchilarning ma’naviy rivojlanishiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari.
2. Alisher Navoiy. "Mahbub ul-Qulub".
3. Abdulla Avloniy. "Turkiston bolalarining tarbiyasi".
4. UNESCO: Education for Sustainable Development Report.
5. "O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi".
6. Internet saytlari: www. google. com
www. library. com
www. ziyonet. com

UMUMIY O‘RTA TA’LIM O‘QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPOTENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

Abdug‘aniyeva Shaxzoda Shuxrat qizi
A. Qodiriy nomidagi JDPU 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola umumiy o‘rta ta’lim o‘qituvchilarida kasbiy kompotentlikni rivojlantirish haqida yoritilgan

Kalit so‘zlar: umumiy o‘rta ta’lim, o‘qituvchi, kasbiy kompotentlik, innovatsion metodlar, mentorlik.

2023-yil 31-martdagi PQ-116-sonli qarorda umumiy o‘rta ta’limda sifatni oshirish, pedagoglarni tayyorlash va ular uchun malaka oshirishning yangi shakllarini joriy etishga qaratilgan. Shu bilan birga, O‘zbekistonda o‘qituvchilar uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” haqida qaror 2024-yil 21-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-231-sonli qarori bilan qabul qilingan. Bu qaror “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish” bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni ko‘zda tutadi. Qarorga muvofiq Har haftada “Kasbiy rivojlanish kuni” deb ataluvchi maxsus metodik mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Fan yo‘nalishlariga qarab kunlar taqsimlanadi, masalan, dushanba — aniq fanlar, seshanba — filologiya fanlari, payshanba — ijtimoiy fanlar kabidir.

Bugungi globallashuv va innovatsiyalar davrida umumiy o‘rta ta’lim o‘qituvchilaridan nafaqat puxta bilim va malaka, balki kasbiy kompetentlik ham talab qilinadi. O‘qituvchi nafaqat o‘z fanini chuqur bilishi, balki uni talabalarga samarali yetkazib bera olish, ularda qiziqish uyg‘otish va ta’lim jarayonida zamonaviy metodikalarni qo‘llay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Kasbiy kompetentlik – bu o‘qituvchining o‘z kasbi doirasida zarur bo‘lgan nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, shaxsiy sifatlar va tajribalarni uzluksiz takomillashtirish jarayoni. Kasbiy kompetentlik quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

1. Pedagogik bilim va ko‘nikmalar: darsni to‘g‘ri rejalashtirish, innovatsion metodlardan foydalanish.

2. Axborot texnologiyalaridan foydalanish: onlayn platformalar va raqamli resurslardan foydalangan holda ta’limni sifatli tashkil etish.

3. Ijtimoiy-kommunikativ qobiliyatlar: o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish.

4. Shaxsiy o‘sish va liderlik: o‘zini doimiy rivojlantirish va boshqalarga o‘rnak bo‘lish.

O‘qituvchilar kompetentligini rivojlantirish yo‘llari

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Malaka oshirish kurslari: o‘qituvchilarni yangi bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlash uchun uzluksiz malaka oshirish tizimini takomillashtirish.

2. Innovatsion metodlarni joriy etish: o‘qituvchilarni interaktiv usullar, masofaviy ta’lim va STEAM yondashuvlariga o‘rgatish.

3. Amaliy tajriba almashinuvi: ilg‘or tajribaga ega o‘qituvchilar bilan muloqot qilish va bilim almashish uchun seminar va treninglar tashkil etish.

4. Ilmiy izlanishlar: o‘qituvchilarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish orqali ularning kasbiy o‘sishiga ko‘maklashish.

5. Mentorlik dasturlari: yosh o‘qituvchilar uchun tajribali pedagoglar bilan birga ishlash imkoniyatlarini yaratish.

Kasbiy kompetent o‘qituvchi quyidagi jihatlarga ega bo‘lishi kerak:

1. Professional bilim va ko‘nikmalar: O‘z fanining nazariy va amaliy asoslarini chuqur bilishi. Pedagogik metodlarni qo‘llashda innovatsion va ijodkorlikka intilishi. O‘quv jarayonini rejalashtirish va samarali boshqarish.

2. Pedagogik mahorat Talabalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish. Ta’limni qiziqarli va interfaol usullarda tashkil etish. O‘quvchilarning qiziqishlarini rag‘batlantirish va ularni o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirish.

3. Shaxsiy fazilatlar. Ochiqlik, sabr-toqat va muloqotga layoqatlilik. O‘z-o‘zini doimiy ravishda rivojlantirishga intilish. O‘quvchilar uchun o‘rnak bo‘la olish *Kompetent o‘qituvchining jamiyatdagi roli*

Kasbiy kompetent o‘qituvchi – bu nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarning dunyoqarashi, maqsadi va ijtimoiy faoliyatini shakllantiruvchi shaxsdir. Uning mehnati natijasida yosh avlod zamonaviy hayotga tayyor, milliy va global qadriyatlarni anglagan holda ulg‘ayadi.

Umumiy o‘rta ta’limda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Bu jarayon o‘qituvchilardan uzluksiz o‘zgarish va yangilanishga tayyor bo‘lishni talab etadi. Shu boisdan, davlat va jamiyat birgalikda o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-231-sonli qarori (2024-yil, 21-iyun).

2. Xoshimov S. , Asqarova M. "Pedagogik kompetentlik asoslari". Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2022.

3. Lex. uz – O‘zbekiston qonunchiligi milliy bazasi.

4. Edu. uz – O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi rasmiy sayti.

5. Uza. uz – Milliy axborot agentligi sayti.

ZAMONAVIY O‘QITUVCHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Darmanova Gulnoza Turg‘unjon qizi

A. Qodiriy nomidagi JDPU 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolamda barcha o‘qituvchi kasbidagi shaxs qanday psixologik xususiyatlarga ega bo‘lishi, jamiyatdagi o‘rni, bilim darajasi, o‘quvchilarni oldida o‘zini qanday tutishi va umumam olganda zamonaviy mutaxasis qanday ekanligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy o‘qituvchi, kasbga xos xislatlar, mutaxasis malaka, pedagogik qobiliyatlar

Dolzarbligi: Bizga ma’lumki, 30-oktabt kuni ta’lim – tqarbiya tizimini takomillashtirish to‘g‘risida 2020 -yili preazidentimiz vidioselektor yig‘ilishini o‘tkazgan edilar. Bu soha bo‘yicha alohida farmon va qarorlar ham qabul qiligan edi. Bu borada o‘qituvchining o‘rni beqiyos ekanligi tushuntirilgan edi. Shundan kelib chiqqan holatda zamonaviy o‘qituvchi qanday xislatlarga ega bo‘lishi to‘g‘risa ma’lumotlarni ushbu maqolamda bayon qilishga harakat qildim.

O‘qituvchilik kasbi masuliyatli kasblardan biri hisoblanadi. Bizda o‘qituvchilar juda ko‘p, ammo ular orasida hamma talablarga mos va yaxsgi xislatlarga egalarini toppish biroz mushkulroq. Zamonaviy o‘qituvchi qiyofasidagi shaxs pedagogic-psixologik jihatdan yuksak tayyorgarlikka ega bo‘lishi uchun unda quyidagi fazilatlar shakllangan bo‘lishi kerak.

O‘qituvchi jamiyat va siyosiy hayotida ro‘y barayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatrini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri asosli ma’lumotlarni bera olishi lozim.

O‘z mutahasisligi bo‘yicha chuqur va puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz izlanishi kerak.

Pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi kerak.

Metodlardan unumli foydalana olishi kerak

Ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

O‘zbek adabiy til qonuniyatlarini va normalarini mukammal bilishi;

O‘z-o‘zini va nutqiy faoliyatini muntazam nazorat qilishi;

Hozirgi kun o‘qituvchisi neng avvalo, faol, mehnatkash, fidoiy, talabchan, izlanuvchan, davr talabi bilan hamnafas hamda ijodkor bo‘lishi kerak. Hamda ularda quyidagi xislatlar bo‘lishi kerak.

1)umumiy xislatlar

bolalarni yaxshi ko‘rish, ularni sevish;

amaliy-psixologik aql-farosatlik;

mehnatsevarlik;

jamoat ishlarida faollik;

mehribonlik;

kamtarlik;

odamiylik, dilkashlik;

uddaburonlik, mustahkam xarakterga ega bo‘lish;

o‘z bilimini oshirishga intilish.

2) kasbiga xos bilimi:

ta’lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi;

psixologiya asoslari, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi;

etnopsixologik bilimlarni egallash;

hozirgi zamon pedagogikasi asoslarini bilishi;

hozirgi zamon pedagogikasining metodologik asoslarini egallanganligi;

maktab yoshida bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishi;

o‘z fanini O‘qitish metodikasini bilishi;

O‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir etishning samaradorligini bilishi;

ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilishi.

3) o‘z kasbiga xos xislatlari:

milliy qayta qurish mafkurasi bilan mustaqil davlat mafkurasini tushunishi;

zamonaviy maktabda olib boriladigan O‘quv-tarbiya jarayonida umuminsoniy boyliklar, milliy an’analar va urf-odatlarning ahamiyatini tushunishi;

O‘qituvchining kuzatuvchanligi;

o‘z diqqat-e’tiborini taqsimlay olishi;

pedagogik fantaziya (xayol)ning rivojlanishi;

o‘ziga tanqidiy munosabatda bo‘lishi;

o‘zini qo‘lga ola bilishi, o‘zini tuta olishi;

pedagogik takt;

nutqning emotsional ifodalanishi.

4) shaxsiy – pedagogik uddaburonligi:

dars mashg‘ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi;

O‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olishi;

ta’lim va tarbiya jarayonida O‘quvchilar ongining taraqqiy etib borishini istiqbolli ravishda rejalashtira olishi;

pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni bilishi;

bolalar jamoasiga rahbarlik qilishda o‘z faoliyatini rejalashtirishni bilishi;

O‘quv maqsadlarini rejalashtira olishi;

o‘zining ta’lim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi.

5) tashkilotchilik malakalari:

bolalar jamoasini uyushtira bilishi;

turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olishi;

bolalarni biror narsaga qiziqtirib, ularni faollashtira olishi;

amaliy masalalarni hal etishda o‘zining bilim va tajribalarini ustalik bilan tez qo‘llay olishi.

6) kommunikativ malakalari:

bolalarni o‘ziga jalb etishni bilishi;

bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilishi;

bolalarning jamoalararo va jamoa ichida o‘zaro munosabatlarni tartibga solishni bilishi;

bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog‘lashni bilishi.

7) ijodiy xislatlari:

pedagogik mahoratini takomillashtirishga intilishi;

O‘quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati;

o‘zini O‘quvchi o‘rniga qo‘yib, bo‘lib o‘an hodisalarga uning nazari bilan qaray olishi;

avallgi voqealar, hodisalar va tarbiyalanuvchi shaxsiga yangicha qaray olish qobiliyati;

o‘zining O‘quvchiga pedagogik ta’sir natijalarini oldindan ko‘ra bilishga intilishi.

Shunday qilib, ko‘rsatib o‘tilgan modelning asosiy tuzilishi tariqasida quyidagilar keltiriladi;

shaxsning jamoatchilik va kasbiy yo‘nalishi;

pedagogik mahorat va qobiliyati;

xarakterining psixologik xususiyatlari;

bilish faoliyati;

Nutq qobiliyati – kishining o‘z tuyg‘u-hislarini nutq yordamida, shu bilan birga mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish qobiliyatidir.

Shu bilan birga O‘qituvchi shuni ham hisobga olishi kerakki, O‘qituvchining lo‘nda-lo‘nda bo‘lib chiqqan qisqa nutqi ko‘p hollarda O‘quvchilarga tushunarsiz bo‘lib qolar ekan. O‘qituvchining o‘z o‘rnida ishlatiladigan hazil aralash va xayrixohlik bildiruvchi arzimagan kinoyali nutqi O‘quvchilarni juda jonlantirib, O‘quvchilar tomonidan o‘ta yaxshi qabul qilinar ekan.

Qobiliyatli O‘qituvchining nutqi jonli, obrazli, aniq-ravshan intonatsiyali va ifodali, emotsiyaga boy, dona-dona bo‘lib, bunda stilistik va grammatik xatolar mutlaqo bo‘masligi lozim. Bir xil ohangdagi ezma nutq O‘quvchilarni juda tez toliqtirib, ularni zeriktiradi va behafsala qilib qo‘yadi. Bu bilan birga bunday nutq I. P. Pavlovning fiziologik ta’limotiga ko‘ra, doimiy ta’sir etuvchan qo‘zg‘ovchiga aylanib, bosh miya katta yarim sharlari po‘stida tormozlanish jarayonini yuzaga keltirib, O‘quvchini ezma va uyquchan qilib qo‘yadi. Nutq tezligi ko‘p jihatdan O‘qituvchining individual psixologik xususiyatiga bog‘liq. Ayrim O‘qituvchilar tez gapirsalar, boshqalari sekin gapiradilar. Ammo O‘qituvchi O‘quvchilarning bilimlarini egallab olishlari uchun eng qulay tezlikdagi nutq – o‘rtacha jonli nutq ekanligini esdan chiqarmasligi lozim.

Zamonaviy talablarga javob beradigan, yaxshi xislatlarni o‘zida mujassam etgan o‘qituvchilarni hozirgi kunda toppish qiyin. Biz o‘qituvchilar shunday hislatlarga ega bo‘lishligimiz uchun kasbga oid bilimlarimiz mustahkamlab, o‘z ustimizda tinmay ishlashimiz kerak. Zamon o‘zgarmoqda biz ham zamonga qarab yaxshi tomonga qarab o‘zgarishimiz va bir joyda qotib qolmasligimiz uchun zarur bilimlar olishdan hech qachon to‘htamasligim kerak.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yhati:

M. Davletshin. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. 2003-yil, Toshkent

I. Karimov. Yuksakma’naviyat – yengilmas kuch . Toshkent . 2008-yil

Edu . uz-O‘zbekiston Respublikasi ta’lim vazirligi rasmiy sayti

Web. jurnal sayti

BO’LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O’QITUVCHILARI TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATINI BELGILOVCHI OMILLAR

Ergasheva Matluba Burxonovna

JDPU p. f. f. d (PhD).

Anotatsiya. O’yinga qo’shilish qobiliyati inson yoshi bilan bog‘liq emas, biroq har bir yoshda o’yin o’ziga xoslik kasb etadi. Shu boisdan, Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari maktabgacha davr uchun, kichik maktab yoshidagi o’quvchilar uchun, o’rta va katta maktab yoshidagilar uchun va kattalar uchun deya bir-biridan farqlanadi. Umumiy o’rta ta’lim maktabi o’qituvchisining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayoni birmuncha murakkab faoliyat turi bo’lib, bunda fan o’qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish muayyan texnologiyani, qulay pedagogik shart-sharoitlarni va shakl-vositalarni taqozo etadi. Yuqorida qayd etilgan vositalar yordamida rivojlantiruvchi ta’lim bosqichlari amalga oshirilsa samarali kechadi va pedagoglarning kasbiy yetukligi ta’minlanadi.

Kalit so‘zlar: rekonstruksiv funksiya, to’ldiruvchi funksiya, innovatsion funksiya, prognostik fynksiya, rivojlantiruvchi funksiya, didaktik o’yin.

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik kompetentligini shakllantirish, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni mustaqil o‘quv faoliyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, malaka oshirish tizimida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning rivojlantiruvchi mehnat ta’limiga tayyorlash, pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalarini rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish malakasini oshirish, rivojlantiruvchi ta’limning didaktik tamoyillarini aniqlashtirish bo‘yicha ham ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etishning meyoriy asoslari yaratilmoqda. “Moddiy va ma’naviy hayotni uyg‘un rivojlantirishimiz kerak. Maktab bu borada asosiy bo‘g‘in bo‘lishi lozim. Maktab ta’limini rivojlantirish biz uchun buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur”ligi ustuvor etib belgilangan. Bu esa, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirishga tayyorlashning didaktik asoslarini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ye. A. Levanova, S. M. Fayrushina va bir qator tadqiqotchilar tomonidan pedagogning o’zaro munosabatga amaliy tayyorgarligini shakllantirish texnologiyasining ahamiyatli tavsiflari ajratilgan: aniq va diagnostik belgilangan maqsadning, to’g‘ri o’lchangan faoliyat natijasining mavjudligi; faoliyat mazmunini bilishga oid amaliy vazifalar tizimi, yo’naltiruvchi tizim va ularni yechish usullari ko’rinishida ifodalash; faoliyatning yetarlicha qat’iy izchilligi, mantiqi va bosqichlarining mavjudligi; talabalarning o’quv-kasbiy faoliyatini individual guruhli tabaqalashtirish, har bir bosqichda ishtirokchilarning o’zaro aloqalari usullarini ko’rsatish; talabalar va o’qituvchilarning shaxsiy vazifalarini amalga oshirishga asoslangan ularning faoliyatini motivatsion ta’minlash (erkin tanlov, kreativlik, raqobatbardoshlik, hayotiy va kasbiy ma’no); talabalarning algoritmik va ijodiy faoliyatlari chegaralarini, xilma-xil qoidalardan mumkin bo’lgan cheklanishlarni ko’rsatish.

V. A. Slasteninning fikricha, tayyorgarlikni takomillashtirish jarayonining qadriyatli va xulqiy komponentlarini hisobga olish zarurati fanga oid bilimlarni o’zlashtirish muvaffaqiyatini

yuqori darajada baholovchi va anglovchi o’qitish sub’ekti bu sohada katta tashabbus namoyon qilishi mumkinligini; guruhda o’zini o’rab turganlar tomonidan teskari aloqani qabul qilishni; natijalarni yaxshilash uchun boshqalarning yordamini qabul qilishi; o’zining muloqot uslubini nazorat qilishi va yaxshilashi; fanni o’zlashtirishni yangi usul va vositalarini izlashi; atrofdagilarning xayrixoxligini yoki xayrixox emasligini sezishi; yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarga qaramasdan bilimlarni o’zlashtirishda iroda va qat’iylikni namoyon qilishi; ularni o’qitishning natijasi va muvaffaqiyati bog‘liq bo’lgan narsalarga ishontira olishni namoyon qilishi mumkinligini ta’kidlaydi.

J. Tolipova pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining dolzarb muammolaridan biri, uzluksiz ta’lim tizimida pedagogik faoliyat ko’rsatayotgan, ko’p yillik ish tajribasiga ega bo’lgan o’qituvchilarning kasbiy bilimlarini kengaytirish, yangilash va boyitish, ijodiy va ijtimoiy faolligini rivojlantirish, raqobatbardoshligini orttirish ekanligini ta’kidlaydi.

Muallif yuqori malakali raqobatbardosh pedagog-kadrlar tayyorlash uchun umumiy o’rta ta’lim, o’rta maxsus kasb-hunar ta’limi, oliy pedagogik ta’lim, pedagog-kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi o’rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta’minlashga e’tibor qaratish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

A. X. Aminov bu borada o’qituvchilarning pedagogik faoliyatni tiklash, to’ldirish, yangilash va bashorat qilish kabi vazifalari xususida to’xtalib o’tilgan. Muallifning nuqtai nazariga ko’ra mazkur vazifalarning mohiyati quyidagilardan iborat:

1. Rekonstruksiv funksiya – o’qituvchining muvaffaqiyatli faoliyat ko’rsatishi uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo’lgan zarur axborotlarni saralashni taqozo etadi. Ular o’z vaqtida oliy ta’lim muassasalarida o’zlashtirgan, biroq keyinchalik qisman unutilgan yoki faoliyat davomida foydalanilmay kelinadi.

2. To’ldiruvchi funksiya – o’qituvchi faoliyatida asqotadigan, biroq oBuektiv va sub’ektiv sabablarga ko’ra oliy ta’lim muassasalarida o’rganilmay qolgan axborotlarni tizimlashtirishni ko’zda tutadi.

3. Innovatsion funksiya – xususiy metodika, ilg‘or tajriba yutuqlari asosida vujudga kelgan tamoman yangi axborotlarni o’rganishni va umumlashtirishni talab etadi.

4. Prognostik fynksiya – fanga tegishli bo’lgan ma’lum hodisalarni ularning asosiy jarayonlarini modellashtirishda, qonun va xususiyatlarni tahliliy tasavvurlashda, hodisalarning kechish myddati va sonini oldindan aytib berish imkoniyatlari mavjud bo’lgan axbopotlarni to’plashga imkon beradi, rivojlangan, zamonaviylashgan fan tilida mashg‘ylotlar olib borishni ta’minlaydi.

5. Rivojlantiruvchi funksiya – o’quv jarayoni o’quvchilarning ichki imkoniyatlari va ularni ro’yobga chiqarishga yo’naltiriladi. Mohiyatiga ko’ra treninglarni samarali tashkil qilish o’quvchilarning ko’nikma va malakalarini shakllantirish bilan birga ular imkoniyatlarining to’la namoyon etilishiga yordam beradi.

Xitoylik olim Lyu Syao Min o’zining «Maktab psixologik xizmati va o’quvchilarni psixik jihatdan sog‘lomlashtirish muammolari (Xitoy Xalq Respublikasi materiallari asosida» mavzusidagi tadqiqotida o’quvchilarni nafaqat bilim olishga yo’naltirish, balki ularning psixofiziologik xususiyatlarini shakllantirib borish darsda psixologik yondashuvni to’g‘ri tashkil etish, o’quvchilarning ruhiy jihatdan rivojlanishlaridagi muammolarni muvaffaqiyatli hal etishda muhim ahamiyatga ega ekanligini aniqlagan.

Bo’lajak o’qituvchining kasbiy rivojlanishida quyidagi tamoyillar asosiy o’rinni egallaydi:

- pedagog faoliyatida dastlab fikrlash layoqati, so’ngra eslash qobiliyatini rivojlantirish;
- ta’lim jarayonining oddiydan murakkabga, umumiylikdan xususiylikka tomon borishi;
- shaxsiy tajribani tahlil qilish va uning asosida o’rtaga tashlangan muammoni hal etish maqsadida real dalillarni keltirish;
- shaxsning ustuvor xususiyatlaridan boshqalarni kamsitish uchun emas, balki jarayon mazmunini boyitishda foydalanish;
- jamoa bilan ishlashda «Men» konsepsiyasidan qochish va undan namuna, etalon, sifat ko’rsatkichi sifatida foydalanishni boshqalardan talab qilmaslik.

Mazkur tamoyillar negizida rivojlantirish texnologiyasida o’quvchida quyidagi axloqiy talablarga rioya qilish taqozo etiladi:

- fikr tug‘ilganda ruxsat so’rab (qo’l ko’tarish orqali) so’zlash;
- intizomga qat’iy rioya qilish (mashg‘ulotlarga kech qolmaslik, jamoada o’zini tutish meyorlariga amal qilish; o’zgalarni tinglay olish);
- muammo doirasidagina so’zlash (fikrning aniqligiga ahamiyat berish);
- mashg‘ulotlarda faol ishtirok etish hamda o’zgalarga yordam berish; ta’limga nisbatan ijodiy yondashish.

Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasining konseptual asoslari o’yin faoliyatining psixologik mexanizmlari bilan bog‘liq, shaxsning o’z-o’zini namoyish qilish, o’z-o’zini bilishi, o’z ustida ishlashi, o’z-o’zini himoya qilishi, kabi fundamental talablarga tayanadi.

●O’yin-psixogen xulq shakli, ya’ni shaxs tabiatidan kelib chiqadigan ichki mavjud bo’lgan fe’l-atvor ko’rinishidir (P. I. Ridkasistiy).

●O’yin-bolaning «ichki ijtimoiylashuvi» fazosi, ijtimoiy ustanovkalarni egallash vositasi (L. G. Vigotskiy).

●O’yin-tasavvurlashda shaxs erkinligi, «amalga oshmaydigan qiziqishlarni xayoliy joriy etish» (A. N. Leontev).

●O’yinda faqat o’z xususiy va ichki mazmuni bo’yicha indvid uchun ahamiyatli maqsad kasb etgan harakat amalga oshadi. O’yin faoliyatining asosiy o’ziga xosligi ham, uning asosiy jozibadorligi ham ana shunda (S. L. Rubinshteyn).

● Didaktik o’yin – bu mohiyatan o’zida muayyan motivatsiyani, o’quvchilarning biluv faoliyati tuzilmasini va o’zlashtirishning boshqarish tizimini egallagan yaxlit didaktik jarayondir (V. P. Bespalko).

O’yinga qo’shilish qobiliyati inson yoshi bilan bog‘liq emas, biroq har bir yoshda o’yin o’ziga xoslik kasb etadi. Shu boisdan, Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari maktabgacha davr uchun, kichik maktab yoshidagi o’quvchilar uchun, o’rta va katta maktab yoshidagilar uchun va kattalar uchun deya bir-biridan farqlanadi. Umumiy o’rta ta’lim maktabi o’qituvchisining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayoni birmuncha murakkab faoliyat turi bo’lib, bunda fan o’qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish muayyan texnologiyani, qulay pedagogik shart-sharoitlarni va shakl-vositalarni taqozo etadi. Yuqorida qayd etilgan vositalar yordamida rivojlantiruvchi ta’lim bosqichlari amalga oshirilsa samarali kechadi va pedagoglarning kasbiy yetukligi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O’zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi O’RQ-637-sonli “Ta’lim to’g‘risidagi” Qonuni. https://lex. uz/docs/5013007

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g‘risida” 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni.

3. Леванова Е. . А. , Табакина Л. В. Эмоциональное образование как основа профилактики саморазрушающего поведения // Образование личности. – 2013. – № 1. – С. 18–24.

4. Файрушина С. М. Научно-методическая исследовательская деятельность студентов педагогических вузов при изучении естественнонаучных дисциплин. Вестник ТГПУ. 2010. Выпуск 12 (102). УДК 378. 14:55. 41-45-бет.

5. Сластенин В. А. Профессионализм педагога: акмеологический контекст // Московский пед. гос. ун-т. Научные труды Московского педагогического государственного университета. Серия: Психолого-педагогические науки. - М. : Прометей, 2005. - с. 92 - 101.

6. Сластенин В. А. , Каширин В. П. Психология и педагогика. - М. , 2001. -480 с.

7. Tolipova J. Biologiya o’qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligi darajasini orttirish nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – T. , 2006. –45-b

8. Aminov A. X. Umumiy o’rta ta’lim pedagog xodimlarini malakasini oshirish tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. – T. , 2004. –156-b

9. Мин, Лю Сяо. Школьная психологическая служба и проблемы психического здоровья учащихся (на материале Китайской Народной Республики). Диссертация на соискание учёной степени доктора психологических наук. – Т. , 2002. –С. 147.

10. Пидкасистый П. И. Самостоятельная этическая деятельность обучающихся в обучении. – М. : «Педагогика»1999

11. Выготский Л. С. Педагогическая психология. – М. : «Педагогика», 1999. –С. 321.

12. Беспалько В. П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М. : ИРПО, 1996.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING MATN USTIDA ISHLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Jo‘raboyeva Madina Sharof qizi

Jizzax davlati pedagogika universeteti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 810-22-guruh talabasi

Annotasiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning matn ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan usullar va tavsiyalar bayon etiladi. Matnni tahlil qilish, qayta hikoya qilish va ijodiy topshiriqlarni bajarish orqali o‘quvchilarning tafakkuri, so‘z boyligi va nutq madaniyati rivojlantirilishi ta’kidlanadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni dars jarayonida qo‘llashning samaradorligi ham ko‘rsatib o‘tiladi. Ushbu maqola boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari uchun amaliy qo‘llanma sifatida xizmat qiladi va dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, matn ustida ishlash, ifodali o‘qish, qayta hikoya qilish, ijodiy topshiriqlar, zamonaviy texnologiyalar, nutq madaniyati, mantiqiy fikrlash, o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ta’lim sifati.

Boshlang‘ich ta’lim ona tili darslari o‘quvchilarning nutq madaniyati, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu darslar nafaqat til qoidalarini

o‘rgatish, balki o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, mustaqil tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy fikr yuritishga o‘rgatish uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, matn ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish boshlang‘ich ta’limda muhim o‘rin tutadi. Shavkat Mirziyoyevning “Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi, ” degan so‘zlari bu masalaning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ta’lim jarayonini zamonaviy va samarali usullar bilan tashkil qilish, ayniqsa matn ustida ishlashda ilg‘or metodlarni qo‘llash boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligi kengayadi, tafakkuri chuqurlashadi va voqealar mohiyatini anglashga bo‘lgan qobiliyati rivojlanadi. Ushbu ko‘nikmalar faqat ona tili darslari uchun emas, balki boshqa fanlarni ham muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga yordam beradi. Shuning uchun boshlang‘ich sinfda matn bilan ishlashga alohida e’tibor qaratish zarur. Ushbu maqolada matn ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha samarali usullar va amaliy tavsiyalar ko‘rib chiqiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matn ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish ularning nutq madaniyati va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda quyidagi metodlar va yondashuvlar samarali natija beradi:

1. Matn mazmunini tushunish va tahlil qilish

O‘quvchilarni matnning asosiy mazmunini anglashga o‘rgatish boshlang‘ich bosqichdagi eng muhim vazifalardan biridir. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi usullarni qo‘llash tavsiya etiladi:

Ifodali o‘qish: O‘qituvchi matnni ifodali o‘qib, o‘quvchilar e’tiborini asosiy voqealarga qaratadi. Keyin matn bo‘yicha “Matnda kimlar ishtirok etdi?”, “Ular nima qildi?”, “Matnning asosiy g‘oyasi nima?” kabi savollar bilan matnni tahlil qilishga yo‘naltiriladi.

Qismlarga bo‘lib o‘qish: Uzun matnlarni qismlarga ajratib, har bir qismni alohida o‘qish va muhokama qilish orqali o‘quvchilarning e’tiborini yaxlit holda matnni tushunishga qaratish mumkin.

Savol-javob usuli: Matnni o‘qigandan so‘ng beriladigan savollar o‘quvchilarning matnni anglash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

2. Matnni qayta hikoya qilish ko‘nikmasini shakllantirish

Matnni qayta hikoya qilish o‘quvchilarni izchil va mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi. Ushbu ko‘nikmani rivojlantirish uchun quyidagi usullar qo‘llaniladi:

Asosiy voqealarni ajratish: O‘quvchilar matn mazmunidan asosiy voqealarni ajratib, ularni ketma-ketlikda hikoya qilib berishga undaladi.

Rasm asosida hikoya qilish: Matnga mos rasmlardan foydalanib, o‘quvchilardan rasmlarga asoslangan holda matn mazmunini qayta hikoya qilishni so‘rash ularning tasavvurini kengaytiradi.

Jamoaviy hikoya tuzish: Sinfda o‘quvchilar birgalikda matn mazmuni asosida yangi hikoya yaratishlari mumkin. Bu nafaqat ijodkorlikni, balki jamoaviy ishlash ko‘nikmasini ham rivojlantiradi.

3. Ijodiy topshiriqlar orqali matn bilan ishlash

Ijodiy yondashuvlar o‘quvchilarni matn bilan ishlashga yanada qiziqtiradi va ularning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi:

Matnning davomini yozish: O‘quvchilardan matnning davomini tasavvur qilib yozishlarini so‘rash ijodkorlikni rag‘batlantiradi.

O‘zgacha yakun yaratish: O‘quvchilarga “Agar voqealar boshqacha rivojlansa, qanday yakun bo‘lardi?” kabi topshiriqlar berish ular mantiqiy tafakkurini shakllantiradi.

Dramatizatsiya: Matn asosida kichik sahna ko‘rinishlari tashkil qilish o‘quvchilarning matnni anglash ko‘nikmasini mustahkamlaydi.

4. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish

Zamonaviy texnologiyalar matn ustida ishlashni yanada samarali va qiziqarli qilishga imkon beradi:

Interaktiv dasturlar va platformalar: Matn bo‘yicha testlar, viktorinalar va o‘yin shaklidagi topshiriqlar orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish mumkin.

Audiokitoblar: Matnlarni audiokitob shaklida tinglash o‘quvchilarning tinglab tushunish qobiliyatini rivojlantiradi.

Yuqorida keltirilgan metod va tavsiyalar matn ustida ishlash ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ularning har biri o‘z o‘rnida o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Endi esa matn bilan ishlashning ijodiy usullaridan biri – matnning davomini yozish bo‘yicha misolni ko‘rib chiqamiz.

Matn: Qahramonning tanlovi

Bir zamonlar, qadimiy bir shahar yaqinidagi keng o‘rmonda, bir yigit yashagan ekan. Uning ismi Jalol edi. Jalol oddiy oila farzandi bo‘lib, u har doim mehribon va mardligi bilan el orasida hurmat qozongan. Ammo uning hayoti hech qachon oddiy kechmagan. Bir kuni shahar aholisi o‘rmonda dahshatli bir maxluq paydo bo‘lganini, uning har tun odamlarning chorvalarini olib ketayotganini aytib shikoyat qila boshladilar. Bu xabar Jalolning ham qulog‘iga yetib bordi. Yigit shahar oqsoqoli huzuriga borib, maxluqni to‘xtatishga yordam berishini so‘radi. Oqsoqol unga qarab shunday dedi:

– Bu yo‘lda bir emas, bir nechta qiyinchilikka duch kelasan, o‘g‘lim. Lekin agar bu ishni uddalay olsang, nafaqat o‘zingni, balki butun shaharni qutqarasan.

Jalol cho‘ntak chirog‘ini va qilichini olib yo‘lga chiqdi. Kechga yaqin o‘rmonga yetib bordi. Yo‘lda unga bir ayol duch keldi. Ayol unga shunday dedi:

– Agar maxluqni o‘ldirishni istasang, men senga yordam bera olaman. Ammo buning uchun hayotingning eng muhim narsasidan voz kechishga tayyor bo‘lishing kerak. Bu so‘zlar Jalolni bir zum o‘ylantirib qo‘ydi. Ayolning gaplaridan shubhalandi, lekin maxluqni to‘xtatish vazifasi muhim edi. Jalol yordamni qabul qilib, ayolning aytgan yo‘liga yurdi. Uzoq vaqt davomida o‘rmonda har xil to‘siqlardan o‘tib, maxluq yashayotgan qorong‘u g‘orga yetib bordi. Maxluqning ko‘zlari qizil edi, shovqin bilan nafas olib turar, lekin u Jalolga darhol hujum qilmadi. Balki so‘zladi:

– Bu yerga kelgan hamma mendan nafratlanadi, ammo ular mening mavjudligim sababini hech qachon o‘ylab ko‘rmagan. Agar meni o‘ldirishni istasang, avval bir savolga javob ber: “Hayotingda nima muhimroq: haqiqatmi yoki xalqni himoya qilishmi?”

Maxluq Jaloldan javob kutardi, lekin uning ovozi birdaniga o‘zgarib, butun o‘rmonni larzaga keltirdi. Jalol qaysi javobni tanlashi kerakligini bilmasdi. . .

Matn shu joyigacha o‘qib beriladi va davom ettirish o‘quvchilarga topshiriq sifatida beriladi.

Savol: Jalol qanday javob beradi va bu uning taqdirini qanday o‘zgartiradi?

O‘quvchilar Jalolning maxluqqa beradigan javobi va bu javobning uning taqdiriga ta’sirini o‘z tasavvurlariga asoslanib yozib berishlari kerak bo‘ladi.

Ushbu matnni o‘quvchilar Jalolning maxluqqa javobini qisqa va aniq ifodalashi, hikoyani mantiqiy va qiziqarli tarzda davom ettirishga harakat qilishi, hikoya oxirida Jalolning tanlovi bilan shahar aholisiga va o‘ziga qanday ta’sir qilishini yoritishi kerak bo‘ladi

Quyida Jalolning javoblari va bu javoblar asosida hikoyaning rivoji berilgan:

1. Javob: *Haqiqat muhimroq*

Jalol maxluqqa shunday dedi:

– Men uchun haqiqat muhimroq. Agar haqiqatni bilmasdan xalqni himoya qilishga urinadigan bo‘lsam, bu faqat vaqtinchalik g‘alaba bo‘ladi. Haqiqatni bilmasdan muammo ildizini yo‘qotib bo‘lmaydi.

Maxluq bir zum jim bo‘ldi va birdan o‘z shaklini o‘zgartirdi. U yoshi ulug‘ bir donishmandga aylandi. Donishmand Jalolga qarab dedi:

– Sen to‘g‘ri tanlov qilding. Haqiqatni bilishga intilganing sababli, men asl shaklimni ko‘rsatdim. Bu o‘rmonni dahshatga solayotgan asl sababni tushunishing kerak edi. Aslida, bu maxluq men emas, balki insonlarning o‘z manfaati uchun tabiatga zarar yetkazishidir. Bu haqiqatni

shaharga yetkaz va ularni ogohlantir. Shunday qilib, Jalol shaharga qaytib, odamlarga tabiatga hurmat bilan qarash kerakligini tushuntirdi. Bu uning shahar aholisining dunyoqarashini butkul o‘zgartirdi.

2. Javob: *Xalqni himoya qilish muhimroq.*

Jalol maxluqqa qat’iy qarab shunday dedi:

– Xalqni himoya qilish men uchun birinchi o‘rinda turadi. Chunki ularning tinchligi va xavfsizligi mening asosiy vazifamdir.

Bu gaplarni eshitgan maxluq qattiq kulib yubordi:

– Xalqni himoya qilishni tanlading, lekin bilib qo‘y, ular seni unutadi. Men esa yana qaytib kelaman!

Jalol qilichini olib, maxluq bilan jang boshladi. Bir necha soatlik qiyinchilikdan so‘ng maxluqni yengdi. Lekin uning so‘zlari Jalolni qiynashda davom etdi. Jalol shaharni qutqarishga muvaffaq bo‘lsa-da, odamlarning tabiat va bu maxluq haqida bilmaganlari sababli yangi muammolar paydo bo‘ldi.

3. Javob: *Har ikkisi muhim*

Jalol biroz o‘yladi va shunday dedi:

– Men uchun haqiqat ham, xalqni himoya qilish ham birdek muhim. Chunki biri boshqasiz to‘liq bo‘lolmaydi.

Maxluq jilmayib, Jalolga qaradi:

– Juda kam odam bunday qaror qabul qila oladi. Haqiqatni tan olgan holda xalqni himoya qilish yo‘lini top. Men seni sinash uchun keldim.

Bu gaplardan so‘ng maxluq yo‘qoldi. Jalol esa shaharga qaytib, odamlarni birlashtirib, o‘rmondagi muammolarga birgalikda yechim topishga undadi. Shu tariqa, shahar ahlining tinchligi ta’minlandi va ular tabiat bilan uyg‘unlikda yashashni o‘rgandilar.

O‘quvchilarning ijodiga ko‘ra, bu hikoyalarni davom ettirish mumkin. Har bir variantda Jalolning tanlovi va uning oqibatlarini tushunishga e’tibor qaratiladi.

O‘quvchilar matnlarning davom ettirgan qismi 4ta yo‘nalish bo‘yicha baholanadi.

1. Ijodiy yondashuv (5 ball)
2. Hikoyaning mantiqiy davomiyligi (5 ball)
3. To‘g‘ri va ravon yozilganligi (5 ball)
4. Berilgan topshiriq mazmuniga mosligi (5 ball)

Umumiy ball: 20 ball

Quyida keltirilgan matn xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturlaridan biri – PIRLS namunalariga o‘xshash bo‘lib, u o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning matn ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish nafaqat ularning o‘qish va yozish mahoratini oshirish, balki mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish uchun ham muhimdir. Ushbu maqolada keltirilgan usullar va yondashuvlar matnni anglash, tahlil qilish, qayta hikoya qilish va ijodiy topshiriqlar orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini boyitishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim jarayonida ifodali o‘qish, savol-javob, ijodiy topshiriqlar va texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning matn bilan ishlashdagi qiziqishini oshirish bilan birga ularning nutq madaniyati va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Ushbu yondashuvlar nafaqat ona tili darslarida, balki boshqa fanlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishda ham asosiy poydevor hisoblanadi.

Matn bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuv ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilib, o‘quvchilarni kelgusi ta’lim bosqichlariga muvaffaqiyatli tayyorlashda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov A. "Pedagogik texnologiyalar va ta’lim sifati". Toshkent, 2020, 34-bet.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 30-oktabrdagi Ta’lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi mavzusidagi videoselektor nutqidan.

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARDA INGLIZ TILINI O‘RGATISHNING IJTIMOIY-MADANIY ASOSLARI

Shoxida Axmedova Muxtarovna
JDPU o‘qituvchisi
Ismatova Rayxona Begmatovna
JDPU Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Hozirgi kunda ingliz tili jahon tili bo‘lib bormoqda va shu bois uni maktabgacha yoshdan o‘rganish muhimdir. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ingliz tilini o‘rgatishning ijtimoiy-madaniy asoslari haqida fikr yuritilgan.

Katil so‘zlar: Sog‘lomlashtirish, reabilitatsiya, integratsiya, muloqot, frontal, assimlatsiya, ko‘rgazmali, kognitiv, dinamik, ritmik, organic, psixolingvistik, motivasiya

Аннотация. В настоящее время английский язык становится мировым языком, и поэтому важно изучать его с дошкольного возраста. В данной статье рассматриваются социокультурные основы обучения английскому языку детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: Оздоровительный, реабилитационный, интеграционный, коммуникативный, фронтальный, ассимиляционный, наглядный, познавательный, динамический, ритмический, органический, психолингвистический, мотивационный.

Abstract. Currently, English is becoming the world language, and therefore it is important to learn it from preschool age. This article discusses the socio-cultural foundations of teaching English to preschool children.

Keywords: Wellness, rehabilitation, integration, communicative, frontal, assimilation, visual, cognitive, dynamic, rhythmic, organik, psycholinguistik, motivational.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarish va takomillashtirish, shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sog‘lom, faol, to‘laqonli, jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakillantirish, o‘sishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarni, shuningdek reabilitatsiya qilish va sog‘lomlashtirishga muhtoj bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va integratsiya qilish uchun qulay muhit yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi 391- sonli qarori qabul qilingi. Qarorga muvofiq maktabgacha ta’lim tashkilotlarining maqsadi etib, bolaning ta’lim olishga bo‘lgan xuquqini amalga oshirish bo‘yicha ta’minlash, bolaning jismoniy, aqliy va ma’naviy kamolatini saqlash va mustahkamlash, umumta’lim tashkilotlarida bolaning jamiyatga moslashuvini va ta’lim olishini davom ettirishga tayyorgarligini ta’minlashdan iboratdir. Yurtimizda olib borilayotgan bu islohatlar insonni quvontirishi tabiiy albatta. Shu islohatlar davomi sifatida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatish borasida berilayotgan e’tiborni ham aytish joizdir.

Qaysi mashg‘ulot turi bo‘lmasin barchasida bolaning psixologiyasidan kelib chiqqan holda faoliyatni olib borish darkor. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ikkinchi til ya’ni ingliz tilini o‘tgatishda pedagogik-psixologik xususiyatlar ixtiyoriy diqqatlilik, tanlangan xotira (ko‘z xotira, quloq xotira), obyektga yo‘nalganlik misol bo‘la oladi. Ingliz tili mashg‘ulotida bolalar yuqori kognitiv funksiyalarga ega bo‘lishi mumkinligini ham oddiygina o‘zaro ta’sirning ijtimoiy-madaniy vositalariga bog‘liq. Ijtimoiy-madaniy vositalar esa o‘zaro muloqot, madaniyat, shaxslararo aloqalar va xatti-harakatlarni birlashtirish orqali yuzaga keladi. Maktabgcha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatish davomida psixologik jihatdan uzulish bo‘ladi. Chunki ular o‘zlariga notanish bo‘lgan tilni o‘rganish jarayoniga tushib qoladi. Xorij olimlarining fikriga ko‘ra, ingliz tilini o‘rgatish juda oson va qulay, uni 4 yoshligidan o‘rgatish optimal yosh deb hisoblashadi.

Lekin bunga birdaniga erishib bo‘lmaydi. Bolalar bir xil bo‘lmaydi, ularning ba’zilarida qobiliyatlar yashiringan, ba’zilarida esa hali to‘g‘ri yo‘naltirilmagan, ba’zilari esa o‘zining qobig‘iga berkingan bo‘ladi. Mana nega ham pedagogik ham psixologik xususiyatlar kerak. Albatta bolalarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari kattalarnikiga nisbatan ancha past. Ular uchun mashg‘ulotlar dinamik va faol o‘tkazilishi kerak, shundagina ular diqqatini jamlay oladi. Bolaning psixologik va yosh xususiyatidan kelib chiqib mashg‘ulot uslubini tanlash lozim. Masalan, o‘yin, raqs, ko‘rinish, ritmik sho‘x qo‘shiq, qisqa videolar, qisqa multfilmlar orqali diqqatini jamlash mumkin. Avvalo, bolalarda hissiy shaxsni shakillantirish lozim. Bolalarni boshqa tillarga nisbatan xurmatini oshirish, ularga o‘rgatilayotgan til haqida mamlakat haqida ijobiy xulosa taqdim etish, madaniyati bilan tanishtirish, o‘rganiladigan tilni kuzatish va munosabat bildirish kabi qiziqishlarini shakillantirish lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy, psixologik va ijodiy fazilatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning tassavur, xotira, e’tibor, muloqot, bilim, qiziqish, mantiqiy fikrlash va idrok etish kabi qobiliyatlarini ham rivojlantirish kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarni muloqot qobiliyatlarini hisobga olgan holda oddiy qisqa, lo‘nda, tushunish oson bo‘lgan, talaffuz jihatdan ham qulay bo‘lgan so‘zlar va iboralardan ko‘proq foydalanish lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlovchi xorijiy til o‘qituvchilari bilishlari kerakki, bolaning shakllanish darajasi bolaning ish jarayonida paydo bo‘ladigan ko‘plab vazifalarni (o‘yin ishlab chiqish, lingvistik va kognitiv xususiyatlar)mustaqil ravishda bajarish uchun yetarli emas. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘qituvchining rahbarligi ostida asta-sekin xorijiy tilni o‘rganishda mustaqil rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda 6 yoshning ahamiyati juda katta. Bu vaqtda pedagogik adabiyotlardan foydalanish, bolalarning mehnat qobiliyatini oshirish, aqliy qobiliyatlari va qiziqishlarini rivojlantirish, diqqatni daslabki tarkibini shakillantirish, xotira va tassavur komponentlarini shakillantirish, xorijiy tilni o‘rgatishda ham noodatiy metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Shu sababdan o‘quv mashg‘ulotlarini soddalashtiradigan qo‘shimcha frontal, ko‘rgazmali qurollardan foydalanish, mashg‘ulot olib borish uslub va usllarini pedagogik-psixologik mos tanlash lozim. Bu yoshda bolalarga ingliz tilini o‘rgatishda muloqot qobiliyatlarini shakllantirishga e’tibor berish talab qilinadi. Bundan maqsad esa ularning idrok va nutq qobiliyatlarini assimlatsiya qilishdir. Yana qo‘l matorikalaridan keng foydalanish so‘zlar, holatlar, harakatlarni qo‘lda ishoralar orqali ko‘rsatish ham bolani tez eslab qolishiga yordam beradi. Bolalarga ingliz tilini o‘rgatishda hissiy sohaga ijobiy ta’sir ko‘rsatish, o‘yin daqiqalarida bir-birlari bilan o‘zaro muloqotni shakillantirish, talaffuzni yaxshilash, so‘z boyligini oshirish va kommunikativ kompetentsiyalarni rivojlantirish darkor. Bolaga biron so‘zni o‘rgatish vaqtida audio yoki video yozuvdan foydalanib uning eshitishi va to‘g‘ri tallafuzini shakillantirishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda

chet tiliga nisbatan ijobiy psixologik munosabatni yaratish kerak va bunday ijobiy motivatsiyani yaratish usuli o‘yin hisoblanadi. Chet tili mashg‘ulotlarini o‘tkazishning o‘yin shakli til ko‘nikmalarini va nutq qobiliyatlarini o‘zlashtirish uchun qulay sharoit yaratadi. O‘yin faoliyatida bolalarning o‘z imkoniyatlariga ishonish qobiliyati chet tilida nutq uchun tabiiy turtki berishga, hatto eng oddiy iboralarni ham qiziqarli va mazmunli qilishga imkon beradi. Chet tilini o‘qitishda o‘yin faoliyati ta’lim faoliyatiga zid emas, balki u bilan organik ravishda bog‘liqdir. Psixik jarayonlar va hodisalarning mohiyatini hamda maktabgacha yoshda shaxsning shakllanishi bilan bog‘liq holda shu ingliz tili mashg‘ulot jarayoni bolalarga qiziqarli va to‘g‘ri tushuntirib bera olish lozim. Tarbiyalanuvchilar psixologiyasini o‘rganish natijasida bolalarning psixik xususiyatlarini aniqlash va pedagogik xususiyatlarni uyg‘unlashtirish, bolalar ingliz tili mashg‘ulotidan qoniqish hissini tuyishlari bu albatta o‘qituvchining yutug‘idir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarda nafaqat eshitish, idrok etish, xulosa qilish kabi hissiyotlarnigina emas, balki, yangi tilga qiziqishni paydo etish kerak. “Maktabgacha yoshdagi bola tabiatiga xos bo‘lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri- xar narsani yangilik sifatida ko‘rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir. Bu yoshdagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatdan o‘sishida qiziqishning ro‘li juda katta. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi bolani biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham psixologlar qiziqishni bilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab psixik xodisa deya baholaydilar”. Bolalarda psixolingvistik tushunish qobiliyati ham mavjud. Bu qobiliyat bolalarga og‘zaki o‘zaro ta’sir qilish imkonini beradi. Psixolingvistik tushunish o‘z navbatida bolalarning bilim va ijtimoiy qadriyatlarni to‘g‘ri anglashda muhim vositadir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizli, maktabgacha ta’limda ingliz tilining muhimlik darajasini oshirish shu bilan bir qatorda ta’lim faoliyatini tubdan takomillashtirish, shu asosda bolalarga ingliz tilini o‘rgatishda ijtimoiy-ma’daniy ko‘nikmalarini rivojlantirishni metodik takomillashtirish va unga mos ilmiy-metodik ta’minotni yaratishga imkon berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’limni 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” PQ-4312 qarori T. : 2019 yil 8 may.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “ Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida “gi 391- sonli VM-391 qarori T. : 2019 yil 13 may

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni

4. Abdukunduzovna B. G. PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS OF FORMATION OF READING INTERESTS IN CHILDREN OF PRESCHOOL AGE //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020

5. Azamova S. , Manonova F. Maktabgacha talim jarayonida xorijiy tillarni o‘qitishning zamonaviy metodikalari //Science and Education. – 2021.

6. Mahmatkarimovna U. M. Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet-tili o‘qitishning samarali samarali usullaridan foydalanish imkoniyatlari //Ta’lim fidoyilari. – 2022

7. . Xikmatullayevna A. S. MODERN METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES //Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. – 2022.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK -AMALIY, KOMPETENSIYLARINI SHAKILLANTIRISHDA MA’NAVIY-ESTETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH

Otaboboyeva Umida Ilhomovna

Jizzax davlat pedagogika unversteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarning kompetensiyalrini, shakillantirishda ma’naviy-estetik rivojlantirishni shakillarini ishlab chiqish, takomillashtirish, badiiyy ijodkorlik asosida kreativ g‘oyalar ishlab chiqish, amaliyotga tadbiq etishda keng qamrovli tavsiyalar berish.

Kalit so‘zlar: Pedagogik-amaliy, pedagogik kompetensiya, ma’naviy-estetik rivojlanish, badiiy ijodkorlik, g‘oyalar ishlab chiqish, tavsiya berish, yangilik yarata olish, kasbiy bilimlarga ega bo‘lish, milliy ma’naviyat.

Abstract. In this article, development and improvement of the competencies of future pedagogues, forms of spiritual-aesthetic development, development of creative ideas based on artistic creativity, and comprehensive recommendations for implementation.

Keywords: Pedagogical-practical, pedagogical competence, spiritual-aesthetic development, artistic creativity, development of ideas, making recommendations, being able to create new things, acquiring professional knowledge, national spirituality.

Аннотация. В данной статье рассматриваются развитие и совершенствование компетенций будущих педагогов, формы духовно-эстетического развития, развитие творческих идей на основе художественного творчества, а также комплексные рекомендации по реализации.

Ключевые слова: Педагогически-практическая, педагогическая компетентность, духовно-эстетическое развитие, художественное творчество, развитие идей, вынесение рекомендаций, умение создавать новое, приобретение профессиональных знаний, национальная духовность.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarni ma’naviy-estetik rivojlantirishnnig pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy takliflar asosida: pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirish, ularni ma’naviy-estetik rivojlantirish hamda mazmunini boyitish, kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikni takomillashtirishning mazmun-mohiyati, pedagogik shar-sharoitlari va didaktik imkoniyatlarini aniqlashga doir taklif va tavsiyalar “O‘zsandart” agentligining 2015 yil 15 fevraldagi 2-540-son qarori bilan tasdiqlangan bakalavriat yo‘nalishlari Davlat ta’lim standartai mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining . . . . ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan malaka talabalari kasbiy kompetentsiyalar tizimi asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-estetik rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha o‘quv materiallarni tizimlashtirishning didaktik parametrlari, kasbiy kompetentlik xarakteridagi topshiriqlar, kasbiy kompetentlikka oid materiallar bilan ishlashda interfaol usullarni takomillashtirishga doir takliflardan PZ-2017-0927124 “Ta’lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” mavzusidagi amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining . . . . ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini yuksaltirish mazmuni va tashkiliy-metodik asoslari takomillashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-estetik rivojlantirish orqali ularning kasbiy kompetentsiyasini takomillashtirishning ilmiy-metodik ta’minoti o‘quv mashg‘ulotlarining algoritmik xaritalari, interfaol o‘quv jarayonini ta’minlovchi metodik tizimi, umumkasbiy tavsifdagi intellektual topshiriqlar, pedagogik dasturiy vositalardan ma’lumotlar bazasi yaratilgan hamda oliy ta’lim muassasasining pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishidagi ilmiy metodik ta’minot mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining . . . . ma’lumotnomasi). Natijada ushbu takliflar ta’limning ilmiy-metodik ta’minotining sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-estetik rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari, ijodiy topshiriqlarni bajarish metodlari (variantlarni tanlash, masalalarni yechish algoritmi, ixtirochilik), bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish darajalari

(reproduktiv, produktiv, qisman izlanishli, kreativ)ni tashxislash komponentlari (anketa, tahlil, bashoratlash, loyihalash), funktsiyalarini integrativ muvofiqlashtirish orqali o‘qitish sifat va samaradorligini oshirishga doir tavsiyalardan bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining . . . . ma’lumotnomasi). Natijada talabalarni mustaqil va kreativ faoliyatga yo‘naltirish, o‘z-o‘zining kasbiy kompetentligini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqorolik jamiyatini barpo etishda «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» degan hayotbaxsh g‘oyaning ahamiyati toboro ortib bormoqda. Shu maqsadda barcha millatlarning o’ziga xos va mos bilimlar boyligi, ma’nolar majmuini o‘zida to‘plagan milliy ma’naviyatni asrab-avaylab, uzviy rivojlantirib kelmoqda. Shu sababli mustaqillikning ilk yillaridan boshlab milliy ma’naviyatni tiklash, to’ldirish va boyitish davlat siyosatiga aylandi. Chunki, har bir millatning o’z ma’naviyatini aniqlashi, bilishi va o’z aql-farosatining, ongining tarkibiy qismiga aylantirish millatni mustahkamlaydi, uning o’ziga bo’lgan e’tiqod va qadr hissini boyitadi.

Mamalakatimiz Prezidentining respublikamizni rivojlantirish borasida bir necha strategikfarmonlar qabul qilmoqda va bu farmonlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga oid Davlat dasturlari qabul qilinmoqda. Dasturlar doirasida respublikani rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, g‘oyaviy-mintaqaviy, ma’naviy-ma’rifiy faoliyatlar bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu kabi ishlarning barchasi, avvalo davlatimiz rahbari SHavkat Mirziyoyev faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, mamlakatimizning o‘z mustaqil taraqqiyot yo‘lidan yangi davrga qadam qo‘yganidan, uzoq va davomli maqsadlarni ko‘zlaganligidan, qat’iyat bilan ilgarilab borayotganligidan darak bermoqda. Bugungi kunda bu haqiqatni nafaqat respublikamiz, balki jahon hamjamiyatining nufuzli olim va mutaxassislari hamda siyosatshunoslar ham e’tirof etmoqdalar.

Bugungi kunda zamonaviy avlodni o‘zbek xalqining ma’naviy merosi asosida, birinchi navbatda, xalqning boy ma’naviy dunyosi, donoligi, axloqiy, estetik madaniyati, ijodiy-ijdkorlik qobiliyati, milliy ruhrini aks ettiruvchi tarixiy-madaniy, ayniqsa madaniy, axloqiy, ma’naviy estetikaga o‘rgatish zarur. Bunda yoshlarni o‘qitish va tarbiyalash usullariga, ularning ta’lim va kasbiy darajalariga g‘amxo‘rlik qilish muqaddas burch ekanligini, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini milliy ma’naviyat nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish kerak. SHuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlariga o‘zgarishlar kiritish, ayniqsa yangi pedagog kadrlarni ma’naviy-estetik tarbiyalash jarayonida estetik madaniyatni takomillashtirish zarur. Ma’naviy-estetik rivojlantirishga ehtiyoj ortmoqda , faqatgina ma’naviy-estetik bilimli odam milliy-estetik

qadriyatlarni qadrlashi mumkin, faqat ma’naviy-estetik bilimli o‘qituvchi boy ma’naviy-estetik dunyoga ega bo‘lgan talaba shaxsini shakllantirishi mumkin.

Yangi avlod pedagog kadrlarini tayyorlash vazifasi, shu jumladan ma’naviy-estetik rivojlantirish, milliy g‘oyani amalga oshirishga yordam beradi.

Ma’lumki, ma’naviy poklanish umuminsoniy ma’naviyatni o‘z ichiga oladi. Ma’naviyat quyidagilarni: ma’naviy va ma’rifiy rivojlanish; ijtimoiy va didaktik taraqqiyot; falsafiy-pedagogik taraqqiyot; diniy ta’lim; milliy axloq normalariga bo‘ysunish; ilmiy ta’lim; qarashlar pokligi va tafakkur ravshanligi; milliy tamoyillarga hurmat; vatanparvarlik, xayrixohlik, millatchilik, adolat tuyg‘ulari; fidoyilik, mardlik, jasorat, tashabbuskorlik; mamlakat va xalq mustaqilligini himoya qilishga va ularga xizmat qilishga tayyorlik; huquqiy qat’iylik va benuqsonlik; islom diniga ishonch; ajdodlar va ularning merosiga hurmatni shakllantiradi. Ushbu kontseptual yo‘nalishlar ma’naviy ta’limning metodologik asosiga aylanishi kerak. Bu ma’naviy ta’limning asosiy yo‘nalishi ma’naviy ta’limning tarixiy ildizlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratishni taqozo qiladi.

Ma’naviyat milliy xususiyatlar va quyidagi tarkibiy qismlarga bo‘linadi: “madaniy-ma’rifiy yuksalish; ijtimoiy-didaktik rivojlanish; falsafiy-pedagogik taraqqiyot; qat’iy ishonch; milliy axloq, odob-axloq me’yorlariga to‘liq muvofiqliq; insonda yuqori axloqiy fazilatlar insonparvarlik, vatanparvarlik, xayrixohlik, adolat tuyg‘usi, milliy qadriyatlarni sevish, o‘zini qurbon qilish, jasorat, tashabbuskorlik, poklanishni shakllantirish; islomga ishonch bilan munosabatda bo‘lish, har doim vatan va xalq mustaqilligini himoya qilishga tayyorlik va ularga sadoqat; ajdodlarga, ularning merosiga va shu kabilarga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo‘lish. Nazarimizda, milliy ma’naviyatning asosiy vazifasi, uning asosiy mohiyati va tarkibiy qismi quyidagilardan iborat: birinchidan, islohotlarning hozirgi bosqichida, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxslarni tarbiyalashga e’tiborni yanada kuchaytirish; ikkinchidan, halollik, axloq va poklik xalq xo‘jaligining barcha sohalarida to‘liq yutuqqa erishish; uchinchidan, milliy qadriyatlarni to‘la tiklash va shu asosda milliy g‘urur hissini shakllantirish.

Xulosa o‘rnida Ular milliy ma’naviyatni tiklash va rivojlantirishga e’tibor berish zarurligini ta’kidlaydi, shu bois milliy tamoyillar qayta tiklandi va hayotga tatbiq etildi, ma’naviy-madaniy meros o‘rganildi, milliy bayramlar nishonlanmoqda, ma’naviyatni rivojlantirish borasidagi ishlar jonlantirildi, ma’naviyat markazlari tashkil qilindi, oliy o‘quv yurtlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar jonlantirildi. Shu ma’noda shaxsni tarbiyalsh va rivojlantirishda pedagogik fanlar milliy madaniy hamda umuminsoniy qadryatlarga asoslanadi. Bu kadrlar tayyorlashda juda muhim vazifa hisoblanadi. Shu bilan birga, davlat milliy- umuminsoniy qadriyatlar asosida kadrlar tayyorlash va o‘qitishning kafolati bo‘lib qolmoqda. Bu sohada fan muhim rol o‘ynaydi. Uzluksiz ta’lim tizimini

rivojlantirishning yangi strategiyasida ham ta’lim omili qayta ko‘rib chiqilmoqda. Bunda asosiy e’tiborni ma’naviy-axloqiy va albatta, ma’naviy-estetik tarbiyaga, shuningdek, ta’limning ijodiy-innovatsion yondashuvi, tarbiyaning qadriyatli-shaxsiy mezonlariga qaratilish zarur.

Ta’lim tizimi oldidagi vazifalarni samarali amalga oshirilishini ta’minlash va bu sohada sifatni yaxshilash maqsadida tadqiqotlar olib borish talab etiladi. Yuqori malakali kadrlar tayyorlash zero, uzluksiz ta’lim tizimining barcha jabhalarida o‘quv jarayonini metodik jihatdan ta’minlash bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Biroq, ma’naviy tarbiya sohasi hozirgacha faqat ma’naviy-axloqiy omil bilan cheklanib qolmoqda. SHunga qaramay, milliy pedagogikamizda bu sohada ma’lum bir o‘sish kuzatilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik fanlarni o‘qitishda bosh masala bu- o‘sib kelayotgan yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash hamda uni o‘z millati, o‘z xalqi, o‘z Vataniga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, barcha xalqlar o‘rtasida qarindoshlik va birodarlikni mustahkamlash, O‘zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi, davlat ramzlariga, Respublika Prezidentiga hurmat, mamlakatning ma’naviy boyligi, tili, tarixi, madaniyatini, qadriyatlarini asrab-avaylash, o‘z huquq va burchlarini to‘liq anglash, shaxsiy halollik, poklik, rostgo‘ylik, iymon-e’tiqod, vijdon, insof kabi ma’naviy-estetik mazmunidagi fazilatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni bevosita va bilvosita bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-estetik rivojlantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Sher, B. Xusanov, E. Umarov. Estetika. Toshkent-2008
2. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent: 2000 y.
3. Vatan tuyg‘usi. A. Ibrohimov, X. Sultonov, N. Jo‘rayev, Toshkent: 1996 y.
4. O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. Toshkent: 2000 y.
5. Абдурахманова Х. А. Педагогические основы реализации межпредметных связей как средство профессиональной подготовки студентов. – Ташкент, 1990. – 15 с.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA TA’LIM TURLARIARO INTEGRATSIYANING PEDAGOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Javohir Yusupovich Xolmatov
Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti
javohirxomatov@mail. ru

Annotatsiya. Ushbu maqola bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini integrativ bilim va kompetensiyalarga ega qilib tayyorlashga qaratilgan. Maqola umumiy o‘rta va oliy ta’lim tizimlari

o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni ta’minlash orqali o‘qituvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini uyg‘unlashtirish jarayonini o‘z ichiga oladi. Ushbu maqola orqali bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilariga integrativ bilimlarni samarali yetkazish ko‘nikmalarini rivojlantirib, kasbiy va pedagogik jihatdan yetuk mutaxassis sifatida shakllanadilar. maqolaning asosiy afzalligi – o‘qituvchilarning fanlararo bog‘liqlikni anglashlari va o‘quvchilarga nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish imkoniyatini yaratishidir.

Kalit so‘zlar: integratsiya, fanlararo bog‘liqlik, pedagogik mexanizmlar, boshlang‘ich ta’lim, nazariy va amaliy bilim, ta’limning uzviyligi, kompetensiyalar.

Аннотация. Данная статья направлена на подготовку будущих учителей начальных классов с интегративными знаниями и компетенциями. Статья охватывает процесс гармонизации теоретических и практических знаний учителей путем обеспечения непрерывной связи между системами общего среднего и высшего образования. Через данную статью будущие учителя развивают навыки эффективной передачи интегративных знаний своим ученикам, формируясь как профессионально и педагогически зрелые специалисты. Основное преимущество статьи заключается в том, что учителя начинают осознавать междисциплинарные связи и получают возможность применять теоретические знания в реальных жизненных ситуациях для учеников.

Ключевые слова: интеграция, междисциплинарные связи, педагогические механизмы, начальное образование, теоретические и практические знания, непрерывность образования, компетенции.

Abstract. This article is aimed at preparing future primary school teachers with integrative knowledge and competencies. The article encompasses the process of harmonizing teachers’ theoretical and practical knowledge through ensuring continuity between general secondary and higher education systems. Through this article, future teachers develop skills to effectively convey integrative knowledge to their students, shaping themselves as professionally and pedagogically mature specialists. The main advantage of the article is that teachers gain an understanding of interdisciplinary connections and create opportunities for students to apply theoretical knowledge to real-life situations.

Keywords: integration, interdisciplinary connections, pedagogical mechanisms, primary education, theoretical and practical knowledge, continuity of education, competencies.

Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarni zamonaviy ko‘nikmalar bilan ta’minlash uchun umumiy o‘rta va oliy ta’lim tizimlari o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni kuchaytirish zarurati ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qator qarorlar, jumladan, 2017-yil 22-maydagi “Oliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”[1]gi 304-sonli qaror, yuqori malakali pedagog va ilmiy kadrlarni tayyorlashga qaratilgan. Ushbu qarorlar ta’lim tizimining barcha bosqichlarida zamonaviy metodlarni joriy etish, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish va innovatsion pedagogik yondashuvlar orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Integratsiyalashgan ta’lim modeli esa umumiy o‘rta va oliy ta’lim o‘rtasidagi uzviy bog‘lanishni kuchaytirish orqali ta’lim jarayonini yaxlit tizim sifatida tashkil etishni maqsad qilgan. Ushbu model o‘qituvchilarning kasbiy va nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirish imkonini yaratib, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini yetuk mutaxassislar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi. Shu tariqa, ta’lim jarayonining integratsiyalashuvi o‘qituvchilarga bilim va ko‘nikmalarni tizimli ravishda shakllantirishga yordam berib, ularning o‘quvchilarida mustahkam kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Shunday qilib, integratsiyalashgan ta’lim modeli o‘qituvchilarga uzviy bog‘langan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun asos yaratadi. Bu model nafaqat ta’lim mazmunini yaxlit tizim sifatida tashkil etishga yordam beradi, balki o‘qituvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. [2] Shu tariqa, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va pedagogik malakasi izchil oshib boradi, ular esa o‘z navbatida, o‘quvchilarga turli sohalarni bog‘lab o‘rgatishga va real hayotiy vaziyatlarda bilimlarni qo‘llashga o‘rgatadi.

Bu jarayon davomida o‘qituvchilarning ta’lim turlariaro integratsiyani samarali qo‘llashlari uchun ma’lum bosqichlarni bosib o‘tishlari kerak. Quyidagi bosqichlarda ta’lim turlariaro jarayonlar umumiy o‘rta va oliy ta’limda qanday olib borilishi va natijada qanday o‘zgarishlar yuz berishi ko‘rsatilgan. 1-model. Integrativ bilim va kompetensiyaga ega bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

Bosqichlar	**Ta’lim turlariaro jarayonlar (Umumiy o‘rta va oliy ta’lim)**	**Natija**
1. Integrativ o‘quv rejalarini yaratish	Umumiy o‘rta ta’limda olingan bilimlarni oliy ta’lim bilan bog‘lash	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirish
2. Amaliy va nazariy bilimlarni uyg‘unlashtirish	Umumiy o‘rta ta’limdan oliy ta’limga o‘tishda nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi
3. Ko‘nikmalarni rivojlantirish va baholash	Integratsiyalashgan pedagogik ko‘nikmalarni rivojlantirish va baholash	Mustaqil ishlash, kasbiy va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish

[1] https://lex.uz/docs/3213410

[2]Abduraimov, Sh.S., Xolmatov, J.Y. «Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini tayyorlashning integratsiyalashgan pedagogik mexanizmi.» Ta’lim, fan va innovatsiya, ma’naviy-ma’rifiy ilmiy-uslubiy jurnal, 2023-yil, 3-son, 194-198-betlar.

4. Pedagogik monitoring va natijalarni kuzatish	Umumiy o‘rta va oliy ta’limdagi natijalarni kuzatish va baholash	Pedagogik faoliyatda uzviylikni rivojlantiruvchi kompetensiyalar shakllanishi
5. O‘zini tahlil qilish va natijalar monitoringi	Bo‘lajak o‘qituvchining o‘z bilim va natijalarini mustaqil tahlil qilish jarayonlari	Bilim va ko‘nikmalarini mustaqil tahlil qilish qobiliyati
6. Ta’lim jarayonining monitoringi va integratsiyasi	Ta’lim turlarining uzviyligini nazorat qilish va natijalarni kuzatish	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi integrativ bilim va ko‘nikmalarni rivojlantiradi
7. Yakuniy baholash va monitoring	Umumiy o‘rta ta’limdan oliy ta’limga o‘tishda erishilgan pedagogik natijalarni baholash	Integrativ bilim va kompetensiyaga ega bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Tavsiya: Integrativ bilimga ega kompetentli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, integrativ bilim va kompetensiyaga ega boshlang‘ich sinf o‘quvchisini tarbiyalaydi.

Modelning mazmuni: Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi tayyorlash jarayoni: Umumiy o‘rta ta’lim va oliy ta’lim o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydigan model bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nazariy va amaliy bilimlarini shakllantiradi.

Natija: Ushbu jarayon orqali yetishtirilgan bo‘lajak o‘qituvchi, o‘z o‘quvchilariga integratsiyalashgan bilimlarni samarali yetkazadi va ularning kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ilmiy va amaliy jihatdan tayyor bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Tavsiya berilgan integrativ pedagogik model quyidagi tarzda ishlaydi, bunda umumiy o‘rta ta’lim va oliy ta’lim o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yaratish orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini integrativ bilimga ega qilib tayyorlash va u orqali integrativ bilimga ega kompetentli boshlang‘ich sinf o‘quvchisini tarbiyalash maqsad qilinadi. Modelning ishlash bosqichlari:

1. Integrativ o‘quv rejalarini ishlab chiqish: - Umumiy o‘rta ta’limdan olingan bilimlar oliy ta’limdagi o‘quv dasturlar bilan uzviy bog‘lanadi. - Bu jarayonda bo‘lajak o‘qituvchi uchun fanlar va ta’lim turlariaro bilimlar uyg‘unlashtiriladi. Natijada, bo‘lajak o‘qituvchi umumiy o‘rta ta’limdagi nazariy bilimlarni oliy ta’lim bosqichida kengaytiradi va amaliyot bilan bog‘laydi. Natija: Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nazariy va amaliy bilimlarni birlashtirish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

2. Amaliy va nazariy bilimlarni uyg‘unlashtirish: - Umumiy o‘rta ta’limdan olingan nazariy bilimlar oliy ta’limda amaliyot bilan bog‘lanadi. - Oliy ta’limda bo‘lajak o‘qituvchi o‘zi o‘rgangan nazariy bilimlarni amaliy faoliyatlar bilan uyg‘unlashtiradi, bu esa o‘quvchilarning qobiliyatini rivojlantirishda yordam beradi. Natija: Bilimlarni hayotda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirish orqali o‘qituvchining integrativ qobiliyati mustahkamlanadi.

3. Ko‘nikmalarni rivojlantirish va baholash: - Integrativ bilimlarni mustahkamlash jarayonida pedagogik ko‘nikmalar va kasbiy qobiliyatlar rivojlantiriladi. - O‘qituvchi o‘z

faoliyatini tahlil qilib, doimiy ravishda o‘zini baholaydi. Natija: O‘qituvchi o‘z qobiliyatlari va faoliyatini mustaqil tahlil qilishi orqali kasbiy va pedagogik ko‘nikmalarini doimiy ravishda rivojlantiradi.

4. Pedagogik monitoring va natijalarni kuzatish:

- O‘qituvchi bilim va pedagogik jarayonlarni kuzatish orqali umumiy ta’lim va oliy ta’lim o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tahlil qiladi. - Bu jarayon o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatida bilimlarini uzviy bog‘lay olish qobiliyatini kuchaytiradi. Natija: O‘qituvchi o‘z o‘quvchilariga integrativ bilimlarni samarali yetkazadi va ularning bilimlarini amaliyot bilan bog‘laydi.

5. O‘zini tahlil qilish va natijalar monitoringi:

- O‘qituvchi doimiy ravishda o‘z natijalarini tahlil qilib, ta’lim jarayonlarini qanday yaxshilash mumkinligini o‘rganadi. - Shu orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning bilimlarini mustaqil baholash va ularni rivojlantirishga yordam beradi. Natija: Bilim va ko‘nikmalarni mustaqil ravishda tahlil qiluvchi o‘qituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga bilimlarni tushunarli va samarali tarzda yetkazadi.

6. Yakuniy baholash va monitoring: - Yakuniy bosqichda o‘qituvchi o‘zi va o‘quvchilari erishgan natijalarni tahlil qiladi, bu natijalar asosida o‘z faoliyatini yanada samaraliroq qilish uchun o‘zgarishlar kiritadi. Natija: O‘quvchilarga integrativ bilim va kompetensiyalarni samarali o‘rgata oladigan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi tayyorlanadi.

Tavsiyaviy — Modelning ishlash natijasi: Integrativ bilimga ega bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, ushbu model asosida o‘z kasbiy va nazariy bilimlarini amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etgan holda, integrativ bilimga ega kompetentli boshlang‘ich sinf o‘quvchisini tarbiyalaydi.

Ushbu modelda asosiy maqsad — bo‘lajak o‘qituvchilarni yetarlicha tayyorlash orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida chuqur integrativ bilim va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil 22-maydagi “Oliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 304-sonli qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni.

3. Azizxo‘jayeva, N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv monografiya. Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.

4. Qirg‘izova, O. va Usmonova, M. Boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari. VI Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Namangan davlat universiteti, 2021.

5. Xasanova, G. I. Ta’lim jarayonida dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari. Jizzax, 2020.

6. Xolmatov, J. Y. «Ta’lim berish jarayonida raqamli integratsiyalashgan axborot texnologiyalarini qo‘llashning ahamiyatliligi va nazariy jihatlari. » Yangi Asr Universiteti, Universitet 4. 0: Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va zamonaviy tendensiyalar, Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjuman, 2023-yil 18-mart, 53-55-betlar.

7. Xolmatov, J. Y. «Integratsiyalashgan ta’lim. » Jizzax davlat pedagogika universiteti: Ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, Respublika ilmiy-amaliy anjumani, Jizzax shahri, 2023-yil 6-noyabr, 135-138-betlar.

8. Xolmatov, J. Y. «Ta’limda integratsiyalashgan kompetensiyani shakllantirish. » Jizzax davlat pedagogika universiteti: Ilmga baxshida hayot, Pedagogik ta’lim xalqaro fanlar akademiyasi akademigi, texnika fanlari doktori, professor To‘raqulov Xolbo‘ta Abilovich xotirasiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2023-yil 15-may, 225-229-betlar.

9. Abduraimov, Sh. S. , Xolmatov, J. Y. «Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini tayyorlashning integratsiyalashgan pedagogik mexanizmi. » Ta’lim, fan va innovatsiya, ma’naviy-ma’rifiy ilmiy-uslubiy jurnal, 2023-yil, 3-son, 194-198-betlar.

10. Abduraimov, Sh. S. , Xolmatov, J. Y. «Improvement of Pedagogical Mechanisms of Integration of Education. » The Second Pamir Transboundary Conference for Sustainable Societies by T&F/ScitePress Proceedings, Osh, Qirg‘iziston, 2023-yil 10-15-iyul, 772-780-betlar.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI TIMSS XALQARO BAXOLASH DASTURLARIGA TAYYORLASH TAJRIBASI

Ergasheva Zarnigor Komilovna

JDPU Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim)

II kurs magistranti.

Anotatsiya. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish tajribasini o‘rganish, xalqaro baholash jarayonlarida munosib qatnashish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rishga yo‘naltirilgan PISA, TIMSS, PIRLS xalqaro baholash dasturlari doirasidagi topshiriqlar bilan ishlash ko‘nikmasini

shakllantirish, o‘qituvchi va o‘quvchilarni tayyorlash, ularning bilim, ko‘nikma va kompetentsiyalarini, shuningdek, o‘quvchilarda ijodiy va mantiqiy fikrlash hamda tegishli fan yo‘nalishlari bo‘yicha savodxonligini rivojlantirish, o‘qituvchilarga amaliy va uslubiy yordam berish

Kalit so‘zlar: TIMSS, xalqaro baxolash, yangi pedagogic texnalogiyalar, ta’lim sifatini yaxshilash, milliy tizim, xalqaro tadqiqotlar.

O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoniga muvofiq: **O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi** (keyingi o‘rinlarda – Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va unda quyidagilar nazarda tutilgan: O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) O‘quvchilarning ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur **reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish**;

-uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

-o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

Shunday ekan yuqorida takidlanganidek, o‘qitish metodikasini takomillashtirirsh bu ta’lim-tarbiya jarayoni isloh qilishga erishishni nazarda tutadi. Yosh avlodni bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan taraqqiyot davrining munosib vakillari qilib yetishtirish, jahon andozalariga mos keluvchi yuksak bilim va idrokni shakllantirish maqsadini amalga oshirish uchun, avvalambor, milliy ta`lim tizimini isloh qilgan holda, uning an`anaviy texnologiyalariga qo`shimcha ravishda dunyo mamlakatlari tajribasidan ham foydalanish samarali natija beradi. Xalqaro standartlarga javob bera oluvchi kadrlarni yetishtirishda jahon reytingida o`z o`rniga ega bo`lgan ta`lim tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. O`quvchilar bilimini baholashning xalqaro me`zonlari ham mavjud bo`lib, aynan ular dunyo bo`ylab ta`lim tizimi reytingini aniqlashga asos bo`ladi.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish tajribasini o‘rganish, xalqaro baholash jarayonlarida munosib qatnashish masalasiga alohida e’tibor

qaratilmoqda. Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rishga yo‘naltirilgan PISA, TIMSS, PIRLS xalqaro baholash dasturlari doirasidagi topshiriqlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish, o‘qituvchi va o‘quvchilarni tayyorlash, ularning bilim, ko‘nikma va kompetentsiyalarini, shuningdek, o‘quvchilarda ijodiy va mantiqiy fikrlash hamda tegishli fan yo‘nalishlari bo‘yicha savodxonligini rivojlantirish, o‘qituvchilarga amaliy va uslubiy yordam berish maqsadida Xalq ta’limi vazirligi va A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tomonidan Stesting elektron platformasi (https://stesting. uz) ishlab chiqildi.

Ushbu platformada 1449 ta test-topshiriqlari, 103 ta mediakurslar, 40 ta kimyo va biologiya fanlaridan malaka oshirish media kurslari o‘rin olgan. Shulardan, PISA xalqaro baholash tadqiqotiga oid 30 ta blok va 489 ta savollar bo‘lsa, TIMSS xalqaro baholash tadqiqotiga oid esa 8 ta fanga tegishli 583 ta nazorat savollar joy olgan va PIRLS xalqaro baholash tadqiqotiga oid 30 ta blokdan iborat 377 ta savollar platformaga joylashtirilgan.

Shulardan biz boshlang‘ich sinflarda o`quvchilar bilimini baholashning Xalqaro tadqiqotlaridan yana bir muhimi TIMSS dasturi haqida so‘z yuritmoqchimiz. TIMSS – ham jahon mamlakatlari ta’lim tizimida keng tadbiq etilmoqda. TIMSS dasturi Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi IEA (InternationalAssociation for the Evaluation of Educational Achievements) tomonidan tashkil etilgan bo`lib, TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) testi birinchi bo`lib 1995 yilda amalga oshirilgan. Uning maqsadi matematika va tabiiy fanlar sohasida o`qitish sifatini qiyosiy tahlil qilish edi. 1995 yilda uchinchi, to‘rtinchi, ettinchi, sakkizinchi va o‘n birinchi sinf o‘quvchilari o‘qishga taklif qilindi. Bugungi kunda unda faqat to‘rtinchi va sakkizinchi sinf o‘quvchilari qatnashmoqda. Mazkur tadqiqotda o`quvchilar orasida matematika va tabiiy fanlar bo`yicha ta’limning sifati, darajasi, fanga bo`lgan munosabati, qiziqishini aniqlaydi. Tadqiqotning yana bir afzal tarafi shuki, o`quvchilar, maktab ma’muriyati va o`qituvchilari orasida qo`shimcha so`rovnomalar o‘tkazadi va fan sohasida to`sqinlik qilayotgan asosiy sabablarni aniqlaydi, tahlil qilinadi va shu omillar yechimi yuzasidan ish olib boriladi. Har 4 yilda bir marotaba olib boriladi. Sinov mualliflari testlarni o‘quvchilar uchun qiziqarli jarayonga aylantirish uchun savollarni qiziqarli va ijodiy qilishga harakat qilishadi, ammo har bir topshiriq uchun belgilangan mavzular bo`yicha baholash mezonlari mavjud. Asosiy sinovlardan tashqari, ba’zida yaratuvchilar TIMSS Advanced-ni o`tkazadilar, unda o`rta maktab bitiruvchilari ishtirok etadilar. Bunday tadqiqot har qanday davlatda ishlab chiqilgan ta’lim standartlarini va ta’lim samaradorligini boshqa davlatlar bilan solishtirib ko‘rish imkonini beradi va aniqlangan kamchiliklarni ustida ish olib borilishi tufayli ta’lim tizimida rivojlanishga olib keladi, bu esa o`z-o`zidan yosh avlodning bilim darajasini yuqori cho`qqilarga ko‘tarilishida zamin bo`la oladi. 2019-yil TIMSS tadqiqotlari raqamli formatda o`tkazildi va natijalarga ko‘ra AQSh,

Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta’lim tizimi eng yuqori ko‘rsatkichlarni egallagan. Xalqaro baholash dasturi (TIMSS) dagi tizim o`quvchini hayot bilan bo`g`laydi va kelajakda muammolarni qiyinchiliklarsiz yechimini topishga, egallagan bilim ko‘nikmalarini hayot yo`lida qo`llay olishga o`rgatadi. Buning uchun esa albatta avval pedagog-o`qituvchining bilimini Xalqaro baholash dasturi talablari darajasida qayta tayyorlash, bilim ko`nikmalarini shakllantirish, eskilik sarqitlaridan xalos etish lozim. Shulardan kelib chiqib, Ta’lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Milliy ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo`llaniladi.

- Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta’lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o`rni to`g`risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

- Xalqaro tadqiqotlar ta’lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o`tkazishga ijobiy ta’sir ko`rsatadi.

- Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

- O`zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o`tkazish madaniyati rivojlanadi, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi.

- Milliy ta’lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo`llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi. Bu imkoniyatlar nafaqat sog`lom, yetuk va aqliy salohiyati yuqori bo`lgan kelajak avlodni tarbiyalabgina qolmay, balki Yurtimiz ravnaqiga, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy o`sishiga zamin yaratiladi. Mazkur xalqaro baholash dasturlari va ular doirasidagi tadqiqotlar Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan muayyan davriylik asosida dunyo mamlakatlari bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

Endilikda, TIMSS-2023 xalqaro dasturida qatnashishga kirishildi. Bu borada IEA tashkilotining “Xalqaro matematik va ilmiy tadqiqotlar (TIMSS) 2023 tendensiyalarida qatnashish uchun rasmiy taklifi”ga muvofiq O‘zbekistonning TIMSS dasturida ilk marotaba qatnashishi masalasida Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi o‘rtasida olib borilgan muloqotlar asosida IEA rahbariyatining dastlabki roziligiga erishildi.

IEA rahbariyati O‘zbekistonning ushbu tadqiqotda qatnashishishidan mamnun ekanligini aytib, O‘zbekistonning ta’lim sharoitiga TIMSSning qaysi turi mos kelishi haqida maslahatlar berdi. Bundan tashqari, IEA 2021-yil fevral oyida Germaniyaning Gamburg shahrida o‘tkazilishi rejalashtirilayotgan milliy tadqiqot koordinatorlarining birinchi yig‘ilishiga taklif qildi va Boston kolleji mutaxassislari bilan turli xil baholash modellarini muhokama qilish, tadqiqotlar yo‘nalishlarining afzallik va kamchiliklari haqida muhokamalar olib borish uchun qulay imkoniyat yaratib berilishi haqida ma’lum qildi.

TIMSS (Trends in International mathematics and science study) 4- va 8- sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash dasturi bo‘lib, bu tadqiqot to‘rt yilda bir marta o‘tkaziladi.

TIMSS xalqaro baholash dasturida 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo‘shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha berilayotgan ta’lim mazmuni, o‘quv jarayoni, ta’lim muassasasining imkoniyatlari, o‘qituvchilar salohiyati, o‘quvchilarning oilalari bilan bog‘liq omillari o‘rganiladi.

TIMSS dasturi o‘zining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo‘lib, 2019-yilga qadar har to‘rt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019-yillarda tashkil etib kelindi. Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Dasturda qatnashayotgan davlatlar soni ham tobora ortib bormoqda, buni 2015-yildagi TIMSS tadqiqotida 57 ta mamlakat qatnashgan bo‘lsa, 2019-yilda bu ko‘rsatkich ortib, 60 dan ortiq davlatni tashkil etganida ham ko‘rish mumkin. TIMSS 2015 tadqiqot natijalariga ko‘ra, AQSH, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta’lim tizimi eng yuqori ko‘rsatkichlarni egallagan.

PISA 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini baholasa, PIRLS 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholaydi. TIMSS xalqaro baholash dasturi esa, 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini baholaydi. PIRLS va TIMSSni bir-birini to‘ldiruvchi dasturlar deb e’tirof etish mumkin.

PISA va TIMSS tadqiqotlarini, ularning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholashini inobatga olinsa, Respublikamizda matematika sohasini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarga ham hamnafas bo‘ladi deb aytish mumkin.

O‘zbekiston TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda qatnashish orqali rivojlangan mamlakatlar tajribalarini O‘zbekiston ta’lim tizimida qo‘llash, o‘z natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Tadqiqotda, O‘zbekistonning 4- va 8- sinf o‘quvchilari boshqa davlatlardagi tengdoshlariga nisbatan matematika va tabiiy fanlardan savodxonligi qay darajada yuqori? Matematika va tabiiy fanlar 4- va 8- sinf o‘quvchilari uchun qiziqarli fanmi? Oila tomonidan farzandlarga matematikani va tabiiy fanlarni o‘zlashtirishda qanday hissa qo‘shilmoqda? Bugungi kunda bizning mamlakatimizda matematika va tabiiy fanlarni o‘qitish jarayoni qanday tashkil etilgan? O‘zbekiston matematika va tabiiy fanlar o‘qitish jarayonining boshqa davlatlarga nisbatan o‘ziga xosligi bormi, agar bor bo‘lsa u nimalarda namoyon bo‘ladi? Mamlakatimizda matematika va tabiiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha o‘qituvchilar metodlari boshqa mamlakatlar o‘qituvchilari metodlaridan nimasi bilan farq qiladi? kabi asosiy masalalar o‘rganiladi va tadqiq etiladi.

Tadqiqotning har to‘rt yillik davriyligida uzluksiz ravishda ishtirok etish global miqyosda mamlakatimiz ta’lim tizimining samaradorligini kuzatib borish imkonini beradi. Ushbu dasturlar O‘zbekiston Respublikasi milliy baholash tizimini takomillashtirish, kompetensiyaviy baholash tizimini joriy qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Quyida Matematika savodxonligi boyicha TIMSS (2019) Xalqaro baholash dasturidagi topshiriqlardan namunalar keltiramiz:

1 – topshiriq.

Noila 1 – sondan boshlab, "4 taga orttir" qoidasini ishlatib, ketma-ketlikni amalga oshirdi. Noilaning ketma-ketligi qanday edi?

1, 4, 8, 12, 16 B) 1, 4, 16, 64, 256 C) 1, 5, 9, 12, 16 D) 1, 5, 9, 13, 17

2 – topshiriq.

Bo‘yoq 5 litrlik banklarda sotiladi. Toxirga 37 litr bo‘yoq kerak. U necha banka bo`yoq sotib olish kerak?

3 – topshiriq

Doira, ichiga (.) foydalanib, teng yonli uchburchak chizing.

4 – topshiriq

Lola yuzligi bo`lmagan (0), toq, besh xonali son yozdi. Shu sonni aniqlang. A)100051 B)14037 C)48303 D)24074

5 – topshiriq .

Kozim to`g`ri to`rtburchak shaklidagi tennis maydonchasini aylanib chiqib, uni 72 qadamligini aniqladi. Maydonchaning bo`yi 11 qadam bo`lsa, bo`yi necha qadam bo`ladi?

6 – topshiriq

O`qituvchi o`quvchilarga: “Shunday shaklni belgilangki, uni bitta chiziq yordamida kvadrat va to`g`ri burchakli uchburchak hosil bo`lsin. ”- deb topshiriq beradi. Ular qaysi shaklni belgilashgan?

7 – topshiriq.

Berilgan ketma – ketlikdagi so`nggi raqamni aniqlang: 18, 27, 36, 45, 54,

8 – topshiriq.

Qaysi o`lchov birlikda tanga og`irligini aniqlash mumkin?

grammda B) kilogrammda C) sentnerda D) tonnada

9 – topshiriq.

Berilgan ketma – ketlik qonuniyatini aniqlang: 8, 20, 44, 92.

Berilgan raqamni 3 ga ko`paytirib, natijadan 4 ni ayirish; B) Berilgan raqamni 2 ga ko`paytirib, natijaga 4 ni qo`shish; C) Berilgan raqamni 2 ga bo`lib, natijani 5 ga ko`paytirish; D) Berilgan raqamni 4 ga bo`lib, natijani 10 ga ko`paytirish.

10 – topshiriq.

Yuk mashinasiga 1 tonna yuk ortish mumkin. Omborxonada 1200kg yuk bor. Yukning barini yuk mashinada bitta reysda manzilga yetkazish mumkinmi?

Xulosa o‘rnida tadqiqotning har to‘rt yillik davriyligida uzluksiz ravishda ishtirok etish global miqyosda mamlakatimiz ta’lim tizimining samaradorligini kuzatib borish imkonini beradi. Ushbu dasturlar O‘zbekiston Respublikasi milliy baholash tizimini takomillashtirish, kompetensiyaviy baholash tizimini joriy qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbekiston respublikasi xalq ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 30. 04. 2019 yil.
2. Sayidahmedov N. «Yangi pedagogik texnologiyalar». T. «Moliya» 2003 yil.
3. Farberman V. «Ilg‘or pedagogik texnologiyalar». T. «Fan» 2000 yil.
4. Ishmatov Q. «Pedagogik texnologiya». Namangan 2004 yil.
5. Mahkamova M. Mahmudova N. “SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL” 2022 (2) maqola.

TIBBIYOTDA KLINIK AXBOROTLARNI BOSHQARISH

Melibayeva Farog‘At Madaminovna

Farg‘ona jamoat salomatligini tibbiyot instituti, Farg‘ona shahri

Annotatsiya. Tibbiyotda axborot texnologiyalari fani ham boshqa fanlar qatorida olamni bilish uchun xizmat qiladi. Olamdagi har bir jonli va jonsiz mavjudod makonda va vaqtda o‘zgarib turadigan modda va quvvat ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Modda va quvvat dunyoning ikki

muhim mazmuni, uning ikki muhim tarkibiy qismidir. Lekin borlikni mavjud bo‘lishi va uni bilishning yana bir muhim va zarur mazmuni bor, bu ham bo‘lsa axborotdir. Mazkur maqolada tibbiyotdagi axborot texnologiyalari va klinik axborotlarni boshqarish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Kadrlar esa mavjud resurslarni to‘g‘ri baholay bilgan holda tajribada to‘g‘ri qo‘llay bilishi ham kerak.

Biologik va klinik axborotni boshqarishda tadqiqotlarning qo‘llanishi nihoyatda keng. Klinik axborotni boshqarish tizimi bevosita kommunikatsion tarmoqning katta qismini tashkil etadi. Shifokorlar kerakli ma’lumotlarni qidirishda ushbu tizimga tayanadilar. Bunda axborot almashinuvining elektron jihatlarini o‘rganganda quyidagilarga to‘xtalib o‘tamiz. Har bir jarayonning samarali va natijaviy bo‘lishini ta’minlashda uning tartibli, tizimli tashkil etish, texnik vositalardan, amaliy ko‘nikmalardan to‘g‘ri foydalanish maqsadli hisoblanadi. Sababi biotibbiy informatika savollari bilan shug‘ullanuvchilar uchun tizimli ishlash natijaviy maqsadga erishishni ta’minlaydi. Biotibbiyot hamda biotibbiy informatikaning integratsiyasi masalalari konseptual hisoblanadi. Sababi bu ikki fan aynan bir masalani yechishga qaratilgandir. Bunda malakali, o‘z ishining mohir ustasi bo‘ladigan kadrlarni o‘rgatish va yetishtirishni maqsad qilib olingan. Malakali kadrlar esa mavjud resurslarni to‘g‘ri baholay bilgan holda tajribada to‘g‘ri qo‘llay bilishi ham kerak. Bu masalani hal etishda ularga biotibbiy hisoblashlar qo‘l keladi. Tajribaning ortishi, kompyuter bilan to‘g‘ridan-to‘gri muloqot qila olish esa tartiblangan faoliyat yuritishni talab etadi. Aynan shu jihatdan jarayonlarni o‘rganish va hal etishda algoritmning to‘g‘ri tuzilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tabiiy til – odamlar munosabatidagi asosiy vosita hisoblanadi. Biotibbiyotda hamda sog‘liqni saqlashda birinchi bilim va ma’lumotlar xuddi ilmiy adabiyotlardagi maqolalardek, tizimdagi hisobotlar hamda matnli ma’lumotlar ombori tarmog‘i matn shaklida bo‘ladi. Tibbiyot idoralarida asosan hisobotlarni aytib berishdagi izohlarga qo‘yiladi Matnda agar qimmatli ma’lumotlar mavjud bo‘lsa, u yana kompyuter qayta ishlash uchun javobgar bir shaklda emas, balki tabiiy xususiyatlari va tilo‘zgaruvchanlikni sezilarli darajada idora qilish qiyin matnlar bo‘lgan, standartlashtirilgan ma’lumotlarni ko‘proq foydali avtomatlashtirilgan ilovalardan foydalanish, qo‘l ishlari sezilarli miqdorda qo‘llash, tizimli yoki kodlangan vakolatxonasi matn ma’lumotlarni aks ettirishga bag‘ishlangan. Klinik sohada, masalan, proffessorlar Kerol Fridman va Stiven B. Jonson muallifligidagi uchinchi nashri oldingi versiyasi, olingan bo‘ladi. Kodlaydiganlar kasalxonaga yilda tashxis va tartib mos billing kodlari tayinlash, ilmiy maqolalar asosiy mavzular vakili ishonib topshirilgan tibbiyot mos shartlarini Milliy kutubxonada indekers, va ma’lumotlar bazasi murabbiylari adabiyoti organizmlarning haqida genom va fenotipik ma’lumot qa’zib. Tabiiy tillarni qayta ishlash (NLP) biri yuqori ishonchliligi va qonuniylik bilan matn ma’lumotlarni tegishli avtomatlashtirilgan texnik vositalardan foydalanishga imkon beruvchi

tomonidan bu muammolarni bartaraf qilish hisoblanadi. NLP boshqa maqsadi ilmiy bilim, sifatini yaxshilash va sog‘liqni saqlash va tibbiy yordam iste’molchilar va bemorlarning harajatlarini o‘z ichiga oladi. Klinik parvarishlash orqali to‘plangan va ilmiy adabiyotlarda yoki Internetdagi chop etilgan matnlar katta miqdori, sotib va matnda uzatiladigan axborot ilm tashkil etish va yangi hodisalarni kashfiyot targ‘ib qilish maqsadida yanada kuchaytirilishi mumkin. Dastlab, balki individual bemorlarning parvarishlash uchun maqsad ochilish kiritmagan esa, masalan, tibbiy tarixi haqida ma’lumot, u qayta ishlanishi mumkin va bemorlar bo‘ylab naqsh aniqlash ulangan chiqariladi tez-tez ma’lumotlar o‘rta foydalanish deb ataladi, bu jarayonning, bunday samaradorligini qiyosiy o‘rganish kabi kompyuter ilm-fan, joriy muammolar ba’zi uchun va’da ko‘p ko‘rsatadi, fenotip ta’rifi, klinik tadqiqotlar, kasallik va farmakanadzora tushunish uchun gipoteza avlod. Adabiyot uchun NLP ilmiy kashfiyotlari va maqola orqali xuddi shu natijalarni aniqlash alohida maqola orqali to‘liq tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan xonaga kirish orqali yuqori darajasini tezlashtirilishi mumkin (ya’ni, kasalliklar, yon reaktsiyalar hisobotlar so‘nggi davolash), va maqolalar orasida bog‘lovchi ma’lumot (ya’ni . ye. biyomokelüler tizimi path). Shifokorlar uchun, elektron tibbiy yozuvlarni bilan o‘zaro va individual bemor qatnash NLP jarayoni klinisen bir necha ball qo‘llab-quvvatlash mumkin: davolash bemor jadvalning, NLP ulash va ko‘p yozuvlari va hisobotlar bo‘ylab tarqalgan ma’lumot integratsiya va kasal haqida tegishli dalillarni ta’kidlash uchun oshirish mumkin. Qarori vaqt va o‘zi o‘zgarishlar parvarishlash da, NLP orqali yozuvlari olingan axborot eHR ichida qaror qo‘llab-quvvatlash tizimlari yordam berishi mumkin. Sog‘liqni saqlash mutaxassislari ma’lumot hujjatlashtirish Nihoyat, yuqori sifatli Izohlar NLP asoslangan usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Kompyuterdan foydalanuvchi ko‘pincha u yoki bu hujjatlar- xatlar, maqolalar, xizmat yozuvlari, hisobotlar va boshqa materiallarini tayyorlash zaruriyatiga duch keladi. Hujjatlarni yuqori sifatda bosib chiqarilishini ta’minlash yoki katta hajmdagi murakkab hujjatlar, jurnallar yoki kitoblarni tayyorlash uchun foydalanuvchiga Microsoft Word matn muharriri dasturlaridan foydalanish qulaydir. Ushbu Microsoft Word matn muharrirning imkoniyatlarini quyida keltirilgan ba’zi amallardan ham bilish mumkin: - matnni terib tayyorlash va faylga yozish; - matnga qo‘shimcha kiritish, chiqarib tashlash, qatorlar, matn qismlarini almashtirish va matnni tekislash; - matnni turli shriftlarda bezash, orfografiyasi va grammatikasini tekshirish, boblar tayyorlash, matnni sahifalarga bo‘lib tashlash; - formula va jadvallar bilan ishlash hamda ularning chegalari va ichki rangini tanlash;- matnli hujjatlarga formulalar kiritish, so‘z va jumlalarni izlash va almashtirish, rasmlar chizish va matnga sodda bezaklar kiritish; - elektron pochta qutisidan olingan xabalarni tahrirlash va boshqa imkoniyatlar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmadaliyeva G. H. et al. YARIMO‘TKAZGICH MODDALAR VA ULARNING XARAKTERISTIKALARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 91-93.
2. Yusubjanovna A. M. BIRINCHI TIBBIY YORDAMNING AHAMIYATI VA UNI BAJARISHNING UMUMIY QOIDAIARI //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 1.
3. Abdusubxon o‘g‘li U. S. et al. YURAK ISHEMIK KASALLIKLARI VA ULARNI OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY USULLARI //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 6.
4. Abdusubxon o‘g‘li U. S. et al. BUYRAK TOSH KASALLIKLARINI HOSIL BO‘LISHIDA GIPODINAMIYANING TA’SIRI //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 6.
5. Usmonov S. , Alisherjonova F. INSON TANASIDA BO‘LADIGAN ELEKTR HODISALARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 4 Part 2. – С. 200-203.
6. Usmonov S. , Isroilov S. CHAQALOQLARDA QORIN DAM BO‘LISHINING SABABLARI, DAVOLASH USULLARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 4 Part 2. – С. 196-199.
7. Isroil o‘g‘li X. M. , Abdusubxon o‘g‘li U. S. GIPERTONIYA KELIB CHIQISHI SABABLARI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON" MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS". – 2023. – Т. 2. – №. 5.
8. Abdusubxon o‘g‘li U. S. et al. BOLALARDA GASTROENTRITNING NAMOYON BO‘LISHI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON" MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS". – 2023. – Т. 2. – №. 5.
9. Abdusubxon o‘g‘li U. S. et al. KAM HARAKATLIK NATIJASIDA KELIB CHIQADIGAN KASALLIKLARNI XALQ TABOBATI BILAN DAVOLASHNING TOP 10 TA USULI //SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS. – 2023. – Т. 1. – №. 3.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA BUNYODKORLIK MILLIY G‘OYASI TAMOYILLARINI SHAKLLANTIRISH

Sayliyeva Mashkura Muxtorkuli qizi
ChDPU Boshlang‘ich ta’lim metodikasi o‘qituvchisi
Nasrullayeva Dilnoza Baxtiyor qizi CHDPU talabasi

Annotatsiya. Bunyodkorlik milliy g‘oyasi - bu jamiyatning yuksalishi, taraqqiyoti va farovonligi uchun xizmat qilish maqsadida har bir fuqaroning faol ishtirokini ta’minlashni nazarda tutadi

Kalit so‘zlar: Tarix, milliy g‘oya, madaniy, ma’naviy, bunyodkorlik.

Har bir jamiyatning kelajagi uning yosh avlodining tarbiyasiga, ularning axloqiy va ma’naviy qiyofasiga bog‘liq. Milliy g‘oya, o‘z navbatida, har bir mamlakatning tarixiy, madaniy va ma’naviy asoslari, shuningdek, ularning jamiyatda qanday qadriyatlarni rivojlantirish istagi bilan bog‘liqdir. Bunyodkorlik, o‘z yurtinga xizmat qilish va uni rivojlantirish g‘oyasi, milliy g‘oyaning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida bunyodkorlik g‘oyalarini o‘quvchilar ongida shakllantirish, ularning kelajakdagi jamiyatga faol fuqarolar sifatida tayyorlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bunyodkorlik milliy g‘oyasining tamoyillarini shakllantirishning ahamiyati va usullari ko‘rib chiqiladi.

Bunyodkorlik milliy g‘oyasi - bu jamiyatning yuksalishi, taraqqiyoti va farovonligi uchun xizmat qilish maqsadida har bir fuqaroning faol ishtirokini ta’minlashni nazarda tutadi. Bu g‘oya nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy taraqqiyot bilan, balki milliy mustaqillikni himoya qilish, qadriyatlarni saqlash, ma’naviy boylikni rivojlantirish kabi jihatlar bilan ham bog‘liqdir. Bunyodkorlik g‘oyasini shakllantirishda o‘quvchilarga jamiyatga xizmat qilishning ahamiyatini tushuntirish, ularni faol va mas’uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarga bunyodkorlik g‘oyasini shakllantirish, ularni ma’naviy va axloqiy jihatdan mustahkamlashga yordam beradi. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘zlarining dunyoqarashini va qadriyatlarini shakllantirayotgan davrda turadilar. Shuning uchun, ularga bunyodkorlik g‘oyasini o‘rgatish, kelajakda jamiyatni yuksaltirishga hissa qo‘shadigan muhim insonlarni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega.

Yurtni sevgisi va vatanparvarlik: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z Vatani va uning tarixiga nisbatan mehr-muhabbatni rivojlantiradilar. Ularni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash,

milliy qadriyatlarimizni hurmat qilish va unga xizmat qilishni o‘rgatish orqali bunyodkorlik milliy g‘oyasini shakllantirish mumkin.

Mehnat va qurilish ruhini rivojlantirish: Bunyodkorlik g‘oyasi, faqat davlatni rivojlantirish bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchilarda mehnatni qadrlash, yangi narsalarni yaratish va o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashish ruhini ham rivojlantirishni nazarda tutadi.

Keng qamrovli fikr yuritish: O‘quvchilarda keng fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatni his qilishni rivojlantirish bunyodkorlik milliy g‘oyasining asosiy tamoyillaridan biridir. O‘quvchilarga jamiyatdagi o‘z o‘rnini tushunishga, jamoat ishlarida ishtirok etishga, va shaxsiy manfaatlardan ko‘ra umumiy yaxshilikni ustuvor deb bilishga yordam berish kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bunyodkorlik g‘oyasini shakllantirishda o‘qituvchilar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan bir qator usullar mavjud:

Milliy tarixni o‘rgatish: O‘quvchilarga o‘z tariximizni o‘rganish, milliy qahramonlarimiz va ularning Vatanga qilgan xizmatlari haqida ma’lumot berish orqali bunyodkorlik g‘oyasini shakllantirish mumkin. Tarixiy misollar o‘quvchilarga mustaqillik va yurtga xizmat qilishning ahamiyatini tushuntiradi.

Vatanparvarlik tarbiyasi: O‘quvchilarni Vatanni sevishga, uning boyliklarini asrab-avaylashga va uni rivojlantirishga xizmat qilishga o‘rgatish kerak. Buning uchun maxsus darslar, musobaqalar, san’at va madaniyat tadbirlari orqali o‘quvchilarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin.

Ijodiy loyihalar va amaliy mashg‘ulotlar: O‘quvchilarga jamiyatda o‘z o‘rnini topish va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish kerak. Masalan, maktabda obodonlashtirish, tabiiy resurslarni tejash, ijtimoiy yordam ko‘rsatish kabi loyihalarda faol ishtirok etish orqali o‘quvchilar bunyodkorlik tamoyillarini amaliy ravishda o‘zlashtiradilar.

Mehnatning qadri: O‘quvchilarga mehnatning ahamiyatini o‘rgatish, shuningdek, ularni o‘z mehnatlarini qadrlashga undash bunyodkorlik milliy g‘oyasining bir qismidir. Mehnat va qurilish ishlarini o‘rganish, yangi bilimlar olish, amaliyotda qo‘llash orqali o‘quvchilarda bunyodkorlikni rivojlantirish mumkin.

Ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish: O‘quvchilarga o‘z atrof-muhitiga, jamiyatga va odamlar bilan munosabatlarga mas’uliyatli bo‘lishni o‘rgatish zarur. Ularni jamoaviy ishlar, ko‘ngilli faoliyatlar orqali jamiyat oldida mas’uliyatni his qilishga undash kerak.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida bunyodkorlik milliy g‘oyasini shakllantirish, o‘quvchilarni nafaqat bilim bilan, balki yuksak ma’naviyat, ijtimoiy mas’uliyat va yurtparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. O‘quvchilarga bunyodkorlik g‘oyasini o‘rgatish, ularni jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, kelajakda samarali va faol fuqaro bo‘lishga tayyorlaydi. Bu g‘oya, nafaqat milliy

g‘oya, balki har bir o‘quvchining o‘z hayotini qurishda mustahkam poydevor bo‘ladi. Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limda bunyodkorlik milliy g‘oyasining tamoyillarini shakllantirish, yosh avlodning vatanparvar, mehnatkash va mas’uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalanishida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Y**uldashev, S. (2010).** *Vatanparvarlik va bunyodkorlik g‘oyalarini yosh avlod ongida shakllantirish*. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Kitobxonlik.

2. ekmuratovna, T. S. (2024). DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON THE STEAM APPROACH. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 11(04).

3. Sayliyeva, M. (2023). Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining milliy tarbiya ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasi. Academic research in educational sciences, 4(3), 390-393.

4. Bekmuratovna, T. S. (2024). BO ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH TA’LIM O ‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI STEAM YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH. Science and innovation, 3(Special Issue 16), 310-312.

O‘QITUVCHI KASBIY-IJODIY KOMPETENTLIGINI MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA OSHIRISH USULLARI

Negmatov Olimjon Omilxanovich
Jizzax viloyat Pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya. Maqolada o‘qituvchining kasbiy-ijodiy kompetentligi ko‘rib chiqilgan. Pedagogik faoliyatning xususiyatlari, zamonaviy pedagogik tizimni takomillashtirish zarurligini hisobga olgan holda, kasbiy bilim psixologik va pedagogik mahorat, o‘qituvchining kasbiy va ijodiy malakasini shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: ijodkorlik, o‘qituvchining kasbiy mahorati, kasbiy va ijodiy kompetentligi, malaka oshirish ijodiy faoliyati.

Аннотация. В статье рассматривается профессионально-творческая компетентност учителя. Особенности педагогической деятелности с учетом необходимости совершенствования современной педагогической системы включают формирование профессионалных знаний, психолого-педагогических навыков, профессионалных и творческих способностей учителя.

Ключевые слова: креативност, профессионализм, профессионально-творческая компетентност педагога, творческая активност профессионалного развития

Abstract. The article discusses the professional and creative competence of the teacher. Features of pedagogical activity, taking into account the need to improve the modern pedagogical system, include the formation of professional knowledge psychological and pedagogical skills, professional and creative skills of the teacher.

Keywords: creativity, professional skills of the teacher, professional and creative competence, creative activity of professional development.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida pedagog kadrlarning ijodkorlik va kasbiy-kreativlik sifatlarini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirishda ularning innovatsion faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha keng ko‘lamdagi ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini baholashda STEAM, STRIM, SMART texnologiyalariga asoslangan zamonaviy usullarini joriy qilish, pedagogik jarayonlarda axborot xizmati tizimini kouching va menejerlik tamoyillariga muvofiq takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada davlatimiz o‘qituvchi tayyorlash muammolariga yaqindan e’tibor bermoqda. Professional o‘qituvchiga talab kasbiy - ijodiy kompetentligini rivojlantirish masalasini dolzarb qilib qo‘ydi.

O‘qituvchilik kasbining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri o‘qituvchilar o‘z bilimlari, salohiyati va ko‘nikmalarini uzluksiz to‘ldirib borishini taqozo etadi. O‘qituvchilarning malakasini oshirish an’anaviy ravishda doimo tizim sifatida, ya’ni ijtimoiy tajribalarni uzatish, o‘qituvchilarda yangi tushuncha va ko‘nikmalarni shakllantirish, ularni pedagogik faoliyatga texnologik va funksional tayyorlash tizimi sifatida ko‘rib chiqilgan.

Malaka oshirish kurslarida o‘qituvchilar malakasini oshirishning eng asosiy maqsadi o‘qituvchi shaxsiga va uning faoliyatiga qo‘yilayotgan ijtimoiy- iqtisodiy talablar bilan zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda o‘qituvchi oldida turgan, ta’limni modernizatsiya qilish, yangilash hamda ta’limni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan maqsad va muammolarni, shuningdek, o‘qituvchilarning o‘z kasbi va lavozimi yo‘nalishidagi funksiyalarini bajarishga tayyorgarligini yetarli darajada emasligini inobatga olgan holda zamonaviy ijtimoiy talablar asosida mavjud muammolarni bartaraf etishdan iborat.

O‘qituvchining malakasini oshirish jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri ulardan biri faoliyat ko‘rsatayotgan ta’lim muassasasida raqobat maydonini tasvirlovchi ta’limiy muhit, “ustoz-shogird” munosabatlari va o‘qituvchilarning o‘zaro ta’sir ko‘rsatish jarayoni hisoblanadi.

O‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo‘nalishida tashkil yetiladigan qulay ta’limiy muhitda ularning mustaqil ravishda o‘z ustida ishlashi, o‘zini-o‘zi rivojlantirishi, o‘zini-

o‘zi namoyon yetishi, mustaqil ta’lim olishga qiziqishini shaklantirish uchun tashkil yetiladigan motivlashtirish jarayonlarida mustaqil ta’lim jarayonlarini tashkil yetishning loyihalashtirish, tadqiqotchilik va suhbat uslublari maqsadga muvofiq uslublar hisoblanadi.

Bunday sharoitlarda avvalgi tajribalar takomillashadi, o‘qituvchilar o‘z faoliyatini tahlil qilishlari uchun shart-sharoitlar yaratiladi, ishtirokchilar tomonidan o‘z faoliyatini tahlil qilish va ob’ektiv baholash amalga oshiriladi.

Demak, o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo‘nalishida tashkil yetiladigan qulay ta’limiy muhitda ularning mustaqil ta’lim olishi uchun qiziqish shakllantirish va rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik omillardan biri motivlashtirish hisoblanadi. Tajribalardan ma’lumki, inson hayotda kasbiy va shaxsiy jihatdan rivojlanishida uning o‘zi tomonidan mustaqil ravishda yegallangan tushunchalari muhim ahamiyat kasb yetadi va bu tushunchalar mustaqil ta’lim jarayonida, ya’ni yangiliklar yoki zaruriy tushunchalar unga biror bir shaxs tomonidan an’anaviy ravishda o‘rgatilmaganda, refleksiv faoliyat jarayonida shakllanib, rivojlanib boradi.

Kasbiy faoliyat yuqori kasbiy malaka va kompetentlikni, faoliyatni unumli amalga oshirish imkonini beruvchi turli xil samarali kasbiy ko‘nikmalarni nazarda tutadi. Shunday qilib, professionalizmning shakllanishi shaxsiy va kasbiy sifatlarni rivojlantirish hamda kasbiy mahoratga erishish bilan bog‘liq.

Pedagogik faoliyatning o‘ziga xosligi shundaki, o‘qituvchi shaxsi uni amalga oshirishning eng muhim shartidir. O‘qituvchining ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishi, uning kasbiy rivojlanish predmetiga aylanganda, uning kasbiy rivojlanishining eng yuqori darajasi hisoblanadi. O‘qituvchi o‘z faoliyatini o‘zgacha boshqaradi va tartibga soladi, pedagogik vazifalarni hal etishga ijodiy yondashadi. Yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash o‘z navbatida yangi psixologik qobiliyatlarning rivojlanishiga olib keladi. Shunday qilib, ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida o‘qituvchi nafaqat kasbiy faoliyat sub’ektiga, balki shaxsga ham aylanadi.

Pedagogik faoliyatning yana bir o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro munosabatlariga asoslanadi. O‘qituvchi faoliyati muvaffaqiyatining maqsadlari, tashkil etilishi va baholanishi o‘quvchining faolligini aks ettiradi. O‘qituvchi o‘z o‘quv faoliyatini shaxs shakllanishining ajralmas jarayoni sifatida qabul qilishi, shaxsning rivojlanishi va shakllanishini ta’minlovchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar tashkilotchisi sifatida harakat qilishi lozim, bu esa o‘qituvchining kasbiy ijodiy faoliyatini tashkil etishga tayyorligini xolisona talab etadi. Tayyorlik deganda ijodiy shaxs sifatida o‘zlikni anglash, ijodiy faoliyat, mustaqillik, bilim, ko‘nikma, bilimlar jarayonini tashkil etish tajribasi, ish, muloqot ijodiy faoliyat sifatida o‘quvchilar bilan ijodiy o‘zaro munosabatning zarurligi tushuniladi.

Pedagog olimlar nuqtai nazaridan pedagogik faoliyatning ijodiy vazifalarni hal etish jarayoni sifatida professionologik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik ijodkorlikning o‘ziga xosligi shakllangan faoliyat ko‘nikmalari va bu metodlarni modifikatsiyalashni talab qiladigan pedagogik jarayonning rivojlantiruvchi tuzilmasining o‘zaro munosabatlarida yotadi, chunki o‘quv jarayonida egallangan metod va malakalar doimiy o‘zgaruvchan, nostandart sharoitlarda qo‘llaniladi.

2. O‘qituvchi va o‘quvchini hamkorligi va o‘qituvchining ijodiy sa’y-harakatlarini butun pedagog xodimlar ijodi bilan muvofiqlashtirish pedagogik ijod uchun zarur shart - sharoitdir.

3. O‘qituvchining ijodiy jarayonini jamoat sharoitida amalga oshirish o‘qituvchining o‘z ruhiy holatlarini boshqara olishi, o‘zlarida va o‘quvchilarda ijodiy sog‘lomlikni yuzaga keltira olish qobiliyatini talab yetadi.

Motivatsion va qiymat komponenti, ko‘rib turganimizdek, o‘qituvchi kasbiy mahoratining tarkibiy yelementi bo‘lib ajralmas shaxsiy ta’lim hisoblanadi. U o‘qituvchining ijodkorlikka bo‘lgan ehtiyojini ta’minlaydi, bu esa o‘z-o‘zini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Kompetentlik yondashuviga oid psixologik-pedagogik adabiyotlarni ko‘rib chiqish shuni ko‘rsatadiki, kasbiy kompetentlikning turli ta’riflari mavjud. Masalan, chet yellik tadqiqotchilar bu tushunchani ko‘pincha “chuqur bilim”, “yetarli vazifani bajarish holati”, “haqiqiy faoliyatni bajarish qobiliyati”, “harakatlar samaradorligi” deb hisoblaydilar.

V. A. Slasteninning fikricha, yuqorida qayd yetilgan pedagogik faoliyat muammolarini ijodiy hal yetishga tayyorlik-o‘qituvchi kasbiy mahoratining hal qiluvchi belgisidir. Bu tayyorgarlikning shakllanishi faoliyat motivlari, maqsad va shart-sharoitlardan kelib chiqib, ularni qayta tashkil yetish orqali shaxsning individual sifatlariga asoslanadi. Shakllangan tayyorlik motivlar, munosabat va shaxs xususiyatlarining tizimini shakllantirishni anglatadi.

A. V. Tutolmin professional va ijodiy kompetentlikni "ajralmas tomon", "ajralmas kasbiy kompetentlikning quyi tizimi" deb ataydi va uzluksiz pedagogik ta’lim tizimida uni shakllantirish jarayonining samaradorligiga erishish uchun bir qator shartlarga javob berish zarur deb hisoblaydi:

1. Kasbiy va ijodiy kompetentlikni kasbiy va shaxsiy komponentlarning biri ikkinchisining hukmronligi bilan ta’minlanadi.

2. Kasbiy - ijodiy kompetentlikning tizimlashtiruvchi omili ijodiy yondashuvni amalga oshirishga tayyorlikdir.

3. Kasbiy-ijodiy kompetentlikni shakllantirish ta’lim sohasida mutaxassislar tayyorlashning ustuvor sohasi hisoblanishi lozim.

4. O‘quvchi - o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida ularning ijodiy o‘z-o‘zini rivojlanishini belgilovchi sub’ekt-faoliyat integrativ-rivojlantiruvchi yondashuvdan foydalanish lozim.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, o‘qituvchi faoliyatiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar uni kasbiy - ijodiy kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltiradi, bu esa uzviy kasbiy kompetentlikning ajralmas qismi hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik tizimni takomillashtirish ta’lim jarayonini shunday tashkil etishni taqozo etadiki, bu tizim asosida o‘qituvchining kasbiy va ijodiy kompetentligini shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуллаева Ш. А. , Собиров Б. Б. , Замонавий ўқитувчининг компетенцияси. Тошкент 2016 й

2. Сластёнин, В. А. Профессионализм учителя как явление педагогической кул- туры [Текст] // Педагогическое образование и наука. – 2008. – № 12. – С. 4–15.

3. Тутолмин, А. В. Формирование профессионально-творческой компетентности педагога начального образования: методика и анализ эксперимента [Текст]. – Глазов : Изд-во Глаз. гос. пед. ин-та, 2006. – 256 с.

O‘SMIRLIK DAVRIDA AGRESSIV XULQNI KAMAYTIRISHDA PEDAGOGIK JARAYONLARNING TA’SIRI

Nahalbaeva Nigora Turdi qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti
nigoranahalboeva@gmail. com

Anotatsiya. Ushbu maqolada o‘smirlik davrida agressiv xulqni kamaytirish uchun samarali pedagogik jarayonlar yoritilgan. Maqola pedagoglar va tadqiqotchilar uchun dolzarb bo‘lib, o‘smirlarning psixologik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Chunki har bir davr singari o‘smirlik davrida ham o ‘ziga xos pedagogik va psixologik jarayonlar ishtirokchisiga aylanadi va bu jarayonlarda ular ishtirok etishlari uchun psixologik jihatdan muammolarga duch kelmasligi kerak.

Kalit so‘zlar: O‘smirlik davri, agressiv xulq, pedagogik jarayonlar, psixologik rivojlanish, konfliktologiya, maktab muhitida agressiya, agressiyani kamaytirish usullari, pozitiv psixologiya, pedagogik strategiyalar, ota-ona va pedagog hamkorligi

Аннотация. в трех статьях рассмотрены эффективные педагогические процессы возобновления агрессивного поведения в подростковом возрасте. Статья посвящена

исследованиям для педагогов и исследователей, а также включает заболевания, которые на них влияют. Потому что, как и каждый период, подростковый возраст становится участником собственного педагогического и медицинского ухода, и у них не должно возникнуть проблем при участии в этих процессах.

Ключевые слова: Подростковый возраст, агрессивный период, педагогические процессы, поведение, конфликтология, агрессия в школьной среде, методы коррекции агрессии, позитивная психология, педагогические стратегии, родительско-педагогическое сотрудничество.

O‘smirlik davri — shaxs rivojlanishining o‘ziga xos bosqichi bo‘lib, bu bosqichda yoshlar shaxs sifatida shakllanish jarayonini boshdan kechiradilar. Bu davrda o‘smirlar yosh, kuchli ehtiroslar va o‘zgaruvchan kayfiyat bilan ajralib turadilar. Ular o‘z o‘rnini jamiyatda topishga intiladilar va mustaqil bo‘lish istagida bo‘ladilar. O‘smirlik davri inson hayotidagi o‘ta muhim va murakkab bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu davrda o‘smirlarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanish jarayonlari tezlashadi. Biroq, bu jarayonlar bilan birga, ko‘pincha agressiv xulqning yuzaga kelishi ham kuzatiladi. Agressiv xulq nafaqat o‘smirning o‘z hayotida, balki atrofdagilar bilan bo‘lgan munosabatlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘smirlar orasidagi turli xil xulq-atvor xususiyatlarini o‘rganish bilan bir qatorda ular orasidagi tajavvuzkorlik xulqi va uning suitsidal axloq shakllanishi uchun ta’sir qilishi va uning psixologik asoslarini o‘rganib chiqish muhim jarayon hisoblanadi hamda faqatgina ularni amaliy jihatdan tahlil qilmasda, nazariy jihatlarini ham o‘rganib chiqish foydadan xoli bo‘lmaydi. Chunki bu mavzu yangi mavzu hisoblanmaydi va bu mavzu haqidagi ilmiy qarashlar qadimdan ya’ni Aristotel, Platon hamda Pifagor tomonidan o‘rganilgan hamda muhokama qilingan mavzulardan hisoblanadi. Maqola ushbu muammoning pedagogik echimlariga e’tibor qaratadi va agressiv xulqni kamaytirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali pedagogik jarayonlarni tahlil qiladi.

O‘smirlik yosh davri – o‘z-o‘zini anglash, kimligini tushunishga va uni shakllantirish davri. O‘smirlar ko‘pgina holatlarda o‘z mustaqilligini sinab ko‘rish, o‘zining shaxsiy chegaralarni himoya qilish va o‘z kuchiga nisbatan ishonch hosil qilish uchun tajovvuzkor xulqni namoyon etadi. Bu jarayon ularga o‘z identifikatsiyasini shakllantirishga va o‘z-o‘zini hurmat qilishni va ishonchni mustahkamlashga yordamchi bo‘ladi. Aynan bu davrda o‘smir yoshidagilar turli xil kasb egalari bo‘lishni ham xohlab qolishadi.

O‘smirlik davridagi shaxsning markaziy neoformatsiyasi - bu o‘z-o‘zini anglashning yangi darajasining shakllanishi, men - tushuncha, uning xarakterli xususiyati kattalik tuyg‘usi - o‘smirning kattalar sifatida o‘ziga bo‘lgan munosabati, o‘zini namoyon qilish istagi bilan tavsiflanadi. Kattalar dunyosida tan olinish istagi va o‘z o‘zini anglash jarayoni rivojlanayotgan

shaxsni har qanday jamiyatda va har qanday vaqtda katta ortiqcha yuklarni boshdan kechirishga majbur qiladi. O‘smirlik davriga kelib aksariyat bolalar inqiroz davriga duch kelishi munosabati bilan o‘smirda ko‘plab psixologik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Ular qatorida tajavvuzkorlik xulqi, suitsidal ahloq, depressiya va turli xil agressiv munosabatlar ishtirokchisiga aylanib qolish kabi muammolardir. Tajovuzkorlik o‘smirlik davrida turli omillar ta’sirida namoyon bo‘ladi va bu xulqning shakllanishiga ijtimoiy va psixologik omillar bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘smirlik davridagi tajovuzkorlik xulqining ijtimoiy-psixologik jarayonlar bilan aloqadorligi o ‘rganilib uning bir nechta funksiyalari farqlanadi. Agressiv xulqning oldini olishda pedagogik jarayonlarning muhim roli ta’kidlanadi. Pedagoglar va ota-onalar uchun maxsus treninglar va dasturlar ishlab chiqish taklif etiladi.

O‘smirlar tajovvuzkor xulq orqali ijtimoiy muhitda jamiyat reaktsiyasi bilan to‘qnashib, ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtiradi. Kattalar va tengdoshlarning tajovuzkor xatti-harakatlarga nisbatan bergan bahosi va jazosini boshdan kechirish orqali ular qabul qilinadigan xulq chegaralarini tushunadi va o‘z harakatlarini shu me’yorlarga moslashtirishni hamda jamiyatda qabul qilingan xulq me’yorlari chegarasini o‘rganish orqali o‘z xulq-qtvorini unga moslashtiradi. Tajavvuzkorlikning asosiy sabablari shaxsiy xususiyatlar, oilaviy va ijtimoiy muhit, stress va boshqalar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu xulq-atvorni tushunish va boshqarish, shaxsning o‘zini nazorat qilish, salbiy hissiyotlarini ifoda qilishning sog‘lom yo‘llarini topish orqali kamaytirilishi mumkin. Inson tajavvuzkorlik holatida irodaviy holati sustlashadi va o‘zini nazorat qila olmay qoladi.

O‘smirlik davrida tajovuzkorlikning namoyon bo‘lishi shaxsiy o‘sish, ijtimoiy moslashuv, va psixologik jihatdan barqarorlik uchun muhim ahamiyatga ega. Biroq, tajovuzkorlik xulqi konstruktiv yo‘nalishda boshqarilmasa, u o‘smirlarning ruhiy holatiga va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, tajovuzkorlik xulqini boshqarish uchun maktab, oila va jamiyatning birgalikdagi harakatlari muhimdir. Bu omillar o‘smirlarning ijtimoiy va psixologik jihatdan yetuk shaxslar sifatida rivojlanishiga zamin yaratadi. O‘smirlar tajovuzkorligini boshqarish, ularga to‘g‘ri yo‘nalish berish va ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish orqali ularning o‘z-o‘zini anglashini kuchaytirish va ichki muammolarini konstruktiv tarzda hal qilishlariga yordam berish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ковалёв, А. Г. Возрастная и педагогическая психология. Москва: Просвещение. (1988).

2. Миллиган, Р. Д. Understanding Juvenile Delinquency: Theories and Interventions. Routledge. (2016).

3. Шнейдер, Б. Х. Deviant Peer Influences in Programs for Youth: Problems and Solutions. Guilford Press. (2007).

4. Каршибоева Г. А. Эмоциональные аспекты при суицидальной поведении подростка //EDITOR COORDINATOR. 2021. С. 304.

5. Каршибаева Г. А. Факторы и причины суицида //Scientific Impulse. 2022. Т. 1. №. 2. С. 651-656.

6. Каршибаева Г. А. Ўсмирларда суицидал хулқнинг олдини олишда амалга ошириладиган психопрофилактик чора-тадбирлари. “Таълим ва инновацион тадқиқотлар” илмий услубий журнал, 2021 йил, махсус сон. 298-305 ст.

INTERNET KONTENTLARI TA’SIRIDA SODIR BO‘LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOIYLASHUV SHAKLLARI

Nomozov Xurshid Shavkat o‘g‘li
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent
nomozovnomozov2@gmail. com

Annotatsiya. Maqolada internet-makon shaxsning negativ ijtimoiylashuviga ham yo‘l ochmoqda. Uning ayrim kontentlari shaxslararo muloqotni haddan tashqari virtuallashtirib yubormoqda, kishilar kognitiv qobiliyatlarini zaiflashtirmoqda, ularni axloq normalariga zid hatti-harakatlarga undamoqda, turli ijtimoiy illatlarga tobe qilib qo‘ymoqda. Ba’zi jamiyat a’zolarining jinoyat yo‘liga kirishida, g‘ayriinsoniy g‘oyalar ta’siriga tushishida ham internet resurslarining ta’siri mavjud ekanligini ilmiy jihatdan ochib berilgan va dalillangan

Kalit so’zlar: Internet-makon, axloq, xulq-atvori, axloqiy tuyg‘ular, axloqiy bilim, resurs, diniy nuqtainazar, insoniyat.

Аннотация. В статье интернет-пространство открывает путь к негативной социализации личности. Некоторые его содержания чрезмерно виртуализируют межличностное общение, ослабляют познавательные способности людей, побуждают их вести себя вопреки моральным нормам, подвергают различным социальным порокам. Научно выявлено и доказано, что существует влияние интернет-ресурсов на некоторых членов общества, вступающих на путь преступности и находящихся под влиянием антигуманных идей.

Ключевые слова: Интернет-пространство, мораль, поведение, нравственные чувства, моральные знания, ресурс, религиозная точка зрения, человечность.

Abstract. In the article, the Internet space opens the way to negative socialization of the individual. Some of its contents excessively virtualize interpersonal communication, weaken the cognitive abilities of people, encourage them to behave contrary to moral norms, and subject them to various social vices. It has been scientifically revealed and proven that there is an influence of Internet resources on some members of society who enter the path of crime and are under the influence of inhumane ideas.

Keywords: Internet space, morality, behavior, moral feelings, moral knowledge, resource, religious point of view, humanity.

Shaxs ijtimoiylashuvi nuqul ijobiy xususiyat va yo‘nalishga ega bo‘lgan jarayon emas. Jamiyat a’zosi o‘z umri davomida nafaqat ijobiy va progressiv xarakterdagi, balki salbiy va regressiv xususiyatga ega bo‘lgan bilim va g‘oyalar, qadriyatlar va normalarni ham o‘zlashtirishi mumkin. Ularning birinchisi *pozitiv sotsializatsiya* deb atalsa, ikkinchisi *negativ sotsializatsiya* deyiladi. Ijtimoiylashuvning birinchi ko‘rinishi umumijtimoiy maqsad va manfaatlarga xizmat qiladigan ijtimoiy tajribalarning o‘zlashtirilishi bilan intiho topsa, ikkinchisi jamiyat a’zosini salbiy, g‘ayriijtimoiy tajribalar sari yetaklab keladi.

Shaxs ijtimoiylashuvining u yoki bu yo‘nalishdan ketishi o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladigan jarayon emas. Bunga turtki beradigan aniq omillar mavjud. Masalan, jamiyatdagi sog‘lom ma’naviy-ruhiy muhit, davlatning adolatli va oqilona siyosati, makroiqtisodiy barqarorlik, oila, mahalla va mehnat jamoalaridagi maqbul vaziyat, ijtimoiy soha obyektlarining funksional layoqatliligi, yuksak ma’naviy madaniyat – bularning barchasi pirovardida pozitiv ijtimoiylashuv uchun shart-sharoit yaratadi. Aksincha, mazkur subyektlardagi har qanday salbiy tendensiya, ularning turg‘unligi yoki tanazzuli shaxs ijtimoiylashuviga negativ tus beradi.

Internet-makon shaxs ijtimoiylashuvining psixologik va ijtimoiy mexanizmlarini harakatga keltiruvchi ijtimoiy institutga aylangani bois u boshqa subyektlar kabi ham pozitiv, ham negativ ijtimoiylashuv manbaiga aylanmoqda. Bir tomondan, avvalgi paragrafda ochib berilganidek, shaxs uning yordamida turli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy bilim va faoliyat normalarini o‘zlashtirmoqda, madaniy saviyasini yuksaltirmoqda, ijtimoiy jarayonlar va shaxslararo muloqotda ishtirok etmoqda. Biroq, ikkinchi tomondan, internet-makonning ayrim kontentlari salbiy xarakterdagi ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishga imkon yaratmoqda. Buni quyidagilarda ko‘rish mumkin.

Birinchidan, internet-makonning ayrim kontentlari jamiyat a’zolari o‘rtasida kechadigan muloqotga virtual tus bermoqda. Tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida muloqot shaxs ehtiyojlarini qondirishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib kelgan. Uning davomida inson boshqa

jamiyat a’zolari bilan emotsional, intellektual, ma’naviy, ijtimoiy qadriyatlarni almashingan. [1] Bunday muloqot kechishi uchun sheriklar mavjud bo‘lishi taqozo qilinadi, albatta. Ular bilan aloqalar esa turli shakllarda sodir bo‘lishi mumkin. Bizning davrimizga kelib, internet-makon ham shaxslararo muloqot maydoniga aylandi. Buning natijasida jamiyat a’zolarining real muloqot uchun sarflagan vaqtlari davomiyligi kamayib, internet-makonda, jumladan shaxslararo muloqotni amalga oshirish imkonini beradigan ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazgan vaqti davomiyligi oshib bormoqda. (Biz birinchi bobda bu vaqt miqdori bir o‘rtacha foydalanuvchi uchun sutkasiga yetti soatga yetganini aytib o‘tdik). Boshqacha aytganda, zamona kishisining o‘zgalar bilan muloqoti tobora virtuallashib bormoqda.

Yuzaki qaraganda, bunday o‘zgarishlar jiddiy tashvish tug‘dirmaydigandek ko‘rinadi. Aslida esa muloqotning virtuallashuvi shaxs do‘stlarining ham virtuallashuviga, real muloqot tanqisligiga, real muloqot malakalarining zaiflashuviga olib kelmoqda. Bugungi kunda aksariyat jamiyat a’zolarining virtual do‘stlari miqdori real do‘stlar sonidan ko‘proq bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun bir binoda jamlangan bir necha kishi ayni paytda real muloqot qolib, planshet, telefon yoki smartfon orqali boshqalar bilan muloqotga kirishishi odatiy holga aylanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Internet-makondagi virtual muloqotning xususiyatlaridan biri shundaki, u shaxsga anonim sifatida qolish imkonini beradi. Bunday anonimlik, bir tomondan, insonga o‘z fikrlarini erkin bayon etishda qo‘l kelmoqda. Ikkinchi tomondan esa, anonimlik shaxsning muloqot chog‘idagi axloqiy mas’uliyatini zaiflashtirmoqda. Aynan shuning uchun ijtimoiy tarmoqlarda boshqalarni haqorat qilish, kamsitish, yolg‘on ma’lumotlar berish hollari ko‘plab uchraydi. Internet-makondagi virtual muloqot chog‘ida tuhmat va haqorat hollari shu qadar ko‘paydiki, turli mamlakatlar uning uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaror qildilar. Masalan, Yaponiya parlamenti 2022 yilning 13 iyun kuni ijtimoiy tarmoqlarda haqoratga uchragan boshlovchining o‘z joniga qasd qilishi fonida onlayn haqorat uchun qamoq jazosi tayinlash mumkin bo‘lgan qonunni qabul qildi[2]. O‘zbekistonda ham Jinoyat kodeksining 139-140 moddalariga internet tarmog‘i axborot resurslari orqali tuhmat va haqorat uchun javobgarlik biriktirilmoqda[3].

Axloq normalariga zid xulq-atvorning shakllanishiga seksual xizmatlarni taklif qiluvchi saytlar ham sabab bo‘lmoqda. Odatda mazkur saytlar kishilarni yolg‘izlikdan xalos qiluvchi, kutilmagan sarguzashtlarga guvoh qiluvchi romantik saytlar sifatida taqdim qilinadi. Masalan, bez-komplek-sov. com, chocoapp. ru, pure. app, coomeet. com, chistosex. me kabi saytlar jamiyat

[1] Қаранг: “О понятии “общение”.// Социальная педагогика, 2016,№1-2.- 33-с.
[2] Қаранг: Японияда онлайн ҳақорат учун қамоқ жазоси белгиланди.// bugun.uz, 2022, 15 июнь.
[3] Туҳмат ва ҳақорат учун жазони енгиллаштириш тўғрисидаги қонун лойиҳаси эълон қилинди.// gazeta.uz, 2020, 16 январь.

a’zolarini majburiyatlardan xoli jinsiy aloqalarga chorlaydi. Tashvishlanarlisi shundaki, ularning xizmatidan foydalanuvchi yoshlar ko‘pligicha qolmoqda. Birgina sexbook. ru servisida 30 milliondan ortiq yigit va qizlar anketalarining jamlangani shundan dalolat beradi[1]. Mazkur saytlar ta’siriga tushgan yigit va qizlar oilaviy qadriyatlardan chekinmoqdalar, oilani inson hayoti uchun muhim bo‘lgan institut sifatida qabul qilmay qo‘yayaptilar. Bundan tashqari, bunday kishilarning o‘zga jins vakillariga munosabati ham axloqsiz tus olmoqda.

Keyingi yillarda erotik hikoyalar kutubxonasi sifatida taqdim etilayotgan saytlar ham paydo bo‘la boshladi. Bunday saytlarda nafaqat erotik hikoyalar, balki mutlaqo axloqsiz xarakterga ega bo‘lgan she’rlar, suratlar, hatto eriga yoki xotiniga xiyonat qilish yo‘llariga doir tavsiyalar, hayvonlar bilan jinsiy aloqa qilishga oid maslahatlar ham jamlangan. Birgina www. xxxlib. ru saytida bunday materiallar 37 bo‘limga bo‘lib taklif etiladi[2]. Mazkur materiallar insonning axloqqa zid normalarni yoki ongi, yoki ongsiz ravishda o‘zlashtirib qo‘yishiga zamin yaratmoqda.

Internet makonida 18 + ma’lumotlari ochiqchasiga foydalanishga ro‘xsat etilishi yaxshi deb o‘ylaysizmi? A)xa albatta bu ma’lumotlar zarur (10, 9%)B)faqat kattalar kira oladigan yuklamalar joriy etish kerak deb o‘ylayman (12, 1%) V)hamma uchun foydali ma’lumotlar (8, 8%)G)umuman kerak emas. (70, 2%)[3]

Qisqa videomateriallarni tasvirga olish va tomosha qilishga mo‘ljallangan “TikTok” servisi ham ayrim hollarda axloqsiz xulqni shakllantirish va ommalashtirish omili bo‘lib qolmoqda. Umuman olganda, servis neytral mazmunga ega bo‘lgan, turli shaxslar ijodi namunalarini namoyish etadigan ijtimoiy tarmoq sifatida 2016 yilda Xitoyda vujudga kelgandi. U juda jadal faollashdi - qisqa muddatda undan foydalanuvchilar soni 800 milliondan ortib ketdi[4]. Biroq tez orada uning kontentlari orasida axloq normalariga zid bo‘lgan materiallar nihoyatda ko‘payib ketdi. Bu materiallar jamiyatda e’tirof etilgan axloq normalariga e’tiborsizlikni targ‘ib qilmoqda, odob qoidalarining oddiy buzilishini ijod namunasi sifatida ko‘rsatmoqda. Bunday namoyish jamiyat a’zolari uchun nomaqbul o‘rnak vazifasini o‘tamoqda, ularni asotsial hatti-harakatlarga undamoqda. Masalan, Misrda 2020 yilda “TikTok” ilovasida odobsiz videolar joylash-tirganligi uchun besh ayol ikki yilga ozodlikdan mahrum qilingan va qariyb 19000 AQSH dollari miqdorida jarima to‘lashga hukm qilingan. Bunga qadar mazkur materiallarni uch milliondan ziyod

[1] Қаранг: Топ-10 сайтов для секса без обязательств.// intrigue.dating.
[2] Қаранг: www.xxxlib.ru.
[3] Социологик сўровнома муллиф томонидан таёрланган ҳамда Шаҳрисабз давлат педагогика институти Ижтимоий фанлар кафедрасининг 2022 йил 6 – майдаги № 4- сонли йиғилишидаги маъқулланган дастур ва анкета асосида 2022 -йилнинг июнь, июль,ва август ойларида Самарқанд ва Қашқадарё вилоятларининг 6 та ташкилотидан жами 710 нафар респондент орасида ўтказилган.
[4] Қаранг: Тик-ток ҳақида 10 статистика.// www.terabayt.uz, 2020, 4 июнь.

tomoshabin ko‘rib ulgurgan[1]. Keyingi yillarda O‘zbekistonda ham “TikTok” ancha faollashdi. Uning xizmatidan asosan o‘smirlar va yoshlar foydalanmoqdalar. Lekin tarmoqda jamlangan videomateriallarning aksariyat qismi axloqqa zid bo‘lgan hatti-harakatlar namoyishidan o‘zga narsa emas.

To‘rtinchidan, internet-makonning ayrim kontentlari shaxsni turli ijtimoiy illatlarga tobe qilib qo‘ymoqda. Yangi asrga kelib, internet onlayn-o‘yinlarni faol amalga oshirish vositasiga aylandi. To‘g‘ri, onlayn-o‘yinlarni taqdim qiluvchi saytlar XX asrda ham mavjud edi. Biroq aynan yangi asrda ular qimor tikib o‘ynashni agressiv reklama qilishga va shu yo‘l bilan foydalanuvchilarni qimor o‘yinlariga jalb etishga kirishdilar. Bugungi kunda internet-makonda yuzlab shunday saytlarni uchratish mumkin. Ularning barchasi onlayn o‘yinni sport turlaridan biri, o‘zlarini esa sport o‘yinlarini targ‘ib qiluvchi subyekt sifatida e’tirof etadi. Qizig‘i shundaki, bunday saytlar ko‘paygani sayin telefon, smartfon, planshet, noutbuk, kompyuterlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar o‘z mahsulotlarini SegaNet, PlayStation, Xbox kabi gadjetlarni kiritgan holda sota boshladilar. Shu tariqa turli jamiyat a’zolari ommaviy ravishda qimor o‘yinlariga jalb etila boshlandi.

Onlayn-o‘yinlarni o‘tkazuvchi saytlar virtual qimorbozlik deb nomla-nuvchi ijtimoiy illatning ildiz otishiga sabab bo‘lmoqda. Bu illat ingliz tilida "gembling" (inglizcha “gambling” – “pulga o‘ynash” so‘zidan), rus tili-da “igromaniya” (“igra”- “o‘yin”, “maniya” – “moyillik” so‘zlaridan) termin-lari bilan ifodalanadi. Bunday illatga yo‘liqqanlar o‘zlarini qimor o‘yin-laridan tiya olmay qoladilar, o‘yin ular uchun hayotning markaziy qadriyatiga aylanadi. Virtual qimorbozlikka berilgan kishi ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan voqealarga befarq bo‘lib qoladi, uni hatto xizmat vazifalari, oilasining ahvoli va sharoiti ham qiziqtirmay qo‘yadi[2].

Afsuski, keyingi yillarda virtual qimorbozlik illati O‘zbekistonda ham yoyila boshladi. Bunday holatlar gazeta va internet-nashrlarda tez-tez ma’lum qilib turilmoqda. Masalan, “Farg‘onada universitetning Yoshlar, ma’naviyatga aloqador bo‘limida ishlaydigan bir yigit o‘z joniga qasd qilibdi, - deya ma’lum qiladi azon. uz sayti. Taassufki, yoshlarga tarbiya beruvchi, ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi lozim bo‘lgan yigit onlayn qimor o‘yinlariga aralashib qolgan. Tasdiqlanmagan ma’lumotlarga ko‘ra, 160 million so‘m qarz bo‘lib, to‘lashga ko‘zi yetmay o‘zini o‘ldirib qo‘ya qolgan”[3].

Tadqiqot metodologiyasi

[1] Қаранг: Одобсиз видеолари учун қамоққа тушган блогер қизлар.// azon.uz, 2020, 29 июль.

[2] Лопатина А.А. Игромания как социально-психологический феномен и смысл жизни молодежи.// Форум молодых ученых, 2018, №4.- 854-с.

[3] Қаранг: Ёкуб Умар. Онлайн қимор уруши: қурбонлар кўпаймоқда.// azon.uz, 2021, 22 ноябрь.

Narkotik moddalarni tarqatish uchun internet imkoniyatlaridan foydalanilishi jahonning turli mamlakatlaridagi giyohvandlar sonini keskin oshirib yubordi. Giyohvandlarga tibbiy yordam ko‘rsatish maqsadida tashkil etilgan markazlar taqdim etgan ma’lumotlarga qaraganda, 2019 yilda dunyoda giyohvandlikka ro‘jo‘ qo‘ygan kishilar soni 250 milliondan oshib ketdi. Ularning soni sakkiz yil davomida 30 foizga ko‘paygani tashvishlidir[1]. O‘zbekistonda giyohvandlik moddalarning onlayn-xaridi avj olgani yo‘q. Biroq internet texnologiyalari rivojlangani, undan foydalanish imkoniyatlari kengaygani, uning xizmatlariga murojaat qiluvchilar soni ko‘paygani sayin negativ ijtimoiylashuvga sabab bo‘luvchi mazkur xatar tobora jiddiy tus olib bormoqda.

Beshinchidan, internet-makonning ayrim kontentlari ba’zi jamiyat a’zolarini jinoyat yo‘liga kirishiga sabab bo‘lmoqda. Internet-makonning paydo bo‘lishi jamiyat a’zolarini jinoyat shakllari va turlari haqidagi tasavvurlarini kengaytarish yo‘llarini, jinoyatlarni sodir etish vositalari-ni, jinoyatlarni amalga oshirish maydonini yana bittaga ko‘paytirdi. Internet rivoji sharofati bilan jamiyat a’zolari turli jinoyat turlari, ularni amalga oshirish yo‘llaridan kengroq voqif bo‘la boshladilar. To‘g‘ri, aksariyat hollarda ushbu voqiflik shunchaki badiiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qilmoqda. Masalan, kishilar turli saytlarda jamlangan detektiv asarlar, detektiv filmlarni maroq bilan o‘qiydilar va ko‘radilar, ulardagi voqealar rivojini shunchaki o‘quvchi sifatida kuzatadilar. Biroq mazkur detektiv xarakterdagi ma’lumotlardan g‘ayriijtimoiy maqsadlarda foydalanayotganlar ham yo‘q emas. Jahonning turli mamlakatlarida internet-makonda taqdim qilingan ma’lumotlar yoki badiiy asarlardan o‘rnak olib, jinoyatga qo‘l urganlar ham topiladi.

Bundan tashqari, internetning paydo bo‘lishi jinoyatning yangi turini – kiberjinoyatni sodir etish imkonini yaratdi. Mutaxassislar uning ikki turini (kompyuterlar yordamida amalga oshirilgan jinoyat va kibermakonda amalga oshirilgan jinoyat) tilga oladilar[2]. Kompyuterlar yordamida amalga oshirilgan jinoyat boshqa kompyuterlarga noqonuniy ulanish orqali muayyan axborotni olishga yo‘naltirilgan. Keyinchalik jinoyatchi ushbu axborotlarni o‘zgartirishi, yo‘q qilishi yoki ulardan g‘ayriijtimoiy maqsadlarda foydalanishi mumkin[3]. Kibermakonda amalga oshirilgan jinoyat an’anaviy jinoyat turlaridan farqlanmaydi, biroq u axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladi[4].

[1] Қаранг: Наркомания в современном мире.// lordmed.ru.

[2] Қаранг: Буз С.И. Киберпреступления: понятие, сущность и общая характеристика.// Юристъ - Правоведъ, 2019, №4.- 79-с.

[3] Қаранг: ўша ерда.- 79-с.

[4] Қаранг: ўша ерда.- 79-с.

Yangi asrga kelib, kiberjinoyatlar turi va soni misli ko‘rilmagan darajada oshdi. O. Petrov taqdim qilgan maqolada uning eng ko‘p tarqalgan yetti turi ko‘rsatiladi:[1]

fishing (inglizcha “fishing” — “baliq ovi” so‘zidan); firibgarlar bank, to‘lov tizimlari nomidan foydalanuvchiga blank jo‘natadilar. Foydalanuvchi ushbu blankka bank hisobi raqami va parolini kiritgani zahoti, uning mablag‘larini o‘zlashtiradilar;

ketfishing; firibgarlar foydalanuvchi bilan boshqa kishining nomidan muloqotga kirishadilar, uning ishonchiga kirgach, jinoiy niyatlarini amalga oshiradilar;

sekstorsiya; firibgarlar foydalanuvchining shaxsiy yoki intim suratlarini qo‘lga kiritadilar va ularni tarqatish bilan tahdid qiladilar;

dos-hujum (inglizcha “Distributed Denial of Service” – “xizmat ko‘rsatishni rad etish” so‘zlaridan); xakerlar turli saytlarni buzib kiradilar va ularni ishdan chiqaradilar;

doksing (inglizcha “dropping dox”, “hujjatlarni tarqatish” so‘zlaridan); firibgarlar foydalanuvchining ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumotlarini qo‘lga kiritadilar va ularni oshkor qilish bilan tahdid qiladilar;

pornoqasos; sekstorsiyaning o‘ziga xos turi bo‘lib, niyatiga yetolmagan firibgar tomonidan amalga oshiriladi

kiberbulling; firibgarlar bir guruh bo‘lib, bir kishini haqorat qiladilar va unga ruhiy bosim o‘tkazadilar[2].

Tahlil va natijalar

Kiberjinoyatchilikning avj olayotgani jahonning barcha mamlakatlarida, xususan O‘zbekistonda ham borgan sari ko‘proq jamiyat a’zolarini o‘z domiga tortmoqda. Buning natijasida ularning ijtimoiy qiyofasida salbiy o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmoqda. Kiberjinoyatchilik ayrim jamiyat a’zolarining negativ ijtimoiylashuviga sabab bo‘lmoqda.

Oltinchidan, internet-makonning ayrim kontentlari jamiyat a’zolarining muayyan qismini g‘ayriinsoniy g‘oyalar ta’siriga tushirmoqda. XX asrda g‘ayriinsoniy g‘oyalar targ‘iboti o‘z mazmuni va shakllarini tubdan o‘zgartirdi. Endilikda turli davralar buning uchun internet texnologiyalari yaratgan imkoniyatlardan keng foydalanmoqdalar. Aynan shuning uchun ham internetda shunday g‘oyalar targ‘ibotiga mo‘ljallangan saytlar, chatlar, bloglar ko‘payganidan ko‘paymoqda. Ularda murosasizlik, ekstremizm, g‘ayriij-timoiy hatti-harakatlarni ma’qullovchi g‘oyalar tarqatiladi. Turli mamlakatlarning Adliya vazirliklari bunday saytlarning ro‘yxatini tuzib bormoqdalar. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi o‘z ro‘yxatiga ekstremizm

[1] Қаранг: Петров О. 7 преступлений, которые стали возможны с появлением Интернета.// **www. maxim-online.ru**, 2021, 5 марта.

[2] Қаранг: ўша ерда.

g‘oyalarini keng targ‘ib qilayotgan 166 sayt, akkaunt va kanalni kiritgan[1]. Sirtdan qaraganda, bunday sayt va kanallarning nomi “Talabalar uchun darslar”, “She’riyat dunyosi”, “Islom tarixi” qabilida beozor nomlarga ega bo‘ladi. Aslida esa ularda turli audio va videomateriallar yordamida eng radikal ekstremistik g‘oyalar bayon etiladi[2].

Mazkur sayt, chat va kanallarning ayrim jamiyat a’zolariga ta’siri ayanchli oqibatlarga olib kelmoqda. Bunga Moskva davlat universiteti falsafa fakulteti talabasi V. Karaulovaning taqdiri yorqin misol bo‘la oladi. Qiz chat orqali ekstremistik g‘oyalar targ‘ibotchisi bilan tanishadi va uning bilan faol yozishmalar olib boradi. Nihoyat, bunday individual targ‘ibot ta’sirida u Suriyaga yo‘l olishga va “Islom davlati” nomi bilan tanilgan terroristik tashkilot a’zosiga aylanishga qaror qiladi. Qizig‘i shundaki, Turkiya va Suriya chegarasida ushlab qolingan, Vataniga qaytarilgach, avf etilgan qiz, o‘z qilmishini davom ettiradi – u nomini Aleksandra Ivanovaga o‘zgartirib, yana Suriyaga yo‘l oladi. Bu safar sud uni kechirmaydi va qamoq jazosiga hukm qiladi[3]. Ekstremistik sayt va kanallar ta’siriga tushib qolgan kishilar O‘zbekistonda ham topiladi. Masalan, Farg‘ona viloyatida qo‘lga olingan “yigit mobil telefonidan foydalanib, ijtimoiy tarmoqlarda taqiqlangan audio va video materiallarni tinglagan va ko‘rgan, ularni yaratilgan jamiyat a’zolari o‘rtasida tarqatib, ularni shahid bo‘lishga, umuman, jihodga chorlagan”[4].

Keyingi yillarda suitsidni targ‘ib qiluvchi sayt va virtual guruhlar ham ko‘paydi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda, birgina “Vkontakte” ijtimoiy tarmog‘ida 1500 dan ortiq shunday saytlar faoliyat ko‘rsatmoqda[5]. Ularning kasri o‘laroq yarim yil ichida 130dan ortiq o‘smir o‘z joniga qasd qilgan[6]. Olimlar bunday saytlar turli manfaatdor davralar tomonidan tashkil etilayotgani, ular yoshlar dunyoqarashi va ijtimoiylashuvi jarayoniga o‘ta salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini, ularni tushkunlikka tushirayotgani, jamiyat va oilasidan ajratib qo‘yayotganini qayta-qayta takrorlab kelmoqdalar.

Internet imkoniyatlaridan g‘ayriijtimoiy hatti-harakatlarni ma’qullovchi g‘oyalarni tarqatishda ham foydalanilayapti. Bu g‘oyalar ayniqsa yoshlar orasida keng targ‘ib qilinmoqda. Masalan, internet-makonda paydo bo‘lgan “CHVK Ryodan” internet-hamjamiyati o‘smirlarni jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalariga zid ravishda faoliyat ko‘rsatishga chorlamoqda. Uning targ‘iboti ta’sirida o‘smirlar 2023 yilning fevralida Moskvadagi “Aviapark” va “Markos-

[1] Қаранг: В Узбекистане обнародовали список экстремистских каналов и аккаунтов в соцсетях.// kun.uz, 2022, 24 января.

[2] Қаранг: ўша ерда.

[3] Қаранг: Олисашвили Г. Подлинная история россиянки Варвары Карауловой.// www.1tv.ru, 2017, 29 октября.

[4] Фарғонада жиҳодни тарғиб қилаётган диний ақидапараст қўлга олинди.// uz.tafsilar.info, 2022, 11 январь.

[5] Қаранг: Мурсалиева Г. Группы смерти.// Новая газета, 2016, 16 мая.

[6] Қаранг: Петрова В. Кто на самом деле создает «Группы смерти».// psyfactor.org.

molle” savdo markazida, Sankt-Peterburg, Novosi-birsk, Qozon, Kursk savdo markazlarida ommaviy mushtlashuvlar sodir etdilar[1]. Mazkur internet-hamjamiyat ta’siriga tushib qolish hollari boshqa mamlakatlarda, xususan O‘zbekistonda ham kuzatildi. Shu yilning 5 martida Toshkentda uning 50 ga yaqin tarafdori bo‘lgan o‘smirlar ichki ishlar xodimlari tomonidan ushlandi va qisqa tushuntirish ishlaridan so‘ng ozod etildi[2].

Mutaxassislar bo‘sh vaqt davomida internet imkoniyatlaridan behuda foydalanish odatini maqsadsiz internet-serfing deb nomlamoqdalar va unga quyidagilar sabab bo‘layotganini qayd qilmoqdalar:

aniq maqsadning mavjud emasligi;

motivatsiyaning yo‘qligi; biror bir vazifani bajarish istagining mavjud emasligi;

bilimsizlik;

onglilik darajasining pastligi;

biror bir maqsaddan ruhlana olmaslik.

Eng e’tiborlisi, barcha mamlakatlarda kishilarning internetdan behuda foydalanishga ketgan vaqti ko‘paymoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada fuqarolar har kuni to‘rt soatdan ko‘proq vaqtini internetda o‘tkazadilar. Ularning 55 foizi internetda o‘tkazgan vaqtining chorak qismini behuda sarflaydi. Shu tariqa bir britaniyalik foydalanuvchining maqsadsiz internet-serfingga sarflagan vaqti yiliga 15 kunni, butun umr mobaynida esa 3 yilni tashkil qilmoqda. Bunday ma’lumotlarni boshqa mamlakatlar, xususan O‘zbekiston misolida ham keltirish mumkin. Maqsadsiz internet-serfing esa bo‘sh vaqtni ham maqsadsiz o‘tkazishni odatga aylantirmoqda.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, bugungi kunga kelib, internet-makonning ayrim kontentlari negativ ijtimoiylashuvning vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Ular shaxs tomonidan salbiy xarakterdagi ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishga imkon yaratmoqda. Buni internet-makonning ayrim kontentlari jamiyat a’zolari o‘rtasida kechadigan muloqotga virtual tus berayotganida, ularning kognitiv qobiliyatlarini zaiflashtirayotganida, axloq normalariga zid xulqni shakllantirayotganida, turli ijtimoiy illatlarga tobe qilib qo‘yayotganida, ba’zi jamiyat a’zolarining jinoyat yo‘liga kirishiga sabab bo‘layotganida, g‘ayriinsoniy g‘oyalar ta’siriga tushirayotganida, bo‘sh vaqtini behuda o‘tkazishga ko‘niktirayotganida ko‘rish mumkin. Internet-makon kontentlari negativ ijtimoiylashuvga sabab bo‘layotgani uning odini olish yo‘llarini izlab topishni muhim ijtimoiy vazifalardan biriga aylantirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1] Қаранг: Рёдан заметили в Узбекистане.// nuz.uz, 2023, 4 марта.

[2] Қаранг: МВД Узбекистана: в центре Ташкента задержали более 50 сторонников «ЧВК Редан».// media-zona.ca, 2023, 6 марта.

1. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. Том 1. - Т. : Ўзб. файл. миллий жам. нашр. , 2019. - Б. 119.

2. Қаранг: Пасешниченко И. С. О природе возникновения морали (источники формирования нравствен-ности). // Известия высших учебных заведений. Северо-Кавказский регион. Общественные науки, 2010, №4. - 133-136-с. Ўша ерда. - 133-с.

3. Nurillaevich, Omonov Bahodir, et al. "Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System. " *Journal of Pharmaceutical Negative Results* (2022): 984-989.

4. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI. " *Development and innovations in science* 2. 7 (2023): 8-14.

5. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI. " *Farg‘ona davlat universiteti* 3 (2023): 67-67.

6. Номозов, Х. "ИНТЕРНЕТ-МАКОН ТАЪСИРИДА СОДИР БЎЛАЁТГАН НЕГАТИВ ИЖТИМОИЙЛАШУВ ШАКЛЛАРИ. " *Философия и право* 26. 3 (2023): 232-235.

7. Shavkat o‘g‘li, Nomozov Xurshid. "ИНТЕРНЕТ-МАКОН ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШДА АХЛОҚИЙ МАДАНИЯТНИНГ АҲАМИЯТИ. " *The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development* 1. 3 (2023): 4-9.

8. Shavkat o‘g‘li, Nomozov Xurshid. "YUKSAK AXBOROT MADANIYATI–INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI. " *Research Focus International Scientific Journal* 2. 6 (2023): 105-110.

9. Shavkat o‘g‘li, Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJINING O ‘SMIRLAR HAYOTIGA TA’SIRI. " *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 1285-1287.

10. Shavkat o‘g‘li, Nomozov Xurshid. "YOSHLARDA MA’NAVIY-MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA INTERNETNING ROLI. " *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL* 3 (18) (2022).

O‘QUVCHILARGA FUQAROLIK TARBIYASINI BERISH JARAYONIDA DAVLAT RAMZLARI (MADHIYA, GERB, BAYROQ) DAN FOYDALANISH

O‘ralova Odina Ravshanovna

JDPU Pedagogika ta’limi nazariyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada fuqarolik tarbiyasini berish jarayonida Davlat ramzlaridan foydalanish yoritib berilgan. Davlat ramzlari o‘zlarida chuqur siyosiy va ijtimoiy mazmunni ifoda etadi. Ta’lim muassasalarida fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonida o‘quvchilarga davlat

ramzlari ularning mohiyati orasidagi ma’lumotlarni berish, ularning ongiga davlat ramzlarining xalq, millat or-nomusi, sha’ni, qadr-qimmati timsoli ekanligi to‘g‘risidagi g‘oyalarni singdirish orqali o‘quvchilarda ularga nisbatan hurmat tuyg‘usini qaror toptirishi kabi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq sanaladi.

Kalit so‘zlar: Madhiya, davlat ramzlari, muayyan millat, elat, etnopsixologik hususiyatlar, qarashlari, orzu-umidlar, intilishlar, maqsad, hududiy, siyosiy, ijtimoiy birlik, mohiyat.

Аннотация. В данной статье описывается использование государственной символики в процессе гражданского воспитания. Государственные символы выражают глубокое политическое и социальное содержание. . В процессе организации гражданского воспитания в образовательных учреждениях учащимся следует давать информацию о государственных символах и их сущности, представления о том, что государственные символы являются символами народа, нации, чести, достоинства. Считается целесообразным позитивно решать такие задачи, как прививание учащимся чувство уважения к ним.

Ключевые слова: Гимн, государственная символика, конкретная нация, народ, этнопсихологические особенности, взгляды, мечты, стремления, цель, территориальное, политическое, социальное единство, сущность.

Abstract. This article describes the use of state symbols in the process of civic education. State symbols express deep political and social content. . In the process of organizing civic education in educational institutions, students should be given information about state symbols and their essence, ideas that state symbols are symbols of people, nation, honor, dignity It is considered appropriate to positively solve tasks such as instilling in students a sense of respect for them.

Keywords: Anthem, state symbols, specific nation, people, ethno-psychological features, views, dreams, aspirations, goal, territorial, political, social unity, essence.

Davlat ramzlari muayyan millat, elat etnopsixologik hususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari hamda maqsadini, hududiy, siyosiy, ijtimoiy birlik mohiyatini ajratishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majburiydir. Muayyan Davlatning bayrog‘i, Gerb (tamg‘asi) hamda madhiyasi davlat ramzlari majmuini ifodalaydi. Davlat ramzlari o‘zlarida chuqur siyosiy va ijtimoiy mazmunni ifoda etadi. Davlat ramzlarida (bayroq, gerbda) tasvirlangan ranglar, tasvirlar shu xalq, millat o‘tmishi, qadim an’analari, xalqning turmush tarzi, orzu-umidlari, maqsadi, g‘oyalarini ifodalashga xizmat etadi. Davlat madhiyasi esa xalq, millat, davlat va jamiyatning yagona maqsadi, birligi, g‘oyalarini tarannum etiladi. Davlat ramzlari davlat mavjudligini ko‘rsatuvchi belgilardan sanaladi. Ramzlar bu shartli belgilar bo‘lib ular qadim

davrlardayoq turli xalqlarda u yoki bu hodisa, olam, mavjudot, odamlar tasvirini, ularning qarashlarini ifodalagan. Respublikamizda davlat mustaqilligining e’lon qilinishi mustaqillikni aks ettiruvchi ramzlarni ishlab chiqishni taqozo etdi. Shu munosabat bilan 1990 yil 30 martda "O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida"gi qaror qabul qilindi va bu borada ishlar boshlab yuborildi. O‘zbekiston Oliy Majlisining 1992 yil 8 dekabrda bo‘lib o‘tgan XI sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi qabul qilindi. Ta’lim muassasalarida fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonida o‘quvchilarga davlat ramzlari ularning mohiyati orasidagi ma’lumotlarni berish, ularning ongiga davlat ramzlarining xalq, millat or-nomusi, sha’ni, qadr-qimmati timsoli ekanligi to‘g‘risidagi g‘oyalarni singdirish orqali o‘quvchilarda ularga nisbatan hurmat tuyg‘usini qaror toptirishi kabi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq sanaladi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasining quyidagi matni o‘quvchilar tomonidan nafaqat yod olinishi, balki madhiyada ifoda etilgan fikrlar mazmunini chuqur tahlil eta olish layoqatining namoyon etilishi borasida shart-sharoitlarni yaratib berish ta’lim muassasalari jamoasi, ularning rahbariyati oldidagi asosiy vazifalardan biridir.

Davlat madhiyasi kabi uning bayrog‘i, gerbi (tamg‘asi) ham jahon miqyosida mavjud bo‘lgan muayyan davlatning o‘z xalqi, millati nomidan faoliyat yuritish imkoniyatiga ega ekanligini anglatadi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining bayrog‘I to‘rt xil rangda bo‘lib, ko‘k, oq, qizil yashil ranglardir. Oq rang qizil rang bilan hoshiyalangan. Respublika bayrog‘ida yurt tarixi, o‘zbek xalqining milliy ruhi va yurt tabiati jamoli aks ettirilgan. Bayroqning chap tomoni yuqori qismidan yarim oy va 12 yulduz tasviri tushurilgan. Ko‘k rang va yulduzlar tasviri tiniq, moviy osmon belgisidir. O‘rtadagi oq rang esa yorug‘ kun va pokiza, oq ko‘ngilli xalqimizning tilagi, qizil hoshiyalar esa tomirlarda urayotgan qon kabi tiriklik va hayot ramzidir. Yashil rang esa qadim-qadimdan tabiat belgisi, oy (yangi oy) tasvirining berilishi mustaqillik sharoitida hayot kechirish xalqimiz uchun o‘ziga xos yangi davr ekanligi ifodasidir. Yulduzlar sonining 12 taligi yil oylariga muchal hisobiga isbotdir. Milliy bayrog‘imizning huquqiy maqomi, "O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i to‘g‘risida"gi ma’lumotlarni o‘quvchilarga etkazish sinf soatlarida, shuningdek, tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazish chog‘ida amalga oshiriladi. Bayroq davlat mustaqilligining belgisigina bo‘lmay, u Respublikamiz nomini xalqaro maydonda ramziy ifoda etish uchun ham xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet ellik mehmonlar Respublika bayrog‘ini hurmat qilishlari shart. Davlat ramzlarining yana biri - bu davlat gerbidir. O‘zbekiston Respublikasi davlat gerbining qabul qilinishi O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida"gi qonun g‘oyalari hamda xalqimizning ming yillik boy tajribasiga asosan amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi

davlat gerbida tog‘lar, daryolar, bug‘doy boshoqlari (chap tomonda), ochilgan g‘o‘za shoxlarining (o‘ng omonda) gulchambar holidagi tasviri aks ettirilgan. Gerb o‘rtasida serquyosh yurt ramzi bo‘lgan quyosh o‘zining zarrin nurlarini sochib turibdi. Gerbning yuqorigi qismida Respublika mustaqilligining ramzi sifatida sakkiz burchak tasvirlangan bo‘lib, uning ichida yarim oy (yangi oy-yangi tuzum) va yulduzlar (adabiyot timsoli) joylashtirilgandir. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi bo‘lgan kumush rangli Humo qushi qanotlarini yozib turgan holda tasvirlangan. Humo qushi insonga baxt keltiruvchi, uni turli ofatlardan himoya qiluvchi, mehribon jonzot sifatida o‘zbek xalq og‘zaki ijodida keng talqin etib kelingan. Gerbning pastki markaziy qismida Davlat bayrog‘i ranglaridagi chambar lenta o‘zagida " O‘zbekiston" so‘zi yozilgan. Gerbda ifoda etilgan sakkiz qirrali burchak mujassamdir. Ushbu belgi ijtimoiy hayotning barcha jihatlarini ma’lum bir g‘oya, kuch birlashtiradi degan ma’noni anglatishga xizmat qiladi. Paxta va bug‘doy boshoqlarining tasviri rizqu - ro‘zimiz nishonasidir. Davlat gerbining huquqiy maqomi ham maxsus qonun bilan qo‘riqlanadi. Davlat Gerbidan foydalanish huquqi maxsus davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralariga berilgan bo‘lib, ularga O‘zbekiston Prezidenti Devoni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, davlat hokimiyati va boshqaruvining mahalliy idoralari, vazirliklar, davlat qo‘mitalari, barcha toifadagi sudlar, prokratura, diplomatik va konsullik vakolatxonalari kiradi. Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhirlar, hujjatlarning blankalari ulardan foydalanish va saqlash, yo‘qotish tartibi ishlab chiqilgan.

Respublika Vazirlar Mahkamasining maxsus hujjati asosida tartibga solingan. Davlat gerbi, shuningdek, fuqarolik pasportida, korxona, tashkilot muassasalarining ish qog‘ozlar muhrlarida, Respublikada shaxs sifatida o‘z sha’ni or-nomusini qanchalik muqaddas bilsa, fuqaro sifatiga davlat ramzlarini shu qadar muqaddas bilishi, uni asrash, muhofaza qilish uchun o‘zida mas’ullik tuyg‘usini qaror toptirishi lozim. Fuqarolik tarbiyasini yo‘lga qo‘yish jarayonida davlat ramzlaridan noqonuniy hamda ahloqsiz ravishda foydalanayotgan kimsalarga nisbatan murosasiz bo‘lish lozimligining uqtirib borish maqsadga muvofiqdir. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimov "O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li" nomli asarida shunday yozadi: "O‘zbekistonning yangilanish va rivojlanish yo‘li to‘rtta asosiy negizga asoslanadi".

Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik.

Fuqaro tarbiyasining asoslaridan biri millat, xalq ular mazmunini o‘rganish orqali, milliy o‘zlikni anglashni qaror toptirish ishi sanaladi. Shaxs ham, jamiyat ham o‘tmishni o‘rganish, uning

har bir bosqichini tahlil qilish asosida kelgusi hayot rejasini ishlab chiqadi. «O‘tmishsiz kelajak bo‘lmaydi» - mazkur shior erkin, mustaqil ravishda taraqqiyot yo‘lidan borayotgan Respublika hayotining bosh shioriga aylanishi lozim. O‘tmish mutafakkirlarining qarashlari, boy ma’naviy meros g‘oyalari bugungi avlod uchun dasturi amal bo‘lishi lozim.

Allomalar xalq qahramonlari hayotini o‘rganish, millat va shaxsga inson sifatida kim ekanligini anglab etishga yordam beradi. Milliy qadriyatlar g‘oyalarini o‘rganish, asrlar davomida ardoqlanib kelgan an’ana, urf-odat, marosimlar nima uchun millatni bu qadar jipslashtirib qo‘yganligi siridan voqif etadi. Fuqarolik tarbiyasi negizida xalq o‘tmishi, tarixini o‘rganish milliy qadriyatlar mohiyatini anglashga yo‘naltirilgan faoliyatga o‘quvchilarni jalb etish pedagogika fani, tarbiyada ko‘zlangan maqsadga eltuvchi yo‘l sanaladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, o‘quvchilarni haqiqiy fuqaro etib tarbiyalash ularda fuqarolik tuyg‘usini qaror toptirish, fidoiy fuqaro sifatida shakllantirish bilan ta’minlanadi. O‘quvchilarda fuqarolik hissi va e’tiqodini tarbiyalamay turib, ularda ahloqiy, xulqiy odatlarni, malakalarni hosil qilib bo‘lmaydi. Fuqarolik tuyg‘usini qaror toptirish murakkab jarayon. Bunda dastlab bolalarga fuqarolik mohiyati va qoidalari mazmuniga oid bilimlar beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Erkin va farovon demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.

Sh. M. Mirziyoyevning O`zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo`shma majlisidagi nutqi. – T. : O`zbekiston, 2016. – 14 b.

2. Karimov I. A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. -T. : Ma`naviyat, 2008. – B. 41.

3. B. X. Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" Toshkent- 2017

4. J. Hasanboyev "Pedagogika"-2011

5. X. Ibragimov, Sh. Abdullayeva "Pedagogika nazariyasi" Toshkent-2008

6. Abu. Nasr. Forobiyning pedagogic qarashlari. AKADEMICIA An International Muitidisciplinary Research Jornal (Doble Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) ISSN 2249-7137 Vol 10 Issue 11 November 2020 Impakt Faktor SJIF 2020= 7. 13 -

OLIY TA’LIMDA MUSTAQIL TA’LIM OLUVCHILAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

L. T. Turakulov

JDPU Umumiy psixologiya

kafedrasi dots, v/b

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda talabalar bilimini baholashning eng qulay va dolzarb masalalaridan biri bo‘lgan mustaqil ta’limni tashkil qilishga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Mustaqil ta’lim, fikr yuritish, pedagogiga, psixologiya, aks ettirish, tushunish, baholash va boshqalar.

Аннотация. В данной статье представлена информация по организации самостоятельного обучения, что является одним из наиболее удобных и актуальных вопросов оценки знаний учащихся на сегодняшний день.

Ключевые слова: Самостоятельное обучение, рефлексия, педагогика, психология, рефлексия, понимание, оценка и др.

Abstract. This article provides information on organizing independent learning, which is one of the most convenient and relevant issues for assessing students’ knowledge today.

Keywords: Self-directed learning, reflection, pedagogy, psychology, reflection, understanding, assessment, etc.

Inson mustaqil fikr yuritish faoliyatida o‘zi aks ettirgan, sezgan, idrok qilgan, tasavvur etgan xodisalarning to‘g‘riligi, aniqligi, haqqoniyligi yoki ularning voqelikga mos tushishi yoki tushunmasligini aniqlaydi. Borliqni bilish jarayonida hosil qilgan xukmlar, tushunchalar, xulosalar, farazlar, qaror qabul qilishni belgilab beradi. Shaxs mustaqil fikrlashi tufayli voqelikni umumlashtirgan holda bilvosita yoki bevosita aks ettiradi, narsa va xodisalar o‘rtasidagi ichki murakkab bog‘lanishlar, munosabatlar, xossalar, hususiyatlar hamda mexanizmlarni tushunadi, anglab yetadi. Binobarin shaxs muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan tabiiy ijtimoiy hodisa va voqealarning vujudga kelishi, kechishi, rivojlanishi hamda ularning oqibatini oldindan payqash, bashorat qilish imkoniyatiga ega.

Insonning psixologik va pedagogik imkoniyatlari ko‘lamidan oqilona foydalanish, shu asosda ma’lum ijtimoiy istiqbollarini belgilash, aynan har bir shaxsning o‘zi jamiyat va xalqning bir qismi sifatida o‘zini-o‘zi anglashi, o‘zini-o‘zi rivojlantirishi va kamol toptirishi muqarrardir. Bu jarayon esa, tabiiyki uzluksiz ravishda Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy turmushdagi turli sohalar bo‘yicha iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsni shakllantirish muammosi va uni pedagogik – psixologik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirish shu sohaga dahldor barcha yo‘nalishlarga alohida ma’suliyat yuklaydi.

Ta’lim va tarbiya jarayonida har bir pedagog talabalarning mustaqil fikrlashlari uchun sharoit yaratishi lozim, aks holda talaba ongi tayyor shablonlar, stereotiplarga shu qadar o‘rganadiki, ular oxir oqibat har qanday bid’at yoki yot g‘oyalarga ergashib ketaveradigan bo‘lib qoladi. Ya’ni, darsni tashkil etishning noan’anaviy usullariga keng yo‘l ochish, darslarda

talabalarining interaktiv muloqotini tashkil etish, ular miyasining yaxshiroq ishlashi, qiziqishi va mustaqil fikrlashiga yordam beradi

Talaba shaxsi yosh hususiyatlari balog‘at yoshi, kamolot yoshiga o‘tish davrini o‘z ichiga oladi. XX1 asrda insonning psixologik hususiyatlari o‘zgarishi hamda boshqacha ko‘rinishlarga ega bo‘layotganligi aynan yoshlar psixologiyasidagi sifatlar, xislatlar, fazilatlar hamda xususiyatlarning o‘ziga xos ravishda maqsadli faoliyatni belgilashi, ijtimoiy – psixologik ustanovkalarni shakllantirishi, hayotiy yo‘nalishi, maqsad va vazifalarni rejalashtirishi, talabalik davridan unumli foydalanishi, ilmiy salohiyatli, raqobatbardosh kadr sifatida shakllanishi hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biridir.

Fikrlash yoki fikr yuritish shaxs aqliy faoliyatining, aql zakovatining, muomala maromining, ongli hulq –atvorining yuksak shakli bo‘lib hisoblanadi. Mustaqil fikrlash tevarak-atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, talabaning keng ko‘lamli aqliy faoliyatini oqilona, omilkorlik bilan amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. Mustaqil fikr yuritishning ro‘yobga chiqishida shaxsda fikr, mulohaza, g‘oya, faraz, maqsad kabilar vujudga keladi va ular shaxs ongida tushunchalar, xukmlar, xulosalar sifatida ifodalanadi. Mustaqil fikr yuritish til va nutq bilan chambarchas bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi, hamda ular uzluksiz tarzda bir-birini taqoza etadi.

O‘quv faoliyatida fikr yuritishning o‘zaro mustahkam bog‘langan zanjiri vujudga keladi.

Mustaqil fikr yuritish faoliyatida, hal qilinishi zarur bo‘lgan masala talabalar tomonidan aniqlab olinishi kerak. Agarda uning oldida hech qanday masala yoki muammo vujudga keltirmagan bo‘lsa, u holda biron – bir narsa to‘g‘risida fikr ham yuritmaydi. Buning uchun ular qo‘yilgan masala mazmunini, avvalo, ma’lum darajada tushunib olishlari, uning shartini tekshirib chiqishlari, nima ma’lum va nima noma’lum ekanligini aniqlashlari zarur.

Masala yoki muammoga taaluqli faraz ilgari suriladi, bosqichlar tahlil qilinadi, yechish to‘g‘risida mulohazalar yuritiladi, turli variantlar hamda variatsiyalar, invariantlar haqida fikr bildiriladi, ular o‘zaro qiyoslanish natijasida eng samarali alomatlarga, belgilarga ajraladi.

Har qanday yangilik, taraqqiyot inson aql zakovatining mahsuli hisoblanadi, xuddi shu bois fan texnika rivoji ko‘p jixatdan mutaxassisning mustaqil fikrlashiga bog‘liq. Talaba kamoloti jismoniy, ahloqiy va aqliy bosqichlardan iborat bo‘lib, bu borada uning mustaqil fikrlashi muhim o‘rin egallaydi. Hozirgi davrning talabalari jismoniy, ahloqiy jihatdan komillik darajasiga erishsada, lekin aqliy kamolotga erishishi bir qancha ko‘rinishlarga, ya’ni asab tizimining taranglashuvi, aqliy zo‘riqish, hissiy jiddiylashuv, barqaror irodaviy akt, uzluksiz faollik, fidoyilik namunalari evaziga bosqichma bosqich amalga oshiriladi.

Mustaqil tafakkur bu kishilardagi aqliy faoliyatning asosiy tavsifi bo‘lib, tafakkurning individualligini belgilaydi.

Akademik litsey talabalarining o‘qish faoliyatidagi muvaffaqiyati ko‘proq mustaqil bilish faoliyati motivlariga bog‘liqdir. Bilish faoliyatidagi mustaqillik esa talabaning shunday shaxsiy fazilatiki, u boshqalarning yordamisiz faoliyatning yangi usullarini, bilimlarni o‘zlashtirish, o‘z oldiga turli darajadagi vazifalarni qo‘ya olishda namoyon bo‘ladi. Talabaning mustaqil fikr yuritishi quyidagi bosqichlardan iborat:

Muommoning talaba tomonidan idrok qilinishi;

Talaba tomonidan topshiriq mohiyatining anglanishi;

Ma’lumotlar yoki yangi obrazlarning vujudga kelishi

Tasavvur va xotirada taxminlarning uzluksiz tug‘ilishi;

Taxminlarning haqqoniyligini bosqichma bosqich tekshirish;

Yangi obrazlarning yuzaga kelishi va takomillashuvi;

Muommo yechimining topilishi;

Ixtiyoriy aqliy hatti -harakatlarni davom yettirirlishi.

Talaba shaxsi tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritish, muammolar, topshiriqlar, masalalarni yechishda ma’lum darajada ijodkorlikni namoyon qilish, hayotiy tajribaga murojaat etish, mantiqiy mulohaza yurita olish imkoniyatini taqozo qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Bugungi kunda oliy ta’lim tizimi oldida turgan aniq vazifalardan biri yoshlarning ijtimoiy faolligini hamda bilim darajasining raqobatbardoshliligini ta’minlash, nazariy va amaliy bilimlarini mukammallik darajasiga olib chiqish masalasi dolzarbdir. Talabalar o‘quv-biluv faoliyatining o‘ziga xos jihat va tamonlaridan biri ularning mustaqil bilimlar egallashi va mustaqil faoliyatni tashkil qilish masalasi katta ahamiyatkasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduqodirov A. , Pardaev A. Masaofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. T. , «Fan» 2009. 190 b.

2. Jo‘raev R. H. , Rahimov B. X. , Xolmatov Sh. F. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta’limga asoslangan o‘quv-metodik qo‘llanma. – T. : “Fan”, 2005. 165 b.

3. Ibragimov I. , Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. T. : O‘zbekiston”, 2008 y. 215 b.

4. Xodjiev B. Yu. , Majidov I. U. , Bekmuradov A. Sh. O‘quv jarayoni va o‘quv uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash hamda innovatsion ta’lim texnologiyalarni joriy etish. T. : “O‘zbekiston”, 2009 y. 215 b.

O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK QOBILIYATLARI – PEDAGOGIK MAHORATINING ASOSIDIR

Rabbimov M. T.
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti
Aliqulova Dinara
Jizzax davlat pedagogika universiteti 4-kurs talabasi

Аннотация. Статья посвящена вопросам формирования и развития педагогических навыков и умений учителя.

Abstract. This article deals with the formation and development of pedagogical skills and abilities of the teacher.

Keywords: product quality, product quality planning, product manufacturing, competitiveness, management system.

Ma’lumki, respublikamiz ta’lim tizimlarida hozirgi zamon o‘qituvchilariga qo‘yilgan asosiy talablardan biri har bir o‘qituvchining pedagogik qobiliyatlariga va mahoratga ega bo‘lishi zarurligi dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Ushbu ma’ruzada bugungi kun o‘qituvchisining pedagogik qobiliyatlari va mahoratining shakllantirish, rivojlantirish hamda takomillashtirish maqsad qilib quyilgan.

Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning hamrohi bo‘ladi. Abdulla Avloniyning fikricha, sog‘lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma’rifatga ega bo‘lish uchun badanni tarbiyalash zarur. Badanni sog‘lom va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadir. CHunki o‘qimoq, o‘qitmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz vujud lozimdir. [1]. Qobiliyat, faoliyat jarayonida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo‘lmog‘i va tarbiyalab yetishtirilmog‘i lozim.

1. Bilish qobiliyati – fanning tegishli sohalariga oid qobiliyat-dir. Bunday qobiliyatga ega bo‘lgan o‘qituvchi fanni o‘quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chukurroq bilishi, o‘z fani soha-sidagi kashfiyot va yangiliklarni hamisha kuzatib borishi kerak.

2. Tushuntira olish qobiliyati- o‘quv materialini o‘quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, o‘quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg‘otish qobiliyatidir. O‘qituvchi zarur hollarda o‘quv materialini o‘zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o‘quvchilarga yetkaza olishi darkor.

3. Kuzatuvchanlik qobiliyati – o‘quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o‘quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bogliq bo‘lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o‘qituvchi o‘quvchining ruhiyatidagi ko‘z ilg‘amas o‘zgarishlarni ham tez fahmlab oladi. O‘quvchilar bunday o‘qituvchi haqida «Qaramayotganga o‘xshaydi-yu, hamma narsani ko‘rib turadi», «O‘quvchining xafa bo‘lganligini yoki dars tayyorlamayotganligini ko‘zidan biladi»-deydilar.

4. Nutq qobiliyati – nutq yordamida, shuningdek imo-ishora vositasida o‘z fikr-tuyg‘ularini aniq va ravshan ifodalash qobilyati. Bu o‘qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. O‘qituvchi ya’ni saboqni tushuntirayotgan, o‘quvchining javobini tahlil qilayotgan yoki tanqid qilayotgan bo‘lsa ham, uning nutqi hamisha o‘zining ichki kuchi, ishonchi, o‘zi gapirayotgan narsaga qiziqqanligi bilan ajralib turishi kerak.

O‘qituvchining bayoni o‘quvchilar fikri va diqqatini maksimal darajada faollashtirishga qaratiladi, o‘qituvchi o‘quvchilar oldida savollar qo‘yib, ularni asta –sekin tug‘ri javob berishga undaydi, o‘quvchining diqqatini kuchaytiradi hamda fikrini faollashtiradi. («Mana bu yerga alohida e’tibor bering:», «O‘ylab ko‘ring» kabi). Shuningdek, o‘rinli qochiriq, hazil, yengilgina istehzo nutqni jonlantirib yuboradi va uni o‘quvchilar tez uzlashtiradi. O‘qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatidan yorqin, ifodali, his- hayajonli bo‘lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim. Bir xildagi cho‘ziq, zeriktiradigan nutq o‘quvchilarni juda tez charchatadi, ularni loqayd qilib qo‘yadi. Ayrim o‘quvchilar tez gapirishga, boshqalari sekin gapirishga moyil bo‘ladilar.

5. Tashkilotchilik qobiliyati- birinchidan, o‘quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni, ikkinchidan o‘z ishini to‘gri uyushtirishni nazarda tutadi.

6. Obru orttira olish qobiliyati – o‘quvchilarga bevosita emotsional – irodaviy ta’sir ko‘rsatish va shu asosda obru qozona olishdir. Obru faqat shu asosdagina emas, balki o‘qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatligi va hakozolar asosida ham qozoniladi. Bu qobiliyat o‘qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir yig‘indisiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga, shuningdek, o‘quvchilarga ta’lim haqida tarbiya berish ma’suliyatini his etishga, o‘zining haq ekanligiga ishonishga, bu ishonchni o‘quvchilarga yetkaza olish kabilarga ham bog‘liq.

7. Tog‘ri muomala qila olish qobiliyati – bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o‘zaro munosabatlar o‘rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

8. Kelajakni ko‘ra bilish qobiliyati – o‘z harakatlarining oqibani ko‘ra bilishda, o‘quvchining kelajakda qanday odam bo‘lishini tasavvur qila olishida, tarbiyalanuvchida qanday fazilatlarni taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga bogliqdir.

9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati – o‘qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari – hajmi, kuchi, ko‘chuvchanligi, idora qilina olishi, safarbarligi kabilarning taraqqiy etishi bilan izohlanadi. [2].

Xulosa qilib aytganimizda, o‘qituvchi yuqorida ko‘rsatilgan qobiliyatlardan tashqari bir qancha ijobiy sifatlarga – aniq maqsadni ko‘zlash, qat’iylik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, kamtarlik kabi sifatlarga ega bo‘lishi kerak. Bunday sifatlar bo‘lmasa, o‘rta pedagogik darajadan yuqoriga ko‘tarila olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat-ilmiy nashriyoti. Toshkent 2004 yil. 98 bet.

2. Munavvarov A. Q. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. O‘qituvchi nashriyoti. Toshkent. 1996 yil. 200 bet.

Korxonada mahsulot sifatini boshqarish

Rabbimov I. M. - Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali 2-bosqich magistri

Mahsulot sifatini yaxshilash va uning va uning raqabatbardoshligini oshirish va ta’minlash masalasi respublikamiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish uchun kata ahamiyatga egadir.

Bizning asosiy maqsadimiz ichki bozorlarimizni o‘zimizda ishlab chiqarilayotgan sifatli mahsulotlarni ko‘paytirish va to‘ldirish hamda respublikamiz eksport salahiyotini oshirishdan iboratdir.

Mahsulot sifatini oldindan aytib berish deganda, berilgan vaqtda yoki berilgan vaqt oralig`ida yemirishilishi mumkin bo`lgan mahsulot sifati ko`rsatkichlarining imkoniy qiymatlarini aniqlanishi tushuniladi. Mahsulot sifatini rejalashtirish deganda, mahsulotni ishlab chiqarish bo`yicha berilgan vaqt ichida yoki berilgan vaqt oraliqida kerakli sifat ko`rsatkichlarining qiymatlari bilan asoslangan topshiriqni belgilash tushuniladi. Mahsulot sifatini bir me’yorda bo`lishini ta’minlashda mahsulot sifatini boshqarish alohida o`rin egallaydi [1].

Har qanday boshqarishning mohiyati boshqarish qarorlarini ishlab chiqish va uni boshqaruvchi ob’yektda o`z ta’sirini amalga oshirish ko`zda tutiladi. Mahsulot sifatini boshqarish deganda mahsulotni yaratishda uning kerakli sifatini ta’minlash va me’yorida bo`lib turish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlar majmui tushuniladi.

Mahsulot sifati jarayonlarning qanday tashkil etilganligiga, ularni qanday me’yorda ishlashiga, nazorat-o`lchash asboblarining naqadar tekis ishlashiga va shu jarayonlarda ishlayotgan xodimlarning malakasiga so`zsiz bog`liqdir.

Boshqarish ta’siri boshqariluvchi jarayonlarni amaldagi holatini saqlash yoki unga o`zgartmalar kiritishdan iborat [2].

Mahsulot sifatini boshqarish tizimi deganda boshqarish idoralari va boshqariluvchi ob’yektlarning mahsulot sifatini boshqarishda moddiy- texnika va axborot vositalari yordamida o`zaro bog`lanishning majmui tushuniladi.

Shuning uchun bu tizim o`zaro bog`langan mahsulot sifatini boshqarishni ta’minlaydigan tashkiliy, texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlarning yig`indisi sifatida ko`zda tutilgan bo`lmoqligi lozim. Boshqarishning asosiy maqsadi esa mahsulot sifatini kerakli darajaga erishilishini ta’minlash hisoblanadi.

Mahsulot sifatini boshqarish tizimi o`z tarkibiga inson jamoalarini, texnikaviy qurilmalarni, moddiy vositalarni va kuchli axborot oqimini oladi. Mahsulot sifatini boshqarish o`zida quyidagi boshqarish davrining umumlashgan elementlarini mujassamlashtiradi:

-oldindan aytib berish va rejalashtirish;

-ishlarni tashkil qilish;

-o`zaro muvofiqlashtirish va tartibga solish;

-faol harakatga keltirish va rag‘batlantirish;

-nazorat, hisob- kitob va tahlil qilish.

Mahsulot sifatini boshqarish tizimidagi boshqarish jarayonlari 2 guruhga bo`linadi:

ishlab chiqarish tizimini deyarli yuqori darajaga o`tkazuvchi (mahsulotning deyarli yuqori texnikaviy darajasini va sifatini yaratish va o`zlashtirishni ta’minlovchi);

ishlab chiqarish tizimidagi turqg`unlikni ushlab turish va o`zlashtirilgan mahsulot ishlab chiqarilishini rejalashtiruvchi sifat darajasida ta’minlash.

Mahsulot sifatini boshqarish jarayoni boshqarishning umumiy nazariyasiga binoan quyidagi ishlardan tashkil topadi:

boshqarish rejasini ishlab chiqish;

mahsulot sifatini oshirishni rejalashtirish;

mahsulot sifatiga ta’sir etuvchi har qanday ob’yekt (buyum, jarayon)ning holati haqida axborotlar olish va tahlil qilish

sifatni boshqarish bo`yicha qaror qabul qilish va ob’yektga ta’sir etish usulini tayyorlash;

-ta’sir etadigan, boshqaruvchi ko`rsatmalar berish;

-ta’sir etadigan, boshqaruvchi ko`rsatmalar berish natijasida ob’yektdagi sifatning o`zgarishi haqidagi axborotni olish va tahlil qilish.

Dastavval, bunday axborot yuqorida aytilganidek, marketing, sotuv bozorini aniqlash va uni o`rganish bo`limining xodimlari tomonidan olinadi. Bunda shu mahsulotga nisbatan bozordagi ehtiyoj va xalqning shu mahsulotga munosabati inobatga olinadi. Bunday ma’lumotlar esa shu sohadagi ilmiy-tadqiqot va loyihalash- konstruktorlik ishlarini oldindan aytib berish hamda ishlab chiqarish hajmini va mahsulotning sifat darajasini rejalashtirish uchun asos bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mutaliyev, N. N. M. (2020). ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA SIFAT TIZIMINI TASHKIL ETISH. *Science and Education*, *1*(9), 215-218.

2. Tuychieva, O. (2019). QUESTIONS OF INCREASIN ECONOMIC

3. EFFICIENCY OF PRODUCTION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(8), 105-108.

4. A. Salimov. Mahsulotlar sifatini aniqlash va sertffikatlash. -T. :«Fan va texnologiva», 2019, 216 bet.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHLARINI MATEMATIKADAN TENGLAMALAR YCHISHGA O‘RGATISH XUSUSIDA

Rabbimov M. T.
JDPU dots.
Jumaboeva Muxayyo
4-bosqich talaba -JDPU

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы разработки содержания, формы и методов повышения эффективности урока по методике обучения уравнениям при обучении математике в начальной школе, изучению всей ее системы.

Abstract. This article deals with the development of the content, form and methods of improving the effectiveness of the lesson on the methods of teaching equations in the teaching of mathematics in primary school, the study of its whole system.

Boshlang‘ich ta’lim davlat standarti talablarini amalga oshirish uchun boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi, shu jumladan tenglamalarni o‘qitishni rivojlantirish usullarini ishlab chiqish dolzarb masaladir.

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitishda tenglamalarni o‘qitish usullari bo‘yicha dars samaradorligini oshirishning mazmuni, shakl va metodlarini ishlab chiqish, uning bir butun tizimini o‘rganib chiqish maqsad qilib qo‘yilgan.

Boshlang‘ich matematikani natural sonlar va asosiy miqdorlar arifmetikasi tashkil etadi. Boshlang‘ich matematikada bir qancha yirik mavzudagi o‘qitish vazifalaridan tashqari tenglamalar tushunchasini o‘rgatish ham muhim o‘rin tutadi. Tenglama tushunchasi nafaqat boshlang‘ich sinflarda qo‘llanadi, balki bu tushuncha matematikada o‘rganiladigan asosiy tushunchadir.

Tengliklar, tengsizliklar va tenglamalar haqidagi tushunchalar o‘zaro bog‘lanishda ochib boriladi. Ular ustidagi ish I-sinflardan arifmetik materialni o‘rganish bilan uzviy qo‘shib olib boriladi.

Tenglik va tengsizlik tushunchalarini tarkib toptirishning boshlang‘ich bosqichi narsalardan to‘plamlarni ularning miqdori bo‘yicha taqqoslash (katta, kichik, teng) munosabatlarini o‘rgatishdan iborat.

I-II- sinflarda sonli tenglama va tengsizlik haqida boshlang‘ich tasavvurlar shakllantiriladi. Tenglik va tengsizliklar haqidagi birinchi tasavvurlarni bolalar tayyorgarlik davridayoq oladilar.

III- sinfda esa I-II- sinf mavzularini takrorlash bilan bir qatorda ancha murakkab hollarni ham o‘quvchilar bilan ko‘rib chiqish mumkin.

III-IV - sinf o‘quvchilari ongi I-II- sinf o‘quvchilar ongiga ko‘ra tafakkur doirasining kengligiga ko‘ra, murakkab tenglama va tengsizliklarning ham o‘rgatishni taqozo etadi.

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida tenglamalarni va tengsizliklarni yechish bilan birgalikda har xil ko‘rinishda olib borib, yechimlarini muhokama qilib tushuntirilsa, o‘quvchilarda tenglama bilan bog‘liq matematik hisoblashlarini bajarish sifati ko‘rsatgichi yuqori bo‘ladi deb ilmiy faraz qilish mumkin.

Bu o‘quvchilarni o‘z navbatida o‘ylashga, fikrlashga o‘rgatadi. O‘quvchilar mustaqil ravishda tenglamalarni to‘g‘ri yechib, bajara oladilar.

Boshlang‘ich sinf matematika kursida ”Tenglama” tushunchasining aniq ta’rifi berilmaydi. O‘quvchilar bu tushunchani maxsus tanlangan mashqlarni bajarish jarayonida tushunib oladilar.

O‘quvchilar murakkab narsalar haqida o‘ylayaptimi, fikrlayaptimi demak dars maqsadiga erishdi deyish mumkin.

O‘quvchilar boshlang‘ich sinflardayoq natural sonlar ustida ta’rifsiz to‘rt amalni bajarishni o‘rganadilar. So‘ngra o‘quvchilarga qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish amallaridan qatnashayotgan komponentni topish o‘rgatiladi.

Ana shu topilishi kerak bo‘lgan komponentlardan noma’lumni topish o‘rgatiladi. Noma’lum komponent harflar bilan belgilanadi.

Masalan: Qanday songa 4 ni qo‘shsak 7 hosil bo‘ladi $x+4=7$

Qanday sonlardan 5 ni ayirsak 10 hosil bo‘ladi $x-5=10$

Qanday sonni 5 ga bo‘lsak 4 hosil bo‘ladi $x:5=4$

Qanday sonni 3 ga ko‘paytirsak 12 hosil bo‘ladi $x\cdot 3=12$

Shu xildagi savollar asosida harfiy ifodalar qatnashgan to‘rt amalga doir tenglamalarni hosil qilishimiz mumkin.

O‘quvchilar $x+4=7$ tenglikdagi noma’lum sonni topishni, ayirish mavzusida biladilar ya’ni noma’lum qo‘shiluvchini topish uchun yig‘indidan ma’lum qo‘shiluvchini ayirish kerak degan qoidaga asosan $x=7-4=3$ ekanligini topadilar. Shunday misollar orqali tenglama tushunchasiga ta’rif berish mumkin [1]. **Ta’rif.** Noma’lum son qatnashgan tenglik tenglama deyiladi.

$x+17=20,$ $x-9=12,$ $x:8=9,$ $x\cdot 6=30$ kabi tengliklar tenglama deyiladi. Tenglamalarda noma’lum sonlardan $x,\ y,\ z$ K kabi harflar bilan belgilanadi.

Yoki noma’lumning tenglamani o‘ng va chap tomonlarini teng qiladigan qiymatini topishga tenglamani yechish deyiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitishda tenglamalarni o‘qitish, mustahkamlash bilan bog‘lab olib borilsa, dars samaradorligi oshadi, agar: – o‘quvchilarning matematikadan olgan bilimlari qiziqarli, ongli va aniq bo‘lishi ta’minlansa;

–boshlang‘ich sinflarda tenglamalarni o‘rgatishda o‘quvchilarning matematikaga oid tasavvuri va dunyoqarashini mustahkamlash mazmuni, shakl va metodlari takomillashtirilib borilsa;

–boshlang‘ich sinflarda matematikani o‘rganishda o‘quvchilarning tenglamalarni mustahkamlashda misol va masalalar va ular orasidagi munosabatlarni tushunish faolligini va matematik jihatdan mustahkamlashni amalga oshirish darajasini belgilovchi mezonlar yaratishning didaktik asoslari muvaffaqiyatli ta’minlansa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jumayev M. E, Tadjiyeva Z. G`. Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi. (O O`Y uchun darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiyai” 2015 yil.

2. Bikboyeva. N. U. Yangiboyeva E. Ya. Uchinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. “O`qituvchi” 2022 yil.

GLOBALLASHUV DAVRI INFORMOSFERADA YOSHLAR DUNYOQARASHINI VAYRONKOR G‘OYALARDAN HIMOYALASH SOFLIGINI SAQLASH MUAMMOSI

Radjabova Manzura Xurramovna
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Milliy g‘oya va falsafa kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kundagi globallashuv jarayonlarida yoshlar dunyoqarashini vayronkor go‘oyalardan himoyalanishning usul va vositalari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, axborot, internet xavfsizligi, tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi.

Globallashuv — bu dunyo miqyosida iqtisodiy, madaniy, siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni o‘z ichiga olgan keng qamrovli jarayon bo‘lib, hozirgi kunda tez sur’atlarda rivojlanib, turli xalqlarning o‘zaro ta’sirini kuchaytirmoqda. Bu jarayon yoshlarning dunyoqarashiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlar o‘zgarayotgan va murakkab dunyoda o‘z o‘rnini topishga intiladi, ammo ba’zi hollarda ular globallashuv jarayonining salbiy ta’sirlaridan ham aziyat chekishlari mumkin. Ayniqsa, internet va ommaviy axborot vositalarining roli oshgani sari, yoshlarni vayronkor g‘oyalardan himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi axborotlashayotgan davrda yangi ma’lumotlarga bo‘lgan talab har daqiqa sayin kuchayib bormoqda. Shunday jarayonda, to‘g‘ri va aniq axborotlarni taqdim etish, yoshlarning yangi axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish har qachongidan ham zarurdir. Ma’lumki, demokratik jamiyatda media maydon odamlarni to‘g‘ri va aniq axborot yetkazadigan, gumanistik qarashlar, ilg‘or g‘oyalarni ifoda qiladigan erkin maydon sifatida e’tibor beriladigan joydir. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Globallashuv jarayonida axborot maydonidagi yangilanishlar ta’siri kuchayib, ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ahamiyati ham tobora ortib bormoqda. Barcha sohalar kabi axborot olish va uni yetkazish, ta’sirchan jamoatchilik fikrini shakllantirish borasida ham raqobat keskin tus olmoqda. Bunday murakkab sharoitda hayot oldimizga yangi-yangi talab va vazifalarni qo‘ymoqda”. [1] Darxaqiqat, bugun dunyoda kechayotgan global o‘zgarishlar, iqtisodiy rivojlanish, ilm-fandagi inson aqlini lol qoldiradigan yangiliklaru ixtirolar barcha-barchasi media vositalari orqali yoritilib borilmoqda.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, ijtimoiy tarmoqlardan va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish davr yoshlari uchun yangilik emas. Ayni paytda, xavfsizlikni yoddan chiqarmaslik, uni ta’minlash chora-tadbirlarini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik zarur. So‘nggi yillarda

[1] Sh.Mirziyoyev.Yangi O’zbekiston strategiyasi. Toshkent 2021.383-b.

dunyoda kechayotgan jarayonlar kiberxavfsizlik tushunchasi mazmunini o‘zgartirdi, qachonlardir bir xakerning nojo‘ya xatti-harakatlari sifatida ta’rif etilgan kiberxurujlar bugungi kunga kelib kompleks shaklga ega bo‘ldi va chinakam tahdid ko‘rinishini oldi.

Globallashuv jarayonida yoshlarni vayronkor g‘oyalardan himoyalash uchun bir nechta samarali usullar haqida to‘xtalib o‘tish kerak.

Ta’lim tizimini yaxshilash: Yoshlarni tanqidiy tafakkurni va axborotni tahlil qilish ko‘nikmalariga o‘rgatish, ularni dunyoqarashini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ta’limda etika, axborot xavfsizligi va media savodxonligi kabi mavzularni o‘z ichiga olish, yoshlarni manipulyatsiya qilishdan himoya qiladi.

Ommaviy axborot vositalarini nazorat qilish: Yoshlarni salbiy axborotlardan himoya qilishda ommaviy axborot vositalarining roli muhim. Hukumatlar va jamiyatlar soxta axborotlar va ekstremistik g‘oyalarni tarqatishga qarshi ko‘rashishlari zarur. Yoshlar uchun ishonchli va sifatli manbalar yaratish, ularning axborot olishda tanlov imkoniyatini kengaytiradi.

Internetda xavfsizlikni ta’minlash: Yoshlar internetda xavfsiz va ishonchli axborotga ega bo‘lishlari uchun onlayn platformalarda etika va axborot xavfsizligi bo‘yicha qonunlar va qoidalarni ishlab chiqish zarur. Bu, ayniqsa, onlayn tarzdagi xurujlarga qarshi kurashishda samarali bo‘lishi mumkin.

Oilaviy va jamoaviy ta’sir: Yoshlarning dunyoqarashi shakllanishida oilaviy muhit va jamoaviy ta’sir katta ahamiyatga ega. Yoshlarni o‘zlarining madaniy qadriyatlariga, urf-odatlariga, va inson huquqlariga hurmatni o‘rgatish, ularga ijtimoiy mas’uliyatni targ‘ib qilish, vayronkor g‘oyalar ta’siridan himoya qiladi.

Vayronkor axborotlardan himoyalanishning o‘ziga xos yana bir usuli bu – media vositalar orqali tarqatilayotgan axborot manbalariga xavfsizlik nuqtaiy nazaridan yondashish, ularga tanqidiy tafakkur bilan qarab, mustaqil ravishda xulosa chiqarishdir. Agar har qanday axborotni tahlil qilmay turib to‘g‘ri deb qabul qiladigan bo‘lsak, yolg‘on ma’lumotlarga aldanib qolishimiz hech gapmas. Nafaqat media olamga murojaat qilgan vaqtda, balki do‘stlar, hamkasblar va qarindoshlar bilan muloqotga kirishganda ham hushyorlikni unutmaslik lozim.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi to‘g‘risida”gi Qonunida ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda yoshlar ongiga salbiy ta’sir etadigan, sog‘lom turmush tarziga to‘g‘ri kelmaydigan hamda ijtimoiy xavfli hisoblangan axborotlarni tarqatishga yo‘l qo‘yilmasligi ta’kidlangan. Turgan gapki, bu qoidalar bevosita tjtimoiy tarmoqlarga ham taalluqli. Shunga qaramay, jahonda “axborot urush”lari avj olib, davlatlarning suveren tengligi, konstitutsion me’yorlari, diniy e’tiqodi, tinchlik va xavfsizligiga rahna solmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, globallashuv davrida yoshlarni vayronkor g‘oyalardan himoya qilish uchun keng qamrovli va tizimli yondashuv talab etiladi. Ta’lim, axborot xavfsizligi, jamoat targ‘iboti va onlayn platformalarda samarali nazorat orqali yoshlarni manipulyatsiya qilish va ekstremistik fikrlarga qarshi kurashish mumkin. Bunday yondashuvlar nafaqat yoshlarning xavfsizligini ta’minlaydi, balki ularning sog‘lom va ijtimoiy mas’uliyatli dunyoqarashlarini shakllantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, globallashuvning ijobiy tomonlarini kuchaytiradi va jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent 2021. 383-bet.

2. Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati. – T. : BMTTDning O‘zbekistondagi vakolatxonasi, 2010. – 107-bet.

3. Mamatova Ya. Sulaymonova S. O‘zbekistonda mediata’lim istiqbollari. – Toshkent. 2013.

4. Eshbekov T. Mafkura va axborot-psixologik xavfsizlik. O‘quv qo‘llanma. –T. : O‘zMU, 2017.

5. Is’hoqov M. , Mannonov Y. Internet tizimidan foydalanish. –T. :2015

MAKTAB O’QUVCHILARINING MOLIYAVIY-IQTISODIY SAVODXONLIGI TAKOMILLASHTIRISHNING O’RNI

Rapikaliyev Elyorbek Muhammadjon o‘g‘li

Nizomiy nomidagi TDPU

Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya. "Moliyaviy savodxonlik" tushunchasi, boshqa ko’plab murakkab, ko’p o’lchovli tushunchalar kabi, to’g‘ridan-to’g‘ri empirik talqin qilinishi mumkin emas. Buni faqat bilvosita talqin qilish mumkin. Turli fanlar vakillari bu muammoni o’z vositalari doirasida hal qiladilar. Shunday qilib, iqtisodchilar Davlat statistika qo’mitasi yoki Markaziy bank, shuningdek, boshqa tashkilotlar (banklar, sug‘urta kompaniyalari, fond birjalari va boshqalar)ning statistik ma’lumotlariga murojaat qiladilar va o’rganilayotgan hodisaning alohida ko’rsatkichlarining miqdoriy tahlilini o’tkazadilar; sotsiologlar sotsiologik tadqiqotlarni ekspertlar, maqsadli guruhlar yoki aholi o‘rtasida so‘rov o‘tkazish shaklida amalga oshiradilar. Uning o’ziga xoslik baholashlar moliyaviy savodxonlik psixologlar va o’qituvchilar orasida mavjud.

Kalit so‘zlar. "Savodxonlik", "moliyaviy savodxonlik", "kompetentlik", "Shaxsiy moliyaviy savodxonlik".

Ko’p adabiyotlarning yetishmasligi moliyaviy savodxonlikning dastlabki davrida ekanligini ko’rsatadi boshlang‘ich sinflar hali ham ta’limda yangi, ammo rivojlanayotgan tushunchadir. Moliyaviy savodxonlik standartlari va kelajakda nima bo’lishi mumkinligi uchun vakolatlar, tadqiqotchilar haqiqatda sinflarda nima o’qitilayotganini yanada tadqiq qilishlari kerak. Moliyaviy savodxonlik standartlarini joriy etish bo’yicha mo’ljallangan o’quv rejasi mos keladimi va kuchga kirgan o’quv dasturi bormi? Bu u yerda afzal o’quv dasturi yoki dastur bu o’z ichiga oladi ushbu standartlar va rivojlanishga mos keladigan eng yaxshi amaliyotlarni namoyish etadimi? Bu a Moliyaviy savodxonlik haqiqatan ham ertaroq bo’lmasa, bolalar bog‘chasidan boshlanishi kerakligi haqidagi umumlashtirilgan fikr? Bularning barchasi biz tadqiqot davomida tadqiqot ishimizda hal qilmoqchi bo’lgan savollardir. Ko’proq moliyaviy savodxonlik haqida va uning ichida joylashgan.

Odatda bolalar boshlang‘ich sinfga kirishadi pul (masalan, tangalar) biror narsa olishini anglash bilan sinf. Ular Tanga tan olinishi va qiymatini hali tushunmasligi mumkin, lekin ko’pchilik buning asosiy g‘oyasini o’rganadi. Buyurtma uchun to’g‘ri tanishtirish pul tushunchalari va moliyaviy savodxonlik qobiliyatlari, o’qituvchilar oldindan o’ylangan tushunchalarga ega bo’lishlari kerak.

M. Gulyamova insonning shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirisha olishi, jamiyatda o’z o’rnini egallay olishi, duch keladigan muammolarni yecha olishi, har tomonlama keng dunyoqarashga va bilimga ega bo’lishi uchun, avvalo, fanlarni o’qitishni moliyaviy savodxonlik, jamiyatda o’zaro muloqotga kirishish uchun esa tilni mukammal o’zlashtirish va muloqotda samarali foydalana olish kompetensiyasini, Ya’ni muloqot kompetensiyani rivojlantirish zarur.

Mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy savodxonlikni o’lchash usullarini tahlil qilish asosida D. V. Moiseev ikkita asosiy o’lchash strategiyasini aniqlaydi:

1) ta’rifi yagona (umumiy, o’rtacha, integral, keng qamrovli h. k.) moliyaviy savodxonlik ko’rsatkichi. Ushbu strategiyaning afzalliklari quyidagilardan iborat oddiylik idrok Va yengillik monitoring, A asosiy Kamchilik - bu murakkab hodisani haddan tashqari soddalashtirish, bu to’g‘ri xarakteristikani olishga va alohida komponentlardagi o’zgarishlarni kuzatishga imkon bermaydi. Bu strategiya tez-tez ishlatilmaydi;

2) rivojlanish murakkab ko’rsatkichlar moliyaviy savodxonlik. O’lchov strategiyasi asoslangan yoqilgan rivojlanish murakkab ko’rsatkichlar, ega moliyaviy savodxonlikning alohida tarkibiy qismlarini har tomonlama baholash hisobiga ko’proq tahliliy ahamiyatga ega bo’lib,

moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish bo’yicha aholining ma’lum guruhlari muammolarini hal qilishga yoki ko’nikma va munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni ishlab chiqishga imkon beradi. moliyaviy xulq-atvorning ayrim sohalari [23].

“Munosabatlar” deganda biz moliyaviy xulq-atvor madaniyatini shakllantirishni tushunamiz, bu oila byudjetini uzoq muddatga rejalashtirishdan boshlanadi; hayot tsikli ehtiyojlarini qondirish strategiyasini ishlab chiqish; moliya institutlariga ishonchsizlikni bartaraf etish.

Maktab o’quvchilarining moliyaviy-iqtisodiy savodxonligi darajasini qanday aniqlash mumkinligi haqidagi savol ochiqligicha qolmoqda.

Moliyaviy savodxonlik kontseptsiyasiga kiritilgan tarkibiy qismlarni ma’lum bir yoshda iqtisodiy faoliyat va operatsiyalarni amalga oshirish qobiliyati bilan taqqoslash orqali (bolalarning psixologik va jismoniy yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda) talablar ro’yxatini shakllantirish mumkin. kichik yoshdagi (6-10 yosh), o’rta (11-15 yosh) va o’rta maktab yoshi (16-18 yosh) uchun moliyaviy va iqtisodiy savodxonlik darajasi.

Moliyaviy savodxonlik moliyaviy bilimlar, moliyaviy ko’nikmalar, moliyaviy ko’nikmalar va moliyaviy munosabatlar kabi elementlarga asoslangan noaniq, murakkab va xilma-xil hodisa bo’lib, fanlararo tadqiqot ob’ekti hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o’quvchilarining moliyaviy savodxonlik imkoniyatlarini o’zlashtirilgan yangi bilimlarni oddiydan murakkabga qarab emosional izohlashga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishda ta’lim mazmunining ketma-ketligi tamoyiliga tayaniladi.

Ta’lim mazmunining ketma-ketligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta’lim mazmunini o’sib boruvchi yo’nalishda rejalashtirishdan iborat bo’lishini anglatadi, bunda birinchi navbatda har bir yangi bilim awalgisiga tayanadi va undan kelib chiqadi. Aytib o’tish lozimki, o’quv faoliyati - shaxsning yangi bilim, malaka va ko’nikmalarni egailash jarayonidir. Yana shuni ta’kidlash lozimki, Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o’sishida namoyon bo’ladigan miqdor va sifat o’zgarishlari mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o’tish, yangilanish, yangining paydo bo’lishi, eskining yo’qolib borishi, miqdor o’zgarishining sifat o!zgarishiga o’tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarshiliklami o’rtasidagi kurashdan iboratdir[112]. Ya’ni, Rivojlanish — bu bir holatdan boshqa murakkab holatga o’tish, eski holatdan yangi sifat bosqichiga o’tish, oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga o’tish jarayonidir.

Yangi bilimlarni o’zlashtirish, o’z navbatida o’zlashtirilgan yangi bilimlarni oddiydan murakkabga qarab emosional izohlash rivojlanish sifatida namayon bo’ladi. Rivojlanishning bir bosqichidan boshqasiga olishda emotsiyalar ham rivojlanadi.

O’zlashtirilgan yangi bilimlarni oddiydan murakkabga qarab emosional izohlashlda emosional izohlash Emotsional intellek orqali amalga oshiriladi. Emotsional intellekt quyidagilar orqali tushuntirilishi lozim[171]:

– Emotsiyani anglash Ya’ni o’zi yoki o’zga insonlarng emotsional his–tuyo’ulari tilini tushuna olish;

– Emotsiyalarni identifikatsiyalash Ya’ni farqlash, ajartish, kerakli o’rinlarda to’g‘ri qo’llay olish;

– Emotsional holatlarni keltirib chiqaradigan sabab va oqibatlarni payqay olish ko’nikmasi;

– Keskin emotsiyalarni yetarlicha sekinlashtirish, tuyo’ularning intensivliligini nazorat qilish;

– Ekspressiv ifodalarni oson tushunish;

– Faoliyatida va munosabatlarda u yoki bu emotsiyalarni chaqira olish tajribasi.

Shu nuqtai nazarga ko’ra, boshlang‘ich sinf o’quvchilarining moliyaviy savodxonlik imkoniyatlari o’zlashtirilgan yangi bilimlarni oddiydan murakkabga qarab emosional izohlashga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Boshlang‘ich sinf o’quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari o’qituvchidan alohida mas’uliyatni talab etadi. An’anaviy tarzdagi o’qituvchining faolligi va barcha o’quv materialini tushuntirishga harakat qilishi bilan bog‘liq bo’lgan darslarning o’rniga o’quvchining faolligini oshirish bilan bog‘liq bo’lgan inntegrativ darslarni amalga oshirish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Endilikda o’qitish jarayonida o’quvchilarni zeriktirib qo’ymaydigan, fikrlashga, mustaqil ishlashga yo’naltiradigan har xil metodlar va o’qitish vositalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero o’quvchi an’anaviy o’qitish jarayonida obyekt hisoblansa, bugun u subyektga aylanmoqda.

References: 1. Vaxabov A. V. , Xudyakov N. K. Mejdunarodnыye valyutno-kreditnыye i finansovыye otnosheniya. V 2-x t. -Tashkent: Universitet, 2003. 2. Karimov N. G‘. Bank tizimi barqarorligida tashqi nazorat va auditning ahamiyati. //Bozor, pul va kredit. 2006. - №1 3. Abdullayeva Sh. Z. Pul, kredit va banklar-Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007. 4. Omonov A. A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. -Toshkent, 2008. 5. B. B. Babayev. Voprosы formirovaniya resursov kommercheskix bankov i ix effektivnoye ispolzovaniye. Avtoreferat kan. ekon. nauk. Bankovsko-finansovaya akademiya Respubliki Uzbekistan. -T. , 2002. 6. Ortikov U. D. Bank resurslari va ularni boshqarish. “Moliya, pul muomalasi va kredit” i. f. n. diss. avtoreferati. O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. - 19. 09. 2008.

BOSHLANG‘ICH SINF O’QUVCHILARNI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI SHAKLLATIRISHNING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING O’RNI

Rapikaliyev Elyorbek Muhammadjon o‘g‘li
Nizomiy nomidagi TDPU
Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya. "Moliyaviy savodxonlik" tushunchasi, boshqa ko’plab murakkab, ko’p o’lchovli tushunchalar kabi, to’g‘ridan-to’g‘ri empirik talqin qilinishi mumkin emas. Buni faqat bilvosita talqin qilish mumkin. Turli fanlar vakillari bu muammoni o’z vositalari doirasida hal qiladilar. Shunday qilib, iqtisodchilar Davlat statistika qo’mitasi yoki Markaziy bank, shuningdek, boshqa tashkilotlar (banklar, sug‘urta kompaniyalari, fond birjalari va boshqalar)ning statistik ma’lumotlariga murojaat qiladilar va o’rganilayotgan hodisaning alohida ko’rsatkichlarining miqdoriy tahlilini o’tkazadilar; sotsiologlar sotsiologik tadqiqotlarni ekspertlar, maqsadli guruhlar yoki aholi o‘rtasida so‘rov o‘tkazish shaklida amalga oshiradilar. Uning o’ziga xoslik baholashlar moliyaviy savodxonlik psixologlar va o’qituvchilar orasida mavjud.

Kalit so‘zlar. "Savodxonlik", "moliyaviy savodxonlik", "kompetentlik", "Shaxsiy moliyaviy savodxonlik".

Ijtimoiy hayotning tobora murakkablashib borishi va jamiyatning shaxslarga bo’lgan talablarining ortib borishi "savodxonlik" tushunchasining o’zgarishiga va kengayishiga olib keldi. XX asr 80-yillar yillar lug‘atlar va ilmiy nashrlarda savodxonlikning har xil turlari (masalan, yuridik, axborot, ekologik, kompyuter, moliyaviy) qayd etila boshlandi, bu esa savodxonlik haqidagi g‘oyalarning kundalik hayotda ham, fanda ham rivojlanganligini ko’rsatadi. Shu bilan birga, ko’pincha savodxonlikning o’ziga xos turlarining ta’riflari mavjud emas va turi ma’lum bir soha orqali aniqlanadi. Kuzatilgan kengaytma tushunchalar "savodxonlik" oldin "kompetentlik", tez-tez bular ikki tushunchalar ishlatiladi.

V. G. Onushkin va E. I. Ogarevning ta’kidlashicha, "savodxonlik - bu shaxsiy tuzilmaning barcha boshqa tarkibiy elementlari guruhlangan, birlashtirilgan, o’zaro ta’sir qiladigan va faollashtirilgan o’ziga xos yadro yoki kontsentratsiya turi". Shuningdek, ular umumbashariy xarakterga ega bo’lgan va savodxonlikning barcha turlarining umumiy xususiyatlarini aks ettiruvchi umumiy savodxonlik ta’rifini taklif qiladilar va ya’ni savodxonlik - "o’rganish natijasi ifodalangan qobiliyatlar odam harakat muvofiqlik bilan ob’ektiv dunyoning ob’ektiv mantig‘i".

Moliyaviy savodxonlik zamonaviy sharoitda savodxonlikning mashhur turlaridan biriga aylandi. Shunday qilib, Iqtisodiy taraqqiyot va hamkorlik tashkiloti (OECD) tahlilchilari rasmiy nashrlar sahifalarida quyidagi fikrni bildirishmoqda: “Bugungi kunda umumiy qabul qilinganidek, moliyaviy bozorlarning rivojlanishi natijasida, shuningdek, demografik, iqtisodiy va siyosiy o’zgarishlar, moliyaviy savodxonlik hayotiy mahoratga aylandi”.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) moliyaviy savodxonlikni “ogohlik, bilim, ko’nikma, o’rnatishlar va xatti-harakati, qaysi zarur Uchun asrab olish to’g‘ri moliyaviy qarorlar qabul qilish va shaxsiy moliyaviy farovonlikka erishish".

Jahon banki moliyaviy savodxonlik atamasiga qisqacha ta’rif beradi "qobiliyat odam qabul qilish oqlangan yechimlar tomonidan pulingizdan foydalanish va boshqarish".

Har xil talqinlar ta’riflar moliyaviy savodxonlik mahalliy va xorijiy olimlarning asarlarida taqdim etilgan. A. V. Zelentsova moliyaviy savodxonlikni "shaxslarning o’z mablag‘larini boshqarish va samarali moliyaviy qarorlar qabul qilish qobiliyati" sifatida tavsiflaydi.

L. Yu. Rijanovskaya ko’rib chiqilayotgan kontseptsiyani quyidagicha ifodalaydi: "Foydalanish bo’yicha ongli qarorlar qabul qilish qobiliyati. shaxsiy moliyaviy resurslar Va boshqaruv bunday manbalar».

O. E. Kuzina shunday yozadi: “Moliyaviy savodxonlik odatda bilim sifatida belgilanadi moliyaviy institutlari va taklif qilingan ular mahsulotlar, shuningdek zarurat tuo’ilganda ulardan foydalanish va o’z harakatlarining oqibatlarini tushunish qobiliyati".

M. Yu. Shevyakov quyidagi ta’rifni beradi: "Bilimdan foydalanish qobiliyati Va ko’nikmalar boshqaruv shaxsiy moliyaviy resurslar Uchun o’z farovonligi va moliyaviy xavfsizligini ta’minlash".

M. I. Podbolotova, N. V. Demina taklif keyingisi ibora: "Moliyaviy savodxonlik kompetentsiya sifatida shaxsning ajralmas xususiyati bo’lib, o’quvchining jamiyat bilan moliyaviy munosabatlari darajasini belgilaydi va uning ijtimoiy kompetentsiyasining ajralmas qismidir".

M. E. Paatova, M. Sh. Daurova shakllantirish ergashish ta’rif: "Moliyaviy savodxonlik - bu moliyaviy sohadagi bilim, ko’nikma, qobiliyat va munosabatlar majmui va shaxsiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, ularning shakllanishi insonning turli ijtimoiy-iqtisodiy rollarni samarali bajarish qobiliyati va tayyorgarligini belgilaydi".

T. A. Aimaletdinov quyidagi ta’rifni beradi: "Moliyaviy savodxonlik moliyaviy madaniyatning ajralmas qismi sifatida qaraladi va insonning moliyaviy bilimlari, qobiliyatlari va ko’nikmalari darajasini, shuningdek, unga ongli ravishda moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini beradigan shaxsiy fazilatlarini ifodalaydi".

"Shaxsiy moliyaviy savodxonlik - bu shaxsiy moliyaviy sharoitlarni o’qish, tahlil qilish, boshqarish va muloqot qilish qobiliyatidir" (W. L. Anthes, 2004).

"Qobiliyat baho bering yangi, murakkab moliyaviy asboblar va vositalarni tanlashda ham, ulardan foydalanish darajasida ham asosli qarorlar qabul qilish, eng yaxshi uzoq muddatli foydaning maqbul amalga oshirilishini ta’minlash” (L. Mandell, 2007).

“Ishlash kabi asosiy moliyaviy tushunchalarni bilish murakkab foiz, nominal va real qiymatlar orasidagi farq, shuningdek, risklarni diversifikatsiya qilish asoslari” (A. Lusardi, 2008).

“To’liqlik moliyaviy xabardorlik bilim, ko’nikmalar, ongli moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun zarur bo’lgan munosabat va xulq-atvor namunalari va pirovardida, shaxsiy moliyaviy farovonlikka erishish qobiliyati” (A. Atkinson, FAMessy, 2012).

“Moliyaviy savodxonlik - bu insonning asosiy moliyaviy tushunchalar va jarayonlarni qay darajada tushunishi, shuningdek, moliyaviy imkoniyatlarga ega bo’lish qobiliyati va ishonchi ko’rsatkichidir. Boshqaruv shaxsiy moliya hamyonbop muvofiq qisqa muddatga yechimlar va ishonchli uzoq muddat moliyaviy rejalashtirish, hayotiy voqelik va iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda” (D. Remund 2010).

Olingan materialni umumlashtirib, bizning fikrimizcha, ko’rib chiqilayotgan kontseptsiyaning eng keng qamrovli va aniq ta’rifi D. V. Moiseeva: "Moliyaviy savodxonlik - bu insonning moliyaviy farovonlikka erishish va biznesda ishtirok etish qobiliyatini anglatadi. V iqtisodiy hayot, asoslangan yoqilgan mavjudligi bitta yoki bir nechta (turli kombinatsiyalarda) elementlar: moliyaviy bilimlar, moliyaviy ko’nikmalar, moliyaviy munosabatlar".

References: 1. Vaxabov A. V. , Xudyakov N. K. Mejdunarodnыye valyutno-kreditnыye i finansovыye otnosheniya. V 2-x t. -Tashkent: Universitet, 2003. 2. Karimov N. G‘. Bank tizimi barqarorligida tashqi nazorat va auditning ahamiyati. //Bozor, pul va kredit. 2006. - №1 3. Abdullayeva Sh. Z. Pul, kredit va banklar-Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007. 4. Omonov A. A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. -Toshkent, 2008. 5. B. B. Babayev. Voprosы formirovaniya resursov kommercheskix bankov i ix effektivnoye ispolzovaniye. Avtoreferat kan. ekon. nauk. Bankovsko-finansovaya akademiya Respubliki Uzbekistan. -T. , 2002. 6. Ortikov U. D. Bank resurslari va ularni boshqarish. “Moliya, pul muomalasi va kredit” i. f. n. diss. avtoreferati. O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. - 19. 09. 2008.

IKKINCHI TARTIBLI CHIZIQLARNING UMUMIY TENGLAMALARINI KANONIK KO‘RINISHGA KELTIRISH

Saliyeva Sevara Ma’mirbek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti,
Matematika va Informatika kafedrasi o‘qituvchisi
saliyevasevara18@gmail. com,

Annatatsiya. Ushbu maqolada ikkinchi tartibli chiziqlarning umumiy tenglamasi va ikkinchi tartibli chiziqning umumiy tenglamasidagi koeffitsentlar qanday bo‘lganda ellips, giperbola va parabolani ifodalashini hamda ikkinchi tartibli egri chiziqning markazini, diametrini topish usullari bilan birgalikda ikkinchi tartibli chiziqning to‘gri chiziq bilan kesishishi keltirib o‘tiladi.

Kalit so‘zi: Ikkinchi tartibli to‘g‘ri chiziq, ellips, giperbola, parabola, ikkinchi tartibli egri chiziq markazi. invariant, simmetriya o‘qi

Аннотация. В данной статье общее уравнение прямых второго порядка и коэффициенты в общем уравнении прямых второго порядка представляют собой эллипс, гиперболу и параболу, а также методы нахождения центра и диаметра кривых второго порядка. , а также пересечение прямых второго порядка с желаемыми прямыми.

Ключевые слова: прямая второго порядка, эллипс, гипербола, парабола, центр кривой второго порядка, инвариант, ось симметрии.

Abstract. In this article, the general equation of second-order lines and the coefficients in the general equation of second-order lines represent ellipse, hyperbola, and parabola, as well as the methods of finding the center and diameter of second-order curves, as well as the intersection of second-order lines with straight lines. wished

Keywords: Second-order straight line, ellipse, hyperbola, parabola, center of second-order curve, invariant, axis of symmetry

Bizga $Ax^2 + 2Bxy + Cy^2 + 2Dx + 2Ey + F = 0$ (1)

tenglama bilan berilgan ikkinchi tartibli chiziqni aniqlash va uni yasash bilan shug‘ullanamiz. Bu holda parallel ko‘chirish yordamida koordinata boshini ikkinchi tartibli chiziqning markaziga joylashtiramiz. Natijada tenglamada birinchi hadlar yo‘qoladi. Koordinata o‘qlarini o‘zaro perpendikulyar bosh yo‘nalishlar bo‘yicha yo‘naltiramiz. Yo‘nalishlarning o‘zaro qo‘shma bo‘lishi invariant xossa bo‘lganligi uchun yangi koordinatalar sistemasida $\{1, 0\}$ va

$\{0,1\}$yo‘nalishlar o‘zaro qo‘shma bo‘ladi. Bu shart: $B' = 0$ tenglikka teng kuchlidir. Demak bu holda ikkinchi tartibli chiziqning tenglamasi: $A'x'^2 + C'y'^2 + F$ (2)

ko‘rinishga keladi. Bu tenglamada $A' \neq 0, C \neq 0$, F koeffitsient esa nolga teng bo‘lishi ham, nolga teng bo‘lmasligi ham mumkin. Agar F koeffitsient nolga teng bo‘lsa, (2) tenglama: $Ax'^2 + By'^2 = 0$ (3) ko‘rinishga keladi. Agar A, B koeffitsientlar har xil ishoralarga ega bo‘lsa, bu tenglama ikkita kesishuvchi to‘g‘ri chiziqni aniqlaydi. Koeffitsientlar bir xil ishoralarga ega bo‘lsa, bu tenglamani bitta nuqtani aniqlaydi.

Tenglama: $x^2 + 4y^2 - 8x + 8 = 0$

Yechim: $x^2 + 4y^2 - 8x + 8 = 0$


$$(x^2 - 8x + 16) + 4y^2 + 8 - 16 = 0$$

$$(x-4)^2 + 4y^2 = 8$$

Kanonik ko‘rinishi:

$$\frac{(x-4)^2}{8} + \frac{y^2}{2} = 1$$

Bu ellipsning kanonik ko‘rinishi.




Tenglama: $4x^2 - y^2 - 16 = 0$

$$4x^2 - y^2 = 16$$

$$\frac{4x^2}{16} - \frac{y^2}{16} = 1$$

Kanonik ko‘rinishi

$$\frac{x^2}{4} - \frac{y^2}{16} = 1$$



Bu giperbolaning kanonik ko‘rinishi.

Tenglama: $3x^2 + 4y^2 - 12x + 8y - 7 = 0$

Koeffitsientlari: $A = 3, B = 0, C = 4,$


$D = -12, E = 8, F = -7$

O‘zgarishlar kiritib kvadrat shaklga o‘tamiz:

$3(x^2 + 4x) + 4(y^2 + 2y) = 7$

$3((x-2)^2 - 4) + 4((y+1)^2 - 1) = 7$

$3(x-2)^2 + (y+1)^2 = 7$



Tenglama: $2x^2 + 5y^2 - 8x + 10y + 12 = 0$

Koeffitsientlari: $A = 2, B = 0, C = 5, D = -8, E = 10, F = -12$

O‘zgarishlar kiritib kvadrat shaklga o‘tamiz:

$$2(x^2 - 4x) + 5(y^2 + 2y) = -12$$

$$2((x-2)^2 - 4) + 5((y+1)^2 - 1) = -12$$

$$2x^2 + 3y^2 - 4x + 6y - 5 = 0$$

O‘zgarishlar kiritib kvadrat shaklga o‘tamiz:

$$2(x^2 - 2x) + 3(y^2 + 2y) = 5$$

$$2((x-1)^2 - 1) + 5((y+1)^2 - 1) = 5$$

Kanonik ko‘rinish: $\frac{(x-1)^2}{5} + \frac{(y+1)^2}{\frac{10}{3}} = 1$

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. О_Н_Цубербиллер Аналитик геомертиядан масалалар ва машклар “Укитувчи” нашриёти тошкент -1966 йил

2. Т. Н. Кори-Ниёзий Аналитик геометиядан асосий курси. тошкент -1971 йил

3. Narmanov Abdigappar Yakubovich Analitik geometriya. . O‘zbekiston faylasuflari milliy Jamiyatinashr1yoti Toshkent -2008

4. S. V. Baxvalov, P. S. Modenov, A. S. Parxomenko . Analitik geometriyadan masalalar to‘plami. Toshkent-2005

5. To‘ychiyev. Sh. Sh, &. A. (2022 г. 30-апрел). BA’ZI NOAN’ANAVIY MASALALARNING YECHIMLARI. *Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences*, ст: 65-68.

D. U. Madrahimov, T. S. (2022 г. 9-сентябр).

6. D. U. Madrahimov, SUBSTANTIATION OF THE DIRECTION OF RESEARCH TO INCREASE THE PERFORMANCE OF LINTERS. *6. D. U. Madrahimov, T. S. (2022 г. 9-сентябр). 2. D. U. MadrSUBSTANTIINNOVATIVE TECHNOLOGICA*, 159-163 стр.

O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARI TADQIQOTCHILIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Sh. A. Buranova

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,

Xakimova Munavvar

JDPU 2 kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari orasida tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning ahamiyati, pedagogik asoslari va amalga oshirilgan yutuqlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, tadqiqotchilik qobiliyatlari, ilmiy faoliyat, pedagogik yondashuvlar, metodologiya, innovatsiyalar, talabalar, ilmiy izlanishlar.

Abstract. This article discusses the importance, pedagogical foundations, and achievements in the development of research abilities among preschool education students in Uzbekistan.

Keywords: preschool education, research skills, academic activities, pedagogical approaches, methodology, innovations, students, scientific research.

Аннотация. В данной статье рассматривается важность, педагогические основы и достигнутые успехи в развитии исследовательских способностей среди студентов направления дошкольного образования в Узбекистане.

Ключевые слова: дошкольное образование, исследовательские способности, научная деятельность, педагогические подходы, методология, инновации, студенты, научные исследования.

Hozirgi davrda jahon miqyosida ta’lim islohotlari tezlik bilan rivojlanib borar ekan, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini har tomonlama shakllantirish, ularni mustahkam ma’naviy va intellektual asoslar bilan ta’minlash, shuningdek, sog‘lom va barkamol

shaxs sifatida voyaga yetkazish dolzarb masala hisoblanadi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar maktabgacha ta’lim jarayoniga katta e’tibor qaratib, bolalarning tarbiyaviy, ma’naviy va intellektual jihatlarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida ko‘rmoqda. Bu esa, bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy tafakkur va erkin dunyoqarashni shakllantirishga katta hissa qo‘shadi.

Mazkur maqolada mamlakatimizda so‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim sohasiga qaratilayotgan alohida e’tibor va bu yo‘nalishda qabul qilingan meyoriy-huquqiy hujjatlar tizimining o‘ziga xos xususiyatlari atroflicha o‘rganilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni qo‘llash orqali maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berish dasturlari ishlab chiqilgan va ularga zamonaviy yondashuvlar joriy qilinishi belgilangan. Ushbu hujjatda ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish, bolalarning har tomonlama rivojlanishi va ular uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish masalalari dolzarb sifatida qayd etilgan.

O‘zbekistonda ta’lim tizimi yangilanish jarayonida bo‘lib, maktabgacha ta’lim sohasi ham alohida e’tiborga sazovor bo‘lgan. Ta’limning barcha bosqichlarida, shu jumladan maktabgacha ta’lim yo‘nalishida ham, talabalar uchun yangi pedagogik yondashuvlar va metodikalar tatbiq etilmoqda. Bu o‘zgarishlar orasida maktabgacha ta’lim talabalari uchun tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi ham o‘ta dolzarb bo‘lib turibdi. Tadqiqotchilik qobiliyatlari – bu talabalar tomonidan ilmiy faoliyatni olib borish, yangi bilimlarni o‘rganish, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyatlarning rivojlanishi talabalar uchun ilmiy ishlarni muvaffaqiyatli bajarish va kelajakda ilmiy sohada ishlash uchun asos bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari nafaqat bolalar ta’limi va tarbiyasini o‘rgatishda, balki o‘qituvchi sifatida ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishi, tadqiqotlar olib borishi va o‘z ilmiy qobiliyatlarini rivojlantirishi kerak. Tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish, ayniqsa, maktabgacha ta’lim talabalari uchun muhim ahamiyatga ega, chunki bu kelajakda ularning ta’lim tizimidagi o‘rni va faoliyatini ta’sirchan va samarali qilishga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim, jamiyatning kelajagi uchun muhim bo‘lgan intellektual va ijtimoiy rivojlanishning poydevorini tashkil etadi. Bu bosqichda, bolalar nafaqat umumiy bilimlar bilan tanishadi, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni, hissiy rivojlanishni va mustaqil fikrlashni o‘rganadilar. Bu ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishi ko‘p jihatdan ta’lim muassasalarining samarali faoliyati va talabalarning ilmiy-tadqiqot qobiliyatlariga bog‘liq. Shunday ekan, tadqiqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirish, nafaqat maktabgacha ta’limning sifatini oshirish, balki kelajakda ta’lim tizimining samarali ishlashini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Maktabgacha ta’lim

tizimi jamiyatning barcha sohalari bilan uzviy bog‘liqdir. Bu tizimni rivojlantirish uchun hukumat tomonidan qabul qilingan meyoriy-huquqiy hujjatlar va strategiyalar asosida, yuqori malakali pedagoglar va ilmiy izlanishlar asosida ishlaydigan ta’lim muassasalari shakllantiriladi.

Tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishda asosiy vazifalar

Maktabgacha ta’lim talabalari uchun tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishda asosiy vazifalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Pedagogik nazariyalarni o‘rganish: Talabalar ilmiy ishlarda zamonaviy pedagogik nazariyalarni o‘rganish va ulardan amaliyotga tatbiq qilishni o‘rganadilar. Bu jarayon ilmiy izlanishlar va tajriba ishlari orqali amalga oshiriladi.

2. Ilmiy faoliyatga rag‘batlantirish: Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar bilan shug‘ullanishga rag‘batlantirilishi kerak. O‘zbekistonda ushbu sohada ko‘plab ilmiy konferensiyalar, seminarlarda qatnashish imkoniyatlari mavjud.

3. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish: Talabalar yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishda va qo‘llashda ishtirok etishlari lozim. Bu, o‘z navbatida, ularning ilmiy tadqiqotlar olib borish qobiliyatini rivojlantiradi.

4. Tadqiqot metodologiyasini o‘rgatish: Talabalarga ilmiy tadqiqot metodologiyasini o‘rgatish, ularni ilmiy ishlarda metodologik yondashuvlarni to‘g‘ri qo‘llashga o‘rgatish zarur.

5. Tadqiqotchilik mahoratini oshirish: Talabalar ilmiy izlanishlar olib borish, muammolarni tahlil qilish va ularga innovatsion yechimlar taklif qilishni o‘rganadilar. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimida tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirish.

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimi modernizatsiya qilinayotgan davrda, pedagoglar va talabalar ilmiy faoliyatning rivojlanishiga katta e`tibor qaratishmoqda. O‘zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti" (2020) maktabgacha ta’lim tizimida sifatni oshirish va talabalar o‘rtasida tadqiqotchilik salohiyatini rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan[1]. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga doir Prezident Farmoni maktabgacha ta’lim tizimini yangilashga qaratilgan aniq yo‘nalishlarni belgilaydi, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar va pedagogik yangiliklar tizimida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Bu hujjatlar talabalarning ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashni va ilmiy izlanishlar olib borishlarini ta’minlashni maqsad qilib qo‘yadi.

Pedagogik yondashuvlar va metodikalar

Maktabgacha ta’lim talabalari uchun tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar va metodikalar katta o‘rin tutadi. O‘zbekiston maktabgacha ta’lim

[1] O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti" (Toshkent, 2020 yil)

tizimida ko‘plab innovatsion yondashuvlar va metodikalar ishlab chiqilgan. Maktabgacha ta’lim talabalari o‘qituvchi va tadqiqotchi sifatida o‘zlarining ilmiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan amaliy va nazariy tadqiqotlar bilan shug‘ullanishlari kerak. Maktabgacha ta’lim tizimida tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning muhimligi, avvalo, ilmiy izlanishlarga qiziqish uyg‘otish va pedagogik yangiliklarni kiritishda talabalar faolligini oshirishda ko‘rinadi[1]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish, talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va tanqidiy yondashuvlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, ularning pedagogik faoliyatida yanada samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish, avvalo, maktabgacha ta’lim yo`nalishi talabalarining malakasini oshirishga qaratilgan faoliyatlarni talab qiladi. Pedagoglarni doimiy ravishda malaka oshirish kurslari orqali o‘qitish, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishga tayyorlash, pedagogik metodlarni o‘rganish va amaliyotga tadbiq etish zarur. O‘zbekiston ta’lim tizimida pedagoglar uchun alohida kurslar, treninglar va ilmiy konferensiyalar tashkil etilib, ular o‘z ilmiy tadqiqot qobiliyatlarini oshirishga va pedagogik metodlarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Bu pedagoglarning ilmiy ishlarini rivojlantirishga, yangi innovatsion pedagogik metodlarni qo‘llashga, shuningdek, ta’lim tizimida ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarni olib borishga imkon beradi.

Tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy omillari

1. Pedagogik yondashuvlar: Tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali pedagogik yondashuvlar zarur[2]. Bu yondashuvlar talabalarga ilmiy faoliyatni boshlashdan tortib, tadqiqotlar olib borish, natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarishga qadar bo‘lgan jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

2. Ilmiy tadqiqotlar faoliyatini tashkillashtirish: Talabalarning ilmiy tadqiqotlarga jalb qilinishi, ilmiy seminarlar, konferentsiyalar va amaliyotlar tashkil etish orqali amalga oshirilishi kerak [3]. Bu talabalarga ilmiy izlanishlarni amalga oshirish imkonini beradi va ular uchun ilmiy faoliyatni muvaffaqiyatli boshlashga yordam beradi.

3. Metodologik tayyorlik: Talabalarga tadqiqot metodologiyasi haqida chuqur ma’lumotlar berish, ilmiy izlanishlarning qanday olib borilishi, tahlil qilish metodlari va natijalarni to‘g‘ri talqin qilish bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirish zarur.

4. Mavjud ilmiy resurslar: O‘zbekistonda ilmiy-axborot resurslari va kutubxonalarda mavjud bo‘lgan manbalar talabalarga o‘rganish va tadqiqot o‘tkazish jarayonida katta yordam beradi.

[1]Qodirova, F.R., Toshpo‘latova, Sh.Q. va Agzamova, M.N. (2019). “Maktabgacha pedagogika”. Tafakkur, Toshkent.

[2] Xolmurodova, F. (2021). Tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish: pedagogik nuqtai nazar. Tashkent: O‘zbekiston ilmiy nashriyoti.

[3] Usmanov, R. (2020). Pedagogik faoliyat va tadqiqotlar. Tashkent: O‘zbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti.

Talabalarga ilmiy maqolalar, kitoblar va onlayn ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratish muhimdir.

Tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning samarali usullari

Tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali usullarni tanlash muhim ahamiyatga ega. Ba’zi samarali usullarni quyidagicha ajratish mumkin:

Kuchli nazariy tayyorgarlik: Talabalar ilmiy tadqiqotlarni muvaffaqiyatli olib borishlari uchun nazariy bilimlarga ega bo‘lishlari zarur[1]. Ushbu bilimlar yordamida talabalar ilmiy muammolarni hal qilishda ko‘proq o‘zlarini ishonchli his qiladilar.

Amaliy mashg‘ulotlar: Ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarni amalda olib borish, talabalar uchun tajriba to‘plashga yordam beradi. Tadqiqotlar o‘tkazish va real dunyoda qo‘llaniladigan metodlarni o‘rganish orqali talabalar o‘z bilimlarini mustahkamlashadi[2].

Hamkorlik va jamoaviy ishlar: Tadqiqotlarni jamoa bo‘lib bajarish, talabalar orasida tajriba almashish va ilmiy muhokamalar o‘tkazish ilmiy faoliyatni samarali qilishga yordam beradi.

Innovatsion yondashuvlar: Tadqiqotchilikda yangiliklarni kiritish, o‘z vaqtida texnologik va ilmiy yutuqlarni o‘rganish, yangi tadqiqot metodlaridan foydalanish zarur.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tizimida tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishning muhim jihatlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Tadqiqotlar yordamida maktabgacha ta’limning samaradorligi oshirilib, pedagogik metodlar va texnologiyalar yanada takomillashtiriladi. Bu borada normativ huquqiy hujjatlar va davlat dasturlari alohida rol o‘ynaydi. Kelajakda maktabgacha ta’lim tizimini yanada rivojlantirish uchun ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash va samarali tadqiqotlar olib borish zarur. Bolalar uchun ilmiy faoliyatga erkin kirish imkoniyatlari yaratish pedagogik muhitni ijobiy tarzda o‘zgartiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti" (Toshkent, 2020 yil)

2. Qodirova, F. R. , Toshpo‘latova, Sh. Q. va Agzamova, M. N. (2019). “Maktabgacha pedagogika”. Tafakkur, Toshkent.

3. Xolmurodova, F. (2021). Tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish: pedagogik nuqtai nazar. Tashkent: O‘zbekiston ilmiy nashriyoti.

4. Usmanov, R. (2020). Pedagogik faoliyat va tadqiqotlar. Tashkent: O‘zbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti.

[1] Akhmedov, M. (2023). Maktabgacha ta'lim talabalari uchun tadqiqot metodologiyasi. Tashkent: Markaziy kutubxona nashriyoti.

[2] Ahmedova, D. (2021). Ilmiy izlanishlar va ta'lim. Tashkent: O‘zbekiston ta'lim nashriyoti.

5. Akhmedov, M. (2023). Maktabgacha ta’lim talabalari uchun tadqiqot metodologiyasi. Tashkent: Markaziy kutubxona nashriyoti.

6. Ahmedova, D. (2021). Ilmiy izlanishlar va ta’lim. Tashkent: O‘zbekiston ta’lim nashriyoti.

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O‘STIRISHDA BADIIY ADABIYOTLARNING AHAMIYATI

Sh. D. To‘raqulova

JDPU Maxsus pedagogika kafedrasi stajyor o‘qituvchisi

Annatatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshidagi bolalarda nutqini o‘stirishda badiiy adabiyotlarning o‘rni ularni savodga o‘rgatish, bir-birlari bilan muloqot qilishga o‘rgatish, haqida fikr mlohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy adabiyot, bolalar adabiyoti, she’riyat, qahramon, obraz, nutq, o‘qish, savod, tafakkur, kasb-hunar tafakkur, tarbiya, ta’lim, ertak va boshqalar.

Аннотация. В данной статье описывается роль художественной литературы в развитии речи детей дошкольного возраста, обучении их грамотности, обучении общению друг с другом.

Ключевые слова: художественная литература, детская литература, поэзия, герой, образ, речь, чтение, грамотность, мысль, профессиональная мысль, воспитание, образование, сказка и т. д.

Abstract. This article describes the role of fiction in the development of speech in preschool children, teaching them literacy, and learning to communicate with each other.

Keywords: fiction, children’s literature, poetry, hero, image, speech, reading, literacy, thought, professional thought, upbringing, education, fairy tale, etc.

Yurtimizda istiqlolning dastlabki yillaridanoq yosh avlodni tarbiyasiga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Hech kimdan kam bo‘lmagan, yuksak aql – zakovatli, sog‘lom va ma’nan barkamol farzandlarni kamol toptirish eng ustivor vazifalardan biriga aylandi. Bunday ulkan vazifa bosqichma – bosqich amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida 5 ta metodika bo‘yicha bolalarga ta’lim-tarbiya saboqlari berib boriladi. Bulardan eng asosiysi «Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari» desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, nutq o‘stirish nafaqat bolaning so‘z boyligini oshirish, balki uning muloqot qobiliyatini rivojlantiradi, undagi bilish jarayonlarining, shu jumladan bolaning tafakkurini o‘stirishda ham muhim vosita bo‘lib hisoblanadi.

Ma’lumki badiiy adabiyotning bolaning aqliy va estetik rivojlanishiga ta’siri katta. Badiiy adabiyot bolaga jamiyat va tabiat hayotini, odamlarning hissiyotlari va munosabatlar dunyosini ochadi va tushuntiradi. Bu bolaning tafakkuri va tasavvurini rivojlantiradi, his-tuyg‘ularini boyitadi va rus adabiy tilining ajoyib namunalarini beradi. Uning tarbiyaviy, kognitiv va estetik ahamiyati beqiyosdir, chunki bolaning atrofdagi dunyo haqidagi bilimlarini kengaytirish, bu chaqaloqning shaxsiyatiga ta’sir qiladi, ona tilining shakli va ritmini nozik his qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Badiiy adabiyot insonga hayotining birinchi yillaridanoq hamroh bo‘ladi. Bolaning oldida adabiy asar mazmun va badiiy shakl birligida paydo bo‘ladi. Bola bunga tayyorlangandagina adabiy asarni idrok etish to‘liq bo‘ladi va buning uchun bolalarning e’tiborini nafaqat mazmuniga, balki ertak, hikoya, she’r va boshqa badiiy asarlar tilining ifodali vositalariga ham jalb qilish kerak. Asta-sekin bolalar adabiy asarlarga ixtirochilik munosabatini rivojlantiradi va badiiy did shakllanadi. She’riy obrazlarda badiiy adabiyot jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg‘ular va o‘zaro munosabatlar olamini ochib beradi hamda tushuntiradi. Bu namunalar o‘z tas’ir kuchiga ko‘ra turlicha bo‘ladi: hikoyalarda bolalar so‘zlarning lo‘ndaligi va aniqligini bilib oladilar; she’rlarda o‘zbekcha nutqning musiqiyligini, ohangdorligini ilg‘aydilar; xalq ertaklari ular oldida tilning aniqligi va ifodaliligini namoyon qiladi, ona tilidagi nutqning yumor, jonli va obrazli taqqoslashlar, ifodalarga qanchalik boyligini ko‘rsatadi. Badiiy asarlar voqelikni haqqoniy aks ettirishi, yorqin obrazlar misolida xarakterlarni ochibberishi bilan bolalarda eng yaxshi insoniy va axloqiy fazilatlarni tarbiyalaydi, hayot go‘zalligini idrok etishga o‘rgatadi.

Bolalar kitobning qiziqarli mazmuni do‘stlik, halollik, mehnatsevarlik, o‘rtoqlik namunalarini ko‘rsatadi. Bolalar badiiy adabiyot asarlari estetik jihatdan tarbiyalashga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Badiiy asarlarning yorqin obrazlari, jonajon tabiatning shoirona manzaralari, she’rlarning musiqaviyligi, tilning o‘tkirligi, ifodaliligi bolalarga yoqadi. Bolalar badiiy so‘z qudratini his etadilar, uncha katta bo‘lmagan ertaklar, xalq ashula hamda she’rlarini tez va osongina eslab qoladilar. Badiiy so‘zga muhabbatni ilk yoshdan boshlab tarbiyalab borish zarur, bola bog‘chadan maktabga ana shu muhabbat bilan o‘tadi va keyinchalik Vatan adabiyotini sevadigan bo‘lib qoladi. Xalq og‘zaki ijodi - ertaklar, topishmoqlar, maqollar, qo‘shiqlarning ko‘plari uzoq o‘tmishda va hozirgidan tubdan farq qiladigan voqyeligidan tubdan farq qiladigan turmush sharoitida yaratilgan xalq ijodi asarlaridan faqat tarbiya vazifalariga javob beradiganlari tanlab olinadi. Aql-idroki yoki jasurligi bilan, sabr-toqati yoki mehnati bilan har qanday qiyinchiliklarni yengadigan dovyurak, vijdonli qahramonlar ishtirok etadigan ertaklardan bolalar juda hayratlanadilar, bunday ertaklar bolalarni ijobiy qahramonlarga nihoyatda hayrixoh bo‘lishga, yovuzlikka, nohaqlikka, qizg‘anchiqlikka, makr-xiylaga nisbatan murosasiz bo‘lishga majbur etadi.

Maktabgacha ta’lim muassasasida sog‘lom, tabiiy muhit yaratish, bolalarning to‘g‘ri muomalaga kirishtirish, boshqalar bilan gaplashish ishtiyoqining ortishiga turtki bo‘ladi. Buning uchun bolalar nutqining shaklan va mazmunan mantiqiy birligiga erishishi muhim talab hisoblanadi. Nutq madaniyati ko‘p qirrali hodisa, uning asosiy natijasi adabiy til me’yorlariga muvofiq gapirish qobiliyatidir. Nutqning to‘g‘riligi va kommunikativ maqsadga muvofiqligi adabiy tilni o‘zlashtirishning asosiy bosqichlari hisoblanadi. Majoziy nutqni rivojlantirishni bir necha yo‘nalishda ko‘rib chiqish kerak: nutqning barcha jihatlari (fonetik, leksik, grammatik) bilan bolalarni o‘zlashtirish, adabiy va folklor asarlarining turli janrlarini idrok etish va lingvistik dizaynni shakllantirish bo‘yicha ish sifatida. mustaqil izchil bayonot. Badiiy va og‘zaki folklor san’ati asarlari, shu jumladan kichik adabiy shakllar bolalar nutqining ekspresivligini rivojlantirish uchun eng muhim manbalardir. Bolalar nutqining ekspresivligini rivojlantirish uchun eng muhim manbalar badiiy asarlar va og‘zaki folklor san’ati asarlari, shu jumladan kichik folklor shakllari (maqollar, matallar, topishmoqlar, bolalar bog‘chalari, qofiyalar, frazeologik birliklar) kabilardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. -T. : 2016 y

2. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi Nizom. // Maktabgacha tarbiya. -T. , 2000

3. Ayupova M. Yu. Logopediya. – T. : O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.

4. Mo‘minova L. , Amirsaidova SH. va boshqalar. Maxsus psixologiya. – T. : O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2013.

5. D. R. Babayeva Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi (Darslik). - T. : «Barkamol fayz media», 2018

TALABALARDA KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Norqulov Sh.M.

Jizzax davlat pedagogika universiteti

“Jismoniy madaniyat” fakulteti dotsenti

Shokir-Norqulov@mail. ru

Ta’lim sohasidagi davlatimiz olib borayotgan siyosatning tub ijrosini ta’minlovchi shaxs - pedagog kadrlarimiz hisoblanadi. Bugungi kunda pedagoglarimizda qanday xususiyatlar

shakllanish kerak? Pedagoglar ta’lim – tarbiya jarayonini olib borishda nimalarga e’tibor qaratish lozim? O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat qanday shakllarda namoyon bo‘lish kerak? kabi qator savollar tug‘ilishi tabiiy xoldir. Yuqoridagi savollarga javob topish, o‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, boshlang‘ich sinf o‘qiuvchilariga dars o‘tish o‘qituvchilarga alohida ma’suliyat yuklaydi. Uzluksiz ta’limning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan boshlang‘ich ta’lim tizimini takomillashtirish kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishning sifat jihatidan yangi konsepsiyalarni amaliyotga joriy etilishini talab qilmoqda. Eng muhim ustuvor yo‘nalish sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini yangicha yondashuvlar asosida shakllantirish, ularning o‘rganish istaklari va talablarini inobatga olgan holda o‘quv fanlarining yangi avlodini yaratish, xorijiy tillarni o‘rganish, axborot va axborot komunikatsion texnologiyalarini kafolatlangan tarzda o‘zlashtirish, ta’lim oluvchilarning individualligini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini himoya qilish va mustahkamlashdan iborat. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-oktyabrda qabul qilingan “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonunning 2-moddasi “Yoshlarni ilm-fan va ilmiy faoliyatga jalb etish”18, deb nomlanadi. Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da ham Davlat dasturi ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori ishlab chiqildi. Qarorda 2020 — 2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi ishlab chiqildi. Mamlakatimiz umumta’lim maktablari Milliy o‘quv dasturiga asoslangan me’yoriy hujjatlarda tabiat va jamiyatning o‘zaro aloqadorligini uyg‘unlashtirish, atrof-muhitga mas’uliyat hissini shakllantirish kabi jarayonlar o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni fanlararo aloqadorlik asosida takomillashtirish muhim vazifa sifatida e’tirof etilgan. Boshlang‘ich sinflarda darsni chuqur o‘zlashtirishga, vaqtdan unumli foydalanishga, dars sifati va samaradorligini oshirishga tabiiy va ijtimoiy fanlarni integratsiyalash orqali erishish mumkin. Bugungi kunda o‘qituvchilarning darsda natijaga erishish imkoniyatlari o‘quvchilar diqqatini e’tiborga olgan holda darsni tashkil qilishlariga bog‘liq. Chunki har qanday aqliy faoliyat teran diqqat orqaligina samarali o‘zlashtiriladi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ilmiy dunyoqarashni fanlararo shakllantirish maqsadida pedagogik jarayonning didaktik imkoniyatlari (bilish, o‘rganish, amalda sinab ko‘rish, fikrlash, mushohada qilish) yuqori darajadagi fikrlash mustaqilligining (tushunish, fikrlash, qarorlar qabul qilish) namoyon bo‘lishiga ustuvorlik berish asosida takomillashtiriladi. Bilish - bu atrofimizdagi dunyo haqida bilim va tushuncha olish jarayonidir. U turli manbalardan ma’lumotlarni faol idrok etish, tahlil qilish, talqin qilish va olishni o‘z ichiga oladi. Bilish nafaqat tabiiy ma’lumotlarni olish bilan cheklanib qolmaydi, balki fikrlash, tahlil qilish va ma’no yaratish jarayonlarini ham o‘z ichiga oladi. Bilim didaktik jarayonning

asosiy elementi bo‘lib, ta’lim asosini yaratadi. Didaktik imkoniyat sifatida bilim o‘rganish uchun mazmun, kontekst va katalizator bo‘lib xizmat qiladi. Bilimni didaktik imkoniyat sifatida tarkibni boyitish, kontekstualizatsiya, masala yechish, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash kabi jarayonlar bilan amaliyotga kiritish mumkin. O‘rganish - ta’limning mohiyati bo‘lib xizmat qiladigan chuqur didaktik imkoniyatdir. Bu shaxslar bilim, ko‘nikma va munosabatlarni egallash, o‘zlashtirish Ilmiy dunyoqarashni fanlararo shakllantirish maqsadida pedagogik jarayonning didaktik imkoniyatlari bilish, o‘rganish va amalda sinab ko‘rish fikrlash va qo‘llash jarayonidir. Didaktik imkoniyat sifatida o‘rganish o‘sish va rivojlanish uchun ko‘plab yo‘llarni taklif etadi. Amalda sinab ko‘rish - fanlararo ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun muhim didaktik imkoniyat bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv nazariy bilimlarni real jarayonlarda qo‘llash, tajribalar o‘tkazish, tanqidiy fikrlashni va turli fanlardan tushunchalarni sintez qilishni rag‘batlantiradigan amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishni o‘z ichiga oladi. Fikrlash - pedagogik jarayonda, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ilmiy dunyoqarashni fanlararo shakllantirishga qaratilgan kuchli didaktik vositadir. Fikrlashning turli shakllarini rag‘batlantirish tanqidiy izlanish, muammolarni hal qilish, ijodkorlik va tushunchalarni fanlar bo‘yicha bog‘lash qobiliyatiga yordam beradi. Mushohada qilish - pedagogik jarayonda, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ilmiy dunyoqarashni fanlararo shakllantirishga qaratilgan aqliy faoliyat turi sifatida didaktik imkoniyatdir. Mushohada qilish qobiliyatlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida atrof-muhit bilan aloqada bo‘lishga, aloqalarni o‘rnatishga va atrofdagi dunyoni chuqurroq tushunishga, diqqatning faoliyatini mustahkamlashga imkon beradi. Ushbu didaktik imkoniyatlar yordamida yuqori darajadagi fikrlash mustaqilligini namoyon qiluvchi omillar tushunish, fikrlash, qarorlar qabul qilish namoyon bo‘la oladi. Ilmiy dunyoqarashni fanlararo shakllantirish maqsadida pedagogik jarayonning didaktik imkoniyatlari (bilish, o‘rganish, amalda sinab ko‘rish, fikrlash, mushohada qilish) yuqori darajadagi fikrlash mustaqilligining namoyon bo‘lishi asosida amalga oshirish mumkin. Pedagoglarning diqqati, uning turlari va xususiyatlari haqida yetarli bilimga ega bo‘lishlari va buni dars jarayonida hisobga olishlari ta’limda natijaga erishishlari uchun muhim hisoblanadi. Ilmiy jihatdan diqqat deb, ongni bir nuqtaga to‘plab, muayyan bir obyektga faol qaratilishini tushunamiz. Diqqat-idrok, xotira, tafakkur nutq va xayol, singari alohida psixik jarayon bo‘lmay balki, ilmiy dunyoqarash jarayonlarining sifatini ta’minlovchi ichki faollikdir. Ya’ni diqqat uzluksiz ta’limning asosiy bog‘ini hisoblangan boshlang‘ish sinf o‘quvchilarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda samaradorlikni ta’minlovchi ko‘prik vazifasini bajaruvchi vositadir. Shuning uchun ham diqqat har qanday faoliyatning zaruriy sharti hisoblanadi. Unda olish lozim bo‘lgan materialga qanchalik kuchli sur’atda qaratilgan bo‘lsa, u shunchalik tez va puxta esda qoladi. Boshlang‘ish sinf o‘quvchilarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda

diqqatning roli ularning umumiy kognitiv rivojlanishi va akademik muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Diqqat tushunchisiga mavzudan kelib chiqqan holda quyidagicha ta’rif berish mumkin. Diqqat - bu chalg‘itadigan narsalarga e’tibor bermasdan, o‘z xabardorligini ma’lum bir stimul, vazifa yoki ma’lumotga qaratishning bilim jarayonini anglatadi.

Boshlang‘ich ta’lim kontekstida, diqqat ta’limning turli jihatlarida, shu jumladan, mavzu integratsiyasida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Diqqatning boshlang‘ish sinf o‘quvchilarida ilmiy dunyoqarashni fanlararo shakllantirishda quyidagicha ta’sir turlari mavjud. Muammoni hal qilish va tanqidiy fikrlash: diqqat muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini va tanqidiy fikrlashni qo‘llab - quvvatlaydi. Shuningdek, mavzular fanlararo o‘qitilganda yohud bir-biriga bog‘langan holda berilganda o‘quvchilarda ko‘pincha bilimlarning bir nechta sohalaridan chizishni talab qiladigan murakkab jarayonlariga duch kelishadi. Ularning tegishli tafsilotlarga e’tibor berish, ma’lumotlarni tahlil qilish va yechimlarni sintez qilish qobiliyati ushbu muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun juda muhimdir. Xotirani mustahkamlash: diqqat muhim ma’lumotlarga e’tibor qaratish orqali xotirani mustahkamlashga yordam beradi. Integratsiyalashgan mavzular xotirani saqlashni kuchaytirishi mumkin, chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida turli fanlarning tegishli tushunchalari o‘rtasida uyushmalar tuzatiladi. Ushbu o‘zaro bog‘liq bilimlar tarmog‘i boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga baholash va real dasturlarda ma’lumotni yanada samarali eslab qolishga yordam beradi. Kognitiv moslashuvchanlik: diqqat kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantiradi, bu o‘quvchilarga mavzular o‘rtasida almashish va turli xil o‘quv muhitlariga moslashish imkonini beradi. Fanlar integratsiyasi o‘quvchilarni turli xil fikrlash usullari o‘rtasida muammosiz o‘tishga undaydi, ularning turli vazifalarni hal qilish qobiliyatini oshiradi. Diqqat boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ilmiy dunyoqarashni fanlararo shakllantirishda pedagogik jarayonning didaktik imkoniyatlarini bilish, o‘rganish, amalda sinab ko‘rish, fikrlash, mushohada qilishni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantiradi va ichki motivatsiyani rivojlantiradi. O‘qituvchilar o‘quvchilarni turli fanlarning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rishga va dunyo haqida har tomonlama tushunishni rivojlantirishga undaydigan yaxlit va samarali o‘quv tajribalarini yaratish uchun diqqat kuchidan foydalanishlari mumkin. Shu bilan birgalikda ushbu jarayonlarda diqqatning xosilasi bo‘lmish xotiraning ham ahamiyati katta. Ko‘pincha ayrim o‘quvchilarda xotiraning zaifligi, tez va puxta esda saqlab qololmasligi to‘g‘risidagi shikoyatlari tahlil qilib ko‘rilganda, esda yaxshi saqlab qololmasliklarining sababi ular diqqatining bo‘shligida, tarqoqligida va zaifligida ekanligi ma’lum bo‘ladi. O‘quvchilarning dars materiallarini muvaffaqiyat bilan o‘zlashtirishlari, ular diqqatining yoki xotiraning qanchalik darajada taraqqiy etganligiga bog‘liq. Akademik K. D. Ushinskiyning aytishicha: “Diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona bir eshigidirki,

ongimizga kirib keladigan ma’lumotlarning barchasi shu eshik orqali o‘tib kiradi”. Ta’lim olayotgan ko‘plab o‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtira olmasligi bilan bog‘liq muammolar sababini, avvalo, ular diqqatining yetarli darajada taraqqiy etmaganligidan dalolat beradi. Dunyoqarash tabiat, jamiyat va tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g‘oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma’naviyaxloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e’tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo‘ladi. Dunyoqarash insonning o‘zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi. Bu jihatdan dunyoqarash voqelikning inson ongidagi subyektiv in’ikosidir. Ayrim individning ongi bilan bog‘langan individual dunyoqarash, muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, sinf, millat va jamiyat miqyosidagi ijtimoiy ong bilan bog‘langan ijtimoiy dunyoqarash mavjud. Bular bir-birini to‘ldiradi, bir-biriga ta’sir qiladi, bir-birini rivojlantiradi. Shaxsning dunyoni anglashi orqali uning o‘zini anglashi ham shakllanib boradi. Shu tariqa dunyo haqidagi barcha bilimlar yuksak darajada umumlashtiriladi va yaxlit dunyoqarash shakllanadi.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur: 1) ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash; 2) bolalarning mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish; 3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish; 4) bolalarning qiziqishlariga e’tibor qaratish. Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi: 1) o‘zini tavakkaldan olib qochish; 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish; 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi; 4) boshqalarga tobe bo‘lish; 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta’sir qiluvchi muhim omillardan biri o‘qituvchi-o‘quvchilar hamkorligi ekanligiga alohida e’tibor qaratildi. etilishi, ta’lim maqsadlarining to‘g‘ri amalga oshirilishi va ta’lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo bu, ta’lim jarayoni o‘qituvchining to‘liq hukmronligi ostida amalga oshadigan jarayon, degan noto‘g‘ri fikrning tug‘ilishiga asos bo‘la olmaydi. Hozirgi davr talabi ham kimnidir bo‘ysundirish orqali emas, balki hamkorlik munosabati yordamida ijobiy natijaga erishishdir. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o‘zlashtirishga oid mexanizmgina bo‘lib qolmasdan, balki shaxsning umumiy ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmaslik lozim. Bizningcha, o‘quv vaziyati ta’lim jarayonini tashkil qiluvchi o‘zgaruvchan tizim sanalib, u quyidagicha ikki qismdan iborat: - o‘qituvchi bilan o‘quvchilar hamkorligi; - o‘quvchilarning o‘zaro bir-birlari bilan hamkorligi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o‘qituvchi ta’lim jarayonining to‘g‘ri tashkil O‘qituvchi bilan o‘quvchilarning hamkorligi o‘qituvchining o‘quvchilarga ko‘rsatadigan

yordamidan boshlanadi. U asta-sekin faollashib o‘quv harakatlariga aylanadi. Natijada, o‘qituvchi bilan o‘quvchilar munosabati hamkorlik pozitsiyasiga o‘sib o‘tadi. Materiallar tahlilining ko‘rsatishicha, mantiqiy topshiriqlar hamkorlikda bajarilgandagina bilimlarni o‘zlashtirish mahsuldor bo‘ladi. Ilmiy manbalarda ta’limning shunday tashkil etilishini hamkorlikdagi mahsuldor faoliyat vaziyati, deb atash qabul qilingan. Pedagogik adabiyotlar tahlili va ijodiy tajribalarimiz natijalariga ko‘ra hamkorlikdagi mahsuldor o‘quv faoliyati vaziyatini tashkil qilishning 2 asosiy tamoyilini ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiqdir: 1. Ta’limda mazmunning izchilligi tamoyili. Unga ko‘ra shaxs o‘z faoliyatini muayyan maqsad asosida tashkil qilishida mazkur faoliyatning uzluksiz shakllanishi ko‘zga tashlanadi. 2. O‘qituvchi-o‘quvchilar hamkorligining mustaqil ijodiy faoliyat bilan bog‘liqligi tamoyili. O‘quv jarayonida o‘quvchilar bilan hamkorlik qilish katta ahamiyatga ega. O‘quvchilarning ta‟limga qay darajada ixlos qo‘yishi o‘qituvchining mana shu hamkorlikni yarata bilish mahoratiga bog‘liq. O‘qituvchi bilan o‘quvchilarning o‘quv faoliyatidagi muhitning to‘g‘ri uyushtirilishi o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi, ularni butun kuch va g‘ayratini sarflashga undaydi. Bu o‘zaro muloqotning shunday bir shaklidirki, bunda o‘quvchi o‘zini pedagogik ta’lim obyekti deb emas, balki mustaqil va erkin harakat qiluvchi shaxs deb biladi. O‘qituvchining o‘rganilayotgan fan bo‘yicha qaysidir bir ma’lumotga aniqlik kiritish paytida o‘quvchilarga yordam so‘rayotganday murojaat qilish hamkorlik faoliyatini yanada chuqurlashtiradi. O‘quvchilarni o‘rganuvchi va tarbiyalanuvchiga aylantirish o‘qish-o‘qitish jarayonini muvaffaqiyatli olib borishninggina sharti bo‘lib qolmay, balki ularni har jihatdan barkamol insonlar qilib tarbiyalashning ham muhim shartidir. Xulosa qilib aytish mumkinki, avvalo, har bir dars jarayoni tashkil etilishida aniqlik bo‘lishi. O‘qituvchi o‘quvchilarga erkinlikni, albatta, me’yorida ta’minlab berishi lozim; boshlangzich ta’limning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu -bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi, ijtimoiy tajribasi, psixofiziologik rivojlanishi bir xil emasligidadir. Shunga ko‘ra boshlang‘ich ta’lim o‟quv fanlari dasturlaridagi topshiriqlarda o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga e’tibor berilgan bo‘lsa-da, ammo o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish nuqtai’nazaridan ularni takomillashtirish zarur. Ya’ni o‘qituvchilar ma’suliyatli va e’tiborli bo‘lish zarur. Shuningdek, o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlari rag‘batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Hato qilishdan, muvaffaqiyatsiliklardan cho‘chish, haddan tashqari baholarga e’tibor qaratish, tanqidga uchrashdan qo‘rqish hissi mavjud o‘quvchilarda kreativlik odatga aylanmaydi. Muayyan omillar o‘quvchilarda kreativlik sifatlari, malakalarining rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda o‘qituvchilar ushbu omillarni bartaraf etishga e‟tibor qaratishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-oktyabrda qabul qilingan “Ilmfan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonunning 2-moddasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son Farmoni

3. Prezidentining 2019 yil 8 - oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limini 2030 yilgacha rivojlantirish kantseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmoni

4. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonunni // O‘zbekiston Respublikasi qonuni xujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi / 30. 10. 2019 y, 03/19/576//3970-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 - oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limini 2030 yilgacha rivojlantirish kantseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmoni www. lex/uz.

TA’LIM TARBIYA JARAYONIDA O’QITUVCHILARNING O’QUVCHILAR BILAN MUOMALA ODOBI

Sodiqov Hamid Maxmudovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika psixologiya kafedrasi dotsenti

Pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi muomala - munosabatlar katta o‘rin egallaydi. Muallim pedagogik jarayonda yetakchi kishidir. Unga yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Shuning uchun ham o‘qituvchiga, uning ahloqiy sifatlari, hulqiga, o‘quvchilar bilan muomalasiga nisbatan alohida, yuksak talablar qo‘yiladi:

Muallim hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar — yosh bolalar bilan muloqotda bo’ladi. Bolalar ta’lim - tarbiya jarayonida umuminsoniy va milliy ahloq normalarini (mezonlarini) o’zlashtiradi. O’quvchi muomala odobini asosan o’qituvchi timsolida anglab oladi. Sevimli muallim bola uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bo’lib qolishi ham mumkin.

Barkamol, ijodkor shaxsni shakllantirishga, tarbiyalashga doir ahloqiy normalar pedagogik etikada ifodalangan. Tarbiyalanuvchiga ijobiy ta’sir o’tkazish shartlaridan biri bolaga bo’lgan

ishonch bilan unga nisbatan qo’yilayotgan talablarning birligidadir. By qoida pedagogik amaliyotda ko’p marta sinovdan o’tgan va o’zini oqlagan. Muallimlar, talabalar bilan o’tkazilgan suhbat natijalari shundan dalolat beradiki, maktabda xushmuomala o’qituvchilar bilan bir qatorda bolalarga xuda - bexuda do’q urib, baqirib muomala qiladigan muallimlar ham uchraydi. Bunday muomala jamiyatda qabul qilingan umuminsoniy va milliy ahloqiy normalarga to’g‘ri kelmaydi. Bunday o’qituvchilar bolalar orasida obro’ orttira olmaydilar.

Pedagogik jarayon, tarbiya jarayoni, odamlarning tabiati shu darajada murakkabki, muallim ba’zan istasa - istamasa qo’pollik qilishga «majbur» bo’ladi, o’quvchi muallimning o’rinli talablarini bajarmayotgan paytlarida u o’zini tutolmay qoladi. Muallim o’z talablarini, xatto, qo’pollik holatini ham, bolaga yaxshilik qilyapman deb hisoblaydi, chunki bu ishni bolaga bilim berish, uni to’g‘ri yo’lga solish, yaxshi odam qilib tarbiyalash uchun qilayotganiga ishonadi. Bunday holatlar ko’pincha tarbiyasi qiyin bola bilan muomala munosabatlar jarayonida sodir bo’ladi. Shuni ham unutmaslik lozimki, bunday bola odatda, nosog‘lom oiladan chiqadi. Bola oiladagi yomon muhitning qurboni bo’lishi ham mumkin. Tajribali pedagoglar tarbiyasi qiyin bola bilan ishlash, muomala qilish murakkabligini, shu bilan birga ular insoniy mehrga zor, xushmuomalaga, e’tiborga muhtoj ekanligini, bundaylarga nisbatan sabr - toqatli, bardoshli, kechirimli bo’lish zarurligini ham ta’kidlaydilar. Talabchanlik o’qituvchi odobining normalaridan biri hisoblanadi. o’qituvchining bolaga qo’yayotgan talabi adolatli bo’lmog‘i kerak. Muallimning talabchanligida uning bola shaxsiga chuqur hurmati**,** bolaning kuchi, qobiliyati va imkoniyatlariga bo’lgan chuqur ishonchi ifodalanadi. Bu insoniylikning namoyon bo’lishi, ya’ni rivojlanayotgan bola shaxsi to’g‘risida, o’ziga va jamiyatga foyda keltira oladigan barkamol kishini tarbiyalash to’g‘risidagi g‘amho’rlikdir. Odatda, bolalar murosasozlik va oliftagarchilikni — betayinlik, o’ta muruvvatni mas’uliyatsizlik, prinsipsizlik deb tushunadilar. Aksincha, yaxshi niyat bilan qilingan oqilona talabchanlik — qattiqqo’llik muallimga bolaning hurmati va minnatdorligini oshiradi.

Odobli, madaniyatli muallim bolalar bilan qo’pol muomala qilmaydi, o’quvchining «sirini» oshkor etmaydi, uning ustidan kulib, qalbini jarohatlamaydi. Aksincha, fikr - mulohazasi qotib qolgan, bolalarning qalbi, ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olmaydigan, hammaning hulqini bir xil qolipda baholaydigan muallim ko’pincha pedagogik muomala odobi normalarini buzadi, bolalar orasida obro’ ham ololmaydi. Bunday muallim odatda, agar bola mo’min - qobil bo’lsa, uni yaxshilar qatorida ko’radi, agar tanqidiy fikrlaydigan bo’lsa - manman, takabbur deb hisoblaydi. . £obiliyatli, lekin sho’x bolalarni xush ko’rmaydi, natijada o’qituvchiga hurmatsizlik, konflikt — mojarolar kelib chiqadi.

O’qituvchi bilan o’quvchi o’rtasidagi nizolar ko’pincha bolaga nisbatan adolatsizlik qilish, unga qo’yilayotgan talablar mavhumligidan kelib chiqadi. Muallim bilan o’quvchi o’rtasidagi

nizolar haqida gap borganda shuni esda tutish lozimki, ta’lim - tarbiya juda murakkab, qarama - qarshiliklarga to’la jarayondir. Ularni bartaraf etish muqarrar ravishda nizolar chiqishiga ham sabab bo’lishi mumkin. Bu nizolarni oqilona hal etish uchun muallim ularning mohiyati va sabablarini aniqlashi, bilishi kerak.

Muallim o’quvchilar bilan o’zaro muomalasida ko’tarinki ruh, yaxshi kayfiyatni saqlay bilishi pedagogik ahloqning muhim talablaridan biridir. o’qituvchi dars o’tayotgan yoki tarbiyaviy tadbirni bajarayotganida bolalarning do’sti, maslahatchisi ekanligini esda tutmog‘i lozim. Bu, muallim hamma vaqt bolalar bilan oshna - og‘aynigarchilik qilaveradi degan gap emas. Bolalar ko’p o’tmay muallimning hulqidagi bu kamchilikni payqab olib, uning ustidan kulib yuradilar.

Muallim bilan o’quvchi o’rtasidagi muomalani tartibga soluvchi talablardan biri bolaning hulqini, muomalasini, bola bajargan ishni odilona, to’g‘ri baxolashdir. Bolaning hulqi, muomalasi ko’pincha u qilgan biror ish bilan tenglashtiriladi. Lekin xatti -harakat ahloqiy muomalaning bir qismidir, xolos.

Muallim o’quvchilar bilan muomalada ma’lum ahloqiy talablar, mezonlarga amal qilishi zarur. Bulardan eng muhimlari quyidagilar: — pedagogik faoliyat jarayonida muallim har bir o’quvchining qadr - qimmatini inson sifatida hurmat qilishi, o’quvchiga nisbatan ishonch:

- o’quvchining bilimi va hulqini baxolashda talabchan, adolatli bo’lish. Muallimning bolaga pedagogik talablari aniq, uning kuchi, qobiliyati va imkoniyatlariga mos bo’lishi, bolalarda o’z - o’ziga nisbatan talabchanlik va tanqidiy munosabatni o’stirish;

- muallimning bolaga mehribon, g‘amho’r bo’lishi, bolaning shodligiga ham, tashvishlariga ham sherik bo’lish;

- sinf jamoasining fikr - mulohazalarini e’tiborga olish, ularga ishonch bilan qarash, bolaning hulqiga baho berganda uning sabablarini — motivlarini e’tiborga olish;

- sinfda muallim «yaxshi ko’radigan», «yomon ko’radigan» o’quvchilar bo’lmasligi; o’quvchini biror xato hatti - harakati uchun yomon ko’rib qolmaslik; har bir bolaning yaxshi fazilatlarini aniqlash, o’stirish va tarbiyaviy ta’sir o’tkazishda unga tayanib;

- o’qituvchi o’zining butun hayoti va mehnat faoliyatida yomonlikka, adolatsizlikka, nopoklikka, xulqi buzuklikka nisbatan murosasiz ekanligini ko’rsatishi;

- bolaning ishonchini suiste’mol qilmaslik, uning qalb «sir» larini oshkor etmaslik, oldin yo’l qo’ygan xatolarini ta’na qilmaslik;

- muallim tarbiyachi sifatida, tajribali inson sifatida o’quvchilarga ahloqiy yo’l - yo’riqlarni o’rgatishi, ularda xayrli voqealar va faktlarga ijobiy munosabatni, ahloqsizlik faktlariga murosasiz bo’lish tuyg‘usini o’stirishi;

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki O’qituvchilarning o’z o’quvchilariga xushmuomala bo’lib munosabatda bo’lishi va ta’lim tarbiya jarayonida ham shunga qatiiy amal qilgan holda olib borilishi o’quvchilarning yaxshi o’zlashtirishlariga va kelajakda o’z o’rnini topishlarida muhim rol o’ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adullayeva B. S. , Xoliqov A. A. , Sodiqov H. M. Umumiy pedagogika (Pedagogik mahorat) Darslik. Toshkent 2019 y.

2. Sodiqov H. M. Bo’lajak o’qituvchilarning muloqot madaniyatini rivojlantirishning samarali yo’llari. // Xalq ta’limi jurnali. (2-son) –Toshkent, 2020. 2-son.

3. Sodiqov, X. (2018). THE ESSENCE OF THE CONCEPT “COMMUNICATIVE-SPEECH CULTURE" OF THE FUTURE TEACHER AND HIS THEORETICAL MODEL. *Central Asian Journal of Education*.

SHARQ ALLOMALARI ASARLARIDA MEHNAT TARBIYASINING INSONLAR HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI HAQIDA

Sodiqova Dilfuza Ropijonovna

Pedagogika ta’limi nazariyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Tarixga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, sharq mutafakkirlari ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo‘lib yetishishi, kasb-hunar o‘rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug‘lash masalalariga alohida e’tibor berilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Turli davrlarda yaratilgan ta’limiy-axloqiy asarlar va xalq og‘zaki ijodi namunalari topishmoq, xalq qo‘shiqlari, masal, maqol, ertak va dostonlarda mehnat va kasb-hunar odobi, axloqi va qoidalarini o‘zlashtirish muhim hayotiy zarur ekanligi ta’kidlanadi.

Bundan tashqari «Avesto», Kaykovusning «Qobusnoma», Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Geodeziya», «Minerologiya», Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma’rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarida esa shahar va qishloq xalqini ijtimoiy tabaqalarga ajratib, dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar, olimlar, tabiblar va boshqalar haqida so‘zlab, ularning jamiyat hayotidagi o‘rniga alohida to‘xtalib o‘tadi. Turli kasblar, ayniqsa,

dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilikka oid fikrlarini bayon etadi. U dehqon, hunarmand va chorvadorlarni jamiyatning moddiy boyliklarini yaratuvchi sifatida ta’riflaydi.

Masalan, alloma dehqonlar haqida:

Qalug‘ tebranur kabulardanaso‘g‘,

Tuzuktegir ye ichimdantato‘g‘.

(Hamma qimirlagan jonga bulardan manfaat (bo‘ladi),

Hammasiga yeyim (va) ichimdan halovat yetadi).

Yusuf Xos Hojibning mehnat ahli haqidagi bu fikrlari haqiqatdan ham ularga nisbatan hurmat va ehtiromni anglatadi. Yusuf Xos Hojibning mehnat tarbiyasiga oid ilg‘or qarashlari tarbiyaviy jihatdan diqqatga sazovordir.

XV asarning yirik mutafakkiri Alisher Navoiyning mehnatkash insonni ulug‘lovchi, mehna ttarbiyasi haqidagi fikrlari «Hayratul abror», «Farhod va Shirin», «Mahbub-ul qulub» asarlari ham mavjud.

Alisher Navoiyning haqiqiy inson uchun eng yaxshi fazilatlardan biri mehnatsevarlik deb ko‘rsatadi. U «Hayratul abror»ning beshinchi maqolatida kishilarning saxovatiga ko‘z tikishdan ko‘ra o‘z qo‘li bilan hayot kechirish ulug‘roq va oliyjanobroq ekanligini «Hotam Toyi» hikoyatida keltiradi.

Alisher Navoiy mehnat insonni go‘zallashtirishi, faqat mehnat tufayligina insonning kamol topishi mumkinligini ta’kidlaydi. Shu maqsadda u qator mehnatsevar badiiy obrazlarni yaratadi. Masalan, «Farhod va Shirin» dostonining asosiy qahramoni Farhod ana shunday qahramonlar jumlasidandir.

Farhod Armaniston o‘lkasiga qadam qo‘yganda, o‘z yurtida Qorandan o‘rgangan tosh yo‘nish hunarini ishlatib, og‘ir mehnatdan ezilgan xalqqa yordam beradi. O‘z hunari, mehnati tufayli bir tomondan xalqning og‘ir mehnatini yengillashtirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan sevgilisi SHirinning hurmatiga sazovor bo‘ladi.

Farhodning mehnatsevar va ijodkorligidan ilhomlangan Alisher Navoiy o‘z dostonining ikkinchi nomini «Mehmonnoma» deb ataydi.

Mehnatga muhabbat, ijodkorlik dostonning markaziy masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Navoiy «Mahbub-ulqulub» asarida esa turli ijtimoiy guruhlarning hayotidagi o‘rnini belgilaydi, fazilat va nuqsonlarini ko‘rsatadi. Dehqonlar to‘g‘risida fikr yuritar ekan, «Dehqonki dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo‘lin ochar. . . . Olam ma’murlig‘i alardin va olam ahli masrurlig‘i alardin. Har qayonki, qilsalar harakot, elga ham qut yetkurur, ham barakot», - deb dehqonlarni, ya’ni, mehnatkash insonni ulug‘laydi. Shu bilan birga shoir bu asarida tekinxo‘rlarni,

nojo‘ya ish tutuvchi kishilarni, ochko‘z va ta’magirlarni, mehnat qilmay hayot kechiruvchi shaxslarni tanqid qiladi.

Ma’rifatparvar shoir Furqat ham o‘zining ma’rifiy she’rlarida ilm, hunar haqida fikr yuritar ekan, har bir sog‘lom fikrlovchi insonni hunar egallashga da’vat etadi, hunarga mehr qo‘ygan, uni o‘rganishni da’vat etgan kishining jahonda qadri baland bo‘lajagini uqtiradi.

Pedagog-shoir H. H. Niyoziy esa kasb-hunar kollej yoshlarni ilmli, odobli qilib tarbiyalashi va hunarga o‘rgatishi kerak, - deb ta’kidlagan ekan, yoshlar ma’naviy fazilatlarining shakllanishida mehnatning rolini yuqori baholaydi. She’rlarida o‘quvchilarni ota-onalarining mehnati qadriga yetishga undaydi. U yoshlarga kelajakda o‘z orzulariga yetishish, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan mehnat qilish zarurligini ta’kidlaydi. Atoqli pedagoglar «bola kichikligida o‘yin faoliyatiga qanday munosabatda bo‘lsa, katta bo‘lganida ham mehnat faoliyatiga xudi shunday munosabatda bo‘ladi», -deb ta’kidlaydilar.

Tarbiya ishi ham zargarning mehnatidek nozik ish ekanligini unutmagan holda, bolani kichik yosh davridan boshlab xulq-odob, yurish-turish malakalarini o‘rgatib boorish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki allomalarimiz asarlarida ta’kidlab o‘tilganidek inson o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga yetish uchun tinimsiz mehnat qilishi kerak, buning uchun avvalo, unda mustahkam iroda bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. K. Hoshimov. Pedagogika tarixi. “Moliya” nashriyoti. – T. : 2008 yil
2. A. Munavvarov. Oila pedagogikasi. T. , «O‘qituvchi», 1994 yil
3. A. Xalikov. Pedagogik mahorat. Darslik. Toshkent, 2011 yil.
4. B. Xadjayev. Pedagogika. Darslik. Toshkent, 2017 yil.

PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THE DIGITAL ECONOMY

Ikromov Xusanboy Xolmaxatovich
Dosent, Andijan machine building institute
Soliyeva Zarnigor Shukrullo qizi
Student, Andijan machine building institute

Abstract. Interest in the digital economy has significantly increased due to profound changes in society and the economy. Modern technologies and platforms have enabled businesses and individuals to reduce costs by minimizing face-to-face interactions with clients, partners, and

government institutions, while simultaneously facilitating faster and easier communication. Consequently, a digital or electronic economy based on network resources has emerged.

Keywords: *IoT, digitalization, IT, ICT, GDP, Conclusion,*

The term "digitalization" is relatively new, referring to the integration of IT solutions into innovative management and operational processes. This includes applying information technologies across all systems, from Internet-of-Things (IoT) devices to e-government.

A key driver of the digital economy is the growth of the transactional sector. In developed countries, this sector accounts for over 70% of GDP, encompassing public administration, consulting, information services, finance, wholesale and retail trade, and personal, social, and utility services.

The higher the level of diversification and dynamism in an economy, the greater the circulation of unique information within and beyond the country. In turn, this increases the volume of information traffic within national economies. As a result, the digital economy develops rapidly in markets with a large number of participants and widespread IT services.

Particularly, sectors such as transportation, trade, logistics, and other internet-driven industries benefit from unparalleled convenience. Some researchers believe that the electronic segment contributes approximately 10% of GDP and provides 4% of employment. Most importantly, these figures continue to grow steadily.

To promote the development of the digital economy, the government has established a ***Digital Economy Support Fund*** as part of public-private partnership agreements. This aims to attract and consolidate investments, including the implementation of block chain technologies.

Nicholas Negroponte, a researcher at the Massachusetts Institute of Technology, introduced the concept of the digital economy in 1995. He described the transition from the old economy to the new economy, emphasizing the transformative role of information and communication technologies (ICT).

The digital economy encompasses all economic activities where the primary factor of production is digital data. By processing and analyzing large volumes of information, it is possible to deliver various types of goods and services efficiently. In simpler terms, the digital economy involves online services, electronic payments, e-commerce, and other areas driven by advancements in digital technologies.

The digital economy is a chain of interdependent production and management processes where data exchange occurs through digital technologies across humans, machines, cloud systems, and data centers. Digital data becomes a key element in production across all socio-economic sectors. Transitioning to such an economy enhances a country’s global competitiveness, improves

citizens’ quality of life, creates new jobs, and supports sustainable economic growth while safeguarding national independence.

Objectives for Developing Uzbekistan’s Digital Economy

1. Establishing a digital economy ecosystem in Uzbekistan.
2. Creating institutions and infrastructure for the digital economy.
3. Implementing comprehensive measures to form an information society.
4. Increasing the country’s global competitiveness and presence in international markets.

Strategic Importance. Developing the digital economy is a critical task for Uzbekistan, as it defines the nation’s global competitiveness. This requires creating necessary conditions, prioritizing key sectors, and incentivizing the development process.

Given that a significant portion of Uzbekistan’s GDP is generated by state-owned or state-influenced enterprises, establishing industrial digital platforms under the guidance of relevant ministries or state corporations is a prudent step. Such platforms would form the essential infrastructure base for rapidly advancing the digital economy.

Key focus areas for digital platforms include telecommunications, energy, transport, healthcare, taxation, pharmaceuticals, data processing, tourism, external economic activities, real estate, and production. Progress in these sectors can provide the infrastructure and technological basis for accelerating the formation of a robust digital economy in Uzbekistan.

Challenges and Recommendations. Although this approach appears most suitable for Uzbekistan, it has its drawbacks. Risks associated with selecting the right strategy and potential pitfalls in the implementation process must be considered. Globally, many advanced digital economy programs prioritize social applications like “digital medicine” and “smart cities. ”

Digital technologies are expected to significantly affect over 50% of economic sectors, transforming business models by eliminating intermediaries and optimizing processes. According to the World Bank, a 10% increase in broadband internet usage can raise annual GDP growth by 0. 4% to 1. 4%.

Conclusion. The digital economy offers unprecedented opportunities for entrepreneurs and freelancers, fostering economic growth, job creation, and the emergence of new services. While IT implementation often exceeds expectations in terms of cost-effectiveness, the overall impact may vary across sectors. This highlights the need for careful planning and risk management in adopting digital economy strategies.

References:

1. Ikromov Khusan Kholmakhamatovich, . (2023). HISTORICAL CONTEXT OF DEVELOPMENT OF INFORMATION SYSTEMS AND DATABASE MANAGEMENT.

International Journal of Pedagogics, 3(11), 119–123. https://doi. org/10. 37547/ijp/Volume03Issue11-23

2. Ikromov, X. TA’LIM JARAYONIDAGI SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN AXBOROTNI QAYTA ISHLASH VOSITALARINING TAHLILI. O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI UMUMIY PEDAGOGIKA KAFEDRASI, 315.

3. Mamasidiqov Baxodir Qobuljon o‘g‘li. (2024). O‘ZBEKISTONDA BOZOR IQTISODIYOTIGA O‘TISHNING YANGI BOSQICHI. IQTISODIYOT VA MATEMATIKA: Andijon mashinasozlik instituti “Axborot texnologiya” kafedrasi, katta o‘qituvchisi Zulfixarov Ilxom Maxmudovich taqrizi ostida . IQRO INDEXING, 9(2), 52-55. http://worldlyjournals. com/index. php/IFX/article/view/2446

TALABALARDA KIMYO FANIDAN MUSTAQIL TA’LIM OLISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Julboyev To‘lqin Abduvaliyevich

Xolboyev Orif Nurmatovich

Jizzax Davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mustaqil ta’lim olish kompetensiyasi talabalarda mustaqil o‘z-o‘zini rivojlantirishga, kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Oliy ta’lim muassasalarida anorganik kimyo fanini kasbga yo‘naltirib o‘qitish, talabalarning mustaqil bilish faolligini rivojlantirishning samarali texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqil ta’lim, kimyoviy nazariyalar, ko‘nikma, malaka, kimyoviy jihoz, kimyoviy reaktiv, texnik vosita, ijtimoiy inklyuziya, differentsial ta’lim, intellektual ijodkorlik

Аннотация. Компетенция самостоятельного обучения способствует развитию личности студентов и повышению эффективности профессиональной деятельности. Приведены пути использования эффективных технологий для профессионально-ориентированного обучения неорганической химии в высших учебных заведениях и развития самостоятельной познавательной деятельности студентов.

Ключевые слова: самостоятельное образование, химические теории, навыки, компетентность, химическое оборудование, химический реагент, технический инструмент, социальная интеграция, дифференцированное образование, интеллектуальное творчество

Abstract. Competence of independent learning helps students to develop their own self and increase the efficiency of professional activity. Ways to use effective technologies for vocationally

oriented teaching of inorganic chemistry in higher education institutions and the development of independent cognitive activity of students are given.

Keywords: independent education, chemical theories, skills, competence, chemical equipment, chemical reagent, technical tool, social inclusion, differential education, intellectual creativity

Mustaqil ta’lim talabalar fandan bilimlarni nazorat qilish va egalik qilish huquqiga ega bo‘lgan o‘rganish usulidir. Ular o‘z harakatlari tufayli anorganik kimyo fanidan kimyoviy nazariyalarni amaliy mustahkamlashga mos mavzularini o‘rganish, mavzular ketma-ketligini o‘rganishni tartibga soladi, boshqaradi va baholaydi. Mustaqil ta’lim talaba ongli ravishda auditoriya va auditoriyadan tashqari tanlashi, maqsadlar qo‘yishi va ta’lim ehtiyojlarini qanday qondirish bo‘yicha qaror qabul qilishi mumkin. Shuningdek, mustaqil ta’lim talaba o‘z ta’limini qurish va amalga oshirish, ta’lim maqsadlariga erishish yo‘lidagi yutuqlarini kuzatish va o‘quv jarayoni natijalarini o‘z-o‘zini baholash uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi.

Kimyo fanlari mashg‘ulotlarida strukturaviy ta’limda biz talabalarning o‘qishlarini oldinga siljitish uchun ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishi, kimyoviy jihoz, kimyoviy reaktivlar va texnik vositalar bilan jihozlashga alohida qiziqish bildiramiz. Ularning o‘qishlarini dars mashg‘uloti jarayonida mustaqil ravishda boshqarishlari kerak bo‘ladi. Imtihonlarga qo‘yiladigan talablar ba’zan ta’lim muassasalari umrbod talaba bo‘lish uchun zarur bo‘lgan ta’sirchan ko‘nikmalar o‘rniga imtihon texnikasiga tayyorgarlik ko‘rishlarini anglatadi.

Talabalar fan bo‘yicha resurslarga (darslik, o‘quv qo‘llanma, metodik qo‘lllanma) ega bo‘lish bir narsa, lekin bu qobiliyatlarni rivojlantiradigan ta’lim tajribasiga ega bo‘lish umuman boshqa paradigmadir. Oliy ta’lim muassasalarida ilg‘or yoki an’anaviy ta’lim yondashuvidan birini tanlashi shart emas. Jamiyatda ko‘pincha ta’limni imtihondagi muvaffaqiyat nuqtai nazaridan ko‘radi, ammo kimyo fanini mustaqil o‘rganish kabi tadbirlar talabaning kundalik hayotiga aylanishi kerak. Bunda alohida malaka kurslari haqida emas, balki talabani o‘z ta’limiga ko‘proq egalik qilishga olib keladigan fanlarga kiritilgan bosqichma-bosqich oddiydan murakkablik tomon yo‘naltirishga oid mavzularni va topshiriqlar berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bunda biz! - qanday qilib talabalarni mustaqil o‘rganishga undashimiz mumkin?

Demak talabalarni mustaqil o‘rganishga undash uchun: talabalarni o‘zini-o‘zi nazorat qilish; o‘z-o‘zini nazorat qilish maqsadlarni belgilash va o‘zidan va boshqalardan fikr-mulohazalarni olishning ikkita jarayoniga tayanadi. O‘qituvchilar o‘z talabalarini o‘z-o‘zini nazorat qilishga undashlari mumkin, ularga o‘z-o‘zini va tengdoshlarini baholashda yordam berish orqali ular

qo‘llagan usullar ta’lim maqsadlariga erishish uchun foydali yoki yo‘qligini tekshirishlari mumkin.

Savol-javob orqali mustaqil ta’limga o‘tish: Asosiy maqsad mas’uliyatni o‘qituvchidan talabaga bosqichma-bosqich o‘tkazish. O‘qituvchi samarali savollar va guruh strategiyalarini yaratishi, ochiq, yuqori darajadagi savollarni berishi, chuqurroq tushunish, muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rag‘batlantirish uchun talabalarning javoblariga moslashuvchan javob berishi kerak.

Xulq-atvor modellarini taklif qilish: O‘qituvchilar talabalarni xatti-harakatlarini modellashtirishga undashlari mumkin. Masalan, o‘qituvchilar ma’lumotlarni toifalarga ajratish talabalarning ma’lumotni eslab qolishlarini qanday osonlashtirishi mumkinligini ko‘rsatishi mumkin.

Muloqot o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak: O‘qituvchilarning muloqoti o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, bu talabalarga o‘z ta’lim uslublarini tushunishga, o‘rganish bosqichlari bilan ko‘proq tanishishga imkon beradi va ularga o‘z fikrlarini baham ko‘rishga imkon beradi.

Uy vazifasi va guruh ishi bo‘yicha og‘zaki yoki yozma fikr-mulohazalar: Bu talabalarning mustaqil ishlashga bo‘lgan ishonchini oshirishning yaxshi usuli. O‘qituvchilar ballar va erishilgan baholardan foydalanish o‘rniga, o‘z kuchlari uchun baho qo‘yishlari kerak.

Tanlovlar berish va talabalarga o‘z ta’lim maqsadlarini amalga oshirishga imkon berish: Bu talabalarga o‘z ta’limini egallashga imkon beradi va ular o‘zlarining afzalliklari va qiziqishlari haqida fikr yuritadilar. Shuningdek, talabalar o‘zlarini kuchli va o‘qish odatlarini nazorat qilishda his qilishadi.

Talabalarni darsni rejalashtirishga jalb qilish: O‘qituvchilar talabalardan maslahat olsalar, bu ularning o‘qishlari uchun mas’uliyatni his qiladi. Talabalar o‘zlarining ilmiy ishlariga jalb qilinadilar, ular ko‘proq motivatsiya ko‘rsatadilar va o‘qituvchilarga yaxshiroq dars rejasini tuzishda yordam berishadi.

Hamkorlikni rag‘batlantirish: Talabalarga ma’ruza matniga javob izlashdan ko‘ra, kichik guruhlarda ishlashga muntazam imkoniyat berish va ularni bir-biridan o‘rganish va o‘z g‘oyalarini ishlab chiqishga undash tavsiya etiladi.

Talabalarni mulohaza yuritishga rag‘batlantirish: O‘qituvchilar talabalarga ularning taraqqiyotini kuzatish va o‘rganishdagi harakatlarini kuzatib borish uchun “o‘quv kundaligi”ni yuritish bo‘yicha maslahat berishi mumkin. Bu talabani faol talabaga aylantiradi, talabalarning o‘tmishga nazar tashlaganda o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va o‘quv yili davomida olgan bilimlarini tekshirish imkonini beradi.

Talabalar uchun mustaqil ta’limni rivojlantirishning afzalliklari, talabalar uchun, xususan, majburiy ta’limda ko‘plab imtiyozlarni taqdim etadigan muhim ta’lim usuli. Bu usul nafaqat shaxsiy rivojlanish va akademik samaradorlikni oshiradi, balki ta’lim taraqqiyotini oshirish uchun iqtisodiy jihatdan samarali strategiya ekanligini isbotlaydi.

Talabalar o‘rtasida mustaqil ta’limni rivojlantirishning asosiy afzalliklarini tadqiqot va amaliy dalillar bilan tahlil o‘tkazildi:

Ishonch va motivatsiyani oshirishda, mustaqil ta’lim bilan shug‘ullanadigan talabalar ko‘pincha o‘zlariga bo‘lgan ishonchni oshiradilar. Bu ularning yutuqlari va o‘quv jarayonlarini boshqarishdagi avtonomiyalaridan kelib chiqadi. Ular o‘rganish muammolarini mustaqil ravishda yengib o‘tishganda, ularning o‘rganish va muvaffaqiyatga bo‘lgan ichki motivatsiyasi ortadi.

Kengaytirilgan akademik samaradorlik, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ravishda qanday qilib o‘rganishni o‘rganadigan talabalar ko‘pincha yuqori akademik natijalarga erishadilar. Bu ularning o‘zlari uchun eng mos keladigan o‘rganish strategiyalarini tushunish va qo‘llash qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ma’lumotni yaxshiroq tushunish va saqlashga olib keladi.

Ijtimoiy inklyuziya va tengdoshlar bilan munosabatlar, mustaqil o‘rganish jamoaviy tuyg‘uni rivojlantirish orqali tengdoshlar o‘rtasida begonalashishga qarshi turishga yordam beradi. Talabalar mustaqil ishlashga rag‘batlantirilsa, lekin o‘z ta’lim tajribalarini tengdoshlari bilan baham ko‘rishsa, bu ijtimoiy inklyuziyani kuchaytiradigan qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitiga yordam beradi.

Differentsial ta’lim imkoniyatlari, mustaqil ta’lim individual talabalarning ta’lim ehtiyojlari va tezligiga moslashtirilgan tabaqalashtirilgan vazifalarni bajarishga yordam beradi. Ushbu shaxsiylashtirilgan yondashuv talabalarga fanlarni o‘z tezligida o‘rganishga imkon beradi va ta’lim samaradorligini oshiradi.

Intellektual ijodkorlikda, talabalarga mavzularni mustaqil o‘rganish erkinligi berilsa, ularda intellektual ijodiy jarayonlarda ishtirok etish imkoniyatlari ko‘proq bo‘ladi. Ular turli g‘oyalarni bog‘lashlari, tanqidiy fikrlashlari va innovatsiyalar kiritishlari mumkin, bular bugungi global jamiyatda muhim ko‘nikmalardir.

Insoniyat sivilizatsiyasiining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalsh, unga ta’lim berishga yo‘naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o‘ta qat’iy hamda murakkab talablar qo‘yilmoqda. Murakkab texnik vositalar bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to‘laqonli anglash imkoniyatiga ega, muammoli vaziyatlarni ijobiy hal eta oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash, ularni zamonaviy taraqqiyot yutuqlari bilan uzviy aloqadorligini ta’minlash pedagoglarning asosiy vazifasiga aylanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hockings, C. , Thomas, L. , Ottaway, J. , & Jones, R. C. (2018): Investigates UK higher education’s approach to independent learning, suggesting that more explicit support and collaboration among students enhance independent learning abilities, crucial for effective and lifelong learning (Hockings et al. , 2018).

2. Singh, S. , Kaur, B. , & Kaur, K. (2023): This paper explores integrating independent and collaborative learning to optimize educational outcomes, highlighting independent learning as key to fostering self-reliance and critical thinking, crucial for lifelong learning (Singh et al. , 2023).

3. Sheila Slaughter & Barrett Jay Taylor. Higher Education, Stratification, and Workforce Development. (Competitive Advantage in Europe, the US, and Canada). Springer International Publishing Switzerland 2016.

4. Sultonov M. M. , Julboyev T. A. , Xolboyev O. N. , Bakaxonov A. A. , Babayev B. N. Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash. O‘quv qo‘llanma / Ilm nuri print, 2024. - 188 b.

TA’LIM JARAYONINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY FALSAFIY TAHLILI

Sattarov Inomjon Odilbay o‘g‘li
(ijtimoiy-falsafiy tahlil)
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, O‘qituvchi
inomjonsattarov6@gmail. ru

Annotatsiya. Ushbu maqolamda, O‘zbekistondagi ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan davlat dasturi darajasi olib borilayotgan islohotlarning falsafiy tahlili yoritilgan. Shuningdek, Ta’lim – bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi.

Abstract. In this article, the philosophical analysis of reforms carried out at the level of the state program aimed at improving the quality of education in Uzbekistan is highlighted. Also, the advanced achievements of educational institutions are analyzed.

Kalit so‘zlar: Ta’lim – bilim berish, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. tashkiliy shakllari o‘zgarib borgan. O‘qituvchilar lotin imlosi asosidagi yangi o‘zbek alifbosi bo‘yicha qayta tayyorlash kurslaridan o‘tkazildi.

Keywords: Education is the main means of imparting knowledge and preparing a person for life and work. organizational forms have changed (see Pedagogy). Teachers were retrained on the new Uzbek alphabet based on Latin spelling.

Ta’lim – bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta’lim jarayonida ma’lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta’lim tor ma’noda o‘qitish tushunchasini anglatadi, lekin u faqat turli tipdagi o‘quv yurtlarida o‘qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma’lumot berish jarayonini ham bildiradi. Ta’limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma’lumotga bo‘lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta’lim haqidagi pedagogik g‘oyalarga qarab kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida Ta’limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o‘zgarib borgan. [1]

Ta’lim mohiyat-e’tibori bilan dars berish jarayonini, ya’ni pedagog (o‘qituvchi) faoliyatini, umuman o‘quvchining bilish, o‘rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda uqish jarayonini, ya’ni o‘quvchi faoliyatini bildiradi. Ta’lim jarayoni ta’lim beruvchi – o‘qituvchi va ta’lim olayotgan o‘quvchilar faoliyatining yig‘indisidan iborat. [2] Ta’lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatlari, dunyoqarashi, qobiliyati o‘sadi. Ta’lim avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy vorislikni ta’minlaydi: kishilarning ijtimoiy-tarixiy tajribalari yosh avlodga ta’lim orqali o‘tadi. Ta’lim haqida turli nazariyalar mavjud. Ba’zi nazariyalar ta’limni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga bog‘liq bo‘lmagan hodisa sifatida baholasalar (qarang Pedotsentrizm), ba’zisi ta’limning sinfiy xarakterga ega ekanligini, u jamiyatning har bir a’zosida muayyan siyosiy, falsafiy, axloqiy, huquqiy qarashlarni shakllantirish maqsadi sari qaratilganligini ta’kidlaydi. Ta’limning maqsadi obyektiv hayot talablariga muvofiq holda o‘zgarib borgani kabi, ta’limning xarakteri, yo‘nalishi ham uning maqsadiga muvofiq o‘zgarib boradi. Ta’lim dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatlar jarayonidir. Ta’lim bilish qobiliyatlari, his-tuyg‘ular, idrok, shaxsni tarkib toptiruvchi kuchli omildir. Ta’lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal qilish – jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, yangi kishini tarbiyalashga yordam beradi. Ta’lim o‘quvchining bilish qobiliyatini o‘stiruvchi asosiy omildir. O‘quvchilar qobiliyatini o‘stirishga qaratilgan tizimlar muayyan didaktik qoidalar tarzida namoyon bo‘ladi. Didaktik tamoyillarda ta’limning mazmuni va jarayonlariga qo‘yilgan talablar belgilanadi (qarang Didaktika). Ta’limning maqsadi va vazifalari ijtimoiy tuzum, shuningdek, muayyan o‘quv yurtlari funksiyasiga muvofiq tarixan o‘zgarib boradi. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan „Ta’lim to‘g‘risida“gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta’lim tizimining barcha yo‘nalishlarini takomillashtirish va

[1] Alan Blum tarixi: 1930 — 1992 yillar.

[2] J.ya.yaxshilikov. n.e.nurmuhammedov. texnika va informatsion texnologiyalar falsafasi. Samdu. 2022-yil

rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. 1996-yildan boshlab lotin imlosiga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi joriy etildi va shu yildan boshlab yangi yozuv asosida dasturlar, qo‘llanmalar va darsliklar yaratishga kirishildi, o‘qituvchilar lotin imlosi asosidagi yangi o‘zbek alifbosi bo‘yicha qayta tayyorlash kurslaridan o‘tkazildi. Xalq ta’limi bo‘limlari qoshida bolalarni maktab ta’limiga tayyorgarligini belgilaydigan „Tashxis markazlari“ tashkil etildi. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini reyting asosida nazorat qilish, maktab bitiruvchilarini yakuniy attestatsiyasini kompyuter yordamida test orqali amalga oshirish, Ta’lim amaliyotini diagnostik tahlil etish, Ta’lim muassasalarida marketing tizimidan foydalanish kabi qator pedagogik yangiliklar joriy etildi (qarang Ta’limning milliy modeli). Ta’lim mazmuni uning maqsadiga muvofiq, ijtimoiy shart-sharoit, fan va texnika, san’at holati va shu kabini hisobga olgan holda belgilanadi. Kasb-hunar kollejlari, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlaridagi Ta’limning mazmuniga umumiy ma’lumotdan tashqari muayyan kasb va mutaxassislik uchun zarur bo‘lgan maxsus bilim, malaka va ko‘nikmalar ham kiradi. Ta’lim mazmuni o‘quv reja va dasturlari, darslik va boshqalarda yoritiladi. Ta’limda qo‘yilgan maqsadga erishish uchun turli metod, vosita, tashkiliy tizim va shakllar (ma’ruza, suhbat, tajribalar o‘tkazish, ko‘rgazmali qurollarni qo‘llash, kuzatish, mashq va shu kabi)dan foydalaniladi. O‘quv jarayonida texnik vositalar (kino, televideniye, radio, kompyuter, EHM va boshqalar)ni keng qo‘llash ta’lim metodini ishlab chiqishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim falsafasi akademik soha sifatida „ta’lim va uning muammolarini o‘rganadigan falsafiy tadqiqotdir“. Uning asosiy mavzusi-ta’lim va uning usullari falsafa bilan bir xil. Ta’lim falsafasi ta’lim jarayoni yoki o‘quv intizomi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, u o‘qitish va o‘qitishning maqsadlari, shakllari va natijalariga g‘amxo‘rlik qilishni o‘z ichiga olgan fanning bir qismi bo‘lishi mumkin; Yoki bu fanning tushunchalari, maqsadlari va usullariga qiziqishni anglatuvchi intizomiy falsafa bo‘lishi mumkin. Xususan, ta’limning keng umumiy ma’lumot asosida kasbiy ixtisoslashishning ahamiyati tobora oshmoqda, ommaviy kommunikatsiya vositalari – radio, televideniye, film, kompyuter, vaqtli matbuotdan, shuningdek, o‘z ustida ishlashning turli shakllaridan foydalanilmoqda. Ta’lim shu qadar kuchli qurolki, uning cho‘qqisiga chiqqan jamiyatni hech kim yenga olmaydi! Shuning uchun ham bugungi kunda juda kòplab mamlakatlarda, xususan, yurtimiz-O‘zbekistonda ham unga bòlgan e’tibor tobora ortmoqda, yuqoridagi fikrlar esa bunga dalil.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alan Blum tarixi: 1930 — 1992 yillar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28. 01. 2022 yildagi PF-60-son
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26. 03. 2021 yildagi PQ-5040-son
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 20. 01. 2021 yildagi O‘RQ-668-son

5. Yaxshilikov J. Ya. Muhammadiyev N. E. Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik. –T. : Cho‘lpon nomidagi nashriyot. 2018-yil. –B. 516-517.

6. J. ya. yaxshilikov. n. e. nurmuhammedov. texnika va informatsion texnologiyalar falsafasi. Samdu. 2022-yil

7. Chilmamatovich, Shermanov Isobek. "FIN TA’LIM TIZIMINING O‘ZBEK TA’LIM TIZIMIGA ISLOH QILINISHI SABABLARI. " *Ustozlar uchun* 57. 4 (2024): 39-42.

TA’LIMDA BIZGA MILLIY MAFKURA – XALQ MAFKURASI KERAK

Abduraimov Eldor Qurbonboy o‘g‘li
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi assistenti
Ebduraimoveldo@mail. ru

Annotatsiya. Milliy mafkura — muayyan millatning etno ijtimoiy birlik sifatida mavjud bo‘lishi va rivojlanishini asoslab beruvchi g‘oyalar va qarashlar tizimi. Milliy mafkuraning o‘zagini O‘zbekistondagi turli millat va elat, din va e’tiqod vakillarini mamlakatimizda ozod va obod vatan barpo etish uchun birlashtirish, xalqlarni o‘zaro hurmat va hamkorlikka chorlash, olijanob maqsadlarni ko‘zlash kabi umuminsoniy tamoyillarga aylangan g‘oyalar tashkil etadi. Chunki odamlar bu so‘zlar zamirida berilgan g‘oyalarni real hayotda aks etganini ko‘rishmadi.

Kalit so‘zlar: Milliy mafkura, millat yoki xalqning mafkurasi, milliy mafkura, milliy g‘oya, ma’naviyat, o‘zining yuksak ma’naviyat.

Аннотация. Национальная идеология – это система идей и взглядов, обосновывающих существование и развитие той или иной нации как этносоциальной единицы. Ядро национальной идеологии составляют идеи, превратившиеся в универсальные принципы, такие как объединение в Узбекистане представителей разных национальностей и народов, религий и убеждений для построения свободной и процветающей Родины в нашей стране, призыв народов к взаимному уважению и сотрудничество, преследующее благородные цели. Потому что люди не увидели отражения идей, стоящих за этими словами, в реальной жизни.

Abstract. National ideology is a system of ideas and views that justify the existence and development of a particular nation as an ethno-social unit. The core of the national ideology is made up of ideas that have turned into universal principles, such as uniting representatives of different nationalities and peoples, religions and beliefs in Uzbekistan to build a free and

prosperous homeland in our country, calling peoples to mutual respect and cooperation, pursuing noble goals. Because people didn’t see the ideas behind these words reflected in real life.

Keywords: National ideology, ideology of the nation or people, national ideology, national idea, spirituality, its own high spirituality.

Maqolamda, Milliy mafkura — muayyan millatning etno ijtimoiy birlik sifatida mavjud bo‘lishi va rivojlanishini asoslab beruvchi g‘oyalar va qarashlar tizimi. Ko‘p hollarda Milliy mafkurani bitta millat yoki xalqning mafkurasi deb tushunilmaydi, u muayyan davlat yoki jamiyatning umumiy mafkurasi ma’-nosini ham anglatadi. Chunki "milliy" sifati "millat" so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, faqat muayyan etnik birlikni emas, balki muayyan "jamiyat" yoki "davlat" ma’nosini ham ifodalashi mumkin. Milliy mafkura tushunchasi ham O‘zbekistonda yashab, faoliyat ko‘rsatayotgan barcha millat vakillariga tegishlidir. Milliy mafkuraning o‘zagini O‘zbekistondagi turli millat va elat, din va e’tiqod vakillarini mamlakatimizda ozod va obod vatan barpo etish uchun birlashtirish, xalqlarni o‘zaro hurmat va hamkorlikka chorlash, olijanob maqsadlarni ko‘zlash kabi umuminsoniy tamoyillarga aylangan g‘oyalar tashkil etadi. Milliy mafkura o‘zligimizni, muqaddas an’-analarimizni anglash tuyg‘ularini, xa-lqimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga qo‘yilgan oliy maqsad va vazi-falarni ifoda etadi. Milliy mafkura har qanday millatchilikdan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlardan xolidir. U jamiyatimizdagi har qanday insonning e’tiqodi va dunyoqarashidan qati nazar, ularning barchasini yagona maqsad atrofida birlashtiradigan; xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni buyuk istiqbol sari chorlaydigan ma’naviy omildir. Milliy mafkura haqida gapirganda yana shuni ham nazarda tutish kerakki, O‘zR Konstitu-siyasi plyuralizm, fikr va qarashlar erkinligi tamoyillarini to‘liq ta’minlaydi. O‘zR Konstitutsiyasining 12 moddasida "Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas", deyilgan. Mafkurada bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymay, Milliy mafkurani xalqimiz ongiga singdirish zamon talabidir (yana. q. Istiqlol mafkurasi)[1]. Oxirgi vaqtlarda O‘zbekistonda «milliy mafkura», «milliy g‘oya», «ma’naviyat» so‘zlari shu vaqtgacha ahamiyatsiz so‘z bo‘lgani tanqid qilina boshlandi. Chunki odamlar bu so‘zlar zamirida berilgan g‘oyalarni real hayotda aks etganini ko‘rishmadi. Oqibatda ko‘pchilik bu so‘zlarni eshitib, yuzini buradigan bo‘ldi. Mafkura nima o‘zi? U muayyan millat, xalq, ijtimoiy qatlamni ilhomlantiradigan g‘oyalar, qarashlar majmuasi. Bir qarashda shunday tasavvur paydo bo‘ladi: mafkura, g‘oya va ma’naviyatsiz ham binoyidek yashayapmiz. Undan ko‘ra real amalga oshadigan sohalarga e’tibor

[1] Milliy istiklol g‘oyasi: asosiy tu-shuncha va tamoyillar, T., 2001. Qiyom Nazarov.

qaratganimiz ma’qul. Aslida ham shundaymi? O‘zi bizga mafkura kerakmi? «Islom Karimov mafkura poligonlari yadro poligonlaridan kuchliroq degandi, o‘zining yuksak ma’naviyat yengilmas kuch asarida[1]. Agarda qayerda bo‘shliq hosil bo‘lsa, o‘zga mafkura kelib joylashadi. Bugun rivojlangan dunyoning har jabhasida mafkura mashinasi ishlayotganiga guvoh bo‘lamiz. Dunyoda mafkuraviy tahdid, okkupatsiya uchun juda ko‘plab ilmiy tekshirish institutlari faoliyat olib boradi. Mafkura ma’lum xalq, millatning ezgu maqsadlarini, manfaatlarini o‘zida ifoda etib, xalqni jipslashtirishi kerak. Bu mafkurani ishlab chiqishga yetarlicha tajribamiz, kuchimiz bor, ammo hukumatni hozir bu narsa o‘ylantirayotgani yo‘qdek. Oliy o‘quv yurtlarida gumanitar fanlar – sotsiologiya, milliy g‘oya va mafkura, siyosatshunoslik, dinshunoslik fanlari o‘quv rejadan butunlay chiqarib yuborildi. Falsafa fani qoldirildi, xolos. Kadrlar ongini mafkuraviy jihatdan to‘yintirishni o‘ylamayapmiz. Ushbu fanlarsiz qanday kadrlar yetishib chiqadi? Tafakkur qilolmagan shaxs hech qachon vatanparvarlikni o‘z tanasida his qilolmaydi. Biz yetishtirayotgan kadrlarga ingliz tili, matematikani o‘rganishni birinchi darajaga qo‘ydik. Avvalo, u o‘z maqsadlarini Vatani bilan uyg‘unlikda ko‘ra olishi kerak. Qimmatli kadrlarimiz xorijga oqib ketayotgani ham bejizga emas. Mafkurasiz yashash qiyin, chunki u jamiyat a’zolarini birlashtirish vazifasini bajaradi. Har bir harakatda, har bir jabhada inson o‘zi tug‘ilib-o‘sgan yurti uchun ozgina bo‘lsa-da vatanparvarlik hissini sezadi va shunga qarab harakat qiladi. Bizga shunday mafkura kerakki, u jamiyatdagi turli tebranishlarga, tashqaridan bo‘ladigan tahdidlarga javob bera olishi zarur». Mafkuraning asosi qadriyatlarga borib taqaladi. Qaysi millat o‘z qadriyatlarini sevsa, tarixini chuqur bilsa, o‘zligini anglaydi. O‘zlikni anglasa, o‘z xalqini, tuprog‘ini hammadan ko‘ra ko‘proq sevadi. Xullosa qilib aytadigan bo‘lsak, har bir millatning mafkurasi kelajak avvlod va ta’lim tarbiya uchun naqadar kerakli ekanligini. Bugungi kun avvlodlari millik mafkura ruhida ta’lim tarbiya olishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Milliy istiklol g‘oyasi: asosiy tu-shuncha va tamoyillar, T. , 2001. Qiyom Nazarov.

2. I. Karimov Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining « 0 ‘zbekiston» nashriyot-m atbaa ijodiy uyida chop etildi. Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy, 2010.

3. Шерманов, И. "МИЛЛИЙ ИЖТИМОИЙ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ВА УНИНГ МУСТАҚИЛ ИЖТИМОИЙ ТАРАҚҚИЁТДА ТУТГАН ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ. " *ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА* 35. 2 (2017): 103-104.

[1] I.Karimov Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining « 0 ‘zbekiston» nashriyot-m atbaa ijodiy uyida chop etildi. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy, 2010.

4. SATTAROV INOMJON ODILBAY O‘G‘LI. TA’LIMGA INNOVATSION G‘OYALAR KIRIB KELISHIDAGI XAOTIK JARAYONLAR VA TA’LIM TIZIMIDA ATTRAKTOR UNSURINING NAMOYON BO‘LISHI INTERNATIONAL JOURNAL OF PHILOSOPHICAL STUDIES AND SOCIAL SCIENCES ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039 Vol 4, Issue 1 (2024)

TARIX FANIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNINING QO‘LLANISHI

Islamova Qunduz Ikramboy qizi
Chirchiq davlat pedogogika unversiteti
Tarix yo‘nalishi 3-bosqich talabas.

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy pedogogik texnologiyalar, ularning qo‘llanish uslublar va afzalliklari yoritib beriladi. Tarix fanida pedogogik texnologiya va zamonaviy axborot texnologiyalaring ahamiyatiga alohida to‘xtalib o‘tib amalda qo‘llanilayotgan texnologiyalar yoritib berilgan. Ta’lim va tarbiya jarayonida pedagoglarning zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishlarining zarurati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Pedagogika, ta’lim, tarbiya, axborot texnologiyalari, metodika, raqamli tarix, onlayn arxiv, innavatsion uslub.

Аннотация. В данной статье описаны современные педагогические технологии, способы их использования и преимущества. Акцент делается на значении педагогических технологий и современных информационных технологий в исторической науке. Обсуждается необходимость приобретения педагогами современных знаний в процессе образования и обучения.

Ключевые слова: Педагогика, образование, воспитание, информационные технологии, методология, цифровая история, онлайн-архив, инновационный метод.

Abstract. This article describes modern pedagogical technologies, their methods of use and advantages. Emphasis is placed on the importance of pedagogic technology and modern information technology in the science of history. The need for pedagogues to acquire modern knowledge in the process of education and training is discussed.

Keywords: Pedagogy, education, upbringing, information technologies, methodology, digital history, online archive, innovative method.

Hech kimga sir emaski hozirgi globallashgan jamiyatlarda asosiy vazifalardan biri bu ta’lim va tarbiyani to‘g‘ri tashkil etishdan iboratdir. Chunki ta’lim va tarbiya to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan

jamiyatlarning poydevori mustahkam bo‘lib kelajakda yaxshi samarali kadrlarni yetkazib beradi. Prezidentimiz ta’kidlab o‘tganlaridek: “Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlar samarasi, avvalambor, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun ma’suliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bog‘liq”. [1]. Bu maqsadlarning tub zamirida esa albatta ta’lim turadi.

Zamonning shiddatiga mos tezkor fikrlovchi, teran g‘oyalarni izlab topuvchi bundayin kadrlarni yetishtirish uchun pedagogika fanida ham yangi innovatsion uslublardan pedagogik texnologiyalardan foydalanish tobora ommalashib bormoqda. Ayni damda dunyoning turli burchaklarida pedagoglar tomonidan ishlab chiqarilayotgan va yo‘lga qo‘yilayotgan pedagogik texnologiyalar va innovatsion uslublardan foydalanib darslarni tashkil etish yoki ularga biror-bir qo‘shimchalarni qo‘shgan holda o‘ziga moslab talqin etish kabi holatlar anchagina ko‘paymoqda.

Hozirgi ta’lim olish deganda faqatgina biror-bir o‘quv binosigina tushunilmasdan hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar, axborot-kommunikatsiyalari orqali ham olinadigan bilimlar tushunilmoqda. Ta’limning bunday shiddat bilan rivojlanishi yoki ildamlab ketishi har bir sohani yanada yuksalishiga bir turtki bo‘lib xizmat qilmoqda. Zamonga mos holda rivojlanib borishi ta’lim olish tushunchasining ham yangilanishiga olib kelsa ajab emas.

Barchamizga ma’lumki hozirgi globallashgan jamiyatlarda zamonaviy insonlarning ta’lim olishi chegara bilmaydi. Maktabdagi umumiy ta’lim keyinchalik oliy ta’lim va bundan tashqari shaxsiy qiziqishlaridan va shaxsiy qobiliyatlaridan kelib chiquvchi yo‘nalishlaridan istagancha zamonaviy axborot-kommunikatsiyalari orqali ma’lumotlar olish, ularni tadbiq etish uchun barcha sharoitlar mavjud. Shunday ekan zamonaviy insonlar ta’limning uzluksizligi ya’ni davomiy bo‘lishini ta’minlashi zarur. Bu davrning talabi hamdir. Muammo zamonaviy axborot texnologiyalarga bo‘lgan ko‘nikmani yanada shakllantiradi va unga bo‘lgan ehtiyojni oshiradi. Yigirma birinchi asr axborotlashish asrida ta’lim sohasini axborotlashtirish har bir ta’lim muassasasida o‘qitish va o‘qish jarayonida, ta’lim muassasasining boshqarilishida, ta’lim muassasasi bo‘linmalarida va uning faoliyatini axborotlashtirish talabini ham qo‘yadi.

Pedagogik texnologiyalarning ba’zi turlari har qanday dars mashg‘ulotlari va dars faoliyatlari uchun ham to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, ba’zi bir texnologiyalar maqsadli va bir yo‘nalishni talqin etib aynan bir fan uchun ma’qulroq qilib ishlab chiqiladi. Bu ham o‘z sohasini mutaxassislariga bog‘liq bo‘lib o‘zining fanini yuqori darajada rivojlantirish va o‘quvchilarda samarali darslarni tashkillashtirish uchun xizmat qiladi. Shu o‘rinda pedtexnologiya nima? Uning maqsadi, qo‘llanish uslublari qanday kabi savollarga to‘xtalib o‘tsak. Pedagogik texnologiya ta’lim-tarbiya jarayonini yuksak mahorat san’ati bilan boshqarishdir[2]. Ya’ni bunda pedagog o‘quvchilar bilan noan’anaviy darslarni o‘tkazgan holda ular bilan yakkama-yakka ishlash yoki

ta’lim-tarbiya jarayonida o‘zining mahoratidan foydalangan holda o‘quvchilarni darsga jalb etish va o‘quvchilarning darsdagi faoliyatini samaradorligini oshirish uchun qilinayotgan say-harakatlari yig‘indisidir. Bu harakatlar darslarning yanada samarali va qiziqarli olib borilishiga xizmat qilishi lozim bo‘ladi. Shu o‘rinda pedagoglardan ham ma’suliyatni his qilgan holda eng samarali metod va usullarni ishlab chiqish va undan to‘g‘ri foydalanish talab etiladi.

“Pedagogik texnologiya” termini birinchi bor pedagogika bo‘yicha ishlarda-XX asrning 20-yillarida tilga olingan[3]. Ilk bor bu boradagi fikrlar AQSh pedagog olimlari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, asosiy maqsad bilimlarni egallashda rejalashtirish, boshqarish va ta’minlashni tahlil qilish uchun faoliyatni tashkil etish usulini, odamlar g‘oyalar, vositalarni o‘z ichiga oluvchi kompleks integral jarayondir. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, bilim olish jarayonida vaqt, vositalar va insonlarni bir-birlari to‘la muvofiqlashtirishni ilmiy asosida yoritib berishdir.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, har bir soha o‘zidan kelib chiqqan holda pedtexnologiyalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yadi. Bunda albatta tarix fani ham innavatsion yondashuvlar orqali chuqur va samarali o‘rganilishi tatbiq etilmoqda. Tarix ta’limi tizimida har bir dars, mavzu, o‘quv predmetining o‘ziga xos texnologiyasi bor, ya’ni, o‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya-bu yakka tartibdagi jarayon bo‘lib, u o‘qituvchi talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir[4]. Bunda ma’lum bir mavzu yuzasidan chuqur o‘rganishni pedagog va uning o‘quvchilari tomonidan tanlov natijasiga ko‘ra amalga tadbiq etilishi nazarda tutiladi. Tanlov natijasiga ko‘ra kelishilgan mavzu yuzasidan chuqurroq tahlillarni olib borish, o‘zgacha usul va metodlardan zamonaviy texnologiyalar yordamida darsni o‘tkazish lozim bo‘ladi. Dars yakunida esa o‘quvchilarning mashg‘ulot davomidagi faolliklari baholanadi va o‘quvchilarning o‘zlaridan ham kichik so‘rovnoma orqali mashg‘ulot haqidagi fikrlari bilib olinadi.

Axborot texnologiyasi bu aniq texnik dasturlar vositasining majmui bo‘lib, ular yordamida ma’lumotlarni qayta ishlash bilan bog‘liq bo‘lgan turli-tuman masalalarni hal etish mumkin. Ayniqsa raqamli texnologiyalarni fan tarmoqlari bo‘yicha to‘g‘ri qo‘llash juda yaxshi va samarali natijalarga olib keladi. Har bir sohada bo‘lgani kabi ta’limda ham zamonaviy texnologiyalar kirib kelib ilmiy yangiliklar yaratilishiga sabab bo‘layotganligiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Shu jumladan tarix fanida zamonaviy texnologiyalar tarixchini yanada qiziqarli va mazmunli izlanishlar olib borishga undamoqda.

Tarixiy ma’lumotlarni saralash, ajratish, aniqlik kiritish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarda zamonaviy texnologiyalar juda yaxshi ko‘makchi bo‘lishi mumkin. Oxirgi paytlarda raqamli tarix atamasi tez-tez uchrab turibdi. Xo‘sh bu raqamli tarix deganda nimani tushunishimiz kerak? Raqamli tarix bu tarixchilarning arxiv materiallarini raqamlashtirish va ularni internetga kirish

imkoni bo‘lgan foydalanuvchilarga taqdim etish uchun zamonaviy kompyuter va komunikatsiya texnalogiyalaridan foydalanishi tushuniladi. [5] Raqamli tarix onlayn ma’lumotlar bazasiga havolalar beradi, raqamli tarixchilarning ilmiy sohada rolini tushuntiradi va hozirgi zamonaviy ilm-fanda tarixchi nimalarga tayyor turishi kerakligi tushuntirib o‘tadi. Keng ma’noda bu tushunchaga ilmiy aniq ta’rif bo‘lmasada, umumiy qabul qilingan tushunchalarga muovofiq tarixiy dalillarni to‘plash, miqdorini aniqlash, talqin etish va baham ko‘rishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish nazarda tutiladi. Bunday keng imkoniyat esa yer yuzining qay nuqtasida bo‘lmasin tarixiy fakt va ma’lumotlardan foydalana olish, ilmiy izlanishlar davomida qo‘llay olishini anglatadi.

Tarix chegara bilmas fan ekanligini nazarda tutadigan bo‘lsak, uning birgina faktini isbotlash yoki rad etish uchun ko‘plab izlanish va tadqiqotlar olib borish kerak bo‘ladi. Shunday ekan fan doirasida qo‘llanilayotgan va kelajakda qo‘llanilishi kutilayotgan zamonaviy texologiyalar bizga tarixdagi kichik topilmalardan tortib, to ulkan imperiyalar taqdirini yoritishda zamonaviy texnologiyalar yordami zarur bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida izlanuvchi olimlar qatorida pedagoglarning ham zamonaviy texnologiyalarda foydalana olishi, yoki ularda xabardor holda o‘quvchilarga ma’lumot bera olishi kerak.

Raqamli texnologiyalarni qo‘llash ta’lim tizimini yanada rivojlantirish bilan bir qatorda, pedogog va o‘quvchi-talabalarni ko‘proq mustaqil fikrlashga, birgalikda hamkorlik qilgan holda dars mashg‘ulotlarini olib borishni ham nazarga tutadi. Chunki dars jarayonlarida qaysi pedogogik metodni qo‘llash, innovatsion texnologiyalardan foydalanishda qanday yondashish, e’tiborni ko‘proq mavzuning qaysi jihatlariga qaratish kabi masalalar bevosita pedogogning o‘ziga borib taqaladi. Ta’lim tizimida yangi texnologiyalar pedogogik jarayoni hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to‘liq foydalaniladi[6]. Bu usullarning ahamiyatli tomoni o‘qituvchi-pedogog bilan bir qatorda o‘quvchi-talabalar birgalikda faoliyat ko‘rsatishidir. Ya’ni dars mashg‘ulotlari davomida tinglovchi sifatida o‘quvchilar ham o‘z fikr-mulohazalarini erkin bayon etishi, darsning olib borilishi va mazmuniga ta’sir o‘tkaza olishi mumkin.

Raqamli tarixning eng katta yutuqlaridan biri onlayn arxiv bo‘lib, unda izlanuvchi olimlar tartibga solingan hujjatlar orasidan o‘ziga kerakli ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida olib foydalanishi mumkin bo‘ladi. Onlayn videolar orqali keng ommani tarixga qiziqishini orttirib ilm olishga qiziqtirish imkoni ham katta. Ijtimoiy tarmoqlar orqali qisqa va qiziqarli videolar qo‘yish zamonaviy ilm oluvchilarni jalb etishi turgan gap. XX asrning 80-90-yillarida tarix fanida kompyuterlardan ilmiy ishlarni terish va tahrirlash ishlarida foydalangan bo‘lishgan bo‘lsa, keyinchalik manbalar bilan ishlashdagi yangicha uslublarda ham qo‘llana boshlandi. [7]. Manbalar

matnlari va boshqa tasvirlar skanerlar yordamida kompyuter xotirasiga kiritila boshlandi, ayni vaqtda optik disklarning paydo bo‘lishi bilan kopmyuterlarning juda katta hajmga ega ma’lumotlarni saqlash imkoniyati oshib bordi. 1986-yilda “tarixchi va kompyuter” nomli xalqaro assatsatsiya tuzildi va 1992-yilda uning tarkibiga bir qator MDH davlatlari tarixchilari ham kiritildi. [8] Texnalogiyalar zamonaviylashib hozirgi kunga kelib har qanday inson o‘zi yoki bajariyotgan ishlari haqida istalgan joydan turib internet orqali ma’lum qilishi mumkin. Tarixchi olim shaxsiy ijtimoiy tarmoqlari orqali olib borgan izlanishlari haqida ommaga xabar berishi mumkin. O‘z navbatida bu ma’lumotlardan boshqa izlanuvchilar ham foydalanish imkonini beradi. Dunyo bo‘ylab izlanuvchi olimlarning hamkorligini mustahkamlash ishlarini ham raqamli tarix orqali samarali olib borish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh. Mirziyoyev. Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. Toshkent-2017. 22-bet.
2. S. Mirhayitova. Pedagogik texnologiya. Toshkent-2020. 5-bet.
3. J. Yo‘ldoshev. Tarix o‘qitish metodikasi. Toshkent-2023. 108-bet.
4. Y. G‘affarov. Tarix o‘qitish metodikasi. Toshkent-2023. 154-bet.
5. T. Toyloqov. Raqamli tarix nima? https://cyberleninka. ru
6. Ya. X. G‘afforov. Tarix O‘qitish Metodikasi. Toshkent. Turon-Iqbol-2022. 211-bet.
7. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika Unversiteti. Tarix fanining nazariy asoslari. Toshkent -2020. 145-bet.
8. Alimova. D. A. Tarix fani metadologiyasi. Toshkent-2018. 234-bet.

MODERN APPROACHES TO PROJECT MANAGEMENT BASED ON SYSTEM ANALYSIS METHODS

Atajonova S. B.
Head of the Department of IT
Andijan machine-building institute

Abstract. The article discusses modern approaches to project management using systems analysis methods. Particular attention is paid to tools that allow modeling processes, optimizing resources and making informed management decisions. The use of systems analysis helps to identify relationships between project components, minimize risks and improve implementation

efficiency. Examples of practical implementation of systems analysis methods in various areas of project management are given**.**

Keywords: project management, systems analysis, modeling, optimization, risk management, strategic planning**.**

Introduction. Project management in the context of modern business and technology requires an integrated approach to achieve goals. Increasing project complexity, multitasking, the need to take into account many factors and constraints make traditional approaches insufficiently effective. Systems analysis methods provide universal tools for structuring and optimizing processes. This article is devoted to the study of the use of systems analysis in project management, focusing on the advantages, practical aspects and tools used to solve complex problems.

Research methods. Improving project management knowledge and technologies is a key factor in the development of this area and its successful application in practice. Existing project management approaches and methodologies often have a low level of formalization, which complicates the creation of effective mechanisms for storing, analyzing and transferring knowledge related to projects and their management.

For project-oriented organizations, it is important to develop management systems based on a project approach, using accumulated experience and knowledge. However, this requires solving such problems as transferring the experience of previous projects, systematizing information on typical elements and relationships of projects, developing methods for assessing the current state of projects and making decisions. Low efficiency of knowledge transfer and use between projects remains a serious problem that hinders progress and full application of modern project management methods.

Research results. The creation of projects in companies is based on the concept of interaction of life cycles. The multi-level structure of a developing company indicating the points of project formation is shown in Fig. 1.

Within the framework of the company’s development, two key areas are distinguished: the system of continuous improvements and the reengineering system. These areas are linked by the philosophy of life cycles, which covers the product, process, management system or business as a whole.

Let’s consider the main approaches used in modern project management methodologies and their interrelation:

1. The systems approach is characterized by a comprehensive and structured view of a project or program. However, methods aimed at setting and achieving goals are not sufficiently developed here.

2. The project approach is focused on achieving a specific goal - creating a project product. It takes into account the uniqueness of each project and is focused on completing the task in a given system of criteria. This approach can be imagined as nested in the systems approach, like a "matryoshka doll".

3. The process approach is aimed at standardizing and unifying the actions of project managers. It includes a description of input and output parameters, as well as a set of actions to transform the input into an output. The process approach is closely related to a specific subject area (for example, construction or IT) and helps formalize project management. In the "matryoshka" model, it is nested in the project approach. The connections between the approaches are formalized in the document "Project Management Operational Guide".

The following tools and methods are used to model processes, optimize resources and make informed management decisions:




Figure 1. Tools and methods for making informed management decisions

1. Process Modeling Tools

- *Business Process Model and Notation (BPMN):* Notation for visualizing and analyzing business processes, simplifies their optimization.

- *Unified Modeling Language (UML):* Used to design and document complex systems.

- *ARIS (Architecture of Integrated Information Systems):* Platform for modeling and analyzing business processes.

- *AnyLogic:* A tool for modeling systems using agent, discrete event and system dynamics approaches.

2. Resource Optimization Tools

- *Microsoft Project:* For project management, planning and resource allocation.

- *Primavera P6:* A solution for managing large projects that includes planning and optimization functions.

- *Gurobi Optimization and CPLEX:* Leaders in the field of mathematical optimization for solving problems of linear programming, integer optimization and others.

- *Solver in Microsoft Excel:* A simple and accessible tool for optimization.

3. Decision Support Tools

- *Tableau and Power BI:* Data visualization systems that help analyze data to support decision making.

- *Decision Support Systems (DSS):* Comprehensive decision support systems.

- *Analytic Hierarchy Process (AHP):* A method that helps compare alternatives and make decisions based on priorities.

- *Machine Learning (ML):* Forecasting and anomaly detection in data using AI algorithms (e. g. Scikit-learn, TensorFlow).

4. Project Management Tools

- *Asana and Trello:* Provide task and project management with visual representations such as Kanban boards.

- *Jira:* Suitable for project management, especially in software development.

- *Monday. com:* A general-purpose tool for project management and resource allocation.

5. Specialized Data Analysis Systems

- *R and Python (pandas, NumPy, SciPy):* For data analysis, modeling, and predictive analytics.

- *SPSS and SAS:* For statistical analysis of data.

Conclusion. Systems analysis is a powerful tool that allows solving complex project management problems, improving their efficiency and reducing the level of uncertainty. The use of these methods helps optimize processes, save resources and reduce risks. In a rapidly changing world, a systems approach to project management is becoming an integral part of strategic planning and innovation. Further development of the methodology and tools of systems analysis will contribute to the improvement of project management in various industries.

References:

Gaines R. Systems Analysis and Project Management. - Moscow: Nauka, 2019.

White D. , Forster E. Modern Project Management Methods. - St. Petersburg: Piter, 2020.

Andreev K. V. Systems Approach to Project Management: Theory and Practice. - Yekaterinburg: Ural Publishing House, 2021.

Kerzner H. Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling. – Wiley, 2017.

Thiry M. Program Management: A Strategic Decision Management Approach. – Routledge, 2018.

Atajonova S. B. Research of optimization of intelligent control system in technological processes// International scientific and practical conference dedicated to the Problems and solutions of efficient use of alternative energy sources” November 8, 2023

Atajonova S. B. Development of intelligent control systems in industry//International scientific and technical conference "Actual problems of using renewable energy sources, application of artificial intelligence and digital technologies in increasing the efficiency of energy-saving devices" 09. 15. 2023

Atajonova S. B. System analysis in solar energy: key principles for effective decision making// International scientific and technical conference FerPI 20. 09. 2024

GRAFIK DIZAYNNING BRENDLASHUVDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Og‘abek Kamolidin o‘g‘li Raximjonov
Andijon Mashinasozlik Instituti
“Intellektual boshqaruv va Komputer tizimlari” fakulteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot grafik dizaynning brendlashuv jarayonidagi o‘rni va ahamiyatini batafsil o‘rganishga bag‘ishlangan. Brendlashuv jarayoni birgina mahsulot yoki xizmatni emas, balki uning ortida yotgan qadriyatlar, maqsad va hissiy uyg‘unlikni ifoda etadi. Ushbu jarayonda grafik dizayn asosiy vosita sifatida, brendning vizual identifikatsiyasi va unikal qiyofasini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Logotip, ranglar palitrasi, tipografiya va boshqa vizual elementlar yordamida brendning mohiyati, o‘ziga xosligi va bozor talablariga mosligi ifodalanadi. Tadqiqotda Adobe Photoshop dasturi va uning grafik dizayn sohasidagi imkoniyatlari alohida ko‘rib chiqiladi. Photoshopning qatlamlar, maskalar va filtrlar kabi funksiyalari brendning vizual obrazini yaratishda samarali vosita sifatida o‘rganiladi. Shuningdek, grafik dizayn jarayonida zamonaviy tendensiyalar, masalan, minimalizm uslubi, dinamik dizayn elementlari va raqamli platformalarda vizual kontentning roli tahlil qilinadi. Ushbu ishda grafik dizaynning auditoriya bilan samarali muloqot o‘rnatish va brendning bozor maydonida ajralib turishiga xizmat qiluvchi vosita sifatidagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari grafik dizaynerlar, marketing mutaxassislari va brend menejerlari uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, brend strategiyasini rivojlantirishda qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, zamonaviy dizayn vositalarining imkoniyatlarini to‘g‘ri ishlatish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu ish grafik dizayn va

Photoshopning o‘zaro uyg‘unligini, ularning brendlashuvdagi hissasini ilmiy va amaliy jihatdan yoritib berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Vizual identifikatsiya, Tipografiya, Vizual kommunikatsiya**,** Rang palitrasi

Grafik dizayn zamonaviy marketing va brendlashuvning ajralmas qismiga aylangan soha bo‘lib, kompaniyalar va tashkilotlar uchun o‘z brendlarini samarali ravishda bozorga taqdim etishning asosiy vositasi hisoblanadi. Brend yaratish va uni maqsadli auditoriyaga taqdim etish jarayonida vizual elementlarning ahamiyati katta. Grafik dizayn orqali brendning vizual identifikatsiyasi, ya’ni uning logotipi, ranglar palitrasi, tipografiyasi, va boshqa dizayn elementlari ishlab chiqiladi. Bu elementlar brendning mohiyatini aks ettiradi, uning bozor yeri va iste’molchilardagi tasavvurlarini shakllantiradi. Grafika dizaynerlari, brend menejerlari va marketing mutaxassislari bu elementlarni muvaffaqiyatli yaratish orqali o‘z brendining o‘ziga xosligini va bozordagi raqobatbardoshligini ta’minlashga yordam beradi.

Zamonaviy brendlashuvda grafik dizaynning roli faqat vizual jihatdan emas, balki brendning iste’molchilar bilan aloqasini mustahkamlashda ham juda muhimdir. Har bir brendning vizual identifikatsiyasi, jumladan, uning ranglar, tipografiya va logotiplar orqali qanday taassurot qoldirishi, iste’molchi xotirasida qanday iz qoldirishi o‘ta muhimdir. Brend yaratish jarayonida grafik dizaynning naqshlarni, ranglarni, shakllarni va boshqa vizual elementlarni oqilona tanlash orqali auditoriya bilan emotsional aloqalarni rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratiladi. Adobe Photoshop dasturi grafik dizaynning eng mashhur va samarali vositalaridan biridir. Photoshop dasturining keng imkoniyatlari, qatlamlar, filtrlar, va boshqa ilg‘or funksiyalari dizaynerlarga brend imidjini yaratishda katta yordam beradi. Bu dastur yordamida vizual elementlar, logotiplar, reklama bannerlari va boshqa dizayn materiallarini ishlab chiqish, tahrirlash va sozlash osonlashadi. Photoshopning o‘ziga xos imkoniyatlari grafik dizaynerlarga yuqori sifatli va estetik jihatdan jozibador brend identifikatsiyasini yaratishga yordam beradi. Shu bilan birga, Photoshop dasturining tezkor va aniq ishlash imkoniyatlari professional dizayn jarayonlarini yanada samarali va yuqori sifatli qilish imkonini beradi. Grafik dizaynning brendlashuvdagi roli nafaqat vizual jihatdan, balki brendning bozor pozitsiyasini mustahkamlashda, iste’molchilar bilan o‘zaro aloqani o‘rnatishda ham juda muhimdir. Ushbu tadqiqotda grafik dizaynning brendlashuvdagi ahamiyati, uning biznes muvaffaqiyatiga ta’siri, hamda Photoshop dasturining bu jarayondagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy dizayn tendensiyalari, minimalizm va vizual kommunikatsiyaning brendlashuvdagi roli o‘rganiladi. Bu ish grafik dizayn va Photoshopning zamonaviy brend yaratishdagi o‘rni haqida chuqurroq tushuncha hosil qilishga yordam beradi.

Grafik dizayn — bu vizual elementlar va estetika yordamida axborotni etkazish va kommunikatsiya qilish san’ati va ilmidir. Grafik dizaynerlar ranglar, shakllar, xatlar va

kompozitsiyalar orqali insonlar bilan samarali muloqot qilishni maqsad qiladilar. Bu bo‘limda grafik dizaynning asosiy tushunchalari va prinsiplari, uning brendlashuvdagi ahamiyati va qanday ishlashini ko‘rib chiqamiz. Grafik dizayn sohasining boshlanishi qadimiy davrlarga borib taqaladi. Birinchi grafika dizayn elementlari qadimgi yozuvlar, dekorativ tasvirlar va bayroqlarda kuzatilgan. XX asrning o‘rtalarida esa grafik dizaynning ilmiy va texnologik asoslari rivojlana boshladi. Kompyuter texnologiyalarining joriy etilishi bilan grafik dizayn yanada samarali va keng qamrovli soha bo‘lib, turli sanoatlarda faol qo‘llanilmoqda. Bugungi kunda grafik dizayn reklama, brendlashuv, media sanoati va boshqa ko‘plab sohalarda ishlatiladi.

Grafik dizaynda ishlatiladigan asosiy elementlar vizual tafsiflar sifatida quyidagilarga bo‘linadi:

Rang: Ranglar har doim hissiyotlar va kayfiyatlar bilan bog‘lanadi. Dizaynerlar ranglar yordamida brendning identifikatsiyasini yaratadilar va ma’lum bir his-tuyg‘uni etkazadilar. Masalan, ko‘k rang ishonchlilik va professionalizmni bildirsa, qizil rang energiya va ehtirosni ifodalaydi.

Shakl va geometrik elementlar: Shakllar orqali kompozitsiyalarni yaratish, brendning imidjini to‘g‘ri ifodalash mumkin. Katta yoki kichik geometrik shakllar orqali muvozanat, kuch yoki yumshoqlik tasvirlanadi. Shakllar har doim brendning maqsadiga mos kelishi kerak.

Tipografiya: Xat, harflar va ularning dizayni brendning ovozi va xabarini yanada ta’sirchan qiladi. Har bir tipografik uslub (masalan, sans-serif yoki serif) muayyan his-tuyg‘uni va sifatni aks ettiradi. Tipografiyaning to‘g‘ri tanlovi dizaynda professionalizmni yoki ijodkorlikni ko‘rsatadi.

Kompozitsiya: Kompozitsiya, ya’ni elementlarning joylashuvi va o‘zaro aloqasi, dizaynning vizual oqimini belgilaydi. U auditoriyaning e’tiborini qayerga qaratish kerakligini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Vizual elementlar to‘g‘ri joylashganda, ular bir-birini to‘ldirib, yanada kuchliroq tasvir yaratadi.

Brendlashuv — bu kompaniya, tashkilot yoki mahsulotning o‘ziga xosligini yaratish jarayoni bo‘lib, grafik dizayn brendning asosiy komponentlaridan biridir. Brendning vizual identifikatsiyasi to‘g‘ri grafik dizayn bilan yaratiladi. Brendlashuvning asosiy komponentlari quyidagilar:

Logotip: Brendning yodda qoladigan va uni boshqalardan ajratib turadigan asosiy vizual elementi hisoblanadi. Logotip oddiy va aniq bo‘lishi kerak, shuningdek, brendning qadriyatlarini va missiyasini ifodalashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

G. A. Majidova. Nashriyotda grafik dizaynni, g‘oyalar va rang modellari bilan ishlash. Proffesor Shamsiddin Sharipovich Sharopov tvalludining 85 yilligiga bag‘ishlangan Respublika ilmiy-amaliy anjuman. 367-368 b.

G‘afurov, A. (2018). Dizayn va brend: nazariya va amaliyot. Tashkent: O‘zbekiston davlat iqtisodiy universiteti nashrlari.

To‘xtayev A. , Karimova Z. "Rang va shakl nazariyasi" – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2019.

Axmedov A. "Kompyuter grafikasi va dizayn asoslari" – Toshkent: "O‘zbekiston", 2018.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Abrorxonova Kamola Abrorxonovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika unversteti

”Boshlangich ta’lim pedagogikasi” kafedrasi mudiri PhD dotsent

Shayunusova Feruza Saxidovna

Nizomiy nomidagi Toshkent

davlat pedagogika universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, salohiyatini oshirish, dunyoqarashini boyitish ta’lim texnologiyalari bilan tanishtirish asosida kreativ tafakkurini rivojlantirish haqida so‘z bormoqda.

Kalit so‘zlar: kreativ, qobiliyat, rivojlantirish, sifat, samaradorlik. ta’lim, o‘quvchi, tafakkur, motiv, refleks, mantiqiy fikrlash.

Bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari hisoblanmoqda. Shunday ekan, O`zbekiston Respublikasining ta`lim sohasini isloh qilishdagi sa`yi harakatlarining biri – bu pedagog kadrlarning zamon talablariga hamnafas tarzda faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashga doir chuqur bilim, pedagogik mahorat, ko`nikma, malaka va madaniyatga ega bo`lishlarini talab etmoqda. Bu esa o`z-o`zidan ta`lim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o`rganuvchi pedagogika faniga «kreativlik» degan tushunchani olib kirdi.

Kreativlik bu-Kreativlik (lot. ing. create-yaratish, creative-yaratuvchi, ijodkor) - individning yangi g‘oyalarini ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati hisoblanadi. Shunday ekan bugungi kunda umum ta`lim maktablarida o`qituvchi kadrlarning kreativligini rivojlantirishga bo`lgan ijtimoiy buyurtma

vujudga kelmoqdaki, bu borada ilmiy pedagogik izlanishlar olib borish talab etiladi. Ammo kreativlik masalasining ilmiy-nazariy, ilmiy-pedagogik jihatlari maxsus ilmiy tatqiqot ob`ekti sifatida tatqiq etilmagan. Bugungi kundagi zamonaviy uzluksiz ta’lim tizimi kreativ yondoshuvni talab etadi. Ayniqsa, boshlang`ich ta`lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta`lim turidan biri bo`lib, ta`limning bu bosqichida pedagog o`qituvchilarga katta mas`uliyat yuklatiladi. Ya`ni boshlang`ich sinf o`qituvchilarining kreativlik faoliyati hali maxsus o`rganishni talab etmoqda.

O‘qituvchi bilan o‘quvchilarning hamkorligi o‘qituvchining o‘quvchilarga ko‘rsatadigan yordamidan boshlanadi. U asta-sekin faollashib o‘quv harakatlariga aylanadi. Natijada, o‘qituvchi bilan o‘quvchilar munosabati hamkorlik pozitsiyasiga o‘sib o‘tadi. ‘quv jarayonida o‘quvchilar bilan hamkorlik qilish katta ahamiyatga ega. O‘quvchilarning ta’limga qay darajada ixlos qo‘yishi o‘qituvchining mana shu hamkorlikni yarata bilish mahoratiga bog‘liq. O‘qituvchi bilan o‘quvchilarning o‘quv faoliyatidagi muhitning to‘g‘ri uyushtirilishi o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi, ularni butun kuch va g‘ayratini sarflashga undaydi. Bu o‘zaro muloqotning shunday bir shaklidirki, bunda o‘quvchi o‘zini pedagogik ta’lim obyekti deb emas, balki mustaqil va erkin harakat qiluvchi shaxs deb biladi. O‘qituvchining o‘rganilayotgan fan bo‘yicha qaysidir bir ma’lumotga aniqlik kiritish paytida o‘quvchilarga yordam so‘rayotganday murojaat qilishi hamkorlik faoliyatini yanada chuqurlashtiradi. O‘quvchilarni o‘rganuvchi va tarbiyalanuvchiga aylantirish o‘qish o‘qitish jarayonini muvaffaqiyatli olib borishninggina sharti bo‘lib qolmay, balki ularni har jihatdan barkamol insonlar qilib tarbiyalashning ham muhim shartidir. Darsda o‘quvchilarga bilim berishda uning aqliy imkoniyatlarini hisobga olgan holda hissiy bilish jarayonini takomillashtirish zarur. Bolaning xotirasini rivojlantirish ham muhimdir. Chunki fanga oid materiallarni yodlash va amaliy topshiriqlarni bajarish boshqa fanlarga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. O‘qituvchi darsda amaliy ishlarni tushuntiribgina qolmay, balki asosiy materiallar va obyektlarning namunalarini, materiallarni materialga qayta ishlash usullarini va ish bosqichlari ketma-ketligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinfdagi darslarda eshitish, ko‘rish va xotira rivojlantirish mashqlari muhim o‘rin tutadi. Masalan, boshlang‘ich sinfda texnologik mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil etish, o‘quvchilarni qiyinchiliklarni yengib o‘tishga, maqsadga erishish yo‘lida tinmay mehnat qilishga, boshlagan ishni tashlab ketmasdan, oxiriga yetkazishga o‘rgatishi kerak. Texnologiya darslarida ijodiy tashabbussiz yondashuv mehnatni aqliy rivojlanish omiliga aylantirmaydi. Bilimlarni qo‘llashni talab qilmaydigan, tafakkurni faollashtirmaydigan, aqliy qobiliyatlarni rivojlantirmaydigan mehnat faoliyati. Texnologik ta’lim – bu muayyan ish jarayonida muayyan tartib va harakatlar ketma-ketligiga rioya qilish zarurligini muntazam tushuntirish bilan birga keladigan ko‘plab mashqlar natijasidir. Yosh

avlodning texnologik faoliyati quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanadi va tuziladi: texnologiya o‘yindan ajralgan mustaqil faoliyat sifatida shakllanadi; texnologik faoliyat jarayonining mohiyatini o‘zlashtirishga erishiladi; texnologik faoliyatning turli shakllari yaratiladi. Ijtimoiy texnologiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi ta’lim texnologiyasidir. Texnologiya ta’limining maqsadi, eng avvalo, o‘quvchilarga texnologiyaning mohiyati va mazmunini chuqur anglashdan iborat. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o‘qituvchi chegaradan tashqarida fikrlash, ijodiy fikrlash va pedagogik shartsharoitlarni yaratish, shaxsning ijodiy fazilatlarini rivojlantirish, ijodkorlikka, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradigan pedagogik ishning mumkin bo‘lgan usullari va yo‘nalishlarini aniqlashi kerak. Tadqiqotimizda ijodiy qobiliyatlarni aniqlash uchun biz E. P. Torrensning ijodiy fikrlash testining figurali shaklidan foydalandik. Vazifalar ushbu testlarning topshiriqlariga chizmalar va ularga sarlavhalar ko‘rinishida javob berishlari kerak edi. Tadqiqotda Xo‘jayli tumanidagi 4-maktabning 4-sinf o‘quvchilari va o‘qituvchisi ishtirok etdi. Kreativlik mezonlarini o‘rganish asosida sinf ijodkorlik darajalariga ko‘ra – eng past – 22, 2 % (4 kishi), past – 66, 7 % (12 kishi), o‘rta – 11, 1 % (2 kishi) guruhlarga bo‘lingan. Natijalar o‘rtacha kreativlik darajasiga ega bo‘lgan ikkita o‘quvchi bundan mustasno, sinfdagi aksariyat o‘quvchilarning ijodkorlik darajasi pastligini ko‘rsatadi. Yosh o‘quvchilar o‘rtasida kreativlik mezonlarini o‘rganish natijalarining nisbati ularda eng yaxshi rivojlangan ravonlik (38, 3%), o‘ziga xoslik (35, 7%) va moslashuvchanlik (26%) borligini ko‘rsatdi. Shuningdek, ismning mavhumligi, yopilishga qarshilik va rivojlanish kabi kreativlik mezonlari o‘rganildi. Shuni ta’kidlash mumkinki, ushbu mezonlar orasida bolalar rivojlanish bo‘yicha eng yaxshi ko‘rsatkichlarni (68%) ko‘rsatdilar. Yopilishga qarshilik mezoni o‘quvchilarning 28%, ismning mavhumligi 4% tomonidan shakllantiriladi. Ko‘pchilik bolalarning kreativlik darajasi past bo‘lgan 4-“A” sinf o‘qituvchisida ijodiy rivojlanish darajasi yetarli emas (o‘rtacha ko‘rsatkichdan past) ekanligini aniqladik. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchining ijodkorligi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq, shuning uchun o‘qituvchi, birinchi navbatda, dars va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda ijodiy bo‘lishi kerak. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlari dasturlaridagi topshiriqlarda o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga e’tibor berilgan bo‘lsa-da, ammo o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish nuqtai-nazaridan ularni takomillashtirish zarur. Ya’ni o‘qituvchilar ma’suliyatli va e’tiborli bo‘lish zarur. Shuningdek, o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlari rag‘batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muqimjanovna, Mohira Muydinova, и Karimjonova Gulshanoy Sherali qizi. 2023. «JAMIYATDA BO‘LAYOTGAN O‘ZGARISHLARNING OILAGA TASIRI». Новостиобразования: исследованиев XXI веке 1 (6):1068-72. http://nauchniyimpuls. ru/index. php/noiv/article/view/3826.

2. “Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma. :– Toshkent 2015

3. Davletshin M. G. Do‘stmuhamedova Sh, Mavlanov M, To‘ychiyeva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. (O‘quv metodik qo‘llanma). Nizomiy nomidagi TDPU. 2004-yil.

4. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo‘‘yicha o‘quv-uslubiy majmua – Toshkent. 2016

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MANTIQIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHAROITLARINI JORIY ETISH

Toshpulatova Durdona Komiljon qizi
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v. b. (PhD)
durdonatoshpulatova93@gmail. com

Annotatsiya. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish muammosini hal etishning nazariy va amaliy tajribasiga tayanib, integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari mazmuni belgilandi va malga oshirildi.

Kalit so‘zlar. faol fikrlash, mustaqil fikrlash, ijodiy fikrlash, diqqat, aql, tez fikrlash, chidamlilik, hazil tuyg‘usi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni amalga oshirish pedagogik sharoitlarini joriy etish matematika, ona tili va o‘qish savodxonligi, tabiiy fanlarni o‘zlashtirish doirasida darsda va darsdan tashqari vaqtda amalga oshirilgan bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ma’lum imkoniyatlarni ochib berdi.

Mantiqiy fikrlash qobiliyatlarni rivojlantirishda invariant va variativ didaktik funksiyalarni alohida o‘rganib chiqdik. Birinchi navbatda, variativ didaktik funksiyalar deganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga ta’limda formal o‘qitishdan holi bo‘lgan holda, ta’lim mazmunini har xillashtirish va o‘zgartirishga erishish ekanligi anglanadi. Invariant didaktik funksiyalar variativ

didaktik funksiyalar aksi bo‘lib, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarni rivojlantirishda ta’lim mazmunini bir xillikka erishishidir. O‘quvchilarda mantiqiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish mezonlari mantiqiy-ijodiy qobiliyatlar tuzilmasini hosil qiluvchi bloklar orqali ishlab chiqildi.

Shu munosabat bilan eksperimental ish jarayonida biz integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqdik. Shu bilan birga, ushbu faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun barcha didaktik shartlar hisobga olingan.

O‘quv tajribasi davomida quyidagi didaktik shartlar hisobga olinishi lozim:

1. Boshlang‘ich ta’lim uchun integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalari samaradorligini pedagogik baholash;

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash rivojlanish darajasiga qo‘yilgan talablarni aniqlash;

3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy rivojlanish dinamikasini o‘rganish.

Integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatining rivojlanganligi quyidagi ko‘rinishda namoyon bo‘lishini aniqladik:

fikrlashni mustaqilligi (erkinligi);

berilgan mantiqiy topshiriqlarni hal qilishda topqirlikning tezligi;

o‘quv materialni o‘zlashtirishning tezligi va mustahkamligi;

muhim bo‘lgan narsani muhim bolmagan narsadan ajirata bilish;

fikrlashdagi tanqidiylik.

Ishlab chiqilgan tavsiyalar o‘qituvchiga jarayonni amalga oshirish tizimini mantiqan va izchil qurishga, o‘quvchilarning imkoniyatlari, materialning xususiyatlari va shakl, metodlarning xarakteri o‘rtasidagi muvofiqlikni o‘rnatishiga imkon beradi va bu mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazishni nafaqat o‘qituvchi uchun, balki o‘quvchilar uchun ham yengillashtiradi. Shu bilan birga, tavsiyalardan foydalanish o‘qituvchining ijodiy faoliyati uchun keng sharoit yaratib, unga o‘quv mashg‘ulotlarini qurish va mazmunli to‘ldirishga individual yondashishga imkon beradi, bilish va o‘z-o‘zini bilishga ijobiy motivatsiya va qiziqishni qo‘zg‘atadi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning integrativ tiziminida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish jarayonini pedagogik ta’minlash batafsil yoritilgan.

Bir qator mantiqiy mashqlar o‘yin tarzida o‘tkazildi. Bu juda muhim, chunki u yosh o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga javob beradi. Ma’lumki, o‘yinlar aqliy rivojlanish vositalaridan biridir. Didaktik o‘yin jarayonida bola obyektlar, ularning o‘zaro joylashishi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Bundan tashqari,

didaktik o‘yin bolada bilish jarayoniga katta qiziqish uyg‘otadi, uning aqliy faoliyatini faollashtiradi va tarbiyaning qulay vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Materialni o‘yin uslubida taqdim etish ushbu materialni nafaqat bolalar uchun qiziqarli va ko‘ngil ochar, balki, eng muhimi, qulay qiladi. O‘rganilayotgan materialni eslab qolish osonroq, zarur bilim va ko‘nikmalar tezroq va osonroq egallanadi. Ushbu yondashuv bilan material ongli ravishda o‘rganiladi va uzoq vaqt esda qoladi.

Didaktik o‘yinlardan foydalanish bolalarda zukkolik, nutqiy ravonlik va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va takomillashtirishga yordam beradi, bu ayniqsa ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish vazifasi bilan boliq.

Didaktik o‘yinlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin: vizual va og‘zaki. Ko‘rgazmali qurollardan foydalanadigan o‘yinlar, o‘z navbatida, namoyish va tarqatma materiallar bilan va turli o‘yinchoqlar (tabiat buyumlari va uy-ro‘zyor buyumlari) bilan o‘ynaladigan o‘yinlarga bo‘linadi.

So‘z o‘yinlari bolalarning to‘plangan tajribasiga, ularni kuzatishga asoslangan. Ushbu o‘yinlarning vazifasi tizimlashtirish va umumlashtirishdir. Ular o‘quv materialini mustahkamlash va takrorlash bosqichida qo‘llaniladi. Og‘zaki didaktik o‘yinlar o‘quv muammosini hal qilish jarayoni aqliy rejada, g‘oyalar asosida va vizualizatsiyaga tayanmasdan amalga oshirilishi bilan ajralib turadi.

Adabiyotlarda so‘z o‘yinlari 4 guruhga bo‘lingan.

Ulardan birinchi guruh o‘yinlari yordamida obyektlar, hodisalarning muhim belgilarini ajratib ko‘rsatish qobiliyati shakllanadi.

Ikkinchi guruh o‘yinlari bolalarda taqqoslash, farqlash, to‘g‘ri xulosalar chiqarish qobiliyati rivojlanishi uchun ishlatiladigan o‘yinlardan iborat.

Obyektlarni turli mezonlarga ko‘ra umumlashtirish va tasniflash qobiliyati rivojlangan o‘yinlar uchinchi guruh o‘yinlariga birlashtiriladi.

To‘rtinchi guruhda diqqat, aql, tez fikrlash, chidamlilik, hazil tuyg‘usini rivojlantirish uchun o‘yinlar mavjud.

Didaktik o‘yinlarda namoyon bo‘ladigan bolalarning fikrlash faoliyati mustahkam, chuqur bilimlarni egallashga ongli munosabatning asosiy shartidir. Didaktik o‘yinlarning mazmuni bolalarda ijtimoiy hayot hodisalari, tabiat va atrofdagi dunyo obyektlariga to‘g‘ri munosabatni shakllantiradi. O‘yinlar asosida bolalarda darslarga qiziqishi va bilimlarni assimilyatsiya qilish tezligi ortadi.

O‘qituvchi didaktik o‘yinlar yordamida bolalarni mustaqil fikrlashga, har xil sharoitda olgan bilimlaridan vazifaga muvofiq foydalanishga o‘rgatadi. Didaktik o‘yinlar bolalarni aqliy xarakatlarda mavjud bo‘lgan bilimlardan oqilona foydalanish, maqsadga intilish, atrofdagi

narsalar va hodisalarda xarakterli xususiyatlarni topish; rejalashtirish, tahlil qilish, solishtirish, guruhlash, obyektlarni ma’lum mezonlarga ko‘ra tasniflash, to‘g‘ri xulosalar, umumlashtirishlarga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Galperin P. Y. Bolaning intellektual rivojlanishini o’rganishga. // Psixologiya savollari, 1969, №1.

2. Lisova G. G. , Ashtrafziyanov A. I. , Nikiforova T. A. , Prilezhayeva L. G. , Saliyev N. N. Uslubiy maqolalar to’plami "Integratsiya rivojlanuvchi ta’lim uchun ". ANO SOSH "Premier". 2014 yil

3. Abdullayeva B. S. Akademik litsey o’quvchilarining matematik tafakkurlarini rivojlantirish (umumlashtiruvchi darslar misolida): Dis. … ped. fan. nom. – Toshkent: TDPU, 2002. – 146 b.

4. Toshpulatova SH. O. O’quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish. Ped. fan. . . . (PhD) diss. avtoref. – Samarqand. 2019. 14-20 b.

5. Yusupova SH. M. Ona tilini integral o’qitish sharoitida boshlang‘ich sinf o’quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish: Dis. . . . ped. fan. dok. – X. , 2010. – 17 b.

6. Toshpulatova D. K. “The role of mental arithmetic in improving mathematical literacy in primary school”. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science Published 18. 12. 2019.

MUSTAQILLIK YILLARIDA OLIMA AYOLLARNING ILMIY FAOLIYATI VA TA’LIMDA XOTINQIZLARNING O‘RNI

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi mudiri, PhD, dotsent
To‘ymurodova Gullola Normurod qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 1-bosqich magistranti

“Qizlar bilim olishga hammadan ko‘proq intilishlari lozim,
zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar”. [1]

Abdulla Avloniy

[1] Abdulla Avloniy “Tanlangan asarlar”

Ilm fan — har qanday davlatni rivojlanishga yetaklovchi asosiy kuch hisoblanadi. Davlatning rivojlanishini fan taraqqiyoti orqali baholash juda ham o‘rinli, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu bois O‘zbekiston uchun ilm-fan taraqqiyoti farovonlik va barqarorlik yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir. Konstitutsiyamizda davlat jamiyatning ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qilishi bejiz qayd etilmagan. Tarixdan o‘zbek jamiyatida ilmga hurmat va ehtirom an’ana sifatida saqlanib kelgan. Buyuk bobokalonimiz Imom Buxoriy aytganlaridek, “dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay”. Ma’lumki, ilm talabi bobida ayol ming yillar davomida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma’naviy barkamolligi ayollarga bo‘lgan munosabat bilan belgilangan. Ayolni e’zozlash, unga ehtirom ko‘rsatish o‘zbek xalqiga xos xususiyatdir. O‘zbekistonimizda xotin - qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizning siyosiy hayotida, davlat va jamiyat boshqaruvida, iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlarida, madaniyat, ilmu - fan, xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash, sport kabi ijtimoiy sohalarda ayollarimizning o‘rni va roli ortib borayotganligi ayniqsa e’tiborlidir.

Ma’rifatli ayol tushunchasi qalbimizga juda ham ma’qul keladigan tushuncha desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Agar oilaning ayoli ma’rifatli bo‘lsa bu xonadonda xayru baraka, xotirjamlik, fayz, saranjomlik, ahillik hamroh bo‘ladi. Ma’rifatli ayol bo‘lish uchun har bir ayol va onalarimiz o‘z ustlarida ko‘proq ishlab o‘zini-o‘zi isloh qilmog‘i darkor. Avvalambor har bir ayol bolalik va o‘smirlik davridanoq ma’rifatga intilib, ilm olib yashashni o‘ziga maqsad qilib olishi ahamiyatlidir. Agar bir insonni tarbiyalamoqchi bo‘lsang o‘g‘lingga yaxshi tarbiya ber, agar jamiyatni tarbiyalamoqchi bo‘lsang qizingni ma’rifatli qilib tarbiyala, degan naql bor xalqimizda. Chunki qiz bola bo‘lajak ona u o‘zi kabi farzandlarini ham ma’rifatga yetaklaydi. Farzandga tarbiya berish borasida ayollarning tutgan o‘rni nihoyatda baland ekanligiga tarix guvohdir. Tarixdan ma’lumki, qanchalar buyuk zotlaring ortlarida albatta bir buyuk ona yoki bir buyuk ayol turgan bo‘ladi. Masalan, Ahmad ibn Hanbal rohimahulloh hayotlariga nazar tashlasak, ul zot otalaridan erta yetim qolganlar. Onalari yakkayu yagona farzandlarini ilmga muhabbatli qilib voyaga yetkazganlar. Ahmad ibn Hanbal balog‘atga yetgach ro‘zg‘or tashvishi o‘laroq, darslarga biroz qatnasha olmaydilar, shunda onalari men och o‘tirsam ham roziman faqat ta’lim olishlikni tashlab qo‘yma deb nasihat qiladilar. Buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniy “Qizlar bilim olishga hammadan ko‘proq intilishi lozim. Zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar”, deb bejiz aytmagan.

Uchinchi Renessansga erishish yo‘lida xotin-qizlarni yanada bilimli, ma’rifatli qilish eng asosiy vazifalardan biridir. Xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini ko‘tarish davlatimiz siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan. Shu bois, bu boradagi ishlarning amaliy isboti sifatida

so‘nggi yillarda nozik jins vakillarining jamiyat hayotidagi o‘rnini oshirishga qaratilgan qator farmon va qarorlar, jumladan, Xotin-qizlar ta’limini qo‘llab-quvvatlashning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan dasturi qabul qilindi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi. . . .

Sog‘lom zurriyod, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdagi o‘rningiz va xizmatingizni hech narsa bilan qiyoslab, baholab bo‘lmaydi. Sizlarning mehr-muhabbatingiz, vafo va sadoqatingiz, fidoyiligingiz sababli hayotimiz charog‘on”, -degan fikrlari e’tiborlidir. Shuning uchun ham O‘zbekistonda xotinqizlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, ular uchun munosib mehnat va turmush sharoitini yaratib berish, qobiliyat va salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalasi mamlakatda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Qiz bola oliy ma’lumotli bo‘lsa, yuksak bilim va salohiyat egasiga aylansa, buni kelgusida farzandlariga ham singdiradi. Har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasiga mas’uliyat bilan yondashadi. Chunki, ayolga tabiatan avlodlar zanjirini davom ettirish va millatning qadrini ko‘taradigan farzandlarni tarbiyalashdek ulug‘ vazifa yuklangan. Shunday ekan, shukrona tuyg‘usi bilan yashash va qizlarimizni o‘qitishni kun tartibidagi birinchi masala sifatida belgilasak, yurtimiz rivojiga hissa qo‘shgan bo‘lamiz.

Olima ayollarning ilm fan rivojidagi o‘rni muhim va ahamayatlidir. Tarixdagi bo‘lgan to‘siqlar va jamiyatdagi gender notengliklarga qaramasdan ko‘pkina ayollar bir necha sohalarada misli ko ‘rilmaga yutuqlarga erisha olganlar. Ularning ilmiy izlanishlari va innovatsion g‘oyalari ilm fan rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsata olgan. Bir qancha olimalar jumladan Mariya Sklodovskaya_Kyuri radioaktiv yo‘nalishda inqilobiy yangiliklarni yaratib hattoki ikki karra Nobel mukofotiga ham sazovor bo‘lgan. Uning radiatsiya sohasidagi ilmiy ishlari ilm-fan taraqiiyotiga hissa qo‘shish bilan bir qatorda onkologik kasalliklarning yangicha davolash usullarini yaralishiga ham olib keldi. Rozalind Franklin kimyogar va rentgenolog, DNK tuzilishidagi ixtirolarda asosiy o‘rinni egallaydi. Uning ilmiy ishlari genetik mexanizmlar va genetika sohasidagi tushunchalarning asosiga aylangan. Janna Guttman-Mendeleyeva, biolog va genetik. Uning genetika sohasidagi izlanishlari nasliylik va evolyutsiya tushunchalarining yaralishiga asos bo‘lgan. Bu ro‘yhatni o ‘zbek olima ayollari ilm-fandagi hissalari bilan ham davom ettirish mumkin.

Nozimaxonim (1870–1924) birinchi ayol publitsist, jadidchilik davri jurnalisti. Nozimaxonim jurnalistlik faoliyati bilan bir qatorda otin (qizlarga dars bergan muallimlar, Qur’on qoriyalari deb ataladiganlar) ham edi. Shoira va publitsist bor-yo‘g‘i 54 yil umr kechirgan.

Sobira Xoldorova 1907-yilda tug‘ilgan. Vafot etgan yili noma’lum. Jurnalist ma’lumotiga ega ilk ayol. Sobira Xoldorova Nozimaxonimdan farqli o‘laroq, professional jurnalistik ta’lim oldi.

O‘zbek milliy matbuotiga asos solgan jadidchilarning aksariyati publitsistika fanidan chuqur bilimga ega emas edilar, biroq shogirdlari, jumladan, Xoldorova haqida bunday deb bo‘lmaydi.

Zulfiya Umidova (1897–1980) birinchi ayol shifokor, tibbiyot fanlari doktori Zulfiya Umidovaning shogirdlari va izdoshlari shifokor 1946-1969-yillarda rahbarlik qilgan Gospital terapevtik poliklinikasida namunali tartib, intizom va ozodalik hukm surganini eslaydilar. Ilmiy faoliyati davomida doktor 80 ta maqola yozgan, 32 ta nomzodlik va 3 ta doktorlik dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlik qilgan.

Dilbar Abdurahmonova nafaqat O‘zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda birinchi ayol-dirijyor sanaladi. Uning repertuarida 60dan ziyod opera va balet spektakllari bor.

Zarifa Saidnosirova 1908-yil 31-sentabrda Turkiston shahrida tug‘ilgan. Kimyogar olima. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1968), professor (1970). Kimyo fanlari nomzodi (1945). Birinchi o‘zbek ayol rassomi. Taniqli ma’rifatparvar S. Mirjalilovning qizi, yozuvchi Oybekning rafiqasi.

Aziza Shonazarova O‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda genderlik tarixi va ayollar dindorligi mavzusida AQShning Indiana – Blumington universitetida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. Ikki yo‘nalishda — dinshunoslik va Markaziy Osiyo tarixi bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini ham olgan. Okean ortida yashab faoliyat yuritayotgan Aziza Shonazarova 2020 yil Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami arafasida O‘zbekiston Prezidenti farmoniga ko‘ra “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlangan.

Joriy yil 1-mart kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida xotinqizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimi hamda ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi ham bu masalaga alohida e’tibor qaratildi. Kelgusi o‘quv yilidan boshlab jamiyatimizda olima ayollar ulushini sezilarli oshirish uchun doktorantura yo‘nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratilishini bildirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Qarori “Xotin-qizlarning mehnat huquqlarining kafolatlarini yana-da kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 4235 -sonli.

2. Sh. Ubaydullayeva. O‘zbekistonda tibbiyotning akusher-ginekologiya yo‘nalishi taraqqiyotida xotin-qizlarning o‘rni. Samo qalqonlari. Harbiy-ilmiy jurnal. 2023/8-son

3. Abdulla Avloniy “Tanlangan asarlar”

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA XOTIN-QIZLARNING DAVLAT VA JAMIYATDAGI MA’NAVIY FAOLLIGINI TA’MINLASHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI

Berdiyorova Shoira Axmadjonovna

JDPU, Pedagogika ta’limi nazariyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mahallalarda xotin-qizlarning davlat va jamiyatdagi ma’naviy faolligini sinergetik yondashuv asosida takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek maqolada**,** xotin-qizlarni ma’naviy faolligini takomillashtirish muammolari respublikada amalga oshirilayotgan yangicha islohotlarning tarkibiy qismi sifatida jamiyat taraqqiyoti va kelgusi avlod tarbiyasi bilan uzviy bog‘liq ekanligi amaliy tajribalar orqali tahlil qilib berilgan.

Tayanch so‘zlar: ayol, davlat, jamiyat, ijtimoiy taraqqiyot, ma`naviy faoliyat, xalq tarbiyachisi, komil inson, madaniyat, qadriyat, ong, tafakkur, madaniy daraja, maqtov, izzat.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения объясняются особенности совершенствования духовной активности женщин в государстве и обществе в микрорайонах на основе синергетического подхода. Также в статье на практическом опыте анализируется, что проблемы совершенствования духовной активности женщин как составной части реализуемых в республике новых реформ неразрывно связаны с развитием общества и воспитанием подрастающего поколения.

Ключевые слова: женщина, государство, общество, общественное развитие, духовная деятельность, воспитательница нации, совершенный человек, культура, ценность, сознание, мышление, культурный уровень, похвала, честь.

Annotations. In this article, from a scientific and theoretical point of view, the features of improving the spiritual activity of women in the state and society in microdistricts are explained on the basis of a synergistic approach. The article also analyzes on practical experience that the problems of improving the spiritual activity of women as an integral part of the new reforms being implemented in the republic are inextricably linked with the development of society and the upbringing of the younger generation.

Keywords: woman, state, society, social development, spiritual activity, educator of the nation, perfect person, culture, value, consciousness, thinking, cultural level, praise, honor.

Sinergetik yondashuv asosida xotin–qizlar ma’naviy-ma’rifiy faolligini takomillashtirish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u oila, mehnat faoliyati, mahalladoshlari va jamoa bilan

munosabatida namoyon bo‘ladi. Xotin-qizlar faolligining ijtimoiy portreti bu ilmiy, ijodiy faoliyatda, ijtimoiy ishlab chiqarish va oilaviy vazifalarni bajarishdagi o‘ziga xos xususiyatlarni belgilaydi.

Tarixdan ma’lumki, jamiyat taraqqiyotida ilm-ma’naviyatning asosiy mezoni hisoblangan. Tarixiylik tamoyiliga nazar tashlasak, xotin-qizlar ma’naviy faolligini oshirish xususiyati turli ijtimoiy davrlarda jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy -iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq ravishda turlicha talqin qilingan. M. Xolmatovaning tadqiqotlarida ayolning jamiyat hamda oiladagi mavqei tahlil etilgan (228, 32-33-betlar). Masalan, monogam oila vujudga kelganda ayol faqat bola tug‘ish, uni parvarish qilish, tarbiyalash va uy–ro‘zg‘or ishlari bilan band bo‘lgan va uzoq yillar ayol faoliyati, uning faolligi faqat oila davrasida bo‘lib, jamiyatdagi o‘rniga e’tibor berilmagan.

Tarixiy manbalarga murojaat qilar ekanmiz, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkaklar bilan bir qatorda buyuk jasorat sohibalarining nomlari ham keltirib o‘tilganiga guvohi bo‘lamiz. Ayollar orasidan shavkatli hukmdorlar, oqila maslahatgo‘ylar, etuk donishmandlar, zabardast olimalar, suxandon shoiralar va zukko san’atshunoslar etishib chiqqan. Chunonshi, massagetlar hukmdori To‘maris, Saroy Mulkxonim, Gulbadanbegim, Nodirabegim, Jahon Otin Uvaysiy, Dilshodi Barno, Anbar Otin, Zulfiya, Saida Zunnunova [4, b. 27-28] kabi o‘z davrining mashhur ayollarini sanash mumkin. Jahonda dong‘i ketgan mashhur ayollar ham ko‘p, bulardan Margaret Tetsher, Xillari Klinton, Kandoliza Rays, Tansu SHiller, Benazir Bhutto, Indira Gandilarni bilmaydigan kam topilsa kerak. Ular xalq madaniyati, ma’rifatiga hissa qo‘shib, yurt tinchligi va osoyishtaligi uchun qayg‘urgan, bu yo‘lda tinmay mehnat qilib, Vatani rivoji uchun ulkan hissa qo‘shgan o‘z davrining etuk, jasoratli, ilmli ayollari hisoblanadi. Sharqda ayol kishi uy-ro‘zg‘or va farzand tarbiyasiga mas’ulligi bilan birga, turmush o‘rtog‘iga do‘st, maslahatchi va elkadosh bo‘lishi lozim.

Garshi tarixda mashhur zotlar, sarkardalar, davlat arboblari, vatanparvar va ma’rifatparvar kishilarning oqila va zukko, bilimli ayol hamrohi bo‘lganligini esda tutish lozim. Tarixiy manbalarning ma’lumotlariga ko‘ra, sohibqiron Amir Temurning rafiqasi o‘ta ziyrak, tadbirkor Saroy Mulkxonim saltanatni boshqarishda vujudga kelgan ayrim muammolarni hal qilishda o‘zining oqilona maslahatlari bilan faol qatnashgan. Albatta, bunday e’zozga musharraf bo‘lish uchun aql-zakovat, did-farosat, fikrlash doirasining ulkanligi bosh omil bo‘lgan. Zotan, Saroy Mulk xonim zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor va aql-zakovat sohibasi bo‘lgan. Saroy Mulk xonim insonparvar, vatanni sevguvshi, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo‘lgan, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turgan ayol sifatida keltiriladi [5, b. 3-4]. Davlat va jamiyat hayotida muhim vazifalarni

o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan bunday ayollar haqida tarixiy adabiyotlardan ko‘plab misollar keltirish mumkin. [1]

Ilmiy adabiyotlar tahliliga ko‘ra, xotin-qizlar ma’naviyatini yuksaltirish masalalari jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy, g‘oyaviy-mafkuraviy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq holda yuz beradi. Har bir davlat va jamiyat rivojlanishida umumiylik, mutanosiblik bilan birga o‘ziga xoslik ham bor. Ulug‘ ajdodlarimiz Imom Al-Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Unsurulmaoliy Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Sa’diy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi allomalarning asarlari orqali xotin-qizlar savodxonligini oshirish masalalariga e’tibor berish va shu asosda oilada farzand tarbiyasi borasidagi qimmatli fikrlari hozirgi davr uchun ham katta ahamiyatga ega.

Xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, bundan bir nesha yil avval Amerika Qo‘shma Shtatlarida “Ayollar huquqi dekloratsiyasi” qabul qilingan bo‘lib, mazkur deklaratsiyada “Ayollar tarixi– ayollarning erkaklar tomonidan doimiy hukmronlik ostiga olinishi tarixidan iborat” masalalar ko‘rib chiqilgan. O‘rta asr tarixiga nazar tashlasak, mazkur davrda Ovrupo ibodatxonalarida “Ayol odammi yoki odam emasmi?” degan mavzularda bahs munozaralar bo‘lib o‘tgan. Hattoki, 1595 yili Olmoniyada “Ayolning odam emasligi haqida dissertatsiya” kitobi nashr qilingan. Tadqiqotchilardan ko‘pchiligi ayol tabiatiga ko‘ra tovus, ilon, bo‘ri, tulki va boshqa narsa, lekin odam emas deb talqin qilganlar[2].

Asta–sekin sanoatning rivojlanishi, jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan bu o‘zgarishlar natijasida ishlab chiqarishda ish kuchiga talab orta borgan sari ayolni ham ishlab chiqaruvchi kuch sifatida o‘z imkoniyatlarini namoyon etishi uchun sharoit yuzaga keldi. Bu o‘zgarishlar ayolni inson sifatida tan olish va ularning erkaklar bilan tengligi g‘oyasining vujudga kelishiga poydevor bo‘ldi.

1789 yilda frantsuz faylasufi J. A. Kondorse “Ayollarga fuqarolik huquqini berish haqida”gi maqolasida ayollarni millatning bir qismi, jamiyat a’zosi degan ilg‘or g‘oyani ilgari surdi.

1791 yilda esa Olimpiya de Guj “Fuqarolik va ayol huquqi dekloratsiyasi”ni tayyorlab, ayollar ham fikrini erkin aytish huquqiga ega deb e’tirof etdi.

Frantsuz olimi Рьер Jozef Prezdon “Adolat haqida” asarida ayollarni qushga qiyoslaydi va birinch marta ularga nisbatan “Oila negizini saqlovchi” degan iborani ishlatadi. Haqiqatdan ham,

[1] https://www.researchgate.net/publication/349930730_Hotin-kizlarning_iztimoij_institut_sifatida_iztimoij_barkarorlik_va_manavij_havfsizlikni_taminlasdagi_urni

Буюк ўзбек аёллари" / The Great uzbek women Jan 2016 27-28 Н Нишонова

Н.Нишонова "Буюк ўзбек аёллари" / The Great uzbek women. -Т., "Fan va texnologiya", 2016. Б.:27-28.

oilaning ma’naviy-ahloqiy asoslarini va madaniy manfaatlarini takomillashtirish, aql-zakovatli yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirish har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalashda ayol oila negizini saqlovchi mustahkam Qal’a bo‘lib hisoblanadi.

Ingliz olimi V. Allinoya “Ayollar oila va mehnat orasida” asarida jahon ayollarining ijtimoiy mehnatdagi faoliyatini uch modelga bo‘ladi:

1 – model. Ayollar uy bekasi. Bunga G‘arbiy Ovrupo mamlakatlarini kiritadi.

2 – model. Ayollar qisman, yarim kun ishlaydilar. Bunga Niderlandiya va Italiya mamlakatlari kiradi.

3 – model. Ayollar doimiy mehnat bilan band. Bunga sotsialistik mamlakatlar kiritiladi..

Aktseleratsiya, modernizatsiya, urbanizatsiya, ijtimoiy muhitdagi o‘zgarishlar, bugungi islohotlar bilan bugungi kunda xotin-qizlarning huquqiy savodxonligi va ma’naviy madaniyatini shakllantirishga, har tomonlama sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishga zamin yaratdi, jamiyatda xotin-qizlarning mavqeini oshirdi. Ular o‘z iste’dod va qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Jahon xalqlari kabi O‘zbekistonda ham 15-may - Xalqaro Oila kuni bayram sifatida nishonlanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1993 yil 20 sentyabrida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida 1994 yildan boshlab, har yili 15 may kunini Xalqaro Oila kuni sifatida nishonlashga qaror qilindi. Bu qarorni qabul qilishdan maqsad - barsha taraqqiyparvar va tinchlikparvar insoniyat diqqatini inson o‘z umrini o‘tkazadigan, o‘z orzu umidlari, baxtu saodatini hamda tinchligini ta’minlaydigan maskan - oilaning mustahkam bo‘lishiga qaratishdir[1].

1979 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan ayollar huquqlari bo‘yicha xalqaro qonun sifatida e’tirof etilgan “Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi (SEDAW, 1981 yil 3 sentyabrda kuchga kirgan va 189 davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan) konventsiya 1995 yilda Oliy Majlis tomonidan ratifikatsiya qilindi. [9] Uning qator moddalari implementatsiya qilingan holda milliy qonunchilikka kiritildi.

BMTning “Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllarini yo‘q qilish haqida”gi[2] [2], Xalqaro mehnat tashkilotining “Onalikni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi [3],

[1]http://themuratovs.narod.ru/sacred.html.Даврон Ҳоликов, Ўзбекистон Республикаси "Оила" илмий-амалий маркази директори ўринбосари, доцент.

[2] Хотин-қизларни камситишининг барча шаклларига барҳам бериш тўғрисида Конвенция. https://www.lex.uz/ru/docs/2685528. 3. Оналикни муҳофаза қилиш тўғрисида Конвенция. https://lex.uz/docs/2747578. 4. Меҳнат ва иш турлари соҳасида камситиш тўғрисидаги 111-КОНВЕНЦИЯ. Женева, 1958 йил 25 июнь. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1997 йил 30 августдаги 499-I-сон Қарорига мувофиқ ратификация қилинган. https://nrm.uz/contentf?doc=150688_ mehnat_va_ish_turlari_sohasida_kamsitish_to‘g‘risidagi_111-konvenciya

”Mehnat va mashg‘ulotlar sohasidagi kamsitishlar to‘g‘risida”gi [4] konventsiyalari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ratifikatsiya qilingan.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, jamiyat taraqqiyoti-ma’naviyati-buyuk davlat qurish poydevori xalqning ma’naviyatini boyitish va uni mustahkamlashdan iborat bo‘lib, bu borada jamiyatning faollari sanalgan xotin-qizlar ma’naviy faolligini oshirish muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Mahallaning jamoa o‘rtasida olib boradigan an’anaviy faoliyat yo‘nalishlari mahalla – shaxs, mahalla – jamiyat, mahalla – oila ustuvorligi va himoyasi, mahalla – milliy xavfsizlik, mahalla – diniy e’tiqod, mahalla – davlat qurilishi, mahalla – tarbiya, mahalla – salomatlik, mahalla – xotin-qizlar va kelajak avlod tarzida tashkil etilishi ma’naviy va jismoniy sog‘lom qizlarni hayotga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi[1].

Mahalla tizimida sinergetik yondashuv asosida xotin-qizlarning davlat va jamiyatdagi ma’naviy faolligini ta’minlashning pedagogik aspektlari masalasini ilmiy o‘rganish o‘z ichiga quyidagi muammolar echimini qamrab olishi aniqlandi:

- Yangilanayotgan O‘zbekistonda o‘sib kelayotgan yosh avlodni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ayollar faolligini oshirish;

-mamlakatning demokratiya va fuqarolik jamiyati sari ildam rivojlanishi bosqichida milliy mentalitet doirasidagi “O‘zbekiston taraqqiyotida parlamentdagi ayollar roli” kontseptsiyasining ilmiy-nazariy ishlanishi;

-xalqaro simpozium va konferentsiyalarda "Ayollar va jamiyat" muammosi ilmiy munozara va muhokamalar amaliyoti tahlilini tarixiylik nuqtai nazaridan amalga oshirish lozimligi;

-mahalla tizimida sinergetik yondashuv asosida xotin-qizlar ma’naviy faolligini takomillashtirish mexanizmlari va amalga **oshiruvch** tizimlarini belgilash hamda ular zimmasidagi vazifalar ko‘lamini ilmiy aniqlash;

-mahalla fuqarolar yig‘inlari qoshida “Qizlarjon” klublari faoliyatini tashkil etish orqali qizlarni axloqiy va estetik madaniyatini, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni kasb-hunarga yo‘naltirish;

-sinergetik yondashuv asosida xoti-qizlar ma’naviy-ma’rifiy faolligini oshirish ijtimoiy zaruriyligi va davlat ahamiyatiga molik vazifalardan ekanligini keng targ‘ib va tashviq etishning yangi pedagogik shakl va metodlarini ishlab chiqish.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, mahallalarda xotin-qizlarning davlat va jamiyatdagi ma’naviy faolligini ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan faoliyat tuzilichiga ko‘ra ijtimoiy va oilaviy munosabatlarning turlari bilan belgilanadi. Mazkur faoliyat

[1] Ф.Йўлдошевна

mazmuni qanshalik xilma-xil, ijtimoiy munosabatlari qanshalik boy bo‘lsa, xotin-qizlar ma’naviy-ma’rifiy faolligini takomillashtirish jarayoni shunshalik serqirra bo‘ladi.

BOLANI QANDAY QILIB MAKTABGA SIFATLI TAYYORLASH ZARUR

Abdullayeva Lola Abduraimovna
Jizzax shahar 14-sonli MTT uslubchisi

Annotasiya. Mazkur maqolada bolaning idroki, ixtiyoriy diqqati, voqea va hodisalarni tahlil qila olishi, sabab va oqibat tasavvurlarining shakllanganligi, mantiqiy tafakkur hislatlari, mantiqiy xotira, maqsadli faoliyatni izchil bajara olishi, yangilikka intilish, unga qaratilgan murojaatni qabul qila olish, barmoqlarining nozik harakatlari va ko‘z - harakat mutanosibligi kabi ko‘pgina ko‘rinishlarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: maktab, bola, bolaning idroki, bolaning ixtiyoriy diqqati.

Maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblanib, u har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabga borish bolalarning hayotida juda katta voqeadir.

Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi. Maktabga qabul qilinadigan bola o‘z hayotining eng muhim davriga, ya’ni, maktab tomonidan qo‘yiladigan turli tuman talablarni bajarishga, ta’lim olishga ham jismoniy, ham psixologik jihatdan tayyor bo‘lishi lozim. Negaki, jismonan sog‘lom bola maktabga tavsiya etilar ekan, u aqliy saviyasi bilan his-tuyg‘ulari va ijtimoiy onglilik darajasi bilan ma’lum talablarga javob berishi kerak. Maktab davrida bolalarning asosiy faoliyatlari o‘zgaradi. Endi bolalarning asosiy faoliyatlari, vazifasi va ijtimoiy burchi o‘qish bo‘lib qoladi.

Aqliy yetuklik sohasida diqqat qilinishi zarur bo‘lgan bilish aqliy yetuklik sohasida diqqat qilinishi zarur bo‘lgan bilish jarayonlari va tashqi muhitni nechog‘lik to‘liq va to‘g‘ri aks ettira olishni aniqlash muhimdir. Tarkiban bu hislatlar bolaning idroki, ixtiyoriy diqqati, voqea va hodisalarni tahlil qila olishi, sabab va oqibat tasavvurlarining shakllanganligi, mantiqiy tafakkur hislatlari, mantiqiy xotira, maqsadli faoliyatni izchil bajara olishi, yangilikka intilish, unga qaratilgan murojaatni qabul qila olish, barmoqlarining nozik harakatlari va ko‘z - harakat mutanosibligi kabi ko‘pgina ko‘rinishlarni o‘z ichiga oladi. “Maktabga yetilganlik” atamasi bola psixikasi rivojlanishi o‘qitish imkoniyatlarini aniqlaydi deb hisoblaydigan psixologlar tomonidan qo‘llanilgan. Shuning uchun maktabga tayyorgarlik haqida gapirilganda, asosan bola psixikasining funksional yetilganligini nazarda tutishadi, Shunday qilib, psixikaning funksional yetilishi bu yerda maktabda o‘qitishga asos bo‘lib hisoblanadi. Maktabga yetuklikning his-tuyg‘ular sohasi

bolaning hulq-atvorida, ruhiyatida turg‘unlik, hissiy muhimlik va maktabda o‘qish motivlarining hissiy jozibadorligi va bolani qamrab olgan havaslari bilan xarakterlanadi.

Bolaning maktabga jismoniy yetukligida bolaning og‘irligi bo‘yiga mos kelishi, umurtqa pog‘onalarining rivojlanganligi, muskullari va mayda motorikasi rivojlanganligi va hokazolar tushuniladi. Ijtimoiy yetukligida esa bolaning maktabda o‘z tengqurlari bilan uchrashish, ular bilan birga bo‘lishga intilish, o‘quvchilarga o‘xshab maktab tartibiga kirish yoki itoat etish, o‘z zimmasiga maktab o‘quvchisi bajaradigan vazifalarni olishga intilish, o‘quvchi bo‘lib maktabga qatnashni, dars qilishni, o‘z qalam daftarlariga ega bo‘lishni orzu qilish kabi hislatlar tushuniladi.

Maktabga psixologik tayyorlik bolaning ilk o‘quv motivlarining shakllanganligi, bilish jarayonlarining (sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol) yetarli darajada rivojlanganligi, yangi ijtimoiy muhitga moslashuv va jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarining mavjudligi, ma’naviy-ruhiy salohiyat, shuningdek, aqliy imkoniyatlarning ta’lim talablariga mutanosibligi bilan izohlanadi.

Maktabga kelgunga qadar, maktabgacha yoshdagi bolalarning individual - psixologik hususiyatlaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, ushbu yoshda asosiy faoliyat turi o‘yin hisoblanadi. Shu sababli olti yoshli bolalar bilan ishlashda psixologik - pedagogik tashxisning asosiy sharti: «Bolani imtihon qilish emas, u bilan o‘ynash kerak!».

Topshiriqlarni erkin bajarishi uchun tabiiy sharoit yaratish lozim. Tarkiban bu hislatlar bolaning idroki, ixtiyoriy tashxis jarayonida ota-onaning ishtirok etishi, ayrim topshiriqlarni ular yordamida bolaga bajartirish ham ana shu tabiiy muhitni sodir etadi.

Bolaning maktabga moslashuvi asosan 4 xaftadan 7 haftagacha davom etadi. Bolalarda moslashuv jarayoni ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin.

-ba’zilar juda ham sho‘x, ko‘p qichqiradilar, dars jarayonida ko‘p chalg‘iydilar, ko‘pincha o‘qituvchilarga bo‘ysunmaydilar.

-boshqalari esa aksincha, tortinchoq, ichki dunyosiga yo‘nalgan, ko‘zga tashlanmaslikka harakat qiladi, o‘qituvchi unga murojaat qilganda tortinadi. Arzimagan muvafaqqiyatsizlik va tanbex uchun yig‘laydilar. Ba’zi bolalarda uyqu, ishtaha buziladi, juda qaysar bo‘lib qoladilar. Birdaniga juda kichkina bolalarga mo‘ljallangan o‘yinlarga, o‘yinchoqlarga kitobchalarga qiziqish ortadi, kasallikka ko‘p chalinadi. Ushbu buzilishlarning barchasini odatda funksional ortda qolish deyiladi. Bularning hammasi bola psixikasiga ortiqcha og‘irlik kelib tushganidan kelib chiqadi.

Moslashuv jarayoni ayniqsa 3 yillik boshlang‘ich ta’lim dasturi asosida ta’lim oladigan o‘qituvchilarda og‘irroq kechadi, chunki ular intensiv ravishda kechadigan o‘quv jarayoniga kirishlari zarur. Bolaning maktabga moslashuvida umumta’lim maktabi amaliyotchi psixologning faoliyatida ikki xil yo‘nalishda ish olib borish lozim.

Birinchi yo‘nalishda amaliyotchi psixolog faol bo‘lishi, o‘quvchilarga tez va yaxshi maktabga moslashuvida yordam berishi kerak, o‘qituvchiga esa har bir bolaga alohida individual psixologik yondoshuv metodlari orqali ularga yordam berishi kerak. Bunda psixolog alohida e’tiborni funksional ortda qolish uyquning buzilishi, nevrotik holatlar belgilari mavjud bolalarga qaratishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchi yo‘nalishda psixolog shu vaqtda sinfni kuzatib har bir bolaning psixik tarraqiyoti haqidagi ma’lumotlarni yig‘ishga sarflashi va faqatgina qaltis vaziyatlardagina aralashuvi zarur, albatta har bir kuzatilgan holat bo‘yicha o‘qituvchi va ota-onani xabardor qilishi zarur.

Shuningdek, bu yoshda bola bilan birga ota-ona bolaning kun tartibiga e’tiborli bo‘lishi, darslarni birga bajarishi, “Darsingni tayyorladingmi?, deb emas, balki kel birga tayyorlaymiz mazmunida bola bilan do‘stona psixologik yaqinlik munosabatlarini shakllantirsa, u albatta shaxs bo‘lib rivojlanishiga ishonch bildirish mumkin. Kichik maktab yoshida ta’lim jarayonini tizimli tashkil qilish, bolada beg‘amlik davrining tuganlanganligidan dalolat beradi va o‘qishga bo‘lgan munosabatlar tobora o‘zgarib boradi. Bu davrda bolaning qiziqishlari o‘yin faoliyatidan o‘quv faoliyatiga asta-sekin ko‘chib o‘tadi. O‘qishga xos qiziqishlar ko‘pincha bolalarning o‘yin faoliyatiga ta’sir etadi, o‘qishga xos qiziqishlar ko‘pincha o‘yinlar xarakteri va mazmuniga ta’sir qiladi. Har qanday ishining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan motivlarga bog‘liq bo‘lib, odam ana shu motivlar yordamida ish bilan shug‘ullanadi. O‘qish motivlari har xil bo‘ladi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar o‘zlarini bo‘lajak mehnat faoliyatiga tayyorlashlarida motivlarga kamroq amal qiladilar. Bola hali motiv haqida o‘ylab ko‘rishdan ancha uzoqda. Kichik maktab yoshidagi bola o‘z bilim doirasini kengaytirish, foydali bilimlar olish, shuningdak, jamiyat oldidagi o‘z burchini bajarish haqida ham uncha bosh qotirmaydi. Barcha mana shu motivlar unda ikkinchi darajali narsaga aylanadi.

Kelajagimiz davomchilari bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash hozirgi kunning muhim vazifalaridan sanaladi. Shu bois ta’lim muassalarida beriladigan ta’lim-tarbiyaning rolini oshirish, ayniqsa tarbiyalanuvchi shaxsining psixologik xususiyatlarini bilish muhim hisoblanadi. Chunki berilayotgan bilimlar avvalo shaxsning bilim darajasi, dunyoqarashi, intilishi, qiziqishlar doirasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I. A. Karimov. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. O‘zbekiston-1998.

2. I. A. Karimov. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent-Sharq. 1997.

3. O‘zbekiston Resbublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. “Ma’rifat” gazetasi . -1997

4. O‘zbekiston Resbublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” T 1997.

5. “Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan Davlat talablari” O‘zRXTB. MMXQTMORO‘MM. 2012

6. “Bolajon” tayanch dasturi. Toshkent. O‘zRXTB. MMXQTMORO‘MM 2010

7. Maktabgacha ta’limning davlat standarti. Standart. O‘z. PFITI, T. , 1995.

8. O. Xasanboyeva “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi”. Toshkent. “ILM ZIYO” qo‘llanma-2006

TABIIY RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH METODLARI

Xo‘jayarova Go‘zal

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Boshlang‘ich ta’lim fakulteti 818-22-guruh talabasi

Annotatsiya. Inson hayoti va faoliyati davomida tabiatdan foydalanadigan barcha turdagi tabiat ne’matlariga tabiiy resurslar deyiladi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada tabiiy resurslardan oqilona foydalanish metodlari, oqilona foydalanish usullari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: tabiiy resurslar, yer, suv, mineral, rudali, minerallar, quyosh, foydali qazilmalar, o‘simliklar, tuproqlar, hayvonot

Аннотация. Природные ресурсы – это все виды природных ресурсов, которые люди используют в своей жизни и деятельности. Рациональное использование природных ресурсов является сегодня одной из наиболее актуальных проблем. В данной статье представлена информация о методах рационального использования природных ресурсов, методах рационального использования.

Ключевые слова: природные ресурсы, земля, вода, минерал, руда, минералы, солнце, минералы, растения, почвы, животные

Abstract. Natural resources are all types of natural resources that people use in their lives and activities. The rational use of natural resources is one of the most pressing problems today. This article provides information about methods of rational use of natural resources, methods of rational use.

Keywords: natural resources, earth, water, mineral, ore, minerals, sun, minerals, plants, soils, animals

Tabiat resurslari, tabiiy boyliklar jamiyatning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida xo‘jalikda foydalaniladigan hamda insoniyatning yashashi uchun zarur bo‘lgan, uni o‘rab turgan tabiiy muhitning barcha tabiat komponentlari, energiya manbalari hisoblanadi. Tabiat

resurslariga Quyosh energiyasi, Yerning ichki issiqligi, suv, yer, mineral boyliklar, foydali qazilmalar, o‘simliklar, tuproqlar, hayvonot dunyosi kiradi. Tabiat resurslari tugaydigan (ko‘pgina foydali qazilmalar), tugamaydigan (suv, havo, quyosh nuri, yerning ichki energiyasi) va tiklanadigan (biologik elementlar, ayrim foydali qazilmalar) boyliklariga bo‘linadi.

Har qanday davlat iqtisodiyotida tabiiy resurslar bilan ta’minlanganlik va resurslarni barqaror boshqarish imkoniyatlari mamlakat iqtisodiy holatini tavsiflovchi eng muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlardan hisoblanadi. Tabiiy resurslarning mavjud emasligi yoki ular sifatining pastligi boshqa turdagi resurslar sarfining ortishiga olib keladi. Iqtisodiyotni modernizasiyalash va ishlab chiqarishni diversifikasiyalash sharoitida resurslardan samarali va kompleks ravishda foydalanishning asosiy yo‘nalishlarini o‘rganish, atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha muammolarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmi, resurslardan samarali va kompleks ravishda foydalanishni iqtisodiy baholash tizimini o‘rganish, atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha muammolarni hal etish, shuningdek, tabiatdan foydalanishda investisiyalar samaradorligi va muhitni muhofaza qilish xarajatlarining samaradorligi, yetkazilgan zararni baholashda iqtisodiy hisob kitoblar qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish, Resurslarni barqaror boshqarishga erishishga qaratilgan maqbul loyihalarni tanlab olish hozirgi kundagi zamonaviy metodlardan foydalanish mavzuning dolzarbligini ko‘rsatib beradi.

Masalan, ma’lum maydonda rudali ma’danlarning koplab olinishi o‘sha joyning relfi va boshqa tabiiy holatlariga ta’sir qiladi, natijada bu joylarning o‘simlik va hayvon dunyosi o‘zgarib ketadi; elementar resurs hisoblangan azotning havodan ko‘plab so‘rib olinishi uning o`rnini boshqa gazlar egallashiga olib keladi va hokazo.

Bu yuqori keltirib o‘tgablarimiz tabiiy resurslardan oqilona foydalanish haqida yo‘l-yo‘riq hamda eng asosiy qoidalar hisoblanadi.

konlardan qazilmalarni to‘liq qazib olish;

atrof-muhitning buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

barcha qimmatli moddalardan majmuali-mukammal foydalanish;

geologik qidiruv ishlarini tadrijiy davom ettirish;

mahsulot birligiga sarf bo‘ladigan xomashyo va yoqilg‘ini tejaydigan texnika va texnologiyani qo‘llash.

Qazilma boyliklar qayta tiklanmaydigan resurslar hisoblanadi. Ulardan foydalanish natijasida miqdori va sifati kamaya boradi. Qayta tiklanmaydigan tabiiy boyliklardan unumli foydalanish va uni qo‘riqlash quyidagicha bo‘lmog‘i lozim: miqdori va sifatini hisobga olish, kompleks ravishda to‘g‘ri, tejab, o‘rnida foydalanish, ularni qazib olish, tashish, qayta ishlash,

ishlatishda nobudgarchilikka yo‘l ko‘ymaslik, chiqindi kam chiqarish choralarini ko‘rish, yangi konlar topish, ayniqsa yerning chuqurroq qatlamlarini o‘rganish zarur va nihoyat ularning o‘rnini bosuvchi yangi sun’iy manbalar topish va boshqalar. Qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslardan oqilona foydalanilsa, ular kishilik jamiyati ehtiyojlarini uzoq muddatlargacha to‘la ta’minlay oladi. Fan va texnika taraqqiyoti natijasida ba’zi foydali qazilmalar tugaguncha ularning o‘rnini bosa oladigan yangi resurslar yaratish mumkin.

мира. Именно поэтому созданные им персонажи отличаются особой выразительностью. Одной из самых известных работ автора является повесть «Приключения Тома Сойера». Это произведение пропитано юмором, а яркие характеры героев подчеркивают авторскую стилистику, основанную на искусном подборе.

Ключевые слова: Марк Твен, юмор, сюжет, тема, идея, герой, система жанр, образ, художественные средства.

Annotation. Mark Twain’s works are among the most popular and highly rated in the world. His works are distinguished by their unique national flavor, sparkling humor and subtle wit. The writer is known as a master of depicting the everyday life of ordinary people and a deep understanding of their inner world. That is why the characters he created are distinguished by their special expressiveness. One of the author’s most famous works is the story "The Adventures of Tom Sawyer". This work is imbued with humor, and the bright characters emphasize the author’s style, based on skillful selection.

Keywords: Mark Twain, humor, plot, theme, idea, hero, system, genre, image, artistic means.

Марк Твен — американский писатель, юморист, журналист и общественный деятель. Его творчество охватывает множество жанров — юмор, сатиру, философскую фантастику, публицистику и другие, и во всех этих жанрах он неизменно занимает позицию гуманиста и демократа.

Мировую славу принёс ему роман «Приключения Тома Сойера» – одна из самых лучезарных книг в мировой литературе. Книга, наполненная простым юмором и написанная доступным языком, понравилась широкой массе читателей. Кто же не зачитывался приключениями Тома и Гекльберри, неунывающих, находчивых, удачливых подростков?! Многие из нас в этих героях узнавали себя в далеком и беззаботном детстве. . . В сущности, писателю и выдумывать ничего не пришлось. Он вспомнил детство в Ганнибале и свою жизнь в те годы. Успех книги превзошёл все ожидания.

Приключения Тома Сойера – это знаменитый роман американского писателя Марка Твена, опубликованный в 1876 году. Произведение повествует о жизни мальчика Тома Сойера, его друзьях и увлекательных приключениях в маленьком городке на берегу реки Миссисипи. Эта книга не только является ярким примером приключенческой литературы, но и глубоко исследует тему взросления, дружбы и противостояния между свободой и обязанностями.

Сюжет романа строится вокруг приключений Тома и его друзей: это и побег на остров, где они представляют себя пиратами, и поиск спрятанных сокровищ, и участие в разгадке

преступления. Одним из ключевых событий является сцена на кладбище, где Том и Гек становятся свидетелями убийства, совершенного Индейцем Джо. Этот эпизод становится центральной драматической линией книги, развиваясь в детективную интригу.

Темы и идеи Приключения Тома Сойера следующие:

Детство и свобода: Роман с теплотой и юмором передает дух детства – время, когда мир кажется бесконечным и полным возможностей. Том воплощает собой жажду свободы и приключений, контрастируя с ограничениями взрослого мира.

Мораль и ответственность: Через своих героев Твен показывает, как дети сталкиваются с понятиями чести, справедливости и ответственности. Том проходит путь взросления, начиная понимать важность своих действий и их последствий.

Критика общества: Марк Твен мастерски изображает американское общество XIX века, обращая внимание на лицемерие, предрассудки и социальное неравенство. Например, образ Гекльберри Финна символизирует свободу от социальных условностей, но также поднимает вопросы о судьбе отверженных.

Литературное значение "Приключения Тома Сойера" стали не просто увлекательным чтением, но и отражением эпохи. Произведение часто воспринимается как остроумный портрет американской провинциальной жизни с ее характерными особенностями и конфликтами. Язык романа, насыщенный местным колоритом, и живописные описания природы усиливают его художественную ценность.

Жанровая специфика романа Марка Твена «Приключения Тома Сойера» в контексте американской прозы XIX века отражает общие закономерности развития жанра романа, а также уникальные аспекты американской художественной традиции. Рассмотрим ключевые аспекты функционирования жанра в данном произведении. Жанровая природа романа «Приключения Тома Сойера» можно рассматривать как роман воспитания, авантюрный и социальный роман. Основные жанровые черты:

роман воспитания: В центре сюжета – взросление героя, его развитие через приключения, осознание моральных и социальных ценностей. Том проходит путь от беззаботного мальчика к юноше, способному брать на себя ответственность.

приключенческий роман: Основой сюжета становятся события, наполненные опасностями, тайнами и яркими эпизодами (например, поиск сокровищ или сцена на кладбище).

элементы социальной сатиры: Через комичные и острые эпизоды Твен показывает жизнь небольшого американского городка XIX века, затрагивая вопросы морали, воспитания, религии и человеческих слабостей.

Особенности художественной системы. Твен использует жанровые элементы, характерные для американской прозы того времени, но при этом трансформирует их, создавая многослойное произведение:

яркая ирония, сочетающаяся с теплым отношением к героям, делает роман универсальным. Он понятен как детям, так и взрослым.

ландшафт американской провинции: Природа Миссисипи играет важную роль в развитии сюжета, символизируя свободу и пространство для фантазии.

национальная идентичность: Том Сойер и его приключения отражают дух времени, формирующуюся американскую идентичность, основанную на идеях индивидуализма, свободы и самореализации.

Герой в системе жанра. Том Сойер олицетворяет типичный образ героя американской литературы XIX века – независимого, находчивого и свободолюбивого. Он балансирует между идеалами романтического героя и реалистичным изображением повседневной жизни:

Романтический аспект: Том стремится к приключениям, вдохновляется историями о пиратах и кладоискателях.

Реалистичность: В своих поступках он проявляет как детскую непосредственность, так и черты, свойственные обычным людям: хитрость, лень, тщеславие.

Таким образом, роман «Приключения Тома Сойера» демонстрирует не только особенности жанра в контексте американской прозы, но и показывает, как жанр может отражать культурные, социальные и моральные изменения эпохи.

Таким образом роман Марка Твена "Приключения Тома Сойера" – это классика мировой литературы, которая остается актуальной благодаря своим универсальным темам и живым, запоминающимся персонажам. Эта книга не только дарит читателям радость от погружения в мир детства, но и заставляет задуматься о важных моральных и социальных вопросах.

Список литературы:

Балдицын П. В. Творчество Марка Твена и национальный характер американской литературы. - М. : «ВК», 2004. - 300 с.

Марк Твен (Сэмюэль Клеменс). Приключения Тома Сойера / Художник Анатолий Елисеев, перевод Корнея Чуковского. - М. : Самовар, 2004. - 205 с.

Мендельсон М. О. Марк Твен. - М. : Молодая гвардия, 1964. - 430 с.

Мунарова Р. У. Интеллектуальное воспитание личности//«Современная филологическая образовательная парадигма: концепции, поиски, решения»

Международная Научно-Практическая Конференция (Джизак, 26-27 Апреля 2024 Года) С. 461-464

Абдумуминова М. О. Метод интеграции на уроках русского языка и литературы // Научный вестник ТГПУ 4/2024

PEDAGOGIK ZO‘RAVONLIK, UNING SABABLARI VA YENGISH USULLARI

Uktamova Umida Sunatullayevna

JDPU, Pedagogika ta’limi nazariyasi o‘qituvchisi

Aliboyeva Mohichexra

JDPU, Pedagogika yo‘nalishi talabasi

Annatosiya. Ushbu maqolada hissiy o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega, bu o‘qituvchiga professional deformatsiyalarni engishga yordam beradi va faoliyatdagi pedagogik zo‘ravonlikning namoyon bo‘lishi. Pedagogikada muloqot xushmuomalalik va o‘zaro munosabat madaniyatini talab qiladi va ziddiyatli vaziyatlarni konstruktiv hal qilish usullari. Hozirgi bosqichda ta’lim xizmatlarining sifati yuqori bo‘lishi kerak insonparvarlik tamoyillariga muvofiq amalga oshirilishi kerak bolaning shaxsiyatiga, sub’ektlar o‘rtasidagi munosabatlarning demokratik shakllariga ta’lim jarayoni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik zo‘ravonlik sindromi, reaktsiyalar pedagogik zo‘ravonlik, buzilishning shaxsiy shartlari bo‘yicha pedagogik o‘zaro munosabatlarda, kasbiy yo‘nalishda va o‘qituvchining o‘ziga bo‘lgan munosabati, samarasiz o‘zaro ta’sir strategiyalari

Pedagogik zo‘ravonlik tarbiyaviy faktdir. O‘qituvchilar tomonidan ta’lim natijalariga erishish ko‘pincha talaba shaxsining ehtiyojlarini e’tiborsiz qoldirish bilan bog‘liq, uning tahqirlanishi, majburlanishi, haqoratlanishi. Pedagogik zo‘ravonlik o‘qituvchining bolaga bo‘lgan obro‘li munosabati psixologik bilan qanday birga keladi, hissiy zo‘ravonlik, o‘qituvchining tajovuzkorligi. Sindrom pedagogik zo‘ravonlik og‘ishlarning paydo bo‘lishiga yordam beradi bolalar salomatligida. Pedagogik zo‘ravonlik sindromining paydo bo‘lishi o‘qituvchining shaxsiy xususiyatlari bilan bog‘liq. O‘qituvchining o‘zini o‘zi anglash darajasi va rivojlanmagan aks etishi zo‘ravonlik qo‘llash orqali pedagogik natijalarga erishish pedagogik jarayonda ma’lum bo‘ladi. O‘qituvchining o‘zini o‘zi anglashi uning shaxsiyatini belgilaydi. Faoliyatdagi his-tuyg‘ularning namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan munosabat va ularni tartibga solish. Faoliyat jarayonida o‘qituvchilar kam empatiya aloqaga ta’sir qiladi. Pedagogik muloqot deformatsiyalangan o‘qituvchining neyropsik beqarorligi, uning ziddiyatlari talabalar bilan munosabatlarda bilinadi. Shaxsiy tashvish nizolarni keltirib chiqaradi. O‘quv faoliyatidagi munosabatlar va himoya qilishga

olib keladi. Zo‘ravonlik qo‘llash bilan birga keladigan reaktsiyalar. O‘ziga munosabat professional yo‘nalishga ta’sir qiladi va strategiyalarni belgilaydi va o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar uslublari. Talabalar bilan o‘zaro munosabatlarda pedagogik kompetentsiyani oshirish va ta’lim jarayonida pedagogik zo‘ravonlik faktlarini bartaraf etish o‘qituvchi shaxsining rivojlanishi bilan bog‘liq. O‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda ularga maqsadli psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish ta’lim faoliyatida pedagogik zo‘ravonlikni engishga yordam beradi. O‘qituvchining shaxsiyati va muloqotini rivojlantirish dasturi quyidagilarga qaratilgan refleksiv qobiliyatlarni, empatiyani, xabardorlikni oshirish pedagogik va shaxsiy yo‘nalish, adekvat o‘ziga munosabatdir. Hissiy o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega, bu o‘qituvchiga professional deformatsiyalarni engishga yordam beradi va faoliyatdagi pedagogik zo‘ravonlikning namoyon bo‘lishi. Pedagogikada muloqot xushmuomalalik va o‘zaro munosabat madaniyatini talab qiladi va ziddiyatli vaziyatlarni konstruktiv hal qilish usullari. Hozirgi bosqichda ta’lim xizmatlarining sifati yuqori bo‘lishi kerak.

Pedagogik faoliyat va uning samaradorligi, ko‘plab o‘qituvchilar va ota-onalarning fikriga ko‘ra, professor-o‘qituvchilarning fan kompetensiyasi bilan bog‘liq. Biroq, ta’lim xizmatlarining sifati nafaqat mavzuga bog‘liq o‘qituvchining bilim va ko‘nikmalari, balki xususiyatlari bo‘yicha o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar. Istak har qanday yo‘l bilan o‘rganishda yuqori natijalarga erishish, rivojlanayotganlarni kam baholash o‘qituvchining bolaga ta’siri sabab bo‘lishi mumkin. pedagogik faoliyatning buzilgan shakllariga, shu jumladan qattiq majburlash va majburlash, bu pedagogik zo‘ravonlik deb hisoblanishi mumkin.

Zo‘ravonlikning xususiyatlarini o‘rganishdir ta’lim muhitida, uning sabablarini aniqlash va uni yengish usullarini ishlab chiqish.

Ob’ekt Tadqiqot - bu pedagogik faoliyat.

Mavzu - ta’lim muhitida zo‘ravonlikning namoyon bo‘lishi.

Tadqiqot maqsadlari:

- zo‘ravonlik sabablarini aniqlang pedagogik faoliyatda;
- oldini olish va engish yo‘llarini toping ta’lim muhitida zo‘ravonlik;
- o‘qituvchining psixologik va pedagogik malakasini oshirish yo‘llarini taklif qilish zo‘ravonlik qilmaslik uchun sharoit yaratish pedagogika.

Muallif tomonidan o‘rganilayotgan dolzarb muammo - o‘qituvchi shaxsini rivojlantirish zo‘ravonliksizligini ta’minlash sharti sifatida. O‘zaro ta’sirlar va ta’lim jarayonida pedagogik zo‘ravonlikni bartaraf etish usullari. Zo‘ravonlik ko‘pincha anglatadi jismoniy ta’sir, unda ta’sir kuch inson munosabatlari qonuniga ko‘tariladi. Zo‘ravonlik ham hokimiyat munosabatlari turi. Bundan tashqari bundan tashqari, o‘quv faoliyatidagi munosabatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburlash

ta’siri orqali hukmronlik va hokimiyatning bir turi sifatida talqin qilinishi mumkin. Ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish ota-onalar tomonidan ta’lim maqsadlariga erishish uchun muayyan huquq va qarorlarni o‘qituvchiga ongli ravishda berishni o‘z ichiga oladi. Pedagogik zo‘ravonlik ta’lim amaliyotida qonuniy xususiyatga ega: o‘qituvchilar, ular deb hisoblaydilar har qanday yo‘l bilan erishish huquqiga ega ta’lim va ta’lim natijalari. O‘qituvchining bolalar ustidan hokimiyati tajovuz, tahqirlash va olingan ta’sir huquqlarini suiiste’mol qilish bilan birga bo‘lmasligi kerak. Zo‘ravonlik sohasidagi ingliz tilidagi adabiyotlarda atamalar qo‘llaniladi. "Suiiste’mol" (xafagarchilik, suiiste’mol, haqorat, e’tiborsizlik, suiiste’mol) va "e’tiborsizlik" (e’tiborsizlik, unutish, g‘amxo‘rlik etishmasligi) (Oldinga, Kreyg 2015). Adabiyotda ham topilgan qo‘rqitish, jismoniy yoki ruhiy terrorni anglatuvchi "bezorilik" atamasi; boshqasini keltirib chiqarishga qaratilgan qo‘rqing va shu bilan uni o‘zingizga bo‘ysundiring.

Bezorilik murakkab masala. Bu ijtimoiy xatti-harakatlar nisbatan barqarorlikda namoyon bo‘ladi guruhlar va boshqalarni jalb qilish qobiliyati. Bezorilik kuch va hokimiyatning nomutanosibligini o‘z ichiga oladi, qaysi holatga jabrlanuvchini olib keladi u o‘zini samarali himoya qila olmaydi salbiy ta’sirlardan. Bezorilik mumkin antisotsial xatti-harakatlarning shakllarini qabul qilish, haqorat, tovlamachilik, jismoniy kabi jismoniy zo‘ravonlik, mish-mishlarni tarqatish, ijtimoiy guruhlardan chetlashtirish, mulkka zarar etkazish, shuningdek tahdidlar.

Bu tushuncha psixologik, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishining turli deformatsiyalari va buzilishlariga olib keladigan xatti-harakatlar, intellektual, hissiy zo‘ravonlik. Psixologik zo‘ravonlik zo‘ravonlikning asl shaklidagi "yagi" bo‘lib, undan zo‘ravonlikning boshqa shakllari paydo bo‘lishi mumkin. Zamonaviyda zo‘ravonlik fenomeni bo‘yicha tadqiqotlar paydo bo‘ldi "pedagogik zo‘ravonlik sindromi" tushunchasi (Ganuzin 2011).

Bu tushuncha foydalanishni nazarda tutadi pedagogik faoliyatda yetarli emas

usullar, harakatlar, munosabatlar etakchi talabalarning sog‘lig‘i holatida og‘ishlar majmuasining paydo bo‘lishiga.

Pedagogik zo‘ravonlik sindromi:

1. Qonuniy pedagogik zo‘ravonlik.
2. Ma’muriy pedagogik zo‘ravonlik.
3. Avtoritar pedagogik zo‘ravonlik.

Funktsional anormalliklarning paydo bo‘lishi maktab o‘quvchilarining sog‘lig‘ida, o‘zini past baholash, aqliy rivojlanishdagi og‘ishlar bolaga haddan tashqari talablar bilan bog‘liq; uning shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olmasdan, yuqori pedagogiklikka erishish uchun natijalar. Pedagogik zo‘ravonlik sindromi bolalar salomatligida og‘ishlarning paydo bo‘lishiga yordam

beradi. Bu sindrom darhol o‘zini namoyon qiladi o‘qituvchining shaxsiyati va bolaning shaxsiyati o‘rtasidagi muntazam aloqa. Ortiqcha yo‘q, aqliy zo‘riqish, nevrotik reaktsiyalar, bolaning ehtiyojlarini e’tiborsiz qoldirish uning faoliyatini kamaytiradi va shuning uchun ta’sir qiladi rivojlanishi uchun.

Ta’lim va tarbiya maqsadlarida zo‘ravonlik ilmiy adabiyotlarda tasvirlangan,

ta’lim muhitida zo‘ravonlikka bag‘ishlangan, uning namoyon bo‘lish xususiyatlari, sabablari, yengish yo‘llari. Ayniqsa zarur xavfsizlikka bag‘ishlangan asarlarni ajratib ko‘rsatish ta’lim muhiti va maktab o‘quvchilarining ruhiy salomatligi. V. M. Ganuzin beradi psixofizik holatning xususiyatlari tarbiyaviy zo‘ravonlik sharoitidagi bolalar:

Ularning 58, 6 foizi maktabda o‘qigan vaqtida o‘qituvchilar bilan kelishmovchiliklarga duch kelgan; 51, 8% o‘qituvchilaridan qo‘rqishgan; 35, 1% - o‘qituvchilar tomonidan kamsitilgan; 75, 7 foizi o‘qituvchilar tomonidan adolatsizlikka uchragan. Natija ma’lumotlarga ko‘ra, bunday munosabatlar So‘rov natijalariga ko‘ra, sog‘lig‘ining yomonlashuvi kuzatilgan talabalar. Shu bilan birga, maktab o‘quvchilarining 67, 1 foizi nevrotik kasalliklarga ega; 52, 7% - ruhiy tushkunlik; 22, 5% depressiyaga ega davlat; 14, 4% qorin og‘rig‘i bor edi; 47, 5% -

bosh og‘rig‘i; 14, 9% surunkali kasalliklarning kuchayishi bilan kasallangan (Ganuzin 2013). M. A. Avota Latviyada olib borilgan tadqiqotlarni keltiradi.

Bu maktab o‘quvchilarining 52 foizi qo‘rqishini ko‘rsatdi o‘qituvchilar, bolalarning 46% tahqirlangan. Maktab o‘quvchilarining 18, 3 foizi buni adolatsizlik deb hisoblaydi shu jumladan E. N. Volkova bolalarga nisbatan zo‘ravonlik oqibatlarini bolaga etkazilgan ruhiy travma deb hisoblaydi, shuningdek, aniqlaydi bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning tarqalishini baholash metodologiyasi. Bundan tashqari, u rivojlanmoqda asosiy va ishchi tushunchalarning ta’riflari, o‘tkazish va tashkil etishda ob’ektiv va sub’ektiv to‘siqlarning ta’sirini tenglashtirish zo‘ravonlik tarqalishini o‘rganish, asboblar va tadqiqot tartib-qoidalarini tartibga solish bilan, axloqiy me’yorlarga muvofiq bolalar ishtirokidagi tadqiqotlar uchun standartlar E. F. Bykovskaya hodisani o‘rganadi maktabdagi zo‘ravonlik, bu alohida o‘quvchilarga, shuningdek, yo‘naltirilishi mumkin guruh I. A. Baevaning ilmiy tadqiqotlari ayniqsa diqqatga sazovordir ta’lim xavfsizligini ta’minlash muhit va uning mezonlarini ishlab chiqishadi. O‘qituvchi faoliyatida zo‘ravonlikning namoyon bo‘lishiga ta’sir qiluvchi asosiy omil - o‘qituvchining shaxsiyati va uning xususiyatlari. Zo‘ravonlik va shafqatsizlik ko‘pincha hushidan ketishadi. Ushbu turdagi xatti-harakatlarning subyektiv motivatsiyasi shaxsiy ma’no, shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan qiymat bilan bog‘liq. Agressivlik va zo‘ravonlik kuch va o‘zini o‘zi tasdiqlash vositasiga aylanadi. O‘z-o‘zini tasdiqlash ko‘paytirishni anglatadi o‘z shaxsiyatining boshqalar uchun ahamiyati. O‘qituvchining zo‘ravonlik harakatlari bo‘lishi mumkin insonning psixologik holatini yengish vositasi

muammolar, sub’ektiv ravishda his qilingan norozilik, tashvish. O‘zini nazorat ostida his qilish hayot davomida, odamlar sub’ektiv yaratadi hissiy farovonlik hissi. Qo‘ng‘iroq qilish talabalarda keskinlik va qaramlik bor, o‘qituvchi ishonchni boshdan kechiradi, kuchini oshiradi va o‘zingizning tashvishingizni kamaytirish. Pedagogik yo‘nalish bo‘lishi mumkin talabalarning shaxsiyatini nafaqat uning qobiliyatlarini, balki butunligini rivojlantirishga qaratilgan yo‘nalishni ko‘rib chiqing. Ma’lumotni o‘rganish va o‘zlashtirishga e’tibor qaratish bo‘rttirishga olib kelishi mumkin psixologik ta’sir, bu o‘qituvchilik faoliyatining predmet tomoniga bo‘lgan qat’iylik, ishtiyoq bilan ifodalanadi.

Gnostik va tashkiliy qobiliyatlar O‘qituvchilar kommunikativlardan ustun bo‘lishadi. Bolalarga qiziqish va muhabbat shaxsning psixologik va pedagogik etukligi, pedagogik takt va hissiy o‘z-o‘zini tartibga solish fonga tushadi.

Xulosa o‘rinda aytish mumkinki, pedagogik yo‘nalish bo‘lishi mumkin talabalarning shaxsiyatini nafaqat uning qobiliyatlarini, balki butunligini rivojlantirishga qaratilgan yo‘nalishni ko‘rib chiqing. Ma’lumotni o‘rganish va o‘zlashtirishga e’tibor qaratish bo‘rttirishga olib kelishi mumkin psixologik ta’sir ko‘rsating. Bu o‘qituvchilik faoliyatining predmet tomoniga bo‘lgan qat’iylik, ishtiyoq bilan ifodalanadi. Gnostik va tashkiliy qobiliyatlar O‘qituvchilar kommunikativlardan ustun bo‘lishadi. Bolalarga qiziqish va muhabbat shaxsning psixologik va pedagogik etukligi; pedagogik takt va hissiy o‘z-o‘zini tartibga solish fonga tushadi, bu mumkin psixologik zo‘ravonlik harakatlariga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Enikolopov S. N. Oilaviy zo‘ravonlik muammolari // Amaliy psixologiya. - 2002. - № 5/6. - S. 7.

2. Perttu S. Zo‘ravonlikka duch kelgan ayollar uchun qo‘llanma /. - Jivaskila: Gummerus, 2010. - S. 6-7.

3. Asanova M. Oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha ko‘rsatmalar / Ed. N. K. . : Vlados, 2007. - S. 218.

4. Zdravomyslova O. Oiladagi zo‘ravonlik va an’anaviy tarbiya tushunchasining inqirozi // Ijtimoiy pedagogika. - 2005. - № 1. - S. 124.

MUSTAQIL TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA MA’NAVIY MEROS VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O‘QITILISHIDA XALQ DOSTONLARINING O‘RNI

Umarov Ilxomjon Akbarovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Doston tilidagi ma’naviy meros, umuminsoniy qadriyatlar kasb-hunarni ifodalovchi so‘zlar yordamida xosil bo‘lgan o‘zlashmalar va ularning vazifaviy xususiyatlari qisqacha ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Doston, ma’naviy meros, qadriyat, o‘zlashma, leksik-semantik ma’no xususiyati, leksika.

Аннотация. кратко раскрыто духовное наследие, общечеловеческие ценности в языке эпоса, присваивания, образованные с помощью слов, обозначающих профессию, и их функциональные особенности.

Ключевые слова: эпос, духовное наследие, ценность, присвоение, лексико-семантический смысловой признак, лексика

Abstract. The spiritual heritage of the epic language, the appropriations in which universal values are characterized by the help of words that represent the profession, and their task features are briefly revealed.

Keywords: epic, spiritual heritage, value, appropriation, lexical-semantic meaning feature, lexicon.

Mustaqil mamlakatimizda milliy istiqlol tufayli asrlar osha buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan, g‘oyat ulkan, keng qamrovli, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash barobarida ularni yana xalqning o‘ziga etkazish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Baxshi-shoirlardan yozib olingan xalq dostonlarini nashrga tayyorlash va chop etish, ularning lisoniy xususiyatlarini ilmning so‘nggi yutuqlari asosida tadqiq qilish hozirgi kunda o‘zbek lingvofolklorshunosligida eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi.

Hozirgi kunda olimlar zimmasiga xalqimiz tafakkuri, qudrati, qalb va idrok kuchi bilan yaratilgan bebaho milliy merosimizni millat va vatan manfaatlari nuqtai nazaridan haqqoniy o‘rganish, ma’naviy qadriyatlarimizni xalq orasida yanada kengroq yoyish, ayni paytda, ularni bugungi kunga uyg‘un tarzda boyitish, ilmiy jihatdan yoritish vazifasi va ma’suliyati yuklandi. Hozirgi kunda mutloqo o‘rganilmagan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining «Malika ayyor» dostoni lug‘aviy

qatlamlarini aniqlash, qo‘llanilgan leksemalarning vazifaviy xususiyatlari va mavzuiy tasniflarini yoritish, shuningdek, ularning leksik-semantik tabiatini tahlil qilish kabi vazifalarni amalga oshirish ham o‘z tadqiqotchilarini kutib turibdi. Ushbu ilmiy axborotnomada mazkur dostondagi kasb-hunar nomlarini ifodalovchi so‘zlarning leksik-semantik ma’nolarining zuhur bo‘lishi haqida ayrim kuzatishlarimizni berishni lozim topdik.

O‘zbek tilshunosligida “Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi”, Samarqand viloyati kasb-hunarlari materiallari asosida tayyorlangan “Sohaviy leksikaning sistem tahlili”ga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyalar himoya qilinganligi ilmiy jamoatchilikka ma’lum. Shuningdek, metallsozlik, amaliy san’at, keyim-kechak, zardo‘zlik, kulinariya, dorbozlik, zargarlik kabi kasb-hunar sohalariga oid so‘z-terminlar tadqiqiga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyalar yozilgan. Lekin, badiiy asarlarda kasb-hunar nomlarini ifodalovchi so‘zlar tizimi va badiiy qo‘llanilishi masalasi hanuzgacha yoritilmagan. Ayni mulohozani xalq dostonlari leksikasiga qarata ham aytish mumkin. Biz quyida tahlilga tortilgan “Malika ayyor” dostoni matnidagi qo‘llangan kasb-hunarni ifodalovchi *sayis, jallod, usta,* kabi so‘zlarning lisoniy, etimologik, funksional va semantik tabiati haqida qisqacha axborot berish bilan chegaralanamiz.

Arab tilidan o‘zlashgan *jallod* leksemasi “o‘lim jazosini ijro etuvchi” ma’nosini bildiradi. O‘rta Osiyo xonliklarida: o‘lim jazosiga xukm qilinganlarning boshini oluvchi, o‘lim jazosi haqidagi xukmni ijro etuvchi odam (O‘TIL, 2, 67). Biz o‘rgangan doston matnida ham ayni ma’noda qo‘llangan. *Jallod charlab torttirarman go‘shingni, // Kestiray taningdan aziz boshingni (87).* Dostonda bu leksema kallakesar, qotil, shavqatsiz, jahldor kabi qator ma’nolarda qo‘llanganligi kuzatildi: *Qalandarlar o‘z tilidan gunohkor, // Keling endi munda mirg‘azab jallodlar (89); Harna qismat yozilganin o‘yladi, // Jallod kelib qalandarni haydadi (89); Keling endi munda mirg‘azab, jallodlar // Kesing endi qalandarlar boshini. . . (89).*

Forscha-tojikcha tildan o‘zlashgan *usta* leksemasi “o‘rgatuvchi, muallim” (O‘TIL, 4, 300) ma’nosini ifodalaydi. Bu istiloh doston matnida faol qo‘llangan va quyidagi leksik-semantik ma’nolarni ifodalab kelgan:

a) muayyan kasb yoki hunarni egallashga o‘rgatuvchi shaxs; rahbar, ustoz: *«Bu turgan qalandarlar juda usta ekan. Bulardan bir narsani olgan olib qoladi, qolgan bulardan hech nimani ololmaydi», - deyishib. . . (98); SHunda Tillaqiz xizmatkor qizlariga buyurdi: - To‘qson usta dev olib kelinglar, quti yasab bersin, yuzukni qutiga solib mahkamlab qo‘yayin, - dedi (112);*

b) muayyan shaxslarni bildiruvchi so‘zlarga masalan, epik qahramon (usta) ismiga qo‘shib ishlatilgan: *G‘amdan ozod bo‘ling, endi qalandar, // YUring, sher yasagan, ustai Zargar (98); Ko‘rmakchi sizdayin usta Zargarni, // YUgurishib nechovlari xezlagan (98); // Juring endi, usta Zargar, // Hamroh bo‘ling SHoqalandar (98);*

v) biror ish, sohaning mashhur, mohir bilag‘oni (O‘TIL, 4, 300) yoki biror kasb-hunar bilan shug‘ullanuvchi malakali mutaxassis ma’nosida: *Mard bo‘lganlar ko‘rar ekan durbini, // Ustalar ishlatar po‘lat qirg‘ini (13); // Mullalar o‘qiydi zeru zabarni, // Ustalar chopadi tesha-tabarni (14); «SHerni sher suratli qilib ustalik bilan yasabdi (97);*

g) qadrli, e’zozli, e’tiborga loyiq ma’nosida: *Tilla sher qoshida ajoyib qizlar, // Ustalarga bo‘lib turur xizmatkor. // Bizning elga ish ko‘rsatgan ustalar, // Kelsin, deb chorlagan Malika ayyor (105); G‘irko‘k ot urushga ustadi, boshqa otlar qastadi», - deb otlanib, yaqinlab bora berdi. Bularni devlar ko‘rib, Oqdevshoh g‘azablanib qalandarlarga gapiradi (138);*

O‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashib kirgan *sayis* leksemasi “otboqar, hayvonlarga qarovchi; umuman, otboqar” (O‘TIL, 3, 422) ma’nolarini ifodalaydi. Biz o‘rgangan doston matnida *sayis* leksemasi otlarni parvarish qiladigan xizmatkor ma’nosida qo‘llangan: *CHambil elida Go‘ro‘g‘li zo‘rabor, qirq olti sardor, to‘rt yarim lak bedovsuvor, chiltonlarning biri Soqibulbul degan sayisi bor (6); Bu beklarning bedov otlarini, tulporlarini tablaxonalarga bog‘lab, ayil-pushtanlarini bo‘shatib, sayislar terisini qashlab, o‘xshatib, sozlab, boqib qola berdi (185)* kabi.

Ilm maskanlari va unga aloqador tushuncha nomlarini ifodalovchi so‘zlar ichida *mulla* leksemasi doston matnida qo‘llanganligi kuzatildi. O‘zbek tiliga arabchadan o‘zlashgan va arabiy qatlamga xos *mulla* leksemasi “din arbobi, ulamo, shuningdek, ma’lumotli, o‘qimishli kishi” (O‘TIL, 2, 634) ma’nolarida tahlil etilgan doston tilida uchraydi: *Mullalar o‘qiydi zeru zabarni // Ustalar chopadi tesha-tabarni (14).*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdiyev M. Sohaviy leksikaning sistem tahlili (Samarqand viloyati kasb-hunar nomlari materiallari asosida). DDA. -T. -, 2005. -55 b; Shu muallif: Sahoviy leksikaning sistem tahlili. – T. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004, - 262 b.

2. O‘TIL – O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh tomlik. – T. 1. Toshkent: O‘zbME, 2006. ; T. 2. – 2006; T. 3. – 2007. ; T. 4. – 2008. ; T. 5. – 2008.

3. M. a. – “Malika ayyor” dostoni. T. : G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988.

PEDAGOGIK FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Qalandarova O‘rinposhsha Yuldashovna
Urganch davlat pedagogika instituti
“Texnologik ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi
urinposhsha. q@urdu. uz
D. Yaqubova
Texnologik ta’lim yo‘nalishi 2- bosqich talabasi

Ta’lim tizimini modernezatsiyalash, ta’lim tizimida yuzaga keladigan o‘zgarishlar ta’lim muassasi xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bugunning dolzarb muammolaridandir. So‘ngi yilllarda mamlakatimizda ta’limni rivojlantirish umummilliy dasturi doirasida ta’lim muasasalarini zamon talabiga mos ravishda modernizatsiya qilish, ta’limning mazmun -mohiyatini o‘zgartirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Ma’lumki jamiyat xar doim ilmli, raqobatbardosh, ijodiy izlanuvchan kompetentlik sifatiga ega shaxsga ehtiyoj sezadi.

Yangi ming yillikda xalqimizning taraqqiyot yo‘lida turli muammolar mavjud ekan, avvalo, ularning to‘g‘ri yechimini topish zarur. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi sifat bosqichining mohiyatidan qaralganda, mazkur masalaning qay darajada dolzarbligi o‘z-o‘zidan namoyon bo‘ladi. “Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Bu asosan o‘zligini anglayotgan insonlarga, ijtimoiy hayotda o‘z mavqeiga ega bo‘lgan ziyolilarga bog‘liq. Bizning vazifamiz fan-texnikani yuksak saviyada egallagan, jahon standartlari darajasidagi mustaqil fikrlovchi, intellektual ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashdir. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak kompetentlik, shaxs kompetentlik tushunchalari XXasrning 90-yillarida ijtimoiy kompetentlik shaxsning shaxsiy sifati kabi barcha ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo‘lib, fanlararo bir mavzu sifatida qabul qilinib murakkab, ko‘p komponentli va ko‘p o‘lchovli hodisa sifatida tahlil qilina boshlandi.

Tadqiqotchi V. N. Kunisnaning ko‘p yillik ilmiy tadqiqotlari natijalariga asoslanib, ijtimoiy kompetentlikning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatadi: kompetentlik; kommunikativ kompetentlik; ijtimoiy-kasbiy kompetentlik; o‘z-o‘zini aniqlash (ego-kompetentlik) haqida xulosa chiqaradi. Shu bilan birga I. A. Zimnyaya kompetentlikni insonga ijtimoiy ta’siriga ko‘ra, ijtimoiy hamkorlik (jamiyat, jamoa, oila, do‘stlar, hamkorlar bilan ziddiyatlar va ulardan qaytarish, hamkorlik, bag‘rikenglik, ijtimoiy safarbarlik) va muomala kompetentligi (og‘zaki, yozma, suhbat, monolog,

bilim va an’analarga rioya qilish, etiket, madaniy va xorijiy aloqalar, biznes, kommunikativ vazifalar) kabi turlarga ajratadi.

Ye. V. Koblyanskayaning tadqiqot ishida ijtimoiy kompetentlikni ”Men” munosabatini tushunish - jamiyat, to‘g‘ri ijtimoiy yo‘nalishni tanlay olish, ushbu yo‘nalish bo‘yicha o‘z faoliyatini tashkil etish” sifatida ko‘rib chiqadi. Uning fikricha ijtimoiy kompetentlik “bu shaxsiy sifat bo‘lib - kishining ijtimoiy normalar bilan bog‘liq ushbu jamiyat a’zosi sifatidagi mehnat faoliyatidir, bunda jamiyat hayoti uning a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tartibga soladi. Avvalo etimiologik jihatdan Kompetentlik tushunchasi – bu biror sohada samarali faoliyat yuritish uchun zaruriy tajriba va kerakli bilimlar, kompetensiyalar tizimidir.

M. I. Lukyanova o‘qituvchining psixologik-pedagogik saloxiyati asosida pedagogik faoliyat uchun yuqori darajadagi professional tayyorgarlik va o‘quv jarayonida talabalar bilan samarali o‘zaro munosabatlarga ega bo‘lgan shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunadi psixologik va pedagogik kompetensiya tarkibiy qismi sifatida u psixologik va pedagogik yo‘nalishlarning bloklarini ko‘rib chiqadi degan fikrlarni bildiradi.

Metodlar. Ijtimoiy kompetentlikning quyidagi komponentlari mavjud bo‘lib, ushbu komponentlar turli yosh davrlaridagi insonlarda jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning tuzilishi va faoliyat olib borishiga doir ma’lumotlarni, ijtimoiy rolga qo‘yilgan talablar va kutishlarga oid bilimlarni, ijtimoiy rolga xos bo‘lgan xulqni egallash malakasini, umuminsoniy normalar va qadriyatlarga oid hamda kishining o‘zi haqidagi tasavvurlari, o‘zini ijtimoiy sub’yekt sifatida idrok etish bilan bog‘liq bo‘lgan samarali ijtimoiy hamkorlik ko‘nikmalari va malakalarini shakllantiradi. Ijtimoiy kompetentlikni shakllanishi o‘qituvchilardan quyidagi ijtimoiy xulq malakalarini ham talab etadi.

- o‘zaro birgalikdagi harakat malakalari;
- stress(zo‘riqish)li vaziyatlardagi adekvat xulq malakalari;
- ijobiy muloqot malakalari;
- boshqalarni tushunish va o‘z-o‘zini baholash malakalari;
- o‘z xulqini idora etish malakalari;
- hissiy xolatlar va emosiyalarni boshqarish;

Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutahassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. Ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar amalga oshiriladigan faoliyat tabiatidan kelib chiqqan holda kasbiy kompetentlik o‘z ichiga turli muhim komponentlarni qamrab olishi mumkin:

- kasbiy-huquqiy kompetentlik (mehnat haqidagi turdi qonunlar va me’yoriy hujjatlarni, kasbiy maslahat sohasidagi uslubiy materiallarni bilish);

- ijtimoiy-perseptiv kompetentlik (shaxs tiplari haqidagi bilimlar tizimi, xulq-atvor va munosabatlar, kishini kishi tomonidan idrok qilish va tushunish determinantlarini bilish);

- kommunikativ kompetentlik (bo‘lajak mutaxassis kasbiy faoliyatini shaxslararo muloqotning turli shakllari, pedagogik ta’sir metodlari va ularni qo‘llashga xos xususiyatlar borasida zarur bilimlarni egallaganligi).

Kasbiy kompetentlik psixologik hamda akmeologik kategoriyadir Kasbiy kompetentlik kishining kasbiy faoliyat bilan bog‘liq vazifalarni bajaraolish qobiliyati va undan samarali foydalana olish imkoniyati bo‘lib, u shaxsga xos ko‘plab xususiyatlarga ega bo‘lishni taqozo etadi. A. A. Derkach tomonidan kasbiy kompetentlikning tarkibida kasbiy faoliyatdagi kompetentlik, kasbiy muloqotdagi kompetentlik, mutaxassisning o‘zligini namoyon eta olishidagi kompetentligini kiritish mumkin, faoliyatining ustuvorligi zamonaviy pedagog professionalizmini rivojlantirish zarurati bilan belgilanadiki, uning sifat ko‘rsatkichlari nafaqat pedagogik jarayonning o‘zini, balki uning natijalari, rivojlanish istiqbollarini rejalashtirish, tashxislash, modellashtirish, loyixalashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi xamda kasbiy ta’limni yuqori darajada takomillashtirishni[1] ta’minlaydi.

Shunga ko‘ra, oliy kasbiy ta’lim pedagogik kadrlarini tayyorlashning zamonaviy tizimida ta’lim jarayonlarini loyixalashtirish ko‘nikmasini rivojlantiradigan psixologik-pedagogik va kasbiy-ijodiy yo‘nalishlarni integratsiyalash negizida bo‘lajak pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirishga aloxida urg‘u berilmoda.

Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak kasbiy ta’lim pedagogini bilimlarni o‘zlashtirish va kasbiy faoliyat modelini loyixalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltiradigan yangi konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati oxirgi globallashuv sharoitida kun tartibiga keskin qilib qo‘yilmoda. Pedagogning kasbiy kompetentligi pedagogika va psixologiya fanlariga doir bilimlarga ega bo‘lish, o‘z ustida ishlash, ta’lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o‘rnata olish, o‘quvchilarda o‘quv faoliyati motivatsiyasini shakllantirish, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi bilish, ta’lim muhitiga yangilik kiritish, o‘z fanini mukammal bilish, xorijiy tillardan birini yaxshi bilishni taqazo etadi.

A. V. Xutorskiy ta’lim jarayoni uchun muhim bo‘lgan pedagogning quyidagi kompetentligini tavsiflaydi:

[1] . Белицкая Г.Э. Социальная компетенция личности. Сознание личности в кризисном обществе. М.,- Масягина1995.

dunyo qarash, qadriyat va o‘zini anglash - o‘qituvchining dunyo qarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. U atrof - muhitdagi voqea va hodisalar mohiyatini aniqlay biladi va tushunadi unga o‘zini yo‘naltiradi, pedagog sifatida o‘z fikrini asoslay olish hamda muammoning yechimini topa bilish ko‘nikmasiga ega. Bu kompetensiya-

o‘qituvchining o‘quv va boshqa faoliyatlaridagi o‘zini - o‘zi anglash mexanizmini ta’minlaydi.

umummadaniy - milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo‘lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf-odatlarga hurmat; ijtimoiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish. Ilm fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta’sirini anglay olishi va o‘quvchi yoshlarga tushuntira olishi.

o‘quv va bilish jarayoni- o‘qituvchining mustaqil bilish faoliyati, mantiqiy fikrlashi, o‘quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko‘nikmasini tahlil qila olishi.

ma’lumotga ega bo‘lish- pedagogik faoliyati, o‘z faniga doir ma’lumotlarni egallash ko‘nikmasi.

muloqotchanlik- til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo‘lishi, jamoada o‘ziga xos o‘rinda turishi.

ijtimoiy- foydali mehnat- oilaviy munosabatlar va mas’uliyat, jamiyat rivojidagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

O‘z ustida ishlashi- jismoniy, ma’naviy, intellektual jihatdan o‘z-

o‘zini rivojlantirib borishi, hissiyotini boshqarish.

Ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan pedagogik faoliyat sub’yekti hisoblangan o‘qituvchining kasbiy mahorati va tajribasiga bog‘liqdir.

Pedagoglik kasbiga loyiqlik kasb uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar

yig‘indisidan iborat bo‘lib, u kommunikativ qobiliyatlarda ham o‘z aksini

Kompetentlik tuzilmasida ijtimoiy kompetentlikka alohida o‘rin berilgan bo‘lib, u o‘zida turli hayotiy sohalardagi ijtimoiy hamkorlikka bo‘lgan qobiliyat va ijtimoiy moslashuvchanlikni aks ettiradi.

- muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini boshqara olish;
- o‘quv faoliyatini takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- o‘rtoqlari bilan ijodiy hamkorlikka erishish;
- irodaviy sifatlarini rivojlantirib borish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- kreativlik xususiyatlarini rivojlantirib borish;

- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;

- o‘ziga ob’yektiv baho berish;

- ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish choralarini izlash yo‘lida olib boradigan amaliy harakati o‘qituvchining o‘z ustida ishlashini ifodalaydi.

Ijtimoiy kompetensiya - ijtimoiy malakalar (majburiyatlar) xisoblanib, kishiga jamiyat hayotidagi normalar va qoidalarni adekvat (o‘zaro mos) tarzda bajarish imkoniyatini beradi va inson o‘z navbatida o‘z menining anglay boshlaydigan ilk bolalik davrlaridan boshlab ushbu normalar va qoidalarni ota-onasining yordami bilan egallay boshlaydi. Ma’lumki oldingi ta’lim ko‘proq akademik bilimlar berishga qaratilgan bo‘lsa, bugungi kunda o‘qituvchilarning chuqur nazariy bilimlarga ega bo‘lishi bilan birgalikda, ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. O‘qituvchilarning izchil ravishda o‘zining kompetentlik sifatlarini rivojlantirib borish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etish muammosi psixologiyadagi yetakchi muammolardan biridir. Bu muammolar yechimi o‘qituvchilar o‘z kompetentlik sifatlarini rivojlantirib borishi uchun o‘z ustida ishlashi jarayonida o‘z aksini topadi:[1]

Ijtimoiy kompetentlik asosini jamiyat, undagi xulq-atvor usullari va qoidalari haqidagi bilimlar tashkil etar ekan, maktab o‘quvchisi uchun jamiyat, keng (dunyo, mamlakat) va tor (oila, maktab, mahalla) davrada aks etadi”. Uning muammolarni hal etish bilan bog‘liq mustaqil bilish, ijtimoiy-fuqarolik, ijtimoiy-mehnat, madaniy-xordiq kabi komponentlar kiritiladi.

Shuning uchun o‘qituvchilar kompetentliklarini rivojlantirishning muhim yo‘llaridan biri, o‘qituvchilarda o‘zini o‘rab turgan kishilar bilan birgalikda harakat qila olish, o‘zini tutish usullariga doir bilimlarni shakllantirishdan iborat. Ushbu xolatda ijtimoiy moslashish uchun o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, o‘qituvchi o‘z tengdoshlari va kattalar bilan xamkorlikda faoliyat olib boradi. O‘z fikrini boshqalarnikidan ajrata olish tufayli o‘qituvchi o‘z shaxsiy “Men”ining imkoniyatlarini chamalay oladi, ko‘pgina hayotiy vaziyatlar uning xulq-atvori, o‘zini tutishiga bog‘liq ekanligini tushunib yetadi, shu asnoda muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini egallaydi.

Jumladan, zamonaviy ijtimoiy-iktisodiy sharoitlarda kasbiy o‘zini o‘zi boshkarish jarayonida shaxsning kasbiy rivojlanishining eng to‘lik psixologik shakllari, kasbiy kompetentlikning rivojlanish xususiyatlari E. F. Zeyer tomonidan o‘rganilgan.

Bu asosda o‘qituvchida muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini boshqara olish xususiyati, faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashishi, xamkasblari bilan ijodiy hamkorlikka erishish, irodaviy,

[1]. Г. П. Формирование социальной компетенции будущих педагогов: Автореф. дис. канд.пед.наук. – Астрахань, 2008.

ishchanlik qobiliyati, kreativlik xususiyatlari va salbiy odatlarni bartaraf etib borishi uchun imkoniyatlar yaratiladi. Buning uchun dars jarayonida xam turli interfaol usullardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi[1]

O‘qituvchilardan o‘z faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, xamkorlikda ishlashni va tahlil qilishni o‘rganishadi. Har bir o‘qituvchi o‘zining kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirishda mutaxassislar tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni yangi ma’lumotlarni izlab topish ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay olishni taqoza etadi. Kasbiy kompetentlik sifatlari mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishi, muxim ijtimoiy talablarni anglay olishi amalda yuqori darajada ko‘llay olishlari uchun xamkorlikda ishlash ijobiy samara beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, shaxsning integrativ xususiyatini boshqacha aytganda, bo‘lajak mutaxassislar shaxsiy sifatlarin bilim malaka va amaliy tajribasi, qobiliyatlari kadriyat yo‘nalishlarini ifoda etadi, o‘qituvchilarda kompetentlik sifatlari rivojlanishga qaratilgan harakatlar asosan ta’lim muassasalaridanoq boshlanadi. O‘qituvchi buning uchun turli fan asoslarining nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘rganib fan yangiliklaridan doimo maqsadga muvofiq foydalanish asosida kompetentlik sifatlarini rivojlantirib bormog‘i kerak, shuningdek, ta’limning faol usullarini (trening darslari, ko‘rgazmali dars, auksion dars va hokazo) ham o‘zlashtirib olgan bo‘lishi kerak. Shunday qilib, kompetentlik - shaxs ustanovkalari va ma’naviy qadriyatlari, shaxsiy psixologik xususiyatlar tizimiga asoslanuvchi, o‘zaro bir-biriga yaqin ijtimoiy kompetensiyalar majmuasi bo‘lib, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi shakllanishiga va turli ijtmoiy rollarni samarali bajarishga imkoniyat beradi. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida bilimlarga qadriyatlarga asoslanib rivojlanib boradi.

Albatta o‘qituvchilarda kompetentlik sifatlari rivojlanishi uchun imkoniyat bo‘ladi, ta’lim muassasalarida ijtimoiy foydali faoliyat motivatsiyasi rivojlanadi va mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. To‘rabekov F. S. , Tulyakov A. , Hamidov O. Mehnat ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirishda texnik vositalardan foydalanish // Mehnat va kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini ta’minlashning integrativ texnologiyalari: Respublika ilmiy – amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: JDPI, 2010.

2. U. Begimqulov Masofaviy o‘qitish va pedagogik ta’lim “Pedagogik ta’lim”, – Toshkent. 2004. – № 5. – B. 19 – 21.

[1] . U. Begimqulov Masofaviy o‘qitish va pedagogik ta’lim “Pedagogik ta’lim”, – Toshkent. 2004.

3. O‘. Q. Tolipov. , M. Usmonboyeva Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T. : Fan, 2005. - 206 b.

4. Белицкая Г. Э. Социальная компетенция личности. Сознание личности в кризисном обществе. М. , -Масягина1995. -24 с.

5. Г. П. Формирование социальной компетенции будущих педагогов: Автореф. дис. канд. пед. наук. – Астрахань, 2008. –54, 55с.

6. T. G‘affprova. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogiktexnologiyalar “Taffakkur nashriyoti”. T. :2011. -y.

BOSHLANG‘ICH SINF O`QUVCHILARIDA ONA TILI VA O‘QISH DARSLARIDA MATNNI TUSHUNISH VA ADABIY TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Gulnora Xolboyeva Anorboevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi mudiri p. f. n. , dots.

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik malakalarini rivojlantirish imkoniyatini kengaytirishga e’tibor qaratigan.

Annotatsiya. V dannoy statьe osnovnoe vnimanie udelyaetsya rasshireniyu vozmojnostey mladshix shkolьnikov po razvitiyu navыkov chteniya s ispolьzovaniem texnologiy, napravlennыx na razvitie tvorcheskogo mыshleniya u uchaщixsya nachalьnыx klassov.

Annotation. In dannoy state osnovnoe vnimanie udelyaetsya rasshireniyu vozmojnostey mladshix shkolnikov po razvitiyu navыkov chteniya s ispolzovaniem tehnologiy, napravlennyx na razvitie tvorcheskogo mыshleniya u uchashchixsya nachalnyx klassov.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili va adabiy ta`limni o‘qitish metodikasi fan sifatida o‘zining o‘rganish ob’ektiga ega bo‘lib, u o‘quvchilarga bilim berishda, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda samarali metod va vositalarni tanlash, ularni ta’lim jarayoniga tadbiq etish, o‘qitishning samaradorligini oshirish kabi masalalar bilan shug‘ullanadi.

Ma`lumki, 2020 - yil 2- fevralda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyev jahon miqyosida “O`qish va uni tushunish sifati” bo`yicha olib borilayotgan tadqiqot dasturini o`rganish bo`yicha ta`lim muassasalariga ko`rsatma berdi. 2021- yildan Pisa va Pirls nazorat dasturida ishtirok etish rejalashtirildi. Ta`lim sifatini jahon standartlariga javob bera oladigan darajaga ko`tarish o`qitish shakllari, metodlari va usullarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi fanining ob`ekti va predmeti. Ma`lumki, har bir fanning o`zining ob`yekti va o`rganish predmeti bo`ladi. Ob`ekt - ma`lum fan tomonidan o`rganilayotgan haqiqat sohasi. Predmet esa tadqiqot davomida aniqlanadigan aloqalar, munosabatlar, qonuniyatlar, shuning uchun bir fan doirasida ko`plab tadqiqot ob`yektlari bo`ladi. Boshlang`ich sinfda ona tilini o`qitish metodikasining predmeti - o‘quvchilarga o‘zbek tilini o‘rgatish yo‘llari va vositalari yordamida ona tilini egallash, ya’ni nutqni, o‘qish va yozishni, grammatika va imloni o‘zlashtirib olish to‘g‘risidagi ilm. Boshlang`ich sinfda bolalar adabiyoti namunalari asosida bolalarni badiiy tarbiyalashning maqsadi, mazmuni va usullari, ta`lim resurslari adabiy ta`limning predmetidir. . .

Jahonda boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarda adabiy tushunchalarni shakllantirishning takomillashtirilgan adabiy tahlil metodikalari tatbiq etilgan. Jumladan, Rossiya, Singapur, Gonkong, Yaponiya, Finlandiya, AQSh, Germaniya, Angliya, Frantsiya kabi rivojlangan mamlakatlarda savodxonlik, mantiqiy tafakkur va intellektual salohiyatni oshirish bo‘yicha amaliy ishlar ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik malakalarini rivojlantirish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Jahon ta’lim amaliyotida boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarni badiiy matnni tushunish, uning mazmunini anglash va idrok etishning nazariy asoslari ilmiy, ilmiy-metodik jihatdan tadqiq etilmoqda. Finlandiyada kitobxonlik darajasini oshirishda ota-onaning mas’uliyatini kuchaytirish, AQShda badiiy-estetik tafakkur tarbiyasi, Germaniyada bolalar adabiyotida dramaga oid tushunchalarni shakllantirish yuzasidan ilmiy- tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida adabiy tahlil ko‘nikmalarini tarkib toptirish va ularni innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-metodik ishlar amalga oshirilmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnni tushunish va anglash ko‘nikmasini shakllantirish hamda rivojlantirish masalalari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Dunyo ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga, ularning fanlardan yaxshi o‘zlashtirishlariga alohida e’tibor beriladi. Xususan, mamlakatimizda ham bu borada yaxshi o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Maktab o‘quvchilarining bilimini baholash, ta’lim sifatini oshirish maqsadida hukumatimiz tomonidan xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish belgilab qo‘yildi.

Respublikamiz ta’lim muassasalarida intellektual rivojlangan shaxsni kamol toptirishning moddiy-texnik bazasi yaratildi, huquqiy-me’yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “mustaqil fikrlaydigan,

qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish”[1] ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi. Bu esa boshlang‘ich sinflar adabiy ta’limida yuksak samaradorlikka erishishga zamin yaratadi.

O‘qish darslari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘rganiladigan badiiy asarlarni bir-biridan farqlash, yozuvchining hayotiy voqealarni qanday vositalar yordamida aks ettirgani, qanday adabiy qahramonlar yaratganini tushunish, asar qahramonlarining xatti-harakatiga o‘z munosabatini bildirish, ularni baholay olish va tegishli xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Nutq madaniyatini shakllantirish bilan bog‘liq adabiy tushunchalar yuzasidan hosil qilinadigan elementar bilimlar orqali o‘quvchilar kishilarning fikrlari, his-tuyg‘ulari va ichki dunyosini ifodalashda badiiy nutqning ahamiyatini anglab boradilar. O‘quvchilarning badiiy adabiyot san’atning bir turi ekanini anglashlariga erishish lozim. Buning uchun badiiy asarda tasvirlangan voqea-hodisalarning rasmda ranglar orqali ifodalanishini namoyish qilish orqali badiiy adabiyot tasviriy san’at kabi san’at turi deb tushuntirish mumkin. Har ikkisida hayotiy voqealar aks etishi, tasviriy san’atda ranglar orqali, badiiy adabiyotda so‘zlar orqali tasvirlanishi haqida ma’lumot berish foydadan xoli bo‘lmaydi. Asar yaratish uchun yozuvchi so‘zga boy bo‘lishi lozim ekanligi, bunga o‘qish-o‘rganish orqali erishish mumkinligini o‘quvchilar ongiga yetkazish zarur. Boshlang‘ich sinflarda adabiy tushunchalarni o‘quvchilar yaxshi o‘zlashtirishlari uchun o‘qituvchi adabiyot nazariyasidan ilmiy tushunchalarga ega bo‘lishi, asar tahlilida nimalarga e’tibor berilishini ajratib olishi, o‘qitish usullarini yaxshi bilishi, tahlilga ijodiy yondashishi, o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olishi o‘qish darslarida badiiy asarni o‘qitish sifatini belgilovchi omillardandir.

Boshlang‘ich sinf o`quvchilarida matnni tushunish va anglash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat bo‘lib, quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- PIRLS xalqaro baholash dasturi haqida ma’lumot to‘plash;

- Boshlang`ich sinf o`quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirish yo‘llarini ifodalash;

- Zamonaviy axborot texnologiyalari sharoitida yosh pedagoglarning rivojlanish istiqbollarini o‘rganish;

- Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida adabiy tushunchalarni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini nazariy bayon etish;

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni. O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

- O‘quvchilarda adabiy tushunchalarni shakllantirishga doir o‘quv topshiriqlaridan foydalanish tizimi ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak amaliyotga tatbiqi ketayotgan PIRLS xalqaro baholash dasturi ta’lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirishga, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi «Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 187-sonli qarori.

3. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha yangi tahrirdagi Davlat o‘quv dasturi // 2017. – B. 21-33.

4. Uzluksiz adabiy ta’lim kontseptsiyasi. – T. : O‘zPFITI, 1998. – 21 b.

5. Kuznetsova M. I “PIRLS 2021 solishtirma tadqiqot doirasida o‘qish savodxonligini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari”.

6. Koraleva G. “PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha Rossiya tajribasi, o‘qituvchilar malaksini oshirishning muhim jihatlari, baholash vositalari va uslubiy qo‘llanmalarni ishlab chiqish” mavzusidagi taqdimoti.

BOLANI MAKTABGA TAYYORLASHDA OILANI VA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTINING O‘RNI

Obidova Feruza Inomjonovna

Jizzax shaxar 8-sonli MTT direktori

Annotasiya. Mazkur maqolada bola tarbiyasida oilaning barcha a’zolaridan nafakat bolalarga nisbatan to‘gri munosabatni, balki ularning taqdiri uchun yuksak ma’suliyat xissini xam talab qiluvchi qiyin va murakkab ishari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Bola, oila, tarbiya, mexnat tarbiyasi, axliqiy tarbiyasi, estetik tarbiyasi, bog‘cha.

Аннотация. В данной статье рассматривается трудная и сложная задача воспитания ребенка, требующая не только правильного отношения к детям, но и высокого чувства ответственности за их судьбу от всех членов семьи.

Ключевые слова: Ребенок, семья, воспитание, коктейльное воспитание, нравственное воспитание, эстетическое воспитание, детский сад.

Abstract. This article examines the difficult and complex task of raising a child, which requires not only the right attitude towards children, but also a high sense of responsibility for their fate from all family members.

Keywords: Child, family, upbringing, labor education, moral education, aesthetic education, kindergarten.

Bolalar tarbiyasidagi muntazamlik va izchillikning asosiy sharti oila va bolalar bog‘chasi o‘rtasida muntazam aloqa o‘rnatishdir. Bola tarbiyasida oilaning barcha a’zolaridan nafaqat bolalarga nisbatan to‘gri munosabatni, balki ularning taqdiri uchun yuksak ma’suliyat xissini xam talab qiluvchi qiyin va murakkab ishdir.

Oilada tarbiyani xar tomonlama, jumladan ma’naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mexnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi.

*Ma’naviy tarbiya*ni bolaga o‘tmishda Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va farovonligi yo‘lida kurashgan xalq qaxramonlari xaqida gapirib berish, davlatimizning ramziy belgilari bilan tanishtirish, mustaqillik, Vatan xaqidagi she’r va qo‘shiqlarni yod oldirish, qadriyat va an’analarimizni o‘rgatish orqali singdirish mumkin. Oilaviy tarbiya jarayonida shaxsning bir qator *axloqiy* jixatlari shakllanadi-ki, boshqa xech qaysi tarbiya ob’ekti oiladagidek yuqori natija bermaydi. Ularga insonparvarlik, mexr-muruvvat, raxm-shafkat, xamdardlik, muomala madaniyati, burchi va sadoqat minnatdorchilik kabi insoniy fazilatlar turadi. Kelajak avlodga *estetik tarbiya* berishda xam oilaning muxim o‘rni bor. Oila davrasida qo‘shiqlar kuylanishi, biror ertak yoki asarni oila davrasida o‘qish, birga spektakl va kino ko‘rish va taxlil qilish, kiyinish madaniyatini shakllantirish, uyda gullar parvarish qilish, rasm solish va xakozolar bolani estetik tarbiyasini shakllantirishdagi jixatlardir. Ota-onalar voyaga yetayotgan farzandlarining *jismoniy* barkamolligiga o‘ta ma’suliyat bilan qarashlari lozim. Masalan: ertalabki badan tarbiya mashqlarini bolalar bilan birgalikda bajarish, to‘gri va vitaminlashtirilgan ovqat berish, dam olishni, uyquni to‘gri tashkil etish vaqtida shifokor nazoratidan o‘tkazishlari zarur. Bola xayotida *mexnat tarbiyasi* muxim sanaladi. Bolalarni mexnatga muxabbat ruxida tarbiyalash, ularda mehnat qilish odobini shakllantirish va ko‘nikmalar xosil qilishda, ularning qiziqishlari xisobga olingandagina erishiladi. Ota-onalar bolani maktabga tayyorlashda unda mexnat ko‘nikma va malakalarini xosil qilishga, mexnatga extiyojni tarbiyalashga, boshqalarning mexnatini qadrlashga, mexnat natijalarini extiyot qilishga o‘rgatishga jiddiy e’tibor berishlari lozim. Mehnat bolalarda uyushqoqlik, diqqat, saranjom-sarishtalikni tarbiyalash, shuningdek maqsadga erishishda sabot va matonat kabi iroda xususiyatlarini rivojlantirish vositasidir.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni oilada tarbiyalashni, ota-onalar bilan xamkorlikni

bundan keyin yanada takomilishtirish yo‘llarini izlab topish oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustaxkamlash maktabgacha tarbiya muassasalari xodimlari pedagogik omillar, bu soxada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchilar va uslubchilarning muxim vazifasidir. Bolalarni tarbiyalashda davlat axamiyatidagi vazifadir. Uning to‘g‘ri xal qilinishi tarbiya ishining quyilishiga kompleks yondoshishga tarbiyaviy muassasalarning, oila va jamiyatchilikning to‘liq o‘zaro ta’siri va xarakatlarning birligiga bo‘glik. Maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyachilar tomonidan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar jarayonida bolalarda mustaqil fikrlash ko‘nikma va malakalari xosil qilinadi, tarbiyachining so‘zini tinglash, o‘rtoklari bilan gaplashmaslik, xar bir tarbiyachi tomonidan berilgan savollarga javob berishga xarakat qilish, tarbiyachi tomonidan aytilgan fikrlakrni takrorlashga urgatib boriladi. Xar bir yosh guruxlarda qancha mashg‘ulot o‘tkazish bolalar bog‘chasi ta’lim-tarbiya dasturida belgilab qo‘yilgan. Xar bir bog‘chada metodik xonalar mavjud bo‘lib, unda bolalar bog‘chasida ta’lim-tarbiya dasturining xamma bilimlari bo‘yicha metodik qo‘llanmalar bo‘ladi. Yetishmovchiliklarni ya’ni metodik jixatdan, tarbiyachi o‘zi tayyorlaydi va bu ishga ba’zan tayyorlov guruxidagi bolalarni jalb etadi. Tarbiyachi mashg‘ulotlar jarayonida yangi pedagogik texnologiya materiallaridan va tarbiyaning samarali metod va usullaridan foydalana, bolani yosh, ruxiy-fiziologik xususiyatlari inobatga olinsa tarbiya berishning samaradorligi oshadi.

Tarbiyachi xar bir bolani imkoniyatlarini aniqlab olishi kerak, bolalar o‘zi yashayotgan jamoaga munosabatiga qarab bir necha guruxlarga bo‘linadi:

1-gurux: Ijobiy xulqli bolalar bo‘lib, ular tez do‘stlashadilar. Ularni jamoa a’zolari xurmat qiladi. Bu toifadagi bolalar jamoaning faollari bo‘lib, tarbiyachi jamoa munosabatlarini o‘rnatishda ularga suyanadi.

2-gurux: faol tashabbusga qo‘shiladi, ammo beqaror bo‘ladi.

3-gurux: tortinchoq bo‘lib o‘yinda qatnashmaydilar, mashg‘ulotlarda sust bo‘ladilar. Bunday bolalarga aloxida e’tibor zarur.

Tarbiyachi xar bir gurux bolalari bilan individual yondoshib, ularni bir-biri bilan o‘zaro munosabatga kirishib, do‘stlashishga yordam beradi. Bolalar bog‘chasining asosiy pedagogik vazifasi – bolalarni yuksak ma’naviy-axloqiy ruxda tarbiyalash va ularni maktabda o‘qishga xar tomonlama tayyorlashda ota-onalarga muntazam ravishda yordam ko‘rsatishdan iborat: Maktabgacha tarbiya muassasasi xodimlarining eng birinchi vazifasi – bolalar bo‘gchasi tarbiyalanuvchilarining ota-onalari va oilasining boshqa a’zolari ongida bola tarbiyasida oila birinchi darajali axamiyatga egaligi va xar bir oila bolalarining faollashuvida oilaviy va ijtimoiy tarbiyaning birligiga erishilgandagina kutilgan natijaga olib kelishiga chuqur ishonch uygotishdir.

Bolalar bog‘chasi ota-onalarda pedagogik bilimlar asosini yaratadi. Ularda tarbiya xaqidagi fanga qiziqish uygotadi. O‘z bilimlarini doimo kengaytirish istagini va unga intilish xissini uygotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I. A. Karimov. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. O‘zbekiston-1998.

2. I. A. Karimov. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent-Sharq. 1997.

3. O‘zbekiston Resbublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. “Ma’rifat” gazetasi . -1997

4. O‘zbekiston Resbublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” T 1997.

5. “Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan Davlat talablari” O‘zRXTB. MMXQTMORO‘MM. 2012

6. “Bolajon” tayanch dasturi. Toshkent. O‘zRXTB. MMXQTMORO‘MM 2010

7. Maktabgacha ta’limning davlat standarti. Standart. O‘z. PFITI, T. , 1995.

8. O. Xasanboyeva “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi”. Toshkent. “ILM ZIYO” qo‘llanma-2006

9. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilarini o‘qitish uchun semenar mo‘dullari. Toshkent 2010 yil.

XORIJIY DAVLATLARDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMI

Shoxida Axmedova

Nafisa Sirgayeva

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida ilg‘or tajribalar haqida so‘z yuritiladi. Eng avvalo bolalarda bilimning ilk poydevorlari maktabgacha ta’limda beriladi, so‘ngra u qisman tayyor holda maktabga chiqadi. Bu yerda esa asosiy tamal toshini ana endi maktabgacha ta’lim qo‘yadi ya’ni bolalarning jamiyat uchun mos yetuk shaxs bo‘lib yetishishini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: Italiya, Buyuk Britaniya, Angliya, Shotlandiya, Shimoliy Irlandiya, Germaniyada maktabgacha ta’lim tizimi.

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi, eng asosiy bo‘g‘inidir. Shu bois bolalarning sog‘lom, bilimli bo‘lib voyaga yetishida maktabgacha ta’lim alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev, “Maktabgacha ta’lim - ertangi kunimizga zamin” ekanligini bot-bot takrorlamoqdalar, demak, har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalash bugun oldimizga qo‘yayotgan o‘ta murakkab, og‘ir va qiyinchiliklarni yengish, biz ko‘zlayotgan yuksak marralarni egallashning eng asosiy sharti ekanini hammamiz yaxshi

bilamiz. Ushbu talab asosida mamlakatimizda jismonan sog‘lom, bilimli va tafakkuri o‘tkir, ma’naviyatli, zamonaviy, aniq kasb va mutaxassislikka ega, g‘oyaviy sobitqadam farzandlar, yani barkamol avlodni tarbiyalashimiz darkor. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatishning takomillashib borishi va yangidan o‘zgarishlar kiritilishi ham bejizga emas albatta. Bolalarni qiziqishlarini erta yoshlaridanoq shakllantirish shu bilan bir qatorda ularni yangi bilimlar sari to‘g‘ri yo‘naltirish uchundir. Xozirgi kunda bu masala xalqaro miqiyosida ommalashgan desam hech adashmagan bo‘laman. Ushbu xalqaro faoliyatni osonlashtirish va yaxshi natijalarga erishish uchun xalqaro til bo‘lgan ingliz tilini rivojlantirish kerak.

Mamlakatimiz hozirda o‘z oldiga ulkan maqsadlarni qo‘ymoqda va bu yo‘lda u barcha sohalarni rivojlantirishni maqsad qilib qo‘ygan, xususan ta’lim sohasini ham. Kundan kunga ushbu sohada yangidan yangi qarorlar, yoshlar uchun turli xil qulayliklar yaratilmoqda. Bunga misol qilib Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 29-aprel kuni "O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Farmonini keltirishimiz mumkin. Farmon bilan Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish uchun yo‘l xaritasi tasdiqlandi. Mazkur konsepsiya ta’lim tizimini rivojlantirishda turli yo‘nalishlarni qamrab oladi. Birgina ta’lim sohasini isloh qilish orqali biz tasavur ham qilolmagan muammolar o‘z yechimini topadi, chunki eng rivojlangan mamlakatlar ham avvalo ta’limga katta e’tiborini qaratgan. Kelajak yoshlari mustaqil va yetuk shaxs bo‘lib yetishishlari uchun imkoniyat yaratilmas ekan biz rivojlangan mamlakatlar qatorida bo‘lishni hayol qilishimiz ham noo‘rin.

Eng avvalo bolalarda bilimning ilk poydevorlari maktabgacha ta’limda beriladi, so‘ngra u qisman tayyor holda maktabga chiqadi. Bu yerda esa asosiy tamal toshini ana endi maktabgacha ta’lim qo‘yadi ya’ni bolalarning jamiyat uchun mos yetuk shaxs bo‘lib yetishishini ta’minlaydi.

Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Inson hayoti davomida oladigan ma’lumotlarning 20%ni 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Yurtimizda ham bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qabul qilish qamrovi yildan yilga oshib bormoqda. Bu ko‘rsatkichlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 2016-yilda 27, 7% tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilda yilga kelib 60% ga yetdi.

Xorij tajribalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Italiyada bolalar 3 yoshdan 6 yoshgacha maktabgacha ta’limni o‘z ichiga oladi. Maktabgacha ta’limda Italiyada davlat bog‘chalari va xususiy katolik bag‘chalarga bo‘linadi.

Buyuk Britaniyada 1988-yilda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun kuchga kirgan, shundan boshlab bog‘chalarning ko‘pchiligi moddiy tomondan qo‘llab-quvvatlangan. Angliya, Shotlandiyada bo‘lsa majburiy ta’lim 5 yoshdan boshlanadi. Singapurda davlat bog‘chalari

mavjud emas. Bog‘chalarning barchasi xususiy hisoblanadi. Misol tariqasida Finlandiya bog‘chalari 6 oydan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarni maktabgacha ta’limga qabul qiladi. Ota-onalar istagiga ko‘ra bolalar 3 yoshgacha oila davrasida qolishi ham mumkin bo‘ladi. Bog‘chalar ertalab 06. 00dan 17. 00gacha faoliyat ko‘rsatadi. Bundan tashqari 7 kun davomida ishlaydi ham mavjud. Guruhda bolalar soni 8tadan 14 tagacha bo‘ladi. 3 yoshgacha bo‘lgan har 4 nafar bolaga hamda 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan har 7 nafar bolaga 1 ta tarbiyachi yoki bog‘cha o‘qituvchisi kalb qilinadi.

Maktabgacha ta’lim rivojlangan mamlakatlarda bolaning rivojlanishidagi muhim bosqich sifatida katta e’tibor qaratiladigan sohaga aylanib bormoqda. Ushbu bosqich bolalar uchun intellektual, jismoniy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishning poydevorini yaratadi. Rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta’lim tizimi bolalarni kelgusi maktab davriga tayyorlash, ularning muhim ko‘nikma va bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta’limning asosiy maqsadi:

- Bolaning har tomonlama rivojlanishi: jismoniy, aqliy, hissiy va ijtimoiy jihatdan.
- Erkin fikrlash va ijodkorlikni rag‘batlantirish.
- Bola uchun ijtimoiy muhitga moslashishni osonlashtirish.
- O‘yinlar orqali o‘rgatish va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.
- Bola uchun mustaqillik va o‘ziga ishonch tuyg‘usini shakllantirish.

Erkin o‘yin va ijodkorlik. Finlandiya, Daniya kabi mamlakatlarda bolalarning rivojlanishida o‘yin asosiy ta’lim usuli hisoblanadi. Bu bolalarga o‘z qiziqishlari va fantaziyalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Ijtimoiy va hissiy rivojlanish. Shvetsiya va Norvegiya kabi davlatlar ijtimoiy va hissiy rivojlanishni maktabgacha ta’limda markaziy o‘ringa qo‘yadilar. Bu mamlakatlarda bolalar bir-birlarini tushunish, hamkorlik qilish va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga o‘rgatiladi.

Inkluziv ta’lim. Germaniya, Frantsiya kabi rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta’limda nogiron bolalar va maxsus ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan muhit yaratilgan. Har bir bola teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi ta’minlanadi.

Dasturiy ta’lim. AQSh va Buyuk Britaniyada maktabgacha ta’limda turli xil dasturiy yo‘nalishlar mavjud bo‘lib, ular orqali bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlariga qarab maxsus dasturlar qo‘llaniladi. Bu ta’lim jarayonida o‘yinlar, sport, san’at va fanlarga katta ahamiyat qaratiladi.

Ta’limning texnologiyalarga asoslangan rivojlanishi. Janubiy Koreya, Yaponiya va Singapurda maktabgacha ta’limda texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor qaratiladi.

Ushbu mamlakatlarda bolalar erta yoshdan texnologiyalardan foydalanishga o‘rgatiladi, bu esa ularning aqliy rivojlanishini tezlashtiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta’lim bolaning rivojlanishidagi birinchi va eng muhim bosqich sifatida alohida e’tiborga sazovor. Bu davlatlarda ta’lim tizimi har tomonlama rivojlangan bo‘lib, bolaning individual rivojlanishi, ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratiladi. Shu sababli, rivojlangan mamlakatlardagi maktabgacha ta’lim tizimi kelajakdagi ijtimoiy, intellektual va ruhiy sog‘lom shaxslarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta’lim tizimida ilg‘or tajribalar, davlatlarning rivojlanishida o‘ziga xos o‘ringa ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qilicheva M. X. 2021yil. “MAktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohatlarning mazmun mohiyati” Ta’lim tizimida fan, innovatsiya va raqamli iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Jizzax. 325-bet.

2. Karimov I. A. 2018-yil. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” 33-bet.

3. Shoxida Axmedova. THE EDUCATION OF TALENTED STUDENTS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM. 68-bet. EPRA International Journal of Volume: 5 Issue: 12 December 2019.

MUOMALA MADANIYATI - NUTQ SAN’ATI

Shukurova Halima

Jizzax Davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich mutaxassislariga tarbiya fanidan muomala madaniyatini shakllantirishga oid bo‘lgan metodik tavsiyalar, usullar, metodlar bayon etilgan. Bo‘lajak mutaxassislarga mavzu yuzasidan metodik tavsiyalar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar*:* atraksion, muomala, madaniyat, EXM, munozora, kuchli, bilim, ruhiy odob, xulq, bolalar, tarbiya, sezgirlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются некоторые аспекты развития устной речи учащихся младших классов посредством уроков чтения. Благодаря этому учащиеся получали информацию о развитии своей речи самыми разными способами.

Ключевые слова: влечение, поведение, культура, ЭКЗ, дискуссия, сильные, знания, мораль, поведение, дети, воспитание, чувствительность.

Abstract. This article focuses on some aspects of the development of oral speech in elementary school students through reading lessons. Through this, the students were enlightened about the development of their speech through a wide variety of ways.

Keywords: attraction, behavior, culture, EKZ, discussion, strengths, knowledge, morality, behavior, children, education, sensitivity.

“Jamiyatda baxt – saodatga, buyuk va yorug‘ kelajakka boshlab boruvchi yagona kuch – ma’rifatdir”. Kelajak avlod bizdanda kuchli, bilimli va madaniyatli bo‘lishga erishish bosh maqsadimiz hisoblanar ekan, tarbiya fanini o‘qitish va u orqali o‘quvchilarning muomala madaniyatini oshirish muhim muommolaridan hisoblanadi.

Sir emaski, keyingi yillarda maktab o‘quvchilari orasida muloqot chog‘ida muomala madaniyatiga amal qilishda ko‘pgina koifentsentlarga duch kelinmoqda. Bu esa hozirgi kunda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida nizo chiqishga sabab bo‘lyaptiki, bunday voqea va hodisalarning oldini olish maqsadida 1-4-sinf o‘quvchilariga tarbiya fani darsligi joriy etilgan. Endi o‘qituvchi bu fandan bilim berishga qolmay, undagi har bir mavzu ichida o‘zbekona lutf va muomala madaniyatini shakllantirib borish zarur.

Shu o‘rinda muomala madaniyati nima? degan o‘rinli savol tug‘ildi. Muomala madaniyati bu eng avvalo sof o‘zbek tilida so‘zlashish va o‘z nutqida so‘z va gaplarni to‘g‘ri ifodalay olish san’atidir.

Muomala madaniyatini egallagan kishilar quyidagilar: “Uzr”, “Kechirasiz, “Kuningiz xayrli bo‘lsin”, “Sog‘ bo‘ling”, “Omon bo‘ling” kabi sehrli so‘zlardan unumli foydalanasalar bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarida o‘zaro hurmat uyg‘onadi.

O‘zbek xalqida andijon shevasi nihoyatda go‘zal, chunki ularning bir-biriga bo‘lgan muomalasi kishilarni har doim lol qoldirgan. Keyingi yillarda yoshlar orasida go‘zal muomalani shaxslar nomidan kam topiladi.

Afsuski, ba’zi yoshlar sharqona urf-odatlarimizga zid bo‘lgan muloqotdan foydalanishlari kishining ta’bini buzadi.

Ba’zida go‘zal husni, latofati ko‘rinishi bilan o‘ziga rom qilgan ba’zi qizlarimizning nutqida ifoda etgan gaplarni eshitib, nafratlanasan.

Shu o‘rinda kechagina hayotimizda bo‘lgan voqaeani sizga bo‘lishgim keldi. Nevaralarimni dam olish kunlarining birida “Orom” bog‘iga olib bordim. Nevaralarim u yerda juda ko‘p atraksionlarga qatnashib charchagan, tushlik qilish uchun o‘sha joydagi choyxonalardan biriga kirdik. Kafeda ishlaydigan offitsiant qiz yugurib oldimizga keldi va qo‘li ko‘ksida:

Assalomu alaykum, xush kelibsizlar:

Xo‘sh nima ovqat buyurasizlar dedi.

2 ta nevaram hali juda qaysar bolalar bo‘lib o‘z aytganlarini qildiradiganladan. Birinchi nevaram “Men lavash yeyman” desa, ukasi “Yo‘q men pitsa yeyman” deydi.

Shunda offitsiant qiz ochiq chehra bilan “ Bolajonlar, bugun akangizni aytgani bo‘lsin, keyingi safar kelganingizda sizning aytganingiz bo‘ladi”-dedi.

Lekin kichik nevaram: “Yo‘q meni aytganim bo‘ladi’’ deb xarxasha qildi. Bu vaziyatda ofitsiant qiz kulib turib:

Xo‘p bo‘ladi sizning buyurtmangizni bu safar olib kelaman, keyingi safar akangizni aytganini bo‘ladi deb tinchlantirdi.

Ushbu voqea balki siz uchun juda arzimagan gapdir, lekin shu chiroyli muomala bilan bu qiz nihoyatda mening qalbimdan joy oldi.

Xalqimizda: Tilingni saqla, omondir boshing”, : Til bo‘saydi o‘z qalbining sirdoshi, kesilmasdi til egasining boshi”, degan maqollarni etilgan bo‘lsangiz kerak?

Bu maqollarni shunchaki eshitib qolganmishsiz yo mavzuni chiqishga uringanmisiz? Bu maqolni hikmatini tasdiq etuvchi voqealarni hayotini ko‘rganmisiz?

Daraxtni kessalar uning ildizidan bir shoxcha ko‘karib, uning o‘rnini bosadi. Tanadagi qilich va o‘q yarasi ham bitib ketadi, lekin til bilan qalbni og‘ritilsa, hech vaqt tuzatilmaydi. Qalbga sanchilgan so‘z o‘qini chiqarib bo‘lmaydi. Badan zaxardan, qalb yomon so‘zlardan o‘ladi. Chunki so‘z kishini temir tig‘ni o‘tkirlaydilar.

Shuning uchun deydilarki:

Sinsa ko‘ngil shishasi,

Tadbir bilan bo‘lmas butun

Imtihon ermaski,

Oni rost qilsa, ...

Xalqimizda “ Oldin o‘yla, keyin so‘yla degan maqol bor. Ba’zida o‘ylamay so‘zlash orqali bir umr afsuslangan insonlar orasida uchrab turadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ma’naviy saviyasi ularning muomala madaniyati egallaganlari orqali o‘z aksini topadi. Muomala madaniyatining asosi esa milliy qadryatlardir.

Hozirgi kunda talablarga milliy qadryatlarni o‘rgatish, o‘zlikni anglash va muomala madaniyatining dastlabki bosqichlarning biri bo‘lib, uning bir qancha uslublari mavjud.

Jumladan oila etikasiga doir muomala madaniyati.

Insoniyat uchun oila asosiy go‘sha, hayotga tayyor bo‘lib chiqadigan qutlug‘ va mo‘tabar dargoh. Uning hosiyat-u fazilatlarini, odat jismonan va ruhan quvvat-u tarbiya olishini kechirishdagi hissasi g‘oyat ulug‘ ekanki his etamiz.

Bizda oila – jamiyatining bo‘lagi, binobarin qancha . . . . . va har tomonga barkamol bo‘lishi uchun olishdagi muomala va muloqot muhim sanaladi.

Sir emaski, o‘zbek honadonlarining ayrimlari oila e’tiqodiga rioya qilmaydilar. Buni ba’zi bir bo‘layotgan hodisalar tasdiqlaydi.

Aksariyat hollarda oilada yashayotgan har bir oila a’zosi bir-birlariga muloqot chog‘ida madaniyatli ravishda muomala madaniyatiga rioya qilmasliklari uchrab turadi.

Shuning oldini olish maqsadida quyidagi tavsiyalarga amal qilish lozim:

Har kuni oila a’zolarining ertalabdan bir-birlari bilan aytadigan iliq munosabatlari “yaxshi dam olib turdingizmi”, “tongingiz hayrli o‘tsin”, Hayrli kun” kabi tilaklar bilan boshlanishi;

Dasturxon atrofida o‘tirganda yosh ulug‘ insonlarni dasturxon to‘riga o‘tkazib, duolar olishi;

Nonushta jarayonida hurmat bilan munosabat etishlari;

Har qanday vaziyatda ham bir-birlarini tushunish va tushuntira olish;

Kun bo‘yi o‘z faoliyatlarida bo‘lgan voqaelarini o‘rtada muhokama qilish;

Oila a’ozlarining kundalik hayotida bo‘lyotgan muommolarini birgalikda hal etish;

Har bir . . . . . vaziyatdan ota – onalari habardor bo‘lishi kabi muloqot madaniyati oila etikasining asosi hisoblanadi.

Oila farzandining dastlabki tarbiya maktabidir. Shuni nazarda tutganda oilaning ikki ma’naviy – ruhiy odobi, o‘zlarining namunali xulq-atroflari, bolalarga tarbiya va mahoratlari, sezgirlik va talabchanliklari, o‘zlarining namunasi xulq – atvorlari, qunt – saboqlari bolalarni yoshlikdanoq boadab bo‘lib o‘sishida aks ettiruvchi ko‘zgudek muhim o‘rin tutadi.

Xalqimizda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, “Bola aziz – odobi undan aziz” kabi naqllar borki, ularning mag‘zini chaqadigan bo‘lsak, farzandlarning qay tariqa tarbiya ko‘rib, o‘sib voyaga yetishi, fe’l-atvorlarining qanday bo‘lib shakllanishi, birinchi galda ota-onaning farzandlarini qanday tarbiyalashga o‘zlarini qanday tutishga, ibrat namuna ko‘rsatishga ijodiy va salbiy ta’sir etishga bevosita bog‘liqdir, degan ma’no maqsad kelib chiqadi. Inson qachonki, o‘z g‘oyalarini amalga oshirsa, o‘z iste’dodi va qobiliyatlarini amalga oshirishda unumli foydalansagina o‘z maqsadida erishadi.

Turli xil o‘zlarining xulq-atvorlarida salbiy shaxslar ham ba’zida oramizda uchrab turadi. Bunday kishilar bilan muloqot chog‘ida insonlarda ularning muomalasidan kayfiyatlari tushib ketadi. Shuning uchun o‘zida yuksak fazilat, ma’naviy-axloqiy, insoniylik hislatlarini bir-birlari bilan uyg‘unlashtiradigan shaxs tarbiya ta’lim-tarbiya tizimining bosh masalasi hisoblanadi.

Talabalarda tartib toptiradigan ma’naviy-axloqiy sifatlar axloqiy ong bilan hatti-harakat o‘rtasida birlik bo‘lishini davr taqazo etadi. Aynan shuni hisobga olgan holda oliy ta’lim sohasida

talabalarda tartib toptiriladigan ma’naviy-axloqiy sifatlar axloqiy ong bilan muomala madaniyati va hatti-harakati o‘rtasida birlik bo‘lishini taqazo etadi.

Ta’lim oluvchilar ma’naviy-axloqiy tarbiyasida o‘ziga xos metodlar, shakllar va vositalar mavzusida bo‘lib, bu metodlardan muomala madaniyatini shakllantirishda ham unumlli foydalanish joiz:

Konstruksiya, ... tili bo‘yicha mashqlar orqali obrazli tafakkularni rivojlantirish, muomala madaniyati bilan ishlash;

Sistemalash va mantiqiy tafakkuri shakllantirish (bunga o‘zaro uzoq o‘xshatishlarning bog‘lanishi “Ha –yoq’ o‘yini.

EXM bilan muloqot, konturli topshiriqlarni topish qismining sistemasi – sistemalar” o‘yini kiritilgan.

“Yaxshi-yomon” o‘yini ertaklardagi ziddiyatlarni izlash orqali dialektik tafakkurni rivojlantirish;

Ezgu tilaklarni bildiruvchi kuzatish asosida turli go‘zal so‘zlar ishlatishga o‘rgatish;

Ertaklarning syujetlari bilan ishlash, turli ertqaklarni tahlil qilish, ijobiy fikrlash bayon etishga o‘rgatish; insoniylikka xos bo‘lgan samimiy muomala madaniyatini shakllantirish.

Ayniqsa ”Munozara “ metodi muomala madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi.

Unda ta’limiy suhbat bilishlarni o‘zlashtirishga zamin tayyorlab, eviristik – ta’limiy suhbat, hayotiy suhbat, erkin suhbat, mustaqil o‘fikrini bayon etishga izchillikni vujudga keltiradi.

Ilg‘or o‘qituvchilar tajribasining ko‘rsatishicha, o‘quvchilar jamoa bo‘lib bir-birlari bilan axil va inoq bo‘lishlarida ham muomala madaniyati muhim sanaladi.

Boshlang‘ich ta’limining mhoratli ustozlarining ta’kidlaricha, qayerda o‘qituvchi tomonidan muomala madaniyatiga amal qilinsa, o‘sha yerda kuchli intizom va tarbiya bo‘ladi. Bolalarni shirinsuxanlikka o‘rgatish uchun pedagog quyidagilarcha amal qilishi lozim:

O‘zlari o‘qitadigandarslarda o‘quvchilarning xulq-atvori va muomala madaniyatini kuzatib borish;

Kuzatishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish;

Har bir bosqichda ularning jhatti-harakatilarinji tahlil qilish;

har bir holatning mohiyatini sinchiklab o‘rganish;

xulosa chiqarishga shoshilmaslik;

Shu o‘rinda “Anketa metodi” dan unumli foydalanishni tavsiya etiladi.

Anketa metodi (er – tekshirish). Ushbu metod yordamida peddagogika kuzatish va suhbat jarayonida to‘plagan dalillar yanada boyitildi.

Bolaga nisbatan mehribonlik, hurmat va muhabbat bilan qarash ularning muomilasiga qattiq ijobiy ta’sir etadi, o‘ziga bo‘lgan ishonchini yanada orttiradi, ayni chog‘da o‘quvchilarga nisbatan hurmat, ishonch va mehribonlik uyg‘otadi. Zotan, bolalar g‘amxo‘r mehribon va shirinsuxan, talabchan o‘qituvchini sevadilar. Mana shunday o‘qituvchilarning kuchli bo‘ladi. Zero, xushxulqlilik – kamolat belgisidir.

Xushxulqlilik va muomalalikning belgilari nima?

jahli chiqqanda o‘zini bosa olish;

har bir so‘z va gapni aytayotganda yetti o‘lchab bir kesish;

sir saqlay olish;

ba’zi hollarda mulohaza qilib, ayrim gaplarni salbiy jihatiga e’tibor bermaslik;

o‘z tiliga erk bermaslik;

birovdan ayb qidirmaslik;

yomonlikni yaxshilikka yo‘yishlik;

el bilan ochiq yuzli bo‘lishi;

Odamlar bilan shirin muomalada bo‘lish; kabilar kiradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf yuquvchilari o‘z kasbiy faoliyatlarida ijobiy muomalani egallaganlari va rivojlantirishlari zarur.

Birinchi bosqich:

O‘qituvchining nutqi ta’siri ostida his-hayajonlarining paydo bo‘lishi;

His-hayajonlar ichki nutqining noaniq maega bo‘lgan birlamchi fikrlar; bilish yoki xulq-atvor to‘g‘riligidagi ma’lumotlari bo‘lishi;

Tashqi nutqda, ya’ni boshqalar uchun bo‘lgan nutqda so‘zlar yordamida yoki biron-bir belgi sistemasi; mimika, qo‘l harakati, o‘zini erkin tutushi;

Ikkinchi bosqich: Bunda koknitiv vaziyatini paydo qilishdir.

Buning uchun o‘qituvchilarning tuzilishi xulq- atvori va bilishlariga e’tibor bergan holda nutq musobaqasini tashkil etish lozim bo‘ladi. Bu esa bolalarda rivojlantirishga nisbatan past darajasida so‘zlashish nutqi past bo‘lgan o‘qituvchilarning ichki nutqini qayta ko‘rishga turtki bo‘ladi. Boshqacha aytganda, vujudga kelgan diskomfort ta’siri ostida beehtiyor ichki nutq qayta ko‘rilishi yanada yuqori darajasida ko‘tariladi.

Uchinchi bosqich:

Ichki nutqni tashqi nutqqa ko‘chirish (diolog shakllarida suhbatlashish) yoki monolog shakldagi yozma nutq.

Murakkab fikrni tashqi nutqdan ichki nutqqa o‘tkazish. Rivojlantiruvchi usul shakllarida qo‘llash yanada yaxshi natija beradi.

O‘quvchi faoliyatini motivlashtirish.

O‘zaro ta’sir o‘quvchilarni o‘tirgan o‘rinlarini tez-tez amallarini talab etiladi. Umuman olganda, o‘quv jarayonida.

Shaxs kamolotining rivojlanishi muomala madaniyati orqali yanada takomillashar ekan, bilinki, jamiyat yanada yuksalib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Quronov M. Milliy tarbiya. Monografiya. Toshkent “Ma’naviyat” nashriyoti 2007 yil 6-32 bet.

2. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi. Vazirlar mahkamasining 2019 yil 31 – dekabiridagi 1059-son qarori.

3. Jabborova O. Umarova Z. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fanini o‘qitish metodikasi o‘quv qo‘llanma T. , “Zebo print” Nashriyoti, 2022 yil.

ДЖАДИДЫ В ПРОЦЕССЕ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАСЛЕДОВАНИЯ

ф.ф.н, доцент: ***Бахтиер Сувонкулов***

Джизакский государственный педагогический университет

Аннотация. В статье дается информация о деятельности джадидов в начальном образовании в процессе воспитания и их взглядах на вопросы гармоничного воспитания подрастающего поколения, какие учебники они создали, где открыли школу, какие исследования проводили для новых поколений, как их мысли используются в деятельности педагогов, анализ работ, представленных в современных учебниках для начальных классов о джадидах-просветителях.

Ключевые слова: начальный класс, образование, джадиды, школа, учебник, идеология, просвещение, прогрессивные идеи, инновации.

Реферат. В статье "современные люди в процессе образования, связанные с проблемами, связанные с проблемами зрелости", "как создавать уроки", "где открыть школу", "как проводить исследования для новых поколений".

Передовые деятели своего времени, джадиды вышли на арену с идеей достижения национального прогресса путем распространения знаний и просвещения, радикальной реформы сферы образования и воспитания в необычайно сложных и сложных условиях. С этой целью за свой счет они организовывали школы и театры, издательства и библиотеки, газеты и журналы, отправляли талантливую молодежь на учебу за границу. Эти их

благородные инициативы и поступки вызвали мощный отклик в жизни общества и переросли в мощную волну. Мы думаем, что в нашем регионе, где в истории было два великих возрождения, третье возрождение могло быть осуществлено именно нашими предками-джадидами. К сожалению, деспотический режим не позволил им в полной мере реализовать свои благородные идеи и практические действия. Сегодня, строя в нашей стране свободное гражданское общество, правовое демократическое государство, мы опираемся на гуманистические взгляды наших предков-джадидов, черпая духовную силу из их наследия. Наша страна еще более усилилось в творчестве и деятельности прогрессивных деятелей джадидистского движения – Бехбуди, Фитрата, Чулпана, Мунаввара Кари, Абдуллы Авлани, получивших в XIX веке имя просветительских идей и получивших развитие в начале XX века.

Джадиды выдвинули идею объединения народов Туркестана и борьбы за национальную независимость всей страны. Важной особенностью деятельности джадидов в воспитании гармоничного поколения было, прежде всего, освобождение Туркестана от средневековой раздробленности, приведение народа, нации к современному пути развития, создание национального государства, построение свободного и процветающего общества по современным канцелярским методам, а также просвещение. Такие идеи отражаются, прежде всего, в таких аспектах, как национальное, духовное и идеологическое облагораживание подрастающего поколения, привлечение его к жизни с чувством гордости за судьбу края. Основное идейно-теоретическое направление в Туркестанском джадидизме принадлежит бехбуди, мунаввару Кари, Фитрату, Чулпанам

Бехбуди считает, что такие магазины находятся рядом с мечетями и медресе, что свидетельствует о негативном воздействии на детей. Махмудходжа бехбуди призывает всех, следующее поколение, расти здоровыми. Он мечтал, что наши здравомыслящие, образованные дети вырастут, будут учиться, приобретать знания и вырастут врачами, юристами, экономистами и другими современными специалистами, которые будут служить Туркестану. Чтобы вырастить здоровых детей, нужно учиться образованный, просвещенный, самое главное, пока родители вовремя заявили, что помогут своим детям овладеть современными науками. Мунавваркари абдурашидханов, говоря об ответственности родителей за образование и воспитание ребенка, отметил, что есть породы, которые делают все возможное, чтобы иметь своего ребенка. Джадиды утверждали, что родители занимаются воспитанием своих детей и готовят их к школам и медресе. Учась в школах и медресею

В заключение можно сказать, что использование наследия джадидов в начальном образовании, изучение проведенных ими реформ, и изучение их вклада в наше общество пробуждает у учащихся чувство гордости, любви к Родине. Джадидизм послужил основным фактором национального, культурного социального пробуждения и процветания молодежи Туркестана. Актуальные вопросы современности, пути решения жизненных проблем социально-политическим, культурно-духовным путем джадиды показывали в своих статьях и произведениях.

Призывает молодежь к учебе, получению знаний и вовлечению в производственный процесс, повышению своего культурного, духовного уровня. В своем стремлении привнести в Туркестан достижения мирового развития, из них выросли зрелые ученые, современные знатоки, специалисты промышленной и сельскохозяйственной отраслей, деятели культуры, служащие родине, которые верят в процветание и процветание своей страны. Потому что, поскольку сами джадиды молоды.

Использованная литература

1. Ш.Мирзиеев: из поздравления участникам международной конференции, посвященной изучению наследия джадидов.6 марта 2023 г.

2. Обломуродов Н., Хазраткулов А. и так далее. История Узбекистана.(учебное пособие) т.2011

3. Y. V. Рисюкова, O. V. Усманова. 2 класс воспитание.(учебник) Ташкент-2023 4. Бехбуди М. Обращение к уважаемой молодежи. Окно-1914. 41-й выпуск

5. М.Абдурашидханов. Из моих воспоминаний (отрывки из истории джадидизма). Восток-2001. С. 108-109

6. Абдулла Авлани. Избранные работы. Том 2. ” Тюркский Гулистан или этика " Т, духовность, 2006. 7. Зунунова А. История педагогики, - Т,; Восток, 2004.

8. Касимов. Б узбекская литература национального возрождения,-2004,-Т,;духовность.

9. Мавлонова Р. А., Рахмонкулова Н. Н., Матназарова К. О. и так далее. Общая педагогика.- Т.:,, Наука и техника”, 2018.

10. Акбарова З., Рустамова Д. начать класс активизирует лексические синонимы в своей речи.

O’QITUVCHILARNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKTDAN SAMARALI FOYDALANISH UCHUN TAYYORLASH

Xamidova Barno Maxmudovna
JDPU pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
Djalilova Munavvar Abdunazar qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 813-21-guruh talabasi
djalilovamunavvar40@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi raqamli davrda ta’lim tizimini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada o’qituvchilarni raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt (SI) vositalaridan samarali foydalanishga tayyorlashning dolzarbligi, bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan yondashuvlar to‘g‘risida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiya, ta’lim tizimi, sun’iy intellekt (SI), dasturlar, strategiya, zamon, zamonaviy, individual,axborot,dars,o’quv, global.

Zamon shiddat bilan rivojlanib bormoqda.Global raqamli transformatsiya ta’lim tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘qituvchilarni zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga o‘rgatish ularning raqamli kompetensiyalarini oshiradi va ta’lim sifati yaxshilanishiga olib keladi. Sun’iy intellekt texnologiyalari esa o‘qituvchilarga shaxsiylashtirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, talabalarni individual yondashuv asosida qo’llab-quvvatlash va o’qitish jarayonini avtomatlashtirish imkonini beradi. Yurtimizda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish milliy ta’lim siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunda o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga o‘rgatish hamda SI yordamida dars samaradorligini oshirish maqsad qilingan. Atrofga nazar soladigan bo‘lsak, har qanday sohaning rivoji axborot texnologiyaga bog‘liq bo‘lmoqda. Axborot texnologiyalari sohasi oxirgi o'n yilliklarda ulkan transformasiyalarni o'z boshidan kechirdi va butun hayotimizni o'zgartirib yubordi. Bulutli texnologiyalar, 5G va internet, milliardlarni qamrab olgan ijtimoiy tarmoqlar, medianing aql bovar qilmas taraqqiyoti... Bu mislsiz kashfiyotlarni yana davom ettirish mumkin. Shubhasiz, butun dunyo miqyosida shov-shuv ko'tarishga ulgurgan sun’iy intellekt va u bilan bog'liq holda qalqib chiqqan mutlaqo yangi yo'nalishlar bu texnologik yangiliklarning eng cho'qqisi bo'ldi.[1] Shuning uchun ta’lim tizimida o‘qituvchilarni raqamli texnologiya va suniy intellektdan foydalanishga o‘rgatishimiz lozim.

Ushbu masalani hal qilishda dastlab o‘qituvchilarni tayyorlash lozim. Bunda zamonaviy o‘qituvchining raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmasi muhim hisoblanadi. Bu nafaqat texnik bilimlarni, balki ushbu vositalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish mahoratini ham o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonning „2030-yilgacha bo‘lgan rivojlanish strategiyasi’’ da ta’limda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ko‘zda tutilgan. Elektron jurnal, masofaviy ta’lim platformalari va onlayn baholash tizimlari raqamli ta’limning bir qismi hisoblanadi. Respublikamizda o‘qituvchilarni texnologik savodxonlikka o‘rgatish maqsadida maxsus markazlar tashkil etilgan. Bu markazlarda o‘qituvchilar raqamli vositalar va SI texnologiyalari bilan ishlashni o‘rganadilar【10】.

Hozirda aksariyat insonlarda „sun’iy intellekt nima?” savolini uchratishimiz mumkin. Sun’iy intellekt (AI) - kompyuter fanining bo'limi bo'lib, u insonning fikrlash va xatti-harakatlarini taqlid qiluvchi „aqlli’’ qurilmalarni yaratish nazariyasi va amaliyotiga qaratilgan. Sun’iy intellekt yordamida darslarni shaxsiylashtirish va o‘qituvchilarning ish yukini kamaytirish mumkin. Bu o‘qituvchilarga yanada strategik vazifalarga e’tibor qaratish imkonini beradi.Ta’limga sun’iy intellekt usullarini joriy etish o‘qish va o‘qitish, o‘quvchilar va o‘qituvchilarni baholash va tayyorlash va boshqa bir qator ta’lim jarayonlariga sezilarli foyda keltirdi.[1] Ya’ni raqamli vositalar yordamida ta’limni moslashuvchan, interaktiv va qiziqarli qilish imkoniyati ortdi.

O‘quvchilar darslarda axborot-texnik vositalarga e’tibori kuchliroq bo‘la boshladi. Ushbu holatga tavsiyamni keltiradigan bo‘lsam, o‘qituvchilarni zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga o‘rgatishda „Raqamli texnologiyani biluvchi kadrlar tayyorlash strategiyasi’’ ni tuzib olish lozim. Bunda quyidagicha ish olib boriladi:

1.Professional treninglar va kurslar tashkil etish lozim: o‘qituvchilarni raqamli texnologiyalar va SI imkoniyatlari bilan tanishtiruvchi dasturlar ishlab chiqiladi. Bu treninglarda raqamli vositalardan foydalanish, SI yordamida ma’umotlarni tahlil qilish va talabalarning faoliyatini monitoring qilish usullari o‘rgatiladi.

2. Praktik amaliyot: Raqamli laboratoriyalar yoki onlayn platformalar yordamida o‘qituvchilarni texnologiyalarni amalda qo‘llashga o‘rgatish.

3. Mentorlik dasturlari: Malakali mutaxassislarning o‘qituvchilar bilan ishlashini yo‘lga qo‘yish, bu esa yangi vositalarni tezroq o‘zlashtirishga yordam beradi【10】.

Ushbu ishlarni ta’lim tizimida amalga oshirishda ba’zi qiyinchiliklar uchrashi mumkin. Misol uchun, qishloq hududlarida texnologiyalarning mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyati cheklangan bo‘lishi mumkin. Shuningdek, texnologiyalardan foydalanishda dastlabki qo‘rquv yoki tayyor emaslik holatlari ham uchraydi.

Ta’lim tizimiga eng sezilarli ta’sir o‘tkazayotgan tizim bu ChatGPT desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki ko‘pchilik o‘quvchi, talabalar ushbu tizimdan juda ko‘p foydalanmoqda. Misol uchun, ChatGPT erasida insondan qolishmaydigan darajada mukammal ilmiy matn yoza oladigan kompyuter tizimlarining maydonga chiqishi va qisqa vaqt ichida millionlab talabalar, tadqiqotchilar orasida ommalashishi dunyo ta’lim tizimida akademik halollik tushunchasiga tahdid qilmoqda. Bu texnologiyalar insonning ijod va yaratuvchilik jarayonini radikal ravishda o’zgartirib yubordi. Ammo buni xavf emas, balki cheksiz imkoniyat deb qabul qiluvchi sun’iy intellekt tarafdorlari hozircha ko'pchilikni tashkil etmoqda [3].

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda rivojlanayotgan sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalarning ijobiy jihatlari ko‘p. Rivojlanayotgan sohalarda bu kabi raqamli texnologiyalar ishlash shu sohaning rivojlanish jarayonini tezlashtiradi. Ishimizni tezroq qilishimda ko‘maklashadi. Ta’lim tizimida esa zamonaviy kompyuterlar, Hemis platformalarining kirib kelishi talabalar uchun ko‘proq ma’lumotlarga ega bo‘lishini ta’minlab bermoqda. Undan har bir o‘qituvchi kerakli vaqtda to‘g‘ri foydalana olishi ta’lim tizimida raqamli texnologiyaning rivojiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. TA’LIM TIZIMLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKTNI JORIY QILISH Nazokat Abduqayum qizi Nishonboyeva maqolasi
2. Qurbonov B. A., Xusenov Sh. Sh. “Raqamli texnologiyalar va ta’limdagi sun’iy intellekt”. Zenodo, 2024【10】.
3. Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. “Ta’lim tizimida raqamli transformatsiya”, 2023【11】.
4. Zamonaviy ta’lim yondashuvlari haqida xalqaro tadqiqotlar, 2024【9】.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI IJTIMOIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Xamidova Barno Maxmudovna
JDPU Pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi asoslangan hamda bo‘lajak o‘qituvchilarda innovatsion kompetentlikni shakllantirishning samarali shakl, metodlaridan foydalanish imkoniyatlari va usullari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim berishning innovatsion shakllari: to‘garak, ekskursiya, kombinatsion dars, Dars-konferensiya.

